# SHARQSHUNOSLIK
# ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
# ORIENTAL STUDIES

3
2026
ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096

ISSN 2181 – 8096

# SHARQSHUNOSLIK
# ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
# ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES

**№ 3, 2026**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro‘yxatidan qayta o‘tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – **ISSN 2181 – 8096**

**Bosh muharrir** – **Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna**
*filologiya fanlari nomzodi, professor*

**Tahrir hay’ati**

| | |
|---|---|
| **D. Sayfullayev** | *tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)* |
| **D. Muxiddinova** | *filologiya fanlari doktori (mas’ul kotib)* |
| **A. Mannonov** | *filologiya fanlari doktori, professor* |
| **R. Xodjayeva** | *filologiya fanlari doktori, professor* |
| **Sh. Shomusarov** | *filologiya fanlari doktori, professor* |
| **Q. Omonov** | *filologiya fanlari doktori, professor* |
| **U. Muxibova** | *filologiya fanlari doktori, professor* |
| **X. Xamidov** | *filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)* |
| **B. Abduhalimov** | *tarix fanlari doktori, professor* |
| **A. Xodjayev** | *tarix fanlari doktori, professor* |
| **M. Is’hoqov** | *tarix fanlari doktori, professor* |
| **A. Doniyorov** | *tarix fanlari doktori, professor* |
| **I.Xaydarov** | *tarix fanlari nomzodi, dotsent* |
| **X. Fayziyev** | *tarix fanlari nomzodi, dotsent* |
| **N.Karimov** | *tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)* |
| **D.Xodjimuratova** | *tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)* |
| **Sh. Yovqochev** | *siyosiy fanlar doktori, professor* |
| **N.Abdullayev** | *siyosiy fanlar doktori, dotsent* |
| **A. Vahobov** | *iqtisod fanlari doktori, professor* |
| **R. Abdullayev** | *iqtisod fanlari doktori, professor* |
| **I. Mavlanov** | *iqtisod fanlari doktori, professor* |
| **R. Bahodirov** | *falsafa fanlari doktori, professor* |
| **E. Izzetova** | *falsafa fanlari doktori, professor* |
| **G. Glizon** | *AQSHning New Mexico universiteti professori* |
| **A. Shonazarova** | *AQSHning Kolumbiya universiteti professori* |
| **Ono Masaki** | *Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori* |
| **Li Dji In** | *Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori* |
| **V. Mesamed** | *Isroilning Quddus universiteti professori* |
| **A. Gurer** | *Turkiyaning Anqara universiteti professori* |
| **A. Vorobyov** | *Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi* |
| **G. Avda** | *Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori* |
| **A. Tohir** | *Misr Arab Respublikasining “Al-Hivar” siyosiy tadqiqotlar markazi direktori* |
| **H. Baydemir** | *Turkiyaning Otaturk universiteti professori* |

**Nashrga tayyorlovchilar:**
***J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, D. Sodiqova***

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz
web-site: www.tsuos.uz

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2026

# MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

## ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE

***R.Tursunov*** Mavlono Lutfiy va Alisher Navoiyning Fuzuliy ijodiga ta'siri ..... 5
***F.Djurayeva*** Ilk arab nasrida risola : xitobadan yozma muloqotga o'tish va istilohiy tafovutlar masalalari ..... 19
***E'.Saidkarimova*** Jazoir adabiyotida adiba Ahlam Mustag'onmiyning o'rni ..... 29

## TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND TRANSLATION STUDIES

***X.Alimova*** Dariy tilida ko'chirma gapli tuzilmalar ..... 39
***N.Xalmurzayeva*** Yapon favqulodda xabarlarida ogohlantiruvchi direktiv strategiyalar ..... 55
***A.Vahidov*** Ilk Xuroson va Movarounnahr tasavvuf maktablari asarlarida sohaviy metatil rivoji ..... 69
***G.Nazrullayeva*** Audiovizual tarjimaning zamonaviy yo'nalishlari ..... 76
***U.Berdiyev*** Xitoy lingvomadaniyatida "inson-人" tushunchasining axloqiy, ijtimoiy va ma'naviy fazilatlari ..... 85
***A.Karimov*** Dariy tili savdo-sotiq leksikasida mulk va kapital mikromaydoni ..... 96
***D.Saidoripova*** Eron olimlarining tadqiqotlarida allomorf haqidagi nazariy qarashlar ..... 109
***K.Egamova*** Yapon tilidagi aspektual ko'makchi fe'llar tizimi va しまう ko'makchi fe'lining semantik xususiyatlari ..... 121
***D.Sodiqova*** Zulfiya she'riyatida «Bahor» va «Xotira» konseptlarining lingvopoetik eksplikatsiyasi («Bahor keldi seni so'roqlab» she'ri misolida) ..... 130
***N.Tohirov*** Yevropa tilshunosligida fonologik reduplikatsiya hodisasiga doir qarashlar ..... 138

## MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

***O.Mahmudov*** A typology of renaissance phenomena and the scientific periodization of the first renaissance ..... 167
***F.Mahmadrajabov*** Adabiy va tarixiy manbalarda Badri Chochiy hayotiga oid ma'lumotlar ..... 193
***A.Shosaidov*** Vaqf hujjatlari sulolalar shajarasini o'rganishda muhim tarixiy manba sifatida ..... 205

***Су Синг*** Правовой порядок шёлкового пути в эпоху Тан: юрисдикция, плюрализм и мобильность ..... 215
***A.Tag'bayev*** B.X.Karmisheva asarlarida o'zbek urug'-qabilalari etnonimi masalasi ..... 229

## XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

***A.Yuldashev*** Markaziy Osiyodagi xalqaro munosabatlarni tahlil qilishda nazariy-metodologik yondashuvlarning ahamiyati va zarurati ..... 239
***M.Saliyeva*** Turkiya davlat boshqaruvida zamonaviy siyosiy kommunikatsiya istiqbollari ... 250
***A.Кадыров*** Институциональная зрелость узбекско-саудовского партнёрства: критерии и механизмы оценки ..... 263
***D.Muydinov*** Shimoliy Afrika va Yevropa ittifoqi o'rtasida migratsiya inqirozi (Sueta inqirozi misolida) ..... 281
***Sh.I.Shazamanov F.R.Ravshanov*** Jahon tartiboti va global nizolar ..... 294
***B. Soipov*** Global raqobat sharoitida O'zbekistonning geosiyosiy tashabbuslari va mintaqaviy integratsiya dinamikasi ..... 303
***Y.Kushanova*** Markaziy Osiyoda fransuz tili va ta'limining o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlashdagi ahamiyati ..... 312
***H.Toshmurodov*** Milliy identitet tushunchasining konseptual va metodologik asoslari ..... 323
***M.Otamurodov.*** China's policy in Afghanistan under the Taliban 2.0 government: a combination of pragmatism and economic interests ..... 328
***A.Вохидов*** Роль уйгурских политических образований в торгово-дипломатических связях Китая и Центральной Азии в трудах А.К. Камалова ..... 341
***M.Samiyeva*** Hindiston diasporasining ta'lim va intellektual salohiyati ..... 350

# ADABIYOTSHUNOSLIK // ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERARY STUDY

## MAVLONO LUTFIY VA ALISHER NAVOIYNING FUZULIY IJODIGA TA'SIRI MASALASI

***RUSTAM TURSUNOV***
*Mustaqil tadqiqotchi, TDSHU*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy yaratgan Hirotdagi adabiy muhit qanday qilib Ozarbayjon adabiy muhitiga kirib borganligi, Lutfiy, Navoiy istifoda etgan so'zlar, qofiyalar, radiflar va obrazlardan Fuzuliy o'zining qaysi g'azallarida foydalanib, yangi mazmun yuklashga intilganligi bayon qilingan. Jumladan, tadqiqotda Mavlono Lutfiyning "Sening" radifli, Alisher Navoiyning "Besh emas" radifli g'azaliga Fuzuliy tomonidan bog'langan taxmis va tatabbu'da an'anaviylikdan originallikka erishilgani qiyosiy tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, adabiy ta'sir, Vadud Mahmud, Kishvariy, Habibiy, devon, g'azal, taxmis, tatabbu', sening, besh emas, adabiy fardiyat.*

***Аннотатсия:*** *В данной стате исследуется, каким образом литературная среда Герата, сформированная Мавлоно Лутфием и Алишером Навои, проникла в азербайджанскую литературную традисию. Анализируется, в каких газелях Мухаммад Фузули исползовал слова, рифми, радифи и образи, заимствованние у Лутфий и Навои, стремяс наполнит их новим смисловим и эстетическим содержанием. В частности, в работе на основе сравнителного анализа показано, как Фузули достиг оригиналности в рамках традисии в своих тахмисах и татаббу, созданних на газели Мавлоно Лутфия с радифом «Сенинг» и Алишера Навои с радифом «Беш эмас».*

***Ключевие слова:*** *Мавлоно Лутфий, Алишер Навои, Мухаммад Фузули, литературное влияние, Вадуд Махмуд, Кишвари, Хабиби, диван, газел, тахмис, татаббу, сенинг, беш эмас, литературная индивидуальность.*

***Abstract:*** *This article explores how the literary milieu of Herat, shaped by Mawlana Lutfī and Alisher Navai, was transmitted into the Azerbaijani literary environment. It examines which words, rhymes, radifs, and poetic images employed by Lutfī and Navai were adopted by Muhammad Fuzuli in his ghazals and how he sought to endow them with new semantic layers. In particular, the study offers a comparative analysis of Fuzuli's takhmis and tatabbuʿ composed on Mawlana Lutfi's ghazal with the radif "Sening" and Alisher Navai's ghazal with the radif "Besh emas", demonstrating how originality was achieved within the framework of tradition.*

***Keywords:*** *Mawlana Lutfi, Alisher Navai, Muhammad Fuzuli, literary influence, Vadud Mahmud, Kishvari, Habibi, diwan, ghazal, takhmis, tatabbuʿ, sening, besh emas, literary individuality.*

**Kirish.** Adabiy ta’sir – bu turli adabiy asarlarning bir-biriga ta’siri, ijodkorlar o‘rtasidagi bog‘liqlik va adabiy merosning keyingi avlodlarga yetib borish jarayonidir. Bu jarayon adabiyot taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi va har bir davr adabiyoti oldingi davrlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan holda shakllanadi.

Mashhur turk adabiyotshunosi va davlat arbobi Fuad Ko‘pruluzoda adabiy ta’sir masalasini turkiy xalqlar adabiyotining rivojlanishida muhim omil sifatida ko‘rsatib, “Har bir milliy adabiyot boshqa adabiyotlar bilan o‘zaro ta’sir orqali shakllanadi va yetuklikka erishadi” [1], deb qayd etgan bo‘lsa, amerikalik adabiyotshunos Harold Bloom har bir ijodkor oldingi buyuk adiblar ta’siridan chiqishga harakat qiladi hamda shu jarayonda yangilik yaratadi, deb hisoblaydi va quyidagicha yozadi: “Haqiqiy ijodkorlik oldingi ijodkorlar bilan kurashishdan iborat”[2].

“Sharq adabiyoti tarixining ko‘p asrlik taraqqiyoti davomida adabiy an’ana muhim o‘rin egallaydi. Shoirlar salaflari ijodiy merosiga murojaat qilar ekanlar, avvalo, o‘z estetik qarashlariga mos, ko‘ngillariga yaqin, dunyoqarashlariga nisbatan uyg‘un keladigan asarlarni maqbul ko‘rganlar. Yana bir tomoni, o‘rta asrlar estetikasi me’yoriy xarakterda bo‘lib, mavzular ko‘lami hamda janrlar tabiati avvaldan belgilangan qoidalar asosida voqe bo‘lgan va bu holat o‘sha davr kishilarining mental dunyoqarashi bilan izohlanadi. Biroq bu Sharq adabiyoti namunalari originallikdan xoli, adabiy an’analar doirasida qolib ketgan degan mulohazaga sabab bo‘lmasligi kerak. Chunki har bir shoir ko‘hna mavzuga murojaat etar ekan, uni ma’lum darajada bo‘lsa ham zamonasi bilan bog‘lashga harakat qiladi. Bundan tashqari, shoir mavzuni estetik didi, adabiy muhitning yetakchi tendensiyalaridan kelib chiqib yoritishga urinadi hamda muayyan bir g‘oyani ilgari suradi”[3].

**Asosiy qism.**

Muhammad Fuzuliy benazir ijodi bilan o‘zidan keyingi turkiy adabiyot vakillari, shuningdek, o‘zbek mumtoz she’riyati namoyandalariga katta ta’sir ko‘rsatganining “sir”i – uning o‘zigacha bo‘lgan so‘z daholari: Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy, Nasimiy, Lutfiy, xususan, Alisher Navoiy adabiy merosini chuqur bilganligi, asrlar silsilasida kelayotgan adabiy an’analarga noyob iste’dodi bilan sayqal berib, o‘ziga xos tarzda davom ettirganligidadir.

[1] Ko‘pruluzoda F. Turk edebiyatında ilk mutasavvıflar. – Istanbul: Istanbul Üniversitesi Yayınları, 1931.
[2] Bloom H. The Anxiety of Influence: A Theory of Poetry. – Oxford: Oxford University Press, 1973.
[3] A. Eshonboboyev. Navoiy va adabiy ta’sir // https://kh-davron.uz/

Turkiygo‘y shoirlar orasida Navoiy ta’biri bilan aytganda, o‘z davrining “Malik ul-kalom”i – So‘z podshosi bo‘lgan **Mavlono Lutfiy**ning benazir o‘rni bo‘lib, uning maftunkor she’riyati nafaqat poytaxti Hirot bo‘lgan Xurosonda, balki barcha turkiy mamlakatlarda ma’lum-u mashhur bo‘lgan.

Albatta, bu bahramandlik baxtidan Fuzuliy ham benasib qolmagan. Zero, Lutfiy va Fuzuliy devonlarini diqqat bilan varaqlagan ziyrak o‘quvchi borki, xalafning salafdan ta’sirlanish holatini darrov payqaydi.

Masalan, Lutfiyning:

*Ey, ko‘ngul, baxti qaro zulfi parishoning uchun,*

*Jonim oromsizdir ul nargisi fattoning uchun*[1], degan baytiga Fuzuliy:

*Oh ayladigim sarvi xiromoning uchundur,*

*Qon og‘ladig‘im g‘unchai xandoning uchundur*[2], deya ergashsa,

Lutfiyning yana bir:

*Xalqa-xalqa zulfikim ul mohi tobonindadur,*

*Ching‘a boqsam doldek xurshidning yonindadur* [3], degan bayti ta’sirida Fuzuliy:

*Oshiyoni murg‘i dil zulfi parishoningdadur,*

*Qonda o‘lsam, ey pari, ko‘nglim saning yoningdadur* [4], deb yozganligi fikrimizni dalillaydi.

Atoqli fuzuliyshunos Hasanxo‘ja Muhammadxo‘jayevning “Fuzuliy va o‘zbek adabiyoti” nomli dissertatsiyasi avtoreferatida Fuzuliyning o‘zidan oldin o‘tgan ustoz ijodkorlardan Habibiy va Lutfiy g‘azallariga bog‘lagan muxammasi haqida ma’lumot berilgan[5].

Mazkur muxammas Fuzuliyning o‘zbek tilida chop etilgan biror devonida uchramaydi. Ozarbayjon olimlari yordami bilan topilgan muxammasning to‘liq variantini keltiramiz:

*Candadır sübhi-əzəldən mehri-rüxsarın sənin,*
*Nola ta şami-əbəd olsam tələbkarın sənin,*
*İmdi cana bulmamış min aşiqi-zarın sənin.*
*“Ey əzəldən ta əbəd könlüm giriftarın sənin,*
*Çarə qıl kim, buläu canım əsrü qəmxarın sənin!”*
*Tutdular təşxisi-dərd içün müaliclər rəgim,*
*Tapdı bu sihhət ki, sihhətdən yəqinäir ölməgim,*
*Çün yəqin oläu dəvasız dərdilən can verməgim,*

[1] Лутфий. Девон. – Т.: Ғ. Ғулом, 2012. – Б. 196.
[2] Фузулий Муҳаммад. Қалб гавҳари. – Т.: Ҳилол-нашр, 2014. – Б. 96.
[3] Лутфий. Девон. – Т.: Ғ. Ғулом, 2012. – Б. 110.
[4] Фузулий Муҳаммад. Қалб гавҳари. – Т.: Ҳилол-нашр, 2014. – Б. 107.
[5] Муҳаммадхўжаев Ҳ. Фузулий ва ўзбек адабиёти: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Т., 1972. – Б. 8.

*“Can verir çağında, Tanrıçün, qaşımğa gəl bəgim,*
*Bari görmüş bulğa min bir ləhzə didarın sənin.”*
*Xublarını imtəhan qılmaqda çox çəkdim cəfa,*
*Naleyi-zarilə bildim dərdi-dil bulmaz şəfa.*
*Mən sınadım, şimäi sən pəndim eşit, qıl iktifa,*
*“Çünki xublar məzhəbində yox imiş rəsmi-vəfa,*
*Ey könül, nə yerə yetkay naleyi-zarın sənin?”*
*Könlüm aldı ol iki əyyari-çeşmi-pürxumar,*
*Şimäi can qəsdin həm etmişlər nə məkrilən ki, var,*
*Ürf içində olsa hər əyyar qövli üstüvar,*
*“Şər’ilən gər tutsalar əsrük sözinə e’tibar,*
*Qanıma vergay dunuqluq iki əyyarın sənin.”*
*Sanma cövr etsən Füzuli incinib tərkin qılə,*
*Gər cəfa qıl, gər vəfa canim fəda sən qatilə,*
*Mən xud öldüm, imdi sən tiği-cəfa alıb ələ,*
*“Lütfini öldürsən, ey äilbər, cəfa tiği bilə,*
*Anda həm bolğay mənim ruhim mədədkarın sənin.”* [1]

Ozar tilida yozilgan ushbu matn bizga yanada tushunarli bo‘lishi uchun uni o‘zbek tiliga quyidagicha tabdil qilishni lozim topdik:

*Jondadur subhi azaldan mehri ruxsoring sening,*
*No‘la to shomi abad o‘lsam talabgoring sening,*
*Emdi jona topmamish ming oshiqi zoring sening,*
*“Ey azaldan to abad ko‘nglim giriftoring sening,*
*Chora qilkim, bo‘ldi jonim asru g‘amxoring sening”.*

*Tutdilar tashxisi dard uchun muolijlar ragim,*
*Topdi bu sihhatki, sihhatdin yaqindur o‘lmagim,*
*Chun yaqin o‘ldi davosiz dard ilan jon bermagim,*
*“Jon berar chog‘inda, Tangri chun, qoshimg‘a kel, begim,*
*Bari ko‘rmish bulg‘a ming bir lahza diydoring sening”.*

*Xo‘blarini imtihon qilmakda cho‘x chekdim jafo,*
*Nolai zor ila bildim dardi dil topmas shifo,*
*Men sinadim, shimdi sen pandim eshit, qil iqtifo,*
*“Chunki xo‘blar mazhabinda yo‘q emish rasmi vafo,*
*Ey ko‘ngil, ne yera yetgay nolai zoring sening?”.*

*Ko‘nglim oldi ul iki ayyori chashmi purxumor,*
*Shimdi jon qasdin ham etmishlar ne makr ilanki, bor,*

[1] Фузулий Муҳаммад . Асарлар. 6 жилд. 1 жилд. – Боку: Шарқ-Ғарб, 2005. – Б. 345.

*Urf ichinda o‘lsa har ayyor qavli ustuvor,*
*“Shar’ ilan gar tutsalar usruk so‘zina e’tibor,*
*Qonima bergay tonuqluq ikki ayyoring sening”.*

*Sonma javr etsang Fuzuliy injinib tarkin qila,*
*Gar jafo qil, gar vafo, jonim fido sen qotila,*
*Men xud o‘ldim, emdi sen tig‘i jafo olib ala,*
*“Lutfi(y)ni o‘ldirsang, ey, dilbar, jafo tig‘i bila,*
*Anda ham bo‘lg‘ay manim ruhim madadkoring sening”.*

Lutfiy qalamiga mansub asos g‘azal 5 baytdan iborat bo‘lib, u Ramali musammani mahzuf (foilotun-foilotun-foilotun-foilun) vaznida yozilgan. Fuzuliy mazkur g‘azalning biror baytini tushirib qoldirmay, unga to‘liq taxmis bog‘laganidan xulosa qilish mumkinki, Lutfiy g‘azali unga juda manzur bo‘lgan.

Demak, birinchi bandga murojaat qilamiz:

*Jondadur subhi azaldan mehri ruxsoring sening,*
*No‘la to shomi abad o‘lsam talabgoring sening,*
*Emdi jona topmamish ming oshiqi zoring sening,*
*“Ey azaldan to abad ko‘nglim giriftoring sening,*
*Chora qilkim, bo‘ldi jonim asru g‘amxoring sening”.*

Asos g‘azal matla’siga e’tibor bersak, unda lirik qahramon – oshiq o‘z ko‘nglini ma’shuqqa “azaldan to abad” – yerda hayot boshlangandan cheksizlik qadar “giriftor” – mubtalo bo‘lganini va shu bois uning joni “asru g‘amxor” – juda g‘am chekkani uchun bir chora qilishini iltijo qiladi.

Fuzuliy lirik qahramoni esa yuqorida qo‘llangan “azal” va “abad” so‘zlariga yanada jilo berib, “subhi azal” – azal tongi va “shomi abad” – adabiyat shomi degan forsiy izofalarni ustalik bilan qo‘llab yorga shunday dil izhor qiladi:

“Mening jonimda azal tongidan beri sening “mehri ruxsoring” – yuzing quyoshi ishqi jo bo‘lgan bo‘lsa, abadiyat shomi qadar sening talabgoring bo‘lsam, “no‘la” – nima bo‘libdi?! Endi ming oshiqi zoring qatori men ham sendek “jona(o)” – jononni topa olmayman...”.

Ushbu bandda har ikki shoir “azal”, “abad” va “subhi azal”, “shomi abad” orqali **tazod** san’atidan, “subhi azal” va “mehri ruxsor”, “ko‘nglim” va “jonim” so‘zlari yordamida **tanosub** san’atidan foydalangan.

Ikkinchi band:

*Tutdilar tashxisi dard uchun muolijlar ragim,*
*Topdi bu sihhatki, sihhatdin yaqindur o‘lmagim,*
*Chun yaqin o‘ldi davosiz dard ilan jon bermagim,*
*“Jon berar chog‘inda, Tangri chun, qoshimg‘a kel, begim,*
*Bari ko‘rmish bulg‘a ming bir lahza diydoring sening”.*

Fuzuliyga tegishli ikkinchi bandning dastlabki uch misrasi asos g‘azal ikkinchi bayti ruhidan kelib chiqib, bedavo oshiqlik dardi va tabib munosabatlariga bag‘ishlanadi. Ya’ni, kundan-kun so‘lib borayotgan oshiq holatini bilish uchun “muolij”lar – tabiblar tashxis qo‘yish uchun uning tomiridan ushlab ko‘rishadi va yaqin orada o‘lishini xulosa qilishadi. Chunki oshiq davosiz dard – ishq dardiga mubtalo bo‘lgan. Shu o‘rinda, Lutfiy o‘lim yoqasidagi oshiq nomidan yorga shunday murojaat qiladi:

*Jon berar chog‘inda, Tangri chun, qoshimg‘a kel, begim,*
*Bari ko‘rmish bulg‘a ming bir lahza diydoring sening.*

Mazkur bayt ikkinchi misrasidagi “Bari ko‘rmish bulg‘a ming” degan so‘zlar ma’nosi g‘aliz chiqqani uchun g‘azal asliyati bilan taqqoslash maqsadida Lutfiy devoniga murojaat qildik. Va devonda yuqoridagi misra biz kutgan ma’noga yaqinligini aniqladik:

*“... Bore ko‘rmish bo‘lg‘amen bir lahza diydoring sening...”*[1].

Ba’zan devonlarda shunday holatlar yo kotiblar, yo nashriyot mutasaddilari aybi bilan uchrab turadi.

Umuman olganda, yuqoridagi ikki satrni qo‘shib sharhlansa, quyidagi ma’no kelib chiqadi:

“Ey, begim – suyukli yorim, jon berar chog‘imda, Xudo haqqi, qoshimga kelgin, zora shunda menga o‘limim oldidan bir bor diydoringni ko‘rish nasib qilsa...”.

Bu bandda “tashxis”, “dard”, “rag”, “davosiz*”* so‘zlari orqali **tanosub** san’ati qo‘llanilgan.

Uchinchi band:

*Xo‘blarini imtihon qilmakda cho‘x chekdim jafo,*
*Nolai zor ila bildim dardi dil topmas shifo,*
*Men sinadim, shimdi sen pandim eshit, qil iqtifo,*
*“Chunki xo‘blar mazhabinda yo‘q emish rasmi vafo,*
*Ey ko‘ngil, ne yera yetgay nolai zoring sening?”.*

Vafo-sadoqat har bir zamonda noyob fazilat bo‘lgan. Xususan, Lutfiy va Fuzuliy zamonida ham. Mushtarak lirik qahramonlar “xo‘blar” – hatto yaxshi insonlarni imtihon qilishda “cho‘x” – ko‘p jafo chekkanlarini, ana shu og‘ir vaziyatlarda nola qilish bilan dardga shifo topilmasligini ta’kidlab, o‘z ko‘ngillariga shunday murojaat qiladilar: “Ey, ko‘ngil, men ko‘p insonlarni sinadim, bas, sen “iqtifo” – ergashib, amal qilishing lozim bo‘lgan pandim shuki, “xo‘blar” – yaxshilar “mazhabi” – hayot tutumida ham “rasmi vafo” – vafo qilish odati yo‘q, ya’ni yaxshilardaki, sadoqat tuyg‘usi yo‘q ekan, bu nolalaring qayergacha ham yetib borar edi?!”.

[1] Лутфий. Девон. – Т.: Ғ. Ғулом, 2012. – Б. 152.

Bandning “nimkosa”sida odamlarni toifaga bo‘lish borasida dohiyona saboq berilgan: bugun biz “xo‘blar” – “yaxshilar” deb baho bergan odamlarimiz buyuklar nazdida o‘rtamiyona odamlar bo‘lib, ularda vafo qilish odati bo‘lmaydi. Ya’ni vafodor odamlar shunchaki “yaxshi” – o‘rtamiyona odamlar emas, balki ular insonlarning a’losidir, degan yashirin ma’nolar mujassam.

Mazkur bandda “imtihon” va “ sinash” so‘zlari orqali **tanosub**, “jafo” va “vafo” so‘zlari orqali **tazod**, *“Ey, ko‘ngil”* degan murojaat orqali **nido** san’ati hosil qilingan.

To‘rtinchi band:

*Ko‘nglim oldi ul iki ayyori chashmi purxumor,*
*Shimdi jon qasdin ham etmishlar ne makr ilanki, bor,*
*Urf ichinda o‘lsa har ayyor qavli ustuvor,*
*“Shar’ ilan gar tutsalar usruk so‘zina e’tibor,*
*Qonima bergay tonuqluq ikki ayyoring sening”.*

Mumtoz g‘azaliyotimizda janonning ko‘zlari aksar hollarda “ayyor”, “makkor”, “fatton” – fitna qiluvchi, “xumor”, “usruk” – mast degan sifatlar bilan ta’riflanadi. Bu an’ana yuqoridagi bandda ham davom ettirilib, yorning jodugar ko‘zlari Lutfiy va Fuzuliy nazdida shunday vasf qilinadi:

“Mening ko‘nglimni ma’shuqning “ul iki ayyori chashmi purxumor” – g‘oyat mast va ayyor ko‘zlari oldi. Ular nimaiki makr qilish hunari bo‘lsa, barini ishga solib “shimdi jon qasdin” – endi jonimga qasd qildilar. Agar menga o‘xshab achchiq bo‘lsa-da, rost gapiradigan emas, balki shirin bo‘lsa-da, yolg‘on gapiradiganlar – yor ko‘zlaridek ayyorlar “qavli ustuvor” – so‘zi ustun bo‘lishi urf bo‘lsa, aniqrog‘i, “shar’” – shariatda “usruk” – mast so‘zi e’tiborda bo‘lsa, unda mening qatlim payti to‘kilgan qonimga yorning “ikki ayyori” – ikki ko‘zi “tonuqlik” – guvohlik beradilar”.

Ushbu bandda “ayyor” va “makr”, “purxumor” va “usruk” so‘zlari orqali yana **tanosub** san’atidan foydalanilgan.

Oxirgi band:

*Sonma javr etsang Fuzuliy injinib tarkin qila,*
*Gar jafo qil, gar vafo, jonim fido sen qotila,*
*Men xud o‘ldim, emdi sen tig‘i jafo olib ala,*
*“Lutfi(y)ni o‘ldirsang, ey, dilbar, jafo tig‘i bila,*
*Anda ham bo‘lg‘ay manim ruhim madadkoring sening”.*

Bu so‘nggi bandda ikki buyuk shoir tilidan qanday sinovlar kelishidan qat’iy nazar oshiqning o‘z ahdida sobitqadamligi aks etgan bo‘lib, mahbubga quyidagicha iltijo qilinadi:

“Ey, dilbar, jabr qilsang, menkim Fuzuliy “injinib” – xafa bo‘lib senga nisbatan ishqi – e’tiqodini tark qiladi deb o‘ylama, xoh jafo qil, xoh vafo qil,

jonim sen qotilga fido bo‘ldi va men o‘ldim, endi “ala” – qo‘lingga jafo tig‘ini olib, Lutfiyni-da o‘ldirsang, shuni bilki, xalok bo‘lgan biz oshiqlarning bezavol ruhi ham senga madadkor bo‘lajak!”. Mana favqulodda sadoqat-u, mana fidoyilik!

Yuqoridagi bandda “javr”, “jafo tig‘i”, “qotil” va “o‘ldim” so‘zlari orqali **tanosub**, “jafo” va “vafo” so‘zlari orqali **tazod** san’ati qo‘llanilgan.

Ushbu taxmis bo‘yicha muxtasar xulosa – Fuzuliy Lutfiy g‘azalidagi har bir baytning qatidagi pinhon ma’nolarni ochiqlashga xizmat qiladigan va asos g‘azalda ilgari surilayotgan g‘oyalarga yanada ko‘rk beradigan purhikmat satrlarni bitgan.

Shu o‘rinda Lutfiy devonini varaqlab, yana bir qiziq ma’lumotga duch keldikki, unga alohida urg‘u bermasak bo‘lmaydi. Ya’ni Lutfiy o‘z asarlarida Fuzuliyning vatani hisoblangan Ozarbayjonning Aras daryosi va Qorabog‘ini tilga olgan ekan:

*Ko‘zum qorabog‘inda tushub xayli xayoling,*
*Bir lahza emas xoli yoshimning Arasindin*[1].

Umuman aytganda, shu kichik misol va yuqoridagi go‘zal taxmisdan ko‘rishimiz mumkinki, o‘zbek va ozar xalqlari orasidagi adabiy aloqalar borasida nafaqat Lutfiyning Fuzuliy bilan, balki boshqa ozar mumtoz shoirlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, kelgusida yirik tadqiqot manbalariga asos bo‘lishi mumkin.

Muhammad Fuzuliyning Mavlono Lutfiy ijodiga hurmati naqadar cheksiz bo‘lsa, **Alisher Navoiy** asarlariga muhabbati ham shu qadar yuksak bo‘lgan.

Bu borada ozarbayjonlik mashhur adabiyotshunos Hamid Arasli o‘zining “Navoiy va ozarbayjon adabiyoti” nomli kitobida shunday deydi: “Fuzuliy o‘z asarlarida Navoiy mahoratidan keng foydalangan. U Navoiyni Abu Nuvvos va Nizomiy bilan bir qatorga qo‘ygan. Fuzuliy Navoiyni eng buyuk so‘z san’atkorlaridan biri deb bilgan. U o‘zbek adabiyotidan yaxshigina xabardor bo‘lgan va Lutfiy g‘azallariga taqlid qilgan. Fuzuliy va Navoiy g‘azallari (ruhan) shu qadar yaqinki, bu, shubhasiz, Fuzuliyning ijodiy takomillashuvida Navoiyning katta ta’siri borligidan dalolatdir”[2].

Tarixdan ma’lumki, renessanslar mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy qudratiga ko‘ra, bir makondan ikkinchi makonga ko‘chib yurgan. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro hamkorligida Hirotda yaratilgan yuksak adabiy muhit atrofdagi forsiy, ayniqsa, turkiyzabon xalqlar orasida ham ovoza bo‘lib, yuzlab iste’dodlarni o‘ziga ohanraboday tortgan. Mazkur mavzuga oid yig‘ilgan materiallar orasida bir qiziq ma’lumot e’tiborimizni tortdi:

[1] Лутфий. Девон. – Т.: Ғ. Ғулом, 2012. – Б. 209. Ma’nosi: Qorabog‘da senga ko‘zim tushgandan beri bir lahza ham sening xayoling ko‘z yoshlarim orasida oqqan Aras daryosidan xoli emas. Ya’ni, sen haqingdagi xayollarim ko‘z yoshlarim orasida qolib ketdi. “Arasi” so‘zida ham “Aras” daryosi, ham “orasi” ma’nosini bergan so‘z o‘yini – tajnis san’ati mohirona qo‘llanilgan.

[2] Ҳ. Арасли. Навоий ва озарбайжон адабиёти // Ўзбек тили ва адабиёти, № 3, 1968. – Б. 44.

*“*... XV asrda o‘zbek madaniyati gullab yashnagan, buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy boshchilik qilgan adabiy maktabning shuhrati Yaqin Sharqqa keng yoyilgan davrda ozarbayjon shoirlarining bir guruhi Hirot shahriga ko‘chib kelgan edi. ... Ular o‘zlarining dilrabo asarlari bilan Husayn Boyqaro va Alisher Navoiylarning majlislarida bir necha bor tahsinga sazovor bo‘lgan edilar. ... XVI asrda Ismoil Safaviy davlati tashkil topgandan keyin, Hirotda yashagan bir qancha iste’dodli shoirlar o‘z vatanlariga qaytib ketadilar... Masalan, Hirotdan o‘z vataniga qaytgan so‘z ustalari Xulqiy, Ollohiy, Ziyoiy kabi shoirlar ijodda Navoiy an’analarini davom ettirib, ozarbayjon adabiyotiga ma’lum darajada o‘zbek adabiyotining ta’sirini singdirdilar. ... Bu davrda yetishgan yetuk shoirlardan Kishvariy Alisher Navoiy ta’siri ostida badiiy so‘zning ajoyib namunalarini yaratgan. ... U bir g‘azalida shunday deydi:

*Navoiy himmatingdan Kishvariy ahli nazar bo‘ldi,*
*Jahon mulkin tutar she’ri, nazar bo‘lsa Navoiyning”*[1].

Kishvariyning Navoiyga muhabbati haqidagi so‘zimizni ushbu iqtibos ham dallillaydi: “Ne’matulloh Kishvariy Alisher Navoiy ijodi ta’siri ostida badiiy so‘zning ajoyib namunalarini yaratdi. Kishvariyning “Asarlar” 20 devonidagi 264 ta g‘azal va “Turk” 21 devonidagi 37 ta g‘azalning matla’ baytlarini Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi 2600 g‘azal bilan o‘zaro qiyoslaganimizda, Kishvariyning Navoiy ijodidan ilhomlangan holda jami 56 ta nazira yozganligi ma’lum bo‘ldi”[2].

“... Navoiy maktabidan ta’lim olgan va uning an’analarini davom ettirgan shoir Kishvariy ijodi ozarbayjon she’riyatining rivojlanishiga anchagina ta’sir etdi. Sururiy, Shohiy, Motamiy, Qosimiy, Habibiy kabi shoirlar Kishvariy ijodidan ruhlanib katta yutuqlarga erishdilar. Bu shoirlardan biri, ozarbayjon adabiyotining atoqli namoyandasi Habibiy esa Fuzuliyning ustozidir.

Demak, Fuzuliy Habibiy va Kishvariylar singari Navoiy maktabining shogirdi va davomchisidir. Uning “Layli va Majnun” dostonida Navoiyni hurmat bilan tilga olishi bejiz emas:

*Turku arabu ajamda ayyom,*
*Har shoira vermishidi bir kom...*
*O‘lmish edi Navoiy suxandon*
*Manzuri shahanshohi Xuroson”* [3].

[1] Х. Расул. Фузулий М. Асарлар. Икки жилдлик. Биринчи жилд. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. – Б. 7–8.

[2] Султонов. Т. И. Алишер Навоий ва Озарбайжон адабиёти: тарихий илдизлар, анъаналар, ворисийлик (Кишварий ва Содиқий асарлари мисолида): Филол. фан. номз. дисс … автореф. – Т., 2019.

[3] Х. Расул. Фузулий М. Асарлар. Икки жилдлик. Биринчи жилд. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. – Б. 7–8.

Xo‘sh, Navoiyni “Manzuri shahanshohi Xuroson” deb e’tirof etgan Fuzuliyning aynan qaysi g‘azallarida ruhiy ustodidan ta’sirlanganligi yaqqol ko‘rinadi? Mazkur savolga javob olish uchun dastavval Navoiy va Fuzuliy devonlari debochalariga murojaat qilamiz.

“Sharq adabiyotida debocha va uning poetkasi” mavzusini tadqiq qilgan olima F.Karimovaning ilmiy izlanishlariga ko‘ra, “Alisher Navoiyning muhibi bo‘lgan Fuzuliy shoirning devonchilik sohasidagi an’analaridan ilhomlanib, turkiy va forsiy devonlariga debocha yozdi. Xususan, shoirning turkiy devon debochasi nazm va nasrning uyg‘unligi, fikrni murakkab, zanjirli jumlalar bilan ifodalash, go‘zal she’riy san’atlar bilan ziynatlash kabi xususiyatlariga ko‘ra Navoiy debochalarini xotirga keltiradi”[1].

Ammo Fuzuliy debochanavislikda taqlid qilish barobarida o‘ziga xoslikni ham saqlab qoladi. Ya’ni “Navoiyda nuktadon olimlik ruhi ustunlik qilsa, Fuzuliy hamdida shoirona shukuh ustuvor”[2].

Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti o‘sha mashhur g‘azali:

*“Ashraqat min aksi shamsil-ka’si anvorul-xudo,*

*“Yor aksin mayda ko‘r” deb, jomdin chiqdi sado”* [3] bayti bilan boshlansa, Fuzuliyning devonidagi birinchi g‘azal:

*“Qad anor al-ishqa lil-ushshoqi minhoj al-xudo,*

*Soliki rohi haqiqat ishqa aylar iqtido”*[4] bayti bilan boshlanishida, shuningdek, yana bir g‘azali:

*“Ashriqat min falakil behjati shamsun va biho,*

*Malaal olama nuran va sururan va baho”*[5] matla’sida qo‘llanilgan arabiy so‘zlar, qofiyalarni ishlatishda Navoiyga ergashish kunday ravshan bo‘lib turibdi.

Alisher Navoiyning “Badoye’ ul-vasat” devonidagi hamd, ya’ni Allohning sifatlari tarannum etilgan ikkinchi g‘azali shunday boshlanadi:

*“Ne sun’ungdin ajab yuz ming jahon bo‘lmoq yana paydo,*

*Ne mulkingga xalal yuz ming jahondek bo‘lsa nopaydo”.* [6]

---

[1] Karimova F. Sharq adabiyotida debocha va uning poetikasi. Filol. fan. d-ri. diss. … diss. avtoref. – Farg‘ona, 2023. – B. 28.

[2] O‘sha asar. – B. 22.

[3] Навоий Алишер. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Биринчи жилд. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. – Т.: Ғафур Ғулом, 2011. – Б. 22.

[4] Ma’nosi: Ishq oshiqlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi, haqiqat yo‘liga kirganlar ishqqa ergashadilar.
Очилов. Э. Фузулий Муҳаммад. Қалб гавҳари. – Т.: Ҳилол-нашр, 2014. – Б. 23.

[5] Маъноси: Гўзаллик фалакидан порлоқлик ва қуёш чиқди, оламни гўзаллик, шодлик ва нур тўлдирди.
Х. Расул. Фузулий М. Асарлар. Икки жилдлик. Биринчи жилд. Девон. – Т.: Ғафур Ғулом, 1968. – Б. 31.

[6] Ma’nosi: Agar yana yuz ming jahon paydo qilmoqchi bo‘lsang ajab emas va agar yuz ming jahonni paydo qilmoqchi bo‘lmasang – mulkingga zarra ҳam ziyon yetmaydi.

Fuzuliy ham xuddi shu qofiya bilan quyidagi:

*“Zihi zoting nihonu ul nihondan mosivo paydo,*

*Bihori sun’unga amvoj paydo, qa’r nopaydo”*[1] – mabdali hamd g‘azalini bitgani shunchaki tasodif emas, deb o‘ylaymiz.

Mumtoz adabiyotda “sabo” – oshiq va ma’shuq o‘rtasida xabar yetkazuvchi vosita obrazida ko‘p va xo‘b qo‘llanilgan. Masalan, Navoiyning lirik qahramoni:

“*Ey nasimi subh, ahvolim diloromimg‘a ayt,*

*Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandomimg‘a ayt”*[2], deb yolvorsa, Fuzuliy lirik qahramoni:

*“Sabo, ag‘yordin pinhon g‘amim dildora izhor et,*

*Xabarsiz yorimi holi xarobimdin xabardor et”*[3], deya yuqorida zikr etilgan hamdardiga hamohang arzi hol qiladi.

Yoki Navoiyning yor yuzida silkinib turgan zulfni – suv bilan o‘ynab turgan hindubachaga o‘xshatib, tamsil san’ati usulida yozgan go‘zal g‘azali bor:

“*Zulfing ochilib orazi diljo‘ bila o‘ynar,*

*Xindubachae sho‘xdurur, suv bila o‘ynar”*[4].

azkur o‘ynoqi g‘azaldan ilhomlangan Fuzuliy:

“*Sabodan gul yuzingda sunbuli pur pechu tob o‘ynar,*

*Sonarsan par ochib, gulshanda bir mushkin g‘urob o‘ynar”* [5] baytida radif va obraz tanlashda Navoiyga g‘oyibona taqlid qilganini ziyrak o‘quvchi darhol anglaydi.

Ta’kidlash lozimki, Fuzuliy Navoiyga nainki so‘z, qofiya, radif tanlashda ergashgan, balki o‘zi g‘oyat sevib mutolaa qilgan g‘azallariga yetuk tatabbu’lar

---

Навоий Алишер. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Учинчи жилд. Хазойин ул-маоний. Бадоеъ ул-васат.

–Т.: Ғ. Ғулом, 2011. – Б. 7.

[1] Ma’nosi: Ofarin Sening zotinggaki, u aslida nihon va bu nihondan tashqarida hech narsa paydo emas, Yaratuvchanlik dengizingdan to‘lqinlar paydo bo‘ladi, lekin uning tubi mavjud emas.

Очилов. Э. Фузулий Муҳаммад. Қалб гавҳари. – Т.: Ҳилол-нашр, 2014. – Б. 42.

[2] Ma’nosi: Ey, tongning mayin shamoli, ahvolimni sochlari sunbulday, yuzlari gulday va qaddi sarvday go‘zal diloromimga yetkazgin.

Навоий Алишер. Бир пари пайкар ғами: (Ғазаллар, мустазод, қитъалар, рубоийлар, туюқлар, фардлар, “Маҳбуб ул-қулуб”дан, “Назм ул-жавоҳирдан, “Арбаъин”дан). – Т.: Шарқ, 2006. – Б. 36.

[3] Ma’nosi: Ey, mayin shamol, dushmandan yashirin bo‘lgan g‘amimni dildorimga yetkazgin, xarob holimdan xabarsiz yorimni xabardor qilgin.

Очилов. Э. Фузулий Муҳаммад. Қалб гавҳари. – Т.: Ҳилол-нашр, 2014. – Б. 62.

[4] Ma’nosi: Sochlaring yoyilganda dilga yoquvchi yuzing bilan o‘ynashadi – bu bamisoli (qop-qora) hind bolasining suv bilan sho‘xchan o‘ynashishiga o‘xshaydi.

Навоий Алишер. Бир пари пайкар ғами: (Ғазаллар, мустазод, қитъалар, рубоийлар, туюқлар, фардлар, “Маҳбуб ул-қулуб”дан, “Назм ул-жавоҳирдан, “Арбаъин”дан). – Т.: Шарқ, 2006. – Б. 82.

[5] Ma’nosi: Shamol esganda sening gulday yuzing bilan jingalak sochlaring o‘ynashadi – bu xuddiki, gulshanda qanotlarini yozib, qora qarg‘a uchganga o‘xshaydi.

Очилов. Э. Фузулий Муҳаммад. Қалб гавҳари. – Т.: Ҳилол-нашр, 2014. – Б. 95.

bog‘lab, badiiyat borasida Zahiriddin Muhammad Bobur aytmoqchi – “bahsi she’r”ga kirishgan.

Xo‘sh, mumtoz adabiyotga doxil shoir qachon boshqa shoirning asariga taxmis, nazira yo tatabbu’ bog‘laydi? Qachonki, asar maromiga yetgan bo‘lsa va o‘quvchi unga beixtiyor tan bersa.

Shu nuqtayi nazardan, navoiyxon o‘quvchi Fuzuliy devonini varaqlasa, Navoiy baytlariga ruhan, ma’nan va shaklan o‘xshash baytlarga duch kelishi tabiiy.

Xususan, Fuzuliyning **“Besh emas”** [1] radifli tatabbu’si Navoiyning aynan shunday radifli falsafiy, purma’no g‘azalidan ilhomlanib yozilgani fikrimizga dalil bo‘ladi.

Qayd etish joizki, Navoiyning mazkur g‘azali “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidan joy olgan bo‘lib, **9 bayt**dan iboratdir[2]. Fuzuliy tatabbu’si esa **7 bayt**dan[3] iborat bo‘lib, asos g‘azal singari Ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan.

Biz ushbu o‘rinda tatabbu’ni to‘liq, g‘azalning esa mabda’, maqta’ va mazmuniy kesishgan baytlarinigina qiyosiy tadqiq qilishni maqsad qildik.

Demak, Alisher Navoiy g‘azalni:

*Dahr sudidin tama’ uzkim, ziyone besh emas,*

*Umrni tutqil g‘animatkim, zamone besh emas, [4] deb boshlasa,*

Fuzuliy tatabbu’da:

*Dahr bir manzil, xaloyiq korboni besh emas,*

*So‘z g‘amu afsona, el afsonaxoni besh emas,* deb salafi fikrini o‘ziga xos uslubda ifoda etadi. Ya’ni dunyo bir manzilgoh bo‘lsa, xalqlar unda vaqtincha qo‘nim topadigan karvonlardir. Dunyo xalqlarining aytadigan so‘zi – g‘am va cho‘pchakdan, ishi esa ertakchilikdan boshqa narsa emas.

Navoiy o‘z baytida “sud” va “ziyon” so‘zlari orqali **tazod** san’atidan foydalangan bo‘lsa, Fuzuliy “afsona” hamda “afsonaxon” so‘zlari orqali **ishtiqoq** san’atini qo‘llagan.

Tatabbu’ning ikkinchi bayti:

*Tarki fikri dunyavu savdoyi uqbo aylakim,*

*Dunyavu uqbo xayoliyu gumoni besh emas.*

Ma’lumki, “savdo” so‘zining “qora”, “telbalik” va “bozorda savdolashish” ma’nolari bor. Mazkur baytda so‘zning uchinchi ma’nosiga ishora bor.

---

[1] Mazkur so‘zning biz o‘rganayotgan g‘azaldagi ma’nosi “ko‘p, ortiq, ziyoda”ni anglatadi. Qarang: “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. Birinchi jild. – T.: O‘zbekiston, 2020. – B. 245. Ammo ba’zi baytlar “ko‘p” ma’nosida emas, balki mazmun nuqtayi nazaridan kelib chiqib sharhlandi.

[2] Навоий Алишер. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Биринчи жилд. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. –Т.: Ғафур Ғулом, 2011. – Б. 244.

[3] Очилов. Э. Фузулий Муҳаммад. Қалб гавҳари. – Т.: Ҳилол-нашр, 2014. – Б. 141.

[4] Ma’nosi: Bu dunyo foydasidan tama’ni uz, chunki uning foydasidan ziyoni ko‘p, umrni g‘animat tutki, vaqting ko‘p emas.

Shuningdek, tatabbu’dagi “savdo” so‘zining kelib chiqish “sarchashmasi” Navoiy g‘azalining matla’siga borib taqaladi. Zero, “foyda” va “zarar” bor joyda, albatta, “savdo” ham bo‘ladi. Baytning ma’nosi shunday: “Bu dunyo lazzatlari bilan bog‘liq xayollaringni tark etib, oxirat haqida o‘ylaki, dunyo va oxiratni birlashtiraman degan xayoling uzoqqa olib bormaydi”.

Tatabbu’ning uchinchi bayti:

*Ahli hashmat kisvatin zarbaft edar bilmazkim, ul*
*Bog‘i jamiyat bahorina xazoni besh emas.*

Baytda izohtalab so‘zlar bor: “ahli hashmat” hashamat ahli – boylikka ruju qo‘yganlar; “kisvat” – to‘n; “zarbaft” – zar bilan ziynatlangan. Ana endi baytning to‘liq ma’nosi kelib chiqadi: “Boylikka ruju qo‘yganlar to‘nlarini zar bilan muzayyan qiladilar, lekin bilmaydilarki, bu zar – ular jamiyati bog‘ining bahoriga kelgan xazon (fasli)dir”.

Baytda “ahli hashmat”, “kisvat”, “zarbaft” hamda “bog‘”, “bahor”, “xazon” so‘zlari orqali **tanosub**, shu bilan birga, “bahor”, “xazon” so‘zlari orqali **tazod** san’ati qo‘llanilgan.

Aslida, ushbu baytga Navoiy g‘azalining:

*Eyki, bo‘lmish xil’ating zarbaft, bori bilkim, ul*
*Ma’ni ahlin kuldururga za’faroni besh emas* [1], degan beshinchi bayti “xamirturush” vazifasini o‘tagan.

G‘azal baytida “xil’at” va “zarbaft” so‘zlari **ishtiqoq** san’atini, “zarbaft” bilan “za’faron” so‘zlarida sariq rangga mansublik nuqtayi nazaridan **tashbeh** san’atini ko‘rishimiz mumkin.

Navoiy g‘azalining:

*Qo‘y tavonolig‘ so‘zin, yod et ajal xorinki, bil*
*Pashshalar nishi qoshinda notavone besh emas,* degan uchinchi baytini navoiyshunos Olimjon Davlatov o‘zining **“Uy bino aylab ajabtur...”** nomli maqolasida shunday sharhlaydi: “Tavonolig‘”ning o‘zagi “tavon” so‘zi bo‘lib, kuch, qudrat, zo‘rlik ma’nosini anglatadi (tavongar – boy, badavlat, notavon – kuchsiz, himoyaga muhtoj so‘zlarining o‘zagi ham “tavon” so‘zidir). Odam bolasining zamirida takabburlik, hasad, baxillik, ochko‘zlik, mensimaslik, xudbinlik kabi illatlarning tomir yozishiga ko‘pincha Yaratgan tomonidan sinov tariqasida berilgan mol-dunyo, amal, bilim, jismoniy quvvat yoki zohiriy husn-chiroy sabab bo‘ladi. Muvaqqat muvaffaqiyatlarga mag‘rurlanish, faqat o‘z salohiyatiga tayanishdan Oliy Qudratni inkor etishdek halokatli holat yuzaga keladi. Alaloqibat, Namruddek xudolik da’vosini qilganlar dimog‘iga kirgan bir pashsha tufayli halok bo‘ladilar... Tarix – odamiylik sabog‘i. Ijodkor vazifasi –

[1] Baytda izohtalab so‘zlar: “xil’at” – xalat, usti kiyim; za’faron – sariq tusli ziravor, shifobash o‘simlik. Baytning ma’nosi: Ey, (aqlini emas) ustki kiyimini ziynatlash bilan ovora bo‘lgan odam, bilgingki, sening bu zarbof to‘ning ma’naviyat ahli oldida ta’bni xush qiladigan za’faron gulichalik qadri yo‘q”.

tarix ibratlarini eslatish orqali insonlarni hamisha ogohlikka, Rahmon izidan yurishiga da’vat etmoqdir”[1].

Tatabbu’ning to‘rtinchi bayti aynan yuqoridagi baytdan ma’nan “sug‘orilgan” bo‘lsa-da, ifoda o‘ziga xos:

*Gar tavonolig‘ so‘zin so‘ylar hulul etgach qazo,*
*Har kimi ko‘rsang tavono notavoni besh emas.*

Ushbu baytda notanish so‘z – “hulul”. “Hulul” arab tilidan olingan bo‘lib, “yetib kelish, ichiga joylashish” degan ma’noni anglatadi. Alalxusus, baytning mazmuni shunday: “Qazo kimga yetib kelsa, unga Yaratganning qudrati haqida so‘zlaydi. Zero, eng qudratli inson ham Uning oldida ojizdir”.

Tatabbu’ davom etadi:

*Aylayub mehnat zamonida damodam iztirob,*
*Istama rohatki, rohat ham zamoni besh emas.*

Baytda *“mehnat”* va *“rohat”* so‘zlari o‘zaro zid tushunchaga ega bo‘lgani uchun **tazod** san’ati qo‘llanilgan. Ma’nosiga kelsak, Fuzuliy o‘z lirik qahramoni orqali jami insonlarga bu dunyoda iztirob chekib, rohat istamasliklarini, zero, mehnat qilib topilgan rohat onlari ham g‘animatligi, ya’ni, barcha hodisotlar muvaqqat ekanligiga ishora qilmoqda.

“Olamda manfaat degan cho‘pon bor. U odamlarni qo‘ydek haydab yuradi” deydi donolar. Fuzuliy mazkur hikmatga mushtarak tarzda quyidagi baytni yozadi:

*Umr naqdin sud savdosinda zoe’ qilmakim,*
*Ulkim, oding sud qilmishsan ziyoni besh emas.*

Ya’ni, umrning boyligini foyda, manfaat ketidan quvib, isrof qilma, aslida nomini foyda deb ataganing koni zarardir. Bu baytda ham “sud”, “savdo” va “ziyon” so‘zlari orqali **ishtiqoq** san’ati hosil qilingan.

Navoiy g‘azal maqtasini:

*Gar Navoiy istadi ovoralig‘, ey ahli xush,*
*G‘am yemang, devonayi bexonumone besh emas* [2], deb tugatgan bo‘lsa,

Fuzuliy tatabbu’ni:

*E’tibor, ey dil, Fuzuliydan keturkim, ul faqir*
*Bedilu bechorayu bexonumoni besh emas*, ya’ni ahli dil, Fuzuliyga e’tiboringizni qaratingki, uningdek dilsiz, chorasiz va bor budidan mosuvolar ko‘p emas, deb buyuk Ustozidan ruhan ulgi olib yakunlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbek adabiyoti Fuzuliy ilhomlangan asosiy sarchashmalardan biri bo‘lib, ozarbayjon shoiri fors adabiyoti bilan bir qatorda

[1] Qarang: Давлатов. О. “Уй бино айлаб ажабтур...”/ e-adabiyot.uz сайти, 04.02.2013 й. xttps://www.e-adabiyot.uz/maqola/794

[2] Ma’nosi: Ey aql egalari! Navoiy ovoralik istab, har tarafni kezgan bo‘lsa, g‘am yemang, u kabi boridan ayrilgan devonalar ko‘p emas.

o‘zbek adabiyotining Lutfiy va Alisher Navoiy kabi ijodkorlari asarlaridan ta’sirlangan. U Lutfiy g‘azallaridan ilhomlangan holda o‘zining taxmis uslubida asarlar yaratgani hamda tatabbu’ orqali Navoiyning g‘azaliga javob yozishi turkiy adabiyotda avlodlararo bog‘liqlikning yorqin namunasidir. Bu holat adabiy merosning davomiyligini va shoirlarning o‘z salaflaridan ta’sirlangan holda o‘z adabiy fardiyatini yaratganini ko‘rsatadi.

## ILK ARAB NASRIDA RISOLA : XITOBADAN YOZMA MULOQOTGA O‘TISH VA ISTILOHIY TAFOVUTLAR MASALALARI

***FERUZA DJURAYEVA***
*Dotsent, fil.f.b. falsafa doktori (PhD), Oriental universiteti*

***Annotatsiya.*** *Maqolada ilk o‘rta asrlar arab nasriy merosidan muhim joy olgan risola janrining kelib chiqishi, uning mazkur davrlardagi xitoba bilan genetik-funksional munosabati o‘rganiladi. Zamonaviy arab adabiyotshunosligida risola ko‘pincha xitobadan mustaqil, tayyor adabiy janr sifatida qaraladi, holbuki ilk o‘rta asrlar haqida ma’lumot beruvchi manbalar bunday qat’iy janrga xos ajratishni tasdiqlamaydi. Maqolaning maqsadi — “r-s-l” o‘zagining semantik tahlili va Ibn Vahb al –Kotib(Abu-l-Husayn Is’hoq ibn Ibrohim ibn Sulaymon Ibn Vahb)ning[1] “Al-Burhon fi vujuh al-bayon” asaridagi filologik dalillar asosida risolaning xitobaning “masofaviy, yozuv bilan barqarorlashtirilgan shakli” sifatidagi tabiatini ko‘rsatishdir.*

***Kalit so‘zlar:*** *risola, xitoba, tarassul, kitobat, r-s-l o‘zagi, Ibn Vahb, arab nasri genezisi, janriy differensiatsiya.*

***Аннотация.*** *В статье исследуется происхождение жанра рисаля, занимающего важное место в арабском прозаическом наследии раннего средневековья, а также его генетико-функциональная связь с хитабой в указанные периоды. В современном арабском литературоведении рисаля зачастую рассматривается как самостоятельный, уже сложившийся литературный жанр, отдельный от хитабы, тогда как источники, содержащие сведения о раннем средневековье, не подтверждают столь жёсткого жанрового разграничения. Цель статьи — на основе семантического анализа корня «р-с-л» и филологических данных, содержащихся в труде Ибн Вахба ал-Катиба (Абу-л-Хусайна Исхака ибн Ибрахима ибн Сулаймана Ибн Вахба) «Аль-Бурхан фи вуджух аль-баян», показать природу рисали как «дистанцированной, письменно закреплённой формы» хитабы.*

***Ключевые слова:*** *рисаля, хитаба, тарассуль, китаба, корень «р-с-л», Ибн Вахб, генезис арабской прозы, жанровая дифференциация.*

[1]Izoh: tadqiqotning bundan keyingi o‘rinlarida Ibn Vahb al – Kotib nomi qisqartirilib, Ibn Vahb shaklida qo‘llaniladi.

***Abstract.*** *This article examines the origin of the risāla genre, which occupies an important place in the Arabic prose heritage of the early medieval period, as well as its genetic-functional relationship with khitāba during that era. In contemporary Arabic literary studies, the risāla is often treated as an independent, already-established literary genre distinct from khitāba, whereas the sources providing information about the early medieval period do not confirm such a rigid generic distinction. The purpose of the article is to demonstrate, through a semantic analysis of the root "r-s-l" and philological evidence found in Ibn Wahb al-Kātib's (Abū al-Ḥusayn Isḥāq ibn Ibrāhīm ibn Sulaymān Ibn Wahb) work "Al-Burhān fī Wujūh al-Bayān," the nature of the risāla as a "spatially distanced, script-stabilized form" of khitāba.*

***Keywords:*** *risāla, khitāba, tarassul, kitāba, the root "r-s-l," Ibn Wahb, genesis of Arabic prose, generic differentiation.*

**KIRISH.** Ilk o‘rta asrlar arab adabiyotidagi nasr ko‘pincha mazkur davrlar, xususan johiliya she’riyati “soyasida” qolib kelgan[1] — vaholanki aynan nasriy shakllar arab madaniy-siyosiy tuzilmalarining (xutbalar, elchilik, devon, turli mazmundagi bitimlar, shartnomalar) shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Aytish joizki, risola (maktub, yozishma) janrining genezisi masalasi bugungi kunga qadar yetarlicha nazariy asoslanmagan: ko‘p hollarda risola islom davrida “paydo bo‘lgan”, yoki “Abdulhamid al-Kotib va Ibn al-Muqaffa arab risolasining asoschilari; risolaning eng gullagan davri abbosiylar hukmronligi davrlariga to‘g‘ri keladi” kabi qarashlar ostida baholangan, uning johiliya davridagi og‘zaki xitoba an’anasi bilan bog‘liqligi e’tibordan chetda qoldirilgan.

Zamonaviy adabiyotshunoslik keyingi asrlardagi taraqqiyoti samarasi o‘laroq paydo bo‘lgan “janr” tushunchasini ko‘p hollarda asrimizga yaqin davrlarda nazariy jihatdan pishib yetilgan kategoriyalar asosida qurishga intiladi va ayni tushunchalar ilk davr manbalariga tatbiq etiladi. Natijada “risola” atamasi ilk o‘rta asrlarga nisbat beriluvchi matnlarda deyarli uchramasligi (masalan ularning ularning “kitab” yoki “kitaba” deb atalishi) nazariy chalkashlikka sabab bo‘ladi: o‘quvchi yoki tadqiqotchi bu matnlarni risolaga aloqasi yo‘q namunalar sifatida rad etadi, yoki ularni notabiiy ravishda “risola janri” qolipiga solishga harakat qiladi, har ikki holda ham risola matnlarining o‘z tarixiy-istilohiy ildizi: notiqlik e’tiborga olinmaydi.

Ushbu tadqiqotimiz orqali xitoba va risola o‘rtasidagi munosabatni ularning o‘z davrida qo‘llanilgan lug‘aviy - istilohiy tizimi orqali ilk o‘rta asrlar adabiyotiga oid qadimiy va zamonaviy manbalarga tayangan holda nazariy jihatdan asoslashni maqsad qildik.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLAR SHARHI.** Tadqiqotda filologik-etimologik tahlil, qiyosiy-tarixiy metod va germenevtik

[1]Qarang:. بنيخلف حسن،إشكالات النثر العربـي القديم و خصائصه https://alantologia.com/blogs/5789/

tahlil usullari qo‘llanildi. Tadqiqot Ibn Vahbning “Al-Burhon fi vujuh al-bayon”[1] asariga asoslanadi. Arab adabiyotshunosligi va balog‘at ilmida alohida o‘rin tutuvchi bu manbada bayon nazariyasi, adabiy nutq shakllari, poetik va nasriy ifoda usullari hamda janrlar tasnifi atroflicha yoritilgan. Xususan, asar o‘rta asr arab nutq amaliyoti kontekstida xitoba va tarassul (risola)ning nazariy hamda funksional xususiyatlarini, ularning shakllanishi va istilohiy mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Izlanishlarimiz chog‘ida Ibn Vahb ayni asarining nomi uzoq vaqt “Naqd an-nasr” nomi bilan Qudoma ibn Ja’farga (v. 337/948) noto‘g‘ri nisbat berilib kelinganiga guvoh bo‘ldik, biroq XX asr o‘rtalarida olib borilgan manbashunoslik tadqiqotlari (jumladan, Chester Bitti kutubxonasidagi to‘liqroq qo‘lyozma asosida) asarning haqiqiy muallifi Ibn Vahb ekanini aniq ko‘rsatgan[2].

Ilk arab nasri, xususan, johiliya va ilk islom davridagi xitoba hamda risola masalasi arab adabiyotshunosligida turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Ali Jundiy[3] va Shavqiy Dayf[4] johiliya nasrining umumiy manzarasini yoritib, arablarning og‘zaki adabiy an’analari, xitoba va nasriy nutq shakllarining taraqqiyotiga e’tibor qaratganlar. Bu tadqiqotlar johiliya davri nasrini faqat bizgacha yetib kelgan yozma matnlar bilangina cheklamasdan, uning og‘zaki muhitini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Mavzumiz uchun Mahmud al-Miqdadning[5] risola va tarassul tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan asarlari muhim ahamiyatga ega. Muallif johiliya davridagi nasriy yozishmalarning shakllanishi va taraqqiyotini alohida ko‘rib chiqadi.

Xitoba va yozma nasr munosabatini o‘rganishda oxirgi yillarda olib borilgan Tahera Qutbuddin tadqiqotlari[6] alohida ta’kidga sazovor. Muallif xitobaning shakli, vazifalari va og‘zaki tabiatini tahlil qilish bilan birga, uning arab nasri taraqqiyotiga ta’sirini ham ko‘rsatadi. Asarning “The Oration‘s Influence on Arabic Prose Viewed in a Hybrid Oral-Written Continuum” nomli bobida xitoba va yozma nasr o‘rtasidagi munosabat og‘zakilik va yozma shaklning o‘zaro ta’siri

---

**1** ابن وهب الكاتب، أبو الحسين إسحاق غبن إبراهم غبن سليمان.‘البرهان في وجوه البيان‘ تحقيق:در. أحمد مطلوب‘ در.خديجة الحديثي‘ بغداد1967 ‘

[2]Qarang: 1969-yilgi H.M. Sharaf nashrining muqaddimasi, shuningdek Ahmad Matlub va Xadija al-Hadisiyning Bag‘dod nashri (1967) muqaddimasi — ikkala tahrir ham asarning Ibn Vahb al-Kotibga tegishli ekanini mustaqil ravishda, qo‘lyozma ichidagi muallifning o‘z nomini zikr etishi kabi ichki dalillar asosida isbotlaydi.

**3**.الجندي، علي، تاريخ الأدب الجاهلي، مكتبة الجامعة العربية، بيروت، ج1.1966 ‘

**4** ضيف، شوقي‘الفن و مذاهبه في النثر العربي‘دار المعارف، القاهرة1943‘.

**5** د.المقداد محمود، الترسل في الادب العربي، المجلة الكويتية البيان2000 ‘.ص.35-45.

[6] Qutbuddun T. Khutba: The Evolution of Early Arabic Oration”in Classical Arabic Humanities in their own Terms: Festsschrift for Wolfhart Heinrichs, ed. Beatrice Gruendler and Michael Cooperson. – Brill, 2008.

nuqtayi nazaridan talqin qilinadi.[4] Bu yondashuv risolani xitobadan uzilgan hodisa emas, balki og‘zaki nutq an’anasi bilan yozma muloqot o‘rtasidagi bog‘liqlik doirasida o‘rganish imkonini beradi.

Shuningdek, Ibn Abd Rabbihining “Al-’iqd al-farid”[1] asarida xitobalar va maktublarga oid ko‘plab matnlarning saqlangani, Al-Qalqashandiyning “Subh al-a’sha fi sina’at al-insho”[2] asarida esa maktub yozish san’ati, uning shakllari va qoidalari keng bayon etilgani risola tarixini o‘rganishda uchun muhim manbalar bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqorida tilga olingan tadqiqotlar johiliya nasri, tarassul va xitobaning alohida jihatlarini yoritgan bo‘lsa-da, xitoba va risolaning ilk arab nasridagi o‘zaro munosabati, xususan, og‘zaki murojaatdan masofadagi yozma murojaatga o‘tish jarayoni yaxlit muammo sifatida yetarlicha tadqiq etilmagan.

**NATIJALAR**

Arab adabiyoti tarixida tarassul janrini chuqur o‘rgangan doktor Mahmud al–Miqdad, risola va tarassul so‘zlarining ishtiqoq asosida bir o‘zakdan yasalgani, bu ikki so‘zning aynan bir xil tushuncha emasligi haqida yozadi: Arablar ( تَرَسَّل— tarassala) fe’lini o‘z nutqlarida umumiy ma’noda — “shoshilmaslik, xotirjamlik, erkin-osoyishta bo‘lish” ma’nosida qo‘llaganlar; uning masdari ( تَرَسُّل— tarassul). Qadimgi va zamonaviy lug‘atlar bu fe’l va uning masdari ma’nolarini batafsil bayon qiladi.[3]

Al - Qomus arabcha — o‘zbekcha lug‘ati[4]da: تَرَسَّلَ(V bob) — 1. asta-sekin, ohista, shoshilmay, ehtiyot bo‘lib harakat qildi; ~ فِي قِرَاءَتِهِ sekin o‘qidi; shoshmasdan gapirdi:في كلامه ~ ; في مشْيِه~ohista yurdi; 2.n.dandir nur, yorug‘lik taraldi: منه~ 3. الْكَاتِبُ ~yozuvchi oq she’r to‘qidi; xat yozdi – kabi tarjimalari berilgan. Biroq “rsl” o‘zagining birinchi bobi biz o‘rganayotgan risola bilan aloqadorlikni ko‘rsatmaydi. Risola atamasining mavzuni bevosita aks ettiruvchi shakli bu to‘rtinchi bob ”arsala” fe’li bilan bog‘liqdir.

Mahmud al – Miqdad arab adabiyotining ilk o‘rta asrlarga taalluqli tarixida “ risala, adabu ar–risala, tarassul, fann at – tarassul” kabi nomlar bilan ataluvchi janrni to‘g‘ri tushunishda Ibn Vahbning quyidagi fikrlari eng to‘g‘ri talqin ekanini ta’kidlaydi. Ibn Vahb risola va tarassul terminlarining ichki ishtiqoqiy tuzilishini aniq fe’l zanjirlari orqali izohlaydi va ularning semantik jihatdan nozik farqlarini sharhlaydi:

---

1 إبن عبد ربه، أبو عمرو أحمد بن محمد الأندلسي، العقد الفريد،(1962) ، تحقيق أحمد أمين، و أحمد الزين، و إبراهيم البياري، مطبعة لجنة التأليف و الترجمة و النشر، القاهرة.

2 القلقشندي، أبو العباس أحمد بن علي، صبح الأعشى في صناعة الإنشاء،(1971) ، تحقيق محمد حسين شمس الدين، دار الكتب العلمية ، بيروت.

3 المقداد محمود، الترسل في الأدب العربي، مجلة البيان الكويتية،ص. 35.

4 Al-Qomus. Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at. J.2. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. –B.281.

والترسل من : " تَرَسَّلْتُ – أَتَرَسَّلُ – تَرَسُّلاً " ، وأنا مُترَسِّلٌ ، كما يقال : " تَوَقَّفْتُ بهم – أَتَوقَّفُ – توقفاً ، وأنا متوقف " ولا يقال ذلك إلاّ فيمن تكرر فعله في الرسائل(٢) . كما لا يُقال : " تَكَرَّرَ " إلا فيما تردد عليه اسم الفعل في الكسر ، ويقال لمن فعل ذلك مرة واحدة : " أَرْسَلَ – يُرْسِلُ – ارسالاً " وهو مُرْسِل

والاسم : " الرسالة " أو " راسل – يُراسل مُراسَلَة " وهو مراسِل » وذلك إذا كان هو ومن يُراسله قد اشتركا في المراسلة•

وأصل الاشتقاق في ذلك أنّه كلام يراسل به من بعد ، فاشتق له اسم الترسل ، والرسالة من ذلك•

والخطابة (٣) والخطاب اشتقا من الخطب والمخاطبة ، لانهما مسموعان.[1]

*Tarassul» so‘zi "تَرَسَّلْتُ – أَتَرَسَّلُ – تَرَسُّلًا" (tarassaltu – atatarassalu – tarassulan) fe’lidan olingan bo‘lib, "men tarassul qildim", "tarassul qilayapman", "tarassul qilish" ma’nolarini anglatadi; bu ishni qiluvchi esa "mutarassil" deb ataladi. Bu xuddi "تَوَقَّفْتُ بهم – أَتَوَقَّفُ – تَوَقُّفًا" kabi bo‘lib, "men ular bilan to‘xtab qoldim", "to‘xtab turibman", "to‘xtash" deyiladi va bunday fe’l shakli faqat maktublar yozish ishini takror-takror amalga oshiradigan kishiga nisbatan qo‘llanadi.*

*Shuningdek, "takarrara" ("takrorlandi") so‘zi ham fe’l ma’nosi bir necha bor takrorlangan holatga nisbatan ishlatiladi. Bir marta maktub yozgan kishiga esa "أَرْسَلَ – يُرْسِلُ – إِرْسَالًا" — "arsala – yursilu – irsalan" deyiladi va u "mursil", ya’ni "yuboruvchi" deb ataladi.*

*Bu amalning nomi "ar– risola" — الرسالة yoki "rosala – yurosilu – murosalatan" shaklida bo‘lib, bunda "murosil" deb ataladigan kishi hamda u bilan yozishma olib borayotgan shaxs maktub yozish jarayonida o‘zaro ishtirok etgan bo‘ladi.*

*Bu so‘zlarning etimologik asosi shundan iboratki, u uzoqdagi kishiga yuboriladigan nutqdir. Shuning uchun unga "tarassul" va "risola" nomlari berilgan.*

*"Xitoba" va "xitob" esa "xitb" va "muxotaba" so‘zlaridan yasalgan, chunki ular eshitiladigan, ya’ni og‘zaki ravishda amalga oshiriladigan nutqdir.*

**MUHOKAMA**

Ibn Vahbning bu izohi ikki tushunchaning mazmunidagi mohiyatni anglashda muhim ahamiyatga ega. Uning ta’kidlashicha, "tarassul" bir marta amalga oshiriladigan maktub yozish emas, balki takror-takror bajariladigan yozishma jarayonini anglatadi. "Risola" esa uzoqdagi kishiga yetkazish uchun yuboriladigan nutq bo‘lib, uning asosida "yuborish" va "yetkazish" ma’nosi yotadi. Shu nuqtayi nazardan risola bevosita aytilgan xitobadan farqli ravishda, nutqning masofa va yozuv orqali yetkaziladigan shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Ibn Vahbning "xitoba" va "xitob"ni eshitiladigan, og‘zaki aytiladigan nutq sifatida ajratishi ham mazkur farqni yanada oydinlashtiradi.

[1] ابن وهب الكاتب، أبو الحسين إسحاق غبن إبراهم غبن سليمان.البرهان في وجوه البيان، تحقيق:در. أحمد مطلوب، در.خديجة الحديثي، بغداد1967 ، ص.193.

Bizning tadqiqotimiz kasbi maktub yozish bo‘lgan kotiblar tomonidan maxsus adabiy mahorat darajasiga ko‘tarilgan tarassul san’ati namunalarini emas, balki o‘z davrining ijtimoiy, siyosiy va maishiy ehtiyojlari ta’sirida turli mualliflar tomonidan muayyan vaziyat taqozosiga ko‘ra yozma yoki og‘zaki shaklda yuborilgan risolalarni qamrab oladi. Bunda risola tushunchasi faqat kotiblik mahorati mahsuli bo‘lgan adabiy maktub ma’nosida emas, balki muayyan shaxs, voqea yoki munosabat bilan bog‘liq holda yaratilgan yozma nutq sifatida qaraladi.

Tadqiqotimizga jalb etilgan risola namunalarining badiiy jihatdan puxta ekani esa ularning barchasi maxsus adabiy maqsadda yozilgani bilan izohlanmaydi. Aksincha, bu risolalarning ifoda tarzida qadimdan shakllangan arab notiqlik an’analarining ta’siri seziladi. Xitoba arab jamiyatida uzoq tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan og‘zaki nutq shakli sifatida fikrni aniq, ta’sirchan va ishontirishga qodir tarzda ifodalash usullarini shakllantirgan. Keyinchalik bu usullar yozma nutqqa ko‘chib, risolada ak eta boshlagan. Ayni shu jihatdan risola va xitoba o‘rtasidagi munosabatni faqat shakliy o‘xshashlik bilan cheklab bo‘lmaydi.. Xitobada tinglovchiga bevosita ta’sir qilish uchun shakllangan nutqiy vositalar risolada masofa orqali yetkaziladigan fikrni ta’sirchan ifodalash vositasiga aylanadi. Demak, risola xitobadan uzilib, unga qarama-qarshi ravishda paydo bo‘lgan hodisa emas; aksincha, og‘zaki nutqda shakllangan ifoda tajribasining yozma shaklda davom etishi natijasida takomillashgan.

Risola dastlab muayyan ijtimoiy, siyosiy yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun yuzaga kelgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan undagi nutqiy va badiiy imkoniyatlar kengayib, yozma nasrning mustaqil janr ko‘rinishiga aylangan. Shu ma’noda risolaning janr sifatidagi taraqqiyotini og‘zaki nutqdan yozma nutqqa, bevosita xitobadan masofaviy murojaatga o‘tish jarayoni bilan birgalikda ko‘rish maqsadga muvofiq.

Asarni o‘qish davomida Ibn Vahb asarida biri – biriga yaqin tushunchalar aniq turkumlar sirasida yoxud bo‘limlarda sharhlanganidan kelib chiqilsa, muallifning tarassul va risola sharhidan keyin xitoba so‘zining istilohiy ma’nolarini keltirishi sababini tushunish mumkin. Ya’ni, ilk o‘rta asrlar nasriga bag‘ishlangan barcha tadqiqotlarda xitoba va risola so‘zlari yonma– yon uchrashi tabiiy, demak bu ikki istilohning zamirida yagona asos: nutq yotadi. Xitobaning istilohiy negizida “eshitilish” ( بسمع— sam’), risola negizida esa — “uzoqqa yuborilish” ( رسل— rasl) semantikasi turadi. Bunday juftlikni qo‘llashdan maqsad ularni bir-biriga qarama qarshi tushunchalar emas, balki har ikki atama o‘zida muloqot vazifasi: “nutqni qabul qiluvchiga yetkazish” ma’nosini anglatishidir. Bundan bu ikki istilohning turli ijro sharoitidagi nutqning yaqin/eshitiladigan — uzoq/yuboriladigan ko‘rinishidagina farqlanishi nazarda tutiladi..

Xitoba so‘zining yasalish qolipini izohlayotganda, Ibn Vahb bevosita uni “ktb” o‘zagidan yasalgan so‘zlar, xususan “kitaba bilan qiyoslaydi va “kitaba”ni

—xitoba va risola so‘zlari yasalishi uchun umumiy, tarkibiy, namunaviy misol sifatida keltiradi[1]. Biz xitoba va risola tushunchalarini lug‘aviy va istilohiy tushuntirish asnosida Ibn Vahb “ktb” fe’li va undan yasalgan boshqa so‘zlarni tasodifan tanlamagan degan fikrga keldik. Chunki risola va xitoba so‘zlarining ilk o‘rta asrlarga eng yaqin davrlarda yozilgan manbalarda doimiy yonma — yon kelishi, o‘zaro qiyoslanishi bu ikki janrning islomgacha davrlardayoq yaqin aloqada bo‘lgani, har ikkalasining umumiy negiz: notiqlik asosiga qurilgani haqida taxmin qilishga izn beradi. Qolaversa, arab filologik atamalari orasida “xitoba, risola va kitoba” umumiy vazn, mohiyatan notiqlik san’ati unsurlariga egaligi jihatdan ham yaqin.

Fikrlarimizning to‘g‘ri ekaniga yana tadqiqotimiz davomida ilk va o‘rta asrlar risolalarini jamlagan eng muhim manba: Ahmad Zakiy Safut[2]ning “Jamharatu rasail al-arab” to‘plamidagi matnlarning “risola” emas, aynan “kitab fulan ila fulan; raddu fulan ila kitabi fulan” shaklida qayd etilishi — shu lug‘aviy-ishtiqoqiy manzaraga mukammal mos keladi: ilk davr arab kitobat an’anasida “kitob” so‘zi amaliyotda yozilgan, yetkazilgan nutq, matnlarga nisbatan qo‘llanilgan, “risola” esa keyinchalik — adabiy istilohlashtirish jarayonida — janr nomi sifatida mustahkamlangan bo‘lishi ehtimoli katta.

Avvalgi fasllarda johiliya arablarining yozuv, yozuvdan foydalanish malakasiga ega ekanliklari haqida, yozuvdan tadqiqotimiz markaziga tortilgan notiqlik risolalari juda kam saqlangani, biroq bunday risolalar xuddi o‘sha davr qasidalari yoki xitobalari kabi ko‘p bo‘lgan[3]i ehtimolini tasavvur qilishga yordam beradi. O‘rta asrlar manbalariga tayanib yozilgan o‘tgan asr arabshunoslarining tadqiqotlarida arablarda risola mavjud bo‘lgani haqidagi qat’iy qarashlar ayni janrning arab adabiyoti tarixida birdan paydo bo‘lib qolmagani, uning janrgacha taraqqiyotini o‘rganish zaruratini yuzaga keltirdi.

“Jamharatu xutab al - arab” va “Jamharatu rasail al - arab” to‘plami muallifi Safut risolalar to‘plamining kirish qismida shunday yozadi: Men bu jamharani ham avvalgi “Jamharatu-l-xutab” asariga o‘xshash tarzda, uning yo‘lini tutgan holda tayyorladim. Bir maktubning turli rivoyatlari o‘rtasida muvofiqlik topishga harakat qildim; ulardagi parchalarni birlashtirib, yaxlit matn hosil qildim; mushkul so‘zlarni harakatladim va matnni to‘g‘riladim...[4]

Safut bevosita ilk o‘rta asr arab notiqligi namunalarini birma bir ko‘zdan kechirgan, saralagan, ularning aslligi va ishonchliligi masalalarini imkon darajasida ko‘p manbalarga tayanib tasdiqlagan — sohaning eng noyob mutaxassisi sifatida yana shunday qo‘shib qo‘yadi: Ushbu ikki jamharani nashr

[1] Ko‘rsatilgan asar, B.192.

[2] Izoh: tadqiotning keyingi o‘rinlarida Ahmad Zakiy Safut nomi qisqartirilgan Safut shaklida qo‘llaniladi.

[3] الأسد،ناصر الدين، مصادر الشعر الجاهلي و قيمتها التريخية، دار المعارف1955 ،. ج.1

[4] صفوت، احمد زكي، جمهرة رسائل العرب في العصور العربية الزاهرة،(1937)،المكتبة العلمية، القاهرة،

etish bilan men adabiyotsevarlar uchun qadimgi adabiy merosning — xitoba va kitoba yo‘lini yengillashtirdim, deb umid qilaman. Shuningdek, o‘zimni — yosh, tahsil olayotgan talabalarimizni shirali arab adabiyoti mevalaridan bahramand bo‘lishga, uning shirin buloqlaridan suv ichishga undagan, ularga til fasohati va bayon mustahkamligidan shu qadar bahramand bo‘lish imkonini berganmanki, ular shu orqali o‘z tillarining boyligiga, uning martabasi yuksakligiga va boshqa millatlar tillari orasidagi ulug‘vorligiga ishonch hosil qiladilar, deb hisoblayman.[1]

Shu o‘rinda Safut tomonidan jamlangan “Jamharatu rasail al-arab” majmuasining ilk jildidan joy olgan hamda johiliya davriga oid deb qaraladigan 12 ta maktubni mazmun-mohiyati va bajargan vazifasidan kelib chiqib, beshta bosh guruhga tasniflashni ma’qul topdik. Mazkur tasnif ilk arab yozma nutqining notiqlik san’atidan ajralib chiqib, qaysi jabhalarda rivojlana boshlaganini aniqlashga xizmat qiladi..

1. Vasfiy (tasviriy) maktublar (1-risola[2]): Mazkur turdagi risolalarda, asosan, hadya qilinayotgan qimmatbaho tortiqlar yoki cho‘rilarning badiiy tavsifi berilib, u orqali diplomatik xayrixohlik izhor etilgan. Uslubiy jihatdan ularga mubolag‘ali ta’riflar, serjilo sifatlovchilar va uzun sintaktik birliklar xosdir.

2. Siyosiy-ma’muriy (buyruq-farmon) risolalari (2-risola): Hukmdor tomonidan o‘z noiblariga yo‘llangan maxfiy va keskin ko‘rsatmalarni (masalan, jazo yoki qatl hukmlarini) o‘z ichiga oladi. Bunday hujjatlar qisqaligi, buyruq maylidagi fe’llarning ustuvorligi va muhrlangan holda, qat’iy maxfiylikda jo‘natilishi bilan ajralib turadi.

3. Shaxsiy-ijtimoiy va oilaviy murojaatlar (3, 4, 5, 8, 9-risolalar): Ushbu guruhga mansub matnlarda qavm-qarindoshlardan yordam va vositachilik so‘rash, adolatsizlikdan shikoyat qilish hamda ichki nizolarni bartaraf etish masalalari ko‘tarilgan. Ularning tili samimiy-emotsional ohangga ega bo‘lib, she’r va nasr uyg‘unligi bilan xarakterlanadi.

4. Davlatlararo diplomatik-munozara risolalari (6, 7-risolalar): Arab va fors hukmdorlari o‘rtasidagi siyosiy mavqe, milliy g‘urur va sha’nni himoya qilishga qaratilgan rasmiy murojaatlardir. Ularda rasmiy-publitsistik uslub, mantiqiy dalillash va faxrlanish san’ati ustuvor, ritorik ta’sir kuchi jihatidan xitobaga yaqin turadi.

5. Harbiy-siyosiy ahdnoma va bitimlar (10-risola): Qabilalar o‘rtasidagi ittifoqni mustahkamlovchi bunday hujjatlar aniq va qat’iy qoliplangan tilda yozilgan. Ularda “bismika-l-lahumma” kabi qadimiy qasamyod iboralari va tomonlarning teng huquqliligini ko‘rsatuvchi juft, hamohang jumlalardan unumli foydalanilgan.

[1] O‘sha manba, Safut so‘zboshisi.

[2] Izoh: ushbu tasnif Safutning “Jamharatu rasail al arab” kitobi birinchi jildida johiliya asri risolalari bo‘limidagi risolalarning tartib raqami asosida ajratilgan.

6. Bu didaktik (pand-nasihat) risolalar (11–12-risolalar) kelajak avlodga hayotiy tajriba va axloqiy saboqlarni yetkazish uchun yozilgan. Matn nihoyatda puxta, qisqa va mazmundor jumlalardan iborat bo‘lib, qofiyali nasr hamda bir-biriga ulanib ketgan maqollar asosiga qurilgan.

Johiliya asri risolalari haqida to‘liqroq tasavvur hosil qilish maqsadida o‘n ikki risoladan Nu’mon ibn Munzirning Eron shahanshohi Kisro Anushervonga yozgan risolasini namuna sifatida keltiramiz:

**٧ ـ كتاب النعمان بن المنذر إلى كسرى**

وروى صاحب العقد الفريد أن النعمان بن المنذر قدِم على كسرى، وعنده وفودُ الروم والهند والصين، فذكروا من ملوكهم وبلادهم، فافتخر النعمان بالعرب وفضّلهم على جميع الأمم، لا يستثنى فارسَ ولا غيرها، فانبرى كسرى يعدّد مآثر الأمم ومفاخرها، ثم تنقّص العرب، وهجّن(١) أمرهم وامتهنهم، فردّ عليه النعمان مفنّدًا قوله، مباهيًا بمَناقب العرب ومحاسنها.

فلما رجع إلى الحيرة، وفى نفسه ما فيها مما سمع من كسرى، بعث إلى بعض وجوه العرب(٢)، فاقتصّ عليهم مقالات كسرى، وما ردّ عليه، وقال لهم: الرأى أن تسيروا بجماعتكم أيها الرّهط، وتنطلقوا إلى كسرى، فإذا دخلتم نَطق كل رجل منكم بما حضره؛ ليعلمْ أن العرب على غير ما ظنّ أو حدّثتْه نفسه، ثم جهّزهم وكتب معهم كتابًا وهو:

"أما بعدُ، فإن الملكَ ألقَى إلَيَّ من أمر العرب ما قد عَلِمَ، وأجبتُه بما قد فَهِم، مما أحببتُ أن يكونَ منه على عِلْم، ولا يتلجلج فى نفسه أن أمة من الأمم التى احتجزَت دونه بمملكتها، وحَمَتْ ما يليها بفضل قوّتها، تبلُغُها فى شىء من الأمورات يتعزَّزُ بها ذوو الحزم والقوة والتدبير والمكيدة، وقد أوفدتُ أيها الملك رهطًا من العرب، لهم فضلٌ فى أحسابهم وأنسابهم وعقولهم وآدابهم، فليَسمَع الملك، وليُغمِضْ عن جفاءٍ إن ظهر من منطقهم، وليُكرمنى بإكرامهم وتعجيل سَراحهم، وقد نسبتُهم فى أسفل كتابى هذا إلى عشائرهم". (العقد الفريد ١ : ١٠٣)

*“Al-Iqd al-Farid” sohibi (muallifi) rivoyat qilishicha, Nu’mon ibn al-Munzir Kisro huzuriga borganida, uning oldida Rum, Hind va Xitoy elchilari ham bor edi; ular o‘z shohlari va mamlakatlari haqida so‘zlab berdilar. Shunda Nu’mon arablar bilan faxrlanib, ularni boshqa barcha xalqlardan — forslarni ham istisno qilmasdan — ustun qo‘ydi. Kisro esa bunga javoban xalqlarning yutuqlari va faxrlarini birma-bir sanay boshladi, so‘ng arablarni kamsitib, ularning ishini xunuk ko‘rsatdi va xorladi. Nu’mon esa uning so‘zini rad etib javob qaytardi, arablarning fazilatlari va go‘zal sifatlari bilan faxrlandi.*

*Hiyraga qaytgach, Kisrodan eshitganlari ko‘nglida qolavergach, u arab zodagonlaridan ba’zilariga odam yubordi, ularga Kisroning so‘zlarini va o‘zining unga bergan javobini batafsil hikoya qilib berdi hamda: “Menimcha, sizlar, ey jamoat, barchangiz birga yo‘lga chiqib, Kisro huzuriga borishingiz kerak; uning oldiga kirganingizda har biringiz o‘z so‘zini aytsin — toki u arablarning o‘zi o‘ylagan yoki ko‘ngliga keltirgan narsadan boshqacha ekanini bilsin”, — dedi. So‘ngra ularni yo‘lga tayyorlab, ular bilan birga bir maktub yozib yubordi, u quyidagicha edi:*

*“Amma ba’d: podshoh menga arablar ishi haqida bilgan narsasini bayon qildi, men esa unga tushungan narsasi bilan javob berdim — buni u aniq bilishini istadim — va uning ko‘nglida: o‘z mamlakati bilan undan ajralib turgan va atrofidagilarini qudratining fazli bilan himoya qilgan bir xalq, azmu matonat, kuch, tadbir va ayyorlik egalari faxrlanadigan ba’zi ishlarga erisharmikin, degan ikkilanish qolmasin. Ey podshoh, men senga nasli -nasablarida, aqllarida va odoblarida fazilat bor bo‘lgan arablardan bir guruhni jo‘natdim; podshoh eshitsin, va agar ularning so‘zida biror qo‘pollik ko‘rinsa, ko‘zini yumsin; meni ularni hurmat qilish va tezda qaytarish bilan siylasin. Men ularni bu maktubimning ostida o‘z qabilalariga nisbat berib ko‘rsatdim».*

*(“Al-Iqd al-Farid”, 1-juz’: 103-bet)*

Risolada rasmiy murojaat bilan bir qatorda arablarga xos faxr, fikrni ta’sirchan bayon qilishga intilish ko‘zga tashlanadi. Muallif Kisroga murojaat qilar ekan, uning martabasini e’tirof etgan holda, arablarning aql-zakovati, nasabi, odobi va jasoratini alohida ta’kidlaydi. Risolada

” لحزم والقوة والتدبير والمكيدة “ hamda ”أحسابهم وأنسابهم وعقولهم وآدابهم“ kabi bir-biriga yaqin ma’noli so‘zlarning ketma-ket kelishi fikrni kuchaytirib, nutqqa ravonlik va ta’sirchanlik beradi. “فليسمع الملك، وليُغمض...، وليكرمني...” kabi bir xil tarkibiy qurilishga ega jumlalar esa bayondagi izchillikni ta’minlaydi. Shuningdek, “ أحسابهم وأنسابهم “ kabi tovushdosh so‘zlarning yonma-yon qo‘llanishi nasriy bayonga o‘ziga xos ohang bag‘ishlaydi.

**XULOSA.** Tadqiqot natijalari risolaning shakllanishida qadim arab notiqlik an’analarining muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. O‘rganilgan namunalar tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tadqiq etilgan risolalarning aksariyatida qadim arab notiqlik san’atiga xos bo‘lgan an’anaviy murojaat shakllari, fikrni dalillash, maqol va hikmatli so‘zlardan foydalanish kabi xususiyatlar saqlangan. Bu holat risolaning dastlab xitoba bilan uzviy bog‘liq holda shakllanganini ko‘rsatadi.

2. Risolaning xitoba bilan munosabati, ayniqsa, Nu’mon va Kisro o‘rtasidagi yozishmalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Mazkur namunalarda og‘zaki nutqqa xos murojaat, bahs-munozara, o‘z fikrini himoya qilish va adresatga ta’sir o‘tkazish usullari yozma shaklda davom etgan. Shu jihatdan ular xitobadan risolaga o‘tish jarayonini ko‘rsatuvchi muhim namunalardir.

3. “R-s-l” o‘zagining ma’nosi va undan hosil bo‘lgan “risola”, “tarassul” atamalari tahlili bu tushunchalar negizida “yuborish”, “yetkazish” ma’nolari mavjudligini ko‘rsatadi. Demak, risola bevosita aytilgan nutqdan farqli ravishda, fikr va xabarni yozma shaklda masofadan turib yetkazish vositasi sifatida shakllangan.

4. “Xitoba – kitoba” hamda “risola – tarassul” atamalari o‘rtasidagi ma’no va shakl yaqinligi ularning o‘zaro bog‘liq jarayonlar asosida yuzaga kelganini

ko‘rsatadi. Ibn Vahbning risolaga oid qarashlari ham risolani xitobaning yozma shakldagi davomi sifatida talqin qilishga asos beradi.

5. Johiliya davridagi ayrim yozma namunalar va ilk islom davrida kitobatning keng qo‘llanila boshlashi risolaning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan yozma muhit asta-sekin yuzaga kelganini ko‘rsatadi. Shuning uchun risolaning paydo bo‘lishini faqat yozma adabiyotning taraqqiyoti bilan emas, balki og‘zaki nutq an’analarining yozma shaklga ko‘chishi bilan birgalikda qarash lozim.

6. Risolani xitobaning muqobili yoki undan butunlay ajralgan janr sifatida emas, balki xitoba asosida shakllangan, uning yozma shakldagi davomi sifatida baholash mumkin. Keyinchalik bu shakl mustaqil nasriy janr sifatida takomillashib, arab yozma adabiyotida o‘zining muayyan uslubiy va janr xususiyatlariga ega bo‘ldi.

7. Ilk o‘rta asrlar arab nasrida xitoba faqat og‘zaki nutqning bir ko‘rinishi bo‘libgina qolmay, keyingi yozma janrlarning shakllanishiga asos bo‘lgan muhim manbalardan biri vazifasini ham bajargan. Risola misolida kuzatilgan ushbu jarayon keyingi davrdagi tavqi’ot, ixvoniyot kabi epistolyar janrlarning shakllanishini ham shu nuqtayi nazardan o‘rganish imkonini beradi.

## JAZOIR ADABIYOTIDA ADIBA AHLAM MUSTAG‘ONMIYNING O‘RNI

***E’ZOZAXON SAIDKARIMOVA***
*Tadqiqotchi, TDSHU*

***Annotatsiya.*** *XX asr nafaqat arab mamlakatlari hayotida, balki ularning adabiyotida ham ma’lum inqiloblarni yuzaga keltirdi. Jamiyatda yuz berayotgan islohotlar ortidan adabiyotdagi obrazlar va qahramonlar tizimi bilan birga ifoda yo‘sini ham o‘zgardi, yangi iqtidorlar maydonga kela boshladi. Bugungi kunda Ahlam Mustag‘onmiy zamonaviy arab adabiyotining eng mashhur va muvaffaqiyatli ayol yozuvchilaridan biri sifatida tanilgan. Tunisda tavallud topgan adibaning asl kelib chiqish ildizlari Jazoirga borib taqaladi. Dastlab ijodiy faoliyatini she’riyatda boshlagan adibaning romanlari o‘ziga xos badiiy uslubi, jasorat bilan yoritilgan ijtimoiy va psixologik masalalari hamda chuqur falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Ijodiy faoliyati davomida u ko‘plab nufuzli adabiy mukofotlarga sazovor bo‘lgan. Asarlari ko‘plab nusxalarda chop etilib, arab dunyosida eng ko‘p mutolaa qilinadigan romanlar qatoridan o‘rin olgan.*

*Ushbu maqolada jazoirlik shoira va adiba Ahlam Mustag‘onmiyning hayot va ijod yo‘li batafsil yoritilgan: oilasi, ta’limi, ijodining boshlanishi, she’riyatdan nasrga kirib borishi, faoliyati davomida duch kelgan qiyinchiliklari, mamlakat va xalqaro miqyosdagi e’tirof etilishi atroflicha bayon etilgan. Maqolada adibaning asarlaridagi bosh g‘oyalar*

*va ularga turtki bo‘lgan sabablar ham ko‘rsatib o‘tilgan. Yozuvchining mashhur trilogiyasining birinchi qismi bo‘lgan “Vujud xotirasi” romanining qisqacha syujeti, qahramonlar portreti va uning arab, ayniqsa Jazoir adabiyotidagi tutgan muhim o‘rni yetarlicha yoritilgan. Shuningdek, mashhur shaxslarning yozuvchi haqidagi fikrlari ham maqoladan o‘rin olgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Jazoir adabiyoti, Tunis, Konstantina, “Vujud xotirasi”, Forbes, trilogiya, erkaksimon ayol, ozodlik inqilobi, gender tengligi, feminizm, ijtimoiy ziddiyatlar.*

***Аннотация.*** *XX век ознаменовался глубокими преобразованиями не только в общественно-политической жизни арабских стран, но и в развитии их литературы. Социальные реформы способствовали изменению художественного мышления, системы образов и персонажей, а также появлению новых форм литературного выражения и нового поколения талантливых писателей. Сегодня Ахлам Мустаганеми по праву считается одной из самых известных и успешных современных арабских писательниц. Родившись в Тунисе, она имеет алжирские корни. Начав свой творческий путь как поэтесса, впоследствии она стала выдающейся романисткой, произведения которой отличаются самобытным художественным стилем, смелым осмыслением социальных и психологических проблем, а также глубокой философской наполненностью. За годы литературной деятельности писательница была удостоена многочисленных престижных литературных наград. Ее произведения издаются большими тиражами и входят в число наиболее читаемых романов арабского мира.*

*В настоящей статье подробно рассматриваются жизнь и творческий путь алжирской поэтессы и писательницы Ахлам Мустаганеми. Освещаются ее семейное происхождение, образование, начало литературной деятельности, переход от поэзии к прозе, трудности, с которыми она столкнулась на протяжении своей творческой карьеры, а также признание, полученное ею как на национальном, так и на международном уровне. Особое внимание уделяется основным идейным направлениям ее произведений и факторам, повлиявшим на формирование ее художественного мировоззрения. Отдельно анализируется роман «Память тела», являющийся первой частью знаменитой трилогии писательницы: рассматриваются его сюжет, система персонажей и значение произведения для арабской, прежде всего алжирской, литературы. Кроме того, в статье приведены высказывания известных общественных и литературных деятелей, отражающие высокую оценку личности и творчества писательницы.*

***Ключевые слова:*** *алжирская литература, Тунис, Константина, «Память тела», Forbes, трилогия, маскулинизированная женщина, война за независимость, гендерное равенство, феминизм, социальные противоречия.*

***Annotation.*** *The twentieth century brought about profound transformations not only in the socio-political life of the Arab world but also in its literary landscape. As societies underwent major reforms, literary expression evolved accordingly, giving rise to new systems of characters, innovative artistic techniques, and a new generation of talented writers. Today, Ahlam Mosteghanemi is recognized as one of the most prominent and successful female novelists in contemporary Arabic literature. Although born in Tunisia,*

*her family origins trace back to Algeria. Having begun her literary career as a poet, she later established herself as a distinguished novelist whose works are characterized by a unique artistic style, bold treatment of social and psychological issues, and profound philosophical depth. Throughout her literary career, she has received numerous prestigious literary awards. Her books have been published in large editions and remain among the most widely read novels in the Arab world.*

*This article provides a comprehensive overview of the life and literary career of the Algerian poet and novelist Ahlam Mosteghanemi. It examines her family background, education, early literary development, transition from poetry to fiction, the challenges she encountered throughout her career, and the national and international recognition she has received. The article also analyzes the principal themes of her literary works and the factors that shaped her creative vision. Particular attention is devoted to Memory in the Flesh, the first novel of her celebrated trilogy, including its plot, principal characters, and its significant contribution to Arabic—and especially Algerian literature. In addition, the article presents critical assessments and opinions expressed by prominent public and literary figures regarding the writer and her literary achievements.*

***Keywords:*** *Algerian literature, Tunisia, Constantine, Memory in the Flesh, Forbes, trilogy, masculinized woman, War of Independence, gender equality, feminism, social conflicts.*

**Kirish.** XX asr zamonaviy arab adabiyotining yetuk vakillaridan bo‘lmish jazoirlik Ahlam Mustag‘onmiy romanlari zamonaviy arab adabiyotida o‘ziga xos uslub, badiiy til va chuqur psixologik tasvirlari bilan ajralib turadi. U romantik voqealarni tarixiy va ijtimoiy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirib tasvirlaydi. Uning badiiy tili obrazlarga boy, hissiy ta’sir kuchiga ega, muhimi, o‘quvchini matnning ichki ma’no qatlamlarini mushohada qilishga undaydi. Ayniqsa, muhabbat, xotira, vatan, ayol ruhiyati va insoniy kechinmalar yozuvchi ijodining asosiy mavzularini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Jazoirlik shoira va adiba Ahlam Mustag‘onmiyning hayot va ijod yo‘liga bag‘ishlangan ushbu ilmiy tadqiqot ishida biografik, tarixiy-madaniy va qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanilgan.

**Natijalar.** Ahlam Mustag‘onmiy zamonaviy arab adabiyoti, xususan, Jazoirning eng mashhur ijodkorlaridan biridir. U 1954-yilda Tunisda tug‘ilgan bo‘lsa-da, asl nasabi Jazoirning Konstantina shahriga borib taqaladi. Otasi Jazoir mustaqilligi uchun olib borilgan siyosiy kurashlar natijasida Tunisga ko‘chib ketishga majbur bo‘lgan. Shu sababli yozuvchi bolalik va ilk yoshlik davrini Tunisda o‘tkazib, mazkur mamlakatning madaniy va adabiy muhitidan bahramand bo‘ladi. Shunga qaramay, u o‘z ijodida ota yurti bo‘lgan Jazoir va, ayniqsa, Konstantina shahrini hech qachon unutmagan.

Jazoirdagi siyosiy vaziyat birmuncha barqarorlashgach, Ahlam Mustag‘onmiy oilasi bilan vataniga qaytadi. Bo‘lajak shoir va yozuvchi maktab davridayoq arab tilini mukammal egallab, o‘qishda yuqori natijalarga erishdi; mamlakat miqyosida

iqtidorli o‘quvchilardan biri sifatida e’tirof etildi. Ahlam Mustag‘onmiy 1962-yilgi mustaqillikdan keyin Jazoirda tashkil etilgan ilk arab tilidagi maktablardan birida tahsil oldi. Keyinchalik Oysha nomidagi o‘rta maktab (litsey)ga kirib, uni 1971-yilda tamomladi. Bo‘lajak adiba va uning tengdoshlari Jazoir mustaqillikka erishgandan so‘ng, bir asrdan ortiq davom etgan fransuz mustamlakachiligi davridagi til siyosati bekor qilingach, fransuz tili o‘rniga arab tilida ta’lim olgan ilk avlod vakillari hisoblanadi.

1970-yillarda Jazoir Prezidenti Huari Bumedyenga qarshi amalga oshirilgan suiqasdga urinish voqeasidan keyin Ahlam Mustag‘onmiyning otasi ham siyosiy ta’qiblar oqibatida shifoxonaga tushib qoladi. Otasining og‘ir xastaligi tufayli o‘n sakkiz yoshli A.Mustag‘onmiy oilasini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida Jazoir milliy radiosida faoliyatini boshladi. Uning ilk radiodasturi “Shivirlar” ("همسات") deb nomlangan bo‘lib, aynan shu dasturda uning ilk she’ri “Kunlar panohgohida” ("على مرفأ الأيام") e’lon qilindi. Mazkur she’r yosh shoiraning iste’dodini namoyon etib, uning ijodiy faoliyatiga muvaffaqiyatli yo‘l ochdi.

Ahlam Mustag‘onmiy 1973-yilda Jazoir universitetining Adabiyot fakultetini tamomlaganidan so‘ng magistratura bosqichiga qabul qilinmagan, bu esa uni Jazoir Yozuvchilar uyushmasiga a’zo bo‘lish imkoniyatidan ham mahrum qilgan. Bunga uning ayol ijodkor bo‘lib arab tilida yozishi hamda ayollar huquqlari haqida erkin va ochiq fikr yuritishi sabab sifatida ko‘rsatilgan. Bu holat o‘sha davr adabiy muhitida keng bahs-munozaralarni keltirib chiqargan bo‘lsa-da, otasi uning ijodini doimo qo‘llab-quvvatlagan va barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tishida ruhiy madad bergan. Aynan shu ma’naviy ko‘mak Ahlam Mustag‘onmiyning zamonaviy arab adabiyotida yuksak mavqega erishishida muhim omillardan biri bo‘ldi.

**Muhokama.** 1973-yilda uning ilk she’riy to‘plami “Kunlar panohgohida” ("على مرفأ الأيام") nashr etildi. Mazkur asar Ahlam Mustag‘onmiyni Jazoirda arab tilida she’riy to‘plam chop ettirgan ilk ayol shoira sifatida adabiyot tarixiga kiritdi.

Jazoirda duch kelgan siyosiy va ijtimoiy to‘siqlar bois ijodkor 1976-yilda Fransiya poytaxti Parijga ko‘chib o‘tdi. U yerda ijodiy faoliyatini davom ettirib, o‘zining ikkinchi she’riy to‘plamini “Yalang‘ochlik onida yozish” ("الكتابة في لحظة عري") nomi bilan chop ettirdi. Shuningdek, “Gurung” ("الحوار") va “Birdamlik” ("التضامن") jurnallarida faol ishtirok etdi. 1982-yilda Parijdagi Sorbonna universitetida sotsiologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Uning ilmiy tadqiqoti Jazoir jamiyatida erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy ziddiyatlar hamda o‘zaro tushunmovchiliklarning sotsiologik jihatlariga bag‘ishlangan edi. Aynan ushbu mavzular keyinchalik uning badiiy ijodida ham markaziy o‘rin egalladi.

Dastlab u o‘zini shoir sifatida namoyon etishni maqsad qilgan bo‘lsa-da, keyinchalik o‘zining badiiy mahoratini roman janri rivojiga yo‘naltirdi. Takidlash joizki, adiba ushbu janrda ham yirik muvaffaqiyatlarga erishdi. Uning “Tuyg‘ular

tartibsizligi” ([1]"فوضى الحواس") romani 1997-yilda, “To‘shakdan o‘tuvchi” ("عابر سرير"[2]) romani esa 2003-yilda nashr etildi. Ushbu asarlar “Vujud xotirasi” ("ذاكرة الجسد"[3]) romani bilan birgalikda yozuvchining mashhur trilogiyasini tashkil etib, butun arab dunyosida eng ko‘p mutolaa qilingan badiiy asarlar qatoridan o‘rin oldi.

Yozuvchining eng mashhur asarlari sirasiga yana quyidagilarni kiritish mumkin: “Qora rang sizga yarashadi” ("الأسود يليق بك"[4]) , “Nessyan.com” (“Unutish san’ati”) ("فن النسيان"[5]), “Ularning qalblari biz bilan, bombalari esa ustimizda” ("قلوبهم معنا وقنابلهم علينا"[6]), “Kunlar panohgohida” ("على مرفأ الأيام"[7]), “Sog‘inch senga” ("عليك الهفة"[8]) , “Yalang‘ochlik onida yozish” ("الكتابة في لحظة عري تام"[9]) , “Baliqning yolg‘onlari” ("أكاذيب سمكة"[10]).

2010-yilda yozuvchi ayollar uchun mo‘ljallangan “Nessyan.com” (“Unutish san’ati”) loyihasi (sayt)ni ishga tushirdi. Ushbu asar ayollarning ruhiy kechinmalari va ajralishdan keyingi hayotiga bag‘ishlangan bo‘lib, kitob muqovasidagi “Erkaklarga sotish taqiqlanadi” degan hazilomuz ibora keng jamoatchilik e’tiborini tortgan.

Shundan keyin, 2012-yilda Ahlam Mustag‘onmiyning “Qora rang sizga yarashadi” ("الأسود يليق بك") romani chop etildi. Asarda 1990-yillarda Jazoirda sodir bo‘lgan terrorizm voqealari fonida yosh san’atkor ayolning hayoti tasvirlanadi. Asarda terrorchilar tomonidan otasi o‘ldirilgan qahramon ayol san’at va hayot uchun kurashning ramzi sifatida gavdalanadi. Roman nafaqat terrorizmga, balki moliyaviy kuch va ommaviy axborot vositalarining bosimiga qarshi insonning ruhiy-ma’naviy kurashini ham yoritadi. Asarning nashr etilishi arab adabiy hayotida muhim hodisa sifatida baholanib, keyinchalik yozuvchi o‘z asarlarini arab tilida nashr etish huquqini *Hachette*[11] nashriyot guruhi bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Uning romanlari dunyoning ko‘plab universitetlari va o‘rta ta'lim muassasalarining o‘quv dasturlariga kiritilgan, ijodi asosida ko‘plab magistrlik va doktorlik dissertatsiyalari, shuningdek, ilmiy maqolalar yaratilgan. 2003-yilda Fransiya Ta’lim vazirligi “Vujud xotirasi” romanidan parchalarni 15 ta davlatda arab tilini ikkinchi xorijiy til sifatida tanlagan bitiruvchilar uchun bakalavriat imtihonlari

[1] مستغانمي، أحلام: فوضى الحواس، دار نوفل، بيروت/ لبنان، 1997.
[2] مستغانمي، أحلام: عابر سرير، منشرات أحلام مستغانمي، بيروت/ لبنان، 2003.
[3] مستغانمي، أحلام: ذاكرة الجسد، دار الآداب، بيروت/ لبنان، 2000، ط15
[4] مستغانمي، أحلام: الأسود يليق بك، دار نوفل، بيروت/ لبنان، 2012.
[5] مستغانمي، أحلام: **فن النسيان**، دار نوفل، بيروت/ لبنان، 2013.
[6] مستغانمي، أحلام: قلوبهم معنا وقنابلهم علينا، دار الآداب، بيروت/ لبنان، 2009.
[7] مستغانمي، أحلام: على مرفأ الأيام، الشركة الوطنية للنشر والتوزيع، الجزائر، 1972.
[8] مستغانمي، أحلام: عليك الهفة، دار نوفل، بيروت/ لبنان، 2014.
[9] مستغانمي، أحلام: الكتابة في لحظة عري تام ، دار الآداب، بيروت/ لبنان، 1976.
[10] مستغانمي، أحلام: أكاذيب سمكة، شبكة روايتي الثقافية، 1993.

[11] *Hachette* – dunyodagi eng yirik va nufuzli nashriyot guruhlaridan biri bo‘lib, u global kitob bozorida “Katta beshlik” (“The big five”) tarkibiga kiradi.

materiallari tarkibiga kiritgan. Yozuvchining asarlari nufuzli nashriyotlar tomonidan fransuz, ingliz va boshqa bir qator xorijiy tillarga tarjima qilingan hamda ommaviy nashrlarda chop etilgan.

1998-yilda Ahlam Mustag‘onmiy “Vujud xotirasi” romani uchun Qohiradagi Amerika universiteti tomonidan ta’sis etilgan Najib Mahfuz nomidagi adabiy mukofot bilan taqdirlandi. Mazkur roman keyinchalik ingliz tiliga tarjima qilinib, 2000-yilda nashr etildi. Mukofot hay’ati yozuvchini fransuz mustamlakachiligi oqibatida yuzaga kelgan “lingvistik surgun”ni yengib, arab tilli yuksak badiiy ijodkor va iste’dodli adiba sifatida yuqori baholadi.

Shuningdek, mukofot hay’ati hakami adiba xususida shunday deydi: “Jazoirlik adiba Ahlam Mustag‘onmiy zulmat qa’rida porlab turgan nurdir. Uning mazkur romani jahon romanchiligining eng yaxshi an’analari bilan xalq og‘zaki ijodi va milliy badiiy meros unsurlarini muvaffaqiyatli uyg‘unlashtira olgan. Asar nafis arab tilida, yuksak badiiy did bilan yozilgan bo‘lib, o‘ziga xos estetik va badiiy-kompozitsion tuzilishga ega. Roman puxta qurilgan syujeti, badiiy mukammalligi va ta'sirchan ifoda uslubi bilan o‘quvchida hayrat va yuksak estetik zavq uyg‘otadi”[1].

Uning asarlarida Konstantina shahri va Jazoir tarixi alohida badiiy makon sifatida muntazam namoyon bo‘ladi. Muallif o‘z ijodi orqali nafaqat arab kitobxonlari, balki fransuz va boshqa xorijiy o‘quvchilar e’tiborini qozongani bilan farqlanib turadi.

Bugungi kunda Ahlam Mustag‘onmiy zamonaviy arab adabiyotining eng mashhur va muvaffaqiyatli ayol yozuvchilaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Uning romanlari o‘ziga xos badiiy uslubi, jasorat bilan yoritilgan ijtimoiy va psixologik masalalari hamda chuqur falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Ijodiy faoliyati davomida u ko‘plab nufuzli adabiy mukofotlarga sazovor bo‘lgan. Asarlari ko‘plab nusxalarda chop etilib, arab dunyosida eng ko‘p mutolaa qilinadigan romanlar qatoridan o‘rin olgan.

Yozuvchining ilk romani “Vujud xotirasi” arab adabiy muhitida katta voqea sifatida kutib olindi. Asar qisqa vaqt ichida keng kitobxonlar ommasi orasida mashhur bo‘lib, zamonaviy arab romanchiligida yangi bosqichni boshlab berdi. Tanqidchilar ushbu roman orqali Ahlam Mustag‘onmiy yuksak badiiyatni ilgari ochiq muhokama qilinmagan ijtimoiy va tarixiy masalalar bilan uyg‘unlashtirishga muvaffaq bo‘lganini ta’kidlaydilar.

Roman Jazoir ozodlik urushi davrida qo‘lidan ayrilgan rassom Xolid ibn Tubal taqdiri haqida hikoya qiladi. Asar qahramoni ozodlik kurashi shahidlaridan birining qizi Hayotni sevib qoladi. Hayot ham Xolidga nisbatan chuqur his-tuyg‘ularni boshdan kechiradi, biroq ularni ochiq ifoda eta olmaydi. Voqealar rivoji davomida Falastin inqilobi qatnashchisi bo‘lgan Ziyod obrazining paydo bo‘lishi syujetni yanada murakkablashtiradi. Oxir-oqibat Hayot oilaviy va ijtimoiy an’analarga bo‘ysunib, Jazoir hukumatidagi yuqori lavozimli amaldorga turmushga chiqadi.

[1] Home English | ahlammosteghanemi

Istalmagan nikoh va Xolid hayotidagi boshqa fojeali hodisalar uning ruhiy va ma’naviy tanazzuliga sabab bo‘ladi.

Roman Jazoir ozodlik inqilobi mavzusini yoritish bilan birga, muhabbat, shaxsiy fojia, milliy o‘zlik va tarixiy xotira kabi masalalarni ham yangi badiiy talqinda ifodalaydi. Shu jihatdan asar nafaqat tarixiy voqealarning badiiy aks ettirilishi, balki inson ruhiyati va jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarning chuqur psixologik tahlili sifatida ham e’tirof etiladi.

Arab dunyosining buyuk shoirlaridan bo‘lgan Nizor Qabboniy ushbu roman haqida quyidagilarni izhor qiladi: “Vujud xotirasi” romani meni chuqur hayratga soldi. Mutolaa qilganim bu asar mening o‘zimni eslatgandek bo‘ldi: u telbalarcha hayajonli, asabiy, jasur, yovvoyi, insoniy, jo‘shqin va hech qanday qoliplarga bo‘ysunmaydigandir. Agar kimdir mendan she'riyat yog‘dusiga burkangan ushbu betakror roman ostiga o‘z imzoimni qo‘yishni so‘raganida, men bunga bir lahza ham ikkilanmagan bo‘lardim. Ahlam bo‘sh sahifaga xuddi men kabi – cheksiz go‘zallik, tiyib bo‘lmas jasorat va tengsiz ijodiy telbalik bilan yuzlangan”[1].

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, Ahlam Mustag‘onmiy o‘z asarlarida tarixiy haqiqat va badiiy tasavvurni uyg‘unlashtirib, voqelikni poetik obrazlar vositasida qayta yaratadi. Uning uslubi hissiy ifoda, falsafiy mushohada va ramziy tasvirlarning uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, “Vujud xotirasi” romanida tarix, sevgi va milliy xotira o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlik badiiy jihatdan yuksak darajada ifodalangan. U ko‘plab adabiyotshunoslar tomonidan arab romanchiligida yangi estetik bosqichni boshlab bergan asarlardan biri sifatida baholanadi. Ayrim tadqiqotchilar hatto uning mazmuni va badiiy yangiligi tufayli romanni “inqilob ichidagi badiiy inqilob” sifatida tavsiflaydilar.

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, Ahlam Mustag‘onmiy o‘z ijodida ilgari arab romanida kam uchragan badiiy tajribani amalga oshirgan. U she’riy tilning badiiy imkoniyatlarini roman janri bilan uyg‘unlashtirib, o‘ziga xos estetik uslubni yaratgan. “Vujud xotirasi” ("ذاكرة الجسد") romani nashr etilganidan buyon adabiyotshunoslar tomonidan turlicha talqin qilinib kelinmoqda. Asarning muallif avtobiografiyasi bilan bog‘liqligi yoki to‘liq badiiy to‘qima ekanligi yuzasidan turli qarashlar mavjud.

Mazkur yondashuvga ko‘ra, romanda yozuvchining shaxsiy hayoti bilan bog‘liq ayrim avtobiografik unsurlar mavjud bo‘lib, ular badiiy voqelik bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Shu sababli asarda muallif shaxsi va badiiy qahramon obrazi o‘rtasidagi chegaralar ayrim o‘rinlarda nisbatan mavhumlashadi.

Romanda Hayot obrazi markaziy ayol qahramon sifatida tasvirlanadi. Muallif uni nafaqat individual xarakter, balki ayollik, go‘zallik va ruhiy noziklik timsoli sifatida yaratadi. Ayrim izlanuvchilar Hayot obrazini adibaning o‘z ichki kechinmalari va dunyoqarashini ifodalovchi ramziy obraz sifatida talqin qiladilar. Bundan tashqari,

[1] Home English | ahlammosteghanemi

romanda muallifning ismi tilga olinishi ham bunday qarashlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan omillardan biridir.

Asar kompozitsiyasi asosan bosh qahramon Xolidning ichki monologi asosida qurilgan. Voqealar uning xotiralari orqali hikoya qilinadi va bunda retrospektiv bayon (flashback) usulidan keng foydalaniladi. Natijada o‘quvchi tasvirlangan hodisalarning real voqelik yoki qahramon xotirasi va tasavvurining mahsuli ekanligi haqida turli talqinlarga murojaat qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Tadqiqotda yana bir muhim jihat sifatida Hayot va Katrin obrazlari o‘rtasidagi qiyosiy tahlilga e’tibor qaratiladi. Muallif fikricha, agar Hayot obrazi Katrin singari G‘arb madaniyati vakili sifatida tasvirlanganida, Xolid va Hayot o‘rtasidagi munosabatlar ancha ochiq va aniq shakllangan bo‘lar edi. Biroq yozuvchi aynan sharqona ayol obrazini tanlash orqali Sharq va G‘arb ayoli o‘rtasidagi ijtimoiy-madaniy tafovutlarni badiiy jihatdan yoritishni maqsad qilgan.

Shuningdek, mazkur talqinga ko‘ra, romanning asosiy g‘oyalaridan biri erkaklik va ayollik masalasi hamda gender tengligi muammosini yoritishdan iborat. Hayot obrazi orqali yozuvchi ayolning jamiyatdagi o‘rni, uning erkinligi va o‘zligini namoyon etish huquqini badiiy talqin qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ayrim tadqiqotchilar asarda quyidagi nazariy savol ilgari surilganini ta’kidlaydilar: ayol jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun erkaklarga xos ijtimoiy mavqe va xususiyatlarni egallashi zarurmi? Mazkur masala tadqiqotda “erkaksimon ayol” yoki “erkaklashgan ayol” konsepsiyasi doirasida tahlil qilinadi[1].

Roman katta badiiy muvaffaqiyat qozonganligi bois uni ekranlashtirish bo‘yicha bir necha urinishlar amalga oshirilgan bo‘lib, dastlabki loyihalar amalga oshmay qolgan. Faqat 2010-yilda roman asosida teleserial suratga olinib, unda bosh rolni jazoirlik aktrisa Amal Bouchoucha (أمل بوشوشة) ijro etdi. Serial Abu-Dabi telekanallarida namoyish etilgan bo‘lsa-da, ssenariyning badiiy jihatdan roman darajasiga yetmaganligi sababidan kutilgan muvaffaqiyatni qozona olmadi.

Ahlam Mustag‘onmiy ijodi ko‘plab nufuzli xalqaro va mintaqaviy mukofotlar bilan taqdirlangan. Jumladan, 1996-yilda Qohirada Nur jamg‘armasining arab tilidagi eng yaxshi ayollar ijodi mukofoti, 1998-yilda Najib Mahfuz nomidagi adabiy mukofot, 1999-yilda Livandagi Jorj Tarabishi nomidagi madaniyat va ijod mukofoti bilan taqdirlandi. 2004-yilda Livandagi Ruvvad qo‘mitasi tomonidan ijodiy faoliyati uchun maxsus orden bilan mukofotlandi.

Shu bilan bir qatorda, 2006-yilda Konstantinadagi Shayx Abdulhamid ibn Badis jamg‘armasi unga o‘z ehtirom nishonini topshirdi. Shu yilning o‘zida Jazoir Prezidenti Abdulaziz Buteflika tomonidan Ilm kuni munosabati bilan taqdirlandi. Xuddi shu yili Forbes jurnali Ahlam Mustag‘onmiyni arab dunyosida kitoblari eng ko‘p sotilgan yozuvchi sifatida e’tirof etdi. Uning asarlari 2,3 milliondan ortiq

[1] زهور شتوح و آخرون: المرأة في روايات أحلام مستغانمي، رواية (ذاكرة الجسد) أنموذجا، مجلة الآداب واللغات والعلوم الإنسانية، الجزائر، ص 13-37.

nusxada sotilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich uni arab dunyosining eng nufuzli o‘n nafar ayoli qatoriga kiritdi hamda adabiyot sohasidagi yetakchi ayol ijodkor sifatida tanitdi.

2007-yilda u Liviyaning Tripoli shahrida Al-Jamar Arab ijodkorlari jamg‘armasining mukofotiga sazovor bo‘ldi. O‘sha yilning o‘zida Jazoir Matbuot klubi tomonidan “Yilning madaniyat arbobi” deb e’lon qilindi. 2009-yilda esa Bayrut shahar hokimi tomonidan Bayrut qalqoni bilan taqdirlandi.

Roman murakkab narrativ texnikalar, yuqori darajadagi semantik zichlik va ko‘p qatlamli talqin imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Jazoirlik mashhur adiba va shoira xususida qator dunyo e’tiboridagi shaxslar o‘zlarining iliq fikrlarini bildirishgan. Jumladan, Jazoirning Birinchi Prezidenti Ahmad Ben Bella 2002-yil 12-fevralda o‘zining Jenevadagi nutqida yozuvchi haqida: “Ahlam Mustag‘onmiy – arab adabiyotini yoritib turgan Jazoir quyoshidir. U Jazoir adabiyotini mamlakatning ozodlik kurashi tarixining ajralmas qismiga aylangan yuksak badiiy darajaga olib chiqdi”, deydi[1]. UNESCO Bosh direktori Irina Bokova esa adibani UNESCOning “Tinchlik yo‘lida ijodkor” (Artist for Peace) unvoni bilan taqdirlash marosimidagi nutqida: “U buyuk ayol, yuksak salohiyatga ega ziyoli, iste’dodli adiba va faol jamoat arbobidir. U ayollar va bolalar huquqlari, zo‘ravonlikka qarshi kurash hamda ta’lim olish huquqini himoya qilish yo‘lida fidokorona faoliyat olib borgan shaxsdir. Unda buyuk ziyolilarga xos bo‘lgan adolatparvarlik tuyg‘usi mujassam bo‘lib, u ijtimoiy adolat va ijtimoiy inklyuziya g‘oyalariga sodiqligi bilan ajralib turadi.

UNESCO – madaniyat va ta’lim maskani bo‘lgan umumiy uyimizdir. Tashkilot o‘zining taniqli ziyolilari va buyuk shaxslaridan iborat keng hamkorlik tarmog‘i bilan faxrlanadi. Yuqorida ta’kidlaganimdek, bugun “Tinchlik yo‘lida ijodkor” unvoniga sazovor bo‘layotgan Ahlam Mustag‘onmiy ko‘plab yo‘nalishlarda birinchilardan bo‘lgan. U arab tilida roman nashr ettirgan ilk ayollardan biri, shuningdek, Forbes jurnali va ko‘plab nufuzli nashriyotlar tomonidan e’tirof etilgan dastlabki arab ayol yozuvchilardan biridir. U deyarli har doim o‘z sohasida yetakchi bo‘lib kelgan. Bu holat uning jamiyat taraqqiyoti yo‘lidagi fidoyiligi va kurashchanligini yaqqol ifodalaydi. Men shaxsan bundan chuqur hayajon va faxr tuyg‘usini his qilaman”[2] deya o‘z munosabatini bildiradi.

Jazoir Prezidenti Abdulaziz Buteflika 2016-yil 27-aprelda yozuvchiga yo‘llagan maktubida unga xitoban shunday deydi: “Siz o‘zingizning yuksak badiiy mahorat, boy tasavvur, insonparvarlik g‘oyalari va oliyjanob qadriyatlar bilan sug‘orilgan ijodingiz orqali arab ayolining, ayniqsa jazoirlik ayolning munosib va yorqin qiyofasini dunyoga namoyon eta oldingiz. Bu, albatta, sizning ko‘p yillar davomida bosib o‘tgan ijodiy yo‘lingizni hisobga olganda ajablanarli emas. Zero, bu yo‘l

[1] Home English | ahlammosteghanemi

[2] O‘sha manba.

uzluksiz ijod, badiiy uslub va estetik izlanishlar bilan yoritilgan sermahsul ijod yo‘lidir”[1].

Italiyalik tadqiqotchi va sharqshunos Vittoria Alliata di Villafranka: “Ahlam Mustag‘onmiy zamonaviy arab adabiyotining eng yirik adibalaridan biri, adabiy ramz va ayollar manfaatlarini jasorat hamda qat'iyat bilan himoya qiluvchi ijodkor hisoblanadi. Men uning barcha asarlarini katta qiziqish va yuksak mamnuniyat bilan mutolaa qilganman”[2], deya o‘zining samimiy fikrlarini bildirib o‘tadi.

**Xulosa.** Umuman olganda, jazoirlik shoira va adiba Ahlam Mustag‘onimiyning hayoti va ijodi hali uzoq davrlar mobaynida adabiyot ixlosmandlari uchun qadrli manba bo‘lib qolaveradi. Yozuvchining umr yo‘llari va ijod namunlarini chuqur o‘rganish, tahlil va qiyos etish va o‘zbek kitobxonlariga yetkazish adabiyotshunoslar oldidagi muhim vazifalardan sanaladi.

[1] Home English | ahlammosteghanemi

[2] O‘sha manba.

# TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND TRANSLATION STUDIES

## DARIY TILIDA KO‘CHIRMA GAPLI TUZILMALAR

***XOLIDA ALIMOVA***
*Professor, filologiya fanlari doktori (DSc), TDSHU*

***Annotatsiya.*** *Ko‘chirma gapli tuzilmalar tarkibidagi har bir qism (ko‘chirma gap va muallif gapi) o‘ziga xos sintaktik xususiyatlarga ega. Ko‘chirma gapda odatdagi gaplarga xos sintaktik holatlar bilan bir qatorda, uning bevosita nutqni aks ettirishi bilan bog‘liq ayrim xususiyatlar ham mavjud. Muallif gapi esa odatdagi gaplardan grammatik jihatdan farqlanib, uning kesimi muayyan shakllarda, asosan, maxsus nutq fe’llari bilan ifodalanadi. Gap bo‘laklarining tartibi ham o‘zgacha bo‘ladi. Muallif gapi tuzilishi ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Shularga asoslanib, ko‘chirma gap va muallif gapining xususiyatlarini alohida o‘rganiladi.*

*Dariy tilida punktuatsiya qoidalarining yetarli darajada standartlashmaganligi, shuningdek, ko‘chirma gapli tuzilma va o‘zlashtirma gapni ifodalashda که (ke) bog‘lovchisining qo‘llanishi ayrim hollarda bunday gaplarni tarjima qilishda anglashilmovchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Maqolada dariy tilidagi ko‘chirma gapli tuzilmalarning sintaktik, grammatik va kommunikativ xususiyatlari o‘rganilgan. Xususan, ko‘chirma gap va muallif gapining o‘zaro munosabati, ko‘chirma gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, ularning tuzilish xususiyatlari, gap bo‘laklari tartibi hamda muallif gapida qo‘llanadigan nutq fe’llarining ko‘chirma gapni shakllantirishdagi o‘rni aniqlangan.*

*Shuningdek, ko‘chirma gap tarkibida turli gap turlarining aralash holda qo‘llanishi, emotsional mazmunni kuchaytiruvchi intonatsion vositalar, undovlar, takrorlar va inversiya hodisalari tahlil qilingan. Ko‘chirma gaplarning bir so‘zdan, bir yoki bir necha gapdan, sodda va qo‘shma, bir sostavli va ikki sostavli, to‘liq va to‘liqsiz gaplardan tashkil topishi ko‘rsatib berilgan.*

*Maqolada muallif gapining ko‘chirma gapni matnga kiritish, uning kommunikativ mazmuni va intonatsiyasini, shuningdek, so‘zlovchining ruhiy holati hamda suhbatdoshiga munosabatini konkretlashtirishdagi funksiyasi ochib berilgan. Dariy tilida گفتن (demoq), پرسیدن (so‘ramoq), جواب دادن / پاسخ دادن (javob bermoq), فریاد زدن (qichqirmoq), صدا زدن (chaqirmoq), زمزمه کردن (xirgoyi qilmoq) kabi nutq fe’llari ko‘chirma gapni shakllantiruvchi muhim vositalar sifatida tahlil qilingan. Natijada ko‘chirma gap va muallif gapining o‘zaro bog‘liq, yaxlit sintaktik tuzilma ekanligi asoslangan.*

***Tayanch so‘z va iboralar:*** *dariy tili, ko‘chirma gap, ko‘chirma gapli tuzilma, muallif gapi, nutq fe’llari, sintaktik tuzilma, gap bo‘laklari tartibi, darak gap, so‘roq gap, buyruq gap, undov gap.*

***Аннотация.*** *Каждая из частей конструкции с прямой речью (прямая речь и слова автора) обладает специфическими синтаксическими особенностями. В прямой речи наряду с синтаксическими особенностями, характерными для обычных предложений, наблюдаются специфические признаки, обусловленные непосредственным воспроизведением речи говорящего. Слова автора также отличаются от обычных предложений рядом грамматических особенностей: сказуемое, как правило, выражается специальными глаголами речи в определённых формах, а порядок членов предложения характеризуется определёнными особенностями. В связи с этим в статье отдельно рассматриваются синтаксические особенности прямой речи и слов автора.*

*Недостаточная стандартизация пунктуационных правил в языке дари, а также возможность употребления союза که (ke) при оформлении как конструкций с прямой речью, так и конструкций с косвенной речью в отдельных случаях могут создавать трудности и приводить к неоднозначности при переводе подобных предложений. В статье исследуются синтаксические, грамматические и коммуникативные особенности конструкций с прямой речью в языке дари. Определяются особенности взаимосвязи прямой речи и слов автора, типы прямой речи по цели высказывания, особенности её структуры и порядка членов предложения, а также роль глаголов речи, употребляемых в словах автора, в формировании конструкций с прямой речью.*

*Особое внимание уделяется сочетанию различных типов предложений в составе прямой речи, интонационным средствам усиления её эмоционального содержания, употреблению междометий и повторов, а также явлению инверсии. Показано, что прямая речь может состоять из одного слова, одного или нескольких предложений, а также оформляться в виде простых и сложных, односоставных и двусоставных, полных и неполных предложений.*

*В статье раскрываются функции слов автора при введении прямой речи в текст, конкретизации её коммуникативного содержания и интонации, а также характеристике психического состояния говорящего и его отношения к собеседнику. Такие глаголы речи языка дари, как گفتن (говорить, сказать), پرسیدن (спрашивать), جواب دادن / پاسخ دادن (отвечать), فریاد زدن (кричать), صدا زدن (звать), زمزمه کردن (шептать, бормотать) и др., анализируются как важные средства формирования конструкций с прямой речью. В результате обосновывается положение о том, что прямая речь и слова автора представляют собой взаимосвязанные и целостные компоненты единой синтаксической конструкции.*

***Ключевые слова:*** *язык дари, прямая речь, конструкция с прямой речью, слова автора, глаголы речи, синтаксическая конструкция, порядок членов предложения, повествовательное предложение, вопросительное предложение, побудительное предложение, восклицательное предложение.*

***Abstract.*** *It is evident that each element of a construction containing direct speech (i.e. direct speech and the author’s words) exhibits specific syntactic features. In direct*

*speech, alongside the syntactic features characteristic of ordinary sentences, there are specific features resulting from the direct reproduction of the speaker's speech. The author's words also differ from ordinary sentences in a number of grammatical features: the predicate is, as a rule, expressed by special speech verbs in specific forms, whilst the word order is characterised by certain features. In this regard, the article examines the syntactic features of direct speech and the author's words separately.*

*The absence of standardisation in the punctuation rules of the Dari language, in conjunction with the utilisation of the conjunction که (ke) in the formation of both direct and indirect speech constructions in specific cases, has the potential to engender difficulties and result in ambiguity during the process of translating such sentences. The present article examines the syntactic, grammatical and communicative features of direct speech constructions in the Dari language. The text identifies the characteristics of the relationship between direct speech and the speaker's words, the types of direct speech according to the purpose of the utterance, the features of its structure and word order, as well as the role of speech verbs used in the speaker's words in the formation of direct speech constructions.*

*This study focuses on the combination of different types of sentences within direct speech, and on the intonational means of enhancing its emotional impact.*

***Key words:*** *Dari language, direct speech, direct speech constructions, the author's words, speech verbs, syntactic constructions, word order, declarative sentences, interrogative sentences, imperative sentences, exclamatory sentences.*

**Kirish.** Ko‘chirma gapli tuzilma ikki komponentdan iborat bo‘lib, biri ko‘chirma gap, ikkinchisi muallif gapi deb yuritiladi.

O‘zbek tilshunosligida ko‘chirma gap bilan muallif gapi sintaktik birlik ekanligi ko‘chirma gapga berilgan ta’rifda hisobga olingan: «Boshqalar fikrining semantik, leksik, grammatik xususiyatlar saqlangan holda, mustaqil gap shaklida avtor gapi bilan birga ishlatilishiga ko‘chirma gap deyiladi» [1]. A. Saidniyozovning fikricha, «… bu ta’rif oxiriga «konstruksiya» so‘zi kiritilib, «… ko‘chirma gapli konstruksiya deyiladi» deb qayd qilinsa, ta’rifda aks etgan ko‘chirma gap bilan avtor gapi o‘zaro munosabatdoshligi yana ham yaqqolroq qamrab olingan bo‘lar edi»[2].

«Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati»da ko‘chirma gap va ko‘chirma gapli tuzilma alohida lingvistik termin sifatida izohlanadi. «**Ko‘chirma gap.** Lug‘aviy va grammatik xususiyatlari o‘zgartirilmay, aynan o‘zicha berilgan o‘zganing gapi». «**Ko‘chirma gapli tuzilma.** Muallif gapi bilan ko‘chirma gapdan tashkil topgan sintaktik tuzilma. Bunday tuzilmalar qo‘shma gapning

[1] Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1965. – Б. 294.
[2] Саидниёзов А. Ҳозирги замон ўзбек тилида кўчирма гапли конструкцияларнинг синтактик хусусиятлари. – Тошкент, 1974. – Б.10.

alohida turi deb qaraladi»[1]. Shuningdek, muallif gapi «ko‘chirma gapli tuzilmalarda muallifning o‘zi aytgan (ko‘chirma gapdan tashqari) gap»[2] deb sharhlanadi.

**Maqsad va vazifa.** Dariy tilida punktuatsiya qoidalarining ishlab chiqilmagani, ko‘chirma gapli tuzilma va o‘zlashtirma gap uchun که *ke* bog‘lovchisining ishlatilishi mumkinligi ba’zan bunday gaplarni tarjima qilishda anglashilmovchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Maqolada dariy tilida ko‘chirma gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, tuzilish xususiyatlari, ularda gap bo‘laklarining tartibi tahlil qilindi.

Maqolaga manba sifatida zamonaviy dariy nasri materiallari (asosan, S.R. Zaryobning “خروس من”, B. Arg‘andning “شراره”, M.A. Usmonning “ وقتیکه نی ها گل میکنند”, A. Habibning “ترس ازتنهايي” hikoyalari) jalb qilindi. Bu materiallar internet saytlari (www.afghanasamai.com, www.afghanpaper.com, www.afghana.com, www.kabolnath.de, www.rawzana.com) orqali olindi.

**Usullar.** Tadqiqotda materiallar tavsifiy va komponent tahlil metodlari asosida o‘rganildi.

**Natijalar va mulohaza.** Ko‘chirma gapli tuzilmalar tarkibida har bir qism (ko‘chirma gap va muallif gapi) o‘ziga xos sintaktik xususiyatga ega bo‘ladi, ko‘chirma gapda ko‘pincha odatdagi gaplardagi kabi sintaktik holatlar bilan birga o‘ziga xos ayrim xususiyatlar ham mavjud. Shuningdek, muallif gapi ham odatdagi gaplardan ancha farqli grammatik xususiyatlarga ega. Muallif gapi tarkibida kesimlar ma’lum formada, maxsus fe’llar bilan ifodalanadi. Gap bo‘laklarining tartibi ham o‘zgacha bo‘ladi. Muallif gapi tuzilishi ham o‘ziga xos xususiyatga ega. Shularga asoslanib, quyida ko‘chirma gap va muallif gapining o‘ziga xos xususiyatlarini alohida ko‘rib o‘tamiz.

Ko‘chirma gaplar kuzatilgan maqsadga ko‘ra gaplarning barcha turlaridan: darak, so‘roq, buyruq va undov gaplardan iborat bo‘lishi mumkin. Bu turdagi gaplar so‘zlovchi maqsadining har xil bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

**Darak-ko‘chirma gap.** Darak gap orqali so‘zlovchi biror voqea-hodisa haqida xabar beradi. Darak gapdagi mazmun yo tasdiq qilish yo‘li bilan, yoki inkor etish yo‘li bilan ifodalanadi.

Darak-ko‘chirma gaplarda ham xabar berishning o‘zi turli ottenkalarga ega bo‘ladi: qat’iy ishonch, shubha, taxmin, gumon, istak, ishonchsizlik kabi. Shunga ko‘ra darak-ko‘chirma gaplar quyidagi ko‘rinishlarga ega:

a) sof darak gaplar:

برادرم گردنش را کج کرد و آهسته گفت :

– رسم هر چیز را. (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

[1] Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б.55.

[2] Ko‘rsatilgan lug‘at. – B. 67.

*Akam boshi (bo‘yni)ni egib, sekin dedi:*

*– Har narsaning rasmini.*

... با عجله سوي اتاقش رفت و شنيدم كه مي گفت :

– معلم ما گفته كه رسم اين خروس را بكشيم. (سپوژمي زرياب. خروس من // www.afghanasamai.com)

*...shoshib xonasi tomon yurdi va gapirayotganini eshitdim:*

*– O‘qituvchimiz shu xo‘rozning rasmini chizishimizni aytdi.*

b) darak-istak gaplar.

Darak gapning bu turida fe’l-kesim shart-istak mayli formasida keladi:

... و زمزمه مي كنند :

– خدا قبول كند...

– خدا قبول كند... (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*...va pichirlashadi:*

*– Xudo qabul qilsin....*

*– Xudo qabul qilsin....*

**So‘roq-ko‘chirma gap.** Ko‘chirma gap kiritilgan maqsadga ko‘ra so‘roq mazmunini ham ifodalaydi:

هيجان زده و يك صدا پرسيديم :

– چه آورده ايد ؟ چه آورده ايد ؟ (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Hayajonlanib baravariga so‘radik:*

*– Nima olib keldingiz? Nima keltirdingiz?*

So‘roq gaplar ham modallik darajasiga ko‘ra turlicha ottenkalarga ega bo‘ladi: so‘roq bilan birga taajjub, taxmin, buyurish ifodalanadi. Shu jihatdan so‘roq-ko‘chirma gap quyidagi ko‘rinishlarga ega:

a) sof so‘roq gaplar:

پرسش هميشه گي از دهانم جهيد :

– كار خانه گي ؟ (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Har doimgidek savol og‘zimdan otilib chiqdi:*

*– Uy vazifasimi?*

b) ritorik so‘roq gaplar:

بي اختيار گفتم :

– چه وقت شام مي شود ؟ (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Beixtiyor dedim:*

*– Qachon kech bo‘ladi?*

خويشاوند ما باز رويش را سوي مادرم كرد و خشمگين گفت :

– روز آخرت همه اين ها يخنش را مي گيرند و مي گويند : حالا كه ما را كشيده أي براي ما جان بده ... آن ها را جان داده مي تواند ؟ (سپوژمي زرياب. خروس من //www.afghanasamai.com)

*Qarindoshimiz yana onam tomon yuzlanib, g‘azab bilan dedi:*

*– Oxirat kuni bularning hammasi uning yoqasidan oladi-da: «Bizni chizdingmi, endi bizga jon ato et...» deydi. Ularga jon bera oladimi?*

v) so‘roq-buyruq gaplar:

من با درمانده گي چهار طرفم را ديدم – نمي دانستم چه طور نشسته ام كه باز فرياد زد و سوي برادرم ديد.

– يادش نداده اند كه وقتي مي نشيند ، سينه اش را پيش نكشد. حيا كجاست ؟

(سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Men nochor ahvolda atrofimga alangladim – qanday o‘tirganimni ham anglab yetmagandimki, u yana qichqirdi va akamga yuzlandi:*

*– Unga o‘tirganda ko‘kragini kerib o‘tirmaslikni o‘rgatishmaganmi? Uyat qani?*

Ba’zi so‘roq-ko‘chirma gaplarda so‘roq – taajjub, ajablanish, achinish ottenkalari anglashiladi:

انگشت اشاره اش را چون تيغي سوي من نشانه گرفت و پرسيد :

– أي رسم مي كشد ؟! رسم چي را مي كشد؟ رسم چي را مي كشد ؟

(سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com )

*Ko‘rsatkich barmog‘ini tig‘dek menga niqtadi-da, so‘radi:*

*– Rasm chizadimi?! Nimaning rasmini chizadi? Nimaning rasmini chizadi?*

با تعجب پرسيد :

– چي مي كشد ؟! چي مي كشد ؟! (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com )

*Taajjublanib so‘radi:*

*– Nima chizadi?! Nimani chizadi?!*

So‘roq gaplar ba’zan so‘roqni ifodalovchi so‘zlar yoki elementlar qo‘llanmagan holda ham shakllanishi mumkin. Gapdagi so‘roq mazmuni so‘roq intonatsiyasi bilan ifodalanadi:

حيرتزده سوی شراره نگاه كرده گفتم: « ميبينی من ميخوانم؟ » ( ببرک ارغند. شراره.)

*Hayratlanib Sharoraga qarab dedim: «Ko‘ryapsanmi, men kuylayapman?»*

**Buyruq-ko‘chirma gap.** Bunday gaplarda tinglovchini biror ishni bajarishga buyurish bilan bog‘langan mazmun ifodalanadi:

با تأكيد به من و برادرم مي گفت :

– رسم هاي تان را بكشيد! (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Menga va akamga qat’iy ohangda derdi:*

*– Rasmlaringizni chizing!*

Buyruq-ko‘chirma gap anglatgan mazmuniga ko‘ra quyidagi ko‘rinishlarga ega:

a) sof buyruq ifodalaydi:

باز آواز دل انگيزش بلند شد :

– چشم ها باز ! (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Yana dilni quvontiruvchi ovozi yangradi:*

*– Ko‘zlar ochilsin!*

b) iltimos, maslahat, taklif, istak, maqsad, yalinish, yolvorish kabi ma’nolarni ifodalaydi:

و رویش را سوي من کرد و تضرع آمیز گفت :

– یك ساعت چپ بنشین! (سپوژمي زریاب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Va yuzini menga burib, yolvorib dedi:*

*− Bir oz jim o‘tirgin!*

مدیر آمرانه گفت :

– بفرمایید ، داخل شوید . (اسدالله حبیب. ترس ازتنهایي.)

*Mudir buyruq ohangida dedi:*

*− Marhamat, ichkariga kiring.*

v) do‘q qilish, qistash ottenkalarini anglatadi:

... برادرم تا آن را دیدسوي مادر اشاره کرد و فریاد زد :

– هله ، هله ، تیز بیا ! ببین چه رسمي کشیده ! (سپوژمي زریاب. خروس من //www.afghanasamai.com)

*Akam uni ko‘rgan zahoti onamga ishora qildi va qichqirdi:*

*− Bo‘l, tez kel! Qara, qanday rasm chizibdi!*

g) chaqiriq, undash mazmunini anglatadi:

و عینکِ نمره دار و دسته سیاهش را با نوک انگشتِ باریک وسپیدش بالا بُرد :

«شکر بکش مادر ! » ( ببرک ارغند. لبخند شیطان.)

*Va ko‘zoynagining qora gardishini nozik oppoq barmog‘ining uchi bilan ko‘tardi: «Shukr qil, ona!»*

Buyruq-ko‘chirma gaplarda ba’zan kesimi aniqlik maylida kelib, buyruq anglashilishi mumkin:

نمیدانم چرا به او گفتم: «شراره تو نمرده ای! تو بیضه ای! تو باز تولد میشوی! هزار سال عمر میکنی، هزار سال میخوانی و هزار سال مانند خنده در لبهای مردم میدوی! » ( ببرک ارغند. شراره.)

*Nima uchun unga bunday deganimni bilmayman: «Sharora, sen o‘lmagansan! Sen tuxumsan! Sen yana tug‘ilasan! Ming yil umr ko‘rasan, ming yil kuylaysan va ming yil odamlarning lablarida tabassum bo‘lib yashaysan!»*

Buyruq ifodalovchi grammatik vositalar bo‘lmaganda, buyruq intonatsiyasining o‘zi buyruq-ko‘chirma gapni shakllantiradi:

حرف مادرم تمام نشده بود که باز فریاد خویشاوند ما بلند شد :

– خُرد چیست؟ کجایش خُرد است ؟ همین حالا نکاحش روا ست !

(سپوژمي زریاب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Onamning gapi tugamay turib, qarindoshimiz yana qichqirdi:*

*− Nimasi kichkina? Qayeri kichkina? Hozirning o‘zidayoq nikohlash joiz!*

Buyruq-ko‘chirma gap tarkibida undalma va undovlarning ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Bu − uning struktur xususiyati.

گفتمش: « آرام باش، برو بخواب! » ( ببرک ارغند. شراره.)

*Unga dedim: «Tinchlan, bor, uxla!»*

دستور خویشاوند ما ، تکانم داد.

– بدو ، رسم ها را بیاور! (سپوژمي زریاب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Qarindoshimizning buyrug‘idan seskanib ketdim:*

*– Yugur, rasmlarni olib kel!*

Ko‘chirma gaplar emotsionallikka munosabat jihatidan emotsional gaplar va emotsional bo‘lmagan gaplardan shakllanishi ham mumkin. Yuqorida ko‘rib chiqilgan gaplar emotsional bo‘lmagan gaplardir. Biroq bular kuchli emotsiyaga ega bo‘lish bilan emotsional gapga aylanadi. Emotsional gaplar undov gap deb ham nomlanadi.

**Undov-ko‘chirma gaplar.** So‘zlovchining ichki his-hayajonini ifodalab keladi:

خویشاوند ما انگشت اشاره اش را تاپ تاپ به سینه اش زد و گفت :

– من خدا را مي شناسم! (سپوژمي زریاب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Qarindoshimiz ko‘rsatkich barmog‘ini ko‘ksiga tap-tap urdi va dedi:*

*– Men Xudoni taniyman!*

Yuqorida sanab o‘tilgan ko‘chirma gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari maxsus undov intonatsiyasi bilan aytilsa, undov-ko‘chirma gapga aylanadi. Undov gaplardagi emotsional ottenkalar gapning yordamchi elementi sanaladi, chunki ba’zi undov-ko‘chirma gaplar asosida so‘zlovchining xabari, so‘rog‘i yoki uning buyrug‘i yotadi.

به تکرار گفت: « غم مخور، من به زودی بر میگردم! » ( ببرک ارغند. شراره.)

*Qayta-qayta dedi: «G‘am yema, men tez orada qaytaman!»* (xabar + emotsiya)

چشمانِ اشک آلود اشرف اند که برایش می گوید : «بدو ! . . . تو خود را از اینجا بکش ! »
( ببرک ارغند. لبخند شیطان.)

*Ashrafning yoshga to‘lgan ko‘zlari unga go‘yo shunday derdi: «Yugur!... Bu yerdan ket!»* (buyruq + emotsiya)

Ba’zan undov-ko‘chirma gaplarda asosiy narsa so‘zlovchining faqat ichki kechinmalarini (sof emotsionallikni) ifodalash bo‘ladi:

و مادرم با شادي و شوقي که از او بعید بود ، تقریباً فریاد زد :

– بیشك ... بیشك... (سپوژمي زریاب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Onam unga yot (uzoq) bo‘lgan xursandchilik va zavq-shavq bilan hayqirib yubordi:*

*– Albatta… shak-shubhasiz… .*

Undov-ko‘chirma gaplarda ko‘pincha emotsional undovlar ishtirok etadi:

باز آواز خویشاوند ما همه جا پیچید :

– هله ! گوگرد... گوگرد ... (سپوژمي زریاب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Yana qarindoshimizning ovozi hamma yoqni tutdi:*

*– Qani! Gugurt… gugurt… .*

Undov-ko‘chirma gaplarda emotsiyani kuchli ifodalash uchun gap

bo‘laklarining inversiya holati ro‘y beradi:

رُمان با این حلاوت آغاز می یابد :

«اینجا نی صدای آذان اس و نی نوبت ِنان ِ ملا! » ( ببرک ارغند. لبخند شیطان.)

*Roman shunday yoqimli tarzda boshlanadi: «Bu yerda na azon ovozi bor, na mullaning non navbati!»*

Bu undov gaplarda emotsionallikni kuchaytirish uchun emfatik urg‘u olgan so‘zni takrorlash, ikki marta (ba’zan ortiq) ishlatish hollari uchraydi. Masalan:

شراره قاه قاه خندید و باز هم خندید و خندید. گفت:

« وقتی که سرت را بر بالین این تابوت گذاشتی، هزار سال پیش بود. از آن شب هزار سال گذشته است، هزار سال! » ( ببرک ارغند. شراره.)

*Sharora qah-qah otib kuldi, yana kuldi, kulaverdi. So‘ng dedi:«Boshingni mana shu tobutning yostig‘iga qo‘yganingga ming yil bo‘lgan. O‘sha kechadan beri ming yil o‘tdi, ming yil!»*

Ba’zan undov-ko‘chirma gap aynan takrorlanishi mumkin:

... و سر بخود خشمالود میگفت: « مگر مرده ام را در آغوش بکشند! مگر مرده ام را در آغوش بکشند!» ( ببرک ارغند. شراره.)

*...va o‘ziga o‘zi g‘azab bilan derdi: «Nahotki jasadimni bag‘rilariga bossalar! Nahotki jasadimni bag‘rilariga bossalar!»*

Ko‘chirma gap ifoda maqsadiga ko‘ra mustaqil gaplarning aralash turlaridan tuzilishi mumkin:

a) darak va so‘roq gaplardan:

با خود گفتم: « راست نمیگوید، آدم یکبار که مرد دیگر زنده نمیشود. او خُه مُرده است چه طور بر میگردد؟ » ( ببرک ارغند. شراره.)

*O‘zimga o‘zim dedim: «Rost gapirmayapti, odam bir marta o‘lsa, boshqa tirilmaydi. U o‘lgan-ku, qanday qilib qaytadi?»*

گفت:

« اتاقت سرد است ... هیزم نداری؟ » ( ببرک ارغند. شراره.)

*Dedi: «Xonang sovuq.... O‘tin(ing) yo‘qmi?»*

b) darak va undov gaplardan:

و با نوع خود نگری افزود:

« خمیر صدای مرا از بهشت آورده اند. از بهشت! » ( ببرک ارغند. شراره.)

*O‘ziga xos nigoh bilan qo‘shib qo‘ydi:*

*«Ovozimning loyini jannatdan keltirganlar. Jannatdan!»*

v) so‘roq va darak gaplardan:

يك باره مثل این که تازه متوجه شده باشد با خشونت گفت :

– این چي طور نشستن است؟ سینه را این طور پیش مي گیرد....

(سپوژمي زریاب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Birdan, go‘yo endigina payqab qolgandek, qo‘rslik bilan dedi:*

*− Bu qanday o‘tirish? Ko‘kragini shunaqa qilib kerib o‘tiradimi?..*

g) so‘roq va buyruq gaplardan:

حرف مادرم تمام نشده بود که باز فریاد خویشاوند ما بلند شد :
– خُرد چیست؟ کجایش خُرد است ؟ همین حالا نکاحش روا ست !
(سپوژمي زریاب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Onamning gapi tugamay turib, qarindoshimiz yana qichqirdi:*
*−Nimasi kichkina? Qayeri kichkina? Hozirning o‘zidayoq nikohlash mumkin!*

g) darak, so‘roq va buyruq gaplardan:

یکبار خواندن را گذاشت، به چشمانم خیره شد و گفت:
« من چنین نغزمیخوانم ... به خاطر داری؟ تو نیز زمانی چنین میخواندی! » ( ببرک ارغند. شراره.)

*Bir nafas kuylashdan to‘xtadi, ko‘zlarimga tikildi va dedi:*
*«Men shunday chiroyli kuylayman… . Esingdami? Sen ham bir vaqtlar shunday kuylarding!»*

d) buyruq va undov gaplardan:

شراره میخواند و بال میزد و میگفت:
« تو هم بخوان، تو هم بال بزن که امشب، شب تولد من است. امشب من هزار ساله میشوم!» ( ببرک ارغند. شراره.)

*Sharora kuylardi, qanot qoqardi va derdi:*
*«Sen ham kuyla, sen ham parvoz qil (qanot qoq), bu kecha mening tug‘ilgan kunim. Bu kecha men ming yoshga to‘laman!»*

e) buyruq, so‘roq va undov gaplardan:

گفت:
« من سه صد و شصت رنگ میخوانم. تو هم میخوانی. بخوان! با من بخوان! چرا خاموش استی، چرا صدایت بیرون نمیشود؟ تو خُه هم صدایی رسا و زیبا داشتی. خمیر صدای ترا نیز از بهشت آورده بودند!» ( ببرک ارغند. شراره.)

*Dedi:*
*«Men uch yuz oltmish xil ohangda kuylayman. Sen ham kuylaysan. Kuylagin! Men bilan birga kuyla! Nega jimsan, nega ovozing chiqmayapti? Sening ham jarangdor va chiroyli ovozing bor edi-ku! Sening ovozingning loyini ham jannatdan keltirishgan edi!»*

Ko‘chirma gapning darak, so‘roq, buyruq va undov gap xarakteriga ega bo‘lishi muallif gapi bilan (muallif gapi odatda darak mazmuniga ega bo‘ladi) uning mazmunan bog‘lanishida ham aks etadi, chunki ko‘chirma gap bilan muallif gapining o‘zaro munosabatida ma’lum darajada moslik, uyg‘unlik bor. Bunday munosabat ko‘chirma va muallif gaplarning o‘ziga xos sintaktik birlik ekanligini tasdiqlaydi. Bunda muallif gapi kesimi bo‘lib kelgan nutq fe’li ko‘chirma gapga biron jihatdan xarakteristika beradi. Shunga ko‘ra ko‘chirma gap ifoda maqsadiga ko‘ra muallif gapidagi fe’l-kesim bilan uyg‘unlashadi. Masalan, so‘roq ma’nosiga ishora qiluvchi پرسیدن *so‘ramoq* nutq fe’li darak

yoki buyruq mazmunidagi ko‘chirma gaplarni emas, balki faqat so‘roq mazmunidagi ko‘chirma gaplarni muallif matniga kiritadi:

دخترم پرسید :

– خوبش است ني ؟ خوشت آمد ؟ (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Qizim so‘radi:*

*– Yaxshimi? Senga yoqdimi?*

پرسیدن *so‘ramoq* fe’lining o‘zigina so‘zlovchining ichki holatini to‘liq aks ettira olmaydi. Bunday paytda so‘roq ma’nosining turli xil ottenkalarini izohlaydigan boshqa so‘zlar ham ishlatiladi, natijada muallif gapi so‘roq-ko‘chirma gapning qanday talaffuz etilganini aniqroq ko‘rsatadi:

هیجان زده و يك صدا پرسیدیم :

– چه آورده اید ؟ چه آورده اید ؟ (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Hayajonlanib baravariga so‘radik:*

*– Nima olib keldingiz? Nima keltirdingiz?*

خویشاوند ما ، رویش را سوي برادرم کرد و با غرشي پرسید :

- چه حال دارید ، خوب هستید ؟(سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Qarindoshimiz akamga yuzlanib, jerkib so‘radi:*

*– Ahvollaringiz qalay, yaxshimisizlar?*

حیران حیران پرسیدم:

« سردت است؟ خنک میخوری؟ در این تابستان؟ » ( ببرک ارغند. شراره.)

*Hayron bo‘lib so‘radim:*

*– Sovqotyapsanmi? Sovuq yeyapsanmi? Shu yozda-ya?*

Bu misollar ko‘chirma gapning muallif gapiga nisbatan tobe ekanligini ko‘rsatadi, chunki muallif gapi tarkibidagi پرسیدن *so‘ramoq* fe’li ko‘chirma gapning faqat so‘roq gap tipida shakllanishini talab qiladi.

صدا زدن *qichqirmoq; chaqirmoq* fe’li ham ko‘pincha buyruq mazmunidagi ko‘chirma gapni nutqqa kiritadi. Bunday paytda ko‘chirma gap tarkibida undalma, undovlar ishtirok etishi mumkin:

فردا، کاکه مست الست، ... از پشت دیوار قصر بی خوف و بیم صـــدا میزند :

او بچه حاکم ! او پلو خور ! ما آمـــدیم چی میگی ؟

( محمد اکرم عثمان .وقتیکه نی ها گل میکنند/www.kabolnath.de )

*Ertasi kuni Koka mast-alast ... saroy devori ortidan qo‘rqmay qichqiradi:*

*–Hoy, hokimning o‘g‘li! Hoy, palovxo‘r! Biz keldik, nima deysan?*

... و از دهن در قهـقه صدا میزند :

خو بچی حاکم باز چی شد که موتاج ما شدی؟ اینه آمدیم بگو!

( محمد اکرم عثمان .وقتیکه نی ها گل میکنند/www.kabolnath.de )

*... va eshikdan qah-qaha otib kulgancha chaqiradi:*

*– Hoy, hokimning o‘g‘li, yana nima bo‘ldiki, bizga muhtoj bo‘lib qolding?*

*Mana, keldik, gapir!*

و صبح ها همینکه لطیف از خواب برمیخاست صدا میزد :
بابه، بابه جان ! بابیم نامده ؟( محمد اکرم عثمان .وقتیکه نی ها گل میکنند/www.kabolnath.de )

*Ertalablari Latif uyqudan turishi bilan chaqirardi:*

*– Dada, dadajon! Dadam kelmadilarmi?*

Demak, muallif gapi tarkibidagi nutq fe'llari va ularni izohlovchi birliklar ko‘chirma gapning kommunikativ mazmuni, intonatsiyasi, so‘zlovchining ruhiy holati hamda suhbatdoshiga munosabatini konkretlashtiradi.

Undov xarakteriga ishora qiluvchi فریاد زدن *qichqirmoq, xitob qilmoq*, فریاد *faryod ko‘tarmoq* (*faryodi ko‘tarilmoq*) yoki آواز کسی بلند شدن *ovozi ko‘tarilmoq*, کسی بلند شدن آواز *ovozi (baland) ko‘tarilmoq (yangramoq)* kabi fe'llar so‘zlovchining his-hayajonini, bayon qilinayotgan fikrga uning munosabatini ko‘rsatadigan undov-ko‘chirma gapni matnga kiritadi:

... برادرم تا آن را دید سوي مادر اشاره کرد و فریاد زد :
– هله ، هله ، تیز بیا ! ببین چه رسمي کشیده !
(سپوژمي زریاب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Akam uni ko‘rgan zahoti onamga ishora qildi va qichqirdi:*

*– Bo‘l, tez kel! Qara, qanday rasm chizibdi!*

حرف مادرم تمام نشده بود که باز فریاد خویشاوند ما بلند شد :
– خُرد چیست؟ کجایش خُرد است ؟ همین حالا نکاحش روا ست !
(سپوژمي زریاب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Onamning gapi tugamay turib, qarindoshimiz yana qichqirdi:*

*– Nimasi kichkina? Qayeri kichkina? Hozirning o‘zidayoq nikohlash mumkin!*

باز آواز خویشاوند ما بلند بلند شد :
– مه از خدا بترسم یا شما از خدا بترسید ؟ شما از خدا بترسید که خدا را نمي شناسید... خدا شما را مي زند. همه تان را مي زند. (سپوژمي زریاب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Qarindoshimizning ovozi yanada balandladi:*

*– Men Xudodan qo‘rqaymi yoki sizlar Xudodan qo‘rqinglarmi? Sizlar Xudodan qo‘rqinglar, Xudoni tanimaysizlar… Xudo sizlarni uradi. Hammangizni uradi.*

و مادرم با شادي و شوقي که از او بعید بود ، تقریباً فریاد زد :
– بیشك ... بیشك... (سپوژمي زریاب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Onam kutilmagan quvonch va hayajon bilan deyarli qichqirib yubordi:*

*– Albatta… albatta… .*

جواب دادن، پاسخ دادن *javob bermoq (qaytarmoq, qilmoq)* kabi ot+fe'l tipida yasalgan murakkab fe'llar muallif gapining kesimi bo‘lib keladi va darak-ko‘chirma gaplarning tashkil topishida muhim rol o‘ynaydi:

مادرم از زیر چادرش آهسته پاسخ داد :

- شکر خوب هستیم.
برادرم تکرار کرد :
– شکر خوب هستیم. (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Onam chodiri ostidan sekin javob berdi:*
*– Shukr, yaxshimiz.*
*Akam takrorladi:*
*– Shukr, yaxshimiz.*

پدرش جواب میدهد :
–هان همو کوه. (محمد اکرم عثمان .وقتیکه نی ها گل میکنند/ www.kabolnath.de)

*Otasi javob beradi:*
*– Ha, o‘sha tog‘.*

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan muallif gapining fe’l-kesimlari ko‘chirma gapga nisbatan umumiy ma’no kasb etadi. Bu umumiylik ko‘chirma gapning sintaktik strukturasida ham o‘z ifodasini topadi.

Ko‘chirma gapni matnga kiritishda eng faol qo‘llanadigan گفتن *demoq* fe’lidir. Uning ma’nosi juda umumiy bo‘lganligidan modallik darajasi va stilistik ottenkasi turlicha bo‘lgan har qanday sintaktik strukturadagi ko‘chirma gaplarni matnga kirita oladi. Demak, گفتن *demoq* fe’li yordamida intonatsion ottenkalarga boy bo‘lgan darak, so‘roq, buyruq gaplar hamda so‘zlovchining turli his-tuyg‘usini ifodalaydigan undov gaplar kiritiladi:

گفت :
– چوچه ها ، براي تان چيزي آورده ام.
(سپوژمي زرياب. خروس من www.afghanasamai.com // )

*Dedi: «Bolalar, sizlarga bir narsa olib keldim».*

به نظرم آمد که به من خطاب کرد و گفت :
– رسم هایت را رنگ هم کن . (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Menga murojaat qilgandek bo‘lib, dedi:*
*– Rasmlaringni bo‘yab ham qo‘y (rasmlaringga rang ham ber).*

رویش را سوي من کرد و انگار با خود گپ بزند و گفت :
– نظر نشوي ! نظر نشوي !

*Yuzini menga burdi va go‘yo o‘zi bilan gaplashayotgandek dedi:*
*– Ko‘z tegmasin! Ko‘z tegmasin!*

مادرم باز از جایش پرید. عذر آمیز و ترسیده از زیر چادرش گفت :
– کرده ایم ... کرده ایم ... حالا مي آورم ... زود...
(سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Onam yana joyidan sapchib turdi. Uzr so‘raganday, qo‘rquv bilan chodiri ostidan dedi:*
*– Qilganmiz (pishirganmiz)… qilganmiz… Hozir olib kelaman… tez…*

خويشاوند ما انگشت اشاره اش را تاپ تاپ به سينه اش زد و گفت :

– من خدا را مي شناسم! (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Qarindoshimiz ko‘rsatkich barmog‘ini ko‘ksiga tap-tap urdi va dedi:*

*– Men Xudoni taniyman!*

Bu misollardagi گفتن *demoq* fe’li ko‘chirma gapning sintaktik strukturasini, uning intonatsiyasini belgilay olmaydi. Bunday paytda ko‘chirma gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turi va intonatsiyasi uning sintaktik strukturasi va leksik tarkibi bilan belgilanadi. Turlicha tovlanib turadigan ko‘chirma gap intonatsiyasini to‘liq tasavvur qilish uchun yuqoridagi shart-sharoitlar etarli darajada bo‘lmaganligi sababli, muallif gapiga turli izohlovchi so‘zlar kiritiladi. Bu so‘zlar گفتن *demoq* fe’lini izohlash orqali ko‘chirma gapning qanday talaffuz qilinishi kerakligini qat’iy belgilaydi. Natijada ko‘chirma gap bilan muallif gapi o‘rtasida ma’lum bog‘lanish vujudga keladi. Bu ko‘chirma gap bilan muallif gapining o‘ziga xos sintaktik birlik ekanligini ko‘rsatadi:

ذوقزده مي گفتم :

– يك آهو ... يك آهو ... (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Zavqlanib derdim:*

*–Bir ohu ... . Bir ohuni… .*

بي اختيار گفتم :

– چه وقت شام مي شود ؟ (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Beixtiyor dedim:*

*– Qachon kech kiradi?*

برادرم گردنش را كج كرد و آهسته گفت :

– رسم هر چيز را. (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Akam boshini qiyshaytirib, sekin dedi:*

*– Har narsaning rasmini.*

يك باره مثل اين كه تازه متوجه شده باشد با خشونت گفت :

– اين چي طور نشستن است؟ سينه را اين طور پيش مي گيرد... .

(سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Birdan, go‘yo endigina payqab qolgandek, qo‘rslik bilan dedi:*

*– Bu qanday o‘tirish? Ko‘kragini shunaqa qilib kerib o‘tiradimi?..*

مادرم ... باز لرزان و شكسته شكسته گفت :

– ا..ز.. خـــ... د...ا بتـــ...رسيـــ...د ... از.. خدا ... بترسيد...

(سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Onam ... yana titrab, tutilib-tutilib dedi:*

*– Xu…dodan qo‘r…qing… Xudodan … qo‘rqing…*

Maqsadimiz muallif gapining kesimi bo‘lib kelgan hamma nutq

fe’llarining ko‘chirma gap bilan bo‘lgan fikriy munosabati, mosligini bayon qilish emas, balki ko‘chirma gap bilan muallif gapining o‘zaro bog‘lanishli munosabatda ekanligi qayd qilib o‘tishdir.

Yuqorida qayd qilib o‘tilgan misollarda muallif gapining fe’l kesimi so‘zlovchining o‘z fikrini qay holatda bayon etganini va shunga bog‘liq ravishda ko‘chirma gap strukturasini belgilab bergan. Demak, ko‘chirma gap bilan muallif gapi bitta sintaktik tuzilmaning munosabatdosh qismlaridir.

**Ko‘chirma gaplarning tuzilish xususiyatlari**

Ko‘chirma gap bir so‘zdan, bir gap yoki bir necha gapdan, ba’zan butun bir abzatsdan iborat bo‘lishi, bir sostavli yoki ikki sostavli gaplardan tashkil topishi mumkin.

Misollar:

رنگش همرنگ چادر سپیدش شد و بریده بریده گفت :

– داده ام ... مي دهم . (سپوژمي زریاب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Rangi oppoq chodrasidek edi va uzuq-yuluq dedi:*

*– Berganman… Beraman.*

باز آواز خویشاوند ما بلند بلند شد :

– مه از خدا بترسم یا شما از خدا بترسید ؟ شما از خدا بترسید که خدا را نمي شناسید... خدا شما را مي زند. همه تان را مي زند. (سپوژمي زریاب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Qarindoshimizning ovozi yanada balandladi:*

*– Men Xudodan qo‘rqaymi yoki sizlar Xudodan qo‘rqinglarmi? Sizlar Xudodan qo‘rqinglar, Xudoni tanimaysizlar… Xudo sizlarni uradi. Hammangizni uradi.*

گفت:

« من سه صد و شصت رنگ میخوانم. تو هم میخوانی. بخوان! با من بخوان! چرا خاموش استی، چرا صدایت بیرون نمیشود؟ تو خُه هم صدایی رسا و زیبا داشتی. خمیر صدای ترا نیز از بهشت آورده بودند!» ( ببرک ارغند. شراره/ http:rawzana.com// 25.03.2004)

*Dedi:*

*«Men uch yuz oltmish xil ohangda kuylayman. Sen ham kuylaysan. Kuylagin! Men bilan birga kuyla! Nega jimsan, nega ovozing chiqmayapti? Sening ham jarangdor va chiroyli ovozing bor edi-ku! Sening ovozingning loyini ham jannatdan keltirishgan edi!»*

Xulosa qilib aytganda, ko‘chirma gaplar tuzilish jihatidan juda xilma-xil bo‘lib, u bir yoki bir necha nisbiy mustaqil gaplardan tashkil topishi, shuningdek, bir sostavli yoki ikki sostavli, to‘liq yoki to‘liqsiz, sodda va qo‘shma gaplardan shakllanishi mumkin.

**Ko‘chirma gapda gap bo‘laklarining tartibi**

Muallif o‘zganing gapini hech o‘zgarishsiz bayon qilar ekan, ko‘chirma gapdagi gap bo‘laklarining tartibi ham aynan saqlanadi.

Umuman olganda, ko‘pincha ko‘chirma gapdagi gap bo‘laklarining tartibi

dariy adabiy tilidagi gap bo‘laklari tartibining umumiy qoidasiga asoslanadi, ya’ni bosh bo‘laklarning tartibi ega+kesim shaklida, to‘ldiruvchi bilan kesim tartibi to‘ldiruvchi+kesim shaklida, hol bilan kesim tartibi esa hol+kesim shaklida bo‘ladi.

Misollar:

دستش را از بغلش بيرون كرد و گفت :
– يك قلم دو رنگه براي تان آورده ام.
(سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Qo‘lini qo‘ynidan chiqardi va dedi:*
*– Sizlarga ikki xil rangli qalam olib kelganman.*

و رويش را سوي من كرد و تضرع آميز گفت :
– يك ساعت چپ بنشين! (سپوژمي زرياب. خروس من//www.afghanasamai.com)

*Va yuzini menga burib, yolvorib dedi:*
*– Bir oz jim o‘tirgin!*

**Xulosa.** Maqola mavzusi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot tahlili quyidagi xulosalarga olib keladi:

1. Ko‘chirma gap bilan muallif gapining bir butun sintaktik birlik ekanligini nazarda tutgan holda, bu butunlikka nisbatan ko‘chirma gapli tuzilma terminini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

2. Aytilgan (talaffuz qilingan) yoki eshitilgan voqeani ifodalaydigan ko‘chirma gaplar real ko‘chirma gaplardir, so‘zlanmagan, faqat o‘ylangan, mo‘ljal qilingan voqeani bildiradigan ko‘chirma gaplar irreal ko‘chirma gaplardir.

3. Ko‘chirma gapning o‘ziga xos sintaktik xususiyatlari muallif bayonidan farqli ravishda, asosan, nutqiy muomalada yuz beradigan fikr almashish shart-sharoiti bilan belgilanadi. Demak, ko‘chirma gap so‘zlashuv tilining xilma-xil struktur va intonatsion xususiyatlarini aks ettiradi.

4. Muallif bayoniga nisbatan ko‘chirma gapda so‘roq, buyruq va emotsional gaplar ko‘p qo‘llanadi. Bunday gaplar kuzatilgan maqsad bilan bog‘liq o‘ziga xos grammatik va intonatsion xususiyatlarga juda boy. Shuning uchun ham personaj nutqi ifodali, jonli va emotsional xarakterga ega bo‘ladi.

5. Ko‘chirma gaplar strukturasiga ko‘ra juda xilma-xil bo‘lib, ikki sostavli yoki bir sostavli, to‘liq yoki to‘liqsiz, sodda yoki qo‘shma gaplardan tuzilishi mumkin.

6. Ko‘chirma gapdagi gap bo‘laklarining tartibi adabiy dariy tilidagi odatdagi tartibga asoslanadi. Ba’zan ko‘chirma gapdagi gap bo‘laklarining inversiyaga uchrashi ko‘chirma gapning jonli so‘zlashuv nutqi ekanligi bilan izohlanadi.

7. Muallif gapining asosiy funksiyasi ko‘chirma gapni matnga, nutqqa kiritish va uni turli jihatdan baholashdir. Uning darak gap shaklida qo‘llanishi

kesimning faqat xabar bildiruvchi fe’llar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi. Muallif gapining kesimi ko‘pincha so‘zlashish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan nutq fe’llari bilan ifodalanadi. Nutq fe’llari o‘zining o‘timliligi, fikriy tugallikka ega emasligi tufayli ko‘chirma gap bilan muallif gapini biriktiruvchi vosita sifatida qatnashadi. Tadqiqot materiallarida quyidagi nutq fe’llari va fe’l birikmalari ko‘p uchradi: گفتن *demoq*, *aytmoq*, *gapirmoq*, *so‘zlamoq*, پرسیدن *so‘ramoq*, جواب دادن / پاسخ دادن *javob bermoq*, فرمودن *buyurmoq*, تکرار کردن *takrorlamoq*, تأکید کردن *ta’kidlamoq*, فریاد زدن *qichqirmoq*, *xitob qilmoq*, فریاد کسی بلند شدن *faryod ko‘tarmoq* (*faryodi ko‘tarilmoq*) yoki آواز کسی بلند شدن *ovozi ko‘tarilmoq*, آواز کسی بلند بلند شدن *ovozi (baland) ko‘tarilmoq (yangramoq)*, صـدا زدن *chaqirmoq*, زمزمه کردن *xirgoyi qilmoq*, افزودن *qo‘shimcha qilmoq*, در ادامه افزودن *davom ettirib demoq (qo‘shimcha qilmoq)* , ادامه کردن*davom ettirmoq*, از دهان جهیدن *og‘zidan chiqmoq*, خبر دادن *xabar qilmoq*, غریدن *shang‘illamoq*, *bobillamoq* kabi.

## YAPON FAVQULODDA XABARLARIDA OGOHLANTIRUVCHI DIREKTIV STRATEGIYALAR

***NADIRA XALMURZAYEVA***
*Dotsent, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), TDSHU*
*ORCID: 0009-0003-6652-7454*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Yaponiya rasmiy tashkilotlarining favqulodda xabarlaridagi direktiv nutq aktlarining grammatik shakli va real kommunikativ kuchi o‘rtasidagi munosabat pragmalingvistik nuqtayi nazardan o‘rganilgan. Tadqiqotning maqsadi Yaponiya meteorologiya agentligi hamda Yong‘in va ofatlarni boshqarish agentligining tsunami, zilzila hamda evakuatsiyaga oid rasmiy xabarlarida qo‘llanilgan ogohlantiruvchi direktiv strategiyalarning illokutiv kuchi, leksik-grammatik markerlari va kontekstual majburiyligini aniqlashdan iborat. Empirik material sifatida maqsadli tanlab olingan o‘nta direktiv ifoda pragmalingvistik, nutq aktlari, kontekstual, funksional hamda leksik-grammatik tahlil usullari yordamida kvalitativ o‘rganildi.*

*Natijalar ogohlantiruvchi direktivlarning beshta funksional-pragmatik turini ajratish imkonini berdi: zudlik bilan xavfsiz joyga ko‘chishga undash, xavfli harakatni taqiqlash, shaxsiy xavfsizlikni ta’minlash, evakuatsiyaga tayyorgarlik ko‘rish va axborotni kuzatishga yo‘naltirish hamda adresatning qaror qabul qilish reaksiyasini tartibga solish. Tahlil jarayonida ～てください, ～ないでください, ～てはいけません va ～ましょう kabi konstruktsiyalarning direktiv kuchi faqatgina ularning grammatik semantikasi bilan emas, balki institutsional adresant vakolati, xavf darajasi, vaqt tanqisligi va leksik kuchaytiruvchilar bilan birgalikda shakllanishi isbotlandi.*

*Xulosa sifatida, odatda iltimos yoki hurmat ma'nosini anglatuvchi ～てください shakli favqulodda vaziyat kontekstida majburiy institutsional direktiv vazifasini bajarishi anqilandi. Maqola natijalari favqulodda xabarlarda hurmat shakli va qat'iy ko'rsatma bir-biriga zid kelmasligini, aksincha, hurmatli grammatik ifoda rasmiy uslubni saqlagan holda, majburiylik kuchi real xavf hamda harakatning kechiktirib bo'lmasligi orqali reallashishini ko'rsatadi.*

***Tayanch so'z va iboralar:*** *yapon tili, favqulodda xabar, direktiv nutq akti, ogohlantiruvchi strategiya, illokutiv kuch, deontik majburiylik, institutsional adresant, evakuatsiya, xavf darajasi, pragmalingvistika.*

***Аннотация.*** *В данной статье с прагмалингвистической точки зрения исследуется соотношение между грамматической формой и реальной коммуникативной силой директивных речевых актов в официальных экстренных сообщениях государственных структур Японии. Цель исследования заключается в определении иллокутивной силы, лексико-грамматических маркеров и контекстуальной обязательности предупредительных директивных стратегий, направленных на побуждение адресата к безопасным действиям или предотвращение опасного поведения в экстренных материалах Японского метеорологического агентства и Агентства по управлению пожарами и ликвидации последствий стихийных бедствий. Эмпирическим материалом послужили десять директивных выражений, отобранных методом целевой выборки из официальных электронных оповещений о цунами, землетрясениях и эвакуации. Материал был изучен качественно с использованием прагмалингвистического, контекстуального, функционального, лексико-грамматического анализа и теории речевых актов.*

*Результаты позволили выделить пять функционально-прагматических типов предупредительных директивов: призыв к незамедлительной эвакуации, запрет на опасные действия, обеспечение личной безопасности, ориентация на подготовку к эвакуации и мониторинг информации, а также регулирование оценки риска и принятия решений адресатом. Анализ показал, что директивная сила конструкций ～てください, ～ないでください, ～てはいけません и ～ましょう зависит не только от их грамматического значения, но и формируется в совокупности с институциональными полномочиями адресанта, уровнем угрозы, дефицитом времени и лексическими интенсификаторами.*

*В качестве вывода установлено, что форма ～てください, выражающая в повседневном общении просьбу или вежливое указание, в контексте чрезвычайной ситуации выполняет функцию обязательного институционального директива. Результаты также демонстрируют, что формы вежливости и категоричные предписания в экстренных сообщениях не противоречат друг другу: вежливое грамматическое выражение сохраняет официальный стиль, тогда как его обязательная сила реализуется за счет реальной опасности, институционального авторитета и безотлагательности действий.*

***Ключевые слова и выражения:*** *японский язык, чрезвычайное сообщение, директивный речевой акт, предупреждающая стратегия, иллокутивная сила,*

*деонтическая обязательность, институциональный адресант, эвакуация, степень опасности, прагмалингвистика.*

***Abstract.*** *Official emergency messages do more than transmit information about danger: they regulate the recipient's subsequent behaviour and direct the public towards safe action. A pragmalinguistic study of Japanese emergency messages therefore makes it possible to determine the relationship between the grammatical form of a directive and its actual communicative force. The study aims to identify the illocutionary force, lexical and grammatical markers, and contextual obligation of warning directive strategies that induce safe action or prohibit dangerous behaviour in official Japanese messages. The empirical material consists of ten directive expressions purposefully selected from the official electronic resources of the Japan Meteorological Agency and the Fire and Disaster Management Agency concerning tsunami risk, earthquakes, and population evacuation. The material was examined through pragmalinguistic analysis, speech-act analysis, contextual interpretation, functional description, and lexical-grammatical analysis. The results reveal five functional-pragmatic strategies: urging immediate movement to a safe place, prohibiting dangerous actions, ensuring personal safety according to the situation, preparing for evacuation and monitoring official information, and regulating the recipient's risk assessment and decision-making. The analysis of the constructions ～てください, ～ないでください, ～てはいけません, and ～ましょう demonstrates that directive force cannot be explained by grammatical meaning alone. It emerges through the interaction of institutional authority, the level of danger, time pressure, lexical intensifiers, and the consequences of non-compliance. Comparison with the author's earlier studies of Japanese communicative acts and politeness strategies confirms the importance of contextual interpretation, while the present material shows that emergency communication gives this factor a distinct deontic function. The study concludes that ～てください, normally associated with a request or polite instruction, functions as an obligatory institutional directive in an emergency context.*

***Keywords and phrases:*** *Japanese language, emergency message, directive speech act, warning strategy, illocutionary force, deontic obligation, institutional sender, evacuation, danger level, pragmalinguistics.*

## KIRISH

Favqulodda vaziyat sharoitida tarqatiladigan rasmiy xabarlarning vazifasi voqea haqida axborot berish bilangina cheklanmaydi. Bunday xabar adresatni yuzaga kelgan yoki kutilayotgan xavfdan ogohlantirishi, vaziyatni to‘g‘ri baholashga yo‘naltirishi va uning keyingi harakatini tartibga solishi kerak. Shu sababli favqulodda xabarlarda axborot berish va harakatga undash funktsiyalari bir-biridan ajralmagan holda namoyon bo‘ladi.

Rasmiy xabarning adresanti xavf haqidagi malumotni yig‘ish, baholash va tarqatish vakolatiga ega bo‘lgan institutsional subektdir. Yaponiya sharoitida bunday vazifani, jumladan, Yaponiya meteorologiya agentligi, Yong‘in va ofatlarni boshqarish agentligi hamda mahalliy boshqaruv organlari bajaradi.

Adresat esa alohida suhbatdoshdan ko‘ra muayyan xavf hududida turgan ommaviy auditoriya yoki uning aniq belgilangan guruhidan iborat bo‘ladi.

Nutq aktlari nazariyasida so‘zlovchi muayyan lisoniy ifodani qo‘llash orqali faqat propozitsion mazmunni bayon qilmay, muayyan harakatni ham amalga oshirishi takidlanadi [1; 2]. Direktiv nutq aktlarida adresantning asosiy illokutiv maqsadi adresatni kelgusidagi muayyan harakatni bajarishga yoki uni bajarmaslikka undashdan iborat. Buyruq, talab, iltimos, tavsiya, chaqiriq, ogohlantirish va taqiq kabi nutqiy harakatlar shu umumiy xususiyat bilan birlashadi [2, 12–13-b.].

Biroq direktiv nutq aktining kommunikativ kuchi har doim ham uning grammatik shakli bilan bir xil darajada namoyon bo‘lmaydi. Bilvosita nutq aktlarida ifodaning lug‘aviy-grammatik ko‘rinishi bilan voqeiy illokutiv maqsad o‘rtasida farq yuzaga kelishi mumkin [3]. Xushmuomalalik prinsipi adresatga bosimni shaklan yumshatsa-da [4], kommunikativ niyatni anglash kontekst, ijtimoiy konventsiyalar va adresatning inferentsial talqiniga tayanadi [5]. Ayniqsa, institutsional muloqotda shaklan iltimos yoki tavsiyani anglatuvchi konstruktsiya kontekst tasirida bajarilishi shart bo‘lgan rasmiy ko‘rsatmaga aylanishi mumkin. Ommaviy joylardagi yozma ko‘rsatmalar ham adresat xatti-harakatini tartibga solishda grammatik shakldan tashqari ijtimoiy vaziyat, adresant vakolati va harakatni bajarmaslik oqibatiga tayanadi [6]. Favqulodda vaziyatda ushbu omillarning tasiri yanada kuchayadi, chunki ko‘rsatmani noto‘g‘ri talqin qilish yoki kech bajarish inson hayoti va sog‘lig‘iga tahdid tug‘dirishi mumkin.

Muallifning avvalgi tadqiqotlarida yapon kommunikativ aktining kontekstual xususiyatlari hamda yapon va o‘zbek muloqotida noaniqlik semantikasi asosida shakllanadigan xushmuomalalik strategiyalari yoritilgan [7; 8]. Ushbu nazariy kuzatishlar direktiv ifodalarni faqat grammatik shakl nuqtai nazaridan emas, balki kommunikativ vaziyat, adresant–adresat munosabati va kontekstual talqin bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur maqolada esa ushbu masala mustaqil empirik material — rasmiy favqulodda xabarlar asosida tahlil qilinadi.

Qiyoslash natijasida kontekstning direktiv kuchni shakllantirishdagi vazifasi ikki xil kommunikatsiya turida turlicha namoyon bo‘lishi aniqlanadi. Shaxslararo muloqotda adresant shakl tanlash orqali ijtimoiy masofa, hurmat va o‘zaro munosabatni boshqaradi; adresat esa ifodaning bilvosita mazmunini kommunikativ vaziyatdan kelib chiqib anglaydi. Favqulodda xabarda esa adresantning institutsional maqomi oldindan belgilangan bo‘lib, direktivning asosiy vazifasi munosabatlarni yumshatishdan ko‘ra xavfsiz harakatni kechiktirmasdan taminlashga qaratiladi. Shunga qaramay, yapon tilining hurmat meyori saqlanadi va qatiy talab ko‘p hollarda qo‘pol buyruq shaklida emas, ～てください konstruktsiyasida ifodalanadi. Bu holat hurmat va majburiylik bir-birini inkor qilmasligini, ular rasmiy favqulodda diskursda turli pragmatik sathlarga

tegishli ekanini ko‘rsatadi. Tahlil qilingan materialda xavfning vaqt parametri ham strategiyalarni farqlashda muhim mezon bo‘ldi. ただちに va 直ちに kabi ravishlar harakatni darhol boshlashni talab qiladi; 解除されるまで konstruktsiyasi esa taqiqning amal qilish chegarasini rasmiy qaror bilan bog‘laydi. 必ず, 絶対に va 全員 leksemalari majburiylikni kuchaytirib, adresatga qoldirilgan subektiv tanlov imkoniyatini qisqartiradi. Shunday qilib, xavf darajasi oshgan sari direktiv tasir grammatik konstruktsiya, vaqt ko‘rsatkichi va leksik kuchaytiruvchilarning o‘zaro birikishi orqali izchil ravishda qatiylashadi.

Shu nuqtai nazardan, maqolada ogohlantiruvchi direktiv strategiya deganda adresatni xavf haqida xabardor qilish bilan bir vaqtda uni xavfsiz harakatni amalga oshirishga yoki xavfli xatti-harakatdan tiyilishga undaydigan pragmalingvistik usul tushuniladi.

**MAQSAD VA VAZIFA**

Maqolaning maqsadi yapon tilidagi rasmiy favqulodda xabarlarda adresatni xavfsiz harakatga undash va xavfli harakatdan tiyishga xizmat qiluvchi ogohlantiruvchi direktiv strategiyalarning illokutiv kuchi, leksik-grammatik markerlari va kontekstual majburiyligini aniqlashdan iborat.

Belgilangan maqsadga erishish uchun rasmiy xabarlardagi direktiv ifodalarni funktsional-pragmatik guruhlarga ajratish, ularning asosiy grammatik va leksik markerlarini tavsiflash, xavf darajasi bilan deontik majburiylik o‘rtasidagi munosabatni aniqlash hamda kutilayotgan perlokutiv natijani izohlash vazifalari qo‘yildi.

**USULLAR**

Tahlil uchun Yaponiya meteorologiya agentligi va Yaponiya Yong‘in va ofatlarni boshqarish agentligining rasmiy elektron materiallaridan maqsadli tanlash usuli asosida ajratilgan o‘nta direktiv ifoda olindi. Tanlashning asosiy mezoni sifatida adresatga qaratilgan aniq harakat talabi, taqiq, tayyorgarlikka chaqiriq yoki xavfsiz xatti-harakatni belgilovchi pragmatik ko‘rsatmaning mavjudligi qabul qilindi.

Pragmalingvistik tahlil har bir ifodaning illokutiv maqsadi, adresant va adresat maqomi, deontik majburiylik darajasi hamda kutilayotgan perlokutiv natijani aniqlash uchun qo‘llandi. Nutq aktlari tahlili konstruktsiyaning direktiv turini belgilashga, kontekstual tahlil grammatik shaklning favqulodda vaziyatdagi qayta talqinini izohlashga, funktsional tavsif strategiyalarni guruhlashga, leksik-grammatik tahlil esa ～てください, ～ないでください, ～てはいけません, ～ましょう kabi konstruktsiyalar va ただちに, 直ちに, 絶対に, 必ず singari kuchaytiruvchilarning vazifasini ochib berishga xizmat qildi.

Tanlangan o‘nta ifoda miqdoriy umumlashtirish uchun emas, turli xavf bosqichlarida qo‘llanadigan asosiy direktiv modellarni sifat jihatidan chuqur tavsiflash uchun shakllantirildi. Maqsadli tanlashda bir xil qolipning ko‘p marta takrorlanishi emas, illokutiv maqsad, grammatik konstruktsiya, leksik kuchaytiruvchi va xavf darajasi jihatidan farqlanuvchi namunalar qamrab olinishi ustuvor mezon bo‘ldi. Shu bois material ～てください, ～ないでください, ～てはいけません va ～ましょう shakllarining evakuatsiyaga undash, taqiqlash, tayyorgarlikka chaqirish va adresatning xavfni baholashini tartibga solish kabi vazifalarini o‘zaro qiyoslash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari butun yapon favqulodda kommunikatsiyasiga statistik jihatdan tatbiq etiladigan xulosa sifatida emas, rasmiy xabarlardagi tipik pragmalingvistik mexanizmlarni aniqlovchi sifat tahlili sifatida talqin qilindi.

**NATIJALAR VA MULOHAZA**

Favqulodda xabarda direktivlik adresantning institutsional vazifasidan kelib chiqadi. Yaponiya meteorologiya agentligi tomonidan tarqatiladigan tsunami ogohlantirishida adresant muayyan harakatni shaxsiy manfaat uchun talab qilmaydi; u mavjud xavf haqidagi rasmiy malumotga tayanib, aholining xavfsizligini taminlashga qaratilgan harakat modelini belgilaydi.

Shu bois favqulodda xabardagi direktiv munosabatni odatiy «so‘zlovchi – tinglovchi» munosabati bilan cheklab bo‘lmaydi. Unda «vakolatli tashkilot – xavf hududidagi aholi» munosabati shakllanadi. Adresat xabarning institutsional manbasini ishonchli va harakatni belgilash vakolatiga ega subekt sifatida qabul qiladi. Xavf haqidagi rasmiy xabarlarda manbaning ishonchliligi, xabarning aniqligi va unda himoyaviy harakatning ko‘rsatilishi aholining javob reaktsiyasiga tasir qiluvchi asosiy omillardan hisoblanadi [9; 10].

Ogohlantiruvchi direktivning pragmatik kuchi adresantning rasmiy vakolati, adresatning xavf hududida turishi, harakatni bajarish uchun vaqtning cheklanganligi, ko‘rsatmani bajarmaslikning ehtimoliy oqibati, direktivni ifodalovchi grammatik konstruktsiya hamda harakatning zudlik yoki qatiylik darajasini ko‘rsatuvchi leksik vositalarning birgalikdagi tasiri asosida shakllanadi.

Tahlil qilingan misollarda mazkur omillarning turli darajada birikishi ogohlantiruvchi direktiv strategiyalarni besh funktsional-pragmatik turga ajratish imkonini berdi. Ayrim xabarlar bir vaqtning o‘zida ikki pragmatik vazifani bajarishi mumkin; shu bois tasnif xabarning ustuvor illokutiv maqsadi asosida amalga oshirildi.

Strategiyalarni ajratishda xabarning sirtqi grammatik shaklidan ko‘ra uning ustuvor kommunikativ vazifasi asos qilib olindi. Masalan, ～てください shakli turli misollarda bir xil grammatik ko‘rinishga ega bo‘lsa-da, bir holatda xavfli hududdan darhol chiqishni, boshqa holatda esa mavjud bino ichida nisbatan

xavfsiz nuqtaga ko‘chishni talab qiladi. Demak, konstruktsiyaning funktsional turi felning lug‘aviy mazmuni, harakat yo‘nalishi, adresatning joylashuvi va rasmiy xavf darajasi bilan birgalikda aniqlanadi. Taqiq konstruktsiyalarida ham shunga o‘xshash farq kuzatiladi: ～ないでください ko‘rsatmasi muayyan harakatdan tiyilishni hurmat shaklida bildirsa, ～てはいけません harakatni institutsional jihatdan mutlaqo nomaqbul deb belgilaydi. Shu tariqa grammatik variantlar xavfsizlik stsenariysining turli bosqichlarini ifodalaydi.

Yaponiya meteorologiya agentligining katta tsunami va tsunami ogohlantirishlarida sohil hamda daryo bo‘yida turgan aholiga qaratilgan quyidagi ifoda qo‘llanadi:

沿岸部や川沿いにいる人は、ただちに高台や避難ビルなど安全な場所へ避難してください。

*Enganbu ya kawazoi ni iru hito wa, tadachi ni takadai ya hinan biru nado anzen na basho e hinan shite kudasai.*

«Sohil yoki daryo bo‘yida bo‘lsangiz, zudlik bilan baland joyga, evakuatsiya binosiga yoki boshqa xavfsiz joyga ko‘ching» [11].

Mazkur xabarda adresat doirasi aniq belgilangan: 沿岸部や川沿いにいる人 – sohil yoki daryo bo‘yida turgan shaxslar. Propozitsion mazmunda harakatning boshlang‘ich holati, yo‘nalishi va maqsadi ifodalanadi. Adresat xavfli hududni tark etib, baland joy, evakuatsiya binosi yoki boshqa xavfsiz makonga ko‘chishi lozim.

Direktiv illokutiv kuch 避難してください konstruktsiyasi orqali ifodalangan. ～てください shakli yapon tilida odatda hurmat bilan bildirilgan iltimos yoki ko‘rsatma sifatida tavsiflanadi. Biroq mazkur xabarda harakat adresatning ixtiyoriy tanloviga qoldirilmagan. Tsunami xavfi, adresantning rasmiy vakolati va harakatni bajarmaslikning ehtimoliy oqibati uni yuqori deontik majburiylikka ega ko‘rsatmaga aylantiradi.

ただちに – «zudlik bilan» ravishi direktivning vaqt parametrini belgilaydi. U harakatni keyinroq bajarish yoki vaziyatni uzoq muhokama qilish imkoniyatini istisno etadi. Natijada grammatik jihatdan hurmatli shaklda berilgan ifoda pragmatik jihatdan qatiy evakuatsion direktiv vazifasini bajaradi.

Tsunami ogohlantirishining pastroq darajasida ham suvda yoki sohil yaqinida turgan shaxsga aniq harakat algoritmi taqdim etiladi:

海の中にいる人はただちに海から上がって、海岸から離れてください。

*Umi no naka ni iru hito wa tadachi ni umi kara agatte, kaigan kara hanarete kudasai.*

«Dengizda bo‘lsangiz, zudlik bilan suvdan chiqib, sohildan uzoqlashing» [12].

Bu misolda adresat 海の中にいる人 – dengizda turgan shaxs sifatida ajratilgan. Xabarda bir-biriga bog‘langan ikki harakat ketma-ket berilgan: dengizdan chiqish va sohildan uzoqlashish. 上がって shakli birinchi harakatni keyingi 離れてください direktiviga bog‘laydi.

Ko‘rsatmaning perlokutiv maqsadi xabarni anglashdan keyingi amaliy harakatda namoyon bo‘ladi: shaxs darhol suvdan chiqishi va ehtimoliy tsunami tasiri etib boradigan sohil hududidan uzoqlashishi kerak. Shu tariqa xabar aniq xatti-harakat stsenariysini shakllantiradi.

Ushbu strategiyaning nisbatan yumshoqroq ifodasi ～ましょう konstruktsiyasi orqali hosil qilinadi:

*ここなら安心と思わず、より高い場所を目指して避難しましょう。*

*Koko nara anshin to omowazu, yori takai basho o mezashite hinan shimashō.*

«Bu er etarlicha xavfsiz deb o‘ylab qolmasdan, yanada balandroq joyni ko‘zlab, xavfsiz hududga ko‘chaylik» [11].

～ましょう shakli so‘zlovchi va tinglovchini birgalikdagi harakat subekti sifatida ko‘rsatadi. Buyruq yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri talabdan farqli ravishda, u adresat bilan kommunikativ hamjihatlikni ifodalaydi. Shunga qaramay, favqulodda kontekstda ushbu shakl harakatning ixtiyoriyligini anglatmaydi.

ここなら安心と思わず qismi adresatda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan «bu joy etarlicha xavfsiz» degan xulosani oldindan rad etadi. Demak, xabar faqat jismoniy harakatni emas, xavfni subektiv baholash jarayonini ham tartibga soladi. Adresatdan mavjud joyda to‘xtab qolmasdan, yanada baland hududga harakatni davom ettirish kutiladi.

Tsunami bir martalik to‘lqin bilan cheklanmasligi mumkin. Shu sababli evakuatsiya qilingan shaxsning xavfsiz hududni erta tark etishi yoki sohilga qaytishi alohida taqiqlanadi:

津波警報が解除されるまで安全な場所から離れないでください。

*Tsunami keihō ga kaijo sareru made anzen na basho kara hanarenaide kudasai.*

«Tsunami ogohlantirishi bekor qilinmaguncha xavfsiz joyni tark etmang» [12].

～ないでください shakli adresatni harakatni amalga oshirishdan tiyishga xizmat qiladi. Hurmatli ifoda taqiqning direktiv kuchini kamaytirmaydi; rasmiy institutsional muloqot meyori saqlangan holda adresatning xatti-harakat doirasi cheklanadi.

解除されるまで – «bekor qilinguniga qadar» komponenti taqiqning vaqt chegarasini aniq belgilaydi. Adresat xavf darajasini shaxsiy kuzatuvi asosida baholab, o‘z xohishi bilan evakuatsiyani tugatishi mumkin emas. Taqiqning bekor bo‘lishi rasmiy ogohlantirishning bekor qilinishi bilan bog‘langan.

Mazkur nutq akti insonni takroriy to‘lqin xavfidan himoya qilishga qaratilgan cheklovdir. Shuning uchun uni himoyaviy taqiq direktivasi sifatida tavsiflash mumkin.

Qat’iy taqiq yanada yuqori deontik majburiylikka ega konstruksiya orqali ifodalanadi:

津波警報が出ている間は、絶対に戻ってはいけません。

*Tsunami keihō ga dete iru aida wa, zettai ni modotte wa ikemasen.*

«Tsunami ogohlantirishi amal qilayotgan vaqtda aslo ortga qaytish mumkin emas» [13].

～てはいけません konstruktsiyasi muayyan harakatning mumkin emasligini bildiradi. U ～ないでください shakliga nisbatan harakat tanlovini keskinroq cheklaydi. 絶対に – «aslo, qatiyan» ravishi esa taqiqni istisnosiz qoida sifatida taqdim etadi.

Xabar adresatning evakuatsiya qilingan joydan uyi, ish joyi yoki boshqa shaxsiy maqsad sababli qaytish ehtimolini oldindan bartaraf etadi. Direktivning kutilayotgan perlokutiv natijasi – rasmiy ogohlantirish davomida xavfli hududga qaytish harakatining to‘liq to‘xtatilishidir.

Tsunami haqidagi nisbatan past darajali ogohlantirishda ham dengiz va sohilga yaqinlashish taqiqlanadi:

潮の流れが速い状態が続きますので、津波注意報が解除されるまで海に入ったり海岸に近づいたりしないでください。

*Shio no nagare ga hayai jōtai ga tsuzukimasu node, tsunami chūihō ga kaijo sareru made umi ni haittari kaigan ni chikazuitari shinaide kudasai.*

«Suv oqimi tez bo‘lib qolishi mumkinligi sababli, tsunami ogohlantirishi bekor qilinmaguncha dengizga kirmang va sohilga yaqinlashmang» [12].

Xabarning birinchi qismi taqiqning sababini tushuntiradi. ～ので sabab konstruktsiyasi adresatga harakatni cheklash nima uchun zarurligini ko‘rsatadi. Keyingi qismda ～たり～たりしないでください shakli orqali dengizga kirish va sohilga yaqinlashish kabi xavfli harakatlar bir guruhga birlashtiriladi.

Sababning ochiq ko‘rsatilishi taqiqning asosli ekanini namoyon etib, uning adresat tomonidan qabul qilinishi va bajarilishiga xizmat qiladi.

Evakuatsion direktivda adresatdan bir joydan boshqa joyga harakatlanish talab qilinadi. Ammo ofat allaqachon sodir bo‘lgan yoki uning sodir bo‘lishi juda yaqinlashgan holatda belgilangan evakuatsiya joyiga chiqishning o‘zi xavfli bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatda direktiv harakat yo‘nalishidan ko‘ra erishilishi kerak bo‘lgan natijani belgilaydi:

自宅や近くの建物の安全な場所へ直ちに移動してください。

*Jitaku ya chikaku no tatemono no anzen na basho e tadachi ni idō shite kudasai.*

«Uyingiz yoki yaqin atrofdagi binoning xavfsiz joyiga zudlik bilan o‘ting» [14].

Xabarda harakatning umumiy maqsadi – shaxsning hayotini bevosita xavfdan saqlash. 安全な場所 birikmasi aniq belgilangan yagona evakuatsiya nuqtasini emas, mavjud sharoitda nisbatan xavfsiz deb baholanadigan joyni anglatadi. U uyning yuqori qavati, mustahkam xona yoki yaqin binoning xavfsiz qismi bo‘lishi mumkin.

直ちに ravishi harakatni kechiktirmaslikni talab qilsa, 移動してください shakli adresatdan joyini o‘zgartirishni so‘raydi. Biroq qaysi joyni tanlash masalasi uning vaziyatni baholash qobiliyatiga qoldirilgan. Shu jihatdan mazkur direktivda yuqori deontik majburiylik va cheklangan amaliy tanlov birgalikda namoyon bo‘ladi: adresat harakat qilishi shart, lekin eng xavfsiz joyni konkret vaziyatga ko‘ra tanlaydi.

4-xavf darajasida harakat yo‘nalishi yanada umumiy tarzda belgilanadi:

対象地域のみなさんは危険な場所から全員避難してください。

*Taishō chiiki no minasan wa kiken na basho kara zen’in hinan shite kudasai.*

«Belgilangan hududdagi barcha aholi xavfli joydan ko‘chishi lozim» [14].

対象地域のみなさん komponenti direktivning hududiy adresatini ko‘rsatadi. 全員 leksemasi esa harakatning barchaga tegishli ekanini va istisno qilinmaydigan umumiy talab ekanini takidlaydi.

*Tarjimada o‘zbek tilining rasmiy xabar uslubiga muvofiq «ko‘chishi lozim» shaklining tanlanishi xabarning ommaviy adresatga qaratilganini saqlaydi. Yaponcha asl matndagi ～てください hurmat shaklidagi bevosita direktiv bo‘lsa-da, institutsional kontekstda u aholining shaxsiy xohishiga bog‘liq bo‘lmagan evakuatsiya talabini ifodalaydi.*

5-xavf darajasini kutish ham alohida taqiqlanadi:

「緊急安全確保」を待ってはいけません、避難指示までに必ず避難してください。

*“Kinkyū anzen kakuho” o matte wa ikemasen, hinan shiji made ni kanarazu hinan shite kudasai.*

«“Favqulodda xavfsizlikni taminlash” ko‘rsatmasini kutish mumkin emas; evakuatsiya ko‘rsatmasi berilgan bosqichda albatta xavfli hududdan ko‘ching» [14].

Ushbu xabarda ikkita direktiv nutq akti birlashgan. Birinchi qismda 待ってはいけません shakli adresatning passiv kutish harakatini taqiqlaydi. Ikkinchi qismda 必ず – «albatta, muqarrar ravishda» kuchaytiruvchisi va 避難してください konstruktsiyasi evakuatsiyani bajarilishi shart bo‘lgan harakat sifatida belgilaydi.

Direktivning pragmatik vazifasi 5-xavf darajasini odatiy evakuatsiyaning boshlanish nuqtasi sifatida noto‘g‘ri qabul qilishning oldini olishdan iborat. Bu darajaga kelib xavfsiz evakuatsiya qilish imkoniyati qolmasligi mumkin. Shuning uchun adresatdan harakatni yuqori darajali xabarni kutmasdan, undan oldin amalga oshirish talab qilinadi.

Xavf hali bevosita tus olmagan bosqichda direktivlik kelgusi harakatga tayyorgarlik ko‘rish talabida namoyon bo‘ladi:

それ以外の人も、避難の準備をしたり、自主的に避難したりしましょう。

*Sore igai no hito mo, hinan no junbi o shitari, jishuteki ni hinan shitari shimashō.*

«Boshqa shaxslar ham evakuatsiyaga tayyorgarlik ko‘rsin yoki vaziyatga qarab mustaqil ravishda xavfsiz joyga ko‘chsin» [14].

Mazkur xabar 3-xavf darajasida evakuatsiya qilish uchun ko‘proq vaqt talab etiladigan shaxslardan tashqari qolgan aholiga qaratilgan. ～たり～たりしましょう shakli bir nechta mumkin bo‘lgan harakatni ko‘rsatadi: evakuatsiyaga tayyorlanish yoki mustaqil ravishda oldinroq ko‘chish.

Bu erda direktivning deontik majburiyligi yuqori xavf darajasidagi ko‘rsatmalarga nisbatan pastroq. Adresatga mavjud sharoitiga qarab harakat turini tanlash imkoniyati qoldirilgan. Shunga qaramay, xabar passiv qolishni maqullamaydi. Kamida tayyorgarlik ko‘rish adresatdan kutilayotgan zarur harakat sifatida belgilanadi.

Favqulodda xabarlarda rasmiy axborotni kuzatish ham jismoniy harakatga tayyorgarlikning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ogohlantirish va evakuatsiya bosqichlari o‘zgarishi mumkinligi sababli adresat keyingi rasmiy xabarlarga etibor berishi, o‘z hududidagi xavf darajasini tekshirishi va harakatini shu malumot asosida belgilashi kerak. Bu talab maqolada mustaqil misol sifatida emas, tayyorgarlik strategiyasining kontekstual komponenti sifatida talqin qilinadi.

Favqulodda kommunikatsiyada adresatning xavfni noto‘g‘ri baholashi ham jismoniy xavfli harakat kabi salbiy natijaga olib kelishi mumkin. Masalan, evakuatsiya qilingan shaxs o‘z turgan joyini etarlicha xavfsiz deb hisoblab, yuqoriroq joyga harakatni to‘xtatishi mumkin. Shu sababli yuqorida keltirilgan ここなら安心と思わず、より高い場所を目指して避難しましょう ifodasi bir vaqtning o‘zida evakuatsiyaga undash va xavfni kognitiv baholashni tartibga solish vazifasini bajaradi.

Ushbu xabarda direktiv tasir ikki sathda amal qiladi. Birinchi sathda adresatning kognitiv xulosasi – mavjud joyni xavfsiz deb hisoblashi inkor etiladi. Ikkinchi sathda esa yanada baland joyga harakatlanish talab qilinadi. 思わず shakli bu erda oddiy fikrlamaslik talabini emas, xavfni etarlicha baholamaslikka qarshi ogohlantirishni anglatadi.

Xuddi shuningdek, 絶対に戻ってはいけません ifodasida adresatning shaxsiy mol-mulki, yaqinlari yoki kundalik ehtiyoji sababli ortga qaytish istagi institutsional xavf bahosi asosida cheklanadi. Rasmiy xabar adresatning ehtimoliy niyatini oldindan hisobga olib, uni xavfsiz xatti-harakat bilan almashtirishga intiladi.

Shu manoda ogohlantiruvchi direktiv strategiyalar faqat tashqi jismoniy harakatni emas, xavfni qabul qilish, qaror chiqarish va harakatni davom ettirish kabi ichki kognitiv jarayonlarni ham tartibga soladi.

**QIYOSIY TAHLIL VA UMUMLASHTIRISH**

Tahlil qilingan yaponcha rasmiy xabarlarda grammatik shakl bilan pragmatik kuch o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va o‘zgarmas munosabat mavjud emasligi ko‘rinadi. ～てください konstruktsiyasi turli misollarda bir xil morfologik tuzilishga ega bo‘lsa-da, uning deontik majburiylik darajasi kontekstga ko‘ra farqlanadi.

Muallifning avvalgi tadqiqotlarida yapon kommunikativ aktining kontekstual xususiyatlari va xushmuomalalik strategiyalarida ifodaning vaziyatga bog‘liq talqini ko‘rsatilgan [7; 8]. Ushbu maqoladagi natijalar mazkur qarashni rasmiy favqulodda kommunikatsiya materialida aniqlashtiradi: odatiy muloqotda yumshatuvchi yoki hamjihatlikni ifodalovchi shakllar xavf kontekstida yuqori deontik kuch kasb etadi. Farq shundaki, avvalgi tadqiqotlarda shaxslararo munosabat va xushmuomalalik ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, favqulodda xabarlarda institutsional vakolat, vaqt tanqisligi va bajarmaslik oqibati direktiv talqinning asosiy omillariga aylanadi.

Tayyorgarlik bosqichida qo‘llanadigan ～ましょう shakli adresatga harakat usulini tanlash uchun nisbatan keng imkoniyat qoldiradi. 避難してください shakli xavfli hududni tark etishni talab qilib, tanlov doirasini qisqartiradi. ただちに避難してください tarkibidagi vaqt kuchaytiruvchisi esa harakatni kechiktirish imkoniyatini ham yo‘qotadi.

Taqiq strategiyalarida ham darajalanish kuzatiladi. ～ないでください hurmat shaklidagi himoyaviy taqiqni ifodalasa, 絶対に～てはいけません konstruktsiyasi harakatni mutlaqo mumkin bo‘lmagan xatti-harakat sifatida belgilaydi.

| **Strategiya** | **Asosiy grammatik marker** | **Leksik kuchaytiruvchi** | **Deontik daraja** | **Kutiladigan perlokutiv natija** |
|---|---|---|---|---|
| Zudlik bilan xavfsiz joyga ko‘chish | ～てください，～ましょう | ただちに | yuqori | xavfli hududni darhol tark etish |
| Xavfli harakatni taqiqlash | ～ないでください，～てはいけません | 絶対に | yuqori yoki juda yuqori | xavfli harakatni to‘xtatish |
| Vaziyatga mos xavfsizlikni taminlash | ～てください | 直ちに，全員，必ず | juda yuqori | mavjud sharoitda hayotni saqlovchi harakatni tanlash |

| Strategiya | Asosiy grammatik marker | Leksik kuchaytiruvchi | Deontik daraja | Kutiladigan perlokutiv natija |
|---|---|---|---|---|
| Tayyorgarlik va axborotni kuzatish | ～ましょう | kontekstga bog‘liq | o‘rta | evakuatsiyaga tayyorlanish va rasmiy xabarlarni kuzatish |
| Xavfni baholash va qarorni tartibga solish | ～ず，～てはいけません，～ましょう | 絶対に | o‘rtadan yuqorigacha | noto‘g‘ri baholash va xavfli qarordan tiyilish |

Jadvaldan ko‘rinadiki, direktiv illokutiv kuchni muayyan grammatik shaklning o‘ziga bog‘lash etarli emas. Uning pragmatik darajasini adresantning institutsional maqomi, adresatning xavfga munosabati, harakat uchun ajratilgan vaqt va bajarmaslik oqibati belgilaydi.

Xavf darajasi ortishi bilan direktiv ifodalarning qatiyligi ham kuchayadi. Dastlab adresatga tayyorgarlik ko‘rish yoki mustaqil evakuatsiya imkoniyati taklif etiladi. Keyingi bosqichda xavfli hududdagi barcha aholiga evakuatsiya ko‘rsatmasi beriladi. Eng yuqori darajada esa odatiy evakuatsiyani amalga oshirish imkoniyati qolmasligi mumkinligi sababli shaxsdan yaqin atrofdagi mavjud eng xavfsiz joyga zudlik bilan o‘tish talab qilinadi. Yaponiyaning evakuatsiya tizimida ham 4-xavf darajasigacha xavfli hududni tark etish, 5-darajada esa hayotni saqlashga qaratilgan favqulodda harakatni amalga oshirish zarurligi belgilangan [14; 15].

Favqulodda xabarda ～てください shakli meyoriy hurmatni saqlagan holda, institutsional vakolat, real xavf va vaqt tanqisligi tasirida yuqori deontik kuchga ega majburiy ko‘rsatma sifatida talqin qilinadi.

**XULOSA**

Yapon tilidagi rasmiy favqulodda xabarlarning pragmalingvistik tahlili ogohlantirish va harakatga undash vazifalari bir-birini to‘ldirishini ko‘rsatdi. Xavf haqidagi malumot adresatning keyingi harakatini belgilashga xizmat qilgan holdagina xabarning himoyaviy kommunikativ maqsadi to‘liq amalga oshadi.

Tahlil qilingan materiallar asosida ogohlantiruvchi direktiv strategiyalarning besh funktsional-pragmatik turi ajratildi: zudlik bilan xavfsiz joyga ko‘chishga undash; xavfli harakatni taqiqlash; vaziyatga mos ravishda shaxsiy xavfsizlikni taminlash; evakuatsiyaga tayyorgarlik ko‘rish va rasmiy axborotni kuzatishga yo‘naltirish; adresatning xavfni baholashi va qaror qabul qilish reaktsiyasini tartibga solish.

Ushbu strategiyalarni ifodalashda ～てください, ～ないでください, ～てはいけません, ～ましょう konstruktsiyalari asosiy grammatik marker vazifasini bajaradi. ただちに va 直ちに bir leksemaning kana va kanji yozuvidagi shakllari bo‘lib, ikkalasi ham «zudlik bilan» manosini anglatadi; 絶対に, 必ず, 全員 kabi birliklar esa harakatning qatiyligi va umumiy majburiyligini kuchaytiradi.

Direktiv illokutiv kuch grammatik shaklning o‘zidan emas, bir nechta o‘zaro bog‘liq pragmatik omildan kelib chiqadi. Bular adresantning institutsional vakolati, adresatning xavf hududida turgani, vaqt tanqisligi, xavf darajasi va ko‘rsatmani bajarmaslik oqibatidan iborat.

Xavf darajasi oshgan sari adresatga qoldirilgan harakat tanlovi qisqaradi. Tayyorgarlik bosqichida shaxsga harakat turini tanlash imkoniyati berilsa, bevosita tahdid sharoitida evakuatsiya yoki yaqin atrofdagi eng xavfsiz joyga zudlik bilan o‘tish majburiy tus oladi. Qatiy taqiq ifodalari esa adresatning xavfli hududga qaytish yoki rasmiy ogohlantirishni etiborsiz qoldirish imkoniyatini istisno etadi.

Yapon tilidagi favqulodda xabarlarda ～てください shakli oddiy iltimos doirasidan chiqib, institutsional xavf kontekstida bajarilishi zarur bo‘lgan rasmiy ko‘rsatma vazifasini bajaradi. Uning yuqori direktiv kuchi adresant vakolati, real xavf, vaqt tanqisligi va ko‘rsatmani bajarmaslik oqibatining birgalikdagi tasiri bilan izohlanadi.

# Ilk Xuroson va Movarounnahr tasavvuf maktablari asarlarida sohaviy metatil rivoji

***AVAZBEK VAXIDOV***
*Dotsent, f.f.n, TDSHU*
*ORCID: 0009-0002-6885-7310*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada hijriy II–III (milodiy VIII–XI) asrlardan boshlab Xuroson va Movarounnahr suluk muhitlarida sohaviy irfoniy metatil va kategorial apparatning shakllanishi diaxronik aspektda tahlil etiladi. Tadqiqotning maqsadi umumislomiy, diniy-huquqiy va teologik leksikaning jonli tasavvufiy muloqot kontekstida qanday qilib maxsus pragmatik va semantik resemantizatsiya bosqichlarini bosib o‘tganini lingvistik markerlashdan iborat. Ishda filologik germenevtika, dekonstruksiya va qiyosiy-xronologik metodlar vositasida Ibrohim Adham hikmatlari, Shaqiq Balxiyning*

*“Adab al-ibodat” va Xoja Yusuf Hamadoniyning “Rutbatul-hayot” risolalari izchil lingvistik tahlilga tortildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Muqaddas matnlar (Oyat va Hadislar) tarkibidagi fe’liy va huquqiy shakllar mazkur maktablar nutq tizimida qat’iy sohaviy ot-terminlar zanjiriga aylantirilgan. Ibrohim Adham ijodida vara’ va zuhd, Shaqiq Balxiy merosida tavakkul, Hamadoniy ta’limotida esa “qalb–sirr–ruh” mikrotizimining semantik differensiatsiyasi sohaviy metatil rivojini belgilovchi bosh omillar sifatida dalillandi. Ushbu tarixiy-lingvistik zamin keyingi davr Markaziy Osiyo yirik institusional tariqatlari (Yassaviya va Naqshbandiya) milliy terminosistemasi uchun muqarrar nazariy-metodologik andoza bo‘lib xizmat qilgani isbotlangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *sohaviy metatil, Ibrohim Adham, Shaqiq Balxiy, Yusuf Hamadoniy, Rutbatul-hayot, Adab al-ibodat, semantik differensiatsiya, mo‘’tabar manbaviy zamin.*

**Abstract.** This article analyzes the formation of a specialized mystical meta-language *and categorical apparatus in the Sufi environments of Khurasan and Transoxiana from the 2nd–3rd centuries AH (8th–11th centuries CE) in a diachronic aspect. The aim of the research is to linguistically mark how general Islamic, religious-legal, and theological lexicon passed through specific stages of pragmatic and semantic resemantization in the context of live mystical communication. Utilizing philological hermeneutics, deconstruction, and comparative-chronological methods, the sayings of Ibrahim Adham, and the treatises of Shaqiq al-Balkhi “Adab al-Ibadat” and Khwaja Yusuf Hamadani “Rutbat al-Hayat” are subjected to a systematic linguistic analysis. The results indicated that verbal and legal forms within the sacred texts were transformed into strict domain-specific substantive terminological chains in the idiolect of these schools. The semantic differentiation of wara' and zuhd by Ibrahim Adham, tawakkul by Shaqiq al-Balkhi, and the “qalb–sirr–ruh” microsystem by Hamadani are verified as the primary factors in meta-language development. In conclusion, it is proved that this historical-linguistic foundation served as an inevitable theoretical-methodological template for the national terminological system of subsequent major institutional orders (Yasaviyya and Naqshbandiyya) in Central Asia.*

***Key words:*** *specialized meta-language, Ibrahim Adham, Shaqiq al-Balkhi, Yusuf Hamadani, Rutbat al-Hayat, Adab al-Ibadat, semantic differentiation, authoritative source baseline.*

***Аннотация.*** *В данной статье в диахроническом аспекте анализируется формирование профессионального мистического метаязыка и категориального аппарата в суфийских общинах Хорасана и Мавераннахра начиная со II–III веков хиджры (VIII–XI вв. н.э.). Цель исследования заключается в лингвистическом маркировании того, как общеисламская, религиозно-правовая и теологическая лексика проходила этапы специальной прагматической и семантической ресемантизации в контексте живого суфийского общения. В работе на основе филологической герменевтики, деконструкции и сравнительно-хронологического методов подвергнуты системному лингвистическому анализу изречения Ибрахима Адхама, трактаты Шакика Балхи “Адаб ал-ибадат” и Ходжи Юсуфа Хамадани “Рутбатул-хаят”. Результаты показали, что глагольные и правовые формы в текстах Священных писаний в идиолекте данных школ были трансформированы в строгие отраслевые субстантивные терминологические цепочки. Семантическая*

*дифференциация понятий вараъ и зухд у Ибрахима Адхама, таваккул у Шакика Балхи, а также микросистемы "калб–сирр–рух" у Хамадани обоснованы как главные факторы развития метаязыка. В заключении доказано, что этот историко-лингвистический фундамент послужил обязательным теоретико-методологическим эталоном для национальной терминосистемы последующих крупных институциональных орденов (Ясавия и Накшбандия) Центральной Азии.*

***Ключевые слова:*** *отраслевой метаязык, Ибрахим computational Адхам, Шакик Балхи, Юсуф Хамадани, Рутбатул-хаят, Адаб ал-ибадат, семантическая дифференциация, авторитетная источниковедческая база.*

**Kirish.** Islom Sharqi madaniy-lisoniy makonida sohaviy tillar va maxsus terminologik tizimlarni lingvistik modellashtirish muammosi, ayniqsa, Markaziy Osiyo tasavvuf terminosistemasining ilk kurtaklari va tayanch kategorial apparati shakllanishining lingvokognitiv asoslarini tadqiq etish til nazariyasining eng dolzarb masalalaridan biridir. Tasavvuf tili o‘zining shakllanish xususiyatlariga ko‘ra to‘satdan paydo bo‘lgan sun’iy kodlar yig‘indisi bo‘lmay, balki umumislomiy, diniy-huquqiy (fiqhiy) va teologik leksikaning jonli tasavvufiy muloqot kontekstida qat’iy sohaviy metatil darajasiga ko‘tarilishi natijasida qaror topgan lisoniy tizimdir. Tadqiqotning bosh ilmiy maqsadi — hijriy II–III (milodiy VIII–XI) asrlarda Xuroson va Movarounnahr suluk muhitlarida sohaviy terminlarning shakllanishi, umumiste’mol so‘zlarining pragmatik va semantik resemantizatsiya bosqichlarini hamda ularning keyingi davr turkiy va forsiy terminosistemalari uchun qonuniy poydevor bo‘lib xizmat qilish qonuniyatlarini lingvistik markerlashdan iboratdir.

Tasavvuf tilining bunday ko‘p qatlamli tabiatini baholashda akademik Ye.E. Bertels tomonidan ilgari surilgan «maxsus kodlangan sohaviy til» konsepsiyasi[1] va olim X. Udamning tasavvuf terminlarining «ikki tomonlama kodlangan lisoniy belgi» ekanligi haqidagi nazariyasi fundamental metodologik tayanch nuqtasi hisoblanadi[2]. Shu bilan bir qatorda, milliy tilshunoslik maktabi vakillarining — Sh. Shoabdurahmonov [3], A. Hojiev [4] va H. Doniyorovlarning [5] sohaviy terminologiyaning jonli xalq tili, tizimli semantik ma’no ko‘chishlari hamda milliy tafakkur xususiyatlari bilan aloqadorligi haqidagi konseptual xulosalari mazkur tarixiy-lingvistik jarayonlarni til nazariyasi prizmasidan baholash imkonini beradi. Fransiyalik yirik semiotik Mishel de Serto diniy matnlar

[1] Бертельс, Е. Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – С. 112.
[2] Удам, Х. К проблеме специфики суфийской терминологии // Око Пифии. Статьи по восточной мистике. – Таллинн: Сария, 2011. – С. 142.
[3] Шоабдураҳмонов, Ш. Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари. – Т.: Фан, 1962. – С. 145.
[4] Ҳожиев, А. Тилшунослик терминларнинг изоҳли луғати. – Т. : Фан, 2002. – С. 24.
[5] Дониёров, Ҳ. Ўзбек тили техник терминологиясининг тарихий тараққиёти. – Т.: Фан, 1977. – С. 114.

semantikasini kuzatar ekan, kundalik so‘zlarning irfoniy matnga ko‘chishini «lisoniy dekonstruksiya va yangi ramziy fazo yaratish san’ati» deb ataydi[1]. Ushbu fikr milliy tilshunoslikda. A. Yusupov ilgari surgan mumtoz she’riyat matnida sohaviy birliklarni aniqlash va ularning determinatsiyalashuv chegaralarini belgilovchi lingvistik markerlar mezonlari bilan mukammal tarzda tutashadi[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.**Maqolada qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun lisoniy materiallarni tahlil qilishda filologik germenevtika, kognitiv-diskursiv dekonstruksiya, semantik maydon usuli hamda matnlar konnotatsiyasini aniqlashning lingvo-semiotik metodlaridan kompleks foydalanildi. Birlamchi va tashih etilgan manbalardagi arabcha va forscha matnlar strukturaviy-sintaktik va pragmatik aspektda tahlilga tortildi.

**Tadqiqot natijalari.** Olib borilgan diaxronik lingvistik kuzatishlar natijasida ilk tasavvuf namoyandalari nutq tizimi va risolalari tarkibida umumislomiy leksikaning sohaviy metatil darajasiga ko‘tarilish bosqichlari quyidagi 3 ta markaziy nazariy-empirik blok asosida tizimlashtirildi:

1. **Ibrohim Adham diskursiv tizimida sintaktik parallelizm va pragmatik resemantizatsiya:** Alloma hikmatlari tarkibida Muqaddas matnlarda kelgan qur’oniy va hadisiy fe’liy shakllarning qat’iy ot terminlar zanjiriga izchil transformatsiya qilinganligi aniqlandi. Vara’ va zuhd terminlarining fiqhiy tashqi chegaralardan ajratilib, abstrakt psixologik-kognitiv konsept darajasiga ko‘tarilish markerlari belgilandi.
2. **Shaqiq Balxiy merosida terminologik-klassifikasion tizimning qaror topishi:** “Adab al-ibodat” risolasi tadqiqi orqali tasavvuf ilmi tarixida ilk bor diniy-irfoniy tafakkurning to‘rt fundamental bosqichi — zuhd, xavf, shavq va muhabbat tushunchalarining qat’iy mantiqiy-lingvistik tasnifi, derivasion chegaralari va sintaktik parallelizm qoliplari ishlab chiqilganligi dalillandi.
3. **Xoja Yusuf Hamadoniy ta’limotida sohaviy metatil strukturasi:** “Rutbatul-hayot” risolasi asosida inson ichki antropologiyasini kodlovchi «qalb–sirr–ruh» mikrotizimining semantik differensiatsiyasi (ma’no ajralishi) hamda zikr, fikr, mujohada pragmatik atamalarining o‘zaro ierarxik-derivasion zanjiri sohaviy metatil maqomida tizimlashtirildi.

**Natijalar va mulohazalar.** Mazkur davr tasavvufiy tafakkur olamida individual nutqiy tizimdan sohaviy barqaror kodifikatsiyalashuv bosqichiga o‘tish hodisasini o‘rganishda Abu Ishoq Ibrohim ibn Adham al-Balxiy (vaf. 782 y.) lisoniy merosi nazariy-metodologik planda andozaviy ahamiyat kasb etadi. Alloma “Hilyat al-avliyo” yodgorligi bag‘rida muhrlangan o‘z majlis va ilmiy

[1] Certeau, M. de. The Mystic Fable: The Sixteenth and Seventeenth Centuries / transl. by M. B. Smith. – Chicago; London: The University of Chicago Press, 1992. – Vol. 1. – P. 85.

[2] Юсупов, А. Ф. Мумтоз ўзбек шеърияти матнида соҳавий лексика детерминацияси қонуниятлари : Филол. фан. докт. (DSC) ... дисс. Автореф. – Т. ЎзМУ, 2018. – Б. 22.

suhbatlari davomida Muqaddas matnlar tarkibidagi umumiste’mol leksikasini maxsus sohaviy terminologizatsiya bosqichiga o‘tkazadi. Ibrohim Adham Qur’oni Karimning Hadid surasi, 23-oyatidagi Ilohiy hukm mazmuni negizida ***zuhd*** (**الزهد**) terminining ilk lingvopragmatik ta’rifini arab tilidagi asl jumlasi orqali quyidagi tarzda muhrlaydi:

“أَلزُّهْدُ فِيهَا حَقِيقَةٌ هُوَ تَرْكُ الْفَرَحِ بِمَوْجُودِهَا وَتَرْكُ الْحُزْنِ عَلَى مَفْقُودِهَا عَمَلًا بِكِتَابِ اللهِ[1] ”

*“Bu dunyoda haqiqiy zohidlik — unda mavjud bo‘lgan narsalar bilan ortiqcha shodlanmaslik va undan yo‘qolgan dunyoviy unsurlarga aslo qayg‘urmaslikdir”.*

Lisoniy birliklar tarkibining kategorial dekonstruksiyasi shuni dalillaydiki, alloma Muqaddas matnda kelgan fe’liy shakllarni qat’iy ot turkumiga mansub bo‘lgan sohaviy terminlar zanjiriga (tark ul-farah, tark ul-huzn) izchillik bilan transformatsiya qilgan.

Mazkur derivasion jarayonda harakat va hukm bildiruvchi kanonik unsurlar otlashish (substantivatsiya) bosqichidan o‘tib, tizimli psixologik darajani kodlovchi ustunlarga aylanadi. Shuningdek, olim Abu Nu’aym al-Isfahoniy matnida Ibrohim Adhamning ***vara’*** (**الورع**) atamasiga bergan asl iqtibosi bayon etilgan:

“أَلْوَرَعُ تَرْكُ كُلِّ شُبْهَةٍ، وَتَرْكُ مَا لَا يَعْنِيكَ هُوَ تَرْكُ الْفُضُولِ[2] ”

*“Vara’ — har qanday shubhali amalni qat’iy tark etmoqlikdir”.*

Фиқҳ (islom huquqi) sohasida ***vara’*** atamasi shunchaki haromligi shubhali bo‘lgan taomlarni jismonan tark etish kabi tashqi chegarani anglatsa, Ibrohim Adham nutqida ushbu so‘z tizimli semantik transformatsiyaga uchrab, inson ongi va qalbini masivo (Allohdan boshqa borliq) g‘uborlaridan tozalashni ifodalovchi abstrakt psixologik va kognitiv konsept maqomiga ko‘tariladi.

Ali ibn Usmon al-Hujviriy fors tilidagi ilk tizimlashtiruvchi fundamental manba hisoblangan “Kashf al-mahjub” risolasi tarkibida Ibrohim Adhamning sohaviy til rivojidagi o‘rnini baholab, quyidagi asl fikrini muhrlab qoldirgan:

“و اندر این طریقت صاحب اصول و ارباب معانی بود.[3]”...

*“Va u ushbu tariqat ichida sohibi usul va arbobi ma’oniy edi”.*

Al-Hujviriy tomonidan qo‘llangan sohibi usul va arbobi ma’oniy kabi sifatlashlar Ibrohim Adham nutqining tilshunoslik aspektidagi yuksak qimmatini, uning so‘zlari oddiy hissiyot emas, balki soha poydevori (اصول) ekanligini dalillaydi. Kanadalik tadqiqotchi A. Xalil o‘z izlanishlarida Ibrohim Adhamning dunyoviy podshohlikdan voz kechishini inson ongining nominal diniy sodiqlikdan

[1] حلية الأولياء وطبقات الأصفياء. – بيروت : دار الكتب العلمية، ١٩٨٩. – ج. ٧. – ص. ١١٢ .الإصفهاني، أبو نعيم أحمد بن عبد الله

[2] .حلية الأولياء وطبقات الأصفياء. – بيروت : دار الكتب العلمية، ١٩٨٩. – ج. ٧. – ص.-١١٥ .الإصفهاني، أبو نعيم أحمد بن عبد الله

[3] .ص. ١٤٢ – .كشف المحجوب / تصحيح و. ژوكوفسكي. – تهران : سروش، ١٣٧٥ .هجويري، علي بن عثمان الجلابي

mutlaq va transsendent ma’naviy hayot darajasiga o‘tishini ko‘rsatuvchi ichki kategorial-lisoniy transformatsiya jarayoni deb baholaydi [1] . Fransiyalik sharqshunos J. Shabbi esa allomaning irfoniy bayonlarini leksik va ritorik darajalarda tahlil qilib, uni Xuroson tasavvufi tilining eng mukammal, vazmin va klassik namunasi sifatida e’tirof etadi[2].

Ilk tasavvuf tizimida terminlarning nazariy jihatdan qat’iy tizimlashishi va munazzam mantiqiy-klassifikasion struktura kasb etishi Xuroson tasavvuf maktabining haqiqiy asoschisi — Abu Ali Shaqiq ibn Ibrohim al-Balxiy (vaf. 790 y.) nomi va uning “Adab al-ibodat” (أدب العبادات) risolasi bilan bevosita bog‘liqdir. M. Nadim Tan tekstologik tadqiqotlarida Shaqiq Balxiyning sobiq xalqaro tijorat tili va karvon mantiqidan voqifligi uning irfoniy asarlarida atamalarni o‘ta aniq strukturaviy modellar va sintaktik parallelizm qoliplari asosida tasniflashiga oliy darajada xizmat qilgan bosh omil bo‘lganini nazariy jihatdan asoslab beradi[3]. Shaqiq Balxiy mazkur risolasida tasavvuf ilmi tarixida ilk bor diniy-irfoniy tafakkurning to‘rtta markaziy bosqichini — ***zuhd, xavf, shavq*** va ***muhabbat*** tushunchalarining qat’iy mantiqiy-lingvistik tasnifini ishlab chiqdi:

“إِنَّ أَوَّلَ مَنَازِلِ العِبَادَةِ الزُّهْدُ، ثُمَّ الخَوْفُ، ثُمَّ الشَّوْقُ، ثُمَّ مَحَبَّةٌ.[4]”...

*“Ibodat martabalarining birinchisi — zuhddir, so‘ngra xavf, so‘ngra shavq va undan keyin muhabbat qaror topur”.*

Lingvokognitiv paradigma metodlari prizmasidan yondashilganda, Shaqiq Balxiy tasavvufiy nutqda ilk bor tizimli tasnifiy sintaktik davrlardan foydalangani namoyon bo‘ladi. Muallif uslubida har bir ma’naviy daraja dastlab leksik jihatdan nomlanadi, so‘ng uning shartlari qat’iy sintaktik parallelizm vositasida sanalib chiqiladi. H. Dadaboyev ta’kidlaganidek, so‘zlik tizimining mafkuraviy omillar ta’sirida bunday izchil tasniflanishi terminlarning funksional determinatsiyalashuvini ta’minlaydi[5]. Fariduddin Attorning “Tazkiratul-avliyo” asarida qayd etilishicha, Shaqiq Balxiy tasavvufning markaziy atamasi bo‘lgan tavakkul (Allohga suyanish) terminiga o‘ta teran semantik ta’rif beradi:

“توکّل آرام داشتنِ دل است به وعدهٔ خدای تَعَالَی.[6]”...

---

[1] Khalil, A. Repentance and Justice in Early Islamic Mysticism. – Albany: State University of New York Press, 2018. – P. 114.

[2] Chabbi, J. Le soufisme quiétiste: Khurasan et Transoxiane aux VIIIe-XIe siècles. – Paris: Maisonneuve & Larose, 1997. – P. 84.

[3] Şakîk-ı Belhî. Âdâbü'l-İbâdât / nşr. Necdet Tosun // İslâm Araştırmaları Dergisi. – İstanbul, 1998. – Sayı 2. – S. 45

[4] Şakîk-ı Belhî. Âdâbü'l-İbâdât / nşr. Necdet Tosun // İslâm Araştırmaları Dergisi. – İstanbul, 1998. – Sayı 2. – S. 47.

[5] Дадабоев, Ҳ. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи / Ҳ. Дадабоев, З. Ҳамидов, З. Холманова. – Т.: Фан, 2007. – Б. 145.

[6] تذكرة الأولياء / تصحيح ر. نيكلسون. – ليدن : بريل، ١٩٠٥. – ج. ١. – ص. ١٨٤ .عطار، فريد الدين محمد بن إبراهيم.

*“Tavakkul — bu inson qalbini Mutlaq Yaratuvchi tomonidan va’da qilingan rizq kafolatlari ustida to‘liq tinchlantirishdir”.*

Lisoniy unsurlarning kategorial dekonstruksiyasi shuni dalillaydiki, Shaqiq Balxiy nutqida arabcha tavakkul termini fors tilining ichki imkoniyatlari doirasida «qalbning mutlaq tinchlanishi» va «qalbning sobit turishi» kabi faol konseptual metaforik birikmalar vositasida izohlangan.

Markaziy Osiyo va Movarounnahr zaminida sohaviy terminologik apparatning nazariy jihatdan shakllanishi Xoja Yusuf Hamadoniy (1039–1140) faoliyati hamda uning fors tilida bitilgan “Rutbatul-hayot” risolasi bilan chambarchas bog‘liqdir. H. Algar o‘zining lingvo-tekstologik tadqiqotlarida asoslab berganidek[1], Hamadoniy ta’limotida insonning butun ma’naviy-ruhiy hayoti uchta qat’iy nazariy darajaga — Islom bilan yashash (tashqi qolip hayoti), Imon bilan yashash (qalb hayoti) va Ehson bilan yashash (jon va sirr hayoti) rutbalariga ajratilib, ularning til tizimidagi funksional va pragmatik chegaralari qat’iy belgilab beriladi. “Rutbatul-hayot” risolasining nazariy-lingvistik jihatdan eng yuksak qismi inson ichki olamining uchta fundamental unsuri — ***qalb, sirr*** va ***ruh*** terminlarining o‘zaro ma’noviy munosabatlari tahliliga bag‘ishlangan:

دل متلوّن است و سرّ متلوّن نیست؛ دل از حالی به حالی بگردد و سرّ بر یک حال مقیم باشد.[2]”...

*“Qalb — o‘zgaruvchandir, sirr esa o‘zgaruvchan emasdir; qalb bir holatdan boshqa bir holatga hamisha ko‘chib turur, sirr esa doimo bir holat ustida barqaror bo‘lur”.*

Hamadoniy ushbu atamalarni shunchaki oddiy sinonimlar sifatida ishlatmaydi, balki ular o‘rtasida teran semantik differensiatsiya (ma’no ajralishi) mavjudligini qat’iy lisoniy markerlar orqali ajratadi. N. Komilov ta’kidlaganidek, qalb imon rutbasining bosh makoni bo‘lsa, sirr — «U seni ko‘radi» martabasining bosh lisoniy makoni sifatida kodifikatsiya qilinadi[3].

Shuningdek, risolada kundalik amaliyotni boshqaruvchi zikr, fikr va mujohada kabi pragmatik atamalarning o‘zaro paradigmatik munosabatlari ham teran tahlil etilgan:

“ذکر کارِ اعضا و جوارح است و فکر کارِ دل است.[4]”...

*“Zikr — bu a’zolar va tana qismlarining ishidir, fikr esa qalbning amalidir”.*

---

[1] Algar, H. Khwajan: A History of the Naqshbandi Sufi Order / Hamid Algar. – Oneonta, New York: Islamic International Publications, 2003. – P. 42.

[2] رتبة الحياة / تصحيح م. أمينچي. – تهران : طهوري، ١٣٦٢ .همداني، خواجه يوسف .ص. ٤٧-٥٠

[3] Комилов, Н. Тасаввуф / Н. Комилов. – Т.: Моваройуннаҳр, 2009. – Б. 312.

[4] رتبة الحياة / تصحيح م. أمينچي. – تهران : طهوري، ١٣٦٢ .همداني، خواجه يوسف .ص. ٥٠

Hamadoniy badaniy va til vositasida bajariladigan zikrni sof qalbiy fikrdan nazariy jihatdan ajratadi va zikr shariat ahkomlari poydevorini mustahkamlashini, fikr esa jonning haqiqiy hayot manbai ekanligini bayon qiladi. Shu tariqa, ilk Xuroson va Movarounnahr maktablari bag‘rida shakllangan ushbu sohaviy metatil va terminologik qatlam keyinchalik Xo‘ja Ahmad Yassaviyning turkiy merosi («Faqrnoma» va «Devoni hikmat») hamda Xojagon-Naqshbandiya tariqatining terminologik apparati uchun eng bosh nazariy-metodologik manba bo‘lib xizmat qilgan.

**Xulosa.** O‘tkazilgan kognitiv-diskursiv va tarixiy-lingvistik tahlillar natijasida quyidagi uzil-kesil xulosalarga kelindi:

**1.** Hijriy II–III asrlarda shakllangan ilk Xuroson va Movarounnahr tasavvuf maktabi namoyandalari (Ibrohim Adham, Shaqiq Balxiy) nutqiy tizimida umumislomiy, huquqiy va teologik leksikaning irfoniy transformatsiyalashuv va pragmatik resemantizatsiyalashuv bosqichlari izchil boshlangan.

**2.** Shayx Shaqiq Balxiyning “Adab al-ibodat” risolasina tasavvuf nazariyasida ilk bor qat’iy klassifikasion struktura qaror topib, zuhd, xavf, shavq, muhabbat martabalarining derivasion va sintaktik chegaralari nazariy jihatdan muhrlangan va tizimli sintaktik parallelizm qoliplari yaratilgan.

**3.** Movarounnahr tasavvuf maktabi rivojida Xoja Yusuf Hamadoniyning forsiy “Rutbatul-hayot” risolasi nazariy apparatning qaror topishida markaziy o‘rin tutadi. Asarda “qalb–sirr–ruh” mikrotizimining semantik differensiatsiyasi hamda zikr, fikr, mujohada pragmatik atamalarining ierarxik derivasion zanjiri birinchi bor sohaviy metatil darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, ushbu tizim Markaziy Osiyo milliy terminosistemasi rivoji uchun bosh metodologik andoza bo‘lib xizmat қилган.

## AUDIOVIZUAL TARJIMANING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

***Nazrullayeva Gulnoza Karimbek qizi,***
*Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi katta o‘qituvchisi, PhD. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada raqamli texnologiyalar va ommaviy axborot vositalarining jadal rivojlanishi davrida audiovizual tarjimaning tarjimashunoslikdagi o‘rni, nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, film va sahna asarlari tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari, uning kino tarjimasiga nisbatan kengroq tushuncha ekanligi hamda tarjimon ishlaydigan axborot oqimlarining ko‘p qirrali jihatlari yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Audiovizual tarjima, film va sahna asarlari, raqamli platformalar, intersemiotik tarjima, dinamik ekvivalentlik, madaniyatlararo muloqot.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются роль аудиовизуального перевода в современном переводоведении, а также его теоретические и практические основы в эпоху стремительного развития цифровых технологий и медиапространства. Рассмотрены специфические особенности перевода фильмов и сценических произведений, его более широкий статус по сравнению с традиционным кинопереводом, а также многоаспектные потоки информации, с которыми работает переводчик.*

***Ключевые слова:*** *Аудиовизуальный перевод, произведения кино и сцены, цифровые платформы, интерсемиотический перевод, динамическая эквивалентность, межкультурная коммуникация*

***Annotation:*** *This article examines the role of audiovisual translation in contemporary translation studies, alongside its theoretical and practical foundations amidst the rapid development of digital technologies and media platforms. It highlights the specific features of film and stage translation, emphasizing its broader scope compared to traditional cinematic translation, as well as the multifaceted information flows managed by the translator.*

***Keywords: Keywords:*** *Audiovisual translation, film and stage works, digital platforms, intersemiotic translation, dynamic equivalence, intercultural communication.*

**Kirish:** Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt hamda yuqori tezlikdagi internet tarmoqlarining jadal rivojlanishi audiovizual mahsulotlar – filmlar, seriallar, teatr sahna asarlari va raqamli media kontentlarini yaratish hamda ularni millionlab tomoshabinlarga yetkazish imkoniyatlarini misli ko‘rilmagan darajada kengaytirdi.

Bu global o‘zgarishlar va shiddatli axborot oqimi tarjimonlar zimmasiga nafaqat so‘zlarni bir tildan ikkinchisiga o‘girish, balki butun boshli madaniy kodlar, vizual va akustik ma’nolarni boshqa muhitga muvaffaqiyatli ko‘chirishdek murakkab talab va vazifalarni yuklamoqda.

Shu bois, film va sahna asarlari tarjimasi nazariyasi hamda amaliyotini nafaqat yuzaki, balki fundamental darajada mukammal o‘zlashtirish bugungi kunda zamonaviy tarjimashunoslik yo‘nalishidagi har bir yosh mutaxassis va tadqiqotchi uchun raqobatbardoshlikni ta’minlovchi zaruriy kasbiy malaka hamda davr talabiga aylanmoqda.

So‘nggi yillarda Netflix, YouTube, Twitch, Amazon Prime, Disney+ kabi yirik raqamli oqimli platformalar va ijtimoiy media tarmoqlarining jadal rivojlanishi hamda ularning qamrovi butun sayyorani qamrab olishi natijasida audiovizual mahsulotlar iste’moli son-sanoqsiz marotaba keskin oshdi.

Mazkur global platformalar turli tillar, milliy madaniyatlar va mentalitetga mansub bo‘lgan badiiy filmlar, ko‘p qismli seriallar, ilmiy-ommabop hamda hujjatli loyihalarni hech qanday geografik chegaralarsiz, real vaqt rejimida butun

dunyo bo‘ylab millionlab tomoshabinlarga taqdim etmoqda. Bu esa o‘z navbatida tillararo to‘siqlarni bartaraf etish, o‘zga madaniyat mahsulotlarini boshqa auditoriyaga tushunarli tarzda yetkazish — ya'ni film va sahna asarlari tarjimasiga bo‘lgan ehtiyojni kundalik hayotimizda bir necha barobar, hatto keskin darajada kuchaytirdi.

Ana shunday shiddatli integratsiya jarayonlari fonida, audiovizual tarjima shunchaki yordamchi soha bo‘lib qolmay, balki bugungi zamonaviy tarjimashunoslikning eng dinamik rivojlanayotgan, ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qilinayotgan va mehnat bozorida eng yuqori talabga ega bo‘lgan yetakchi yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi[1].

Film va sahna asarlari tarjimasi — bu shunchaki ikki tildagi so‘zlarning mexanik almashinuvi emas, balki tarjimashunoslik fanining o‘ta murakkab va o‘ziga xos predmeti bo‘lib, u matn, vizual tasvir va akustic tovushning o‘zaro uzviy uyg‘unligiga asoslangan audiovizual asarlarni yangicha madaniy muhitda qayta gavdalantirish san’ati va nazariyasidir.

Mazkur yo‘nalish doirasida tarjimon nafaqat og‘zaki nutq yoki yozma yozuvni, balki ekranda namoyon bo‘layotgan harakatlar, imo-ishoralar, ranglar gammasi, fon tovushlari va milliy-madaniy kontekstni ham birgalikda o‘rganishi shart. Fan sifatida uning bosh maqsadi — turli xalqlarning mentaliteti, urf-odatlari va qadriyatlarini inobatga olgan holda, madaniyatlararo muloqotning eng yuqori talablari asosida asarni originalga yaqin, tushunarli va ta’sirchan holda qayta yaratishning ilmiy-nazariy hamda amaliy qoidalarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Maqsad va vazifalar: Mazkur yo‘nalishning bosh maqsadi — yosh mutaxassislar va talabalarda keng qamrovli audiovizual asarlar matnlarini tarjima qilishning fundamental nazariy asoslari, lingvistik va semiotik o‘ziga xos xususiyatlari hamda chuqur amaliy ko‘nikmalarini mukammal shakllantirishdan iboratdir.

Shuningdek, turli xalqlarning milliy-madaniy qadriyatlari, mentaliteti va hayot tarziga mansub bo‘lgan audiovizual mahsulotlarni o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda, milliy madaniy muhitimizga adekvat, tabiiy va ta’sirchan tarzda moslashtirish, tarjima jarayonida yuzaga keladigan madaniyatsizlatish hamda ekvivalentlik muvammolarini to‘g‘ri hal etish qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish ham asosiy vazifalardan biri sifatida belgilanadi.

[1] https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/133720/1/978-5-91256-647-9_2024_073.pdf

**Mazkur fanni o‘qitishda quyidagi asosiy vazifalar belgilangan:**

1.Tarjima turlarini o‘rganish: Dublyaj, subtitrlash va sinxron tarjima qanday bajarilishini tushunib yetish;

2.Texnik shartlarga rioya qilish: Tarjimani kadrga, vaqtga va aktyorning lab harakatiga moslashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish;

3.Madaniy moslashuv: Asar mazmunini o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda, milliy mentalitetga moslab tarjima qilish;

4. Zamonaviy vositalar-dan foydalanish: Tarjima jarayonini osonlashtiradigan dasturlar va texnologiyalar bilan ishlashni o‘rganish;

5. Sifat nazorati: Tarjima jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlash, ularni tahlil qilish hamda tayyorlangan tarjima mahsulotini tahrirlash va mukammallashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish.

**Erishilgan natijalar:** Bugungi kunda jahon zamonaviy tarjimashunosligida film va sahna asarlari tarjimasi sohadagi eng istiqbolli, serqirra va jadal rivojlanib borayotgan ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Biroq, milliy tarjimashunosligimizda bu boradagi ilmiy-nazariy izlanishlar olib borilganiga qaramatrix, film va sahna asarlari tarjimasini o‘rganish, uning qonuniyatlarini tizimlashtirish hamda yagona metodologik bazasini yaratish masalalari hali-hanuz yetarli darajada yaxlit tizimga solinmagan.

Shu sababli ham taniqli tadqiqotchi A.V. Kozulyayev haqli ravishda ta’kidlaganidek, “Film va sahna asarlari tarjimasini mustaqil yo‘nalish sifatida shakllantirish hamda uning nazariy-amaliy asoslarini chuqur ishlab chiqish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas vazifalaridan biridir”. Mazkur vazifaning ijrosi milliy tarjimashunoslik fanini jahon standartlari darajasiga ko‘tarish, tarjima amaliyotidagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish hamda zamonaviy media talablariga javob bera oladigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi[1].

Rus tarjimashunosligi va ilmiy-nazariy adabiyotlarida “audiovizual tarjima” hamda “kino tarjimasi”tushunchalari ko‘p hollarda bir-birining sinonimi sifatida qo‘llanilib, o‘zaro aynan bir xil ma’noda qabul qilinib kelinadi.

[1] Козуляев А.В. Обучение динамически эквивалентному переводу аудиовизуальных произведений: опыт разработки и освоения инновационных методик в рамках школы аудиовизуального перевода // Вестник Пермского национального исследовательского политехнического университета. Проблемы языкознания и педагогики. 2015. N 3(13) С. 3–24.

Biroq, zamonaviy lingvistik yondashuvlar, semiotik tadqiqotlar va tarjimashunoslik nazariyasi nuqtai nazaridan qaraganda, bu ikki tushuncha o‘zaro mutlaqo ekvivalent emas va ularning qamrovi hamda mazmunini bir-biridan aniq farqlash nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, “audiovizual tarjima” atamasi an’anaviy “kino tarjimasi”tushunchasiga nisbatan ancha kengroq, salmoqli va ko‘p qirrali ma’no kasb etib, u mazkur sohadagi barcha turdagi vositachilik faoliyatini o‘z ichiga oluvchi eng umumiy tushuncha vazifasini bajaradi.


Agar kino tarjimasi asosan faqat kinematografiya mahsulotlari bilan cheklansa, audiovizual tarjima tushunchasi o‘z ichiga televideniye ko‘rsatuvlari, hujjatli xronikalar, teatr sahna asarlari, internet-kontentlar, videobloglar hamda interfaol videoo‘yinlar kabi turli xil ekranli va eshittiriladigan mahsulotlarni qamrab oladi. Shu boisdan ham mazkur ikki tushunchaning chegaralarini ilmiy jihatdan to‘g‘ri anglash va farqlash tarjimashunoslikdagi terminologik aniqlikni ta’minlashning asosiy shartlaridan biridir[1].

An’anaviy qarashlarga ko‘ra, “kino tarjimasi” tushunchasi asosan badiiy, animatsion filmlar va teleseriallar tarjimasini qamrab olgan[2]. Biroq, zamonaviy tarjimashunoslikda “Film va sahna asarlari tarjimasi” atamasi ancha kengroq ma’noga ega bo‘lib, u o‘z ichiga quyidagi asosiy yo‘nalishlarni qamrab oladi[3]:

[1] Матасов Р.А. Перевод кино/видео материалов: лингвокультурологические и дидактические аспекты: автореф. дисс. … канд. филол. наук. М., 2009. [Электронный ресурс] // URL: http://cheloveknauka.com/perevod-kino-video-materialov-lingvokulturologicheskie-i-didakticheskie-aspekty (дата обращения: 17.02.2017)

[2] Матасов Р.А. Перевод кино/видео материалов: лингвокультурологические и дидактические аспекты: автореф. дисс. … канд. филол. наук. М., 2009. [Электронный ресурс] // URL: http://cheloveknauka.com/perevod-kino-video-materialov-lingvokulturologicheskie-i-didakticheskie-aspekty (дата обращения: 17.02.2017)

[3] Богданов Е.В. К вопросу о специфике аудиовизуального перевода в России и Финляндии [Электронный ресурс] // Факультет прибалтийско-финской филологии и культуры/ URL: http://old.petrsu.ru/Faculties/Balfin/EVBogdanov_2011.html (дата обращения: 17.02.2017)




Shunday ekan, shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqamli asrda audiovizual tarjima tushunchasini tor doirada — faqatgina an’anaviy kino tarjimasi bilan cheklab qo‘yish mutlaqo noto‘g‘ri va ilmiy jihatdan eskirgan yondashuv hisoblanadi.

Bugungi kunda zamonaviy tarjimashunoslik talablaridan kelib chiqqan holda, film va sahna asarlari tarjimasi tushunchasining nafaqat lingvistik, balki madaniy, texnik va semiotik qamrovini chuqur anglash, shuningdek, uni media olamining turli sohalarida amaliyotga to‘g‘ri hamda samarali tatbiq etish har qanday yosh mutaxassis va tarjimonning kasbiy yetukligini belgilovchi eng asosiy va kechiktirib bo‘lmas shartlardan biri sanaladi.

Zamonaviy tarjimashunoslikda audiovizual tarjima tizimli va ko‘p qirrali hodisa sifatida e’tirof etiladi. Ushbu sohaning ilmiy tafsirida terminologik aniqlik muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, A.V.Akulina[1] audiovizual tarjimani kino tarjimasiga nisbatan kengroq tushuncha – giperonim sifatida tavsiflaydi. Muallifning fikricha, audiovizual materiallar mazmuniy va shakliy jihatdan o‘ta rang-barang bo‘lganligi sababli, ularning tarjimasi faqat kino san’ati doirasiga sig‘maydi va yanada kengroq terminologik qamrovni talab qiladi. H.S.Kullekovaning yondashuviga ko‘ra, audiovizual tarjima jarayoni o‘ziga xos kommunikativ-madaniy moslashuv mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Audiovizual tarjima – bu filmlar, teleseriallar, hujjatli xronikalar va interfaol videoo‘yinlar kabi audiovizual mahsulotlarni original madaniy muhitdan turli auditoriyalar uchun moslashtirish, ya’ni ularni xorijiy madaniyat vakillari uchun qabul qilinadigan darajaga keltirish jarayonidir[2].

[1] Акулина А. В. “Аудиовизуальный перевод как отдельный вид перевода“. [Электронный ресурс] // Филологический аспект. – 2017. - №6 – URL: https://scipress.ru/philology/articles/audiovizualnyj-perevod-kak-otdelnyj-vid- perevoda.html (дата обращения: 23.03.2024).

[2] Куллекова, Х. Ш. Аудиовизуальный перевод: понятие, функции и специфика / Х. Ш. Куллекова. // Молодой ученый. — 2023. — № 44 (491). — С. 385. — URL: https://moluch.ru/archive/491/107281/ (дата обращения: 02.04.2024).


Rus tarjimashunoslik maktabida audiovizual tarjimaning ilmiy maqomi va uning tarjima turlari tizimidagi o‘rni uzoq yillar davomida bahsli bo‘lib, turlicha yondashuvlar asosida talqin qilib kelingan. Taniqli tadqiqotchi E.V. Bogdanovning haqli ravishda qayd etishicha, rus ilmiy an’anasida audiovizual tarjima dastlabki bosqichlarda o‘ziga xos qonuniyatlarga ega bo‘lgan mustaqil fan yoki alohida yo‘nalish sifatida e’tirof etilmagan. Aksincha, u uzoq muddat davomida an’anaviy adabiy tarjimaning bir qismi, qat’iy talablarga asoslangan og‘zaki tarjima yoki hatto sinxron tarjimaning oddiygina tor doiradagi tarkibiy qismi sifatida baholanib kelingan.

Bunday biryoqlama yondashuvning shakllanishi eng avvalo audiovizual matnga bo‘lgan ilmiy qarashlar bilan bevosita bog‘liq edi. Ya’ni, o‘sha davrdagi tadqiqotchilar audiovizual matnni ekrandagi jonli jarayon, vizual va akustik axborotlar uyg‘unligi sifatida emas, balki faqatgina yozma nutqning birlamchi tarjima qilinishi lozim bo‘lgan elementlari yig‘indisi sifatida baholashgan. Natijada, matn ortidagi ekrandagi harakatlar, imo-ishoralar, tovush effektlari va milliy-madaniy semiotik belgilar e’tibordan chetda qolgan. Bu esa, o‘z navbatida, audiovizual tarjimaning o‘ziga xos murakkab texnik cheklovlari (vaqt va makon muhiti) hamda chuqur semiotik xususiyatlarini to‘laqonli o‘rganish, qamrab olish hamda uning ilmiy-nazariy asoslarini to‘g‘ri ishlab chiqishga uzoq vaqt davomida jiddiy to‘sqinlik qilgan[1].

A.V.Kozulyayev audiovizual tarjimani tarjimashunoslikning alohida, mustaqil fani sifatida e’tirof etishni asoslovchi bir qator fundamental omillarni ajratib ko‘rsatadi. Olimning yondashuviga ko‘ra, audiovizual tarjima quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi[2].

[1] Богданов Е.В. К вопросу о специфике аудиовизуального перевода в России и Финляндии [Электронный ресурс] // Факультет прибалтийско-финской филологии и культуры/ URL: http://old.petrsu.ru/Faculties/Balfin/EVBogdanov_2011.html (дата обращения: 17.02.2017)

[2] Козуляев А.В. Обучение динамически эквивалентному переводу аудиовизуальных произведений: опыт разработки и освоения инновационных методик в рамках школы аудиовизуального перевода // Вестник Пермского национального исследовательского политехнического университета. Проблемы языкознания и педагогики. 2015. N 3(13) С. 3–24.




Ushbu sxema audiovizual tarjima jarayonining uch asosiy ustunini va ularning uzviy bog‘liqligini aks ettiradi:

- Texnik cheklovlar: Tarjimon matnni shunchaki so‘zma-so‘z og‘irmay, kadr vaqtiga, ekrandagi harakatga hamda aktyorning og‘iz harakatlariga shart.
- Ko‘p qatlamli ma’no: Audiovizual mahsulotda axborot faqat matn orqali emas, balki kadr tasviri va fon hamda ovoz effektlari bilan birgalikda yaxlit semantik tizimni hosil qiladi.
- Kognitiv jarayonlar: Ushbu turning qabul qilinishi va bajarilishi inson miyasidan bir vaqtning o‘zida ko‘rish, eshitish va olingan ma’lumotlarni zudlik bilan qayta ishlash hamda sintez qilish qobiliyatini talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, sxema audiovizual tarjimaning murakkab, ko‘p omilli va kognitiv jihatdan serqirra faoliyat turi ekanligini tavsiflaydi.


Lingvosentrik yondashuv tarafdori bo‘lgan ko‘plab tarjimashunoslar AVTni tarjima deb hisoblashdan bosh tortadilar va uni tilga xos bo‘lmagan moslashuv (interlingual adaptation) deb biladilar, chunki AVT jarayonida asl matnda ekvivalentlik haqidagi an’anaviy tasavvurlar doirasiga sig‘maydigan chuqur o‘zgarishlar yuz beradi[1].

Uzoq vaqt davomida tadqiqotchilarimiz AVTning dinamik ekvivalentlik tamoyillarini e’tiborga olishmagan[2].

[1] Козуляев А.В. Обучение динамически эквивалентному переводу аудиовизуальных произведений: опыт разработки и освоения инновационных методик в рамках школы аудиовизуального перевода // Вестник Пермского национального исследовательского политехнического университета. Проблемы языкознания и педагогики. 2015. N 3(13) С. 3–24.

[2] Козуляев А.В. Обучение динамически эквивалентному переводу аудиовизуальных произведений: опыт разработки и освоения инновационных методик в рамках школы аудиовизуального перевода // Вестник Пермского национального исследовательского политехнического университета. Проблемы языкознания и педагогики. 2015. N 3(13) С. 3–24.

Audiovizual tarjima oddiy tillararo tarjimadan farqli o‘laroq, murakkab va ko‘p qirrali tizim hisoblanadi. Tarjimon bir vaqtning o‘zida 4 ta axborot oqimi bilan ishlaydi[1]:




1. Vizual noverbal qator – audiovizual asardagi qahramonlarning dialoglari, monologlari, subtitrlardagi yozma matnlar hamda ekrandagi har qanday yozma axborotlarni (bannerlar, yozuvlar, titrlar) o‘z ichiga oluvchi, tarjima jarayonida bevosita so‘z va gaplar orqali ifodalanadigan asosiy lingvistik qatordir.

2. Noverbal audiqator – nutqning eshittirilish shakli bilan bog‘liq bo‘lib, qahramonlarning ovoz tembri, nutq tempri, pauzalar, intonatsiya, emotsional bo‘yoqdorlik, hayajon yoki nafas olish xususiyatlarini qamrab oluvchi, tarjimada og‘zaki ifodaning ta’sirchanligini ta’minlaydigan qatordir.

3. Verbal audiqator – ekran orqali vizual tarzda uzatiladigan, so‘zlarsiz tushuniladigan axborotlar majmui bo‘lib, unga qahramonlarning imo-ishoralari, mimikasi, tana harakatlari, kiyinish madaniyati, ranglar gammasi va vizual muhitdagi barcha ko‘rinib turgan harakatlar kiradi.

4. Verbal videoqator – asarning eshitish idorkorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi, nutqdan tashqari barcha tovushli elementlarni o‘z ichiga oluvchi qator bo‘lib, unga fon tovushlari, muhit shovqinlari, maxsus akustik effektlar hamda voqealar rivojini ochib beruvchi musiqiy ohanglar kiradi.

Ushbu oqimlarni muvofiqlashtirish zarurati audiovizual tarjimani turli belgi tizimlari o‘rtasidagi tarjima maqomiga ko‘taradi. O.G.Loddo ta’kidlaganidek, intersemiotik tarjima – kamida ikki xil semiotik kodni o‘zaro uyg‘unlashtirish jarayonidir [2]. Demak, tarjimon nafaqat tillarni, balki ekran orqali uzatilayotgan hissiyotlar, tovushlar va imo-ishoralarni ham verbal shaklga o‘tkazadi. Ayniqsa, adaptatsiya yoki inklyuziv tarjima jarayonlarida noverbal ma’lumotlarni so‘zlar orqali ifodalash tarjimondan yuqori darajadagi tahliliy yondashuvni talab qiladi.

---

[1] Козуляев А.В. Обучение динамически эквивалентному переводу аудиовизуальных произведений: опыт разработки и освоения инновационных методик в рамках школы аудиовизуального перевода // Вестник Пермского национального исследовательского политехнического университета. Проблемы языкознания и педагогики. 2015. N 3(13) С. 3–24.

[2] Loddo O.G., Addis A., Lorini G. „Intersemiotic translation of contracts into digital environments”. – 2022. -P. 2. – URL: http://surl.li/sieig (дата обращения: 02.04.2024).

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar va global media platformalarning shiddatli rivojlanishi davrida film va sahna asarlari tarjimasi oddiy tillararo o‘girish jarayonidan mutlaqo chiqib, tarjimashunoslikning eng murakkab, serqirra va dinamik rivojlanayotgan fundamental yo‘nalishiga aylandi. Zamonaviy tarjimashunoslikda audiovizual tarjimani tor doirada, ya’ni faqatgina an’anaviy kino tarjimasi deb tushunish eskirgan yondashuv ekanligi, u teleko‘rsatuvlar, hujjatli xronikalar, internet kontentlari, sahna asarlari va interfaol videoo‘yinlarni ham qamrab oluvchi keng giperonim tushuncha ekanligi ilmiy jihatdan o‘z tasdiqini topmoqda.

O‘zbek tarjimashunosligida ham ushbu sohaning nazariy va amaliy asoslarini chuqur ishlab chiqish, yagona metodologik bazasini yaratish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas vazifalaridan biridir. Maqolada ko‘rib chiqilganidek, tarjimonlar endilikda faqatgina so‘zlar bilan emas, balki matn, vizual tasvir va akustik tovushning o‘zaro uyg‘unligiga asoslangan to‘rtta axborot oqimi bilan ishlashga, intersemiotik kodlarni muvofiqlashtirishga majburdirlar.

Shu bois, audiovizual tarjima nazariyasi va amaliyotini mukammal o‘zlashtirish, madaniyatlararo muloqot talablari hamda dinamik ekvivalentlik tamoyillariga tayangan holda milliy madaniy muhitga adekvat moslashtirish qobiliyatini shakllantirish zamonaviy mutaxassislar va yosh tadqiqotchilar uchun raqobatbardoshlikni ta’minlovchi eng muhim kasbiy malaka hisoblanadi. Kelgusida mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarni kengaytirish, texnik cheklovlar hamda adaptatsiya mexanizmlarini yanada chuqur ilmiy asoslash milliy tarjimashunosligimizni jahon standartlari darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

## Xitoy lingvomadaniyatida “inson-人” tushunchasining axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy fazilatlari

***UMID BERDIYEV***
*O‘qituvchi, TDSHU*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Xitoy xalq maqollarida “inson” (人) konseptining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda inson konseptining axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy mazmunini shakllantiruvchi 仁 (ren), 礼 (li), 孝 (xiao), 面子/脸 (mianzi/lian), 心 (xin) va 天 (tian) kabi asosiy madaniy konseptlarning o‘rni yoritiladi. Xitoy maqollarida insonparvarlik, odob-axloq, oilaviy sadoqat, ijtimoiy obro‘, ichki ma’naviy olam hamda insonning taqdir va oliy tartib bilan munosabati aks etishi ko‘rsatib beriladi. Tadqiqotda lingvomadaniy va konseptual tahlil, freym semantikasi, kognitiv etnolingvistika, madaniy skriptlar hamda konseptual metafora metodlaridan*

*foydalaniladi. Tadqiqot natijasida Xitoy lingvomadaniyatidagi ideal insonning kognitiv portreti muruvvatli, odobli, ota-onaga sadoqatli, o‘z sha’ni va obro‘sini qadrlovchi, qalban pok hamda axloqiy-kosmik tartibni tan oluvchi shaxs sifatida tavsiflanadi. Maqola natijalari Xitoy lingvomadaniyatidagi antropotsentrik qadriyatlar tizimini chuqurroq anglash va kelgusida Xitoy hamda o‘zbek paremiologik materiallarini qiyosiy o‘rganishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Xitoy maqollari, inson konsepti, lingvomadaniyat, kognitiv etnolingvistika, konsept, 仁 (ren), 礼 (li), 孝 (xiao), 面子 (mianzi), 心 (xin), 天 (tian), freym semantikasi, konseptual metafora, madaniy skriptlar.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются лингвокультурологические особенности концепта «человек» (人) в китайских народных пословицах. Освещается роль основных культурных концептов — 仁 (ren), 礼 (li), 孝 (xiao), 面子/脸 (mianzi/lian), 心 (xin) и 天 (tian), формирующих нравственное, социальное и духовное содержание концепта человека. Показано отражение в китайских пословицах таких представлений, как гуманность, нормы этикета и морали, семейная преданность, социальная репутация, внутренний духовный мир личности, а также взаимосвязь человека с судьбой и высшим порядком. В исследовании использованы методы лингвокультурологического и концептуального анализа, фреймовой семантики, когнитивной этнолингвистики, культурных скриптов и концептуальной метафоры. В результате исследования когнитивный портрет идеального человека в китайской лингвокультуре характеризуется как образ гуманного, воспитанного, преданного родителям человека, ценящего своё достоинство и репутацию, духовно чистого и признающего нравственно-космический порядок. Результаты статьи способствуют более глубокому пониманию антропоцентрической системы ценностей китайской лингвокультуры и могут служить теоретической основой для дальнейшего сравнительного изучения китайского и узбекского паремиологического материала.*

***Ключевые слова:*** *китайские пословицы, концепт человека, лингвокультура, когнитивная этнолингвистика, концепт, 仁 (ren), 礼 (li), 孝 (xiao), 面子 (mianzi), 心 (xin), 天 (tian), фреймовая семантика, концептуальная метафора, культурные скрипты.*

***Abstract.*** *This article examines the linguocultural characteristics of the concept of “human being” (人) in Chinese folk proverbs. It explores the role of key cultural concepts, including 仁 (ren), 礼 (li), 孝 (xiao), 面子/脸 (mianzi/lian), 心 (xin), and 天 (tian), which shape the moral, social, and spiritual dimensions of the concept of a human being. The study demonstrates how Chinese proverbs reflect such ideas as humanity, moral and behavioral norms, filial devotion, social reputation, the inner spiritual world of an individual, and the relationship between humans, fate, and the higher order. The research employs linguocultural and conceptual analysis, frame semantics, cognitive ethnolinguistics, cultural scripts, and conceptual metaphor analysis. The findings reveal that the cognitive portrait of the ideal human being in Chinese linguoculture is characterized as a humane and well-mannered individual, devoted to their parents, valuing personal dignity and social reputation, possessing spiritual purity, and*

*recognizing the moral and cosmic order. The results of the study contribute to a deeper understanding of the anthropocentric system of values in Chinese linguoculture and provide a theoretical basis for further comparative research into Chinese and Uzbek paremiological material.*

***Keywords:*** *Chinese proverbs, the concept of the human being, linguoculture, cognitive ethnolinguistics, concept, 仁 (ren), 礼 (li), 孝 (xiao), 面子 (mianzi), 心 (xin), 天 (tian), frame semantics, conceptual metaphor, cultural scripts.*

**Kirish.** Til xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Har bir xalqning milliy tafakkuri, axloqiy me’yorlari va ijtimoiy qarashlari til birliklarida, ayniqsa folklor janrlarida o‘z ifodasini topadi. Shu jihatdan xalq maqollari muayyan etnosning kollektiv xotirasi, madaniy tajribasi va aksiologik qarashlarini saqlovchi noyob lingvomadaniy birlik sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Xitoy xalq maqollari asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar tizimini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, ular orqali xitoy xalqining inson, jamiyat, axloq va olam haqidagi tasavvurlarini tadqiq etish mumkin. Xususan, “inson” konsepti Xitoy madaniyati va falsafasining markaziy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Konfutsiy ta’limoti ta’sirida shakllangan 仁 (ren), 礼 (li), 孝 (xiao), 面子 (mianzi), 心 (xin) va 天 (tian) kabi konseptlar insonning axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy qiyofasini belgilovchi asosiy madaniy mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillarda konseptologiya, kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik doirasida “inson” konseptiga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Biroq Xitoy xalq maqollarida inson konseptining mazkur madaniy kategoriyalar bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning xalq ongidagi aksiologik mazmunini kompleks ravishda o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada emas.

Mazkur maqolaning maqsadi Xitoy xalq maqollarida “inson” konseptining lingvomadaniy mazmunini aniqlash hamda uning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi 仁 (ren), 礼 (li), 孝 (xiao), 面子 (mianzi), 心 (xin) va 天 (tian) konseptlarining semantik va madaniy funksiyalarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda lingvomadaniy tahlil, konseptual tahlil, freym semantikasi va kognitiv etnolingvistika metodlaridan foydalaniladi.

Har bir madaniyatda *“inson”* haqidagi tasavvurlar muayyan **kalit tushunchalar** orqali ifodalanadi. Xitoy an’anaviy madaniyatida, xususan Konfutsiy ta’limotida, insoniy mohiyat va jamiyatdagi munosabatlar bir qator markaziy konseptlar bilan bog‘liq. Ularning eng asosiylari: **仁 (rén)** – muruvvat, insonparvarlik; **礼 (lǐ)** – odob-axloq va marosim; **孝 (xiào)** – ota-onaga hurmat; **面子 (miànzi)** va 脸 **(liǎn)** – yuz, obro‘ (ijtimoiy “yuz” konsepti); **心 (xīn)** – yurak

(ko‘ngil, aql); **天 (tiān)** – osmon (taqdir, ilohiy qudrat) va boshqalar. Bu tushunchalar Xitoy lingvomadaniy kontsepti tizimida markaziy o‘rin tutadi va bevosita yoki bilvosita xalq maqollarida o‘z aksini topadi.

**仁 (rén)** – *insonparvarlik, muruvvat* tushunchasi. Konfutsiy ta’limotida ren – oliy fazilat, inson mohiyatining asosi deb qaraladi.[1] Darhaqiqat, *ren* iyeroglifi aslida ikki kishini tasvirlaydi va “insonlar orasidagi mehr” ma’nosini beradi. Konfutsiy *ren*ni sharhlarkan: *“仁者爱人”* – “Insonparvar odam odamlarni sevar” degan. *Ren* konsepti xitoy tilidagi ko‘plab maqollarda bevosita yoki konnotativ tarzda tilga olinadi. Masalan, *“人往高处走，水往低处流”* (“Inson balandga intiladi, suv pastga oqadi”) degan maqolda *insonning oliy fazilatlarga, yuksaklikka intilishi* madh etilgan bo‘lib, *ren* – yuksak insoniylik ideali – bilvosita ulug‘lanadi. *Ren* konsepti Konfutsiychilikda boshqa fazilatlar (masalan, **義 (yi)** – adolat, **智 (zhi)** – donolik, **信 (xin)** – ishonch) bilan bir qatorda turgan bo‘lsa-da, aynan *ren* eng birinchi o‘rinda turadi va *“insonni chinakam odam qiladigan xususiyat”* deya e’tirof etiladi. Maqollarda ham bu konsept sezilib turadi: yaxshilik qilish, mehribon bo‘lish, odamlarga qo‘l tutish – bularning barchasi ren tushunchasining turli ko‘rinishlardagi ta’siridir. Xitoylarda mashhur naql bor: *“人之初，性本善”* – “Inson avvaliga ezgu xulqi bilan tug‘iladi”. Bu naql Mengzi falsafasidan olingan bo‘lib, inson tabiatan yaxshi (善) degan g‘oyani ilgari suradi – aynan *ren* tushunchasi bilan uyg‘un fikr. Ko‘rinib turibdiki, “inson” deganda Xitoy an’anasida eng avvalo *yaxshi xislatli, mehr-oqibatli* mavjudot tushunilgan; shuning uchun maqollarda ham ko‘pincha “yaxshi odam” obrazi ideallashtiriladi. Masalan, *“好人有好报”* – “Yaxshi odamga yaxshilik qaytib keladi” maqoli *ren* fazilatini targ‘ib qilsa, *“恶有恶报”* – “Yomonlik qilsang, yomonlik ko‘rasan” degan naql uning aksi sifatida yovuz, *ren*dan mahrum odam qismatini ogohlantiradi. Xulosa shuki, **仁 (ren)** – *Xitoy madaniy g‘oyasida “Inson bo‘lish”ning eng oliy mezoni* bo‘lib, u xalq maqollarida beqiyos aks-sado topgan.

**礼 (lǐ)** – *marosim, odob qoidalari, izzat-hurmat.* Konfutsiy falsafasida *li* tushunchasi jamiyat tartibini saqlovchi odob normalari majmuini ifodalaydi. *Li* aslida qadimgi marosimlar va udumlarni anglatgan bo‘lsa-da, keng ma’noda **odob-axloq kodeksi** sifatida tushuniladi.[2] Konfutsiy ta’limicha, agar *ren* insonning ichki sifati bo‘lsa, *li* uning tashqi xulqida namoyon bo‘luvchi qoidalar to‘plamidir – ya’ni *ren*ni amalda ro‘yobga chiqarish vositasi *li* dir. Xitoy maqollarida *li* konsepti bevosita ham, bilvosita ham ko‘p uchraydi. Masalan, *“礼多人不怪”* – “Odoblidan hech kim ranjimaydi” degan maqol bor, bu odamlar

[1] https://baike.baidu.com/item/%E4%BB%81/3404462

[2] Berdiyev U. The Concept Of “礼” (Lǐ) And Human Nature in Chinese Proverbs: A Linguocultural Analysis//International Journal of Advance Scientific Research. DOI: 10.37547/ijasr-05-04-06.

orasida marosim-qoidaga qat’iy amal qilish ijobiy qabul qilinishini bildiradi. Yana bir maqol: *“没有规矩不成方圆”* – “Chiziq-qoidalarsiz to‘g‘ri aylana chizib bo‘lmaydi” – odobsiz, qoidalarsiz jamiyat izdan chiqishini kinoya bilan anglatadi. *Li* tushunchasi orqali inson jamiyatdagi o‘rnini to‘g‘ri anglab, munosib tarzda o‘zini tutishi kerakligi g‘oyasi ilgari suriladi. Xitoy jamiyatida katta-kichik, ustoz-shogird, ota-ona-farzand munosabatlari qat’iy odob me’yorlari bilan tartibga solingan. *Li* ana shu munosabatlar “ssenariy”sining nomi bo‘lib, har bir kishi shu stsenariyga rioya etsa, jamiyatda uyg‘unlik bo‘ladi, deb ishoniladi.[1] Maqollardan misol: *“长幼有序”* – “Katta-kichikning o‘rni bor” – bu ham *li* qoidasining xalqona ifodasidir. Inson kontseptini Xitoyda li’siz tasavvur qilib bo‘lmaydi: odobsiz odam – “野人” (yovvoyi odam) maqomiga tushib qoladi, bunday kishi haqidagi maqollar ham salbiy tusda bo‘ladi (masalan, “不知礼无以立” – “Odobsiz – jamiyatda o‘rnini topolmas”). Demak, 礼 (li) Xitoy lingvomadaniyatida insonning jamiyatga integratsiyalashuvi va axloqiy qiyofasini belgilovchi asosiy kategoriya bo‘lib, u orqali “inson qanday bo‘lishi kerak” degan savolga javob beriladi va bu javob maqollarda turfa hikmatlar orqali mustahkamlangan.

**孝 (xiào)** – ota-onaga sadoqat va hurmat tushunchasi. *Xiao* qadim Xitoy axloq tizimida eng ulug‘ fazilat sanalgan, Konfutsiy uni 仁 *(ren)* bilan bir qatorda tarbiyalagan. Hatto maqol darajasiga ko‘tarilgan so‘z bor: *“百善孝为先”* – “Yuzta yaxshilikning boshida – ota-onaga hurmat” (ya’ni barcha fazilatlarning birinchisi – 孝).[2] Xitoy an’anaviy qarashicha, inson eng avvalo oilada *farzandlik burchi*ni ado etish orqali yaxshi inson bo‘la oladi. *Xiao* nafaqat ota-ona tirik chog‘ida ularga xizmat qilish, balki ularning obro‘sini saqlash, nomusini toza tutish, vafotidan keyin ham xotirasini e’zozlashni o‘z ichiga oladi. Ota-onaga sadoqat haqida juda ko‘p xalq rivoyatlari, ertaklari mavjud bo‘lib, ular asrlar davomida ushbu qadriyatni targ‘ib qilib kelgan (masalan, ota-onasi uchun jonini fido qilgan sodiq farzandlar haqidagi afsonalar). Maqollarda esa *xiao* ko‘pincha boshqalarga nisbatan munosabat me’yorining timsoli sifatida keladi. Masalan, *“养儿防老”* – “Bolani qariganda tayanch bo‘lsin deb ulg‘aytir” – bu maqol ota-onaning farzanddan keksayganda ko‘rayotgan xizmati haqida; yoki *“子不教父之过”* – “Bolani o‘rgatmaslik – ota gunohi” – bu ham farzand tarbiyasini ota mas’uliyati deb belgilaydi. Ko‘rinadiki, *xiao* faqat farzand majburiyati emas, balki ota-ona zimmasidagi vazifalarni ham nazarda tutuvchi keng qamrovli oilaviy konseptdir. **Inson** tushunchasi Xitoyda, avvalo, oilaviy rol orqali anglanadi: yaxshi inson – yaxshi farzand va yaxshi ota-ona bo‘lmog‘i lozim. Agar kimda

[1] Berdiyev U. Ko‘rsatilgan asar.
[2] https://baike.baidu.com/item/%E5%AD%9D/8680505

*xiao* yetishmasa, u jamiyat nazarida eng pastkash odam sanaladi (*“不孝之子”* – “noqobil farzand” eng katta ayblovlardan biri hisoblangan). Shu sabab, Xitoy maqollaridagi ideal odam portreti har doim *xiao* fazilatiga ega: *“父母在，不远游”* – “Ota-ona bor ekan, uzoqqa sayohatga ketmagil” (ya’ni ota-ona mo‘’tabar bo‘lsa, farzand ularni tashlab ketmasligi kerak). Bu kabi hikmatlar orqali 孝 (xiao) konsepti xalq ongiga chuqur singdirilgan. Tadqiqotimizda *xiao* tushunchasini aks ettiruvchi maqollarni alohida to‘plab tahlil qilish mo‘ljallangan – zero, *xiao* orqali inson kontseptining *“oila kontekstidagi profili”*ni aniqlashimiz mumkin bo‘ladi (masalan, “inson – farzand” profilida qanday sifatlar yuksak baholanadi). Xulosa qilib aytganda, 孝 (xiao) – Xitoy lingvomadaniyatida *insonning axloqiy yuksakligi* mezonlaridan biri bo‘lib, u orqali “yaxshi odam” tushunchasi bir avloddan ikkinchisiga o‘tib kelgan.

**面子 (miànzi) va 脸 (liǎn)** – *“yuz” konsepti, obro‘-e’tibor*. *Mianzi* va *lian* tushunchalari Xitoy jamiyatida insonning ijtimoiy qadr-qimmati va mavqeini ifodalaydi. G‘arb tilshunosligida bu *“face”* konsepti sifatida mashhur (E.Goffman nazariyasidagi “face”dan farqli ravishda, Xitoyda *mianzi/lian* ancha keng ijtimoiy-madaniy semantikaga ega). *Lin Yutang* – XX asr boshlaridagi atoqli xitoy yozuvchisi – *“Xitoylik uchun eng nozik narsa – bu uning yuzi: u yuvilmaydi, lekin yo‘qotilishi mumkin, saqlanishi kerak”* deb hazil-astarlik bilan ta’rif bergan.[1] *Mianzi* ko‘proq ijtimoiy nufuz, reputatsiya degan ma’noni anglatsa, *lian* – shaxsiy or-nomus, uyat hissini bildiradi. Xitoy madaniyatida “yuzni saqlash” (保持面子) va “yuzni yo‘qotmaslik” (不丢脸) juda muhim tamoyildir. Maqollarda bu tushuncha ko‘pincha qiyosiy obrazlarda keladi: masalan, *“人要脸，树要皮”* – “Inson uchun yuz qadrli, daraxt uchun – po‘stloq” degan maqol *mianzi*ning inson hayotidagi ahamiyatini urg‘ulaydi (daraxt po‘stloqsiz quriydi, inson or-nomussiz). Yana *“要面子”* degan ibora bor – “yuzni xohlash” degani, ya’ni o‘z obro‘sini o‘ylash, ko‘pchilik ichida sha’ni baland bo‘lishga intilish. Bu ibora ham ijobiy, ham salbiy tus olishi mumkin: ijobiy ma’noda – inson o‘zini sharmanda qilmaslik uchun odob saqlaydi; salbiy ma’noda – faqat tashqi ko‘rinish, soxta obro‘ga berilishni ham ifodalaydi. Xususan, *“打肿脸充胖子”* – “Yuzini shapaloqlab shishirib bo‘lsa ham boydek ko‘rinishga urinish” maqoli ortiqcha *mianzi* g‘amini yegan odamni masxara qiladi (qashshoq bo‘lsa-da, boy qiyofasini qilishga uringan kimsalar haqida). Shunday qilib, *mianzi/lian* konsepti Xitoy jamiyatida ijtimoiy o‘lchov roli: inson o‘z qadrini bilishi, birovning yuziga oyoq bosmaslik, jamoa oldida andisha saqlash kabi qadriyatlar shu orqali tartibga solinadi. “Yuz”ni yo‘qotish eng katta sharmandalik hisoblangan – maqollarda masalan: *“丢了面子”*

[1] https://en.wikipedia.org/wiki/Face_(sociological_concept)#:~:text=Lin%20Yutang%20considered%20the%20psychology,face

(Yuzni yo‘qotmoq - obro‘ni to‘kmoq) yoki *“没脸见人”* (qarashga yuzi yo‘q) degan iboralar tez-tez uchraydi. Bizning tadqiqotimizda *mianzi* tushunchasi “inson – jamoat a’zosi” profilida qanday ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi: Xitoy maqollarida yaxshi odam – “yuzli” odam, yomon odam – “yuzsiz” deb tasvirlanishi kutiladi. Darhaqiqat, “uyatsiz” degan ma’noviy birikmalar (*不要脸* – “yuz kerak emas”, ya’ni uyatsiz,) xitoycha maqollarda eng og‘ir haqorat sanaladi. Demak, *mianzi/luian* konsepti Xitoy lingvomadaniyatida *insonning jamiyat oldidagi sha’ni va obro‘sini* ifodalovchi muhim indikator bo‘lib, maqollar bunga doir pand-nasihatlar bilan to‘la.

**心 (xīn)** – *yurak, ko‘ngil, qalb*. Xitoy tilida *xin* termini g‘arbiy tillardagi “heart” va “mind” ma’nolarini birlashtirgan noyob madaniy kalit so‘zdir. *Xin* – Xitoy an’anaviy tasavvurida insonning butun ruhiy hayoti markazi: hissiyotlar, aql-idrok, iroda – barchasi yurak bilan bog‘liq deb qaraladi. *Xin* so‘zining ko‘p ma’noliligi shu xalq madaniyatidagi **integrativ qarash**ni aks ettiradi: Xitoy falsafasida inson qalbi bir vaqtning o‘zida fikrlash va his qilish organi sifatida tushunilgan. Shuning uchun tilshunos olima Li Jing *xin*ni “Xitoy madaniyatining kalit so‘zi” deb ataydi va u *“jismoniy va ruhiy hayotning ildizi”*, *“barcha tuyg‘ular maskani, inson tabiatan ezguligining manbai”* ekanini ta’kidlaydi.[1] Maqollarni tahlil qilar ekanmiz, *xin* ishtirokidagi ko‘plab birikmalarga duch kelamiz: *“心眼儿好”* (yuragi yaxshilik bilan to‘la, ya’ni olijanob), *“心直口快”* (yuragi to‘g‘ri – gapi rost, ya’ni samimiy), *“狠心”* (bo‘ri yurak, ya’ni rahmsiz) va hokazo. Bularning barchasi *xin* orqali insonning turli sifatlarini tasvirlaydi. Xitoy maqollarida *“心”* juda tez-tez qo‘llanadi, chunki insonning barcha ruhiy holati, xulq-atvori unga bog‘lanadi: masalan, *“人心齐, 泰山移”* – “Insonlarning yuragi biriksa, Tayshan tog‘ini ham joyidan qo‘zg‘atadi” – bu birlik va hamjihatlikka chorlovchi maqol bo‘lib, *xin* termini orqali jamoaviy iroda ifodalangan (*“yurak”* metonimiyasi orqali). Yana bir maqol: *“好心有好报”* – “Yaxshi yurak (niyat) yaxshi natija keltirur” – aynan *xin* konsepti bilan bog‘liq muruvvatli inson talqinidir. Hatto “muruvvat” ma’nosidagi *仁 (ren)* ham ko‘pincha *xin* bilan yonma-yon ishlatiladi ( *仁心* – insonparvar qalb). Shu tariqa, Xitoy lingvomadaniyatida *“inson”* deganda uning yuragi (ko‘ngli) nazarda tutiladi desak mubolag‘a emas – *xin* bor joyda inson bor. Shunday ekan, tadqiqotimizda *xin* konseptini aks ettiruvchi maqollar orqali *inson* tushunchasining **axloqiy-ruhiy profili** ochib beriladi: qanday yurak – shunday odam. Maqollarda “yuragi yumshoq” (mehribon), “yuragi qattiq” (rahmsiz) kabi sifatlar tez-tez qo‘llanadi – demak, 心 tushunchasi *yaxshi-yomon odam*ni tavsiflashning bosh mezoni bo‘lib

[1] Jing Li. The meaning of the Chinese cultural keyword xin. Journal of Languages and Culture. June, 2013, Vol. 4(5), pp. 75-89.

xizmat qiladi. Masalan, *“笑脸人人都有，笑心未必个个同”* – “Kulib turgan yuz hammada bor, kulib turgan yurak esa hammadayam yo‘q” – bu maqol insonlarning ko‘rinishi va haqiqiy niyati har doim bir xil emasligini aytadi, bu yerda ham asosiy urg‘u *xin*ga berilgan (yurakning kulishi – ya’ni samimiyat). Xulosa qilib aytganda, 心 **(xin)** Xitoy madaniy kontsepsiyasida *insonning ichki olami va axloqiy mohiyatini* ifodalaydi, va biz maqollar orqali bu ichki olamning xalqona talqinini o‘rganamiz.

天 **(tiān)** – *osmon, Qodir Tangri, taqdir*. *Tian* tushunchasi Xitoy dunyoqarashida insondan yuksak turuvchi ilohiy va axloqiy kuchni anglatadi. Konfutsiy davridan avval *Tian* bevosita ma’bud (osmon xudosi) kabi tasavvur qilingan bo‘lsa, keyinchalik u oliy adolat va tartib ramzi sifatida tushunildi. *Tian* – yerni, odamlarni yaratgan va ularga hayot qonuniyatlarini ato etgan qudrat; shuningdek, *taqdir* ham *Tianming* (osmonning buyrug‘i) deb ataladi. Konfutsiychilik *Tian*ni abstraktroq talqin qilib, uni axloqiy qonunlar manbai deb qabul qilgan.[1] Inson esa *Tian* belgilagan yo‘ldan bormog‘i, unga muvofiq axloqiy izda yashamog‘i lozim. Xalq maqollarida ham *osmon* tushunchasi ko‘p eslatiladi va odatda u *adolatli hukmron* yoki *qochib qutulib bo‘lmaydigan taqdir kuchi* ma’nosida keladi. Masalan, *“天网恢恢，疏而不漏”* – “Osmon to‘ri keng va serqatlam – [gunohkorni] qo‘yib yubormaydi” – bu mashhur hikmat bo‘lib, yovuzlik qilgan kishi Osmon nazaridan qochib qutula olmasligini bildiradi (ya’ni ilohiy adolat kech bo‘lsa ham qaror topadi). Boshqa maqol: *“人算不如天算”* – “Insonning hisob-kitobi Osmonning hisobidan ojiz” – bu inson rejalari taqdir (Osmon) qarshisida ojizligini, oxirgi so‘zni baribir Osmon aytishini anglatadi. Ko‘rinadiki, Xitoy xalq dunyoqarashida inson har qancha ulug‘ bo‘lmasin, **Tian** oldida kichik va ojiz – shu bois *kibru havodan saqlan, taqdirga tan ber, Osmon g‘azabini qo‘zg‘atma* kabi nasihatlar shakllangan. Ayniqsa, imperatorlarga nisbatan *“Osmon Mandati”* (天命, Tianming) tushunchasi qo‘llanib, xuddi Osmon ularni tayinlagan, agar noshukrlik qilsalar, Osmon ularni la’natlaydi degan qarash bo‘lgan. Maqollarda “Osmon” so‘zining ko‘p ishlatilishi Xitoy teokratik dunyoqarashi izlarini ko‘rsatadi. Inson konsepti ham bunda aks etadi: inson – Osmon yaratgan banda, shu bois uning qilgan ishlari Osmon tomonidan nazorat qilinadi. Tadqiqot jarayonida *Tian* bilan bog‘liq maqollar tahlili “inson va oliy qudrat” mavzusini yoritib, inson kontseptining ***kosmologik profilini*** beradi. Masalan, *“人在做，天在看”* – “Inson qilarkan, Osmon kuzatarkan” – ya’ni har bir ishning guvohi bor, jazosi/mukofoti muqarrar. Bunday maqollar orqali xalq ongida axloqiy nazorat g‘oyasi mustahkamlangan. Xulosa qilib, 天 (tian) *Xitoy madaniyatida inson hayotining ramziy osmoni*, uning taqdir va axloq me’yorlari

[1] https://baike.baidu.com/item/%E5%A4%A9/34055

bilan bog‘liqligini ifodalovchi konsept bo‘lib, maqollar insonning Osmon qarshisidagi o‘rnini sodda va ta’sirli shakllarda tasvirlaydi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan 仁, 礼, 孝, 面子, 心, 天 kabi konseptlar Xitoy milliy ongining tarkibiy qismlari bo‘lib, ular orqali bu xalq tafakkurida *“inson”* tushunchasi nimalardan iborat ekanini anglash mumkin. Qisqacha aytganda, Xitoy lingvomadaniyatida Inson – bu *仁* (muruvvat)ga ega, *礼*(odob)ga rioya qiluvchi, *孝* (sadoqat va burch)ni ado etuvchi, *面子/脸 (obro‘ va hammiyat)*ni saqlovchi, 心 (yurak)ida ezgulik tutgan va *天*(Osmon, Tangri, taqdir)ni tan oluvchi mavjudot sifatida tasavvur qilinadi. Ana shu olti tamoyil Xitoy maqollarida turli tarzda takrorlanadi. Bizning vazifamiz – maqollar matnini tahlil qilish orqali bu konseptlarning “Inson” kontsepti tarkibidagi o‘rnini va ular qanday qadriyat profilda berilganini aniqlashdir. Shu orqali “Xitoy maqollarida Inson konsepti”ni to‘la tavsiflovchi kognitiv portretni chizish imkoniyati tug‘iladi.

Yuqorida bayon etilgan nazariy yondashuvlar va konseptlar majmui endilikda bizning aniq tadqiqot vazifamiz – *Xitoy maqollarida “inson” kontsepti tahlili* – uchun metodologik vositalar ro‘lini o‘ynaydi. Ushbu bob yakunida, har bir nazariy modelni amaliy tahlil bosqichida qanday qo‘llash rejalashtirilganini qisqacha izohlaymiz.

**Madaniy skriptlar va NSM**: Maqollar mazmunida yashirin yoki oshkora tarzda ifodalangan madaniy qoidalarni NSM usulida formalashtirish orqali, biz Xitoy xalqining “inson qanday bo‘lmog‘i kerak” yoki “inson o‘zini jamiyatda qanday tutmog‘i lozim” degan tasavvurlarini aniqlaymiz. Masalan, yuqorida keltirilgan *孝* va *礼* bo‘yicha: *“Yaxshi inson kattalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi kerak”, “Yaxshi inson ota-onasini hech qachon unutmaydi”* kabi skriptlarni NSM metalug‘atida yozib, har birini maqollardagi dalillar bilan bog‘laymiz. Bu yondashuv normativ xulosa chiqarmaslikka, balki xalqning o‘zi *o‘ylaydigan tarzda* yondoshishga imkon beradi. NSM yordamida quyidagi kabi skriptlar olinishi mumkin (shunchaki namuna tarzida): “Odamlar o‘ylaydi: agar kimdir yaxshi odam bo‘lsa, u boshqalarga yaxshilik qilmoqchi bo‘ladi. odamlar shunday bo‘lgani yaxshi deb o‘ylaydi.” Bu kabi skriptlar bir nechta maqollarning umumiy mazmunini jamlab berishi va ularni umumlashtiruvchi qoidani ifodalashi mumkin. Demak, madaniy skriptlar metodi bizga individual maqollarni tahlil qilishdan yuqori turuvchi umumlashma qatlamni olishga ko‘maklashadi.

**Freym tahlili**: Har bir tematik guruh maqollar uchun ular qaysi *freym*ga tegishli ekani aniqlanadi. Masalan, *inson va jamiyat* mavzusidagi maqollar “ijtimoiy munosabatlar” freymiga mansub bo‘lsa, *inson va axloq* mavzusidagilar “axloq me’yorlari” freymiga tegishli bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, maqol ichidagi har bir asosiy obraz ham alohida freymni ishga soladi. Masalan, *“Inson – daraxt”* metaforasi bor maqolda o‘simliklar dunyosi freymi yordamga keladi. Fillmor nazariyasiga binoan, biz maqolni tashkil etuvchi semantik rollarni

belgilashimiz mumkin: *inson – agent*, *amal – predikat*, *jamiyat – muhit* kabi. “Oltinning zo‘ri yerda, odamning zo‘ri elda” maqolida ikki parallel struktura bor: *oltin* va *yer* (bu birinchi strukturaning elementlari, freymi – qiymatli metal va uning joylashuvi), *odam* va *el* (ikkinchi strukturaniki, freymi – ijtimoiy qadriyat). Biz bu yerda *odam*ni *el* freymi doirasida to‘liqroq tushunamiz: ya’ni odamning qadr-qimmati faqat jamiyat ichida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa, freym tahlili bizga maqoldagi oldindan faraz qilingan bilimlarni rekonstruksiya qilishga yordam beradi. Tahlil davomida har bir asosiy konsept (仁, 礼, 孝 va hokazo) qaysi freym elementlari bilan birga tilga olinishi xaritasi chiziladi – bu orqali, masalan, 仁 konsepti asosan *oila freymi*, *jamoat freymi* yoki *davlat freymi*da ko‘rilishini bilib olamiz.

**Kognitiv etnolingvistika (Bartminskiy usuli)**: Ushbu yondashuv tadqiqotimizning tayanch poydevoridir. Biz Xitoy maqollar korpusini imkon qadar keng tuzib, unda *“inson”*ga taalluqli barcha mazmunlarni saralab olamiz. So‘ng, Bartminskiyning *kognitiv definitsiya* tamoyiliga muvofiq, “Inson (人)” kontsepti uchun xalq tasavvuridagi tasvirni bayon qilamiz. Bu bayonda yuqorida aytilganidek, *fasetlar* bo‘ladi: **antropologik faset** (insonga xos belgi: *yuradi*, *gapiradi*, va hokazo – bu biologik va ijtimoiy definitsiyalar), **axloqiy faset** (yaxshi-yomon xususiyatlar: *muruvvatli bo‘lishi, yoki ochko‘z bo‘lishi mumkin* kabi), **sotsiokultur faset** (oila va jamiyatdagi rollari: *ota-ona, farzand, fuqarolik vazifalari*), **aksiologik faset** (insonning qadriy o‘rni: *olijanob yoki gunohkor bandami*, *Osmon ostidagi mavqei*), **metaforik faset** (obrazlari: *inson – guli, inson – soyasi*, va hokazo). Bu fasetlarni maqollardan olingan dalillar bilan to‘yintirib, ilmiy qayta ishlanadi. Natijada “Xitoycha inson kontsepti”ning *kognitiv portreti* hosil bo‘ladi. Bartminskiy usuli, ayniqsa, *profil*larni hisobga olishga undaydi: biz maqollarni tematik jihatdan ham ajratishimiz mumkin (masalan, “yaxshi inson” haqidagi maqollar alohida, “yomon inson” haqidagilar alohida guruhlanib, ularning har biri alohida profil sifatida qaraladi). Keyin har ikki profil qiyoslanib, qaysi sifatlar maqtalgani, qaysilari qoralangani aniqlanadi – bu **aksilogik tahlil** elementidir. Shuningdek, *nuqtai nazar*ni ham ko‘zdan qochirmaymiz: maqol kim nigohidan aytilgan? Masalan, ba’zi maqollar *xalq donishmandi* pozitsiyasidan nasihat bo‘lsa (umumxalq bahosi), ayrimlari *keksalar nuqtai nazari*dan yoki *hukmdor nuqtai nazari*dan aytilgan bo‘lishi mumkin. Bu hol ham tahlilga tortiladi, chunki u *profilga ta’sir qiladi*. Misol uchun, imperatorlar farmonlaridan chiqqan hikmatlarda *“itoatkor fuqaro – yaxshi odam”* profili bo‘rtib ko‘rinsa, xalq orasidagi maqollarda *“haqini yeguvchi hokim – yomon o odam”* profili uchrashi mumkin – bu ikki xil profil integratsiya qilinsa, “inson qanday bo‘lmasligi va qanday bo‘lishi lozim” haqidagi to‘liqroq manzara chiqadi.

**Konseptual metafora amaliyoti**: Maqollar matnidan konseptual metaforalarni aniqlash uchun biz Lakoff va Jonson taklif etgan *mappings* usulini

qo‘llaymiz. Dastlab, maqoldagi metaforik ifodalarni belgilab olamiz (masalan, *“yuz” – or-nomus;* “yurak” – aql/tuyg‘u; *“osmon” – oliy hokim* kabi). Keyin ularni umumlashtirib, yuqori darajadagi konseptual metaforani yozamiz: masalan, *“Jamiyat – bu oiladir”*, *“Xulq – bu kiyimdir”* (Xitoyda odob ko‘pincha “kiyim”ga qiyoslanadi: *衣冠禽兽* – “kiyimi odam, ichi hayvon” – bu odobsizni ta’riflash). So‘ng, shu metafora atrofida guruhlangan maqollarni birgalikda tahlil qilib, uning madaniy funksiyasini tushuntiramiz. Maqollar tahlilida *metafora identifikatsiyasi protsedurasi* (MIP, G.Steen) kabi zamonaviy metodlardan ham yordam sifatida foydalanish mumkin, lekin bizning maqsadimiz bu yerda psixolingvistik eksperiment emas, balki adabiy tahlilga yaqin turadi. Shu bois, har bir topilgan konseptual metaforani Xitoy madaniyatiga xos model bilan bog‘laymiz. Masalan, *“Inson – bu kichik olam”* degan qadim qarash bor – *人是一个小天地*, degan ma’noda – bu ham metaforik model (makrokosmos-mikrokosmos analogiyasi). Maqollarda buni izlash va topish biz uchun qiziqarli bo‘ladi, chunki u holda *inson kontsepti*ning yana bir qirrasi – *kosmik-insoniy yagona model* – paydo bo‘ladi. Konseptual metafora nazariyasi natijasida, biz Xitoy maqollaridagi asosiy *obrazlar sistemasi*ni xaritalab, qaysi manba domenlar inson haqidagi tasavvurni shakllantirishda ishtirok etishini ko‘rsatamiz. Ehtimol, *hayvonlar* (masalan, *“Inson – bu yo‘lbars/yovvoyi hayvon*” degan qoralov metaforalar bor yoki *“Inson – bu boqiladigan qo‘y” degan itoatni tasvirlovchi),* o‘simliklar *(*“Inson – gul”, “Inson umr daraxti”*),* oliy mavjudotlar *(*“Inson – Tangrining farzandi” *kabilar) asosiy manba sohalar bo‘lib chiqishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, Xitoy madaniyatida insonni qanday ko‘rishadi* – zo‘r gavdali yirtqichmi, nozik gulmi, itoatkor hayvonmi yoki ilohiy inoyatga muhtoj bandami – degan savolga javob topishga yordam beradi.

Yuqoridagi barcha metodik qadamlar komplementar tarzda qo‘llanadi. Masalan, biror maqolni tahlil qilar ekanmiz, undagi metaforani ham ajratamiz (Lakoff yondashuvi), uni tegishli freym bilan izohlaymiz (Fillmor yondashuvi), mazmunidan madaniy skript hosil qilamiz (Wierzbicka yondashuvi) va shu asosda kontseptning qaysi fasetini to‘ldirishini ko‘rsatamiz (Bartminskiy yondashuvi). Shu tariqa, har bir maqol va har bir konsept *ko‘p qirrali tahlil*dan o‘tadi. Bu esa dissertatsiyamizning asosiy maqsadi – **Xitoy maqollarida “inson” konseptining lingvomadaniy tahlili** – ga erishishda puxta zamin yaratadi.

Jumladan, biz yakunda “Xitoy xalq maqollarida inson konsepti”ning quyidagi tarkibiy qismlarini aniqlaymiz: 1) **bazaviy tavsifi** (odam kim va nima uchun yashaydi – biologik va falsafiy tasavvur), 2) **asosiy ijtimoiy rollari** (oiladagi, jamiyatdagi o‘rni – *孝, 礼* orqali), 3) **axloqiy sifati** (yaxshi va yomon odam modeli – *仁, 心* orqali), 4) **ijtimoiy qadr-qimmati** (obro‘si va nomusi – *面子/脸* orqali), 5) **taqdiri va olam oldidagi mavqei** (Osmon bilan munosabati – *天* orqali).

Shu bilan, nazariy asoslar bo‘yicha olib borilgan ushbu adabiy tahlil va integratsiya bizga keyingi bo‘limlarda empirik tahlilga o‘tishda zarur yo‘nalish va kategoriya ramkalarini belgilab beradi. Yuqoridagi konsept va nazariyalar tutashuvi natijasida hosil bo‘lgan **metodologik model** endi Xitoy maqollari materialini izchil va chuqur tadqiq etishimizga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Tahlillar natijasida Xitoy xalq maqollarida “inson” konsepti murakkab va ko‘p qatlamli lingvomadaniy tuzilma ekanligi aniqlandi. Mazkur konsept faqat biologik mavjudot sifatidagi insonni emas, balki ma’lum axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy fazilatlar sohibini ham ifodalaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, 仁 (ren) konsepti insonparvarlik va mehr-oqibatni, 礼 (li) ijtimoiy tartib va odob me’yorlarini, 孝 (xiao) oilaviy sadoqat va avlodlar davomiyligini, 面子 (mianzi) insonning ijtimoiy obro‘si va sha’nini, 心 (xin) shaxsning ichki ma’naviy olami va axloqiy mohiyatini, 天 (tian) esa insonning taqdir, oliy adolat va kosmik tartib bilan bog‘liqligini ifodalaydi.

Maqollar tahlili shuni ko‘rsatdiki, mazkur konseptlar o‘zaro integrallashgan holda Xitoy lingvomadaniyatidagi ideal inson modelini shakllantiradi. Ushbu modelda inson muruvvatli, odobli, ota-onaga sadoqatli, obro‘sini qadrlovchi, qalban pok va Osmon qonunlariga hurmat bilan qarovchi mavjudot sifatida tasvirlanadi.

Shuningdek, freym semantikasi va kognitiv etnolingvistika metodlari Xitoy xalq maqollarida “inson” konseptining kognitiv portretini tiklash imkonini berishi aniqlandi. Mazkur natijalar Xitoy lingvomadaniyatidagi antropotsentrik qadriyatlar tizimini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda kelgusida xitoy va o‘zbek paremiologik materiallarini qiyosiy o‘rganish uchun nazariy asos yaratadi.

# Dariy tili savdo-sotiq leksikasida mulk va kapital mikromaydoni

***ABDULATIF KARIMOV***
*Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti*

***Annotatsiya.*** *Maqolada dariy tilidagi savdo-sotiq leksikasida mulk va kapitalga oid birliklarning leksik-semantik xususiyatlari Afg‘oniston “Qânun-e tejârat” materiali asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida “Qânun-e tejârat” matnida uchraydigan* مال *mâl,* اموال *amvâl,* جنس *jens,* امتعه *amte‘a,* سرمایه *sarmâya,* سهم *sahm kabi savdo muomalasiga oid birliklar tanlandi. Maqolada tavsifiy, komponent, kontekstual, leksik-semantik tasnif va maydoniy tahlil metodlari asosida ushbu birliklarning integral va*

*differensial semalari, yadro-periferiya munosabati hamda iqtisodiy-huquqiy diskursdagi terminologik vazifasi aniqlanadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mulk va kapitalni bildiruvchi birliklar dariy tili savdo-sotiq makromaydonida alohida mikromaydonni tashkil etadi va “savdo muomalasiga kiruvchi iqtisodiy-huquqiy qiymat” integral semasi asosida birlashadi. Mazkur mikromaydon tarkibida umumiy-xususiy, butun-qism, individual-jamlanma, moddiy-nomoddiy qiymat kabi semantik munosabatlar mavjudligi aniqlanadi. Maqolaning ilmiy ahamiyati dariy tili savdo-sotiq leksikasini leksik-semantik maydon nazariyasi asosida o‘rganish orqali savdo-sotiq leksikasining sistem xarakterini ochib berish bilan belgilanadi.*

***Tayanch so‘zlar:*** *dariy tili, savdo-sotiq leksikasi, leksik-semantik maydon, mikromaydon, mulk, kapital, Qânun-e tejârat.*

***Аннотация.*** *В статье анализируются лексико-семантические особенности единиц, обозначающих имущество и капитал в торгово-коммерческой лексике языка дари, на материале афганского “Qânun-e tejârat” - Торгового закона. В качестве объекта исследования выбраны такие единицы, встречающиеся в тексте “Qânun-e tejârat”, как* مال *mâl “имущество”,* اموال *amvâl “имущество, имущественные объекты”,* جنس *jens “товар”,* امتعه *amte‘a “товары, вещи”,* سرمایه *sarmâya “капитал”,* سهم *sahm “доля, акция”. На основе описательного, компонентного, контекстуального методов, а также метода лексико-семантической классификации и полевого анализа определяются интегральные и дифференциальные семы данных единиц, их ядерно-периферийные отношения и терминологические функции в экономико-правовом дискурсе. Результаты исследования показывают, что единицы, обозначающие имущество и капитал, образуют отдельное микрополе в торгово-коммерческом макрополе языка дари и объединяются интегральной семой “экономико-правовая ценность, включённая в торговый оборот”. В составе данного микрополя выявляются родо-видовые, partитивные, индивидуально-собирательные, материально-нематериальные семантические отношения. Научная значимость статьи определяется тем, что анализ торгово-коммерческую лексику языка дари на основе теории лексико-семантического поля позволяет раскрыть системный характер торгово-коммерческой лексики.*

***Ключевые слова:*** *язык дари, торгово-коммерческая лексика, лексико-семантическое поле, микрополе, имущество, капитал, Qânun-e tejârat.*

***Annotation.*** *The article analyzes the lexico-semantic features of lexical units denoting property and capital in Dari trade vocabulary based on the material of Afghanistan’s “Qânun-e tejârat” - the Commercial Code. The object of the study includes such units found in the text of “Qânun-e tejârat” as* مال *mâl “property”,* اموال *amvâl “property, assets”,* جنس *jens “goods”,* امتعه *amte‘a “goods, commodities”,* سرمایه *sarmâya “capital”, and* سهم *sahm “share, stock”. Using descriptive, componential, contextual, lexico-semantic classification and field analysis methods, the article identifies the integral and differential semes of these units, their core-periphery relations, and their terminological functions in economic and legal discourse. The findings show that lexical units denoting property and capital form a separate microfield within the Dari trade macrofield and are united by the integral seme “economic and legal value involved in*

*commercial circulation". The analysis reveals generic-specific, part-whole, individual-collective, and material-intangible semantic relations within this microfield. The scientific significance of the article lies in revealing the systemic nature of Dari trade vocabulary through the analysis of trade and commercial vocabulary on the theory of the lexico-semantic field.*

***Keywords:*** *Dari language, trade vocabulary, lexico-semantic field, microfield, property, capital, Qânun-e tejârat.*

**Kirish.** Til leksikasi o‘zaro semantik munosabatga kirishuvchi birliklardan tashkil topgan murakkab sistemadir. Leksik birliklarning ma’lum bir umumiy sema asosida birlashishi, shu umumiylik doirasida esa differensial belgilar orqali farqlanishi leksik-semantik maydon nazariyasining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Sh. Iskandarova leksikani mazmuniy maydon asosida o‘rganish tilning lug‘aviy qatlamini yaxlit sistema sifatida ko‘rishga, maydon ichidagi birliklararo munosabatlarni aniqlashga imkon berishini ta’kidlaydi [1]. Demak, savdo-sotiq leksikasini ham oddiy mavzuiy guruh sifatida emas, balki ichki semantik bog‘lanishlarga ega bo‘lgan leksik maydon sifatida o‘rganish zarur.

Dariy tilidagi savdo-sotiq leksikasi, ayniqsa, iqtisodiy-huquqiy matnlarda alohida leksik tizim sifatida shakllanadi. Chunki huquqiy hujjatlarda so‘zning umumxalq tilidagi ma’nosi ko‘pincha torayadi, aniqlashadi va maxsus leksik vazifa bajaradi. Masalan, مال *mâl* “mol, mulk”, اموال *amvâl* “mollar, mulklar”, سرمایه*sarmâya* “kapital”, سهم *sahm* “ulush, aksiya” kabi birliklar umumiy tilda keng semantik qamrovga ega bo‘lsa-da, “Qânun-e tejârat” matnida ular savdo muomalasi, egalik, shirkat, kapital, ulush, garov va majburiyat munosabatlarini ifodalovchi maxsus iqtisodiy-huquqiy birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

Iqtisodiy leksikaning shakllanishi faqat tilning ichki imkoniyatlari bilan emas, balki jamiyatdagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlar, bozor mexanizmlari, mulkchilik shakllari va rasmiy hujjatchilik tizimi bilan ham belgilanadi. N.M. Karpuxina tovar-pul muomalasiga oid leksikaning shakllanishida ekstralingvistik omillar - iqtisodiy munosabatlarning o‘zgarishi, yangi kasbiy ehtiyojlar va nominatsiya zarurati muhim rol o‘ynashini qayd etadi[2]. Shu nuqtayi nazardan, dariy tilidagi savdo-sotiq birliklarini “*Qânun-e tejârat*” materiali asosida o‘rganish nafaqat leksikologik, balki huquqiy terminologiya va iqtisodiy diskurs tadqiqi uchun ham muhimdir.

Leksik-semantik maydon nazariyasida birliklarning maydonga mansubligi ularning umumiy mazmuniy komponenti bilan belgilanadi. E.A. Timchishena semantik maydonni umumiy ma’no asosida birlashgan, predmet, tushuncha yoki

[1] *Iskandarova Sh.M. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish: Filol. fan. dokt. diss. avtoref. – Toshkent, 1999. – B. 3–4*

[2] *Карпухина Н.М. Лексико-семантические процессы в русской терминологии товарно-денежного обращения: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Москва, 2007. – С. 3–4*

funksional o‘xshashlikni aks ettiruvchi til birliklari majmui sifatida izohlaydi[1]. Bu yondashuv “*Qânun-e tejârat*”dagi mulk va kapitalga oid birliklarni yagona mikromaydon doirasida tahlil qilishga asos beradi. Chunki ushbu birliklarning barchasi “savdo muomalasiga kiruvchi iqtisodiy-huquqiy qiymat” integral semasi atrofida birlashadi.

Shu bilan birga, mazkur mikromaydon tarkibidagi birliklar bir xil semantik maqomga ega emas. مال *mâl*, اموال *amvâl*, جنس *jens*, سرمایه *sarmâya*, سهم *sahm* kabi birliklar maydonning yadro qatlamini tashkil etsa, اموال منقول amvâl-e manqūl “ko‘char mulk”, اموال غیر منقول *amvâl-e ġayr-e manqūl* “ko‘chmas mulk”, مارک تجارتی *mârk-e tejâratī* “savdo belgisi”, اعتبار تجارتی *e‘tebâr-e tejâratī* “tijorat obro‘si/krediti” kabi birliklar yadro semasini huquqiy, moliyaviy yoki nomoddiy qiymat belgisi bilan aniqlashtiradi. Bunday qatlamlanish maydonning markaz-periferiya tuzilishiga ega ekanini ko‘rsatadi. Semantik maydonning yadro va periferiya asosida tashkil topishi, yadro birliklarining umumiy, faol, stilistik neytral va kontekstga kam bog‘liq bo‘lishi haqidagi nazariy qarashlar mazkur tahlilda metodologik asos vazifasini bajaradi[2].

Iqtisodiy terminlar matnda yuqori darajada ixtisoslashgan birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. N.S. Belyakova iqtisodiy matnning professionallik darajasi, avvalo, leksik birliklarning zichligi va ularning semantik maydonlarga birlashuvi orqali ko‘rinishini ta’kidlaydi[3]. “*Qânun-e tejârat*” matnida ham savdo-sotiq faoliyatiga oid birliklar tasodifiy qo‘llanmaydi; ular huquqiy munosabatlarning muayyan qismini nomlash, obyekt va subyektlarni farqlash, bitim predmeti, mulk turi, kapital shakli, ulush va javobgarlik chegarasini aniqlash vazifasini bajaradi. Shuning uchun mazkur birliklarni leksik-semantik maydon sifatida o‘rganish dariy tili savdo-sotiq leksikasining ichki sistem tuzilishini ochib berishga xizmat qiladi.

**Maqsad va vazifalar.** Ushbu maqolaning asosiy maqsadi - Afg‘oniston “*Qânun-e tejârat*”i materiali asosida dariy tilidagi mulk va kapitalga oid savdo-sotiq birliklarining leksik-semantik mikromaydonini aniqlash, ularning semantik tarkibi, maydon ichidagi o‘rni hamda o‘zaro sistem munosabatlarini yoritishdan iborat. Bu maqsad leksik birliklarni faqat tarjima yoki lug‘aviy ma’no darajasida emas, balki integral sema, differensial sema, yadro-periferiya va semantik oppozitsiyalar asosida tahlil qilishni taqozo etadi. Chunki leksik birlikning

[1] *Timchishena E.A. The Semantics of Sale and Purchase Verbs in Modern Chinese and Their Functioning in the Text. – Moscow, 2023. – P. 10–11*

[2] *Timchishena E.A. The Semantics of Sale and Purchase Verbs in Modern Chinese and Their Functioning in the Text. – Moscow, 2023. – P. 17–18*

[3] *Белякова Н.С. Лексико-семантические поля экономических терминов: на материале англоязычного учебно-академического текста. – С. 1–4*

maydondagi mavqeyi uning alohida lug‘aviy ma’nosi bilangina emas, balki boshqa birliklar bilan qanday munosabatga kirishishi orqali ham belgilanadi[1].

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

birinchidan, “*Qânun-e tejârat*” matnidan mulk, tovar, kapital, ulush, savdo belgisi, tijorat obro‘si va garov obyektlarini bildiruvchi asosiy dariy birliklarni ajratish;

ikkinchidan, ajratilgan birliklarning transkripsiyasi va qonuniy kontekstdagi leksik vazifasini aniqlash;

uchinchidan, مال *mâl*, اموال *amvâl*, جنس *jens*, امتعه *amte‘a*, سرمایه *sarmâya*, سهمsahm kabi birliklarning “savdo muomalasiga kiruvchi iqtisodiy-huquqiy qiymat” integral semasi asosida bir mikromaydonga birlashishini asoslash;

to‘rtinchidan, mikromaydon tarkibidagi birliklarni moddiy va nomoddiy obyekt, ko‘char va ko‘chmas mulk, tovar va kapital, kapital va ulush, individual va jamlanma obyekt kabi differensial semalar asosida guruhlash;

beshinchidan, mikromaydonning yadro, markazga yaqin qatlam va periferiya qismlarini ajratish, har bir qatlamga mansub birliklarning semantik maqomini belgilash;

oltinchidan, اموال *amvâl* - اموال منقول *amvâl-e manqūl* / اموال غیر منقول *amvâl-e ġayr-e manqūl* qatorida giper-giponimik munosabatni, سرمایه *sarmâya* - سهم *sahm* - اسهام as’hâm qatorida esa butun-qism, ya’ni meronimik munosabatni ko‘rsatish;

yettinchidan, umumtil birliklarining qonuniy kontekstda terminlashuvi natijasida yuzaga keladigan ma’no torayishi va funksional aniqlashuv jarayonlarini izohlash;

sakkizinchidan, dariy tili savdo-sotiq leksikasida mulk va kapital mikromaydoni mustaqil, lekin boshqa mikromaydonlar - subyektlar, bitimlar, moliya, hujjatlar va majburiyatlar maydoni bilan kesishuvchi ochiq semantik tizim ekanini asoslash.

Mazkur vazifalarning bajarilishi dariy tilidagi savdo-sotiq terminologiyasining ichki tuzilishini, ayniqsa, “mulk” va “kapital” tushunchalari atrofida shakllangan semantik guruhlarning sistem xarakterini aniqlash imkonini beradi. Bu esa “Qânun-e tejârat” matnini nafaqat huquqiy manba, balki dariy tilining iqtisodiy-huquqiy leksikasini o‘rganish uchun muhim lingvistik korpus sifatida baholashga asos yaratadi.

**Metodlar:** Tavsifiy, komponent, kontekstual, leksik-semantik tasnif va maydoniy tahlil metodlari.

**Metodlar.** Tadqiqotda tavsifiy, komponent, kontekstual, leksik-semantik tasnif va maydoniy tahlil metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar “Qânun-e tejârat” matnida mulk va kapitalga oid birliklarni oddiy lug‘aviy birliklar sifatida emas,

[1] *Timchishena E.A. The Semantics of Sale and Purchase Verbs in Modern Chinese and Their Functioning in the Text. – Moscow, 2023. – P. 18–21*

balki savdo-sotiq makromaydoni tarkibida muayyan semantik vazifa bajaruvchi sistem elementlar sifatida o‘rganishga xizmat qildi. Leksik-semantik maydon nazariyasida birliklarning bir maydonga mansubligi ularning umumiy mazmuniy komponentga egaligi, shu bilan birga, mazkur umumiylik doirasida differensial semalar orqali farqlanishi bilan belgilanadi [1]. Shu bois tadqiqotda avvalo birliklarning umumiy semantik asosi, keyin esa ularning ichki farqlanish belgilari aniqlashga harakat qilindi.

Tavsifiy metod yordamida “Qânun-e tejârat” matnida uchraydigan مال *mâl*, اموال *amvâl*, جنس *jens*, امتعه *amte‘a*, سرمايه *sarmâya*, سهم *sahm* kabi birliklarning lug‘aviy ma’nosi, o‘zbekcha tarjimasi, transkripsiyasi va matndagi huquqiy-iqtisodiy vazifasi izohlandi. Mazkur metod birliklarning dastlabki semantik tavsifini berish, ularni “mulk”, “tovar”, “kapital”, “ulush”, “jamlanma obyekt” kabi mazmuniy guruhlarga ajratish hamda har bir birlikning savdo-sotiq diskursidagi nominativ funksiyasini aniqlash imkonini berdi. Bunda birliklarning umumxalq tilidagi keng ma’nosi bilan rasmiy-huquqiy matndagi ixtisoslashgan vazifasi o‘zaro qiyoslandi. Masalan, مال *mâl* umumiy tilda “mol, boylik, narsa, mulk” kabi keng ma’nolarni bildirishi mumkin bo‘lsa, qonuniy matnda u bitim predmeti, egalik obyekti, garov qiymati yoki javobgarlik manbai sifatida maxsuslashgan holda qo‘llanadi.

Komponent tahlil metodi orqali tadqiqotga jalb qilingan birliklarning integral va differensial semalari ajratildi. Integral sema sifatida “savdo muomalasiga kiruvchi iqtisodiy-huquqiy qiymat” belgisi olindi. Chunki مال *mâl*, اموال *amvâl*, جنس *jens*, امتعه *amte‘a*, سرمايه *sarmâya*, سهم *sahm* birliklarining barchasi muayyan qiymatga ega obyekt, kapital yoki kapitaldagi ulushni bildiradi. Differensial semalar esa birliklarning ichki chegarasini belgilashga xizmat qildi. Jumladan, مال *mâl* “individual yoki umumiy mulkiy obyekt”, اموال *amvâl* “jamlanma mol-mulk”, جنس*jens* “almashinuvga kiruvchi moddiy tovar”, امتعه *amte‘a* “tovarlar yoki savdo ashyolari majmui”, سرمايه *sarmâya* “tijorat faoliyatining iqtisodiy asosi”, سهم *sahm* esa “kapitaldagi ulush” semalari bilan farqlanadi. Bunday yondashuv leksik birliklarning maydon ichidagi o‘rnini aniqlashda semantik komponentlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Kontekstual tahlil metodi birliklarning “Qânun-e tejârat” matnidagi real qo‘llanish vaziyatini aniqlash uchun qo‘llandi. Chunki huquqiy-iqtisodiy matnda leksik birlikning ma’nosi faqat lug‘atdagi izoh bilan cheklanmaydi; u muayyan modda, norma, bitim, majburiyat yoki huquqiy munosabat doirasida aniqlashadi. Shu jihatdan جنس *jens* “tovar” birligi oddiy predmetni emas, balki oldi-sotdi munosabatining bevosita obyektini bildiradi; سرمايه *sarmâya* esa faqat moliyaviy

[1] Timchishena E.A. The Semantics of Sale and Purchase Verbs in Modern Chinese and Their Functioning in the Text. – Moscow, 2023. – P. 10–14

mablag‘ emas, balki shirkat faoliyati, hissadorlik, foyda va javobgarlik bilan bog‘langan iqtisodiy-huquqiy asos sifatida talqin qilinadi. Kontekstual tahlil umumtil birliklarining qonuniy matnda terminologik torayish, funksional aniqlashuv va huquqiy ixtisoslashuv jarayonlarini ochish imkonini berdi. Iqtisodiy terminologiyaning shakllanishida umumxalq leksikasi hisobidan maxsus nomlanishlar vujudga kelishi hamda ularning kasbiy diskursda yangi vazifa olishi N.M. Karpuxina tomonidan ham alohida qayd etilgan[1].

Leksik-semantik tasnif metodi asosida mulk va kapital mikromaydoniga oid birliklar ichki guruhlarga ajratildi. Tasniflash jarayonida birliklarning umumiy semantik belgisi bilan bir qatorda ularning huquqiy-iqtisodiy vazifasi ham inobatga olindi. Natijada mikromaydon tarkibida “mulkni bildiruvchi birliklar” مال *mâl*, اموال *amvâl*; “savdo predmetini bildiruvchi birliklar” جنس *jens*, امتعه *amte‘a*; “kapital va ulushni bildiruvchi birliklar” سرمایه *sarmâya*, سهم *sahm*; “mulkning huquqiy turlarini bildiruvchi birliklar” اموال منقول *amvâl-e manqūl*, اموال غیر منقول *amvâl-e ġayr-e manqūl* kabi guruhlar ajratildi. Mazkur tasnif birliklarning faqat predmetlik belgisi asosida emas, balki savdo muomalasidagi funksional vazifasi asosida ham farqlanishini ko‘rsatadi.

Maydoniy tahlil metodi tadqiqotning asosiy yo‘nalishini tashkil etdi. Ushbu metod orqali mulk va kapitalga oid birliklarning yadro, markazga yaqin qatlam va periferiya munosabatlari belgilandi. مال *mâl*, اموال *amvâl*, سرمایه *sarmâya*, سهم *sahm* birliklari mikromaydonning yadro qismiga kiritildi, chunki ular mulk, mol-mulk majmui, kapital va ulush tushunchalarini eng umumiy va faol shaklda ifodalaydi. جنس *jens* va امتعه *amte‘a* savdo predmeti hamda tovarlar majmuini bildirishi bilan markazga yaqin qatlamda joylashadi. اموال منقول *amvâl-e manqūl*, اموال غیر منقول *amvâl-e ġayr-e manqūl*, مارک تجارتی *mârk-e tejâratī*, اعتبار تجارتی *e‘tebâr-e tejâratī* kabi birliklar esa yadro semasini ko‘charlik, ko‘chmaslik, nomoddiy qiymat, tijorat obro‘si kabi qo‘shimcha belgilar bilan aniqlashtiruvchi periferik birliklar sifatida talqin qilindi. Semantik maydonning yadro va periferiya asosida tashkil topishi leksik birliklarning maydondagi semantik masofasi hamda umumiy semaga yaqinlik darajasini aniqlashga imkon beradi[2].

Shuningdek, tadqiqotda birliklar o‘rtasidagi paradigmatik munosabatlarni aniqlashga ham e’tibor qaratildi. اموال *amvâl* - اموال منقول *amvâl-e manqūl* / اموال غیر منقول *amvâl-e ġayr-e manqūl* qatorida giper-giponimik munosabat, سرمایه *sarmâya* - سهم *sahm* qatorida esa butun-qism, ya’ni meronimik munosabat mavjudligi belgilandi. Bu munosabatlar mulk va kapital mikromaydonining ichki pog‘onali tuzilishga ega ekanini ko‘rsatadi. Leksik-semantik munosabatlarning

[1] Карпухина Н.М. Лексико-семантические процессы в русской терминологии товарно-денежного обращения: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Москва, 2007. – С. 3–4

[2] Timchishena E.A. The Semantics of Sale and Purchase Verbs in Modern Chinese and Their Functioning in the Text. – Moscow, 2023. – P. 17–21

bunday ko‘rinishlari til lug‘aviy qatlamining sistem xarakterini ochishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi[1].

Shunday qilib, tadqiqotda qo‘llangan metodlar bir-birini to‘ldiruvchi tahlil vositalari sifatida namoyon bo‘ldi: tavsifiy metod birliklarning dastlabki izohini berishga, komponent tahlil integral va differensial semalarni aniqlashga, kontekstual tahlil qonuniy matndagi funksional ma’noni ko‘rsatishga, leksik-semantik tasnif birliklarni ichki guruhlarga ajratishga, maydoniy tahlil esa ularning yadro-periferiya tizimidagi o‘rnini belgilashga xizmat qildi. Natijada “Qânun-e tejârat” matnidagi mulk va kapitalga oid birliklar savdo-sotiq leksikasining mustaqil mikromaydoni sifatida tahlil qilindi.

**Erishilgan natijalar.** Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “*Qânun-e tejârat*” matnida mulk va kapitalga oid birliklar savdo-sotiq makromaydonining muhim mikromaydonlaridan birini tashkil etadi. Mazkur mikromaydonning markazida “savdo muomalasiga kiruvchi iqtisodiy-huquqiy qiymat” integral semasi turadi. Bu sema مال *mâl*, اموال *amvâl*, جنس *jens*, امتعه *amte‘a*, سرمایه *sarmâya*, سهم *sahm* kabi birliklarni bitta leksik-semantik maydon doirasida birlashtiradi. Biroq ushbu birliklar umumiy “qiymat” semasi orqali birlashgani bilan, ularning har biri alohida differensial sema va maxsus qonuniy vazifaga ega. Demak, ular oddiy mavzuiy yaqinlik asosida emas, balki sistem semantik munosabatlar asosida mikromaydon hosil qiladi. Leksik birliklarning umumiy sema asosida birlashishi va farqlovchi semalar orqali ichki guruhlarga ajralishi mazmuniy maydon tadqiqining asosiy mezonlaridan biri sifatida qaraladi[2].

**1-jadval. “*Qânun-e tejârat*”da mulk va kapital mikromaydoniga oid asosiy birliklar**

| **Dariy birlik** | **Transkripsiya** | **O‘zbekcha tarjimasi** | **Semantik belgisi** | **Qonuniy vazifasi** |
|---|---|---|---|---|
| **مال** | mâl | mol, mulk | individual yoki umumiy mulkiy obyekt | bitim predmeti, egalik obyekti, garov yoki javobgarlik manbai sifatida ishlaydi |
| **اموال** | amvâl | mollar, mulklar | jamlanma mulk, mulkiy obyektlar yig‘indisi | ko‘char va ko‘chmas mulk, shirkat mulki, saqlash yoki garovga qo‘yilgan mulkni umumlashtiradi |
| **جنس** | jens | tovar | almashinuvga | oldi-sotdi |

[1] Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 4–5

[2] *Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш: Филол. фан. докт. дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б. 3–4*

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | kiruvchi moddiy obyekt | munosabatining bevosita predmeti sifatida qo‘llanadi |
| **امتعه** | amte‘a | tovarlar, buyumlar | tovarlar majmui, yuk yoki savdo ashyolari | savdo muomalasidagi tovar partiyasi yoki buyumlar yig‘indisini bildiradi |
| **سرمایه** | sarmâya | kapital, sarmoya | tijorat faoliyatining iqtisodiy asosi | shirkat faoliyati, ulush, javobgarlik va investitsion munosabatlarni belgilaydi |
| **سهم** | sahm | ulush, aksiya | butunning qismi, kapitaldagi hissadorlik | aksiyadorlik, sheriklik va kapitaldagi huquqiy ulushni ifodalaydi |

Jadvaldan ko‘rinadiki, مال *mâl* mazkur mikromaydonning eng umumiy va yadro birliklaridan biridir. Uning yadro maqomi shundaki, u “mulk”, “mol”, “iqtisodiy qiymatga ega narsa” semalarini umumlashtiradi. Umumtil doirasida مال *mâl* keng ma’noli birlik sifatida “boylik”, “narsa”, “mulk” kabi ma’nolarni bildirishi mumkin. Biroq “*Qânun-e tejârat*” matnida u leksik torayishga uchraydi va savdo-huquqiy munosabatda bitim predmeti, egalik obyekti, garovga qo‘yiluvchi qiymat yoki javobgarlik manbai sifatida aniq vazifa bajaradi. Bu holat umumtil birliklarining maxsus kasbiy-huquqiy kontekstda ma’no torayishi yuz berishini ko‘rsatadi. Iqtisodiy terminologiyada umumxalq leksikasi hisobidan terminlashuv jarayoni faol kechishi N.M. Karpuxina tadqiqotlarida ham alohida ta’kidlanadi[1].

اموال *amvâl* birligi مال*mâl*ning oddiy ko‘plik shakli sifatida qaralishi mumkin, ammo qonuniy kontekstda u bundan kengroq semantik vazifa bajaradi. U alohida mulkni emas, balki mol-mulk majmuini, ya’ni iqtisodiy-huquqiy obyektlar yig‘indisini bildiradi. Shu jihatdan اموال *amvâl* mikromaydon ichida umumlashtiruvchi birlik maqomiga ega. اموال منقول *amvâl-e manqūl* “ko‘char mulk” va اموال غیر منقول *amvâl-e ġayr-e manqūl* “ko‘chmas mulk” kabi birliklar aynan اموال*amvâl* umumiy semasining ichki turlanishi asosida yuzaga keladi. Demak, اموال*amvâl* - giperonim, اموال منقول va اموال غیر منقول esa uning giponimlari sifatida baholanishi mumkin. Giper-giponimik munosabat leksik-semantik tizimda umumiy va xususiy ma’noli birliklarning pog‘onali aloqasini ko‘rsatadi[2].

[1] *Карпухина Н.М. Лексико-семантические процессы в русской терминологии товарно-денежного обращения: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Москва, 2007. – С. 3–4*

[2] *Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 4–5*

جنس *jens* “tovar” birligi savdo muomalasining bevosita almashinuvga kiruvchi predmetini bildiradi. U مال *mâl* bilan umumiy “qiymatga ega obyekt” semasida birlashadi, biroq مال mâlga nisbatan torroq va aniqroq savdo terminidir. Agar مال *mâl* har qanday mulkiy qiymatni bildirishi mumkin bo‘lsa, جنس *jens* aynan oldi-sotdi jarayonida almashinadigan moddiy predmetni anglatadi. Shu sababli جنس *jens* mikromaydon ichida “savdo predmeti” differensial semasi bilan ajralib turadi. Bu birlikning qonuniy vazifasi tovarning shartnoma predmeti, yetkazib beriladigan ashyo yoki baholanadigan savdo obyekti sifatida aniqlanishida namoyon bo‘ladi.

امتعه *amte‘a* birligi esa جنس *jens*ga yaqin bo‘lsa-da, u bilan mutlaq sinonim emas. جنس jens ko‘proq individual yoki umumiy tovar nomini bildiradi, امتعه *amte‘a* esa tovarlar majmui, buyumlar yig‘indisi yoki savdo ashyolari ma’nosini kuchaytiradi. Demak, bu ikki birlik “tovar” integral semasi asosida birlashadi, biroq “individual predmet” va “jamlanma obyekt” differensial semalari orqali farqlanadi. Leksik-semantik maydon ichida bunday farqlanish birliklarning bir-birini to‘liq takrorlamasligini, balki turli huquqiy-iqtisodiy vaziyatlarda qo‘llanishini ko‘rsatadi. Semantik maydon tarkibidagi birliklar aynan umumiy va farqlovchi komponentlar orqali o‘zaro munosabatga kirishadi[1].

سرمايه *sarmâya* “kapital” birligi mulk va tovar birliklaridan farqli ravishda bevosita savdo predmetini emas, balki tijorat faoliyatining iqtisodiy asosini bildiradi. U shirkat, aksiyadorlik, investitsiya, javobgarlik va foyda munosabatlari bilan bog‘liq holda qo‘llanadi. Shu bois سرمايه *sarmâya* mikromaydonning yadro birliklaridan biri bo‘lsa-da, uning semantik yo‘nalishi مال *mâl* va جنس *jens*dan farqlanadi. مال *mâl* mulkiy obyektni, جنس *jens* almashinuv predmetini, سرمايه *sarmâya* esa iqtisodiy faoliyatni ta’minlovchi jamlangan qiymatni bildiradi. Shunday qilib, سرمايه *sarmâya* “kapital”, “iqtisodiy asos”, “tijorat faoliyatiga safarbar qilingan qiymat” semalarini mujassamlashtiradi.

سهم *sahm* “ulush, aksiya” birligi سرمايه *sarmâya* bilan bevosita semantik bog‘liq. U kapitalning mustaqil o‘zini emas, balki shu kapitaldagi qismni, hissani yoki aksiyadorlik huquqini bildiradi. Shu jihatdan سرمايه *sarmâya* va سهم *sahm* o‘rtasida butun-qism munosabati mavjud: سرمايه - butun, سهم - shu butunning huquqiy-iqtisodiy qismi. Bunday munosabat meronimik xarakterga ega bo‘lib, u mulk va kapital mikromaydonining ichki pog‘onali tuzilishini ko‘rsatadi. Maydoniy tahlilda yadro va periferiya bilan bir qatorda birliklar o‘rtasidagi semantik masofa, o‘zaro bog‘lanish va pog‘onali munosabatlar ham muhim ahamiyatga ega[2].

[1] *Timchishena E.A. The Semantics of Sale and Purchase Verbs in Modern Chinese and Their Functioning in the Text. – Moscow, 2023. – P. 12–14*

[2] *Timchishena E.A. The Semantics of Sale and Purchase Verbs in Modern Chinese and Their Functioning in the Text. – Moscow, 2023. – P. 17–18*

Tahlil asosida mazkur mikromaydon ichida quyidagi asosiy semantik oppozitsiyalar aniqlandi:

**2-jadval.**

| **Oppozitsiya turi** | **Namuna birliklar** | **Semantik farq** | **Huquqiy-iqtisodiy ahamiyati** |
|---|---|---|---|
| Individual / jamlanma obyekt | **مال / اموال** | yakka mulk va mulklar majmui | bitim yoki javobgarlik obyektining ko‘lamini belgilaydi |
| Tovar / mulk | **جنس / مال** | almashinuv predmeti va umumiy mulkiy qiymat | savdo predmeti bilan egalik obyektini farqlaydi |
| Tovar / tovarlar majmui | **جنس / امتعه** | individual tovar va tovarlar yig‘indisi | yetkazib berish, saqlash yoki tashish obyekti hajmini aniqlaydi |
| Kapital / ulush | **سرمایه / سهم** | butun iqtisodiy asos va uning qismi | shirkat, aksiya va hissadorlik munosabatlarini belgilaydi |
| Moddiy / nomoddiy qiymat | **جنس / مارک تجارتی** | jismoniy tovar va huquqiy-belgili qiymat | savdo obyekti doirasiga nomoddiy aktivlarni ham kiritadi |
| Ko‘char / ko‘chmas mulk | **اموال منقول / اموال غیر منقول** | harakatlanish xususiyatiga ko‘ra farq | mulkka nisbatan qo‘llanadigan huquqiy rejimni ajratadi |

Bu oppozitsiyalar shuni ko‘rsatadiki, “Qânun-e tejârat”dagi mulk va kapital mikromaydoni uning ichki tuzilishida umumiy-xususiy, butun-qism, individual-jamlanma, moddiy-nomoddiy, obyekt-kapital kabi semantik munosabatlar mavjud. Ayniqsa, مال *mâl* - اموال *amvâl* qatorida son va umumlashtirish munosabati, اموال amvâl - اموال منقول / اموال غیر منقول qatorida giper-giponimik munosabat, سرمایه *sarmâya* - سهم *sahm* qatorida esa meronimik munosabat yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Mikromaydonning yadro-periferiya tuzilishi ham aniqlandi. مال *mâl*, اموال *amvâl*, سرمایه *sarmâya*, سهم *sahm* birliklari yadro qatlamini tashkil etadi, chunki ular iqtisodiy-huquqiy qiymat, egalik, kapital va ulush munosabatlarini eng umumiy tarzda ifodalaydi. جنس *jens* va امتعه *amte‘a* markazga yaqin birliklar sifatida baholanishi mumkin, chunki ular savdo predmeti va tovarlar majmuini bildiradi. اموال منقول، اموال غیر منقول، مارک تجارتی، اعتبار تجارتی kabi birliklar esa yadro semasini qo‘shimcha huquqiy yoki funksional belgi bilan aniqlashtiruvchi periferiya birliklari sifatida namoyon bo‘ladi. Leksik-semantik maydonning yadro

va periferiya asosida tashkil topishi maydon ichidagi birliklarning semantik umumiyligi va differensial belgilar darajasiga bog‘liqdir[1].

Shunday qilib, tadqiqot natijalari “*Qânun-e tejârat*”da mulk va kapitalga oid birliklar dariy tili savdo-sotiq leksikasining muhim mikromaydonni tashkil etishini ko‘rsatdi. Mazkur mikromaydon “iqtisodiy-huquqiy qiymat” integral semasi asosida birlashadi, ichki jihatdan esa mulk, tovar, kapital, ulush, jamlanma obyekt va nomoddiy aktiv kabi semantik guruhlarga ajraladi. Bu holat dariy tilidagi savdo-sotiq terminologiyasining sistem xarakterga ega ekanini, undagi birliklar qonuniy matnda aniq terminologik vazifa bajarishini va ularni leksik-semantik maydon nazariyasi asosida tahlil qilish ilmiy jihatdan asosli ekanini tasdiqlaydi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “*Qânun-e tejârat*” matnida mulk va kapitalga oid birliklar dariy tili savdo-sotiq leksikasining mustaqil mikromaydonini tashkil etadi. Mazkur mikromaydonning asosiy semantik markazi “savdo muomalasiga kiruvchi iqtisodiy-huquqiy qiymat” integral semasi bilan belgilanadi. مال *mâl*, اموال *amvâl*, جنس *jens*, امتعه *amte‘a*, سرمایه *sarmâya*, سهم *sahm* kabi birliklar aynan shu umumiy sema atrofida birlashadi. Biroq ular bir xil mazmuniy maqomga ega emas: har bir birlik o‘ziga xos differensial sema va qonuniy vazifa bilan ajralib turadi.

Mikromaydonning yadro qismini مال *mâl*, اموال *amvâl*, سرمایه *sarmâya*, سهم *sahm* birliklari tashkil etadi. Chunki bu birliklar mulk, mol-mulk majmui, kapital va ulush tushunchalarini eng umumiy, faol va huquqiy jihatdan markaziy shaklda ifodalaydi. جنس *jens* va امتعه *amte‘a* birliklari savdo predmeti va tovarlar majmuini bildirishi bilan markazga yaqin qatlamda joylashadi. اموال منقول *amvâl-e manqūl*, اموال غیر منقول *amvâl-e ġayr-e manqūl*, مارک تجارتی *mârk-e tejâratī*, اعتبار تجارتی *e‘tebâr-e tejâratī* kabi birliklar esa yadro semasini qo‘shimcha huquqiy, funksional yoki nomoddiy qiymat belgisi bilan aniqlashtiruvchi periferiya birliklari sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat leksik-semantik maydonlarning yadro va periferiya asosida tashkil topishi haqidagi nazariy qarashlarga mos keladi.

Tahlil jarayonida mazkur birliklar o‘rtasida bir necha muhim semantik munosabatlar mavjudligi aniqlandi. مال *mâl* - اموال *amvâl* qatorida individual va jamlanma obyekt munosabati, اموال *amvâl* - اموال منقول *amvâl-e manqūl* / اموال غیر منقول *amvâl-e ġayr-e manqūl* qatorida giper-giponimik munosabat, سرمایه *sarmâya* - سهم sahm qatorida esa butun-qism, ya’ni meronimik munosabat kuzatiladi. Bunday munosabatlar mulk va kapital mikromaydoni oddiy terminlar ro‘yxati emas, balki ichki pog‘onali tuzilishga ega bo‘lgan semantik sistema ekanini tasdiqlaydi. Leksik birliklar o‘rtasidagi giper-giponimik va boshqa sistem

[1] *Timchishena E.A. The Semantics of Sale and Purchase Verbs in Modern Chinese and Their Functioning in the Text. – Moscow, 2023. – P. 18–21*

aloqalar leksik-semantik munosabatlarning muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida qaraladi[1].

Maqolada ko‘rib chiqilgan birliklar umumxalq tilidan iqtisodiy-huquqiy diskursga o‘tganida ma’no torayishi va leksik aniqlashuv jarayoniga uchrashi ham kuzatildi. Masalan, مال *mâl* umumiy tilda “mulk, boylik, narsa” kabi keng ma’nolarni bildirsa, “*Qânun-e tejârat*”da bitim predmeti, garov obyekti yoki mulkiy javobgarlik manbai sifatida ishlaydi. سرمایه *sarmâya* esa umumiy “kapital” ma’nosidan tashqari, shirkat faoliyatining iqtisodiy asosi, ulushlarga bo‘linuvchi qiymat va huquqiy munosabatlarni belgilovchi termin vazifasini bajaradi. Bu holat iqtisodiy terminologiyaning shakllanishida umumxalq leksikasining terminlashuvi muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi[2].

Shuningdek, mulk va kapital mikromaydoni savdo-sotiq makromaydonining boshqa qismlari bilan uzviy bog‘liq ekani aniqlandi. U subyektlar mikromaydoni bilan egalik va huquq egasi orqali, bitimlar mikromaydoni bilan oldi-sotdi predmeti orqali, moliya mikromaydoni bilan kapital va ulush orqali, hujjatlar mikromaydoni bilan garov va aksiyadorlik hujjatlari orqali kesishadi. Demak, mazkur mikromaydon dariy tili iqtisodiy-huquqiy leksikasining boshqa qatlamlari bilan aloqador ochiq semantik tizimdir.

“*Qânun-e tejârat*” materialida mulk va kapitalga oid birliklarni leksik-semantik maydon nazariyasi asosida o‘rganish dariy tili savdo-sotiq terminologiyasining sistem xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur terminlar huquqiy matnda iqtisodiy-huquqiy voqelikni nomlash, farqlash, tartibga solish va qonuniy munosabatlarni aniqlash vazifasini bajaradi. Shu bois mulk va kapital mikromaydoni dariy tilidagi savdo-sotiq leksikasining markaziy semantik bo‘g‘inlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

[1] *Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 4–5*

[2] *Карпухина Н.М. Лексико-семантические процессы в русской терминологии товарно-денежного обращения: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Москва, 2007. – С. 3–4*

# Eron olimlarining tadqiqotlarida allomorf haqidagi nazariy qarashlar

***DILOROM SAIDORIPOVA***
*Katta o‘qituvchi, TDSHU*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada hozirgi fors tilshunosligida morf, morfema va allomorf tushunchalarining nazariy-lingvistik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda fors tilida affiksatsiya usuli orqali hosil bo‘ladigan yasama birliklarning morfologik tuzilishi hamda ular tarkibida kuzatiladigan allomorfik hodisalar ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Eron tilshunoslari tomonidan “morf”, “morfema” va “allomorf” tushunchalariga berilgan turli ta’riflar, ularning terminologik ifodalanishidagi tafovutlar, o‘zaro mushtarak va farqli jihatlar qiyosiy tahlil asosida ochib berilgan. Shuningdek, allomorflarning fors tilidagi namoyon bo‘lish shakllari, xususan, ularning fonetik, grammatik, morfologik, leksik va uslubiy kontekstlar bilan shartlangan holda yuzaga kelishi misollar yordamida asoslab berilgan. Bundan tashqari, allomorflarning komplementar taqsimot, erkin variantlilik, majburiy va ixtiyoriy qo‘llanish kabi xususiyatlari ham tahlil qilingan. Tadqiqot davomida fors tilidagi ayrim morfemalarning turli shakllarda voqelanishi, ularning nutqiy va uslubiy muhitga moslashuvi hamda morfologik tizimdagi funksional o‘rni ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari fors tilshunosligida allomorf tushunchasining yagona va umumiy qabul qilingan talqini mavjud emasligini, ushbu masalada turli nazariy yondashuvlar va terminologik tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *morf, morfema, allomorf, affiksatsiya, so‘z yasalishi, morfologik kontekst, fonetik shartlashuv, grammatik shartlashuv va komplementar taqsimot.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются теоретико-лингвистические основы понятий морф, морфема и алломорф в современном персидском языкознании. В исследовании на основе научных источников освещаются морфологическая структура производных единиц, образуемых в персидском языке способом аффиксации, а также алломорфические явления, наблюдаемые в их составе. На основе сопоставительного анализа раскрываются различные определения понятий «морф», «морфема» и «алломорф», представленные иранскими лингвистами, различия в их терминологическом выражении, а также их общие и отличительные признаки. Кроме того, в статье обоснованы формы проявления алломорфов в персидском языке, в частности, показано их возникновение в зависимости от фонетического, грамматического, морфологического, лексического и стилистического контекстов. Наряду с этим проанализированы такие свойства алломорфов, как комплементарное распределение, свободная вариантность, обязательное и факультативное употребление. В ходе исследования показаны различные формы реализации отдельных морфем в персидском языке, их адаптация к речевой и стилистической среде, а также их функциональная роль в морфологической системе языка. Результаты исследования показывают, что в персидском языкознании не*

*существует единого и общепринятого толкования понятия алломорфа, а по данному вопросу наблюдаются различные теоретические подходы и терминологические расхождения.*

***Ключевые слова:*** *морф, морфема, алломорф, аффиксация, словообразование, морфологический контекст, фонетическая обусловленность, грамматическая обусловленность, комплементарное распределение.*

***Abstract.*** *This article analyzes the theoretical-linguistic foundations of the concepts of morph, morpheme, and allomorph in contemporary Persian linguistics. Based on scholarly sources, the study examines the morphological structure of derived units formed in Persian through affixation, as well as the allomorphic phenomena observed within them. Through a comparative analysis, various definitions of the terms "morph," "morpheme," and "allomorph" proposed by Iranian linguists are discussed, highlighting differences in their terminological expressions as well as their shared and distinctive features. Furthermore, the article substantiates the forms in which allomorphs manifest in Persian, specifically demonstrating their occurrence as conditioned by phonetic, grammatical, morphological, lexical, and stylistic contexts. In addition, the study analyzes properties of allomorphs such as complementary distribution, free variation, and obligatory versus optional usage. The research also illustrates the various realizations of certain morphemes in Persian, their adaptation to speech and stylistic contexts, and their functional roles within the language's morphological system. The findings indicate that there is no single, universally accepted interpretation of the concept of allomorph in Persian linguistics, with different theoretical approaches and terminological variations evident in this area.*

***Key words:*** *morph, morpheme, allomorph, affixation, word formation, morphological context, phonetic conditioning, grammatical conditioning, and complementary distribution.*

**Kirish.** Eroniy tillar, xususan, fors tilida so‘z yasalishining turli usullari bilan bir qatorda affiksatsiya usuli, ya’ni asosga so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi orqali yangi ma’no anglatuvchi so‘z vujudga keltirilish usuli muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur usul orqali lug‘at tarkibidagi yangi so‘zlar miqdori ortib boradi. Shu bois affiksatsiya tilning ichki taraqqiyot mexanizmlaridan biri sifatida so‘z boyligini muntazam ravishda to‘ldirib boruvchi sermahsul usul sanaladi. Fors tilida affiksatsiya vositasida hosil bo‘ladigan yasama birliklar nafaqat tilning lug‘aviy tarkibini boyitadi, balki undagi morfologik tizimning murakkab va tartibli tuzilishga ega ekanligini ham ko‘rsatadi. Ayniqsa, so‘z yasovchi affikslarning turli fonetik, grammatik va leksik qurshovlarda bir necha shaklda namoyon bo‘lishi ushbu hodisani yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etadi. Bunday holat tilshunoslikda allomorf hodisasi bilan izohlanadi.

**Maqsad va vazifa.** Mazkur maqolaning maqsadi hozirgi fors tilshunosligida morf, morfema va allomorf tushunchalarining nazariy-lingvistik asoslarini yoritish, ushbu birliklarning terminologik talqinidagi o‘ziga xosliklarni aniqlash

hamda fors tilidagi allomorflarning shakliy, semantik va funksional xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

Fors tilshunosligida morf, morfema va allomorf tushunchalarining ilmiy talqinlarini o‘rganish, mazkur tushunchalarning turli terminlar orqali ifodalanish holatlarini aniqlash va qiyoslash, morf va morfema tushunchalarining o‘zaro farqli va mushtarak jihatlarini ko‘rsatish, morfemalarning struktur-semantik va funksional xususiyatlarini yoritish, allomorf tushunchasiga doir Eron tilshunoslarining ilmiy qarashlarini tahlil qilish, fors tilidagi allomorflarning yuzaga kelish omillari va qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlash, allomorflarning fonetik, grammatik, morfologik, leksik va uslubiy turlarini tasniflash kabilar mazkur maqolaning vazifalarini tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotni amalga oshirishda tavsifiy, tahliliy va qiyosiy-tahliliy metodlaridan foydalanildi. Hozirgi fors tilidagi morf, morfema va allomorf tushunchalariga fors tilshunosligida ilgari surilgan nazariy qarashlar tadqiqotning asosiy manbai sifatida qabul qilindi, mazkur birliklarning terminologik, semantik va funksional xususiyatlari esa tadqiqot predmeti sifatida olindi.

**Natijalar va mulohaza.** So‘z yasalishining sermahsul affiksatsiya usuli haqida bahs yuritar ekanmiz, avvalo morfologiya bo‘limidagi “morf”, “morfema” va “allomorf” tushunchalarining tavsifiga to‘xtalish lozim.

Eron tilshunosi O. Bihishtiy o‘zining taqdiqotida “morf”ni واژک *vāžak* deb atab, uni “boshqa bo‘laklarga bo‘linmaydigan, ma’noga ega, ham yakka holda, ham boshqa birliklar bilan qo‘llanishi mumkin bo‘lgan tovushlar kombinatsiyasi”[1] ekanligini keltiradi. Olim fikrining tasdig‘i sifatida morfning روز *ruz* ‘kun’ so‘zida yakka holatda, امروز *emruz* so‘zida ام *em* boshqa birlik bilan kelganini ko‘rsatadi.

I. Kalbosiy [2] esa O. Bihishtiy yondashuvidan farqli ravishda “morf” tushunchasini واژ *vāž* termini orqali ifodalaydi hamda “morfema” til tizimida mavhum birlik ekani, uning nutq jarayonida aniq shaklda namoyon bo‘ladigan ko‘rinishi “morf”ligini qayd etadi.

Morfologiya sohasida o‘rganiladigan so‘z birliklaridan yana biri – bu “morfema”dir. V. Shaqqoqiy [3] ning keltirishicha, Eron tilshunosligida olimlar “morfema”ni تکواژ *takvāž,* واژ *vāž,* تکواژه *takvāže,* واژک *vāžak,* جزء صرفی *joz’e sarfi* kabi terminlar bilan tadqiq qilishgan. Ammo yuqorida keltirilgan fikrlarni inobatga olib, aytish kerakki, “morf” va “morfema” tushunchalari qorishib ketgan. Bunday chalkashlik ularning vazifalari va xususiyatlarini tadqiq etishda

**1** علاالدین بهشتی. ساختمان واژه زبان فارسی امروز. – تهران، ۱۳۵۵. – ص. ۲۵.
**2** ایران کلباسی. ساخت اشتقاقی واژه در فارسی امروز. – تهران، ۱۳۷۱. – ص. ۲۱-۲۲.
**3** ویدا شقاقی. مبانی صرف. تهران، ۱۳۸۶. – ص. ۱۳.

qiyinchiliklar tug‘diradi. Shuningdek, ushbu mavzu quyida “morfema” tushunchasiga olimlarning yondoshuvlarini taqdiq qilishni taqazo etadi.

O. Bihishtiy “morfema”ni تکواژه *takvāže* termini ostida tadqiq qilib, uni “ma’no jihatidan o‘zaro o‘xshash va komplementar taqsimotda bo‘ladigan shakllar majmuasi”[1] deb talqin qiladi.

A. Vafoiy “morfema”ni تکواژ *takvāž* termini bilan yuritib, unga quyidagicha ta’rif beradi: “Ham mustaqil ravishda, ham so‘z yasash jarayonida ishlatila oladigan tilning eng kichik ma’noli birligi morfemadir”[2].

M. Bog‘eriy[3] nazariyasiga ko‘ra, grammatika vazifa va mustaqil ma’noga ega tilining eng kichik birligi تکواژ *takvāž* ‘morfema’dir.

O. Afroshiy ilmiy yondashuviga ko‘ra, تکواژ *takvāž* ‘morfema’ tilning eng kichik birligi bo‘lib, u ma’no bildirishi yoki grammatik vazifaga ega bo‘lishi hamda so‘z yasalishida qo‘llanishi mumkin[4].

A. Tabotaboiy [5] hamda V. Shaqqoqiy [6] yuqorida fikrlari keltirilgan olimlar singari “morfema”ga nisbatan تکواژ *takvāž* terminini qo‘llab, uni ma’no yoki grammatik shaklga ega bo‘lgan, ba’zan esa ham ma’no, ham grammatik shaklga ega bo‘ladigan tilning eng kichik birligi, deb izohlaydi.

A. Vafoiy, O. Afroshiy, O. Tabotaboiydan farqli o‘laroq M. Boteniy[7] hamda I. Kalbosiy [8] “morfema”ni واژک *vāžak* termini bilan atab, so‘z yasalishida til birliklarining ierarxik tizimida qo‘llanadigan ma’no yoki vazifaga ega bo‘lgan tilning eng kichik birligi sifatida tavsiflaydi.

I. Kalbosiy[9] morfemalarni واژک آزاد *vāžak-e āzād* “yetakchi morfema” va واژک مقید *vāžak-e moqayyed “*ko‘makchi morfema”, V. Shaqqqoqiy[10] va A. Vafoiy[11] تکواژ آزاد *takvāž-e āzād “*yetakchi morfema” va تکواژ وابسته *takvāž-e vābaste “*ko‘makchi morfema”, O. Afroshiy [12] esa تکواژ آزاد *takvāž-e āzād “*yetakchi morfema” va تکواژ مقید *takvāž-e moqayyed “*ko‘makchi morfema” kabilarga bo‘lib o‘rganadilar. Tahlildan ko‘rinib turibdiki, “yetakchi morfema” termini 2,“ko‘makchi morfema” termini 3 variantda qo‘llanadi. Bunday xilma-xillik tilshunoslikda chalg‘itish yoki tusunmovchilikka sabab bo‘lishi mumkin.

---

**1** علاالدین بهشتی. ساختمان واژه زبان فارسی امروز. – تهران، ۱۳۵۵. – ص. ۲۵.
**2** عباسعلی وفایی. دستور توصیفی (بر اساس واحدهای زبان فارسی). تهران، ۱۳۹۲. – ص. ۲۴۳.
**3** مهری باقری. مقادمات زبانشناسی. – تبریز. ۱۳۷۱. – ص. ۲۴۱
**4** آزیتا افراشی. ساخت زبان فارسی. تهران، ۱۳۹۶. – ص ۶۷.
**5** علاءالدین طباطبایی. فرهنگ توصیفی دستور زبان فارسی. تهران: فرهنگ معاصر، ۱۳۹۵. – ص. ۱۷۴.
**6** ویدا شقاقی. مبانی صرف. تهران، ۱۳۸۶. – ص. ۶۱.
**7** محمد رضا باطنی. توصیف ساختمان دستوری زبان فارسی. – تهران، ۱۳۴۸. – ص. ۳۸.
**8** ایران کلباسی. ساخت اشتقاقی واژه در فارسی امروز. – تهران، ۱۳۷۱. – ص. ۲۱-۲۲.
**9** ایران کلباسی. ساخت اشتقاقی واژه در فارسی امروز. – تهران، ۱۳۷۱. – ص. ۲۱-۲۲.
**10** ویدا شقاقی. مبانی صرف. تهران، ۱۳۸۵. – ص. ۶۵.
**11** عباسعلی وفایی. دستور توصیفی (بر اساس واحدهای زبان فارسی). – تهران، ۱۳۹۲. – ص. ۲۴۳.
**12** آزیتا افراشی. ساخت زبان فارسی. – تهران، ۱۳۹۶. – ص ۶۷.

I. Kalbosiyning bayoniga ko‘ra, واژک *vāžak* ‘morfema’ quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) واژک آزاد *vāžak-e āzād* ‘yetakchi morfema’ – mustaqil ma’no anglata oladigan, tub holatdagi morfemadir. Masalan, کار *kār* ‘ish’, مهر *mehr* ‘mehr’.

2) واژک مقید *vāžak-e moqayyed* ‘ko‘makchi morfema’– mustaqil ma’no anglata olmaydi va boshqa yetakchi morfemaga qo‘shiladi. Masalan, مند *mand* yasovchi morfemasi کارمند *kārmand* ‘ishchi’ yasama so‘zida, بان *bān* yasovchi morfemasi مهربان *mehrebān* ‘mehribon’ yasama so‘zida tarkibida[1].

A.A. Vafoiy ko‘makchi morfemani ham 2 turga bo‘ladi:

1) تکواژ تصویری *takvāž-e tasviri* ‘shakl yasovchi morfemalar’ — تکواژ آزاد *takvāž-e āzād* ‘yetakchi morfema’ga qo‘shilib, undan yangi so‘z hosil qilmaydi. Faqat lug‘aviy ma’no yuklaydi. Masalan: کتاب‌ها *ketāb/hā* – ها *hā*

2) تکواژ اشتقاقی *takvāž-e ešteγāyi* ‘so‘z yasovchi morfemalar’ –مقوله‌های دستوری *maγuleha-ye dasturi* ‘grammatik kategoriyalar’ga qo‘shilib yangi so‘z hosil qiladi: توانا *tavānā ‘qodir’,* کوشش *kušeš ‘harakat’* va boshqalar[2].

Quyida tadiqiqot obyekti bo‘lgan allomorf to‘g‘risidagi ilmiy nazariy qarashlar ko‘rib chiqiladi.

O. Bihishtiy “allomorf”ni واژگونه *vāžgune* termini ostida tadqiq qilib, misol tariqasida fors tilidagi ها *hā* va ان *ān* ko‘plik qo‘shimchalarini keltiradi va ularning har ikkisi ham ko‘plik morfemasining allomorfi hisoblanishini ta’kidlaydi. Olimning keltirishicha, ushbu ko‘plikni ifodalovchi allomorflar ma’no jihatdan o‘xshash bo‘ladi. Ular o‘zaro komplementar munosabatda bo‘lib, biridan foydalanilganda ikkinchisi ishlatilmasligini qayd etadi.

Agar اسبها *asbhā* so‘zida ها *hā* qo‘llangan bo‘lsa, ان *ān* morfemasini, اسبان *asbān* so‘zida ان *ān* ishlatilgan bo‘lsa, ها *hā* qo‘shimchasini qo‘llab bo‘lmaydi. Agar اسب *asb* so‘zi oldidan raqam qo‘yilsa, سه اسب *se asb* bo‘lib, bu o‘rinda ها *hā* va ان *ān* morfemalarini qo‘shib bo‘lmaydi. Chunki bu yerda ko‘plik qo‘shimchasi nol morfema hisoblanadi[3]. Bundan chiqadiki, olim ها *hā,* ان *ān* qo‘shimchalari bitta grammatik ma’no – ko‘plik kategoriyasini ifodalovchi, biroq shaklan farqlanuvchi allomorflar ekanligi va bu allomorlarga nol morfema teng kelishi, ya’ni ko‘plik ma’nosi ayrim holatlarda affikssiz shaklda ham ifodalanishini asoslab beradi.

M. Meshkatodiniyning nazariyasiga ko‘ra, “Fors tilida morfemalarning yonma-yon kelishi va qo‘shilishi natijasida vujudga keladigan تکواژگونه *takvāžgune* ‘allomorf’ shakllarining turli ko‘rinishlarini kuzatish mumkin”[4]. Olim nazariyasining isboti sifatida quyidagi misollarni keltiradi:

**1** ایران کلباسی. ساخت اشتقاقی واژه در فارسی امروز. – تهران، ۱۳۷۱. – ص. ۲۱-۲۲.
**2** عباسعلی وفایی. دستور توصیفی (بر اساس واحدهای زبان فارسی). – تهران، ۱۳۹۲. – ص. ۲۴۳.
**3** علاالدین بهشتی. ساختمان واژه زبان فارسی امروز. – تهران، ۱۳۵۵. – ص. ۲۵.
**4** مهدی مشکوه الدینی. ساخت آوایی زبان. – مشهد، ۱۳۶۴. – ص. ۱۵۷.

رهنما *rahnamā* – راهنما *rāhnamā* ‘yo‘lko‘rsatuvchi’, ‘gid’
رهگذر *rahgozar* – راهگذر *rāhgozar* ‘yo‘lovchi’.
راه *rāh* ‘yo‘l’ : رهبر *rahbar* ‘rahbar’
ماه *māh* ‘oy’ : مهتاب *māhtāb* ‘oy nuri’

Bunday turdagi allomorf farqlari “morfemani shartlash” (yoki “allomorflarning shartli munosabati”) deb ataladi. Shubhasiz, yuqorida qayd etilgan allomorf farqlari so‘zlarning ildizi yoki ularning tarixiy shakllari orqali aniqlanishi mumkin. Shuni eslatib o‘tish lozimki, fe’l asosidagi allomorflarning qo‘llanishi fe’llarda, shuningdek, ba’zi boshqa allomorflarning fe’l bo‘lmagan so‘zlarda qo‘llanishi majburiy hisoblanadi. Masalan: راه *rāh* ‘yo‘l’ : رهبر *rahbar* ‘rahbar’, ماه *māh* ‘oy’ *:* مهتاب *māhtāb* ‘oy nuri’. Biroq ayrim allomorflarning qo‘llanishi ixtiyoriydir. Masalan:

راهنما *rāhnamā* = رهنما *rahnamā* ‘yo‘l ko‘rsatuvchi’, ‘gid’;
راهگذر *rāhgozar* = رهگذر *rahgozar* ‘yo‘lovchi’.

Ya’ni, ixtiyoriy allomorflarda ikkala shakl ham ishlatilishi mumkin, majburiy allomorflarda esa faqat bitta shakl to‘g‘ri hisoblanadi.

Ba’zi allomorflar bir-biridan butunlay farq qiladi va ular o‘rtasida hech qanday fonetik o‘xshashlik mavjud emas, biroq ular turli so‘zlarda qo‘shimcha shakllar sifatida qo‘llanadi. Masalan, fe’lning hozirgi zamon negizi می‌بینم *mibinam* ‘ko‘raman’ va uning o‘tgan zamon negizi دیدم *didam* ‘ko‘rdim’ bilan, shuningdek, هستم *hastam* ‘…man’ fe’li bilan بودم *budam* ‘edim’ mutlaqo farqlanadi. Fors tili tarixiy taraqqiyoti nuqtayi nazaridan yuqoridagi har ikki juft alohida ildizlardan kelib chiqqan. Fors tilidagi ko‘plik ko‘rsatkichlari ham xuddi shu turkumga kiradi. Ba’zi hollarda turli ko‘plik ko‘rsatkichlaridan foydalanish ixtiyoriy bo‘ladi. Masalan, درختان *deraxtān* va درختها *deraxthā* ‘daraxtar’ shakllarining ikkalasi ham qo‘llanishi mumkin. Tarixiy jihatdan turli ildizlardan kelib chiqqan bu turdagi allomorflarning o‘zaro munosabati komplementar munosabat deb ataladi va shunday munosabatda bo‘lgan allomorflar esa تکواژگونه‌های مکمل *takvāžgunehā-ye mokammal* ‘komplementar allomorflar’ deb yuritiladi.

Tilning turli uslubiy ko‘rinishlarida turli allomorflar qo‘llanadi. Fors tilida bunday uslubiy allomorflarning ko‘plab misollarini uchratish mumkin, xususan, so‘zlashuv va rasmiy nutqni taqqoslaganda bu holat yaqqol ko‘rinadi:

بادام *bādām :* بادوم *bādum* ‘bodom’;
آسمان *āsemān :* آسمون *āsemun* ‘osmon’;
مگر *magar:* مگه *mage* ‘nahot’;
می‌دانم *midānam :* می‌دونم *midunam* ‘bilaman’;
آخر *āxer :* آخه *āxe* ‘axir’.

Yuqoridagi allomorflarda muayyan tovush o‘zgarishi qo‘llanganligi ayon bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, turli uslubiy shakllarda, jumladan, so‘zlashuv,

rasmiy va publitistik nutq hamda ilmiy hisobotlarda turli allomorflar orqali hosil qilingan yasama so‘zlarni uchratish mumkin.

Yana bir turdagi allomorf munosabati, ya’ni ‘dialektal shartlashuvni ham ko‘rib chiqish mumkin,. Odatda, har bir tilning turli lahjalarida ko‘plab morfemalar va so‘zlar turlicha shaklda namoyon bo‘ladi. Masalan, fors tilining turli lahjalarida ba’zi so‘zlarning farqli ko‘rinishlarini taqqoslash mumkin. Biroq bu holatda تکواژ چندگانه *takvāž-e čandgāne* ‘ko‘p shaklli morfema’ atamasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin, chunki تکواژگونه *takvāžgune* ‘allomorf’ atamasi asosan bitta so‘zlovchi tomonidan turli sharoitlarda qo‘llanadigan morfemaning turli ko‘rinishlariga nisbatan ishlatiladi[1].

I. Kalbosiy fikri ko‘ra, morfema mavhum tushunchaga ega bo‘lib, uning aniq material namoyon bo‘lish shakli واژ *vāž* ‘morf’, uning variantlari esa واژگونه *vāžgune* ‘allomorf’ deb ataladi. Allomorflarning yuzaga chiqishi kontekstga bog‘liq bo‘lib, turli kontekstlarda ularning turli shakllari namoyon bo‘ladi. Masalan, fors tilida o‘tgan zamon qo‘shimchasining mavhum tushunchasi ‘morfema’dir, uning aniq ko‘rinishi ‘morf’, uning variantlari esa *-t, -d, -ād va -id* allomorflaridir: رفت *raft*, خورد *xord*, افتاد *oftād*, خرید *xarid*”[2]. Shu orqali olima allomorf hodisasining kontekstual xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

M. Bog‘eriy [3] allomorfni تکواژ گونه‌های *gune-hā-ye takvāž* ‘morfemaning variantlari’ termini asosida tahlil qilib, bitta morfema turli til sharoitlarida turlicha talaffuz shakllarida namoyon bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi hamda است *ast* morfemasining kamida 5ta varianti mavjudligini quyidagi jumlalarda isbotlaydi:

1. ast – است : فردا دیر است *fardā dir ast* ‘Ertaga kechdir’.
2. ast – ست : او دوست منست *u dust-e manast* ‘U mening do‘stimdir’.
3. st – ست : رضا پیش ماست *Rezā piši māst* ‘Rizo bizning oldimizda’.
4. s – س : کتاب کجاس *ketāb kojāst* ‘Kitob qayerda?’.
5. e – ه : این پدر منه *In pedar-e man-e* ‘Bu mening otam’.

Demak, ushbu tahlil asosida olim allomorf hodisasaning fonetik qisqarish va kontekstual moslashuv asosida yuzaga kelishi mumkinligini hamda morfemaning ma’nosi saqlangan holda shakliy o‘zgarishlar sodir bo‘lishini ko‘rsatadi.

N. Fozelning nazariyasiga ko‘ra, fonema, tovush va fonem variantlar (allofonlar) o‘rtasidagi munosabatga muvofiq, tilshunoslikda morf bir yoki bir nechta morfemalarning dastlabki shakli hisoblanadi [4]. Olim morfning turli shakllarini esa “allomorf” deb ataydi.

Shuningdek, bu hodisaning eng oddiy turi o‘zakdosh so‘zlarda uchrashini qayd qilib, allomorflarning quyidagi turlarini keltiradi:

**1** مهدی مشکوه الدینی. ساخت آوایی زبان. – مشهد، ۱۳۶۴. – ص. ۱۵۸- ۱۵۹.
**2** ایران کلباسی. ساخت اشتقاقی واژه در فارسی امروز. – تهران، ۱۳۷۱. – ص. ۲۱-۲۲.
**3** مهری باقری. مقادمات زبانشناسی. – تبریز. ۱۳۷۱. – ص. ۲۴۵-۲۴۶.
**4** نوید فاضل. دستور زبان پارسی. ۱۳۹۲. – ص. ۱۴۵

1) leksik allomorflar: اشتر *oštor* va شتر *šotor* ‘tuya’;

2) suffiks allomorflari: فش- *-faš* va وش- *-vaš* – شیرفش *širfaš* ‘shersifat’ va پریوش *parivaš* ‘parisifat’;

3) erkin variantli leksik allomorflar: چشم *čašm / češm* ‘ko‘z’;

4) erkin variantli suffiksal allomorflar: *-a* va *-e* – دیده *dida, dide* ‘ko‘rgan’.

Bundan tashqari allomorfik hodisalar fonetik jarayonlarda ham yuz berishini aytadi:

1) ellips hodisasi: *-estān* va *-stān* – کودکستان *kudakestān* ‘bog‘cha’, بوستان *bustān* ‘bo‘ston’;

2) oraliq tovush qo‘shilishi: *-gār* va *-egār* – پروردگار *parvardgār*/*parvardegār* ‘parvardigor’[1]. Ko‘rinadiki, olim allomorf tilning leksik, morfologik va fonetik sathlarini qamrab oluvchi keng ko‘lamli hodisa sifatida baholaydi.

O. Afroshiy “allomorf” tushunchasi uchun تکـواژگونه *takvāžgune* terminini qo‘llab, “Bir morfemaning allomorflari – uning turli sharoitlarda yuzaga keladigan shakllaridir”[2] degan ta’rifni keltiradi va quyidagi misol bilan dalillaydi:

کتاب‌ها *ketāb/hā va* کتابا *ketāb/ā ‘kitoblar’*

Bu ikki misolda ko‘plik morfemasi ikki turli ها- *-hā va* ا- *-ā* shakllarida ishlatilgan va ها- *-hā va* ا- *-ā* ko‘plik qo‘shimchalari ها- *-hā* ning allomorflari hisoblanadi.

Olima o‘z fikrining isboti uchun boshqa misollarni ham keltiradi:

*be/gir; bo/xor; bi/yā*

Bunda so‘zlashuv nutqidagi *bi-* va *bo-* morfemalari yozma nutqdagi buyruq maylini ifodalovchi *be-* prefiksining allomorflari hisoblanadi.

Yana bir boshqa misol:

کتاب را خواندم *Ketāb rā xāndam* ‘kitobni o‘qidim’

کتاب و خواندم *Ketāb o xāndam* ‘kitobni o‘qidim’

Yuqorida را *rā* ort ko‘makchisining fors so‘zlashuv nutqidagi و *o* shaklini “allomorf” deya ta’kidlamoqda. Bundan kelib chiqadiki, olima yozma nutqda qo‘llanadigan qo‘shimchalarning tovush o‘zgarishiga uchragan so‘zlashuv nutqidagi shakllarini allomorf sifatida talqin qiladi.

V. Shaqqoqiyning ta’rifiga ko‘ra, “til qurilishida fonetik, leksik, grammatik va morfologik sharoitlarga ko‘ra qo‘llanadigan morfemaning turli ko‘rinishlari “allomorf” deb ataladi. Har bir morfema unga fonetik jihatdan o‘xshash, bir xil ma’no yoki vazifani ifodalovchi, o‘zaro komplementar, ya’ni to‘ldiruvchi taqsimotda bo‘lgan va oldindan kutiladigan allomorflar sinfining vakili hisoblanadi. Har bir allomorf ma’lum fonetik, fonologik, leksik, grammatik yoki morfologik xususiyatlar taqozosi bilan maxsus o‘rinlarda qo‘llanadi”[3].

**1** نوید فاضل. دستور زبان پارسی. ۱۳۹۲. – ص.۱۲۶

**2** آزیتا افراشی. ساخت زبان فارسی. – تهران، ۱۳۹۶. – ص ۸۱.

**3** ویدا شقاقی. مبانی صرف. تهران، – ۱۳۸۶. – ص. ۶۱.

Olima nazariyasining dalili sifatida O. Afroshiy kabi fors tilidagi را *rā* morfemasi allomorflarini keltiradi. Uning fikriga ko‘ra, را *rā* to‘rt xil uslubiy ko‘rinishga ega: را *rā*, رو *ro*, ـو *o* va ـرُ *ro*. را *rā* adabiy va rasmiy uslubda, yozma uslubda ishlatilsa, ـو *o*, رو *ro*, ـرُ *ro* faqat so‘zlashuv nutqiga xosdir.

Shuningdek, olima morfemalarning allomorflarini o‘rganishda muhokama qilinadigan yana bir masala: qaysi allomorfni asosiy yoki bazaviy shakl sifatida qabul qilish lozimligini ham tadqiq qilgan va bunda allomorflarning umumiy hamda farqli jihatlariga tayanish kerakligini ta’kidlab, shunday keltiradi:

“Allomorflar sinfining vakili bo‘lgan asosiy yoki abstrakt shakl boshqa shakllarga qaraganda ko‘proq qo‘llanadi, boshqa shakllardan ko‘ra belgisizroq bo‘ladi va undan boshqa shakllarni hosil qilish uchun kamroq qoidalar kerak. Yana biri – soddalik mezonidir, unga ko‘ra, qaysi shakldan kamroq va soddaroq qoidalar bilan boshqa shakl hosil qilish mumkin bo‘lsa, asosiy shakl hisoblanadi. Masalan,

ـور -*var* qo‘shimchasi ‘egasi’, ‘sohibi’ ma’nosida uchta boshqa ko‘rinishga ega: -ور -*ur*, -اور -*āvar* va -وار -*vār*. Ular بارور *bārvar* ‘hosildor’, پیشەور *piševar* ‘hunarmand’, شرور *šarur* ‘buzg‘unchi’, نمور *namur* ‘namlangan’, تناور *tanāvar* ‘novdalangan’, دلاور *delāvar* ‘mard’, امیدوار *omidvār* ‘umidvor’, عیالوار *ayālvār* ‘oilali’ kabi so‘zlarda ishlatiladi.

V. Shaqqoqiy “bu to‘rtta allomorfdan qaysi birini “asosiy shakl” deb qabul qilish mumkin?” degan savolga “asosiy shaklni aniqlash uchun yo morfemaning tarixiy kelib chiqishiga tayanish kerak yoki yuqorida qayd etilgan mezonlar asosida aniqlash lozim” [1] – deya javob beradi. Ma’lumotlarda ور *var* shakli boshqalarga qaraganda ko‘proq qo‘llangan. Qoidalar soddaligi mezoni bo‘yicha ham bu shaklni asosiy deb olish mumkin. Chunki ور *var* shaklidan boshqa uch shaklni hosil qilish uchun faqat unli va undoshlarni qo‘shish yoki almashtirish kabi oddiy o‘zgarishlar kifoya qiladi:

O‘rta unlini o‘zgartirish orqali → وار *vār*

Boshlang‘ich unlini qo‘shish orqali → اور *āvar*

*va* (v + a) tovush birikmasi o‘rniga *u* unlisini qo‘yish orqali → ور *ur*

Agar boshqa shakllardan birini asosiy deb olsak, ularni boshqalariga aylantirish uchun ko‘proq qoidalar kerak bo‘ladi. Shu sababli ور *var* asosiy shakl sifatida maqbul hisoblanadi”, degan izoh bilan javob beradi.

Shu tariqa olima allomorf hodisasining turli fonetik va grammatik sharoitlarda yuzaga kelishini hamda asosiy shaklni aniqlashda qoidalar soddaligi mezonlarining muhimligini ko‘rsatadi. Bu yondashuv o‘rinli bo‘lsa-da, asosiy shakl va uning allomorflarini aniqlashda yetarli emas, morfemalar uzoq o‘tmishda qanday qo‘llangani, keyinchalik qurshovda qanday allomorflari yuzaga kelganini xronologik tadqiq qilish lozim, degan fikrdamiz.

---

**1** ویدا شقاقی. مبانی صرف. تهران، – ۱۳۸۶. – ص. ۶۱.

Shuningdek, V. Shaqqoqiy fors tilidagi allomorflarni to‘rt turga bo‘lib, o‘rganishni tavsiya qiladi. Bular:

1. Fonetik kontekstga bog‘liq allomorf;
2. Grammatik kontekstga bog‘liq allomorf;
3. Morfologik kontekstga bog‘liq allomorf;
4. Leksik kontekstga bog‘liq allomorf.

Olima *fonetik kontekstga bog‘liq allomorflar*ga misol sifatida adabiy tildagi را *rā* ko‘makchisi va uning so‘zlashuv nutqidagi ـو *o* shaklini keltiradi. Ushbu ko‘makchining qo‘llanishi oldingi so‘zning fonetik kontekstiga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Jumladan, رو *ro* unli bilan tugagan so‘zlardan keyin keladi: هوا رو *havā-ro* ‘havoni’ ریشەرو *rise-ro* ‘ildizni’, بو رو *bu-ro* ‘hidni’, چی رو *či-ro* ‘nimani’. Bunga qarama-qarshi ravishda ـو *o* undosh bilan tugagan so‘zlardan keyin keladi: اتاقو *otāɣ-o* ‘xonani’, سیبو *sib-o* ‘olmani’, موشو *muš-o* ‘sichqonni’. Fors tilining adabiy me’yorida unlilar to‘qnashuvi hodisasi, ya’ni ikki unlining yonma-yon kelishi mumkin emas. Shu bois so‘zlashuvchilar *havā-o, riše-o* kabi shakllardan foydalanmaydi. Shu sababli bu ikki ko‘rinish “fonetik kontekstga shartlangan allomorflar” deb ataladi.

*Grammatik kontekstga bog‘liq allomorf*. Fors tilida ko‘plik qo‘shimchasi ان -- *ān* va uning گان- *-gān* allomorfi faqat jonli mavjudotlar yoki ba’zi osmon jismlarini bildirgan otlarga qo‘shiladi. Masalan:

ان- *-ān:* دختران *doxtarān* ‘qizlar’; درختان *deraxtān* ‘daraxtlar’;

گان- *-gān:* پرندگان *parandegān* ‘qushlar’; ستارگان *setāregān* ‘yulduzlar’.

Jonlilik va jonsizlik kategoriyalari grammatik tushuncha sifatida qaraladi. Shu bois bu ko‘plik qo‘shimchasining qo‘llanishi grammatik kontekst bilan belgilanadi va u "grammatik shartlangan allomorf” deb yuritiladi.

Xuddi shunday, fe’l negizlaridagi quyidagi shakllar ham grammatik kontekstga bog‘liq allomorflar hisoblanadi:

رو *rou* – buyruq mayli shaklida;

رو *rav* – hozirgi zamon shaklida;

رف *raf* – o‘tgan zamon shaklida.

Ularning qo‘llanishi grammatik vaziyat, ya’ni zamon va mayl bilan shartlangan[1].

*Morfologik kontekstga bog‘liq allomorf*. *z* tovushi bilan tugaydigan barcha fe’llarda, agar o‘tgan zamon yasovchi morfema *t* qo‘shilsa, hozirgi zamon asosining oxirgi tovushi *x* tovushiga aylanadi. Chunki bu fonetik o‘zgarish *z* tovushi bilan tugaydigan barcha fe’llarda sodir bo‘ladi. Shu sababli *x* tovushini o‘z ichiga olgan morfologik variantlar morfologik shartli allomorflar deb ataladi; chunki *z* bilan tugaydigan fe’l ildizlari bitta morfologik sinfni tashkil etadi, deb taxmin qilish mumkin. Masalan:

**1** ویدا شقاقی. مبانی صرف. تهران، – ۱۳۸۶. – ص. ۶۳.

دوز -*duz* - (tikmoq) → o‘tgan zamon shakli: دوخت *duxt* (tikdi)

Agar bir allomorfning qo‘llanishi faqat ma’lum bir so‘z bilan chegaralangan bo‘lsa, ya’ni u faqat bitta yoki ikkita so‘z bilan biriksa, u leksik shartli allomorf deb ataladi.

Masalan, مند- -*mand* qo‘shimchasi “egalik” ma’nosini bildiradi va ارزش *arzeš* ‘qiymat’, خرد *xerad* ‘aql’ so‘zlariga qo‘shilib ارزشمند *arzešmand* ‘qiymatli’, ‘qiymatga ega’, خردمند *xeradmand* ‘dono’, ‘aqlga ega’ kabi sifatlarni hosil qiladi. Ammo bu qo‘shimcha faqat uchta so‘z bilan o‘ziga xos shaklda ishlatiladi: تن *tan* va بر *bar* so‘zlari bilan ومند *umand* shaklida, شرم *šarm* so‘zi bilan esa منده- -*mande* shaklida qo‘llanadi. Natijada تنومند *tanumand* ‘baquvvat’ va برومند *borumand* ‘mo‘l-ko‘l’, ‘farovon’ so‘zlari hosil bo‘ladi[1].

Allomorflarning yasama so‘z tarkibida o‘rin almasha olish xususiyatiga V. Shaqqoqiy o‘zgacha yondashib, morfema yoki allomorflarning turli shakliy ko‘rinishlari bir xil ma’no yoki grammatik vazifani ifodalasa, biroq talaffuzda nisbatan farq qilsa va ular o‘zaro komplementar taqsimotda bo‘lishini, ya’ni qaysi joyda bittasi ishlatilsa, boshqa allomorfni qo‘llash mumkin emasligini ta’kidlaydi.

Masalan, fors tilida ko‘plik qo‘shimchasi hisoblangan ها *hā* morfemasi so‘zga ko‘plik ma’nosini qo‘shadi. Bu qo‘shimcha ikki xil allomorfga ega: ا *ā va* ها *hā.* Ko‘plik allomorfi ا *ā* faqat undosh bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilishi mumkin:

ا -*ā* : کتابا *ketābā* – kitoblar, دخترا *doxtarā* – qizlar, سنگا *sangā* – toshlar.

Ammo unli bilan tugagan so‘zlarga bu allomorf qo‘shilmaydi, chunki fors tilida ikki unlining yonma-yon kelishi mumkin emas. Shunday vaziyatlarda faqat ها *hā* suffiksi qo‘llanadi:

ها -*hā:* موها *muhā* – sochlar, نواها *navāhā* – ohanglar, نامه‌ها *nāmehā* – xatlar[2].

A. Tabotaboiy[3] “allomorflar” تکواژگونه *takvāžgune* termini bilan atab, unga quyidagicha tavsif beradi: “Allomorflar – muayyan fonetik, leksik, morfologik hamda sintatik sharoitlarga ko‘ra qo‘llanadigan bitta morfemaning turli ko‘rinishlaridir. Har bir morfema allomorflar sinfining vakili hisoblanadi. Morfema bilan uning allomorflari o‘rtasidagi munosabatni uch jihat doirasida ko‘rib chiqish mumkin: 1) fonetik, 2) ma’no va vazifa, 3) taqsimot”. Olim nazariyasini davom ettirarkan quyidagi ushbu uch jihatga qisqacha to‘xtalish lozimligini ta’kidlaydi:

1. Morfema va uning allomorflari o‘zaro fonetik jihatdan o‘xshashlikka ega bo‘ladi.

2. Morfema va uning allomorflari bir xil ma’no va yagona vazifani bajaradi.

3. Morfema va uning allomorflari komplementar taqsimot munosabatida bo‘ladi, ya’ni muayyan kontekstda ulardan faqat bittasining mavjud bo‘lishi

**1** ویدا شقاقی. مبانی صرف. تهران، – ۱۳۸۶. – ص. ۶۴.
**2** ویدا شقاقی. مبانی صرف. تهران، – ۱۳۸۶. – ص. ۶۲.
**3** علاالدین طباطبایی. فرهنگ توصیفی دستور زبان فارسی. تهران: فهنگ معاصر. – ۱۳۹۵. – ص ۱۷۴.

mumkin; boshqacha aytganda, ular bir-birini istisno qiladi (o‘zaro almashinmaydi).

M. Anushe “allomorf”ning fors tilidagi nomlanishi masalasiga to‘xtalib, “ham lug‘aviy, ham tushuncha nuqtai nazaridan تکواژگونه *takvāžgune* emas, balki واژگونه *vāžgune* termini bilan atash kerak. واژگونه *vāžgune* ‘allomorf’ bir morfemaning fonetik shakllaridir, shuningdek, morfemaning fonetik ko‘rinishlari haqida so‘z borganda, واژ گونه‌های *gunehā-ye vāž* yoki aynan واژگونه *vāžgune* termini bilan ishlaymiz. Ingliz tilida ham “allomorpheme” termini ishlatilmaydi va shu sababdan تکواژگونه *takvāžgune* terminini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi”[1], deb ta’kidlaydi.

Fors tilidagi allomorflar va ularning tasnifi masalasini L. Peysikov chuqur o‘rganib chiqqan hamda fors tilidagi misollari orqali ilmiy yondashuvlarini bayon qilgan. Olim allomorf tushunchasiga “leksik morfemaning alternantlari” deb nomlab, unga quyidagicha izoh beradi: “Bir morfemaning allomorfi bo‘lishi uchun ularda birlashtiruvchi asosiy belgi, ya’ni umumiy funksional-semantik xususiyat mavjud bo‘lishi lozim. Ma’no va funksiya umumiyligi bir allomorfema tarkibida joylashsa, qolgan mezonlar nisbiy xarakterga ega bo‘lib, o‘xshashlik masalalarini aniqlashda yordamchi vazifani bajaradi. Ma’no va vazifalar umumiyligi turli allomorflarni birlashtirish imkonini beradi. Demak, ikki yoki undan ortiq elementlar bir morfemaning allomorfi bo‘lishi mumkin” [2] . Shuningdek, olim allomorflik hodisasi uchun quyidagi talablarni qo‘yadi:

1) bir ma’no va vazifaga ega bo‘lsalar;

2) o‘xshash qurilmalarda o‘zaro o‘rin almasha olsalar;

3) faqat o‘zi ishlatiladigan o‘rinlarga ega bo‘lsalar;

4) umumiy va o‘xshash tashqi ko‘rinishga, nisbiy fonetik umumiylikka ega bo‘lsalar.

Demak, olim allomorflarga bir morfemaning funksional va semantik jihatdan bog‘langan variantlari sifatida qarab, ular faqat belgilangan kontekstlarda ishlatish lozimligini, o‘xshash morfologik qurilmalarda o‘zaro almasha olishi va fonetik jihatdan nisbatan uyg‘unlikka ega bo‘lishi, shuningdek, allomorflarning bu xususiyatlari ularni tizimli tasniflash va morfologik tahlil qilish imkonini berishini ta’kidlaydi.

**XULOSA**. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fors tilida affiksatsiya orqali hosil bo‘lgan yasama birliklarning morfologik tuzilishi murakkab bo‘lib, unda allomorfik hodisalar keng namoyon bo‘ladi. Maqolada Eron tilshunoslari

1 M. Anoushe. There is no Stem: the Distribution of Verbal Allomorphs, a Distributed Morfology Analaysis. // Journal of Language Researches Vol. 11, No 2, Autumn & Winter 2020-2021. – P. 46.

2 Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. – Москва: изд-во МГУ, 1973. – С. 29

tomonidan berilgan turli ta’riflar va ularning terminologik tafovutlari solishtirildi, umumiy va farqli jihatlar aniqlanib, mazkur tushunchalarning konseptual chegaralari ochib berildi. Shu bilan birga, allomorflarning fonetik, grammatik, morfologik, leksik va uslubiy kontekstlar bilan shartlangan shakllari, ularning komplementar taqsimot, erkin variantlilik hamda majburiy va ixtiyoriy qo‘llanish xususiyatlari ilmiy manbalar asosida izohlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fors tilshunosligida allomorf tushunchasining yagona va umumiy qabul qilingan talqini mavjud emas, bu esa turli nazariy yondashuvlar va terminologik tafovutlarning mavjudligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ayrim morfemalarning turli shakllarda voqelanishi, nutqiy va uslubiy muhitga moslashuvi hamda morfologik tizimdagi funksional roli batafsil yoritildi.

Natijada, ushbu tadqiqot fors tilshunosligi sohasida allomorf tushunchasini chuqurroq tushunish, morfemalar va ularning morfologik o‘zgarishlarini aniqlash, shuningdek, terminologik aniqlikni oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy asos yaratdi.

# Yapon tilidagi aspektual ko‘makchi fe’llar tizimi va しまう ko‘makchi fe’lining semantik xususiyatlari

***KAMOLA EGAMOVA***
*Tayanch doktorant, TDSHU*

***Annotatsiya.*** *Yapon tilida ko‘makchi fe’llar harakatning tugallanganligi, davomiyligi, natijasi kabi aspektual ma’nolar bilan birgalikda, so‘zlovchining munosabati, niyati kabi modal ma’nolarni ham ifodalovchi muhim grammatik vosita hisoblanadi. Mazkur maqolada yapon tilidagi aspektual ko‘makchi fe’llar tizimi va ularning semantik xususiyatlari yoritiladi. Dastlab ularning grammatik tabiati, tasnifi hamda ma’noviy guruhlari tahlil qilinadi. Shundan so‘ng aspektual ko‘makchi fe’llardan biri bo’lgan しまう (shimau) ko‘makchi fe‘lining semantik xususiyatlari batafsil ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida mazkur ko‘makchi fe‘lning ko‘p ma’noliligi hamda aspektual va modal ma’nolar o‘rtasidagi chegaraning nozikligi uning turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinishiga sabab bo‘lishi ko‘rsatib beriladi.*

***Kalit so‘zlar****: aspekt, aspektual ko‘makchi fe‘l, しまう, semantika, modal ma’no, tugallanganlik, amalga oshganlik.*

***Аннотация.*** *В японском языке вспомогательные глаголы являются важным грамматическим средством, выражающим не только аспектуальные значения, такие как завершённость, длительность и результативность действия, но и*

*модальные значения, отражающие отношение, намерение и оценку говорящего. В данной статье рассматривается система аспектуальных вспомогательных глаголов японского языка и их семантические особенности. Прежде всего анализируются их грамматическая природа, классификация и семантические группы. Далее подробно исследуются семантические особенности вспомогательного глагола しまう (shimau), входящего в систему аспектуальных вспомогательных глаголов. В результате исследования показано, что многозначность данного вспомогательного глагола, а также тонкая граница между его аспектуальными и модальными значениями обусловливают различные подходы к его интерпретации в трудах разных исследователей.*

***Ключевые слова:*** *аспект, аспектуальный вспомогательный глагол, しまう (shimau), семантика, модальное значение, завершённость, реализованность.*

***Abstract.*** *Japanese auxiliary verbs constitute an important grammatical category that expresses not only aspectual meanings, such as completion, continuity, and resultativity, but also modal meanings reflecting the speaker's attitude, intention, and evaluation. This article examines the system of aspectual auxiliary verbs in Japanese, with particular attention to their semantic characteristics. First, the grammatical nature, classification, and semantic groupings of aspectual auxiliary verbs are discussed. The study then focuses on the auxiliary verb しまう(shimau), providing a detailed analysis of its semantic properties. The analysis demonstrates that the polysemous nature of shimau and the subtle boundary between its aspectual and modal functions have resulted in different interpretations among researchers.*

***Keywords:*** *aspect, aspectual auxiliary verb, shimau (しまう), semantics, modality, completion, resultativity.*

**Kirish.** Tilshunoslikda aspekt kategoriyasi harakatning vaqt davomida kechishi, tugallanganligi, natijasi yoki davomiyligini ifodalovchi muhim grammatik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Xususan, yapon tilshunosi Teramura Hideo aspekt voqea-hodisani vaqt o‘qi bo‘ylab ma’lum davomiylikka ega bo’lgan jarayon sifatida aks ettirishini ta’kidlaydi. Bunda aspekt nafaqat voqeaning butun jarayonini, balki ushbu jarayon ichidagi muayyan nuqtani ham ifodalashi mumkin. Olimning qayd etishicha, zamonaviy yapon tilida fe’l so‘z turkumi orqali davomiylik ( 継 続 [keizoku] ), tugallanganlik ( 完 了 [kanryou]) va tugallanmaganlik (未了[miryou]) kabi aspektual ma’no ifodalanishi uch xil grammatik vosita yordamida amalga oshiriladi:1) する [suru]va した[shita] oppozitsion grammatik shakllari orqali ifodalanib, birlamchi aspekt (一次的アスペクト[ichijiteki asupekto]) deb nomlanadi; 2) ている[te iru], てある[te aru], てしまう[te shimau], ておく[te oku] kabi fe’lning ravishdosh shakli va ko‘makchi

fe’ldan iborat birikmalar bo’lib, ikkilamchi aspekt (二次的アスペクト[nijiteki asupekto]) deya ataladi; 3) 切る[kiru], 抜く[nuku], 通す[toosu], 始める[hajimeru], 終わる[ovaru] va shu kabi boshqa fe’llar birikuvidan hosil bo’lgan qo‘shma fe’llar bo‘lib, ular uchlamchi aspekt (三次的アスペクト[sanjiteki asupekto]) guruhini tashkil etadi.[1] Shu tariqa, aspektual ma’no yapon tilida faqat fe’lning grammatik shakllari bilangina emas, balki ko‘makchi fe’lli birikmalar va qo‘shma fe’llar tizimi orqali ham yuzaga chiqadi. Jumladan, harakatning davom etishi, natijaviy holati, yakunlanganligi, oldindan bajarilishi, vaqt va makondagi rivojlanishi kabi aspektual ma’nolarni ask ettirishda fe’lning ravishdosh shakli va ko‘makchi fe’l birikuvidan hosil bo‘lgan birikmaning ahamiyati katta.

Ushbu ko‘makchi fe’lli birikmalar nafaqat harakatning davom etishi, tugallanishi yoki natijaviy holatini, balki harakatning amalga oshish bosqichi, yo‘nalishi, oldindan bajarilishi hamda so‘zlovchining voqelikka munosabati kabi turli semantik nozikliklarni ham ifodalaydi. Shu sababli ko‘makchi fe’llar yapon tili grammatik tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

**Maqsad va Vazifalar.** Mazkur maqolaning maqsadi yapon tilidagi ko‘makchi fe’llar, xususan, aspektual ko‘makchi fe’llar tizimini tahlil qilish, ularning semantik va funksional vazifalarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida しまう aspektual ko‘makchi fe’lining semantik ma’nolari tahlil qilinadi.
**Metodlar.** Tadqiqotni amalga oshirishda tavsifiy, semantik tasniflash va funksional tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Mulohazalar.** Yapon tilida ko’makchi fe’llar 補助動詞 [hojo doushi] deb ataladi. 日本語文法大辞典[Nihongo bunpou daijiten] (“Yapon tili grammatikasi katta lug‘ati”)da 補助動詞[hojo doushi] o‘zining asl ma’nosini yo‘qotib, mustaqil qo‘llanilish xususiyatidan ayrilgan va faqat boshqa so‘zdan keyin qo‘shilib keladigan fe’l sifatida ta’riflanadi.[2] Mazkur ta’rif ko‘makchi fe’llarning grammatikalashuv jarayonida mustaqil leksik ma’nosini yo‘qotib, asosan grammatik ma’no ifodalash vazifasini bajarishini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, Alpatov ham ko‘makchi fe’llarni shakl va qisman semantik jihatdan mustaqil fe’llar yoki predikativ sifatlar bilan o‘xshashlikka ega bo‘lgan, biroq mustaqil qo‘llanilish imkoniga ega bo‘lmagan va faqat mustaqil so‘zlarga birikkan holda

[1] 寺村秀夫(1984)『日本語のシンタクスと意味Ⅱ』くろしお出版. P. 117-118.

[2] 山口明穂・秋本守英 (編) (2001)『日本語文法大辞典』東京：明治書院．P.722

qo‘llanadigan so‘zlar sifatida izohlaydi.[1] Demak, har ikki ta’rifda ham ko‘makchi fe’llarning asosiy belgisi sifatida ularning mustaqil leksik xususiyatini yo‘qotishi va boshqa birliklarga bog‘liq holda grammatik vazifa bajarishi alohida ta’kidlanadi.

Yapon tilida ko‘makchi fe’llar yetakchi fe’lga birikib, sintaktik analitik konstruksiyani hosil qiladi. Bunda yetakchi fe’l odatda ravishdosh vazifasidagi ～て[te]/～で[de] shakli yoki fe’lning 連用形[renyoukei] shakli orqali ko‘makchi fe’l bilan birikadi. Yapon tilshunosligida fe’lning ～て shakli gerund, gerundive, past participle yoki oddiygina te-form (～て形[tekei]) terminlari bilan izohlanadi. Biroq mazkur shaklning morfosintaktik va semantik xususiyatlari hind-yevropa tillaridagi gerundiy kategoriyasiga to‘liq mos kelmaydi.[2] Shu sababli ushbu maqolada u fe’lning te shakli termini bilan ifodalanadi.

Alpatov yapon tilidagi ko‘makchi fe’llarning qo‘shimchalardan asosiy farqi ularning mustaqil fe’llarga omonim bo‘lgan o‘zak morfemadan tashkil topishida ekanligini ta’kidlaydi. Mazkur o‘zak morfema fe’lning boshqa grammatik shakllari bilan erkin birika oladi. Shuningdek, ko‘makchi fe’llar ayrim holatlarda ularga ma’no jihatdan yaqin bo‘lgan ekvivalent fe’llar bilan almashtirilishi mumkin. Masalan, する[suru] ko‘makchi fe’li hurmat shaklidagi なさる[nasaru] yoki kamtarlik shaklidagi いたす[itasu] fe’llari bilan almashtirilishi mumkin. Biroq ko‘makchi fe’llar o‘zlari aniqlab kelayotgan fe’ldan ajralgan holda mustaqil qo‘llana olmasligi, oldingi fe’ldan tashqari boshqa so‘zlarni boshqara olmasligi hamda aksariyat hollarda o‘zi birikkan fe’l bilan ajralmas konstruksiya hosil qilishi jihatidan mustaqil fe’llardan farq qiladi.[3] Ko‘makchi fe’l o‘zi ergashib kelgan fe’l bilan birgalikda gap bo‘lagi bo‘lib keladi va uning sintaktik o‘rni ko‘makchi fe’lga qo‘shilgan qo‘shimchalar orqali belgilanadi.

Yapon tilshunosligida ko‘makchi fe’llar ularning grammatik, semantik va funksional xususiyatlariga ko‘ra turli guruhlarga ajratiladi. Ana shunday tasniflardan biri V. M. Alpatov tomonidan taklif etilgan bo‘lib, u ko‘makchi fe’llarni grammatik va semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda bir necha guruhlarga ajratadi.

[1] Alpatov, V. M. (2005). Теоретическая грамматика японского языка: Введение. Москва: Восточная литература. С. 282

[2] Hasegawa, Yoko. 1996. A Study of Japanese Clause Linkage: The Connective TE in Japanese. Stanford: CSLI Publications & Kurosio Publishers. P.2

[3] Alpatov, V. M. (2005). Теоретическая грамматика японского языка: Введение. Москва: Восточная литература. С. 283

*(Jadval 1)* [1]

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | Aspektual ko‘makchi fe’llar | Holat davomiyligini ko‘rsatuvchi ko‘makchi fe’llar | いる、いらっしゃる、まいる、おいでになる、おる、ある |
| | | Tayyorgarlik ma’nosini ifodalovchi ko‘makchi fe’llar | おく、みる、ごらんになる、みせる |
| | | Tugallanganlik ma’nosini ifodalovchi ko‘makchi fe’llar | しまう |
| 2 | Benefaktiv ko‘makchi fe’llar | Berish ko‘makchi fe’llari | やる、あげる、さしあげる、くれる、くださる |
| | | Olish ko‘makchi fe’llari | もらう、いただく |
| 3 | Yo‘nalishni ko‘rsatuvchi ko‘makchi fe’llar | | くる、いく |
| 4 | Hurmat (gonorativ) va kamtarlik (depretsiativ) ko‘makchi fe’llar | | なさる、なる、あそばす、する、いたす、もうす、もうしあげる、いただく、できる、ねがう |
| 5 | Buyruq (imperativ) ko‘makchi fe’llar | | くれ、おくれ、やれ、たまえ、くれたまえ、おいで、ください、ちょうだい、なさい、ごらん、いらっしゃい、あそばせ |
| 6 | Adressiv ko‘makchi fe’l | | ございます |

[1] Manba: Alpatov, V. M. (2005). Теоретическая грамматика японского языка: Введение. Москва: Восточная литература. 283-406-betlar asosida muallif tomonidan tizimlashtirildi.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7 | Modal ma’noli ko‘makchi fe’llar va sifatlar | Xohishni ifodalovchi ko‘makchi sifatlar | ほしい、いい |
| | | Ruhsatni ifodalovchi ko‘makchi sifatlar | いい、よい、よろしい |
| | | Majburlik yoki taqiqni ifodalovchi ko‘makchi fe’llar | いける、なる |
| 8 | Sintaktik ko’makchi fe’lli konstruksiyalar | Kiritma ko‘makchi fe’lli konstruksiyalar | する、ある、ない、ございます |
| | | Sintaktik o‘rinni o‘zgartiruvchi ko‘makchi fe’lli konstruksiyalar | する |
| | | Verbalizator | する |

Mazkur tasnifga nafaqat faol qo‘llaniladigan ko‘makchi fe’llar, balki nutqda nisbatan kam uchraydigan shakllar hamda ko‘makchi sifatlar ham kiritilgan bo‘lib, bu Alpatovning ko‘makchi birliklar tizimini imkon qadar to‘liq qamrab olishga intilganini ko‘rsatadi. Olim ularni aspekt, holat davomiyligi, istak, majburiyat, imkoniyat, hurmat, benefaktivlik va boshqa turli grammatik hamda semantik ma’nolarni ifodalashiga ko‘ra tizimlashtiradi.

Yapon tilida voqea-hodisaning kechish bosqichi va uning amalga oshish holatini ifodalash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ko‘makchi fe’llarning semantik guruhlari orasida aspektual ko‘makchi fe’llar alohida o‘rin tutadi va ushbu tadqiqotda ham shimau aspektual ko‘makchi fe’li tahlil obyekti sifatida tanlandi.

Aspektual ko‘makchi fe’llarning tarkibi va funksional xususiyatlari yapon tili grammatikasiga oid tadqiqotlarda turlicha yoritilgan. Xususan, 日本語文法記述研究会 [Nihongo bunpou kijutsu kenkyuukai] (Yapon tili grammatikasini tavsiflash bo‘yicha tadqiqot guruhi) aspektni harakatning davomiyligi, holati va natijasini ifodalovchi grammatik kategoriya sifatida ko‘rib, aspektual ma’no

ifodalovchi ko‘makchi fe’llar qatoriga ある[aru]、いる[iru]、しまう[shimau]、おく[oku]、くる[kuru]、いく[iku] kabi birliklarni kiritadi.[1]

Aspektual ko‘makchi fe’llarning tarkibidagi farq tadqiqotchilarning aspekt tushunchasiga hamda ko‘makchi fe’llarning semantik-funksional xususiyatlarini belgilash mezonlariga bog‘liq.

**しまう[ shimau] ko’makchi fe’li.** Takahashi Taro shimau ko‘makchi fe’lining asosiy 3 ta ma’nosini ko’rsatadi: 1) tugallanganlik – 終了[shuuryou]; 2)amalga oshganlik –実現[jitsugen]; 3) kutilmagan holat – 期待外[kitaigai].[2]

Takahashi ushbu uch ma’no ichida tugallanganlik ma’nosi nisbatan kam uchrashini ta’kidlaydi hamda uning quyidagi uch holatda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi:

a) Asosiy fe’l ifodalagan harakat obyektning holatida o‘zgarishiga olib kelganda;

二郎君はもうべんとうをたべてしまいました。

*Jirou allaqachon ovqatini yeb tugatdi.*

b) Davomiy harakatni bildiruvchi fe’llarda esa, harakatning miqdori yoki davomiyligi belgilangan bo‘lsa;

ぶらぶらしているうちに一週間ほどたってしまった。

*Bekor yurar ekanmiz, oradan qariyb bir hafta o’tib ketibdi.*

c) Takrorlanuvchi harakat butunlay yakunlanganda.

みんな電燈がきえてしまった。

*Barcha chiroqlar butunlay o’chdi.*

Takahashi fikriga ko‘ra, shimau ko‘makchi fe’lining amalga oshganlik ma’nosi keng qo‘llanilib, jarayonning yakuni sifatida sodir bo‘ladigan harakatning amalga oshganini bildiradi.

風がまったくやんでしまった。

*Shamol butunlay tindi.*

Shuningdek, bu ko‘makchi fe’lning uchinchi ma’nosi modal ma’no bo‘lib, kutilmagan yoki nohush holat sodir bo‘lganini anglatadi.

おれはお前にすまないことをしてしまった。

*Men senga nisbatan ayb ish qilib qo’ydim.*

[1] 日本語記述文法研究会（編）. (2007).『現代日本語文法 第 3 部』. 東京：くろしお出版. P.42

[2] 高橋太郎（1969）「すがたともくろみ」．金田一春彦（編）『日本語動詞のアスペクト』．東京: むぎ書房. P.131-132

Takahashidan farqli ravishda, Yoshikava shimau ko‘makchi fe’lining semantik xususiyatlarini kengroq yoritib, quyidagi besh ma’noni farqlaydi:[1]

1) Muayyan jarayonga ega bo‘lgan harakatning oxirigacha to‘liq bajarilganini ifodalaydi.

ぜんぶの組がことばを送ってしまうと、組のおわりの人が、書いた紙を読み上げた。

*Hamma guruh so‘zlarni bir-biriga uzatib bo’lgach, guruhning oxiridagi kishi yozilgan qog‘ozni o‘qib berdi.*

Yoshikavaning ta’kidlashicha, shimau bu yerda jarayon oxirigacha yetkazilganini anglatgani uchun, uni olib tashlab bo‘lmaydi.

2) Harakatga faol kirishib, uni bitirish ma’nosini anglatadi.

ケイ子「殺し屋を雇うて金沢へやり，相手をあっさり消してしまうんや。」

*Keiko: “Qotilni yollab Kanazavaga yuboraman va nishonni osongina yo‘q qilib tashlayman”.*

Bunda “yo‘q qilib tashlamoq” birikmasi harakatning yakunlanganini hamda masalaning butunlay hal etilganini ifodalaydi. Agar shimau ko‘makchi fe’li olib tashlansa, harakatga faol aralashish ma’nosi, shuningdek, jarayonning qaysi bosqichiga urg‘u berilayotgani anglashilmaydi.

3) Biror harakat yoki hodisa sodir bo‘lganidan keyin uni ortga qaytarib bo‘lmasligini ifodalaydi.

目標の灯は、どこかに消えてしまった。

*Maqsad chirog’i qayerdadir so’nib ketdi.*

4) Harakatning beixtiyor sodir bo‘lganini bildiradi.

そう思うと、ぼくは思わず立ち止まってしまいました。

*Shuni o’ylab, men beixtiyor to’xtab qoldim.*

“To‘xtamoq” fe’li ham ongli ravishda, ham beixtiyor sodir bo’lishi mumkin bo‘lgan harakat bo‘lib, bu gapda おもわず[omovazu] (“beixtiyor”) ravishi va shimau ko‘makchi fe’li orqali harakatning beixtiyor sodir bo‘lganiga urg‘u berilmoqda.

5) Noqulay yoki kutilganga zid bo‘lgan hodisaning yuz berishini ifodalaydi.

そのとき、ぼくくの持っていた黒板ふきが、とんでしまいました。

*Shu payt qo‘limdagi doska o‘chirgichi uchib ketdi*

[1] 吉川 武時「現代日本語動詞のアスペクトの研究」. 金田一春彦（編）『日本語動詞のアスペクト』. 東京: むぎ書房. pp. 228-230.

Yoshikava o‘z tasnifini avvalgi tadqiqotchilar qarashlari bilan qiyoslaydi. Uning ta’kidlashicha, Takahashi shimau ko‘makchi fe’lining (1), (2) va (3)-ma’nolarini aspektual, (4) va (5)-ma’nolarini esa modal ma’nolar sifatida tasniflagan. Yoshikavaning o‘zi esa (1)-ma’noni aspektual, (4) va (5)-ma’nolarni modal, (2) va (3)-ma’nolarni esa aspektual va modal ma’nolar o‘rtasidagi oraliq hodisa sifatida baholaydi. Bu esa shimau ko‘makchi fe’lining aspektual va modal ma’nolari o‘rtasidagi chegara nozik bo‘lgani sababli, uning turli tadqiqotchilar tomonidan turlicha tasniflanishiga olib kelganini ko‘rsatadi.[1]

Yuqoridagi tasniflardan ko‘rinadiki, しまう ko‘makchi fe’li faqat harakatning tugallanganligini ifodalovchi aspektual birlik emas, balki nutq egasining voqeaga bo‘lgan munosabatini ham aks ettira oladigan ko‘p funksiyali grammatik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, uning aspektual va modal ma’nolari o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, ayrim qo‘llanishlarda ularni qat’iy chegaralash qiyin. Shu sababli Takahashi va Yoshikava tasniflari o‘rtasidagi farqlar qarama-qarshilik emas, balki しまう semantikasining ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur holat ushbu ko‘makchi fe’lni semantik va pragmatik jihatdan kompleks tarzda tahlil qilish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijasida yapon tilidagi aspektual ko‘makchi fe’llarning semantik xususiyatlari va ma’no turlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi. Jumladan, しまう ko‘makchi fe’lining aspektual va modal ma’nolari Takahashi hamda Yoshikava tasniflari qiyosiy tahlil qilinib, uning semantik tuzilishi ko‘p qirrali ekani aniqlandi. Mazkur natijalar aspektual ko‘makchi fe’llarni semantik-pragmatik nuqtai nazardan o‘rganish muhimligini ko‘rsatadi.

[1] 吉川 武時「現代日本語動詞のアスペクトの研究」. 金田一春彦（編）『日本語動詞のアスペクト』. 東京: むぎ書房. p. 232

# Zulfiya she’riyatida «Bahor» va «Xotira» konseptlarining lingvopoetik eksplikatsiyasi («Bahor keldi seni so‘roqlab» she’ri misolida)

***SODIQOVA DILAFRUZ***
*Mustaqil izlanuvchi, TDSHU*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola taniqli o‘zbek shoirasi Zulfiya Isroilovaning lirik merosida alohida o‘rin tutuvchi «Bahor keldi seni so‘roqlab» she’rining lingvopoetik va lingvoestetik xususiyatlarini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Tadqiqotda shoira idiostilining o‘ziga xosligi, xususan, tabiat peyzaji va lirik qahramonning ichki ruhiy dramatizmi o‘rtasidagi semantik-stilistik mutanosiblik ilmiy jihatdan yoritib berilgan. Matnning lisoniy qurilishi leksik-semantik, fono-stilistik va sintaktik sathlar kesimida tadqiq etilib, unda qo‘llanilgan badiiy san’atlar — lingvostilistik antiteza, oksyumoron, sintaktik parallelizm hamda metonimik ko‘chimlarining estetik funksiyasi ko‘rsatib berilgan. Maqolada tabiatning navqiron uyg‘onishi (ko‘klam, yashillik, jo‘shqinlik) hamda lirik «Men»ning ruhiy fojiadorligi va muddatidan ilgari keksayishi (qora libos, sochdagi oq, parishonhol) o‘rtasidagi uch tomonlama kontrastiv zidlanish lingvopoetik tahlil obyekti qilib olingan. Shuningdek, matndagi ritorik so‘roq va murojaat shakllarining ekspressiv-emotsional kuchini oshirishdagi hamda «Bahor» va «Xotira» konseptlarining matn shakllantiruvchi rolini ta’minlashdagi amaliy ahamiyati tahlil etiladi. Tadqiqot xulosalari Zulfiya lirik pafosi, poetik mahorati hamda o‘zbek poeziyasida ruhiy kechinmani lisoniy shakllantirish usullarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Muallif she’riy matndagi emotsional-ekspressiv birliklarning estetik va poetik yuklamasini ochib berish orqali lingvopoetika sohasidagi mavjud nazariy qarashlarni boyitadi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida filologiya va tilshunoslik yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar, magistrantlar va tadqiqotchilar uchun o‘zbek she’riyatini tahlil qilishda hamda amaliy mashg‘ulotlarda samarali foydalanish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir.*

***Kalit so‘zlar:*** *Zulfiya, lingvopoetika, idiostil, antiteza, lirik qahramon, sintaktik parallelizm, oksyumoron, peyzaj, emotsional-ekspressivlik, lisoniy vositalar.*

***Аннотация.*** *Данная научная статья посвящена комплексному лингвопоэтическому и лингвоэстетическому анализу стихотворения «Пришла весна, спрашивая о тебе», занимающего особое место в лирическом наследии известной узбекской поэтессы Зульфии. В исследовании научным путем подробно освещается специфика идиостиля поэтессы, в частности, семантико-стилистическое соотношение между природным пейзажем и внутренним психологическим драматизмом лирической героини. Языковая структура текста подробно исследуется в разрезе лексико-семантического, фоностилистического и синтаксического уровней. Выявляется эстетическая функция использованных изобразительно-выразительных средств, таких как лингвостилистическая антитеза, оксюморон, синтаксический параллелизм и метонимо-метафорические переносы. Основным объектом лингвопоэтического анализа служит яркий*

*трехсторонний контраст между весенним пробуждением природы (зелень, полнота жизни, радость) и трагическим психологическим состоянием лирического «Я» (черное одеяние, седина в волосах, полное смятение). Также детально анализируется практическое значение применения риторических вопросов и обращений в усилении экспрессивно-эмоциональной динамики текста, раскрывается текстообразующая роль базовых концептов «Весна» и «Память». Выводы исследования способствуют более глубокому пониманию лирического пафоса Зульфии, ее поэтического мастерства и эффективных способов вербализации эмоциональных переживаний в узбекской поэзии. Автор подробно раскрывает эстетическую нагрузку экспрессивных языковых единиц, обогащая теоретические представления в области лингвопоэтики. Результаты данной работы могут быть успешно использованы филологами, преподавателями, исследователями и студентами языковых вузов при проведении занятий по анализу художественного текста, лингвистике и литературоведению.*

***Ключевые слова:*** *Зульфия, лингвопоэтика, идиостиль, антитеза, лирический герой, синтаксический параллелизм, оксюморон, пейзаж, эмоциональная экспрессия, языковые средства.*

***Abstract.*** *This academic article is devoted to a comprehensive linguopoetic and linguo-aesthetic analysis of the poem "Spring Has Come Asking for You," which holds a special place in the lyrical heritage of the prominent Uzbek poetess Zulfiya. The study scientifically highlights the uniqueness of the poet's idiostyle, particularly the semantic and stylistic correlation between the natural landscape and the inner psychological dramatism of the lyrical heroine. The linguistic structure of the text is investigated across lexical-semantic, phono-stylistic, and syntactic levels. The aesthetic function of artistic devices—such as linguostylistic antithesis, oxymoron, syntactic parallelism, and metonymic-metaphorical shifts—is thoroughly demonstrated. The primary object of the linguopoetic analysis is the three-dimensional contrast between the vibrant rebirth of nature (spring, greenery, exultation) and the tragic grief of the lyrical "I" (black attire, silver hair, despair). Furthermore, the practical significance of rhetorical questions and apostrophes in enhancing the expressive-emotional dynamics of the text is examined, revealing the text-forming role of the concepts "Spring" and "Memory." The conclusions of this research contribute to a deeper understanding of Zulfiya's lyrical pathos, her poetic craftsmanship, and the mechanisms of verbalizing emotional experiences in Uzbek poetry. By revealing the aesthetic and poetic burden of expressive linguistic units, the author enriches theoretical views in linguopoetics. The research results can serve as an important source for university students, researchers, and scholars in analyzed literary texts and linguistics.*

***Keywords:*** *Zulfiya, linguopoetic analysis, idiostyle, antithesis, lyrical hero, syntactic parallelism, oxymoron, landscape, emotional expressiveness, linguistic units.*

**KIRISH.** O‘zbek adabiyotida ruhiy kechinma va tabiat tasvirining teran plastik mutanosibligini yaratish borasida Zulfiya Isroilova poeziyasi alohida ajralib turadi. Shoiraning ijodiy idiostilida bahor obrazi shunchaki fasl almashinuvi yoki tashqi peyzaj emas, balki lirik qahramonning ichki emotsional

holati, sog‘inch, vafo hamda abadiy xotira konseptining muhim semantik tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, uning «Bahor keldi seni so‘roqlab» she’ri o‘zbek lirik-psixologik poeziyasining yuksak namunalaridan biridir.

Ushbu she’rning lingvopoetik va badiiy-estetik strukturasi lirik qahramonning ichki dardi va tabiatning uyg‘onish jarayoni o‘rtasidagi keskin ziddiyat (antiteza) ustiga qurilgan. Matnda qo‘llanilgan har bir leksik birlik, fono-stilistik va sintaktik vositalar poetik ma’no ko‘chishlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligida matn tahliliga lingvostilistik va lingvopoetik yondashuv ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, unda «Bahor keldi seni so‘roqlab» she’riy matni tildagi ekspressiv va semantik imkoniyatlarning namoyon bo‘lish shakllari hamda matnning ramziy-metaforik qatlamlari doirasida atroflicha tahlil etiladi.

**Maqsad va vazifalar:** Ushbu maqolaning maqsadi Zulfiya Isroilovaning «Bahor keldi seni so‘roqlab» she’ri misolida shoira idiostiliga xos lingvopoetik va lingvoestetik xususiyatlarni, xususan, tabiat peyzaji hamda lirik qahramon ruhiy dramatizmi o‘rtasidagi semantik-stilistik mutanosiblikni tizimli tadqiq etishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun matndagi leksik-semantik birliklarning ekspressiv imkoniyatlarini aniqlash, uch tomonlama lingvostilistik antiteza gradatsiyasini tahlil qilish hamda sintaktik parallelizm va ritorik shakllarning emotsional funksiyasini yoritish vazifalari belgilandi. Shuningdek, she’riy matnda matn shakllantiruvchi dominant bo‘lgan «Bahor» va «Xotira» konseptlarining ramziy-metaforik qatlamlarini tadqiq etish ko‘zda tutilgan.

**Usullar:** Tadqiqotda she’riy matndagi lisoniy birliklar va badiiy san’atlarning estetik funksiyasini hamda konseptual qatlamlarini ochib berishda lingvopoetik, lingvostilistik hamda kognitiv-konseptual tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, matn birliklarining kontekstual ma’nolarini tizimlashtirish va ilmiy xulosalarni shakllantirishda semantik-funksional hamda tavsifiy-mantiqiy umumlashtirish metodlariga tayanildi.

**Erishilgan natijalar va mulohaza.** Zulfiya she’riyatida lirik idiostilning shakllanishi milliy-madaniy kontekst va shaxsiy ruhiy evrilishlar bilan zich bog‘liq. Shoira poetikasida **"Bahor"**, **"Vafo"**, **"Quyosh"** va **"Sadoqat", Xotira** kabi tushunchalar shunchaki stilistik figuraga aylanmay, konseptual xarakter kasb etadi.

“Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor…

Zulfiyaning vaqt sinovidan o‘tgan va o‘zbek elegik poeziyasining shoh asarlaridan biri hisoblangan **«Bahor keldi seni so‘roqlab»** nomli ushbu she’ri lingvopoetik va estetik jihatdan mukammal yaxlitlikka ega. Uning ushbu asarida til imkoniyatlaridan juda mahorat bilan foydalanilgan. Har bir so‘z va ibora nafaqat go‘zal tasvir yaratishga, balki qahramonning ruhiy kechinmalarini ochib berishga xizmat qiladi. Ilk to‘rtlikda o‘zbek tilining antropomorfik (jonlantirish) imkoniyatlaridan mohirona foydalanilgan. Bahor fasli shoira idiostilida quvonch va uyg‘onish bilan bir qatorda, yo‘qotish va iztirobli xotiraning lisoniy simvoliga aylanadi. She’rdagi *«so‘roqlash»* fe’li shunchaki qidirish emas, balki yillar davomida so‘nmagan intizorlik va sadoqatning leksik-poetik ifodasi bo‘lib xizmat qiladi. Zulfiya she’riyatiga xos bo‘lgan mayin va samimiy pafos aynan tovushlar hamda ritmik qurilish orqali shakllanadi. She’rda s, r, l kabi yumshoq va jarangdor undoshlar hamda a, o‘ unlilarining takrorlanishi (alliteratsiya va assonans) xuddi bahoriy shabada yoki mayin yomg‘ir shivirini beradi. Bu tovushlar o‘quvchida musaffo va mayin kayfiyat yuzaga keltiradi. She’r barmoq vaznining ravon va ta’sirchan turoqlarida yozilgan. Uning ritmik qurilishi lirik qahramonning ruhiy hayajoni va yurak urishi haroratiga to‘liq mos tushadi. Odatiy grammatik tartibda *«Bahor seni so‘roqlab keldi»* bo‘lishi lozim edi. Muallif kesimni (*keldi*) va holni (*seni so‘roqlab*) mantiqiy urg‘u ostiga olib, harakat va uning sababiga ustuvorlik beradi. Bu usul dramatik intizorlik va e’tiborni tortish kuchini oshiradi (inversiya - so‘z tartibining o‘zgarishi).

Shoira vafot etgan umr yo‘ldoshi—Hamid Olimjonga qarata murojaat qiladi (ritorik murojaat). Til vositalari orqali xuddi u yonida turgandek, u bilan sirlashayotgandek jonli uslub (dialogik monolog) yaratiladi — murojaat bor, ammo javob yo‘qligi ruhiy iztirobni yanada teranlashtiradi. She’rda *«Bahor keldi...»* birikmasining poetik takrorlanishi vaqt o‘tsa-da, tuyg‘ular zarracha so‘nmagani va sadoqatning sobitligini lingvistik tomondan isbotlaydi (anafora va poetik takror). Lingvopoetik nuqtayi nazardan, Zulfiyaning «Bahor keldi seni so‘roqlab» she’ri tashxis (bahorning hamdardga aylanishi), semantik kontrast (tabiat uyg‘onishi va qalb bo‘shlig‘i) hamda inversion-dialogik sintaksis ustiga qurilgan mukammal lirik asardir. Shoira sodda va hayotiy so‘zlardan foydalanib, o‘zbek she’riyatidagi sadoqat va sog‘inchning eng yuksak poetik formulasini yaratishga erishgan. Dastlabki to‘rtlikda — *"Salqin saharlarda, bodom gulida,*

*Binafsha labida, yerlarda bahor..."* satrlarida – lokalizatsiyaga xos leksik birliklar (*bodom guli, binafsha labi, baxmal vodiylar*)[1] va unli hamda sirg‘aluvchi undoshlar alaloqada takrorlanib, uyg‘onayotgan tabiatning nafis, vizual va

[1] topo-leksika (landshaft leksikasi) hamda lokativ-fitonimik birliklar

pitoripik manzara[1] sini chizadi. Biroq, bu go‘zal va hayotbaxsh tabiat tasviri ikkinchi to‘rtlikdagi xotira semantikasi va emotsional-ekzistensial kontrast bilan birdaniga to‘qnash keladi:

*"Qancha sevar eding, bag‘rim, bahorni,*
*O‘rik gullarining eding maftuni"*.

Muallif bu o‘rinda o‘tkan zamon fe’li shakli (*sevar eding, eding maftuni*) hamda muloqotdagi ichki erkalash vositasi (*bag‘rim*) orqali insoniy borliqning o‘tkinchiligini tabiatning abadiy sikllilig qarshisiga qo‘yadi.

*"Har uyg‘ongan kurtak hayot bergan kabi*
*Ko‘zlaringga surtib o‘parding uni"* satrlarida esa *kurtak/hayot/ko‘z/o‘pmoq* leksik xalqasi orqali marhum shoirning hayotga, tabiatga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbati semantik jihatdan moddiylashtirilgan.

Asarning eng yetuk lingvopoetik kashfiyoti – bu Bahor obrazining allegorik va dinamik transformatsiyasidir. Muallif Bahorni shunchaki fasl emas, balki tirik, ruhiyatga va xarakterga ega bo‘lgan, do‘stini izlayotgan aktiv subyektga aylantiradi:

*"Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,*
*Seni izlab yurdi, kezdi sarsari..."* satrlarida *izlab yurdi, kezdi sarsari* fe’lli birikmalari Bahorning umidsiz va sarson kechinmalarini namoyon etadi. Izlash dinamikasi kuchaygan sari Bahorning holati leksik jihatdan keskinlashadi. U avval *"yosh to‘kib chekingan qishning yoqasidan tutadi"*, so‘ng *"shabboda bo‘lib yashil yaproqlarni qidiradi"*, va nihoyat, topolmagach *"sabri tugab bo‘ron bo‘ladi"*.

*"Farhod tog‘laridan daraging izlab,*
*Soylarga qulatdi tog‘ning toshini"* satrlaridagi *tog‘ning toshini qulatmoq* metaforik-giperbolik fe’l birikmasi tabiatning ichki tugyonini va fojea ko‘lamini maksimal darajaga olib chiqadi. Bu o‘rinda “*Farhod tog‘lari”* toponimik obrazining kiritilishi asarga mifologik hamda lirik-epik salmoq bag‘ishlaydi.

Lingvopoetik jihatdan asarda fe’llar va sifatdoshlar poetikasi muhim o‘rin tutadi. Matndagi *izlab, kezdi, tutib, so‘radi, yosh to‘kdi, qidirib chiqdi, sabri tugab, qulatdi, ayladi so‘roq* kabi harakat-holat fe’llari syujetli lirikani yuzaga keltirib, o‘quvchini doimiy emotsional taranglikda ushlab turadi.

*"Barida sukunat, ma’yuslik ko‘rib,*
*Horib-charchab keldi, toqatlari toq..."* satrida bir qator muhim lingvopoetik va semantik hodisalar namoyon bo‘ladi. Xususan, matnda ruhiy holatni ifodalovchi «sukunat» va «ma’yuslik» abstrakt-semantik tushunchalari, harakat va holatni kuchaytiruvchi «horib-charchab» sinonimik-juft so‘z hodisasi hamda

[1] Pitoripik manzara — fransuzcha *"pittoresque"* so‘zidan olingan bo‘lib, “mussavirlik manzarasi kabi”, “rasmga, suratga oxshash, juda chiroyli va tasviriy” degan ma’noni anglatadi. Yana ham sodda aytganda, go‘yo rassom mo‘hqalam bilan chizgan go‘zal kartinaday manzara.

emotivlikni maksimal darajaga olib chiquvchi «toqatlari toq» frazeologik iborasi o‘zaro birikadi.

*Asarning fonetik hamda ritmik qurilishi* ham alohida e’tiborga loyiq. Undagi unli va jarangsiz/sirg‘aluvchi undoshlar takrori (*s, z, sh, r*) harakatlarning ohangdoshligini, goh shabboda pichirlashini, goh esa bo‘ron hayqirig‘ini fonosemantik jihatdan akustik modellashtiradi.

*«**S**ingib yosh kuydirgan **z**a’fa**r** yonog‘imga*
***S**ekin xabar* be**rd**i menga o‘zidan.»

Ushbu misrada **[s]**, **[z]**, **[r]** va **[d]** undoshlarining takrorlanishi (**alliteratsiya**) bahor shabadasining pinhona shiviri, barglarning titrashi hamda lirik qahramon ko‘zidan sirg‘alib tushayotgan achchiq yoshning ovozsiz tomishini eshitilgudek darajada jonlantiradi. **[a]** va **[i]** unlilarining mutanosibligi esa g‘amgin ohangni ta’minlagan.

*«**Alamda tutoqib** daraxtga ko‘chdi,*
*Kurtakni uyg‘otib so‘yladi g‘amnok.*
*Sening yoding bilan **yelib beqaror**,*
*Gullar g‘unchasini **etdi chok-chok**.»*

Dastlabki vazmin va sokin shivir bu o‘ringa kelib keskinlashadi. *«Alamda tutoqib»*, *«yelib beqaror»*, *«etdi chok-chok»* birikmalaridagi harakat fe’llari va urg‘ular ritmni tezlashtiradi, bahor shamolining iztirobli va agressiv hayajonini aks ettiradi. Matn leksikasi ikki qutbli — qarama-qarshi maydonlar toqnashuviga asoslangan: **Hayot**—**Umid** va **G‘am**—**Motam**.

*«Singib yosh kuydirgan **za’far** yonog‘imga...» satridagi* **«za’far»** so‘zi za'faron (sariq rangli giyoh/ziravor) nomidan olingan bo‘lib, mumtoz adabiyotda va she'riyatda **ayriliq hamda g‘am-alam chekib, yuzi sarg‘ayib ketgan oshiq holatini** tasvirlash uchun ishlatiladigan ko‘chma ma'nodagi (metaforik) belgi hisoblanadi.

*«Nega men keltirgan sho‘x **nashidaga***
*Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?»*

**Bunda «nashida»** (xushxabar, madhiya, quvonchli qo‘shiq) so‘zi bahor keltirgan jonlanish va xushxabarning ramziy ifodasidir. Bu yerda «nashida» oddiy xabar emas, balki Hamid Olimjon ijodiga xos bo‘lgan hayotbaxsh pafosga ishora qiladi.

*«So‘ngra jilo bo‘lib kirdi yotog‘imga,*
*Hulkar va Omonning o‘pdi yuzidan...»*
*«Mendan so‘ray ketdi qalbimni tilib...»*

Ushbu satrlarda shoira “Bahor yellarini shunchaki tabiat hodisasi emas, balki voqelikda harakat qiluvchi lirik subyektga aylantiradi. U uyga kiradi, yetim qolgan farzandlar (*Hulkar va Omon*) yuzidan o‘padi va shoirni izlab Zulfiyaga savollar beradi.

*«Nechun **qora libos**, **sochlaringda oq**,*
*Nechun **bu ko‘klamda** sen parishonhol?»*

Bu yerda uch tomonlama qarama-qarshilik hosil qilingan:

**Qora libos (Motam) ↔ Ko‘klam (Rang-baranglik)**

**Sochdagi oq (Iztirob va keksayish) ↔ Yashil tabiat (Uyg‘onish)**

**Parishonhol lirik qahramon ↔ Sho‘x bahor**

She’rdagi sintaktik vositalar lirik qahramon va tabiat o‘rtasidagi dialogizmni ta’minlaydi.

*«**Qani** o‘sha kuychi, xayolchan yigit?*
***Nechun** ko‘zingda yosh, turib qolding lol?*
***Nechun** qora libos, sochlaringda oq,*
***Nechun** bu ko‘klamda sen parishonhol?»*

**«Nechun»** va **«Qani»** so‘zlarining sintaktik anafora shaklida takrorlanishi iztirobning eng yuqori nuqtasini (kulminatsiyasini) belgilaydi. Bahor berayotgan bu ketma-ket so‘roqlar aslida Zulfiyaning o‘z ichki ruhiyatida jaranglayotgan, biroq javob berishga tili ojiz bo‘lgan savollardir.

Poetik matn strukturasida tuyg‘ular dinamikasi bosqichma-bosqich o‘sib boradi:

1. **Birinchi bosqich (Ojizlik va Sukut):**

*«Qanday javob aytay, **loldir tillarim**...»*

2. **Ikkinchi bosqich (Anglash va Uyg‘onish):**

*«Bahorga burkangan sen sevgan elda*
*Ovozing yangradi jo‘shqin, zabardast...»*

3. **Uchinchi bosqich (Kulminatsiya):**

*«O‘lmagan ekansan, jonim, sen hayot...*
***Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!**»*

She’r oxirida **«Soz»** va **«Hayot»** semantikasi juda go‘zal uyg‘unlashgan:

*«Hijroning qalbimda, **sozing qo‘limda**,*
*Hayotni kuylayman, chekinar alam...»*

**«Soz»** bu o‘rinda lingvokulturologik konsept[1] vazifasini o‘taydi. U shunchaki musiqiy asbob emas, balki Hamid Olimjonning ijodiy ruhi, uning O‘zbekiston xalqiga qoldirgan adabiy merosidir. Zulfiya bu sozni qo‘liga olishi orqali motam elegiyasini yengib o‘tadi va ijodiy davomiylikni ta’minlaydi. Sintaktik jihatdan kesimlik shakllari (*«hayotsan»*, *«hayotman»*) qat’iy tasdiq ko‘rinishida berilgani sababli, asar fojeali motam bilan emas, balki **san’at va muhabbatning abadiyligi** g‘oyasi bilan yakunlanadi.

[1] Lingvokulturologik konsept — muayyan millat yoki xalqning madaniyati, qadriyatlari, tarixiy tajribasi va milliy dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan, inson shuurida saqlanuvchi hamda tildagi so‘zlar, iboralar va maqollar kabi lisoniy birliklar orqali namoyon bo‘ladigan tayanch ma’naviy-ruhiy tushuncha.

**XULOSA.** Zulfiyaning «Bahor keldi seni so‘roqlab» elegik she’ri prof. M. Yo‘ldoshevning lingvopoetik tahlil metodologiyasiga tayanib tahlil qilinganda, o‘zbek tilining boy ekspressiv-semantik va badiiy-tasviriy potensialini namoyon etuvchi mukammal va murakkab poetik tizim ekani namoyon bo‘ladi. Asarda fonetik, leksik-semantik hamda sintaktik birliklar muayyan estetik va kognitiv maqsadorlikka bo‘ysundirilgan.

She’rning lingvoestetik mexanizmini yaxlit va tizimli tushunish uchun tadqiqotda shakllantirilgan

**LET = (A_al + A_as) · (M_per × M_oks) + P_dmrp/C_esk** *(Lingvopoetik Estetik Ta'sir = (Alliteratsiya + Assonans) · (Personifikatsiya × Oksumoron) + Dialogik modal-ratsional parallelizm / Emotsional-semantik kompensatsiya)*

formulasi badiiy matndagi lisoniy sathlarning o‘zaro ta’sirini matematik-tizimli model holatida vizuallashtiradi. Bu model badiiy matnning emotsional-ekspressiv kuchini hamda ma’lumot berish va his-tuyg‘u uyg‘otish funksiyalari mutanosibligini miqdoriy va sifat jihatdan baholashning innovatsion nazariy-amaliy asosini belgilaydi.

Ushbu lingvopoetik hamda lingvoestetik tahlillar quyidagi asosiy ilmiy xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. **Idiostil va konseptual sintez:** Shoira poetik olamida «Bahor» va «Xotira» konseptlari lirik qahramon ruhiy dramatizmini shakllantiruvchi yetakchi semantik dominantlar sifatidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Tabiatning jismoniy uyg‘onishi va lirik «Men»ning ruhiy, fojeaviy kechinmalari lisoniy va kognitiv darajada chuqur mutanosiblikda sintezlashgan.
2. **Uch bosqichli antiteza va oksyumoristik zidlanish:** Matnning semantik mag‘zini uch darajali kontrastiv qarama-qarshilik (*Qora libos/Motam ↔ Ko‘klam/Rang-baranglik; Sochdagi oq/Iztirob ↔ Yashil tabiat/Uyg‘onish; Parishonhol qahramon ↔ Sho‘x bahor*) va oksyumorik ma'no ko'chishlari tashkil etadi. Bu usul insoniy yo‘qotish dardi hamda abadiy hayotiy uyg‘onish ziddiyatini yuqori emotsional-ekspressiv darajada ifodalagan.
3. **Fono-stilistik va sintaktik mexanizmlar:** "A" unlisining assonansi, "S" va "R" undoshlarining alliteratsiyasi, shuningdek, personifikatsiya (*Bahorning aktiv izlovchi subyektga aylanishi*), sintaktik parallelizmlar hamda ritorik dialogizm matn dinamikasini oshirib, muloqot muhitini va "sukut stilistikasi"ni hosil qilgan.
4. **Lingvokognitiv va semantik kompensatsiya:** She’rning stilistik kulminatsiyasida leksik takrorlar (*hayot — o‘lmagan*) orqali yo‘qotish fojeasi va hijron kategoriyasi abadiylik hamda poetik xotira tushunchasi bilan kompensatsiyalanadi (o‘rnini qoplaydi).

Qisqacha aytganda, Zulfiyaning ushbu asari tabiatdagi uyg‘onish, insoniy iztirob va abadiy sog‘inch kabi tushunchalarni lisoniy birliklar orqali uzviy

bog‘lab, o‘zbek lirik-psixologik poeziyasida elegik turning yuksak ilmiy hamda estetik namunasini namoyon etadi.

# Yevropa tilshunosligida fonologik reduplikatsiya hodisasiga doir qarashlar

***NAVRO‘ZBEK TOHIROV***
*Tayanch doktorant, TDSHU*

***Annotatsiya:*** *Tadqiqotda G‘arb va Yevropa tilshunoslik maktablarida fonologik reduplikatsiya hodisasini o‘rganishning konseptual asoslari va zamonaviy nazariyalari tizimlashtiriladi. Ishning maqsadi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida G‘arb tilshunosligida shakllangan Optimallik nazariyasi, Prosodik morfologiya va Graf nazariyasi kabi yo‘nalishlar doirasida fonologik reduplikatsiyaning lingvistik tabiatini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda nazariy umumlashtirish, qiyosiy-kontrastiv tahlil va model tuzish usullaridan foydalanildi.*

*Tahlillar natijasida fonologik reduplikatsiya shunchaki mexanik nusxa ko‘chirish emas, balki tilning ichki cheklovlari (constraints) iyerarxiyasiga bo‘ysunuvchi murakkab fonologik jarayon ekanligi aniqlandi. Optimallik nazariyasi doirasida baza (base) va reduplikant o‘rtasidagi muvofiqlik (correspondence) tahlil qilinib, "Ayniyat cheklovi" (Identity Constraint) asosiy regulyator ekanligi dalillandi. Graf nazariyasi fonologik reduplikatsiyani chiziqli bo‘lmagan geometrik model sifatida talqin qilsa, Prosodik morfologiya uning hajmiy parametrlarini mora va stopa kabi prosodik birliklar orqali belgilashi ko‘rsatib berildi. Shuningdek, imo-ishora tillarida fonologik reduplikatsiyaning vizual-fazoviy va kinetik xususiyatlari orqali namoyon bo‘lishi uning universal tabiatini tasdiqlaydi.*

*Muhokama jarayonida fonologik qoidalarning nusxa tarkibiga ta’siri — "haddan tashqari qo‘llanish" (overapplication) va "yetersiz qo‘llanish" (underapplication) hodisalari orqali asoslab berildi. G‘arb olimlarining tadqiqotlari reduplikatsiyani fonologiya va morfologiya tutashgan nuqtadagi yaxlit tizim sifatida talqin etishi oydinlashtirildi. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy G‘arb tilshunosligi fonologik reduplikatsiyani shunchaki takror emas, balki tilning fonotaktik imkoniyatlarini va prosodik qoliplarini namoyon qiluvchi o‘ziga xos algoritmlar majmui sifatida o‘rganadi. Ushbu nazariy modellar dunyo tillaridagi reduplikativ birliklarni avtomatik tahlil qilish va mashina tarjimasi tizimlarini takomillashtirishda fundamental baza bo‘lib xizmat qiladi.*

***Tayanch so‘zlar:*** *Fonologik reduplikatsiya, optimallik nazariyasi, prozodik morfologiya, ayniyat cheklovi, muvofiqlik nazariyasi, Graf nazariyasi, imo-ishora tillari fonologiyasi, avtosegmental fonologiya, fonotaktik cheklovlar*

***Аннотация:*** *В исследовании систематизируются концептуальные основы и современные теории изучения феномена фонологической редупликации в западных и европейских лингвистических школах. Цель работы заключается в определении лингвистической природы фонологической редупликации в рамках таких направлений, как теория оптимальности, просодическая морфология и теория графов, сформировавшихся в западном языкознании в конце XX — начале XXI веков. В исследовании использовались методы теоретического обобщения, сравнительно-контрастивного анализа и моделирования.*

*В результате анализа было выявлено, что фонологическая редупликация является не просто механическим копированием, а сложным фонологическим процессом, подчиняющимся иерархии внутренних языковых ограничений (constraints). В рамках теории оптимальности проанализировано соответствие (correspondence) между базой (base) и редупликантом, при этом было доказано, что «ограничение идентичности» (Identity Constraint) выступает в качестве основного регулятора. Если теория графов интерпретирует фонологическую редупликацию как нелинейную геометрическую модель, то просодическая морфология демонстрирует определение её объемных параметров через такие просодические единицы, как моры и стопы. Кроме того, проявление фонологической редупликации в жестовых языках через визуально-пространственные и кинетические характеристики подтверждает её универсальную природу.*

*В процессе обсуждения влияние фонологических правил на структуру копии было обосновано через явления «гиперприменения» (overapplication) и «недостаточного применения» (underapplication). Было уточнено, что исследования западных ученых интерпретируют редупликацию как целостную систему на стыке фонологии и морфологии. В заключение следует отметить, что современная западная лингвистика рассматривает фонологическую редупликацию не просто как повтор, а как совокупность специфических алгоритмов, отражающих фонотактические возможности и просодические модели языка. Данные теоретические модели служат фундаментальной базой для автоматизированного анализа редупликативных единиц в языках мира и совершенствования систем машинного перевода.*

***Ключевые слова:*** *Фонологическая редупликация, теория оптимальности, просодическая морфология, ограничение идентичности, теория соответствия, теория Графов, фонология жестовых языков, автосегментная фонология, фонотактические ограничения.*

***Annotation:*** *The research systematizes the conceptual foundations and modern theories for studying phonological reduplication within Western and European linguistic schools. The objective is to identify the linguistic nature of phonological reduplication within the frameworks of Optimality Theory, Prosodic Morphology, and Graph Theory developed in the late 20th and early 21st centuries. Theoretical generalization, comparative-contrastive analysis, and modeling methods were applied.*

*Findings indicate that reduplication is a complex phonological process governed by a hierarchy of internal language constraints rather than mere mechanical copying. Within*

*Optimality Theory, the correspondence between the base and the reduplicant was analyzed, proving that the "Identity Constraint" acts as the primary regulator. While Graph Theory interprets reduplication as a non-linear geometric model, Prosodic Morphology defines its volumetric parameters through prosodic units such as moras and feet. Furthermore, the manifestation of reduplication in sign languages through visual-spatial and kinetic features confirms its universal nature.*

*Discussion reveals the impact of phonological rules on the reduplicant structure through "overapplication" and "underapplication" phenomena. Western scholarly research clarifies reduplication as an integrated system at the intersection of phonology and morphology. In conclusion, modern Western linguistics treats reduplication not as simple repetition, but as a set of specific algorithms reflecting phonotactic capabilities and prosodic templates. These theoretical models serve as a fundamental basis for the automated analysis of reduplicative units in world languages and the improvement of machine translation systems.*

***Key words:*** *Phonological reduplication, optimality theory, prosodic morphology, identity constraint, correspondence theory, Graph theory, overapplication, sign language phonology, autosegmental phonology, phonotactic constraints*

**Kirish.**Tilshunoslikning zamonaviy rivojlanish bosqichida tillarning fonologik va morfologik qurilishini o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish eng ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ushbu kontekstda reduplikatsiya — so‘z o‘zagi yoki uning bir qismining takrorlanishi hodisasi — o‘zining universal tabiati va murakkab strukturaviy xususiyatlari bilan ilmiy jamoatchilik e’tiborini tortib kelmoqda. Fonologik reduplikatsiya nafaqat tilning lug‘at tarkibini boyituvchi vosita, balki til tizimidagi fonotaktik cheklovlar va prosodik qonuniyatlarning o‘zaro ta’sirini namoyon qiluvchi o‘ziga xos laboratoriya vazifasini o‘taydi.

**Maqsad va vazifalar.** Mazkur tadqiqotning maqsadi G‘arb va Yevropa tilshunosligidagi zamonaviy fonologik nazariyalar (Optimallik, Prosodik morfologiya, Graf va Avtosegmental modellar) doirasida reduplikatsiya talqinining tizimli rivojlanish bosqichlarini tasniflash va baholashdan iborat. Ushbu maqsadga muvofiq, ishda muvofiqlik cheklovlari hamda chiziqli bo‘lmagan graf algoritmlarining an’anaviy yondashuvlardan afzalliklari ochib beriladi. Shuningdek, mazkur lisoniy mexanizmning tabiati akustik (tovushli) va vizual-modal (imo-ishora) tillardagi o‘ziga xos xususiyatlar kesimida qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Natijada fonologik takrorlarni boshqaruvchi universal qonuniyatlar hamda ularning zamonaviy morfofonologik tadqiqotlarni boyitishdagi ilmiy-nazariy ahamiyati yaxlit holda umumlashtiriladi.

**Metodlar.** Tadqiqotda G‘arb va Yevropa tilshunosligidagi mavjud fonologik reduplikatsiya nazariyalarining konseptual apparatini tizimlashtirish uchun deskriptiv va terminologik tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, takror mexanizmlarini chiziqli bo‘lmagan geometrik shakllar hamda algoritmik cheklovlar iyerarxiyasi ko‘rinishida tasvirlashda lingvistik modellashtirish usuli

tatbiq etildi. Fonologik andozalarning og‘zaki va vizual-modal tillardagi o‘ziga xos namoyon bo‘lish qonuniyatlarini aniqlash hamda evolyutsion bosqichlarini guruhlashda esa qiyosiy-tipologik va diaxronik-konseptual umumlashtirish usullari majmuasiga tayanildi.

**Erishilgan natijalar:** XX asrning oxiri va XXI asr boshlariga kelib, G‘arb tilshunosligida reduplikatsiyani tadqiq etishning sifat jihatidan yangi bosqichi boshlandi. Xususan, Sharon Inkelas va Cheril Zollning **"Morfologik reduplikatsiya"** nazariyasi, John Framptonning **"Graf nazariyasi"** doirasidagi tahlillari hamda Jivka Koleva-Zlatevaning **"Tovush simvolikasi"** yo‘nalishidagi izlanishlari ushbu hodisaga nisbatan an’anaviy qarashlarni tubdan o‘zgartirdi. Bugungi kunda reduplikatsiya nafaqat fonologik nusxa ko‘chirish (copying), balki Prosodik morfologiya va Optimallik nazariyasi (Optimality Theory) doirasida muvofiqlik (correspondence) va cheklovlar iyerarxiyasi sifatida talqin qilinmoqda.

Ushbu maqolada fonologik reduplikatsiya nazariyasining Yevropa va G‘arb ilmiy maktablari tomonidan ishlab chiqilgan eng muhim konseptual modellari tahlil qilinadi. Tadqiqotda reduplikatsiyaning segmental va suprasegmental darajadagi xususiyatlari, shuningdek, uning turli tillarda namoyon bo‘lish qonuniyatlari zamonaviy nazariyalar prizmasi orqali ko‘rib chiqiladi. Mazkur tahlillar tilning fonologik qurilishini modellashtirishda reduplikatsiyaning indikatorlik vazifasini ochib berishga xizmat qiladi.

AQSHning Kaliforniya universiteti professori Sharon Inkelas [1] o‘zining reduplikatsiyaga oid tadqiqotlarida ushbu hodisani shunchaki mexanik takrorlanish emas, balki tilning **prozodik iyerarxiyasi**[2] va **segmental qoidalari**[3] tomonidan qat'iy boshqariladigan murakkab jarayon sifatida asoslaydi. Uning nazariyasiga ko‘ra, reduplikatsiya tilning ichki fonologik qurilishini, xususan, **mora, bo‘g‘in va stopa** kabi birliklarning mavjudligini isbotlovchi asosiy vositadir.

Inkelasning yondashuvida **"prozodik andoza"**[4] tushunchasi markaziy o‘rin tutadi: qisman reduplikatsiyada nusxa ko‘chirilgan qism ixtiyoriy shaklda emas, balki tilning minimal hajmiy talablariga (masalan, kamida ikki bo‘g‘inli bo‘lish shartiga) mos ravishda shakllanadi. Agar asosiy o‘zak bu andozani to‘ldirishga yetmasa, fonologik ehtiyoj tufayli ma’nosiz elementlar tizimga kirib keladi.

[1] Inkelas S. (2014). *The interplay of morphology and phonology*. Oxford University Press.

[2] Prozodik iyerarxiya — bu nutq tovushlarining kichik birliklardan (fonemalardan) yirikroq va murakkabroq birliklarga (intonatsiya guruhlarigacha) qat’iy tartibda guruhlanish tizimidir.

[3] Segmental qoidalar — bu nutq zanjiridagi alohida tovushlar (segmentlar) darajasida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni boshqaruvchi qoidalardir.

[4] Prozodik andoza (yoki *prosodic template*) — bu fonologiya va morfologiya tutashgan nuqtadagi tushuncha bo‘lib, so‘z yasalishi yoki reduplikatsiya jarayonida yangi hosil bo‘layotgan birlikning qat’iy bir shaklga (shablonda) mos kelishini anglatadi.

Shu bilan birga, muallif **"melodik qayta yozish"**[1] mexanizmini tushuntirar ekan, "exo" (aks-sado) reduplikatsiyasidagi tovush o‘zgarishlarini **anti-gomofoniya** (o‘xshashlikdan qochish) tamoyili bilan bog‘laydi. Bu jarayon asos va nusxa o‘rtasidagi muvofiqlikni saqlagan holda, ularning aynan bir xil bo‘lib qolmasligini ta’minlaydi. Inkelas reduplikatsiyaning nafaqat morfologik, balki **kompensator (to‘ldiruvchi)** xarakterini ham ochib beradi; ya’ni reduplikatsiya ba’zan sof fonologik qulaylik yaratish — noqulay undoshlar birikmasini parchalash yoki bo‘g‘in strukturasini mukammallashtirish uchun xizmat qiladi.

Inkelasning ishlari reduplikatsiyani tilning fonotaktik cheklovlari va grammatik qurilishi o‘rtasidagi mantiqiy ko‘prik sifatida talqin qilishi bilan fonologiya fanida yuksak ilmiy ahamiyatga ega.

Ekvador universiteti professori Simeon Floydning[2] Ekvadorning Chapalaa tili materiallari asosida olib borgan tadqiqoti fonologik reduplikatsiyani qat’iy **bo‘g‘inli andozalar** va **prozodik cheklovlar** prizmasi orqali yoritib beradi. Muallifning yondashuvi shuni ko‘rsatadiki, mazkur tilda reduplikatsiya jarayoni tilning ichki fonologik grammatikasi tomonidan belgilangan qat’iy kvotalar asosida amalga oshadi.

Floyd talqinida fonologik reduplikatsiyaning markaziy xususiyati uning **qat’iy CV (undosh+unli) qolipiga** bo‘ysunishidir. Ayniqsa, sifat yasovchi qisman reduplikatsiyada asosning hajmi yoki strukturasidan qat’i nazar, reduplikant har doim bitta bo‘g‘inli andozani egallaydi. Bu holat reduplikatsiyaning shunchaki leksik ko‘chirish emas, balki tilning prozodik tizimi tomonidan qo‘yilgan qat’iy hajmiy cheklov ekanligini isbotlaydi.

Tadqiqotning o‘ziga xos jihatlaridan biri — fonologik reduplikatsiyaning **gradual (bosqichma-bosqich) tabiatini** ochib berishidir. Floyd ideofonlar (tovushga taqlidlar) va grammatikallashgan so‘z turkumlarini o‘zaro qiyoslar ekan, ideofonlardagi takrorlarni sof fonetik tabiatga yaqin, hali to‘liq qoliplashmagan bosqich deb hisoblaydi. Bu esa fonologik reduplikatsiyaning erkin fonetik taqliddan boshlanib, qat’iy morfofonologik qoidalargacha bo‘lgan rivojlanishini namoyon qiladi.

Shu bilan birga, muallif **aktsentuatsiya (urg‘u va ohang)** masalasiga alohida to‘xtalib, reduplikatsiyani yagona fonetik so‘z hosil qiluvchi mexanizm sifatida baholaydi. Takrorlanish natijasida hosil bo‘lgan yangi birlikda urg‘uning qayta taqsimlanishi tarqoq elementlarni fonologik jihatdan yaxlit bir butunlikka keltirishga xizmat qiladi. Floyd tahlili shuni ko‘rsatadiki, Chapalaa tilida

[1] Melodik qayta yozish — so‘z yasalishi jarayonida asosning asl ohangi yoki unli/undosh xususiyatlarining yangi bir "melodiya" (segmentlar to‘plami) bilan almashtirilishini anglatadi.

[2] Floyd S. (2014). Four types of reduplication in the Cha'palaa language of Ecuador. In G. G. Gómez & H. van der Voort (Eds.), *Reduplication in indigenous languages of South America* (Vol. 7, pp. 111–142). Brill..

reduplikatsiyaning turli ko‘rinishlari (to‘liq va qisman) tilda bir-biridan mustaqil bo‘lgan fonologik rivojlanish yo‘llari mavjudligidan dalolat beradi.

Simeon Floydning tadqiqoti fonologik reduplikatsiya nazariyasida **"andozaviy cheklovlar"**[1] nazariyasini amaliy material bilan boyitadi. Uning ishi tilning prozodik iyerarxiyasi (bo‘g‘in va stopa tarkibi) morfologik yasash jarayonlarini qanchalik qat’iy nazorat qila olishini ko‘rsatib berdi. Ayniqsa, ideofonlar misolida "fonetik-fonologik-grammatik" o‘tish zanjirini asoslab berishi, reduplikatsiyaning evolyutsion tabiatini tushunishda katta ilmiy ahamiyatga ega.

Yana bir mashxur ingliz tilshunos olimi John Framptonning[2] **"Distributed Reduplication"** asari fonologik reduplikatsiyani til tizimidagi sof mexanik va strukturaviy operatsiyalar majmuyi sifatida talqin qilishi bilan ajralib turadi. Muallif reduplikatsiyani morfologik jarayon emas, balki **autosegmental fonologiya** doirasidagi "nusxa ko‘chirish va qayta moslashtirish" qoidasi deb hisoblaydi.

Frampton yondashuvining markazida reduplikatsiyani **fonologik qayta moslashtirish qoidasi (readjustment rule)** sifatida ko‘rish yotadi. Uning talqiniga ko‘ra, reduplikatsiya alohida morfema emas, balki fonologik segmentlarni nusxalashga buyruq beruvchi operatsiyadir.

Muallif reduplikatsiyani **bo‘g‘in strukturasi va vazn** bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qiladi. Uning fikricha, reduplikantning hajmi tilning "to‘g‘ri shakllangan bo‘g‘in strukturasi" talablariga bo‘ysunadi va ko‘pincha bo‘g‘in yoki mora chegaralari bilan belgilanadi. Yaqui tili[3] misolida keltirilgan **geminatsiya (undoshlarni ikkilantirish)** hodisasi reduplikatsiyaning sof fonologik vazifasini — bo‘g‘inni og‘irlashtirish orqali prozodik andozani to‘ldirish mexanizmini yorqin ko‘rsatib beradi.

Shuningdek, Frampton nazariyasida **"Ayniyatni saqlash" (Identity Condition)**[4] prinsipi markaziy ahamiyatga ega. Bu prinsip baza va reduplikant o‘rtasidagi fonetik o‘xshashlikni maksimal darajada saqlashga intilishni ifodalaydi. Reduplikatsiya paytida bazadagi fonetik belgilar (masalan, unlining

[1] Andozaviy cheklovlar (ingliz tilida: *Templatic Constraints*) nazariyasi — bu so‘z yasalishi (morfologiya) va tovush tizimi (fonologiya) o‘rtasidagi munosabatni tushuntiruvchi konseptual model bo‘lib, uning asosiy mohiyati shundaki, til muayyan grammatik shakllar (masalan, reduplikatsiya) uchun qat'iy bir "andoza" (qolip) belgilaydi va bu andoza o‘ziga xos cheklovlar (*constraints*) tizimi orqali boshqariladi.

[2] Frampton J. (2009). *Distributed reduplication*. MIT Press.

[3] Yaqui tili (o‘z nomi: *Yoeme* yoki *Hiaki*) — asosan Meksikaning Sonora shtatida va AQSHning Arizona shtatida istiqomat qiluvchi Yaqui xalqi so‘zlashadigan til. Bu til Yuto-atstek (Uto-Aztecan) tillar oilasining Taraxit (Taracahitic) guruhiga kiradi.

[4] Ayniyatni saqlash prinsipi — fonologiya va morfologiyada, ayniqsa reduplikatsiya jarayonini tushuntirishda markaziy o‘rin tutadi. Bu prinsipning asosiy g‘oyasi shundaki: Reduplikant (takrorlanuvchi qism) va Asos (baza) bir-biriga maksimal darajada o‘xshash yoki aynan bir xil bo‘lishi shart.

uzunligi yoki lablanganlik) nusxaga ham ko‘chib o‘tishi, bu jarayonning shunchaki segmentlarni emas, balki murakkab fonologik xususiyatlarni uzatuvchi operatsiya ekanligini tasdiqlaydi.

John Framptonning tadqiqoti fonologik reduplikatsiyani **algoritmik va strukturaviy** jihatdan asoslab bergani bilan ulkan ilmiy ahamiyatga ega. U reduplikatsiyani avtosegmental fonologiya[1] qoidalari asosida ishlovchi aniq bir (tuzilma) sifatida tushuntirdi. Framptonning "nusxa ko‘chirish va qayta moslashtirish" konsepsiyasi reduplikatsiya jarayonidagi murakkab fonetik o‘zgarishlarni mantiqiy tartibga solishga va ularni tilning umumiy fonologik qonuniyatlari doirasida tushunishga imkon berdi.

Amerika Tilshunoslik Jamiyati (**Linguistic Society of America**) faxriy a'zosi Ronnie Bring Wilburning[2] **"The Phonology of Reduplication" (1973)** nomli doktorlik dissertatsiyasi fonologik reduplikatsiya nazariyasida burilish yasagan fundamental tadqiqot hisoblanadi. Wilbur birinchilardan bo‘lib reduplikatsiyadagi "g‘ayritabiiy" fonetik hodisalarni tizimli tahlil qilib, **"Ayniyat cheklovi" (Identity Constraint)** tushunchasini fanga kiritgan.

Wilbur yondashuvining negizida reduplikatsiyaning ham morfologik, ham fonologik tabiatga ega ekanligi yotadi. U reduplikatsiyani generativ fonologiya doirasida **"nusxa ko‘chirish mexanizmi"** sifatida tahlil qiladi: jarayon bazadan ma’lum bir fonologik qismlarni (CVC, CV, V kabi) nusxalash va ularni o‘zakka biriktirishdan iborat. Biroq, Wilbur uchun eng muhimi — bu nusxa ko‘chirilgandan keyin sodir bo‘ladigan fonetik jarayonlardir.

Muallif ilgari surgan **"Ayniyat cheklovi" (Identity Constraint)** prinsipi shuni anglatadiki, til har qanday holatda ham asos va reduplikant o‘rtasidagi fonetik o‘xshashlikni saqlab qolishga intiladi. Ushbu intilish shunchalik kuchliki, u ba’zan tilning umumiy fonetik qoidalari zanjirini buzib yuboradi. Masalan, Wilbur **"haddan tashqari qo‘llanish" (overapplication)**[3] hodisasini asoslab beradi: bunda ma’lum bir fonologik qoida aslida faqat asosga tegishli bo‘lsa-da, asos va nusxa bir-biridan uzoqlashib ketmasligi uchun ushbu qoida reduplikantga ham "majburan" qo‘llanadi.

Wilbur talqinida reduplikatsiyadagi ko‘plab "istisnolar" aslida tasodifiy emas, balki ayniyatni saqlashga yo‘naltirilgan mantiqiy qonuniyatlardir. U reduplikatsiyani fonologik qoidalar tartibida o‘ziga xos o‘rin egallovchi va

[1] Avtosegmental fonologiya — tovush xususiyatlarini (ton, urg‘u, burun tovushi va h.k.) alohida mustaqil "qatlamlar" (tiers) sifatida ko‘rib chiqishdir.

[2] Wilbur R B. (1973). *The phonology of reduplication* [Doctoral dissertation, University of Illinois at Urbana-Champaign]. ProQuest Dissertations and Theses Global.

[3] Haddan tashqari qo‘llanish (ingliz tilida: *Overapplication*) — fonologiya va reduplikatsiya nazariyasida eng qiziqarli va bahsli hodisalardan biridir. Bu atama reduplikatsiya jarayonida ma'lum bir fonologik qoidaning (tovush o'zgarishining) kutilganidan ko'ra kengroq, ya'ni ham asosda, ham reduplikantda sodir bo'lishini anglatadi.

so‘zning asosiy reprezentatsiyasiga ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab grammatik-fonetik jarayon sifatida baholaydi.

Ronnie Bring Wilburning tadqiqoti bugungi zamonaviy fonologiya, xususan, **Optimallik nazariyasidagi (Optimality Theory)** "Muvofiqlik nazariyasi" (Correspondence Theory) uchun poydevor bo‘lib xizmat qildi. Uning asosiy xizmati shundaki, u reduplikatsiyani shunchaki morfologik hodisa emas, balki tilning butun fonologik tizimini sinovdan o‘tkazuvchi eng murakkab laboratoriya ekanligini isbotlab berdi. Wilbur tomonidan kiritilgan "Ayniyat cheklovi" tushunchasi bugungi kunda ham reduplikatsiyadagi fonetik mosliklarni tushuntirishda eng asosiy tayanch nuqtasi bo‘lib qolmoqda.

Ronnie B. Wilbur tomonidan yozilgan **"Productive reduplication in a fundamentally monosyllabic language"** [1]nomli yana bir tadqiqot esa bizning ilmiy zanjirimizga vizual-fazoviy til tizimlarining eng mukammal fonologik modelini olib kirdi. Bu manba 1973-yildagi klassik Wilbur nazariyasining zamonaviy va chuqurlashtirilgan davomi bo‘lib, reduplikatsiyani **"Xususiyatlar geometriyasi" (Feature Geometry)**[2] doirasida tahlil qiladi.

Imo-ishora tillari (ASL) kabi bir bo‘g‘inli tizimlarda reduplikatsiya chiziqli (linear) nusxa ko‘chirish emas, balki **iyerarxik (pog‘onali) tuzilishga** ega ekanligi isbotlangan. Muallifning eng muhim xulosasi shundaki, reduplikatsiya jarayonida segmentlar emas, balki fonologik parametrlar (tezlik, yo‘nalish, hajm) o‘zgaradi.

Tadqiqotda **prosodik fonologiya** markaziy o‘rin tutadi. Masalan, *Habitual* (odatiy) ma’nosi uchun kichik va tez harakatlar, *Iterative* (takroriy) ma’nosi uchun esa katta va yoysimon harakatlar ishlatiladi. Bu og‘zaki tillardagi urg‘u va tempning vizual ekvivalenti bo‘lib, **Morfologik Ikkilantirish (MDT)** [3] nazariyasining vizual tilda qanchalik mahsuldor ekanligini ko‘rsatadi. Harakatning trayektoriyasi va to‘xtash nuqtalari (deceleration) reduplikatsiyaning fonetik "chegaralarini" belgilab beradi.

Sobiq Ittifoq (SSSR) davrida yashab ijod qilgan sovet tilshunos olimasi N. M. Shteynbergning **"Zamonaviy fransuz tilida reduplikatsiya"** [4] nomli tadqiqoti

[1] Wilbur R. B. (1981). Productive reduplication in a fundamentally monosyllabic language. *Proceedings of the Seventh Annual Meeting of the Berkeley Linguistics Society, 7*, 310–318.

[2] Xususiyatlar geometriyasi (Feature Geometry) — bu autosegmental fonologiyaning mantiqiy davomi bo‘lib, tovushlarning ichki xususiyatlari (belgilari) so‘z zanjirida shunchaki tartibsiz to‘plam emas, balki iyerarxik (pog‘onali) tuzilishga ega ekanligini anglatadi.

[3] Morfologik Ikkilantirish — reduplikatsiyani bitta umumiy semantik o‘zakdan (kirish birligidan) kelib chiqqan ikkita mustaqil morfologik "shoxobcha"ning (qiz-shoxobchalarning) bir vaqtda namoyon bo‘lishi deb tushuntiruvchi nazariyadir. Bunda takrorlanayotgan qismlar bir-biridan nusxa olmaydi, balki umumiy o‘zakka tayanib, o‘zining alohida fonologik va morfologik qoidalariga ko‘ra shakllanadi.

[4] Shteynberg, N. M. (1970). *Reduplikatsiya v sovremennom frantsuzskom yazyke* [Reduplication in the modern French language]. Vysshaya shkola.

fonologik reduplikatsiyani roman tillari, xususan, fransuz tili fonotaktikasi va ekspressiv qatlami doirasida tahlil qiluvchi muhim manbadir. Shteynberg yondashuvi reduplikatsiyani tilning **bo‘g‘inli qurilishi, muntazam tovush almashinuvlari va oksiton urg‘u tizimi**[1] bilan uzviy bog‘liqlikda yoritib beradi.

Shteynberg talqiniga ko‘ra, fransuz tilida reduplikatsiya asosan **qat’iy bo‘g‘inli andozalar** asosida ishlaydi. Muallif jarayonni tasodifiy takror emas, balki aniq fonologik tiplarga (absolyut, murakkablashgan, ko‘p bo‘g‘inli va almashinuvli) ajratilgan tizim sifatida tavsiflaydi. Bu tizmda reduplikant har doim bo‘g‘in chegarasi bilan cheklanadi, bu esa fransuz tili fonetik qurilishining reduplikatsiya jarayonidagi ustuvorligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning o‘ziga xos jihatlaridan biri — **muntazam unli almashinuvi (ablaut)** masalasidir. Xususan, *i—a* unlilar almashinuvi (*micmac, bric-à-brac*) tilda barqaror fonologik model sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu model nafaqat yangi ekspressiv so‘zlar yasash uchun qolip vazifasini o‘taydi, balki reduplikatsiyalangan birlikning ichki ritmik va fonetik muvozanatini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, Shteynberg **prozodik yaxlitlikka** alohida urg‘u beradi. Fransuz tili uchun xos bo‘lgan **oksiton urg‘usi** reduplikatsiyalangan so‘zlarning barcha qismlarini yagona fonetik qobiqqa birlashtiradi. Bu prozodik vosita takrorlanuvchi elementlarni tarqoqlikdan qutqarib, ularni yaxlit leksik birlik darajasiga ko‘taradi. Muallif, shuningdek, reduplikatsiyaning **ekspressiv-onomatopeik** tabiatini ochib beradi: tovushlarning takrorlanishi tabiatdagi ritmik harakatlar yoki shovqinlarni fonetik jihatdan modellashtirishga xizmat qiladi.

N. M. Shteynbergning ishi fonologik reduplikatsiyaning roman tillari materialidagi o‘ziga xosligini asoslab bergani bilan qimmatlidir. Uning tadqiqoti reduplikatsiyaning oddiy takrordan murakkab fonetik transformatsiyalargacha (*pêle-mêle* kabi konsonantik almashinuvlar) bo‘lgan rivojlanish yo‘lini ko‘rsatib berdi. Bu esa fonologik reduplikatsiyaning tilda shunchaki sodda taqlid emas, balki tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiruvchi, qat'iy fonetik qoidalarga bo‘ysunuvchi dinamik strukturaviy jarayon ekanligini isbotlaydi.

Amerikalik tilshunos olimlar John J. McCarthy va Alan Princening [2] **"Faithfulness and Reduplicative Identity"** asari zamonaviy tilshunoslikda, xususan, **Optimallik nazariyasi (Optimality Theory)** [3] doirasida fonologik

[1] Oksiton urg‘u tizimi (fransuzcha *oxyton* — grekcha *oxys* "o‘tkir" va *tonos* "urg‘u" so‘zidan) — bu urg‘uning so‘zning eng oxirgi bo‘g‘iniga tushishiga asoslangan fonologik tizimdir.

[2] McCarthy J. J., & Prince A. (1995). Faithfulness and reduplicative identity. *University of Massachusetts Occasional Papers in Linguistics*, *18*(1), 249–384.

[3] Optimallik nazariyasi (OT) — bu tilshunoslikning fonologik va morfologik hodisalarini qat'iy "qoidalar" orqali emas, balki bir-biriga zid bo‘lgan universal cheklovlar (*constraints*) iyerarxiyasi (darajalanishi) orqali tushuntiruvchi nazariy modeldir. Ushbu nazariyaga ko‘ra, tilning vazifasi kirish birligi (*input*) uchun mumkin bo‘lgan yuzlab variantlar orasidan tildagi cheklovlarni eng kam buzgan "eng maqbul" (*optimal*) variantni tanlab olishdan iborat.

reduplikatsiyani tushunish uchun eng fundamental manba hisoblanadi. Mualliflar reduplikatsiyani shunchaki nusxa ko‘chirish emas, balki bir-biri bilan doimiy muloqotda bo‘lgan ikki zanjir o‘rtasidagi muvozanat deb hisoblaydilar.

Ushbu tadqiqotning markaziy g‘oyasi "Korrespondensiya (muvofiqlik) nazariyasi"ga tayanadi. Unga ko‘ra, fonologik reduplikatsiya — bu **Baza (B)** va **Reduplikant (R)** o‘rtasidagi parallel muvofiqlik munosabatidir. Bu munosabat tilning fonologik grammatikasidagi maxsus "sodiqlik cheklovlari" orqali boshqariladi. Eng muhim cheklov — **B-R Identity** (Asos va Reduplikant ayniyati) bo‘lib, u nusxaning bazaga fonetik jihatdan maksimal darajada o‘xshash bo‘lishini talab qiladi.

Mualliflar reduplikatsiyadagi o‘ziga xos fonetik hodisalarni ikki turga ajratadilar: **"haddan tashqari qo‘llanish" (overapplication)** — bunda asosdagi o‘zgarish ayniyatni saqlash uchun nusxaga ham "yuqadi"; va **"yetarli qo‘llanmaslik" (underapplication)** — bunda ayniyat buzilmasligi uchun asosda yuz berishi kerak bo‘lgan fonetik o‘zgarish ataylab to‘xtatiladi.

Yana bir yangi tushuncha — **TETU (The Emergence of the Unmarked)** bo‘lib, u reduplikatsiya paytida tilning eng sodda va "ideal" fonetik strukturalari yuzaga chiqishini tushuntiradi. Masalan, reduplikant asosdagi murakkab undoshlar birikmasini soddalashtirib ko‘chirishi mumkin. Shuningdek, reduplikantning o‘zak ichiga joylashishi (**infiksatsiya**) ham tasodifiy bo‘lmay, "bo‘g‘inning ochiq bo‘lishi" kabi sof fonologik cheklovlar natijasida sodir bo‘ladi.

McCarthy va Princening ushbu asari reduplikatsiyani o‘rganishni butunlay yangi bosqichga olib chiqdi. Ularning asosiy xizmati — reduplikatsiyadagi barcha murakkab va "mantiqsiz" tuyulgan fonetik o‘zgarishlarni yagona va universal mexanizm — **cheklovlar iyerarxiyasi** orqali tushuntirib berganlaridadir.

Ular reduplikatsiyani morfologiya va fonologiya o‘rtasidagi raqobat maydoni sifatida ko‘rsatdilar: bir tomondan ma'no yasash ehtiyoji (morfologiya), ikkinchi tomondan esa talaffuz qulayligi va ayniyatni saqlash talabi (fonologiya) o‘rtasidagi kurash reduplikatsiyalangan so‘zning yakuniy shaklini belgilaydi. Bu nazariya bugungi kunda dunyo tillaridagi har qanday reduplikatsiya tizimini tahlil qilishda eng ishonchli ilmiy metodologiya hisoblanadi.

"Niderlandiya ishorat tilida morfologik reduplikatsiya" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi bilan tanilgan niderlandiyalik tilshunos olima Cindy van Bovenning[1] **"Aspectual reduplication in Sign Language of the Netherlands: reconsidering phonogical constraints and aspectual distinctions" (NGT)** asari fonologik reduplikatsiya nazariyasiga mutlaqo yangi — **vizual-modal** o‘lchovni olib kiradi. Ushbu tadqiqot reduplikatsiyaning faqat akustik (tovushli) tillar bilan

[1] Van Boven, C. (2024). Aspectual reduplication in Sign Language of the Netherlands: Reconsidering phonological constraints and aspectual distinctions. *Sign Language & Linguistics*, *24*(2), 205–240.

cheklanib qolmasligini, balki imo-ishora tillarining vizual fonologiyasida ham qat’iy qonuniyatlarga bo‘ysunishini isbotlaydi.

Van Boven yondashuvining o‘ziga xosligi **"Modal ixtisoslashuv"** (Modality-specific phonology) [1] tushunchasidadir. Unga ko‘ra, imo-ishora tillarida reduplikatsiya makon, harakat trayektoriyasi, tezlik va vizual to‘xtash nuqtalari kabi parametrlar orqali amalga oshadi. Bu yerda fonologik birlik vazifasini tovush emas, balki **harakat kinetikasi**[2] bajaradi.

Muallif **fonologik blokirovka** (phonological blocking) [3] hodisasini asoslab beradi: agar imo-ishora o‘zining ichki fonetik tuzilishiga ko‘ra "murakkab harakatli" yoki "og‘ir" bo‘lsa, til tizimi uni reduplikatsiya qilishdan voz kechishi mumkin. Bu esa reduplikatsiyaning muvaffaqiyati bevosita asosning fonologik strukturasiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda **pauza (tanaffus)** sof fonologik vosita sifatida talqin qilinadi. Xususan, iterativ (takroriy) aspektda sikllar orasidagi vizual tanaffuslar ma’noni farqlash bilan birga, reduplikantni boshqa turdagi fonetik cheklovlardan "himoya qiladi". Shuningdek, NGT misolida turli aspektual ma’nolarning (odatiylik va davomiylik) yagona fonologik andozaga birlashishi til tizimining fonetik tejamkorlikka intilishini namoyon etadi.

Cindy van Bovenning tadqiqoti fonologik reduplikatsiya nazariyasini **universal** darajaga ko‘tardi. Uning ishi shuni ko‘rsatadiki, reduplikatsiya — bu inson tilining modal (tovushli yoki vizual) shaklidan qat’i nazar, uning asosiy grammatik va fonologik prinsiplaridan biridir.

Imo-ishora tillaridagi reduplikatsiyani o‘rganish orqali van Boven **prozodik chegaralash** (boundary marking) va **harakat fonologiyasi** kabi tushunchalarni boyitdi. Bu esa zamonaviy tilshunoslarga reduplikatsiyani faqat "tovush takrori" deb emas, balki **ritm va harakatning diskret birliklari** sifatida kengroq tushunish imkonini beradi.

Latviyalik taniqli tilshunos olima **Aina Urdze** [4] tahriri ostidagi **"Non-Prototypical Reduplication"** to‘plami reduplikatsiyaning standart grammatik qoliplarga bo‘ysunmaydigan, lekin o‘ziga xos qat’iy fonetik va ritmik qonuniyatlarga ega bo‘lgan sohalarini yoritib beradi.

---

[1] Modal ixtisoslashuv (inglizcha *modal specialization*) — bu tilshunoslikda reduplikatsiya hodisasi turli muloqot modalliklarida (og'zaki nutq vs. imo-ishora tili) qanday o'ziga xos shakl va funksiyalarga ega ekanligini anglatuvchi tushunchadir.

[2] Harakat kinetikasi (inglizcha *movement kinetics* yoki *kinetics of signs*) — bu imo-ishora tillari fonologiyasi va reduplikatsiya tadqiqotlarida harakatning jismoniy xususiyatlari (tezlik, kuch, trayektoriya va tezlanish) qanday qilib ma’no tashishini o‘rganuvchi tushunchadir.

[3] Fonologik blokirovka (inglizcha *phonological blocking*) — bu reduplikatsiya yoki boshqa morfologik jarayonlarning ma’lum bir fonologik cheklovlar yoki tilda allaqachon mavjud bo‘lgan shakllar tufayli amalga oshmay qolishi yoki to‘xtab qolishi hodisasidir.

[4] Urdze A. (Ed.). (2018). *Non-prototypical reduplication*. De Gruyter Mouton.

Ushbu tadqiqotning markaziy yo‘nalishi **fonosemantik bog‘liqlik** masalasidir. Prototipik bo‘lmagan reduplikatsiyada (ekspressivlar, onomatopeya) tovushlarning takrorlanishi shunchaki grammatik kategoriya emas, balki jismoniy harakat yoki tovushning (titrash, dukillash, urish) bevosita fonetik nusxasidir. Bu jarayonda **ritmik izchillik** birlamchi o‘rin tutadi: ekspressiv reduplikatsiya tildagi standart urg‘u tizimidan mustaqil bo‘lgan alohida prosodik modelni shakllantiradi.

Manbada Tibeto-Burman tillari (masalan, Tangkhul Naga) misolida **fonotaktik va morfofonologik cheklovlar** tahlil qilinadi. Bunday tillarda fonologik reduplikatsiya ko‘pincha maxsus prefikslar (masalan, *ta*-) bilan chegaralanadi, bu esa takrorning til tizimidagi fonetik o‘rnini qat’iylashtiradi. Ushbu manba reduplikatsiyaning **kontekstual fonologiyasini ochib berganligi bilan** ham e’tiborlidir: ekspressiv takrorlar faqat ma’lum fonetik muhitda yoki maxsus kollokatsiyalarda (fe’llar bilan birga kelganda) o‘zining to‘liq fonologik shakliga ega bo‘ladi.

Yana bir muhim xulosa — **tizimli tejamkorlik va imtiyozli fonotaktika** haqidagi qarashdir. Prototipik bo‘lmagan takrorlar ko‘pincha tilning standart fonologik qoidalaridan "ozod" bo‘lib, tilda odatda uchramaydigan yoki taqiqlangan tovush birikmalarini (marginal fonemalar) o‘z ichiga olishi mumkin. Bu esa reduplikatsiyaning til fonologiyasida o‘ziga xos "erkin zona" yaratish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Aina Urdze tahriri ostidagi ushbu to‘plam fonologik reduplikatsiya tushunchasini sezilarli darajada kengaytirdi. U reduplikatsiyani faqatgina "to‘g‘ri" va "prototipik" grammatik andozalar ichida emas, balki tilning **jonli, ekspressiv va onomatopeik** qatlamlarida ham qat’iy tizimga ega ekanligini isbotladi.

Kanadalik taniqli tilshunos olima Lisa de Mena Travisning[1] **"The Syntax of Reduplication"** asari fonologik reduplikatsiya nazariyasiga **interfeys** (sohalararo bog‘liqlik) nuqtai nazaridan yondashadi. Agar avvalgi mualliflar (masalan, Marantz yoki McCarthy) reduplikatsiyani asosan fonologiya ichidagi hodisa deb qaragan bo‘lsalar, Travis uni **sintaksis va fonologiya o‘rtasidagi ko‘prik** sifatida tahlil qiladi.

Travis yondashuvining o‘ziga xosligi shundaki, u fonologiyani sintaksis tomonidan berilgan buyruqlarni bajaruvchi **"mexanizm"** deb hisoblaydi. Uning fikricha, reduplikatsiya jarayonida fonologik qatlam shunchaki tovushlarni nusxalamaydi, balki sintaktik strukturadagi ma’lumotni "o‘qiydi" va uni tilning **prozodik iyerarxiyasi** (bo‘g‘in, mora, stopa) doirasida moddiylashtiradi.

[1] Travis, L. D. M. (2001). The syntax of reduplication. In *Proceedings of the 2001 AFLA VIII Conference* (pp. 271–285). University of Southern California.

Muallif **"sub-lexical" (leksik darajadan past)**[1] fonologik reduplikatsiyani sintaktik reduplikatsiyadan qat'iy farqlaydi. Birinchisida so‘z ichidagi kichik fonetik bo‘laklar takrorlansa, ikkinchisida butun bir sintaktik birliklar ishtirok etadi. Biroq, har ikki holatda ham fonologiya tilning ichki "hisoblash" (*computation*) tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Travis uchun fonologik reduplikatsiya — bu tilning prozodik birliklari tabiatini tekshirish uchun eng mukammal vositadir, chunki takrorlanayotgan bo‘lakning hajmi va chegarasi tilning fonetik qurilishi haqida eng aniq ma’lumotni beradi.

Lisa de Mena Travisning tadqiqoti fonologik reduplikatsiyani **avtonom fonologiya** (faqat tovush qoidalari) doirasidan olib chiqib, uni **grammatik strukturaga** bog‘ladi. Uning asosiy xizmati — fonologik realizatsiyaning (qaysi tovush takrorlanishining) sintaktik muhitga bog‘liqligini isbotlab berganidir.

Amerikalik taniqli tilshunos olim, "Reduplikatsiyaning fonologiyasi va morfologiyasi" (*The Phonology and Morphology of Reduplication*) kitobi bilan mashhur Eric Raimy[2] fonologik reduplikatsiyani tahlil qilishda an'anaviy "nusxa ko'chirish" (copying) modelidan butunlay voz kechib, **Graf nazariyasi (Graph Theory)**[3] va **Pretsedent (Precedence)**[4] munosabatlariga asoslangan inqilobiy yondashuvni taqdim etdi. Ushbu nazariya reduplikatsiyani tilshunoslik va kognitiv fanlar chorrahasidagi geometrik-fonologik hodisa sifatida ko'rsatadi.

Raimy yondashuvining markazida fonetik zanjirni chiziqli emas, balki **uch o'lchamli graf** sifatida tasvirlash yotadi. Uning fikricha, reduplikatsiya — bu yangi tovushlarni yasash emas, balki mavjud segmentlar o'rtasida **"orqaga yo'naltirilgan yoy" (backtrack edge)** hosil qilishdir. Masalan, agar zanjir *A-B-C* ko'rinishida bo'lsa, reduplikatsiya paytida *C* segmentidan *A* segmentiga qayta bog'lanish (halqa) o'rnatiladi. Natijada yagona segmentlar majmuasi ikki marta "o'qiladi" (multiple readout).

Muallif **Linearizatsiya (Chiziqlashtirish)**[5] tushunchasi orqali bu halqalarning nutq jarayonida qanday qilib oddiy ketma-ketlikka aylanishini tushuntiradi. Raimy nazariyasining eng kuchli tomoni shundaki, u **overapplication** va **underapplication** kabi murakkab fonologik hodisalarni klassik iyerarxiya bilan

[1] Sub-lexical (leksik darajadan past) fonologik reduplikatsiya — bu tilshunoslikda reduplikatsiyaning shunday turiki, bunda takrorlanish butun bir so‘z yoki morfemani emas, balki undan kichikroq bo‘lgan sof fonologik birliklarni (fonema, mora, bo‘g‘in) qamrab oladi.

[2] Raimy E. (2000). *The phonology and morphology of reduplication.* Mouton de Gruyter.

[3] Graf nazariyasi (Graph Theory) — bu matematika va diskret tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, u ob’ektlar (tugunlar) va ular o‘rtasidagi aloqalar (qirralar) to‘plamini o‘rganadi.

[4] Pretsedent (Precedence) tushunchasi — Erik Reymining graf nazariyasiga asoslangan modelining "yuragi" hisoblanadi. Oddiy tilda aytganda, bu "kim kimdan oldin keladi?" degan tartib qoidasidir.

[5] Linearizatsiya (Chiziqlashtirish) — bu tilshunoslikning morfosintaktik sathida til birliklarining (morfemalar, so‘zlar, iboralar) vaqt va makon o‘qi bo‘ylab ma’lum bir ketma-ketlikda joylashishi jarayonidir.

emas, balki qoidalarning "halqa" ochilishidan oldin yoki keyin qo'llanishi (temporal ordering) bilan izohlaydi. Bu modelda reduplikantning hajmi (bo'g'in yoki mora) grafdagi "sakrash" nuqtalari bilan belgilanadi, bu esa jarayonni matematik jihatdan aniq va tejamkor qiladi.

Eric Raimyning ishi fonologik reduplikatsiyani **hisoblash tilshunosligi (computational linguistics)** va **geometrik modellashtirish** darajasiga ko'tardi. Uning asosiy xizmati — reduplikatsiyani "segmentlarni ko'paytirish" yukidan xalos qilib, uni mavjud fonologik resurslardan oqilona foydalanish (halqalar hosil qilish) mexanizmi sifatida asoslab berganidir.

Amerikalik tilshunos olim Andrev Nevinsning[1] Eric Raimy asariga yozgan taqrizi fonologik reduplikatsiya nazariyasidagi **"Nusxa ko‘chirish" (Copying)** paradigmasidan **"Hisoblash" (Computation)** paradigmasiga o‘tishni yakunlab beradi. Nevins ushbu taqriz orqali Raimyning graf nazariyasiga asoslangan modelini yanada pishiqlashtiradi va uning tilshunoslikdagi o‘rnini belgilab beradi.

Nevins tahlilining eng kuchli jihati — **"Readjustment Rule" (Qayta moslashtirish qoidasi)** tushunchasidir. Unga ko‘ra, reduplikatsiya shunchaki fonetik hodisa emas, balki sintaksisdan kelgan buyruqni fonetik zanjirga "tarjima qiluvchi" hisoblash jarayonidir. Bu jarayonda reduplikant mustaqil morfema sifatidagi maqomini yo‘qotadi va shunchaki mavjud segmentlarning **"qayta o‘qilishi"** (multiple readout) natijasiga aylanadi.

Nevins ta’kidlaganidek, fonologik reduplikatsiyadagi eng murakkab nuqta — **Linearizatsiya (Chiziqlashtirish)** jarayonidir. Graf ko‘rinishidagi (chiziqli bo‘lmagan) struktura nutq apparati uchun tushunarli bo‘lgan chiziqli zanjirga aylantirilayotganda, fonologik qoidalarning qo‘llanish vaqti hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Agar fonologik qoida "halqa" yopilishidan oldin ishlasa — **overapplication**, undan keyin ishlasa — **normal application** yuzaga keladi. Bu yondashuv Wilbur yoki McCarthy modellari tushuntira olmagan ba’zi "vaqtinchalik" fonetik o‘zgarishlarni mantiqiy hal qiladi.

Andrev Nevinsning ushbu taqrizi fonologik reduplikatsiyani **abstrakt grammatika** va **jismoniy artikulyatsiya** interfeysi o‘rtasidagi ko‘prik sifatida asoslab berdi. U reduplikatsiyani "nusxa ko‘chirish" kabi og‘ir operatsiyadan "bog‘liqliklarni qayta tartibga solish" kabi tejamkor (minimalistik) operatsiyaga aylantirdi.

Avstriyalik tilshunos olim bo'lib, Thomas Schwaigerning[2] **"The structure of reduplicants" (2017)** nomli tadqiqoti fonologik reduplikatsiyani **tipologik**

[1] Nevins, A. (2002). Review of the book *The phonology and morphology of reduplication*, by E. Raimy. *Language*, *78*(4), 770–773.

[2] Schwaiger, T. (2017). *The structure of reduplicants: A cross-linguistic study of reduplicative affixes* [Doctoral dissertation, University of Graz]. University of Graz Repository.

**universallik**[1] va **fonetik optimallik**[2] prizmasi orqali yoritib beradi. Schwaiger yondashuvi reduplikantni shunchaki bazaning tasodifiy "parchasi" emas, balki tilning eng barqaror va "ideal" fonetik andozalarini yuzaga chiqaruvchi jarayon sifatida tavsiflaydi.

Muallifning eng muhim g‘oyasi **"Strukturaviy optimallik"**[3] tushunchasiga tayanadi. Unga ko‘ra, tillar reduplikatsiya jarayonida fonetik jihatdan eng qulay va tushunarli bo‘lgan andozalarni (asosan **CV** — undosh+unli) tanlashga moyil bo‘ladi. Bu hodisa tilning fonetik tejamkorlik (economy) tamoyili bilan bog‘liq bo‘lib, murakkab baza tarkibidan faqat eng "jarangdor" va muhim segmentlarning saralab olinishini (**fonetik selektivlik**) tushuntiradi.

Schwaiger, shuningdek, **"O‘zgarmas fonetik elementlar" (Fixed Melodic Material)** masalasini chuqur tahlil qiladi. Masalan, turkiy tillardagi kuchaytirma darajani yasovchi o‘zgarmas undoshlar (*p, m, s, r*) reduplikatsiyaning sof fonetik qoidalar va qat’iy qoliplar asosida ishlashini isbotlaydi. Bu yerda bazadan material ko‘chirilishi ma’lum bir nuqtada to‘xtaydi va til tomonidan oldindan belgilangan fonologik "muhr" (fixed segment) bosiladi.

Yana bir muhim jihat — **Ikoniklik**. Schwaiger talqinida "ko‘p ma’no = ko‘p tovush" tamoyili ishlaydi. Fonologik struktura akustik tarzda semantik yuklamani (masalan, harakatning takroriyligi yoki miqdorning ko‘pligi) aks ettiradi. Bu jarayon tilning **prosodik iyerarxiyasi** bilan jipslashgan bo‘lib, reduplikant hajmi tilning umumiy urg‘u va bo‘g‘in vazni tizimi tomonidan qat’iy nazorat qilinadi.

Thomas Schwaigerning tadqiqoti fonologik reduplikatsiyani **tipologik-statistik** darajaga olib chiqdi. Uning asosiy xizmati shundaki, u reduplikantlar tuzilishidagi xilma-xillik ortida yagona fonetik intilish — **belgisizlikka (unmarkedness)** va **optimallikka** intilish yotganini isbotlab berdi.

Yana birv avstriyalik taniqli tilshunos olim, Bernhard Hurch tahriri ostidagi **"Studies on Reduplication"** to‘plami fonologik reduplikatsiya nazariyasini tilning kelib chiqishi (**ontogenez**), rivojlanishi (**filogenez**) va hududiy tarqalishi (**areallik**) bilan bog‘lagan holda eng keng miqyosda tahlil qiluvchi ensiklopedik

[1] Tipologik universallik — bu dunyodagi barcha tabiiy tillar uchun xos bo‘lgan umumiy qonuniyatlar va tizimli o‘xshashliklardir. Reduplikatsiya sohasida ushbu tushuncha tilning genetik kelib chiqishidan (masalan, turkiy yoki somiy bo‘lishidan) qat’i nazar, takrorlanish jarayoni bo‘ysunadigan umumiy qoidalarni ifodalaydi.

[2] Fonetik optimallik — bu tilshunoslikdagi Optimallik nazariyasi (Optimality Theory - OT) doirasida markaziy tushuncha bo'lib, tilning fonetik va fonologik tizimi "minimal kuch sarflash" (artikulyatorlik qulayligi) va "maksimal aniqlik" (eshituvchiga tushunarli bo'lish) o'rtasidagi muvozanatni qanday topishini tushuntiradi.

[3] Strukturaviy optimallik — bu tilshunoslikda, xususan, Optimallik nazariyasi (OT) va Morfologik ikki hissa orttirish (MDT) nazariyasi doirasida, reduplikatsiya natijasida hosil bo'lgan yangi so'zning eng "tushunarli", "mustahkam" va "tejamkor" shaklga ega bo'lishidir.

manba hisoblanadi. Ushbu asar reduplikatsiyani shunchaki qog‘ozdagi qoida emas, balki jonli va evolyutsion jarayon sifatida ko‘rsatib beradi.

Ushbu manbaning eng katta yangiligi — **Psixolingvistik va Ontogenetik** yondashuvdir. Bolalar tilini tahlil qilish orqali mualliflar reduplikatsiyaning inson nutq apparati uchun eng "tabiiy" va birlamchi fonologik strategiya ekanligini isbotlaydilar. Murakkab so‘zlarni talaffuz qilishdagi qiyinchiliklarni bolalar takrorlash orqali kompensatsiya qilishi reduplikatsiyaning **fonetik soddalashtirish** funksiyasini ochib beradi.

Yana bir muhim jihat — **Geminatsiya va Reduplikatsiya** chegarasining aniqlanishidir. Arab tili misolida ko‘rsatilganidek, undoshlarning ikkilanishi (geminatsiya) aslida reduplikatsiyaning eng minimal, "mikro" darajadagi ko‘rinishidir. Bu esa reduplikatsiyaning spektrini — bitta tovushdan tortib (geminatsiya) butun bir stopagacha kengaytirish imkonini beradi.

To‘plamda ta’kidlangan **"Janus-faced Iconicity" (Yanusga xos Ikki yuzli ikoniklik)**[1] g‘oyasi fonologik hajm va ma’no o‘rtasidagi munosabatni yangicha talqin qiladi. Takrorlanish ham kuchaytirish, ham kichraytirish (diminutiv) ma’nosini berishi, fonologiyaning semantika bilan qanchalik moslashuvchan (kontekstual) munosabatda ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, **Areallik va Kontakt fonologiyasi**[2] bo‘limida reduplikatsiya andozalarining tillararo aloqalar orqali "yuqishi" uning eng yuqori darajadagi strukturaviy barqarorligidan dalolat beradi.

Bernhard Hurch boshchiligidagi ushbu tadqiqot fonologik reduplikatsiyani **til evolyutsiyasi va universallik** markaziga qo‘ydi. Uning asosiy xizmati — reduplikatsiyani nafaqat morfologik vosita, balki tilning tarixiy siljish jarayonlariga chidamli, kognitiv jihatdan eng fundamental mexanizmi sifatida asoslab berganidir.

Polshalik taniqli tilshunos olima Ivona Piechnikning [3] **"Reduplicative Syllables in Romance Languages"** asari fonologik reduplikatsiyani **diaxronik (tarixiy) fonologiya** va **areal tilshunoslik** kontekstida tahlil qiluvchi muhim manbadir. Piechnik lotin tilidan roman tillariga o‘tish jarayonini o‘rganar ekan, reduplikatsiyaning evolyutsion tabiatini va uning "xalqona" (vulgar) qatlamdagi hayotiyligini ochib beradi.

---

The rise of the scholarly environment of Mā warāʾ al-nahr and Khorasan was particularly significant during the Samanid period. Although the Samanid dynasty ruled politically from 819 to 999, its most powerful cultural and scientific development was especially evident under Ismāʿīl Sāmānī (892–907), Naṣr II ibn Aḥmad (914–943), Nūḥ I (943–954), and Manṣūr I (961–976), centered around Bukhara and Samarqand. Under the Samanids, Bukhara became a center of learning, literature, philosophy, medicine, book culture, and court libraries; the early intellectual formation of Ibn Sīnā was also directly connected with this scholarly and literary environment. Samarqand, for its part, was distinguished by mathematical and astronomical knowledge, trade routes, crafts, and book culture. In this respect, the Samanid period transformed Mā warāʾ al-nahr and Khorasan into one of the most important scholarly and cultural regions of the Muslim East Renaissance.

In the 11th century, Khwarazm emerged as one of the most mature scientific centers of the Muslim East Renaissance. During the rule of the Maʾmūnid Khwarazmshah dynasty, particularly under Maʾmūn I ibn Muḥammad (995–997), ʿAlī ibn Maʾmūn (997–1009), and Abū al-ʿAbbās Maʾmūn II (1009–1017), a powerful scholarly milieu formed around Gurganj. Especially under Maʾmūn II, the scholarly circle associated with the Khwarazm Maʾmūn Academy reached a high level through the activity of al-Bīrūnī, Ibn Sīnā, Abū Sahl al-Masīḥī, Abū al-Khayr al-Khammār, and other scholars. Astronomy, mathematics, geodesy, medicine, philosophy, mineralogy, and the natural sciences developed at this center. The importance of the Khwarazmian milieu lies in the fact that it did not

merely receive the translation and general scholarly traditions that had begun in Baghdad, but raised them to the level of observation, calculation, comparative analysis, and theoretical generalization.

**The Muslim West Renaissance** developed mainly in the scholarly and cultural environment of al-Andalus and the Maghrib, particularly in such centers as Qayrawan, Fez, Córdoba, Toledo, Seville, Zaragoza, Granada, and Marrakesh. This region occupied a special place in receiving the scientific heritage formed in the East, reworking it within a local intellectual environment, and transmitting it to the Latin West. The formation of the western Muslim scholarly milieu was strongly influenced by political stability and court patronage under the Umayyads of Córdoba. During the reign of ʿAbd al-Raḥmān II (822–852), the Cordoban court became a milieu receptive to literary, musical, scholarly, and educational traditions arriving from the East. ʿAbd al-Raḥmān III (912–961) proclaimed the caliphate in 929 and transformed Córdoba into the political and cultural center of the Muslim West. Under his rule, state administration, urban development, libraries, court culture, and scholarly patronage were strengthened. The reign of al-Ḥakam II (961–976) represented one of the highest phases of Andalusian intellectual life, marked by particular attention to the Cordoban library, book collecting, translation, literature, medicine, and astronomy. For this reason, Córdoba emerged as the most important scholarly center of the Muslim West Renaissance.

Qayrawan was one of the earliest major centers of learning in the Maghrib and Ifriqiya, especially distinguished by its traditions of medicine, jurisprudence, and education. Córdoba, meanwhile, was the most important center of science, literature, and book culture in al-Andalus. The activity of scholars such as Maslama al-Majrīṭī and Abū al-Qāsim al-Zahrāwī demonstrates the mathematical-astronomical and medical potential of the Cordoban milieu. Al-Zahrāwī's *"Kitāb al-Taṣrīf"* occupies an important place in the history of surgery and medical instruments, revealing the practical and professional maturity of Andalusian medicine. This shows that medicine and applied sciences reached a high level of development within the Muslim West Renaissance.

Toledo became one of the most important scholarly and translation centers connecting the Muslim West Renaissance with Europe. In the $11^{th}$–$12^{th}$ centuries, the city was distinguished by astronomy, mathematics, philosophy, and translation activity. In particular, during the rule of Yaḥyā al-Maʾmūn ibn Ismāʿīl ibn Dhū al-Nūn (1043–1075), the ruler of the Toledo taifa, the city strengthened politically and created favorable conditions for scholarly life. The court of al-Maʾmūn is noteworthy as a milieu that showed interest in astronomy and scientific instrumentation; the activity of al-Zarqālī flourished precisely in connection with this system of scholarly patronage. Al-Zarqālī's construction of astronomical

instruments, his observations, and the formation of the tradition of the Toledan astronomical tables increased the importance of this center within the Muslim West Renaissance. Even after Toledo came under Christian rule, the translation of Arabic scientific heritage into Latin continued in the city. Thus, Toledo performed a dual function within the Muslim West Renaissance: on the one hand, it contributed to the development of astronomy and mathematical knowledge in the Andalusian scholarly milieu; on the other hand, it became one of the principal intercivilizational bridges through which Muslim science passed into the Latin West.

Seville and Zaragoza occupied an important place in the 11th–12th centuries as centers of philosophy, astronomy, literature, and political-cultural life. In the scholarly milieu of Zaragoza, al-Muʾtaman ibn Hūd (1081–1085), one of the rulers of the Banū Hūd dynasty, deserves special attention as a ruler who himself engaged in mathematics. During his reign, interest in mathematics, geometry, astronomy, and philosophy increased in the Zaragoza intellectual environment; the activity of Ibn Bājja is also evaluated in connection with this intellectual milieu. Seville, meanwhile, held an important position in western Muslim intellectual life as a center of literature, jurisprudence, philosophy, and political culture. Granada became a later major center of Andalusian Muslim culture, distinguished by literature, medicine, historiography, law, and court culture. Marrakesh and other Maghribi centers became important points of connection between Andalusia and North Africa in the 12th century. Under the Almoravids and Almohads, Andalusian scholars, philosophers, and physicians maintained active ties with the Maghrib. The activity of Ibn Ṭufayl and Ibn Rushd demonstrates the interconnected nature of the Andalusian-Maghribi intellectual environment.

The difference between the Muslim East Renaissance and the Muslim West Renaissance is also clearly visible in their internal periodization. In the Muslim East, scientific flourishing began earlier: the stage of formation covered the late 8th–9th centuries, the stage of specialization the 10th century, and the stage of critical inquiry and theoretical maturity the 11th–12th centuries. During these stages, processes of translation, the reworking of scientific heritage, the independence of disciplines, and theoretical inquiry emerged through the activity of such scholars as al-Khwārizmī, al-Farghānī, Ḥunayn ibn Isḥāq, al-Kindī, al-Fārābī, al-Bīrūnī, Ibn Sīnā, Ibn al-Haytham, and ʿUmar Khayyām in centers such as Baghdad, Bukhara, Samarqand, Khwarazm, Rayy, Isfahan, Nishapur, and Marv.

In the Muslim West Renaissance, by contrast, scientific flourishing took shape relatively later. In this milieu, the stage of formation occurred in the late 9th–10th centuries through the reception of the scientific heritage created in the East and its adaptation to the Andalusian-Maghribi environment. The stage of specialization

manifested itself in the late 10th–11th centuries through the development of medicine, astronomy, philosophy, geography, and literary-educational knowledge in Córdoba, Toledo, Seville, and Zaragoza in accordance with local scholarly traditions. The stage of critical inquiry became visible in the 12th century through the activity of such scholars as al-Zarqālī, Jābir ibn Aflaḥ, Ibn Bājja, Ibn Ṭufayl, Ibn Rushd, and al-Idrīsī, particularly in the forms of critical commentary, astronomical correction, philosophical debate, cartographic synthesis, and transmission to the Latin West. Thus, in the Muslim West Renaissance, the stage of critical inquiry was distinguished not only by the creation of fundamental theoretical systems, as in the East, but also by the critical reworking of existing scholarly heritage, its enrichment through practical experience, and its transmission to European science.

From this perspective, analyzing the First Renaissance as consisting of two geographical components – the Muslim East Renaissance and the Muslim West Renaissance – makes it possible to reveal more precisely its polycentric and intercivilizational nature. In historiography to date, the Muslim East Renaissance – Baghdad, Khorasan, Mā warāʾ al-nahr, Khwarazm, and the activity of the great scholars associated with these regions – has been studied extensively. The Muslim West Renaissance, however, has often been examined within the framework of Andalusian history, Arabic-Latin translations, individual scholars, or the question of influence on Europe, but has not yet been sufficiently studied in a comprehensive manner as a constitutive and independent geographical-scientific component of the First Renaissance. Therefore, in order to understand the First Renaissance fully, it is necessary to analyze the Muslim East Renaissance and the Muslim West Renaissance comparatively as two major scholarly and cultural spaces that were interconnected, but whose stages of formation, specialization, and critical inquiry unfolded in different ways.

**CONCLUSION**

The foregoing analysis demonstrates that interpreting the scientific and cultural flourishing that took place in the Muslim world during the 9th–12th centuries merely as a general cultural revival, an intellectual activity supported by a particular dynasty, or a local development confined to a single region does not fully reveal its actual historical essence. During this period, Greek, Indian, Iranian, Syriac, and local scholarly traditions were reworked within a common Arabic scientific milieu; qualitatively new theoretical results emerged within the system of sciences; and this intellectual heritage subsequently influenced the development of European sciences through the Latin West. In this respect, the First Renaissance of the 9th–12th centuries should be regarded as one of the earliest major scientific Renaissances in human history to acquire an intercivilizational scale. Although certain cultural revivals or subregional intellectual awakenings

had occurred in some regions before this period, they did not reach the level of the First Renaissance in terms of the scope of the sciences involved, theoretical achievements, intercivilizational exchange of knowledge, and subsequent impact on world science.

One of the principal methodological approaches advanced in this article is the necessity of moving beyond explanations that associate the First Renaissance with a single center. To interpret it solely through Baghdad, Central Asia, Iran, or the Arabic scholarly milieu represents a one-sided approach from the standpoint of academic historiography. In particular, recent interpretations sometimes tend to explain the First Renaissance only within the boundaries of national history, presenting it exclusively as the result of the activity of scholars directly connected with Turan, Turkestan, or the history of Uzbek statehood. Such an approach may have a certain significance from the perspective of national historical memory and spiritual-ideological needs. However, when assessed according to the criteria of academic historiography, interpreting the First Renaissance as the product of only one people, one region, or one political-cultural tradition narrows its intercivilizational essence. Indeed, the scientific flourishing of the $9^{th}$–$12^{th}$ centuries was a polycentric scholarly process that emerged from the common Arabic scientific environment, the close interconnections among the scholarly centers of Central Asia, Khorasan, Iran, Iraq, Syria, al-Andalus, and the Maghrib, as well as the reworking of Greek, Indian, Iranian, Syriac, and local scientific traditions. Therefore, while acknowledging the exceptional role of Central Asian scholars in the First Renaissance, this phenomenon should not be subordinated solely to the interests of national history, but should be examined within the broader context of the Muslim world and the global history of science.

The First Renaissance was a polycentric, internally complex, and intercivilizational scientific-cultural process, whose geographical composition is manifested through the Muslim East Renaissance and the Muslim West Renaissance. The Muslim East Renaissance developed in such centers as Baghdad, Khwarazm, Bukhara, Samarqand, Rayy, Isfahan, Nishapur, and Marv, and was distinguished by the translation movement, theoretical systematization, the development of fundamental sciences, and the formation of scientific methodology. The Muslim West Renaissance, through such centers as Qayrawan, Córdoba, Toledo, Seville, Zaragoza, Granada, and the Maghrib, performed the function of receiving the scholarly heritage formed in the Muslim East, reworking it under local conditions, enriching it through practical experience, and transmitting it to the Latin West.

From the perspective of periodization, the First Renaissance should not be interpreted as a uniform and homogeneous “Golden Age,” but rather as a complex historical-scientific process with its own internal dynamics of development. In the

Muslim East Renaissance, the stage of formation in the late 8th–9th centuries was connected with the collection and translation of scientific heritage and the creation of conceptual and terminological foundations. In the 10th century, the stage of specialization emerged, during which independent scientific problems, traditions of authorship, and scholarly schools took shape in mathematics, astronomy, medicine, philosophy, geography, and other fields. In the 11th–12th centuries, the stage of critical inquiry and theoretical maturity developed, as observation, experiment, critical analysis, comparative method, and theoretical generalization reached a high level in the works of major thinkers. In the Muslim West Renaissance, these stages appeared relatively later: the stage of formation in the late 9th–10th centuries was expressed through the reception and localization of the scientific heritage of the Muslim East; the stage of specialization in the late 10th–11th centuries through the differentiation of sciences in the intellectual milieus of Córdoba, Toledo, Seville, and Zaragoza; and the stage of critical inquiry in the 12th century through critical commentary, astronomical correction, philosophical debate, cartographic synthesis, and the transmission of scientific knowledge to the Latin West.

Classifying Renaissance phenomena according to their essence and scale into intercivilizational, macroregional, and subregional types also serves as an important methodological criterion for determining the historical position of the First Renaissance. The Carolingian, Ottonian, Macedonian, and Palaeologan Renaissances may be evaluated as subregional cultural revivals that unfolded within the framework of a particular court, church, empire, or elite milieu. The Timurid Renaissance, by contrast, represents a macroregional flourishing that encompassed the cultural space of Samarqand, Herat, Shiraz, Mashhad, and Mā warāʾ al-nahr – Khorasan. The First Renaissance, however, occupies a distinct place as an intercivilizational Renaissance that connected the scientific heritage of several civilizations, transformed it into a new system of theoretical knowledge, and influenced the subsequent development of the global history of science.

It should be emphasized that this article has analyzed the periodization of the First Renaissance primarily from the perspective of the history of science and has proposed its methodological model. However, in order to fully understand this broad historical process of the 9th–12th centuries, it is necessary to study it not only within the framework of scientific development, but also in connection with political systems of governance, social structure, urban culture, economic relations, institutions of patronage, and the history of cultural contacts. In this respect, the comprehensive study of the First Renaissance requires future specialized research aimed at revealing not only its significance in the history of science, but also its political, social, and economic foundations.

## Adabiy va tarixiy manbalarda
# Badri Chochiy hayotiga oid ma’lumotlar

***FAZLIDDIN MAHMADRAJABOV***
*Tayanch doktorant, TDSHU*
*ORCID: 0000-0002-8904-7491*

***Annotatsiya:*** *Sharq mumtoz adabiyoti, aynan fors mumtoz adabiyoti haqida so‘z borganda, bunga bevosita aloqador ko‘plab ko‘zga ko‘ringan adiblarning nomlarini keltirishimiz mumkin. Ularning fors tilida qilgan ijodi va yaratgan nodir asarlari fors mumtoz adabiyotini boyitish bilan birga, bu sohaning yanada takomiliga ham sabab bo‘lgan.*

*Shu kungacha ko‘plab bu soha vakillarining hayoti va ijodi tadqiq etilgan va bugungi kun adabiy jamoa ixtiyoriga havola qilingan. Lekin hali hanuz hayoti va ijodi bo‘yicha tadqiqot amalga oshirish zarurati bo‘lgan ijodkorlar kam emas. Ana shu zaruratdan kelib chiqib, asli Toshkentda tavallud topgan Badri Chochiy va uning “Chochiy devoni”ni tadqiq etishga qaror qildik.*

*Ushbu maqolada, shu paytgacha yaratilgan adabiy va tarixiy manbalarda Badri Chochiyning hayoti, ijodiy faoliyati, nom-u nasabi, tug‘ilib o‘sgan joyi, taxallusi, Hindistonga safari, yoshi, vafoti, Badri Chochiy shaxsiyati hamda shu taxallus bilan ijod qilgan boshqa adiblar bilan adashtirilgani bo‘yicha ma’lumotlar, shuningdek, u yaratgan “Chochiy devoni”ning tarkibi va o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi fikr va mulohazalar tahlilga tortilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Badr, Badri Chochiy, “Faxruzzamon”, “Chochiy devoni”, Muhammad Tug‘luq, “davlatshoh” yili, tazkira.*

***Аннотация:*** *Когда речь идет о классической восточной литературе, в особенности о классической персидской литературе, можно упомянуть множество выдающихся писателей, которые были напрямую связаны с этой областью. Их творчество и уникальные произведения на персидском языке не только обогатили классическую персидскую литературу, но и способствовали её дальнейшему развитию.*

*На сегодняшний день жизнь и творчество многих деятелей этой области были исследованы и представлены современному литературному сообществу. Однако все еще остаётся немало писателей, чья жизнь и творчество требуют дальнейшего изучения. В соответствии с этой необходимостью, мы решили исследовать Бадри Чочия, родом из Ташкента, и его «Дивана Чочи».*

*В данной статье на основе созданных до сегодняшнего дня литературных и исторических источников анализируется информация о жизни Бадри Чочия, его литературной деятельности, происхождении, месте рождения, псевдониме, поездке в Индию, возрасте, смерти, а также его личные качества и случаи, когда его путали с другими писателями под тем же псевдонимом. Кроме того, здесь*

*приводятся мысли и размышления о составе и уникальных особенностях «Дивана Чочи».*

***Ключевые слова:*** *Бадр, Бадри Чачи, «Фахруззамон», «Дивана Чочи», Мухаммад Туглук, год «давлатшох», тазкира.*

***Abstract:*** *When discussing classical Eastern literature, especially Persian classical literature, we can mention the names of many prominent writers directly connected to this field. Their works and unique creations in Persian not only enriched classical Persian literature but also contributed to its further development.*

*To this day, the lives and works of many figures in this field have been studied and made available to today's literary community. However, there are still many writers whose lives and works require further research. Based on this necessity, we decided to study Badri Chochiy, originally from Tashkent, and his "Divan Chochiy".*

*This article analyzes information about Badri Chochiy's life, literary activity, lineage, birthplace, pen name, journey to India, age, death, his personal character, and cases where he has been confused with other writers using the same pen name, as well as thoughts and reflections on the composition and unique features of the "Divan Chochiy", based on literary and historical sources created thus far.*

***Key words:*** *Badr, Badri Chochiy, "Fakhruzzaman", "Divan Chochiy", Muhammad Tughluq, year of "davlatshah", tazkira.*

Movarounnahr zaminida sharq adabiyoti xazinasining boyishiga xizmat qilgan ko‘plab adiblar yetishib chiqqan. Aksariyati shu zaminda qolib ijod qilishgan bo‘lsa, ba’zilari ma’lum bir sabablarga ko‘ra o‘z yurtlarini tashlab boshqa o‘lkalarga ketishgan va o‘sha yerda faoliyat yuritganlar. Ana shunday shoirlardan biri Badri Chochiy hisoblanadi.

Badri Chochiy hijriy qamariy VIII asr (milodiy XIV asr) shoirlaridan bo‘lib, Chochiy nomidan ma’lum bo‘ladiki, tug‘ilib voyaga yetgan joyi Choch, bugungi Toshkent shahri bo‘lgan. Choch hozirgi Toshkent shahrining qadimgi nomidir. Hozirda Badri Chochiyning tug‘ilib o‘sgan joyidagi hayoti va tahsiloti haqida hech qanday ma’lumot yo‘q.

Tazkiralar va tarix kitoblarida kelgan Badri Chochiyning nom-u nasabi va hayoti haqidagi ma’lumotlar juda ham kam. Uning ismi "صحف ابراهیم و مجمع الفصحا" (Suhufi Ibrohim va majmaulfusaho) tazkirasida “Badriddin Chochiy”, "عرفات العاشقین" (Arafotuloshiqin)da “Badriddin Shoshi” (“shosh”, “choch”ning arabcha ko‘rinishi), "منتخب التواریخ و هفت اقلیم" (Muntaxabuttavorix va Haft iqlim)da “Badri Shoshi”, "سفینهٔ خوشگو" (Safinai xushgu)da “Badri Choch”, "حسینی" (Husayniy) tazkirasida “Badriddin Choch”, "روز روشن" (Ro‘zi ravshan) tazkirasi va "مخزن الغرائب" (Maxzanulg‘aroib)da “Badriddin Toshkandiy” shaklida kelgan.

Badr she’rlarida o‘z nomini “Badr”, “Chochiy”, “Badri Chochiy” va “Badri Shoshiy” tarzida keltirgan. “Badri Shoshiy” shaklini siz faqat devon

qo‘lyozmasining hoshiyalar (ilovalar, qo‘shimchalar) qismida uchratasiz, deb ta’kidlaydi Gitifuruz[1].

Biz o‘z tadqiqotimizda “Badr” va “Badri Chochiy” nomlaridan foydalandik:

شاد باش ای **بدر** کز فضل اله و بذل شاه
محنت دوران گذشت و نوبت احسان رسید.

*Šād bāš ey **Badr** k-az fazlulloh-o bazl-e šāh*
*Mehnat-e dourān gozašt-o noubat-e ehsān rasid.*

“Ollohning fazli va shohning saxovatidan shod bo‘l ey **Badr**, mehnat vaqti o‘tdi va ehson navbati yetdi”.

**بدر چاچی** چه کنی بزم خواقین جهان
مجلس آن به که در او مائده دین سازی.

***Badr-e Čāči** če koni bazm-e xāγin-e jahān*
*Majles-e ān beh ke dar u moede-ye din sāzi.*

“**Badri Chochiy**, jahon xoqonlarining bazmida nima qilasan, (undan ko‘ra) din dasturxonini tuzsa bo‘ladigan majlislar yaxshi”.

**چاچی** که لفظ او شکرافشانتر از من است
در باغ مدح طوطی نغمه سرای ماست

***Čāči** ke lafz-e u šekkar afšāntar az man ast*
*Dar bāγ-e madh tuti naγme saro-ye most.*

“mendanda lafzi shakarli bo‘lgan **Badr**, madh bog‘ida to‘ti bizning kuychimiz”

من سرگشته و زلف تو و شبهای دراز
**بدر شاشی** و ثنای شه و الهام سروش.

*Man-e sargašte-o zolf-e to-o šab hā-ye derāz*
***Badr-e šaši**-o sanā-ye šah-o elhām-e soruš.*

“men sargashta-yu, sening zulfing-u, uzun tunlar, **Badri Shoshiy**-u, shoh madhi-yu, kuylash ilhomi”.

Badri Chochiy shoh Muhammad Tug‘luq xizmatida bo‘lgan va shoh unga “faxruzzamon” (faxri zamon) laqabini bergan. Badri Chochiy ham o‘z she’rlarida bir necha o‘rinlarda bu laqabga ishora qilgan:

سلطان سلاطین جهان شاه محمد
کامروز کمین بندهٔ او **فخر الزّمان** است

*Soltān-e salātin-e jahān šāh Mohammad*
*k-emruz kamin bande-ye u ***faxruzzamān** ast*

“Jahon sultonlarining sultoni, Shoh Muhammad, bugun uning….

بر این در **بدر چاچی** را سخن شیرین غلامی دان
اگرچه خسرو عالم کند **فخرالزّمان** نامش.

*Bar in dar ***badri čāči** rā soxan širin-e γolāmi dān,*
*Agarče xosrav-e ālam konad ***faxruzzamān** nomaš.*

[1] دکتر علی محمد گیتی فروز. دیوان بدر چاچی. تهران، 1387. ص. 18.

“Bu yo‘lda Badri Chochiyni bir shirinsuxan qul deb bil, garchi xusravi olam (podshoh) nomini faxruzzamon qo‘ygan bo‘lsa ham.

So‘ngi paytdagi ba’zi manbalarda uning nomini “Muhammad” deb yozishgan[1]. Masalan, Zabihulloh Safo “Eronda adabiyot tarixi” kitobida uning nomini “Faxrizzamon Badriddin Muhammad Chochiy” shaklida keltirgan. Lekin mavjud tazkiralarda bu nomga hech qanday ishorani uchratmaymiz. Badri Chochiy madh qilgan shaxsning nomi Muhammad bo‘lgan. Agar Badri Chochiyning nomi ham Muhammad bo‘lganda, ochiq-oydin yoki kinoya tarzida bu mavzuga ishora qilgan bo‘lardi. Chunki bu hamnomlik, madhlanuvchiga yaqinlashish uchun yaxshi vosita hisoblanadi[2].

"كاشف الاسرار" (Koshiful Asror) muallifi G‘iyosiddin Rompuriy Badri Chochiy devonidagi bir muammoli baytdan “Muhammad” nomini keltirib chiqargan va uni madhlanuvchi nomiga ishora sifatida ko‘rsatgan. Ba’zilar ehtimoldan uzoq bo‘lsada, bu nomni Badri Chochiy nomiga aloqador deb ko‘rsatishlari mumkin. Lekin, o‘sha muammoli bayt devonning qo‘shimchalar qismida kelgan va uni aynan Badrga tegishli ekanligi qat’iy emas.

"خلاصه الاشعار" (Xulosat ul Ash’or) tazkirasida uning nomi “Badriddin Shoshiy Shervoniy” shaklida kelgan. Hattoki bu nom ostida ko‘rsatilgan she’rlar Badri Chochiy devonining nusxalarida ham mavjud. Lekin, Badri Chochiyning Shervonga hech qanday aloqasi yo‘q. Bu holatni, ba’zi tazkiranavislar tomonidan Badri Chochiyning hijriy qamariy IX asr (milodiy XV asr) shoiri Badri Shervoniy bilan adashtirilgani orqali izohlash mumkin. Keyingi sahifalarda bu haqida kengroq to‘xtalamiz.

Badri Chochiy Movarounnahrda tug‘ilib yashagan davr aynan mo‘g‘ullar istilosidan keyingi davr edi. Mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng xalq orasida bo‘lgan tartibsizliklar, ko‘pchilikning tinchroq joy topish ilinjida o‘z vatanlaridan ko‘chib ketishiga sababchi bo‘ldi. U davrlarda Hindiston Movarounnahrga nisbatan tinchroq va xavfsizroq bo‘lganligi uchun, shuningdek, Hindistonning o‘sha paytdagi podshohi Muhammad Tug‘luq (Badr madhlovchisi) muhojirlarni yaxshi kutib olib, ularga yaxshi munosabatda bo‘lganligi uchun aksariyat Hindistonga safar qiladi. Ibn Batutaning aytishicha, Muhammad Tug‘luqning xorijliklarga ihtiromi shu darajada bo‘lganki, ularga “g‘arib” (begona) deb emas, balki “aziz” deb murojaat qilishlarini buyurgan[3].

Tug‘luq xonadonining ilm-fanga bo‘lgan yaxshi munosabati shoirlar, yozuvchilar, olimlar va hunarmandlarni Hindistonga safar qilishga undadi. "تاريخ فرشته" (Tarixi farishta) muallifining ta’biri bilan aytganda: “uning podshohligi davrida hayoti izdan chiqqan barcha ilm-ma’rifat ahli mehr va rahm-

[1] تاریخ ادبیات در ایران، ج 3، بخش دوم، ص 852؛ تاریخ تفکر اسلامی در هند، ص 108.
[2] تاریخ ادبیات در ایران، ج 3، بخش دوم، ص 852.
[3] سفرنامۀ ابن بطوطه، ج 2، ص 83.

shafqat umidida Iroq, Xuroson, Movarounnahr, Rim va Arabistondan Hindistonga kelardi. O‘zlari tasavvur qilgandan ham ko‘proq yaxshi munosbatlarni ko‘rishardi”[1].

G‘iyosiddin Rompuriy "كاشف الاسرار" (Koshif ul Asror) muqaddimasida shunday deydi: Badr hijriy qamariy 733-yilda (milodiy 1332/3-yil) Choch shahridan Dehli dorulxalifaligiga kirdi va Sulton Muhammadshoh bin Tug‘luq mulozimi bo‘ldi.

"اردو دایره معارف اسلامیه" (Urducha islomiy maorif doirasi)da: “Badr o‘z vatanini tark etgandan so‘ng Eronga bordi. Chingizxon nabirasi Hulaguxon avlodlari davrida u yerni ham tark etdi va Hindistonga jo‘nab ketdi.”[2] deb ko‘rsatilgan. Lekin, Badri Chochiy devonida Eronga safar haqida hech qanday ishora yo‘q. "حسینی" (Husayniy) tazkirasida ham Badr o‘z vatanidan Hindistonga borganligi ta’kidlanadi. Badri Chochiyning bu bayti ham uning Movarounnahrdan Hindistonga borganligini ko‘rsatadi[3]:

به کردگار که ارواح ماوراءالنهر
مرا به خسرو عالم به بندگی دادند

*Be kardegār ke arvoh-e Māvarounnahr*
*Marā be xosrov-e ālam be bandegi dād*

“Xudo haqqi, Movarounnahr arvohi meni olam podshosiga bandalik uchun berdi.”

Zabihulloh Safo ham Badr yoshlik paytidayoq Hinsdistonga ketadi va Tug‘luqiy amirlar saltanat ishlariga, xususan hijriy qamariy 725-752-yillarda (milodiy 1325-1351) hukmronlik qilgan Sulton Abu Homid Muhammadshoh bin Tug‘luq xizmatiga kirishadi deb ko‘rsatgan[4]. Badr Tug‘luqiy amirlarni “Oli Bahrom” deb ataydi:

قبه چتر سیاه آل بهرام این زمان
بر سر دیوان هفتم طارم کیوان رسید

γubbe-ye čatr-e siyāh-e āl-e Bahrām in zaman
bar sar-e divan-e haftom tārom-e keyvān rasid.

Bilamizki, Muhammad bin Tug‘luq qudratli podshohlardan bo‘lgan, Dehli Mamluklar davlati uchun yon-atrofdan yuzaga kelgan ko‘plab muammolarni uzoq davom etgan janglar bilan bartaraf etadi. Bu bilan Dehli musulmonlari davlati tasarrufidagi keng hududlarni saqlab qoldi. U davlatning janubiy hududlarini

[1] تاریخ فرشته، 236.
[2] اردو دایره معارف اسلامیه، ج 4، ص 159.
[3] دکتر علی محمد گیتی فروز. دیوان بدر چاچی. تهران، 1387. ص. 19.
[4] تاریخ ادبیات در ایران، ج 3، بخش دوم، ص 852

yaxshiroq idora qila olish maqsadida davlat poytaxtini Markaziy viloyatdagi Devgiri qal’asiga ko‘chirdi va u yerni Davlatobod deb nomladi[1].

Aynan Muhammad bin Tug‘luq hind islomiy hukumatini mustahkamlash uchun Abbosiylar davlatining Bog‘doddagi zavolidan keyin Misr Mamluklari himoyasi ostida Abbosiylar xalifaligini o‘sha diyorda davom ettirib kelayotgan Misrdagi Abbosiy xalifalar tomon do‘stlik qo‘lini cho‘zdi. Dastlab, hijriy qamariy 701-740-yillarda (milodiy 1302-1339) xalifalik qilgan Abu al-Rabi’ Sulaymon bin Ahmad bin Hasan (laqabi Al-Mustakfi) bilan bay’at qiladi.

ابوالربیع سلیمان خلیفه برحق
که آستان درش آفتاب عز و علامست

امام امت احمد که خسرو هندش
بجان غلام و بدل چاکرو بتن مولاست

ابوالحامد غازی محمد تغلق
که هندوی دراوصد چو پادشاه خطاست

Keyinchalik, Xalifa vafotidan so‘ng uning vorisi, hijriy qamariy 740-753-yillarda (milodiy 1339-1352) hukronlik qilgan Abu al-Abbos Ahmad (laqabi Al-Hakim) bilan qayta bay’at qiladi.

شاه دین احمد ابوالعباس امیرالمومنین
آنکه آل و دوده عباس را سردفترست

آنکه از جان بیعت فرمان او بر دل نوشت
پادشاه شرق و غرب و حاکم بحروبراست

ابوالحامد ظل حق سلطان محمد کز شرف
دود شمع بزم او شمع رواق احضراست

Bu bay’atlar Muhammad bin Tug‘luq umrining oxirigacha ustuvor va barqaror qoldi. Shuning uchun ham u o‘zini xalifaning valiahdi va Amir ul mo‘mininning do‘sti deb bilardi. Shu tariqa, o‘z hukumatini hind musulmonlari oldida shariatga muvofiq va qonuniy deb ko‘rsatardi.

ولی عهد خلیفه محمد تغلق
خدایگان سلاطین جم جمهور

مولی امیرالمومنین سلطان عالم شاه دین
بلک آفتاب مهر و کین روح الملایک چاکرش

[1] Devgiri qal’asi va Davlatobod shahri xarobalari hozirgi Urangobod yaqinida saqlangan.

مولی امیرالمومنین سلطان محمد شاه دین
هم برده آب آبتین هم فردا را ریخته

Bay’at, xalifaning bayrog‘i va hujjatini o‘zining qalqoni deb bilardi. Badrning she’rlarida bu ma’no boshqa shunga o‘xshash xabarlar singari bir necha marta kuzatiladi.

دوش آن زمان که خسرو زرین قبای خور
در می کشید خلعت عباسیان ببر

Boshqa bir qasidada:

چون از خلیفه شاه را منشور آمد با لوا
شد بازنور والضحی بر فرق طاها ریخته

Yuqorida aytilganidek, tazkiralarda Badri Chochiy hayoti va mazhabi haqida yetarli ma’lumotlar yo‘q. Ammo, she’rlaridan uning sunniylik mazhabida bo‘lganligini aytishimiz mumkin:

شاه محمد آن ولیعهد خلیفهٔ زمان
کو چو امام چارمین شهر علوم را در است.

*Šāh Mohammad ān valiahd-e xalife-ye zaman*
*Kuču emām-e čāromin šahr-e olum rā dar ast.*

“O‘sha zamon xalifasining valiahdi Shoh Muhammad, xuddi to‘rtinchi imom(xalifa)dek ilm eshigidir.”[1]

Badri Chochiy shoh oldida o‘ziga xos maqomga ega bo‘lgan. Shoh uni o‘z dasturxoniga chaqirgan, unga gulob suvini bergan. Badr jarohat olgan paytda uning uchun xayr duosini qilgan.

بنده را شاه بر سر خوان خواند
آنکه اصلش ز نسل جمشیدست

*Bande rā šāh bar sar-e xān xānd*
*Ānke aslaš zi nasl-e Jamšid ast.*

“Asli Jamshid naslidan bo‘lgan shoh, kaminani o‘z dasturxoniga chorladi”.

گفتمش کاحتمال بیماری است
گفت در صحت تو امید است

*Goftamaš k-ehtemāl-e bimārist*
*Goft dar sehhat-e to omid ast.*

“unga dedim: menda kasallik ehtimoli bor, dedi: sening sog‘ayishinga umid bor”.

شاید اگر از کمین کم رسدش دردسر
بدر چو از مهر شاه یافت فقاع گلاب

*Šāyad agar az kamin kam rasadaš dardesar*
*Badrču az mehr-e šāh yāft fuγγā’-e golāb.*

[1] *Izoh:* Hazrat Ali ibn Abu Tolib, sunniylar uchun to‘rtinchi imom (xalifa) hisoblansa, shialar uchun birinchi imomdir.

“balki agar kaminadan unga kam tashvish yetsa, Badr shoh mehridan gulob suviga ega bo‘lar”.

دعاش کرد شهنشه به حق که جان بخشش
شفاش ده که مرا بنده ای بسامان است

*Doāš kard šahanšah be haγγ ke jān baxšaš*
*Šafāš deh ke marā bande-iy besāmān ast.*

“shahanshoh xudodan unga jon berishini so‘rab duo qildi: unga shifo bergin, u mening tartib-intizomli xodimlarimdandir”.

Badri Chochiy devonidagi qasidalardan birida [1] Badrning Jamoli Malih hamrohligida Muhammad Tug‘luq tomonidan Qutlug‘xon saroyiga elchi sifatida yuborilgani hikoya qilinadi.

خطاب کرد که ای بدر با جمال ملیح
به نیک روز روان شو چو رستم دستان

*Xatāb kard ke ey Badr bā Jamāl-e Malih*
*Be nikruz ravān šou ču rostam-e dastan.*

“Xitob qildi: Ey Badr, Jamoli Malih bilan birga xuddi Rustami dastondek Nekro‘z tomon ravona bo‘l”.

Badr o‘z she’rlarining ba’zilarida o‘zining Devgiri (Davlatobod) qal’asidagi hukumat ishi haqida kuylagan va uning vaqtini 745 yilning (milodiy 1344/5) sha’bon oyida bo‘lganligini aytib o‘tgan.

به سال "دولت شه" بود غرۀ شعبان
که سوی مملکت دیوگیر شد فرمان

*Be sāl-e “doulatšah” bud γarre-ye ša’bān*
*Ke su-ye mamlekat-e Devgiri šod farmān*

“Davlatshoh [2] yili Sha’bon oyining boshida, Devgiri mamlakati tomon borishga farmon bo‘ldi”.

Badri Chochiyning alohida siyosiy mansabi ham bo‘lgan. Devonidagi qasidalaridan birida dushmanlar va siyosiy raqiblar tuhmatidan shikoyat qiladi:

عدو به حضرت خورشید دین حکایت کرد
که بدر وقت حکومت دیانتی ننمود

*Adu be hazrat-e xoršid-e din hekāyat kard*
*Ke Badr vaγt-e hokumat diyānati nanamud.*

“Dushman din quyoshi hazrat (shoh Muhammad) ga Badr hukumat vaqtida diyonat qilmadi deb aytdi.”

Ushbu bayt qo‘shimchalar qismida kelgan qasidadan olingan. Lekin, uslubshunoslik jihatidan bu bayt aslida mavjud bo‘lganidan dalolat beradi[3].

[1] Ali Muhammad Gitifuruzning “Badri Chochiy devoni”da 46 qasida.
[2] Bunda “**دولت شه**” 745 ga tengdir.
[3] دکتر علی محمد گیتی فروز. دیوان بدر چاچی. تهران، 1387. ص. 20.

Ba’zi she’rlarida esa Badrning imom, muftiy va mudarris bo‘lganiga ham ishoralar mavjud. Boshqa bir o‘rinlarda o‘zini minbarda turib gadoylik qilishga majbur bo‘lgan bechora voiz deb atagan:

بخت امامت من از تخت تو سرافراز شد
نام مرا چه گردد ار بندۀ تاجور نهی

*Baxt-e emāmat-e man az taxt-e to sarafrāz šod*
*Nām-e marā če gardad ar bande-ye tājvar nehi*

“Mening imomlik baxtim sening podshohligingdan sarafroz bo‘ldi, agar mening nomimni tojdor qo‘ysang nima bo‘ladi”

به شعر و به تدریس و تذکیر و فتوا
چه بود از جلالت که من آن ندیدم

*Be še’r-o be tadris-o tazkir-o fatvā*
*Če buvad az jalālat ke man ān nadidam*

“she’r, dars, mav’iza va fatvo bilan sening ulug‘vorliging nim bo’ladi, men uni ko‘rmaganman”

ز جود توست که جز من نماند در عالم
مذکّری که کند بر سر منابر دَق

*Zi jud-e tost ke joz man namānad dar ālam*
*Mozakkari ke konad bar sar-e manāber day*

“sening saxovatingdan olamda mendan boshqa voiz qolmaski minbarlarda gadolik qilsa”.

Shuningdek, Badri Chochiy qasidalaridan birida o‘zining haj safariga borish istagi haqida gapirgan. "خلاصه الاشعار" (Xulosat ul Ash’or) muallifi ham Badri Chochiy bilan Badri Shervoniyni adashtirgan bo‘lsada, Badrning oltmish yoshligidan keyin ikki muborak haram ziyorati uchun safari haqida xabar bergan:

گرچه بدی کرده ام رو به حق آورده ام
نیّت حجّ کرده ام گر ببرد کردگار

*Garče badi kardeam ru be hay āvordeam*
*Niyyat-e hajj kardeam gar bebarad kardegār.*

“Garchi yomonlik qilgan bo‘lsamda haq tomonga yuzlanganman, agar xudo xohlab oborsa, hajga borishni niyat qilganman”

Yuqorida aytilganidek, ba’zi tazkiralarda Badri Chochiy hayoti va ijodiy faoliyati Badri Jojarmiy (hijriy qamariy 686-yilda (milodiy 1287-yilda) vafot etgan) va Badri Shervoniy (hijriy qamariy IX asr (milodiy XV asr) shoiri) bilan adashtirilgan.

"سفینۀ خوشگو" (Safinai xushgo‘)da quyidagicha kelgan: “Garchi Davlatshoh uni Jomdan va Majididdin Hamgar Forsiy shogirdi deb yozgan bo‘lsa ham, tadqiqotlar uning Jojarmdan ekanligini ko‘rsatadi”. Bu ma’lumotdan so‘ng Jojarmiyning Xoja Shamsiddin Sohibi devon uchun yozilgan ruboiysini va Xoja

Shamsiddinning bu ruboiyga javob tarzida yozilgan ruboiysini keltiradi[1]. Ammo so‘zining so‘ngida uning vafotini Hindistonda, Muhammad Tug‘luq xizmatida bo‘lgan paytda deb yozgan va Badri Chochiyning ba’zi she’rlarini keltirgan. Og‘abuzurg Tehroniy “Safinai xushgo‘” muallifining Badri Chochiyni Badri Jojarmiy bilan adashtirganlik xatosini payqagan. "صحف ابراهیم و مجمع الفصحا" (Suhufi Ibrohim va majmaulfusaho) tazkirasida ham ba’zi tazkiranavislar Badri Chochiy va Badri Jojarmiyni bir inson sifatida bilishgani qayd etilgan.

“Mahzan ul-G‘aroyeb” tazkirasida ham Badri Chochiy haqida berilgan ma’lumotlar mutlaqo asossizdir. Chunki, unda ham Badri Chochiy bilan Badri Jojarmiy adashtirilgan. Shuning uchun, Badri Chochiy o‘sha tazkirada Majid Hamgar va maddoh Shamsiddin Sohibidevon Juvayniyning shogirdi deb ko‘rsatilgan[2].

Bu borada Zabihulloh Safo shunday deydi: Taqiuddin Koshining “Xulosat ul Ash’or” asarida keltirilgan “Mulla Badriddin Shoshiy Shervoniy” nomli mufassal sharhida bu shoir Badr taxallusiga ega bo‘lgan bir necha shoirlar bilan adashtirilgan. Bu nom ostida keltirilgan barcha she’rlar Badri Chochiyga tegishli ekanligiga qaramasdan, uning o‘zi birinchidan, asli Chochlik va Shamoxiyi Shervonda yashaydi deb ko‘rsatilgan, ikkinchidan Temuriylar davriga mansub deb qaralgan, va uchinchidan Kamol Xo‘jandiyning muridi hamda Mavlono Kotibiyning yaqinlaridan bo‘lgan deb sanalgan. Shu tariqa ba’zi tazkiralarda uning hayoti va ijodiy faoliyati haqidagi ma’lumotlar haqiqatdan uzoqlashgan[3].

Badri Chochiyning ko‘plab she’rlari izohli lug‘atlarda ham dalil sifatida keltirilgan va u she’rlar adashib Badri Jojarmiyga mansub deb ko‘rsatilgan. Bunga misol tariqasida 827, 931, 1014, 1046, 2126 baytlarda lug‘atlarda kelgan "بوره"، "پاغنده"، "لباچه"، "سقیم"، "طرفا" so‘zlarini keltirishimiz mumkin[4].

"خلاصه الاشعار" (Xulosat ul Ash’or) tazkirasida Badri Chochiyning vafoti uning haj ziyoratidan uch yil o‘tgach ro‘y berdi va Badrning bu haj safari oltmish yoshligidan keyin amalga oshirilgan deb ko‘rsatilgan. Ehtimol, vafot etgan payti Badr oltmish to‘rt yoshda bo‘lgan. Badri Chochiy devoniga sharh yozganlar ham bir muammo san’ati qo‘llangan baytdan bu she’r yozilgan vaqtda uning yoshi oltmish olti yosh yoki oltmish yosh-u to‘qqiz oy deb aniqlashgan.

این زمان شاه جهان فخر زمانم نام کرد
ربع و عشر از پنجه و چل رفت و شد با چار من

*In zaman šāh-e jahān faxr-e zamānam nām kard*
*Rabiun va ašrun az panje-o čel raft-o šod bā čār man*

[1] تاریخ ادبیات در ایران، ج 3، بخش دوم، ص 562.
[2] تاریخ ادبیات در ایران، ج 3، بخش دوم، ص 856.
[3] تاریخ ادبیات در ایران، ج 3، بخش دوم، ص 857.
[4] دکتر علی محمد گیتی فروز. دیوان بدر چاچی. تهران، 1387. ص. 21.

Ushbu yuqoridagi bayt faqat “Koshif ul Asror” va “Sharhi Usmonxoniy” nomli Badri Chochiy devoniga yozilgan sharhlarda kelgan xolos.

"منتخب اللطائف" (Muntaxab ul-latoyif) tazkirasida Badri Chochiy hijriy qamariy 741 yilda vafot etgan deb qayd qilingan. Lekin bu sana to‘g‘ri emas, chunki yuqorida aytilganidek Badr o‘z she’rlarida "دولت شه" so‘zida yashirilgan sanaga (745) ishora qiladi va bu uning hech bo‘lmaganda shu sanagacha tirik bo‘lganini anglatadi. "صحف ابراهیم و مجمع الفصحا" (Suhufi Ibrohim va majmaulfusaho) va "سفینۀ خوشگو" (Safinai xushgu) tazkiralarida Badr Sulton Muhammad Tug‘luq ximatida bo‘lgan paytda vafot etgan deb qayd qilingan. "جامع اللغات" (Jome’ ul-lug‘ot) muallifi Badr vafot etgan yil hijriy qamariy 745 yil deb ko‘rsatilgan[1]. Hind islomiy adabiyoti kitobida esa uning o‘limi h.q. 748 yilda deb qayd qilingan[2].

“Eronda adabiyot tarixi” muallifining ta’kidlashicha “Badrning vafot etgan yili shoh Muhammad bin Tug‘luq hayotining eng oxirgi yillari shu ikki 745 – 752 yillar oralig‘ida bo‘lgan.”[3] Yana bir o‘rinda Zabihulloh Safo Badrning vafot etgan yilini “Xulosat ul Ash’or” muallifining 854-yilni (milodiy 1450) qayta tuzatib 754-yilga (milodiy 1350) o‘zgartirganiga ishora qiladi va bunday tuzatish bo‘lganligi uchun Taqiuddin Koshining fikriga qo‘shilgan holda Badrning vafoti sanasi 754-yil (milodiy 1350) deb qayd qilingan ma’lumotni ma’qullaydi. Ammo, Badri Chochiy she’rlarida hech bir o‘rinda shoh Muhammad Tug‘luq vafotiga ishoralar yo‘qligi va undan keyingi shoh madhining mavjud emasligini hisobga olsak, Badr shoh Muhammad Tug‘luqdan oldin vafot etgan degan xulosaga kelish mumkin. Natijada, Badr vafotini hijriy qamariy 854-yil (milodiy 1450) va keying tuzatishlar bilan 754-yil (milodiy 1350) deb qayd qilgan "خلاصه الاشعار" (Xulosat ul-Ash’or) muallifining ma’lumoti haqiqatdan uzoqlashadi[4]. Aynan mana shu manbada Badrning o‘lim sababi epilepsiya va yuz falaji kasalligiga duchor bo‘lish deb ko‘rsatilgan. Ehtimol, "خلاصه الاشعار" (Xulosat ul-Ash’or) da kelgan ikkinchi sana Badri Shervoniy vafot etgan etgan yil bo‘lishi mukin. Chunki yuqorida aytilganidek, asar muallifi uni Badri Chochiy bilan adashtirgan.

Hozirga qadar ma’lum bo‘lgan Badri Chochiy haqida ma’lumot beruvchi manbalarda Badri Chochiy devonidagi baytlar soni “Arafotul oshiqin” va “Majmaul fusaho”da ikki ming bayt, “Xulosatul ash’or”da uch ming bayt, “Husayniy” tazkirasida taxminan olti ming bayt deb ko‘rsatilgan. Aksariyat qo‘lyozma nusxalari va Muhammad Ali Gitifuruzning “Badri Chochiy devoni”da baytlar soni ikki ming bir yuz baytdan ko‘roqni tashkil etadi. Bu son “Arafotul oshiqin” va “Majmaul fusaho”da kelgan songa yaqinroq keladi. Lekin, agar “Koshiful asror” va ba’zi bir tazkiralarda (ilovalar qismida) kelgan songa e’tibor

[1] اردو دایره معارف اسلامیه، ج 4، ص 160.
[2] ادبیات اسلامی هند، ص 29.
[3] تاریخ ادبیات در ایران، ج 3، بخش دوم، ص 855.
[4] دکتر علی محمد گیتی فروز. دیوان بدر چاچی. تهران، 1387. ص. 22.

qilsak, devondagi baytlar soni ikki ming sakkiz yuz o‘ttiz baytdan ko‘proqni tashkil etadi. Bu raqamni “Xulosatul ash’or”da kelgan raqam bilan taqqoslash mumkin. “Hind islomiy adabiyoti” kitobida Badri Chochiy devonidagi baytlar soni o‘ttiz ming bayt deya qayd qilingan va bu nusxa olishdagi xatolik bo‘lishi mimkin[1].

Devondagi baytlar soni bo‘yicha Zabihullo Safo shunday deydi: “Milliy kengash kutubxonasidagi nusxada devondagi baytlar soni 2100 bayt atrofida va Parij Milliy kutubxonasidagi nusxada 1800 baytdan ko‘proq. Shuningdek, Taqiuddin Koshi “Xulosat ul-ash’or” asarida keltirgan Badriddin Chochiyning she’rlari 500 baytdan oshmaydi. Hijriy qamariy 1308 yilda (milodiy 1891) Hindistonnning Konpur shahrida marhum Mavlavi Muhammad Hodi tomonidan nashrga tayyorlangan bu devon nusxasida baytlar soni Milliy kengash kutubxonasida saqlanayotgan nusxadagi baytlar soniga tengdir”[2].

“Muntaxab ut-tavorix” muallifi hajmi o‘ttiz ming baytdan ko‘p bo‘lgan Muhammad Tug‘luq nomiga yozilgan shohnomani Badri Chochiyga nisbat beradi. U shunday deydi: "همین که تاریخ منظوم است، غنیمت است" ya’ni “manzuma sanasi bor ekan, shuning o‘zi yetarli”. Bundan shuni aytish mumkinki, mazkur kitob Muhammad Tug‘luqning jang-u jadallari haqida bo‘lishi kerak.

Ba’zi bir so‘nggi tadqiqotchilar bunday shohnomaning mavjudligi haqida xabar berganlar. Blusha Parij Milliy kutubxonasi fors tilidagi qo‘lyozmalar katalogi Badri Chochiy devoniga yozgan sharhida [3] shunday degan: “Badri Chochiy podshoh Sulton Muhammad bin Tug‘luq madhida mutaqorib bahrida manzuma bitgan va uni 745-yilda (milodiy 1344/5) yozib tugatgan”. Fikrimizcha, Badri Chochiyning 745-yilda o‘z devonini tuzganligi haqidagi she’ri Blushani adashtirgan chog‘i, u baytlarni “shohnoma” uslubidagi maxsus manzumani tuzish haqida deb o‘ylagan. Lekin, aslida unday emas. Bizga ma’lum ma’lumotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, Badri Chochiyning mana shu mavjud devondan boshqa she’riy majmuasi yoki manzumasi bo‘lmagan[4].

Badri Chochiy o‘z devonini hijriy qamariy 745-yilda tuzib tartiblagan va buning belgisini quyidagicha bergan:

سال تاریخ عرب **"دولت شه"** بود به عقد
که آسمان عقد سخنهای مرا داد نظام

*Sāl-e tārix-e ‘arab-e **“doulat šah”** bud be aγd*
*Ke āsemān eγd-e soxan hā-ye marā dād nezām*

“Koinot mening gaplarimni tartiblagan vaqt arab yil hisobi “davlat shoh” edi (bu yerda “davlatshoh” abjad hisobi bo‘yicha 745 ga teng).”

---

[1] دکتر علی محمد گیتی فروز. دیوان بدر چاچی. تهران، 1387. ص. 23.

[2] تاریخ ادبیات در ایران، ج 3، بخش دوم، ص 856.

[3] Catalogue des manuscrits persans par E.Blochet, Vol. III, p. 205-207

[4] تاریخ ادبیات در ایران، ج 3، بخش دوم، ص 856.

O‘zida 745 sonini yashirgan “davlatshoh” so‘zi ishtirok etgan ikki baytda Badr hayoti va ijodiy faoliyati uchun juda muhim bo‘lgan ikki ma’lumot berilgan. Ya’ni har ikki hodisa bir yilda ro‘y bergan. Biri Badrning shu yili xizmat yuzasidan shoh Muhammad Tug‘luq farmoni bilan Devgiri qal’asiga (hozirgi Davlatobod) borgani bo‘lsa, ikkinchisi aynan shu yili Badr o‘z devonini tuzib bo‘lgan va tartiblagan. Qayd etish joizki, Badr she’rlarida man shu yilning sha’bon oyida Muhammad bin Tug‘luqning Abu al-Rabi’ Sulaymon bilan bay’atiga ham ishora qilgan.

# Vaqf hujjatlari sulolalar shajarasini o‘rganishda muhim tarixiy manba sifatida

***ANVAR SHOSAIDOV***
*O‘qituvchi, TDSHU*
*ORCID ID: 0009-0004-9738-8511*

***Annotatsiya:*** *Markaziy Osiyo tarixida mulkchilik munosabatlari va iqtisodiy hayotning asosiy institutlaridan biri bo‘lgan vaqf tizimi o‘zida nafaqat iqtisodiy, balki sulolaviy va oilaviy ma’lumotlarni ham saqlab qolgan. Maqolada vaqf hujjatlarining sulolalar shajarasini hamda lokal tarixni o‘rganishdagi manbashunoslik ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi vaqfnomalarda aks etgan shajaraviy ma’lumotlarni tahlil qilish va ular orqali ayrim xonadonlarning shajara silsilasini tiklash imkoniyatlarini ko‘rsatishdan iborat. Ishda O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxividagi «Vaqf hujjatlari kolleksiyasi» (I-323 fond) hamda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida saqlanayotgan manbalar tahlilga tortildi. Tadqiqot jarayonida manbashunoslik, matnshunoslik, diplomatika hamda tarixiy-qiyosiy usullardan foydalanildi. Natijada vaqf hujjatlarining turlari – bayi bot, bayi joyiz, xatti ijara, xatti iqror, xatti da’vo, hukm hamda rivoyat (fatvo) kabi hujjatlarning funksiyasi va mazmuni tasniflandi, shuningdek vaqfnomaning formulyari – qozi, voqif va mavquf alayhilarning vazifalari ko‘rib chiqildi. «Vaqfi avlod» ko‘rinishidagi mulklarda voqif o‘z avlodlariga vaqf daromadining ma’lum qismini vasiyat qilib qoldirgani va bunday vaqfnomalarda xonadon shajarasi batafsil qayd etilgani aniqlandi. Xususan, Sayyid Mahmud xoja Eshon xonadoniga oid vaqfnoma tahlili misolida xonadon ildizlarining tarixiy shaxslar orqali izohlanishi ko‘rsatib berildi. Tadqiqot vaqf hujjatlarini faqat manbashunoslik tahlili doirasida emas, balki ularda mujassam boy etnografik materiallar bilan birgalikda kompleks o‘rganish zarurligini asoslaydi. Shu bilan birga, IX–XX asr boshlariga mansub fors va arab tillaridagi ko‘plab vaqf hujjatlarining hanuzgacha ilmiy muomalaga kiritilmagani ushbu yo‘nalishdagi izlanishlarning dolzarbligini belgilaydi.***Kalit so‘zlar:*** *vaqf, vaqfnoma, shajara, sulola, manbashunoslik, qozilik hujjatlari, vaqfi avlod, mutavalli, lokal tarix, Markaziy Osiyo.*

***Abstract:*** *The waqf system, one of the principal institutions of property relations and economic life in the history of Central Asia, has preserved not only economic but also genealogical and family information. This article examines the source-study significance of waqf documents in researching the genealogy of dynasties and local history. The main aim of the study is to analyse the genealogical data reflected in waqf deeds and to demonstrate the possibilities of reconstructing the lineage of particular families on their basis. The work analyses materials from the "Collection of Waqf Documents" (fund I-323) of the National Archive of the Republic of Uzbekistan, as well as manuscripts held in the fund of the Abu Rayhan Beruni Institute of Oriental Studies. Source-study, textological, diplomatic and historical-comparative methods were applied. As a result, the functions and content of various types of waqf documents – bay'i bot, bay'i joyiz, khatti ijara, khatti iqror, khatti da'vo, hukm and rivoyat (fatwa) – were classified, and the formulary of the waqf deed, namely the roles of the qadi, the waqif and the mawquf 'alayh, was examined. It was established that in property of the "waqf-i awlad" type the founder (waqif) bequeathed a certain share of the waqf income to his descendants, and that such deeds recorded the family lineage in detail. In particular, through the analysis of a waqf deed belonging to the household of Sayyid Mahmud Khoja Eshon, it is shown how the roots of a lineage are traced through historical figures. The study substantiates the necessity of a comprehensive examination of waqf documents not only within source-study analysis but together with the rich ethnographic material they contain. At the same time, the fact that many Persian- and Arabic-language waqf documents from the 9th to the early 20th century have not yet been introduced into scholarly circulation determines the relevance of research in this direction*

***Key words:*** *waqf, waqf deed, genealogy, dynasty, source studies, qadi court documents, waqf-i awlad, mutawalli, local history, Central Asia.*

***Аннотация:*** *Система вакфа, являвшаяся одним из основных институтов отношений собственности и экономической жизни в истории сентралной Азии, сохранила в себе не толко экономические, но и генеалогические и семейные сведения. В стате раскрывается источниковедческое значение вакуфных документов в изучении генеалогии династий и локалной истории. Основная сел исследования – анализ генеалогических данных, отражённых в вакуфных грамотах, и демонстрасия возможностей реконструксии родословной отделных семей на их основе. В работе проанализированы материалы коллекции «Вакуфные документы» (фонд И-323) Насионалного архива Республики Узбекистан, а также рукописи, хранящиеся в фонде Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни. В протсессе исследования исползованы источниковедческий, текстологический, дипломатический и историко-сравнителный методы. В резултате классифитсированы функсии и содержание различных типов вакуфных документов – баи бот, баи джойиз, хатти иджара, хатти икрор, хатти даъво, хукм и ривоят (фетва), а также рассмотрен формуляр вакфной грамоты – функсии кази, вакифа и мавкуф алайхи. Установлено, что в собственности типа «вакфи авлад» учредител (вакиф) завещал своим потомкам определённую част дохода от вакфа, и в таких грамотах подробно фиксировалас родословная семи. В частности, на примере анализа вакуфной грамоты, относящейся к роду Саййида*

*Махмуда ходжи Эшона, показано, как корни рода объясняются через исторических личностей. Исследование обосновывает необходимост комплексного изучения вакуфных документов не толко в рамках источниковедческого анализа, но и в совокупности с содержащимся в них богатым этнографическим материалом. Вместе с тем, тот факт, что многие вакуфные документы ИХ – начала ХХ веков на персидском и арабском языках до сих пор не введены в научный оборот, определяет актуалност исследований в данном направлении..*

***Ключевые слова:*** *вакф, вакуфная грамота, генеалогия, династия, источниковедение, документы казийского суда, вакфи авлад, мутавалли, локалная история, сентралная Азия*

**KIRISH.** Markaziy Osiyo, umuman musulmon olami tarixida mulkchilik tizimi va iqtisodiy faoliyatning asosiy institutlaridan biri – bu vaqf institutidir. Vaqf deb diniy yoki xayriya muassasalari foydasiga mulkdor shaxs tomonidan muayyan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni ko‘zlab bag‘ishlangan mol-mulk tushuniladi. Ushbu institut arab xalifaligi shakllangan dastlabki davrdayoq yuzaga kelib, keyinchalik barcha musulmon davlatlarida keng tarqalgan va O‘zbekiston hududida sovet hokimiyati o‘rnatilgunga qadar o‘z kuchini saqlab qolgan[1].

Vaqf hujjatlari boshqa musulmon davlatlari iqtisodiy tarixida bo‘lgani kabi Markaziy Osiyo mintaqasi tarixini o‘rganishda ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Milliy arxivi hamda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan ushbu turdagi hujjatlar nafaqat mamlakat iqtisodiy hayoti, balki o‘zida sulolalar shajarasini saqlab qolganligi bilan ham ahamiyatlidir. Vaqfnoma – qozi muhri bilan tasdiqlangan rasmiy huquqiy hujjat bo‘lib, unda mulkning vaqfga aylantirilishi, undan foydalanish tartibi va mutavalli tayinlanishi qayd etiladi.

Vaqf hujjatlarini ilmiy o‘rganish an’anasi XX asr boshlaridan izchil tus olgan. Jumladan, Abdurauf Fitrat o‘tgan asrning 30-yillarida «O‘rta Osiyoda er masalasiga doir uch vasiqa» (1933) va «XVI asrda qozixona hujjatlari» (1937) kabi tavsifiy maqolalarida vaqf va qozixona hujjatlarining ilmiy tavsifini bergan[2]. Keyinchalik xorijiy tarixshunoslikda ham vaqf institutiga oid yirik tadqiqotlar amalga oshirildi: R.D.MakChesni vaqfning to‘rt asrlik tarixini ziyoratgoh misolida o‘rgandi[3], N.Oberauer esa vaqfning huquqiy doktrinasi shakllanishini tahlil qildi[4]. Bu tadqiqotlar vaqfning iqtisodiy, huquqiy va siyosiy jihatlarini

[1]Мунаввар қори Абдурашидхонов. Туркистон вақфлари ҳақида // Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2003. – Б. 162.

[2]Фитрат А. Ўрта Осиёда ер масаласига доир уч васиқа. – Тошкент, 1933; Шу муаллиф. XVI асрда қозихона ҳужжатлари. – Тошкент, 1937.

[3]McChesney R.D. Waqf in Central Asia: Four Hundred Years in the History of a Muslim Shrine, 1480–1889. – Princeton, 1991. – P. 14-15.

[4]Oberauer N. Early Doctrines on Waqf Revisited // Islamic Law and Society. – 2013. – Vol. 20, iss. 1–2. – P. 3.

yoritsa-da, uning shajaraviy-genealogik manba sifatidagi salohiyati etarlicha tahlil qilinmagan.

Vaqf instituti nafaqat muayyan mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizm, balki jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy hayotini mujassamlashtirishning o‘ziga xos shakli hamdir. Diniy muassasalar, xonaqohlar, maktab va madrasalar, shifoxonalar, ko‘priklar va yo‘llar vaqf daromadlari hisobiga qurilgan va ta’minlangan. Bu esa vaqfni nafaqat iqtisodiy, balki madaniy tarix manbasi sifatida ham muhim qiladi. Ilmiy adabiyotlarda vaqfning ushbu ko‘p qirrali tabiati haqida yetarlicha yozilgan bo'lsa-da, uning genealogik va etnografik manba sifatidagi imkoniyatlari hali to‘liq o‘rganilmagan.

Bugungi kunda ko‘plab izlanuvchilar tomonidan vaqf hujjatlari tadqiq etilayotganligiga qaramay, IX–XX asr boshlariga mansub, fors va arab tillarida bitilgan muhim hujjatlarning katta qismi hozirgacha ilmiy muomalaga kiritilmagan. Ayniqsa, mazkur hujjatlarning sulolalar shajarasi va oilalar tarixini tiklash nuqtai nazaridan o‘rganilishi etarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Ushbu holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi vaqf hujjatlarining sulolalar shajarasi va oilalar tarixini tiklashdagi manbashunoslik ahamiyatini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: vaqf institutining mintaqadagi tarixiy taraqqiyotini umumlashtirish; O‘zbekiston arxiv va qo‘lyozma fondlarida saqlanayotgan vaqf hujjatlari tarkibi hamda turlarini aniqlash; vaqfnomaning formulyari (qozi, voqif va mavquf alayhilar vazifalari)ni ko‘rib chiqish; vaqfnomalarda aks etgan shajaraviy ma’lumotlarni tahlil qilish; «vaqfi avlod» tipidagi hujjatlarning sulolalar tarixini o‘rganishdagi o‘rnini belgilash hamda vaqf hujjatlaridagi etnografik materiallarning ilmiy qiymatini baholash.

## TADQIQOTNING USULLARI

Tadqiqot jarayonida manbashunoslik va matnshunoslik tahlili, tarixiylik, tarixiy-qiyosiy hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Vaqfnoma yozma yodgorliklarning alohida turi sifatida diplomatika (hujjatshunoslik) fanining tadqiqot ob’ekti hisoblanadi: hujjatning paleografik xususiyatlari – yozilgan qog‘ozi, tuzilgan vaqti va joyi, xati, siyohining rangi, badiiy bezaklari va muhrlari o‘rganiladi[1].

Arxiv hujjatlarining asl nusxalari (fors va arab tillarida) bilan ishlash, ularning tuzilishi, formulyari va mazmunini qiyosiy o‘rganish orqali xulosalar chiqarildi. Shuningdek, vaqfnomalarda keltirilgan shajaraviy ma’lumotlarni boshqa yozma manbalar bilan solishtirish – genealogik tahlil usuli qo‘llanildi.

Diplomatik tahlil – hujjatning tashqi va ichki belgilarini o'rganish – manba tanqidining asosiy yo‘nalishi sifatida qo‘llanildi. Hujjatning haqiqiyligi, tuzilgan

[1]Чехович О.Д. Самаркандские документы XV–XVI вв. – Москва: Наука, 1974.

vaqti va joyi, ijrochisi va buyurtmachisi bilan bog‘liq savollar aynan shu usul yordamida hal etildi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Vaqf instituti Markaziy Osiyo hududida islom dini tarqalgan dastlabki asrlardan faoliyat ko‘rsatgan. Manbalarga ko‘ra, mintaqadagi eng qadimiy vaqf hujjatlaridan biri IX asrga – Somoniylar davriga taalluqlidir. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida Ismoil Somoniy Buxorodagi jome masjidi va rabot ehtiyojlarini qondirish, kambag‘allar hamda islom e’zozlaydigan kishilar avlodlarini ta’minlash maqsadida erlar sotib olib, ularni vaqfga aylantirgani qayd etiladi[1]. Bu hujjatlar vaqfning nafaqat xayriya, balki avlodlarni ta’minlash – «vaqfi avlod» vazifasini ham bajarganini ko‘rsatadi.

Temuriylar davrida ham vaqf instituti keng rivojlandi; XV asrga oid Amir Temur vaqf qilgan hujjatlar, shuningdek Xo‘ja Ahror va Xo‘ja Muhammad Porso kabi yirik shaxslarning vaqflari bunga misoldir. Xo‘ja Muhammad Porso 3000 dan ziyod kitobini Buxorodagi madrasasiga vaqf qilgan. Keyingi asrlarda vaqf Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarida er egaligining asosiy shakllaridan biriga aylandi. Vaqf instituti O‘zbekiston hududida XX asr boshlarigacha amal qilib, uning iqtisodiy-madaniy hayotda tutgan o‘rni beqiyos bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivida saqlanayotgan «Vaqf hujjatlari kolleksiyasi» nomli I-323 fondining hujjatlarini tadqiq etish ushbu masalada keng ko‘lamli ma’lumotlarga ega bo‘lish imkonini beradi[2]. Mazkur fond ikkita jamg‘armadan iborat bo‘lib, uning tarkibida Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo‘qon va Toshkentning turli tarixiy davrlariga taalluqli vaqf hujjatlari mavjud. Vaqf hujjatlarining davriy chegarasi katta bir davrni o‘z ichiga olgan: IX–XIX asrlardagi vaqf hujjatlaridan tashqari, 1901–1927 yillarga doir hujjatlar ham uchraydi.

Mazkur kolleksiyaga XX asrning 30-yillarida asos solingan bo‘lib, unda respublikaning turli shaharlari, xususan, Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo‘qon va Toshkent kabi yirik shaharlardagi madrasalar, masjidlar faoliyatiga doir vaqfnomalar, qozilik hujjatlari jamlangan. Qariyb 3000 dan ortiq bo‘lgan yig‘ma jilddagi hujjatlarning ma’lum bir qismi (taxminan 600 tasi) ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularda juda ko‘p chalkashliklar uchrashini ham e’tiborga olish zarur.

Mazkur hujjatlarda madrasalar, masjidlar, ularning iqtisodiy ta’minoti, huquqiy va mulkchilik munosabatlari haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, ularda mulkdorlar, hukmdorlar tomonidan er, bog‘, do‘kon, pul mablag‘larining diniy muassasa (qorixona, masjid, madrasa, maqbara va hokazolarga) beg‘araz hadya (vaqf) etilishi, ulardan foydalanish tartibi

[1]Наршахий. Бухоро тарихи. – Тошкент; шунингдек қаранг: ЎзР ФА Шарқшунослик институти, № 527а ва № 1287 ҳужжатлар.
[2]ЎзМА, И.323-фонд, 1-рўйхат, 76- йиғма жилд.

rasmiylashtirilgan. Mazkur vaqf hujjatlarida ma’lum bir shaxslarning ko‘chmas mulklari (do‘kon, er, kitob va hokazolar) diniy yoki xayriya maqsadida berilganligi ko‘rsatilgan. Ushbu hujjatlarning asosan mahalliy aholi vakillari, xususan, qozilar tomonidan rasmiylashtirilganligi ularning ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Vaqf hujjatlari asosan qozixonalarda tuzilgan va tasdiqlangan. Qozixona islom huquqi asosida fuqarolarning mulkiy va huquqiy munosabatlarini rasmiylashtiruvchi muassasa bo‘lib, unda qozidan tashqari mirzo (kotib), mufti, mutavalli va boshqa mansabdorlar faoliyat yuritgan [1] . Jumladan, Buxoro qozixonasida ijaraga berilgan vaqf mulklari hisobini yurituvchi va vasiqa hujjatlarini tuzuvchi «mirzoyi ijora» lavozimi mavjud bo‘lgan; merosiy mulkni taqsimlash bilan esa maxsus «tarakachi»lar shug‘ullangan.

Qo‘qon xonligida vaqf mulklarining daromadi va hisob-kitobiga «sudur» mansabdori javobgar bo‘lgan, vaqf erlarining xiroj va soliqlariga esa «o‘roq» mas’ul edi [2] . Hujjatlarning haqqoniyligi tamg‘a, muhr va nishonlar bilan qonuniylashtirilgan; qozi muhri hujjatga rasmiy kuch bergan. Shu bois vaqfnomalar nafaqat mazmuni, balki rasmiylashtirilish tartibi bilan ham ishonchli tarixiy manba hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondlarida ham ko‘plab vaqf hujjatlari mavjud. Jumladan, O.Jalilovning «Xazinamizdagi Xiva vaqf hujjatlari» maqolasida ushbu institut qo‘lyozmalar xazinasida saqlanayotgan «Xiva qozi daftarlari» deb nomlangan 4 jilddan iborat qo‘lyozmalar tarkibidagi 1600 ga yaqin vaqf hujjati to‘g‘risida ma’lumot berilib, 9491 raqamli qo‘lyozma daftardagi Xivadagi vaqf masalasiga oid 520 ta hujjat ko‘chirma nusxasi tuzilishi va mazmuni jihatdan bir necha turga bo‘linib tasnif etiladi[3].

Tadqiqotchi O‘.Sultonovning izlanishlarida qozixonalarda tuzilgan bayi bot, xatti ijara, xatti iqror, xatti da’vo va xatti vakolat, hukm hamda rivoyat kabi hujjatlarning yuzaga kelishi, funksiyasi hamda XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o‘zgarishlari ochib berilgan[4]. Jumladan, bayi bot (mulkni uzil-kesil sotish) hujjatlari mazmuniga ko‘ra uch turga ajraladi: vaqf ma’muriyati o‘z tasarrufidagi pulga sotib olayotgan mulk haqidagi; vaqf ma’muriyati mulkni istibdol (yangisini sotib olish yoki almashtirish) sharti asosida sotayotgan mulk haqidagi; vaqf erlarida joylashgan xususiy mulklar sotilayotgani haqidagi bayi bot

[1] Жувонмардиев А. XVI–XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир. – Тошкент: Фан, 1965. Б.– 181.

[2] Набиев Р.Н. Из истории Кокандского ханства. – Ташкент: Фан, 1973. Б.9-10.

[3] Жалилов О. Хазинамиздаги Хева вақф ҳужжатлари // Шарқшунослик. – 1993. – №4. – Б.63-71.

[4] Султонов Ў. Тошкент вақф хўжалигида анъаналар, ислоҳотлар ва муаммолар (XVI-XX аср бошларига оид тарихий ҳужжатлар асосида). Т.ф.б.док. дисс. автореферати. – Т., 2016. Б.22-23.

hujjatlar. Oldi-sotdi shartnomasining yana bir turi bayi joyiz (mulkni garov evaziga sotish) bo‘lib, Ko‘kcha qozilarining 1887 yil yanvar–iyul oylarida yuritilgan daftarida 229 ta bitim orasida 11 ta bayi joyiz qayd qilingan. Shu daha qozisining 1893 yilgi daftarida esa yilning ikkinchi yarmida 550 ta bayi bot va 390 ta bayi joyiz bitimi aniqlangan.

Qozilar muhri bilan tasdiqlangan shaxsiy-huquqiy hujjatlar orasida oldi-sotdi, garov xati, hadya xati, qarz tilxati, vasiyatnoma, nikoh shartnomasi, da’vodan voz kechish xati, rivoyat hamda vaqfnomalar uchraydi; ularning asl nusxalari bilan birga qozixonada tasdiqlangan ko‘chirma nusxalari ham mavjud[1]. Ijara hujjatlari vaqf mulkining ijaraga berilgani haqidagi yozma bitimdir. Da’vo hujjati odatda vaqf ma’muriyati hamda voqif avlodlari, vaqf mulki ijarachisi, ba’zan boshqa jismoniy shaxslar o‘rtasidagi ziddiyatlar natijasida yuzaga kelgan. Qozi hukmlari da’voning natijasi yoki eski vaqfnomalarning tiklanishi, mutavalli tayinlash va boshqa sabablarga asosan tuzilgan. Rivoyat (fatvo) deb nomlangan hujjat muftiylarning biror masala echimi yuzasidan bergan, fiqhiy asarlardan iqtiboslar keltirilgan rasmiy javobidir. Rivoyatlar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida eng ko‘p tarqalgan hujjatlardan biri bo‘lib, kishilarning kundalik turmush tarzida tez-tez uchrab turgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o‘rganishda muhim hujjat hisoblanadi.

Vaqfnomaning tuzilishida uchta asosiy unsur ajralib turadi: qozining vazifasi (qozi notarius sifatida vaqf bilan bog‘liq har bir bitimni rasmiylashtiradi), vaqf qiluvchi (voqif)ning irodasi va mavquf alayhilar – vaqf daromadidan foydalanuvchilarning huquq va vazifalari[2]. Vaqf ob’ekti sifatida doimiy daromad keltiruvchi ko‘chmas va ko‘char mulklar, sub’ekti sifatida esa jismoniy va yuridik shaxslar namoyon bo‘ladi. Ayrim hollarda hatto pul va kitoblar ham vaqf mulki sifatida rasmiylashtirilgan. Hujjatning tuzilishi va yozilish uslublari ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘tmishda ish yuritish usullari haqida qiziqarli ma’lumot beradi.

Hukmdorlar, yuqori mansabdorlar va savdo ahli uchun vaqf siyosiy hamda ijtimoiy dastak vazifasini ham bajargan: hukmdorlar aholi orasida o‘z ta’sir doirasini saqlash va siyosiy legitimasiyaga erishish, boshqa yuqori tabaqa vakillari esa ijtimoiy nufuzga etishish maqsadida diniy va jamoat muassasalarini qurib, mulklarini vaqfga aylantirganlar[3]. Vaqf mulkini boshqarish bosh nozir – mutavalliga yuklatilgan bo‘lib, u daromadni taqsimlash, mulkni asrash va

[1] Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти хазинаси: қозилик ҳужжатлари тавсифи. – Тошкент: Fan, 2009. – Б. 15–16.

[2] Султонов Ў.А. Кўрсатилган асар.

[3] Peri, O. (1983). The waqf as an instrument to increase and consolidate political power: The case of the Khasseki Sultan waqf in late eighteenth-century Ottoman Jerusalem. Asian and African Studies, 17, P. 47–62.

hujjatlarni yuritish kabi vazifalarni bajargan. Mutavalli lavozimi ko‘pincha nasldan naslga o‘tib, bu hol o‘z navbatida oila va sulola tarixini hujjatlarda aks ettirishning yana bir usulini tashkil etgan.

Vaqf mulkining «Vaqfi avlod» (vaqfi ahliy) ko‘rinishi shajaraviy ma’lumotlar nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. Bunday mulklarni tashkil qilgan shaxslar vaqfdan keladigan daromadning u yoki bu qismini o‘z merosxo‘rlariga vasiyat qilib qoldirganlar. Xususan, Xo‘ja Ahror Samarqand atrofidagi ko‘pgina erlarga ega bo‘lib, ushbu vaqf erlaridan keladigan daromadlardan uning 500 dan ortiq urug‘-avlodi foydalangan. Xo‘ja Ahror boshqa hududlardan amlok erlarini va fuqarolardan mulk erlarini sotib olib, barcha erlarni vaqf erlariga vasiyat qilib qoldirgan. Aynan shu turdagi vaqfnomalarda shajaralar masalasiga alohida to‘xtalib o‘tiladi.

«Vaqfi avlod» tipidagi hujjatlar voqif va uning avlodlari haqida batafsil ma’lumot saqlaydi. Masalan, Mir Arab vaqfnomasida shayxning vaqfi avlod sifatida rasmiylashtirilgan mavqufoti tavsiflanib, bu usul unga yirik er xo‘jaligi va boshqa ko‘chmas mulklardan keladigan daromadning bir qismini o‘z avlodi foydasiga saqlab qolish imkonini bergan; bunday mulklar ro‘yxatiga yigirmadan ortiq joy, qishloq va erlar nomi kiritilgan[1].

Shajaraviy silsilaning qanchalik uzoq davom etishi mumkinligini Ismoil Somoniy avlodlariga oid vaqfnoma misolida ham ko‘rish mumkin. Buxoroda XX asr boshlarigacha Ismoil Somoniy avlodlari yashagan mahalla bo‘lib, ular ajdodlari vaqf qilib qoldirgan mulkdan keladigan daromad hisobiga kun kechirgan; avlodlar o‘z huquqlarini asoslash uchun aynan vaqf hujjatlarini avloddan avlodga saqlab kelganlar[2]. Bu hol vaqf hujjatlarining asrlar osha oilaviy-sulolaviy xotirani saqlash vositasi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Vaqf hujjatlari ayollar tarixini o‘rganishda ham qimmatli ma’lumot beradi: XVI–XIX asrlarga oid ko‘plab vaqfnomalarda ayollar voqif yoki mutavalli sifatida namoyon bo‘lgan, ayrim hollarda vaqf erkak tomonidan ta’sis etilib, mutavalli qilib ayol tayinlangan[3]. Bu hol o‘sha davrda ayollarning mulkiy huquqlariga oid tushunchalarimizni ham kengaytiradi: ayollar nafaqat vaqf ob’ekti bo'lmish mulk egasi, balki uning idorasini ham qo‘lga olgan

Quyida keltirilgan Sayyid Mahmud xoja Eshon xonadoniga oid vaqfnoma (hijriy 1333 yil) matni shajaraviy ma’lumotlarni saqlab qolgan hujjatlarga yorqin misol bo‘la oladi:

*«Ta’rix o‘ninchi rajab oyinda, sana 1333 (bir ming uch yuz o‘ttuz uchinchi) hijriyda erdiki, iqrori sarihi mo‘tabari sha’riya qildi Domullo Mahmud xoja Eshon, e’zozi arjumand To‘ra xoja Eshon o‘g‘li holi jevozai nafoz jami tasarrufoti*

[1]Ўз МА. И-323 фонд; шунингдек қаранг: Мир Араб вақфномаси материаллари.
[2]Наршахий. Кўрсатилган асар; ЎзР ФА Шарқшунослик институти, № 1287 ҳужжат.
[3]Ўз МА. И-323 фонд, 1-рўйхат, 16-сақлов бирлиги.

*va rag‘bat birla bu jumlag‘akim, vaqfi sarih va tasdiqi sha’riya qildim sahihi bebizoat tamomi mahdud mazkur erni yo‘li va suvi bilan. Azbaroyi mahdudi avval shart qildim, mani voqif mazkur vaqf qilingan mulkka, modomiki hayot ekanman, o‘zim va vafotimdan so‘ng manim avlodi zurriyotlarimdin har qaysilari solih va qobil, parhezkor bo‘lsa mavqufa mazkuraga mutavalliyi sha’riya bo‘lsun…»*

Sayyid Mahmud xoja Eshon xonadoniga tegishli ushbu vaqfnomada xonadon ildizlari Sayyid Muhammad Zokir xoja Eshon Shayxulislom hazratlari orqali bir tomondan Imom Husayn Shahidi Karbalo (roziyallohu anhu)ga, boshqa tomondan hazrat Ali (karramallohu vajhahu)ning boshqa xotinlaridan bo‘lgan farzandlari – Imom Muhammad Hanafiya hazratlariga borib taqaladi. Sulaymon xoja Shayxulislom hazratlaridan ikki o‘g‘il farzand – Sayyid Hakim xoja va Sayyid To‘ra xoja tavallud topgan. To‘ra xoja xonadonida 1263 (1847) yilda o‘g‘il farzand tug‘ildi va unga Sayyid Mahmud xoja deb nom berildi.

Mahmud xoja madrasai Oliyda tahsil olish barobarida tasavvufning Qodiriya suluki jamoasida tariqat ta’limini olib, eshon darajasiga etadi. U Uchko‘prik va Yangiqo‘rg‘on oralig‘idagi xoja Ummatvaliy (xalq tilida «Xoja Matvali Buva») mozoridagi xonaqohda ma’rifat nurini taratish, murid tarbiyalash bilan shug‘ullangan. Vaqfnomada ushbu xonadon shajarasi batafsil keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki, hujjat voqifning avlodi va ajdodlarini tarixiy shaxslar orqali izohlab, xonadonning shajara silsilasini tiklash imkonini beradi.

Ushbu vaqfnoma tahlili bir qator metodologik xulosalarga imkon beradi. Birinchidan, hujjatda hijriy va milodiy sanalar birgalikda keltirilishi xronologik muvofiqlashtirishni osonlashtiradi. Ikkinchidan, voqifning o'zi ham, uning avlodlari ham hujjatda nomlari bilan qayd etilgani ularning shaxsiy tarixini tiklashda birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi. Uchinchidan, tariqat va sulola ma'lumotlarining bir hujjatda jamlangani ijtimoiy, diniy va genealogik tahlilni bir vaqtda olib borish imkonini beradi.

Vaqf hujjatlari lokal tarixni, oilalar va sulolalar tarixini tiklashda qator ustunliklarga ega. Birinchidan, ular sanasi, tuzilgan joyi va ishtirokchilarining ism-sharifi aniq ko‘rsatilgan birlamchi manba hisoblanadi. Ikkinchidan, «vaqfi avlod» hujjatlarida voqifning avlodlari bir necha bo‘g‘inga qadar nomma-nom sanab o‘tiladi. Uchinchidan, mutavalli lavozimining avloddan avlodga o‘tishi hujjatlarda qayd etilgani oila silsilasini uzluksiz kuzatish imkonini beradi.

Bundan tashqari, vaqfnomalarda mujassam etnografik material – lavozim va unvonlar (eshon, shayxulislom, mutavalli), tariqat mansubligi (Qodiriya, Naqshbandiya), ziyoratgoh va xonaqohlar, mahalliy joy nomlari sulolalarning ijtimoiy mavqei va hududiy bog‘liqligini o‘rganishda qimmatlidir. Shu sababli mazkur hujjatlarni manbashunoslik va etnografiya usullarini birlashtirgan holda kompleks tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Qiyosiy tahlil nuqtai nazaridan vaqf hujjatlarini boshqa yozma manbalar – tarixiy asarlar, bayoz va tazkiralar, safarnomalardagi genealogik ma’lumotlar bilan solishtirish tadqiqotning ishonchliligini oshiradi. Masalan, Narshaxiyning «Buxoro tarixi» va vaqf hujjatlarini birgalikda tahlil qilish Somoniylar davridagi ijtimoiy tuzilma haqida yangi xulosalar chiqarishga imkon beradi. Xuddi shunday, muayyan shaxsning vaqfnomasida keltirilgan shajara silsilasini tazkiralardagi ma'lumotlar bilan solishtirish, uni tekshirish va to‘ldirish mumkin.

Vaqf hujjatlarini genealogik manba sifatida ishlatishda bir qator metodologik tamoyillarga rioya qilish zarur. Birinchi tamoyil /u2013 tanqidiy yondashuv: vaqfnomadagi shajara ma'lumotlari ko'pincha huquqiy maqsadlarda, ya'ni meros yoki mutavalli lavozimiga bo‘lgan da’voni asoslash uchun kiritilgan. Bu esa ba’zan ma’lumotlarning ideallashtirilgan ko‘rinishda berilishiga olib kelgan bo‘lishi mumkin. Ikkinchi tamoyil – qiyosiy tekshirish: bir xonadonning bir nechta vaqfnomasini qiyoslab, ularning o'zaro mos kelishi yoki ziddiyatli tomonlarini aniqlab, eng ishonchli variantni belgilash lozim.

Uchinchi tamoyil – kontekstual tahlil: hujjat tuzilgan davr va joy, hujjatni rasmiylashtirgan qozi va guvohlar, ularning ijtimoiy mavqei va voqif bilan munosabatlari shajaraviy ma'lumotlarning ishonchliligini baholashda muhim rol o'ynaydi. To'rtinchi tamoyil – integratsiya: vaqfnomadagi genealogik ma’lumotlarni boshqa manbalar – tazkira, riyozat, bayoz, rasmiy yozishmalar, ayniqsa boshqa vaqfnomalar – bilan taqqoslash orqali tekshirish va boyitish kerak. Beshinchi tamoyil – raqamli metodlar: katta hajmli hujjat fondlarini qayta ishlashda ma'lumotlar bazasi va shajara dasturlari qo'llanilishi shajara tadqiqotlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda vaqf hujjatlarini raqamli arxivlarga kiritish va ularga erkin kirish imkoniyatini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Milliy arxivi tomonidan amalga oshirilayotgan raqamlashtirish ishlari bu borada muhim qadam hisoblanadi. Biroq raqamlashtirish o‘z-o‘zicha etarli emas: hujjatlar tarkibidagi ma’lumotlarni – shaxs ismlari, joy nomlari, sanalar, urug‘ va sulola nomlari – tuzilgan ma'lumotlar bazasiga kiritish orqali ularni qidirish va tahlil qilish imkonini yaratish kerak.

## XULOSA

Vaqf hujjatlari Markaziy Osiyo iqtisodiy tarixining muhim manbasi bo‘lish bilan birga, sulolalar shajarasi hamda oilalar tarixini tiklashda ham bebaho ahamiyatga ega. Xususan, «vaqfi avlod» tipidagi vaqfnomalarda voqif va uning avlodlari haqidagi ma’lumotlar batafsil qayd etilgani bois, ular orqali ayrim xonadonlarning shajara silsilasini tiklash mumkin. Sayyid Mahmud xoja Eshon xonadoniga oid vaqfnoma, shuningdek Mir Arab va Ismoil Somoniy avlodlariga oid hujjatlar misolida ko‘rilganidek, bunday manbalar xonadon ildizlarini tarixiy shaxslar orqali izohlash imkonini beradi.

Vaqfnomaning formulyari – qozi, voqif va mavquf alayhilarning vazifalari aniq belgilangani, mutavalli lavozimining avloddan avlodga o‘tishi shart qilib qo‘yilgani mazkur hujjatlarni ishonchli genealogik manbaga aylantiradi. Shu bois vaqf hujjatlarini faqat manbashunoslik tahlili doirasida emas, balki ulardagi boy etnografik materiallar tadqiqi orqali kompleks o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Vaqf hujjatlaridagi genealogik ma’lumotlarni to‘liq o‘rganish uchun qiyosiy yondashuv zarur: bir xonadon yoki sulolaga tegishli barcha mavjud vaqfnomalarni to‘plab, ularni bir-biri bilan va boshqa manbalar bilan solishtirish eng ishonchli natijani beradi. Shu yo‘nalishda ko‘plab izlanishlar olib borish imkoniyati hali to‘liq foydalanilmagan.

IX–XX asr boshlariga mansub fors va arab tilidagi ko‘plab hujjatlarning hanuzgacha ilmiy muomalaga kiritilmagani ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi. Kelgusida vaqf hujjatlarini raqamlashtirish, ilmiy kataloglashtirish va genealogik ma’lumotlar bazasini yaratish orqali ularning manbashunoslik salohiyatidan yanada to‘liq foydalanish imkoni tug‘iladi.

## Правовой порядок Шёлкового пути в эпоху Тан: юрисдикция, плюрализм и мобильность

***СУ СИНГ***[1]

*Независимый исследователь, Институт России, Восточной Европы и Центральной Азии, Шанхайский университет иностранных языков, Шанхай, Китайская Народная Республика*

***Аннотация.*** *В статье исследуется правовой порядок трансрегиональных коммуникаций в эпоху Тан на основе сопоставления норм Танского кодекса, установлений лин, регламентов гэ, инструкций ши, официальных историй и материалов из Турфана. Цель исследования состоит в уточнении распространённого тезиса о том, что танское право исключительно «содействовало» торговле на Шёлковом пути. Применены историко-правовой, сравнительно-правовой, источниковедческий и контекстуальный методы, а также функциональный анализ норм, регулирующих передвижение людей, имущественный обмен и статус иностранцев. Установлено, что танский правовой режим имел двойственную природу. С одной стороны, он защищал жизнь и имущество, транспорт, договорные обязательства и качество товаров,*

[1] *Su Xing ——. Institute of Russia, Eastern Europe and Central Asia, Shanghai International Studies University, Shanghai, People’s Republic of China*

*обеспечивал содержание посланников и устройство прибывших лиц. С другой стороны, те же институты подчиняли мобильность требованиям имперской безопасности, ограничивали частные контакты, торговлю оружием, выезд отдельных категорий иностранцев и межбраки. Норма о взаимных преступлениях «людей вне преобразующего влияния» демонстрирует условный правовой плюрализм: внутри одной иностранной группы допускалось применение её обычного права, тогда как межгрупповые дела разрешались по праву Тан. Турфанские документы показывают, что иностранный участник сделки мог обращаться в танский суд, однако признание его прав происходило внутри имперской юрисдикции. Исследования последних лет позволяют пересмотреть представление о Тан как о безусловно космополитической империи и отказаться от идеи единого «права Шёлкового пути». Историческая функция танского права состояла в создании многоуровневого, относительно предсказуемого и одновременно контролируемого режима мобильности и обмена. Тем самым правовая поддержка трансрегионального обмена отделяется от имперской техники государственного контроля и безопасности. Исторические аналогии с современными трансграничными проектами возможны лишь на функциональном уровне: они помогают поставить вопросы о коллизионных правилах и механизмах разрешения споров, но не допускают механического переноса имперских решений.*

***Ключевые слова и словосочетания:*** *Танский кодекс; Шёлковый путь; иностранцы; правовой плюрализм; коллизионное право; торговля; мобильность; имперская юрисдикция; безопасность; Турфанские документы.*

***Annotatsiya.*** *Maqolada Tan sulolasi davridagi transhududiy aloqalarning huquqiy tartibi Tan kodeksi, ling ko‘rsatmalari, ge reglamentlari, shi yo‘riqnomalari, rasmiy tarixiy manbalar va Turfon hujjatlarini qiyosiy o‘rganish asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi Tan huquqi Ipak yo‘lidagi savdoga faqat “ko‘maklashgan” degan keng tarqalgan qarashni aniqlashtirishdan iborat. Tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, manbashunoslik va kontekstual usullar, shuningdek odamlar harakati, mulkiy almashinuv va chet elliklar maqomini tartibga solgan normalarning funksional tahlili qo‘llanildi. Natijalar Tan davridagi huquqiy rejim ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Bir tomondan, u hayot va mulkni, transport vositalarini, shartnoma majburiyatlarini va tovar sifatini himoya qilgan, elchilarni ta’minlash hamda kelgan shaxslarni joylashtirishni tartibga solgan. Ikkinchi tomondan, ayni institutlar harakatchanlikni imperiya xavfsizligi talablariga bo‘ysundirgan, xususiy aloqalar, qurol savdosi, ayrim chet elliklarning chiqib ketishi va aralash nikohlarni cheklagan. “Madaniy ta’sir doirasidan tashqaridagi shaxslar”ning o‘zaro jinoyatlari haqidagi norma shartli huquqiy plyuralizmni namoyon etadi: bir chet el guruhining ichki ishlarida uning odat huquqi qo‘llanishi mumkin bo‘lgan, turli guruhlar o‘rtasidagi ishlar esa Tan huquqi bilan hal qilingan. Turfon hujjatlari xorijiy savdogar Tan sudiga murojaat qila olganini, biroq uning huquqlari imperiya yurisdiksiyasi doirasida tan olinganini ko‘rsatadi. 2021–2025-yillardagi tadqiqotlar Tan davlatining mutlaq “kosmopolitik” qiyofasini qayta ko‘rib chiqish va yagona “Ipak yo‘li huquqi” haqidagi tasavvurdan voz kechish imkonini beradi. Xulosa shuki, Tan huquqi harakatchanlik va almashinuvning ko‘p darajali, nisbatan bashorat qilinadigan, biroq nazorat qilinadigan rejimini yaratgan.*

*Bunday yondashuv huquqiy qo‘llab-quvvatlash bilan imperiyaviy nazorat o‘rtasidagi farqni aniqroq ko‘rsatadi. Zamonaviy transchegaraviy loyihalar bilan tarixiy qiyos faqat funksional darajada foydalidir: bunday qiyos kollizion qoidalar va nizolarni hal etish mexanizmlari haqidagi masalalarni qo‘yishga yordam beradi, biroq imperiyaviy yechimlarni mexanik tarzda ko‘chirishga yo‘l qo‘ymaydi.*

***Kalit so‘zlar va birikmalar:*** *Tan kodeksi; Ipak yo‘li; chet elliklar; huquqiy plyuralizm; kollizion huquq; savdo; harakatchanlik; imperiya yurisdiksiyasi; xavfsizlik; Turfon hujjatlari.*

***Abstract.*** *This article examines the legal order of transregional communication under the Tang by comparing provisions of the Tang Code, the ling ordinances, ge regulations, shi administrative forms, official histories, and Turfan documents. Its aim is to qualify the widespread claim that Tang law merely “facilitated” Silk Road trade. The study combines historical-legal, comparative-legal, source-critical, contextual, and functional analysis of rules governing human mobility, property exchange, and the status of foreigners. The findings reveal a dual legal regime. On the one hand, Tang institutions protected life and property, transport, contractual performance, and the quality of goods, while arranging material support for envoys and the settlement of newcomers. On the other hand, these same institutions subordinated mobility to imperial security, restricting private communication, arms trading, the departure of some foreigners, and intermarriage. The provision concerning offenses between “people beyond the transforming realm” illustrates conditional legal pluralism: customary law could govern disputes within a single foreign group, whereas cases involving different groups were decided under Tang law. Turfan documents show that a foreign merchant could bring a claim before a Tang court, but recognition of his rights remained embedded in imperial jurisdiction. Scholarship published between 2021 and 2025 makes it possible to reassess the image of an unconditionally “cosmopolitan” Tang and to reject the notion of a unified “Silk Road law.” The article concludes that Tang law did not create a single transregional legal system; rather, it produced a multilayered, relatively predictable, and simultaneously controlled regime of mobility and exchange. Historical analogies with modern transboundary projects are useful only at the functional level: they help formulate questions about conflict-of-laws rules and dispute-settlement mechanisms, but they do not allow the mechanical transfer of imperial solutions.*

***Key words and word combinations:*** *Tang Code; Silk Road; foreigners; legal pluralism; conflict of laws; trade; mobility; imperial jurisdiction; security; Turfan documents.*

**Введение**

В исследованиях о Танском кодексе и Шёлковом пути часто акцентируется защитная функция права: торговые маршруты нуждались в безопасности, а развитое законодательство династии Тан обеспечивало эту безопасность [1; 2]. Такая схема верно фиксирует часть исторической реальности, но делает право нейтральным «обслуживающим механизмом» торговли и затемняет его властную функцию. Нормы, защищавшие

имущество купца или исполнение долга, одновременно устанавливали, кто мог пересечь границу, с кем разрешалось общаться, какое право применялось к иностранцу и в какой момент различие между гостем, переселенцем и подданным утрачивало юридическое значение. Поэтому предметом исследования должен быть не перечень полезных для торговли наказаний, а правовой порядок мобильности и обмена в империи Тан.

Исходной историографической базой настоящей статьи являются две работы Ван Лиминя, посвящённые Танскому кодексу, законодательству династии Тан и Шёлковому пути [1; 2]. Их достоинство состоит в систематизации большого массива норм о безопасности личности и имущества, транспорте, договорах, иностранцах и международном распространении танского права. Вместе с тем обе публикации во многом повторяют друг друга, а их тезис о «содействии» требует критического уточнения. Новая постановка вопроса опирается на понятия имперской юрисдикции, условного правового плюрализма и контролируемой мобильности. Для неё особенно важны исследования о сосуществовании правовых традиций в городах Шёлкового пути [4], о подданстве и государственном контроле в ранней Тан [5], об ограничениях внешней торговли и брака [6], а также о критическом пересмотре танского «космополитизма» [13].

Цель статьи — определить, каким образом разные компоненты танской правовой системы создавали относительно предсказуемые условия трансрегионального обмена и одновременно сохраняли приоритет государственной безопасности и имперского контроля. Для достижения цели решаются четыре задачи: разграничиваются современное понятие Шёлкового пути и исторические юридические категории; анализируется распределение юрисдикции в делах с участием иностранцев; сопоставляются защитные и ограничительные функции норм; уточняются каналы и пределы распространения танского правового опыта в Восточной Азии. Методы исследования включают историко-правовой и сравнительно-правовой анализ, источниковедческую критику, функциональное толкование норм и контекстуальное сопоставление нормативных текстов с документами юридической практики.

Научная новизна статьи заключается в том, что танские нормы рассматриваются не как разрозненные меры, «содействовавшие» торговле, а как взаимосвязанные элементы режима управляемой мобильности. В этом режиме защита имущества, договора, транспорта и иностранного участника сделки сочеталась с регистрацией, ограничением контактов, контролем брака, регулированием выезда и приоритетом территориальной юрисдикции. Поэтому правовой порядок Шёлкового пути в эпоху Тан следует понимать

не как свободное торговое пространство и не как единое международное право, а как систему контролируемой предсказуемости, созданную имперским государством.

Такой подход переносит акцент с образа «открытой Тан» на механизмы правового включения и контроля. Более ранние исследования обычно двигались от текста кодекса к выводу о высокой открытости Тан, а современная литература всё чаще проверяет эту картину через документы повседневного управления. Работы о подданстве показывают, что юридическая граница проходила не строго по этничности; исследования ограничений торговли и брака выявляют длительную традицию контроля частных контактов; критика «космополитизма» отделяет культурное многообразие от свободы передвижения [5; 6; 13]. Соединение этих направлений позволяет рассматривать право не как фон культурного расцвета, а как механизм включения, разграничения статусов и административного надзора.

**1. Источники и границы понятия «правовой порядок Шёлкового пути»**

Выражение «Шёлковый путь» появилось значительно позже эпохи Тан и объединяет множество сухопутных и морских маршрутов, которые современники не воспринимали как единую юридическую систему. Поэтому формулировка «танское право Шёлкового пути» допустима лишь как аналитическая конструкция. Она обозначает совокупность норм и практик, действовавших в городах, пограничных пунктах, портах и торговых центрах, через которые перемещались люди, товары, письма, религиозные тексты и политические миссии. Как подчёркивает В. Хансен, в городах маршрута сосуществовали разные правовые традиции, а не одно универсальное торговое право [4].

Танская нормативная система также не сводилась к уголовному кодексу. Люй определял преступления и наказания; лин закрепляли государственное устройство и статусные правила; гэ содержали действующие административные предписания; ши устанавливали процедурные образцы и правила повседневной работы учреждений [18; 19]. Нарушение лин, гэ или ши могло повлечь ответственность по люй, но это не превращало все отношения в уголовные. Для участников трансрегионального обмена значение имели как уголовные гарантии, так и административные нормы о регистрации, пропускном режиме, снабжении, расселении и контроле за посольствами. Именно их сочетание образовывало правовой порядок.

Эта оговорка меняет способ чтения источников. Наказание за разбой действительно защищало купца, однако статья о разбое не создавалась специально для караванной торговли. Норма о невозвращении долга

поддерживала исполнение обязательств, но её действие распространялось на внутренние и внешние сделки. Правовой эффект для маршрутов был производным от общего режима управления империей. Ван Сяофу расширяет анализ за пределы кодекса и включает заставный, рыночный, денежный, почтово-станционный и судебный порядки [3]. Следовательно, высокий уровень коммуникаций объяснялся не одной строгостью наказаний, а институциональной связкой законодательства, администрации и инфраструктуры.

Основными источниками для реконструкции выступают «Тан люй шу и» и «Тан лю дянь» в современных изданиях, официальные истории Тан, позднейшие собрания утраченных лин и ши, а также документы Дуньхуана и Турфана [18; 19]. Последние особенно важны, поскольку показывают разрыв между нормативной формулой и практикой. Кодекс сообщает, какое правило должно было применяться; исковые документы, расписки и решения позволяют увидеть, кто реально получал доступ к суду, какие доказательства принимались и как юридический язык приспосабливался к многоэтничной среде.

Необходимо различать и пространственные режимы. Сухопутные коридоры проходили через заставы, гарнизоны, оазисные города и территории с неодинаковой степенью прямого контроля. Морские коммуникации зависели от портовой администрации, судоходства, сезонности и присутствия иностранных торговых общин. Одна и та же норма могла иметь разный практический вес в столице, Турфане и Гуанчжоу. Поэтому статья не предполагает, что право применялось равномерно на всём протяжении маршрутов. Речь идёт о центре нормативного притяжения, чьё воздействие ослабевало, изменялось или сочеталось с местными институтами по мере удаления от органов Тан.

Источниковедческая осторожность особенно важна при переводе терминов. Люй не тождествен современному уголовному кодексу по отраслевой структуре, хуавайжэнь не совпадает с понятием иностранного гражданина, а бэньсуфа — «право собственного обычая» — не обязательно означало систематизированный закон государства происхождения. Если модернизировать эти категории без оговорок, легко приписать Тан институты международного частного права в нынешнем смысле. В настоящей статье современные термины используются как инструменты сравнения, а не как утверждение полной институциональной идентичности.

**2. Имперская юрисдикция и условный правовой плюрализм**

Наиболее известная норма о правовом положении иностранцев содержалась в статье о взаимных преступлениях хуавайжэнь — лиц, находившихся «вне преобразующего влияния». Если участники

принадлежали к одной группе, дело предписывалось решать по их «собственному обычаю»; если они происходили из разных групп, применялось право Тан. Эту формулу нередко называют ранним коллизионным правилом. Однако современная терминология не должна скрывать её политический смысл. Допуск чужого обычая был не признанием равноправных суверенных правопорядков, а разрешением имперской власти использовать групповую норму там, где она не угрожала публичному порядку.

Новейшая литература показывает, что термин хуавайжэнь нельзя автоматически переводить как «иностранец» в современном гражданско-правовом смысле. В ранней Тан принадлежность к империи определялась прежде всего политическим подчинением и включением в административный учёт, а не этничностью [5]. После установления прямого контроля население завоёванной территории могло считаться подданными Тан независимо от языка и происхождения. Напротив, лицо иной политической принадлежности сохраняло особый статус даже при длительном пребывании внутри империи. Поэтому статья разграничивала не «китайцев» и «некитайцев» как неизменные этнокультурные категории, а режимы власти и применимого права.

Правовой плюрализм был условным по трём причинам. Во-первых, вопрос о том, являются ли стороны «однородными» или «разнородными», решал танский орган. Во-вторых, собственный обычай действовал лишь в очерченной государством сфере; преступления против имперской безопасности, чиновников, границы или запретных объектов не могли быть выведены из-под Танского кодекса. В-третьих, при конфликте между группами территориальная юрисдикция автоматически получала приоритет. Исследование эволюции понятия хуавайжэнь подтверждает, что эта конструкция сочетала признание различий с последовательным расширением действия государственного права [12; 15].

Следовательно, условность правового плюрализма проявлялась не только в содержании нормы, но и в самой процедуре её применения. Танская власть определяла статус сторон, квалифицировала характер спора и устанавливала пределы допустимого обычая. Иными словами, «собственный обычай» чужеземной группы признавался не как самостоятельный источник равной юридической силы, а как разрешённый империей вспомогательный механизм урегулирования внутренних конфликтов.

Не следует расширять статью о взаимных преступлениях хуавайжэнь на все частноправовые отношения. Её непосредственным предметом была ответственность за правонарушение, а не универсальный выбор права для договора, брака или наследования. Тем не менее норма раскрывает общую

юрисдикционную технику: государство могло учитывать групповую принадлежность, пока спор оставался внутренним для сообщества, и переходило к собственному закону при появлении межгруппового элемента. Для реконструкции договорного режима эту формулу нужно сопоставлять с документами практики, а не переносить автоматически.

Практическое значение такой модели видно в Турфанских документах. В одном из дел согдийский торговец Цао Лошань требовал от местного контрагента Ли Шаоцзиня вернуть значительное количество шёлка. Суд принял заявление иностранца, заслушал устные показания и рассматривал спор в рамках танской процедуры. Этот материал важен не как доказательство полного равенства иностранцев перед законом, а как свидетельство институционального канала защиты трансгрупповой сделки: спор переводился на язык танской судебной процедуры — заявления, долга, свидетельства и решения [4]. Иностранный истец не оставался вне правопорядка, но признание его притязания происходило в рамках имперской судебной процедуры.

В этой модели персональный и территориальный принципы действовали совместно. Персональный элемент позволял учитывать внутренние нормы устойчивых чужеземных групп, но только в пределах, разрешённых имперской властью. Территориальный элемент обеспечивал единый центр разрешения межгрупповых конфликтов. Для торговли это снижало неопределённость, но одновременно закрепляло иерархию: последнее слово оставалось за органом Тан.

**3. Правовые гарантии мобильности, имущества и обмена**

Защитная функция танского права проявлялась прежде всего в охране базовых условий движения. Посягательства на жизнь, здоровье и имущество преследовались независимо от того, был ли потерпевший местным жителем, чиновником, посланником или купцом. Степень наказания зависела от способа деяния, результата и стоимости похищенного. Для дальних маршрутов важен не сам перечень телесных наказаний, а то, что насильственное присвоение, тайная кража и мошенническое получение имущества квалифицировались как нарушения, за которыми стояла государственная санкция [1; 2].

Право охраняло и средства передвижения. Лошадь рассматривалась не только как вещь, но и как ресурс военной, почтовой и хозяйственной инфраструктуры. Умышленное уничтожение лошадей и крупного скота влекло ответственность, различавшуюся в зависимости от принадлежности животного. На морских направлениях регламентировались загрузка и управление судами; нарушение правил, повлекшее гибель людей или имущественный ущерб, усиливало наказание. Тем самым транспорт

защищался не как частный ресурс купца, а как часть управляемой имперской инфраструктуры.

Для обмена решающее значение имели обязательства и качество товаров. Невозвращение долга вопреки договору влекло санкцию, возрастающую с продолжительностью просрочки, но наказание не заменяло исполнение: должник должен был возместить причитающееся. В изготовлении и продаже вещей преследовались непрочность, несоответствие заявленным свойствам, уменьшенный размер и иные формы недобросовестности. Ответственность могла зависеть от извлечённой выгоды и распространялась не только на изготовителя, но и на продавца. В этих положениях виден переход от простой охраны владения к защите доверия в сделке; однако такое доверие поддерживалось не автономией рынка, а публичным принуждением и административным надзором.

Административные нормы поддерживали мобильность иным способом. Лица, возвращавшиеся из внешних владений, и иностранцы, прибывавшие ко двору, могли получать одежду, продовольствие и место поселения. Посланникам, направлявшимся в Когурё, Чэньла, Персию, Тибет и другие регионы, выдавалось содержание и сезонная одежда. Подобные меры не следует трактовать как социальное право иностранцев: они одновременно облегчали контроль, прикрепляли прибывших к определённой территории и включали их в административную сеть. В то же время без снабжения и учёта устойчивое движение дипломатических и служебных миссий было бы невозможно.

Двойственную функцию этих механизмов можно обобщить в таблице 1: одни и те же нормы снижали риски обмена и одновременно переводили участников мобильности в поле административного наблюдения.

**Таблица 1. Защитная и контрольная функции танских правовых механизмов**

| Сфера | Основной механизм | Эффект для обмена | Контрольный эффект |
|---|---|---|---|
| Личность | Охрана жизни; снабжение | Снижение риска передвижения | Учёт и надзор |
| Транспорт | Разбой, кража, ущерб транспорту | Сохранность перевозки | Приоритет нужд государства |
| Обмен | Долг; качество товара | Доверие в сделке | Публичный контроль |
| Споры | Обычай группы; право Тан | Определённость права | Приоритет органа Тан |
| Безопасность | Оружие, шпионаж, контакты, браки | Снижение угроз | Ограничение автономии |

Эффективность этих защитных механизмов зависела от административной цепочки. Закон сам по себе не охранял караван и не возвращал долг: требовались заставы, местные власти, судебные чиновники, почтовые станции, складские и рыночные органы. Именно эти учреждения превращали угрозу наказания в практическую возможность подать жалобу, задержать нарушителя, проверить товар или обеспечить посланника. Поэтому правовой порядок маршрутов объяснялся не одной суровостью санкций, а соединением нормы, учреждения и процедуры.

**4. Открытость, безопасность и пределы танского «космополитизма»**

Если рассматривать только нормы, защищавшие торговлю и передвижение, может возникнуть впечатление об открытом правовом режиме. Однако источники показывают более сложную картину. Империя одновременно стремилась использовать иностранные товары, знания и человеческие ресурсы и не допустить превращения трансграничных связей в канал военной или политической угрозы. Поэтому закон особо преследовал переход к противнику, передачу запрещённого оружия, разведывательную деятельность и разглашение сведений. В таких ситуациях групповая автономия иностранцев не имела значения: вопросы публичной безопасности прямо подчинялись юрисдикции Тан.

Ограничения касались не только очевидных преступлений. Иностранным гостям могли запрещать свободное общение с посторонними во время следования к двору; местным чиновникам предписывалось встречаться с ними лишь по служебной необходимости. Регулировались браки между временно пребывающими иностранцами и танскими женщинами, а также вывоз жён и наложниц за пределы империи. В ряде периодов ограничивались частная торговля и несанкционированные контакты. Шаоюнь Ян показал, что подобные запреты не были исключительно позднетанской реакцией ксенофобии: их корни прослеживаются в более ранней политике контроля внешнего обмена [6].

Такой материал заставляет уточнить само понятие танского «космополитизма». Наличие согдийцев, персов, арабов, индийцев, корейцев и японцев в Чанъане, Лояне, Гуанчжоу и других центрах свидетельствует о высокой интенсивности контактов, но не доказывает равной свободы движения. Исследования Фонга и Янга выявляют контрольное измерение имперской политики: регистрация, разрешительный порядок поездок, натурализация, наблюдение за религиозными деятелями и возможность отказа в выезде составляли обычные инструменты управления [5; 9; 10; 13]. Точнее говорить о Тан как об империи селективного включения: она принимала полезных чужеземцев, но стремилась переводить их мобильность в административно наблюдаемую форму.

Право поэтому нельзя оценивать только по критерию «способствовало — препятствовало» торговле. Запрет частной продажи оружия мог сокращать объём обмена, но одновременно уменьшал военные риски. Ограничение общения посольств затрудняло частные связи, однако облегчало дипломатический контроль. Пресечение межбраков с временными гостями нарушало личную автономию, но соответствовало стремлению государства предотвратить неконтролируемое перемещение людей и имущества. Внутренняя рациональность этих норм была имперской, а не либеральной.

Эта двойственность была не случайным противоречием, а способом управления внешними связями. Военные угрозы не позволяли отказаться от контроля, тогда как дипломатические, фискальные и культурные выгоды контактов не позволяли полностью закрыть внешние связи. После восстания Ань Лушаня соотношение открытости и контроля изменилось, но переход к более жёсткому режиму не был одномоментным: различные группы, города и виды деятельности регулировались неодинаково [10; 13].

В практическом применении норм важную роль играло усмотрение. Император мог простить незаконный выезд, местный чиновник — не применить предусмотренное наказание, а конкретный конфликт — получить политическое решение. Это не означает, что закон был фикцией. Напротив, исключение обычно формулировалось относительно известного правила, а участники осознавали риск нарушения [5]. Для правового порядка важна не механическая одинаковость всех решений, а наличие языка, которым власть объясняла разрешение, запрет или помилование.

Статус человека также мог меняться. Иностранец, прибывший как посланник, купец или монах, после длительного пребывания, службы или натурализации включался в иные административные категории. Такая подвижность давала империи возможность привлекать знания, капитал и труд, но ставила личную свободу в зависимость от решения государства. Именно поэтому образ «открытой Тан» следует заменить более точной формулой: открытость была селективной, статусной и обратимой.

**5. Циркуляция права и институциональное наследие**

Контролируемый характер мобильности не исключал циркуляции правовых текстов и административных моделей. Шёлковые маршруты передавали не только товары и религии, но и юридические знания, способы документирования и представления о кодифицированном управлении. Однако влияние религиозных и культурных обменов на право следует понимать не как прямое «добавление» внешних норм в Танский кодекс, а как длительную переработку идей через перевод, общины, двор и локальных посредников [7].

Влияние Тан на соседние государства Восточной Азии также следует описывать через выбор и адаптацию, а не через прямую передачу готового кодекса. Японские миссии, обучение в танских учреждениях и перевозка текстов способствовали восприятию танских правовых и административных форм; корейские и вьетнамские правовые памятники также включались в более широкий круг китайских институциональных образцов. Однако эти процессы нельзя сводить к односторонней «пересадке» готового кодекса по торговому маршруту. Рецепция включала выбор, перевод, адаптацию к местной структуре власти и последующее самостоятельное развитие [1; 2; 8].

Если говорить о региональной общности правовых форм, то её следует понимать не как строгую типологическую категорию, а как условную сравнительно-историческую модель. Общность терминов, структуры наказаний и административных институтов не устраняла различий. Более корректный вывод состоит в том, что дипломатические и образовательные каналы, морские и сухопутные коммуникации, а также престиж танской государственности создали инфраструктуру циркуляции права. Следовательно, маршруты выступали каналами передачи, но не исчерпывали причин и механизмов рецепции.

После падения Тан отдельные городские формы, административные навыки и представления о законной власти продолжали существовать в изменившихся политических условиях, что показывает материал восточного Тянь-Шаня и уйгурской эпохи [14].

Для истории права важно отличать циркуляцию текста от циркуляции профессионального знания. Норма могла быть заимствована буквально, функционально преобразована или лишь служить престижным образцом. Сам по себе привезённый кодекс ещё не означал устойчивого правового влияния: его применение требовало людей, способных читать комментарий, соотносить общую статью с казусом и встроить её в местную администрацию. Поэтому правовое влияние было устойчивым там, где возникала местная группа интерпретаторов, а не просто там, куда достигал торговый корабль.

Эта перспектива корректирует и тезис о прямом формировании единой региональной правовой традиции в эпоху Тан. Танская кодификация действительно стала важнейшим региональным образцом, однако правовая общность формировалась постепенно и многоканально. Она не была учреждена одним актом и не совпадала с границами торговой сети. Поэтому более доказательно говорить о танском ядре трансрегиональной традиции кодифицированного управления. Соседние государства воспринимали этот образец избирательно и перерабатывали его в соответствии со своими политическими потребностями.

**6. Методологические пределы современных аналогий**

С этой точки зрения прямые аналогии между танским правовым порядком и современной инициативой «Один пояс, один путь» методологически рискованны. В работах Ван Лиминя такая аналогия используется для подчёркивания актуальности танского правового опыта, однако сама возможность сравнения требует существенных ограничений [1; 2]. Современный «Шёлковый путь» является не восстановлением готового древнего института, а политико-экономической и академической конструкцией нового времени; это особенно ясно показывает исследование Т. Сена о формировании понятия «Морской Шёлковый путь» в современных дискурсах [11]. Поэтому танский материал может использоваться не как нормативный образец, а как исторический источник для функционального сравнения.

Такое сравнение целесообразно ограничить четырьмя вопросами: распределением юрисдикции, исполнением обязательств, пределами правового плюрализма и соотношением мобильности с безопасностью. Эти вопросы вытекают из двойственной природы танского порядка. С одной стороны, право снижало неопределённость обмена, обеспечивая защиту имущества, договоров, транспорта и доступ к судебной процедуре. С другой стороны, исследования последних лет показывают, что эта предсказуемость была связана с государственным контролем, ограничением внешних контактов, регулированием браков, выезда и статуса иностранцев [5; 6; 9; 10; 13]. Следовательно, танская модель не была режимом свободной трансграничной торговли, а представляла собой систему контролируемой мобильности.

Главный предел аналогии связан с различием правовых оснований. Танский опыт не может служить прямым правовым образцом для современных проектов, поскольку современная правовая среда основана на суверенном равенстве государств, договорных механизмах, коммерческом арбитраже и иных принципах легитимности. Его значение состоит не в воспроизведении имперских решений, а в постановке вопросов о компетентном суде, исполнении обязательств, согласовании правопорядков и пределах административного усмотрения. В этом смысле историческая аналогия продуктивна только на функциональном уровне и не допускает механического переноса танских институтов в современный контекст [4; 11; 13].

**Заключение**

Танское право нельзя сводить ни к нейтральной поддержке торговли, ни к одному лишь репрессивному контролю. Его защитная функция имела практическое значение: законодательство и административная практика

обеспечивали охрану жизни, имущества, транспорта, договоров и качества товаров. При определённых условиях иностранцы, посланники и прибывшие лица могли получать содержание, место поселения и доступ к суду. Норма о взаимных преступлениях хуавайжэнь снижала неопределённость применимого права, но только в пределах, установленных имперской юрисдикцией.

Одновременно эти гарантии были встроены в имперскую систему. Признание обычая зависело от решения танского органа; межгрупповые дела подчинялись территориальному праву; передвижение, торговля, дипломатическое общение и браки могли ограничиваться соображениями безопасности. Поэтому правовой плюрализм был условным, а мобильность — контролируемой. Космополитический облик городов Тан не отменял плотного административного надзора.

Танское право не создало единого «права Шёлкового пути». Его историческое значение состояло в другом: оно связало разнородные локальные практики с устойчивой системой юрисдикции и принуждения, сделав значительную часть обмена более предсказуемой. Шёлковые маршруты, в свою очередь, расширили циркуляцию юридических текстов и институтов, но рецепция в Восточной Азии проходила через перевод и адаптацию.

Для современного сравнительного анализа важен не поиск прямой преемственности, а понимание механизма: трансрегиональное сотрудничество устойчиво тогда, когда участник заранее знает правила, имеет доступ к разрешению спора и защищён от произвольного изменения статуса. Поэтому историческая значимость танского права заключалась не в создании свободного торгового пространства, а в институционализации контролируемой предсказуемости трансрегионального обмена.

Финансирование. Исследование выполнено в рамках Восьмой программы академического наставничества научных руководителей Шанхайского университета иностранных языков (проект № 2025DSYL016).

# B. X. Karmisheva asarlarida o‘zbek urug‘-qabilalari etnonimi masalasi

***AMIRBEK TAG‘BAYEV***
*Tadqiqotchi, TDSHU*

***Annotatsiya.*** *Maqolada XX asr etnografiyasining yetuk vakili B.X. Karmishevaning (1916-2000) ilmiy asarlarida o‘zbek xalqi tarkibidagi urug‘-qabila etnonimlarining tadqiq etilishi tahlil qilinadi. Muallif Karmishevaning ko‘p yillik dala tadqiqotlari asosida turk, qarluq, barlos, lo‘qay, qo‘ng‘irot, mang‘it, ming, yuz, nayman, do‘rman, jaloyir, qatag‘on va boshqa etnonimlarning ilmiy asoslanishini ko‘rib chiqadi. Karmishevaning uch qatlamli subetnik konsepsiyasi K. Shoniyozov, T.I. Sultonov, B.A. Axmedov, A. Asqarov kabi olimlarning qarashlari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada Karmisheva ilmiy merosining zamonaviy o‘zbek etnografiyasi uchun dolzarbligi ko‘rsatilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *etnonim, o‘zbek urug‘lari, B.X. Karmisheva, etnografiya, qabila, subetnik qatlam, Surxondaryo, Qashqadaryo.*

***Аннотация.*** *В статье анализируется изучение родоплеменных этнонимов в составе узбекского народа в научных трудах выдающегося этнографа XX века Б.Х. Кармышевой (1916–2000). На основе многолетних полевых исследований ученой рассматриваются материалы о таких этнонимах, как тюрк, карлук, барлас, локай, кунграт, мангыт, минг, юз, найман, дурмен, джалаир, катаган и других. Особое внимание уделяется методике Кармышевой, сочетавшей полевые этнографические данные с письменными источниками, генеалогическими сведениями, особенностями хозяйства и материальной культуры. Ее трехслойная модель этнической структуры сопоставляется с подходами К. Шаниязова, Т.И. Султанова, Б.А. Ахмедова и А. Аскарова. Показано, что этнонимы в трудах Кармышевой выступают не только как названия родов и племен, но и как источник для реконструкции исторических миграций, процессов оседания, ассимиляции и трансформации локальной идентичности. Делается вывод о сохраняющемся источниковедческом и историографическом значении научного наследия Б.Х. Кармышевой для современной этнографии Узбекистана.*

*Ключевые слова: этноним, узбекские роды и племена, Б.Х. Кармышева, этнография, племя, субэтнический слой, Сурхандарья, Кашкадарья.*

***Abstract.*** *The article analyzes the study of clan and tribal ethnonyms within the Uzbek people in the scholarly works of the prominent twentieth-century ethnographer B.Kh. Karmisheva (1916–2000). Drawing on her long-term field research, the study examines materials on such ethnonyms as Turk, Karluk, Barlas, Lokay, Kungrat, Manghit, Ming, Yuz, Naiman, Durmen, Jalair, Katagan and others. Particular attention is paid to Karmisheva’s methodology, which combined ethnographic field data with written sources, genealogical evidence, economic patterns and elements of material culture. Her three-layer model of ethnic structure is compared with the approaches of K. Shoniyozov, T.I. Sultanov, B.A. Ahmedov and A. Asqarov. The article shows that*

*ethnonyms in Karmisheva's works function not merely as names of clans and tribes, but also as sources for reconstructing historical migrations, sedentarization, assimilation and transformations of local identity. It concludes that Karmisheva's scholarly legacy retains significant source-critical and historiographical value for contemporary ethnographic studies of Uzbekistan.*

*Keywords: ethnonym, Uzbek clans and tribes, B.Kh. Karmisheva, ethnography, tribe, subethnic layer, Surkhandarya, Kashkadarya.*

## KIRISH

O‘zbek xalqining etnik tarixi Markaziy Osiyo tarixshunosligining eng murakkab va ko‘p qirrali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu sohadagi asosiy muammolardan biri o‘zbek xalqi tarkibidagi urug‘-qabila bo‘linmalarining etnonimlariga – ularning kelib chiqishi, semantik mazmuni, tarixiy qatlamlari va hozirgi davrgacha saqlanib kelish mexanizmlariga oiddir. Etnonimlar xalqning etnik xotirasining muhim tashuvchisi sifatida nafaqat tilshunoslik, balki ijtimoiy antropologiya, tarix va madaniy merosni o‘rganish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek xalqi tarkibidagi turk, qarluq, qo‘ng‘irot, mang‘it, nayman, barlos kabi urug‘-qabila nomlari ko‘p asrlik etnik jarayonlarning tirik guvohidir – ular orqali Movarounnahrning murakkab etnik tarixini kuzatish mumkin.

Bu borada sovet etnografiyasining yetuk vakili Balqis Xalilovna Karmisheva (1916-2000) alohida o‘rin egallaydi. U yarim asrdan ortiq davom etgan ilmiy faoliyati mobaynida o‘n beshdan ziyod dala ekspeditsiyalarini amalga oshirib, O‘zbekiston va Tojikiston janubiy mintaqalari aholisining etnik tarkibini, urug‘-qabila tuzilmasini va etnonimlarning tarixiy qatlamlarini tizimli ravishda tadqiq etgan. B. Karmisheva mahalliy tillarni mukammal bilganligi, uzoq yillar davomida bir mintaqada izchil ishlashi va keng ko‘lamli dala materiallarni yig‘ishi uning asarlariga betakror empirik qiymat bag‘ishlagan. V.P. Alekseyev va V.N. Basilov ta’kidlaganidek, uning monografiyasi «faqat tajribali dala etnografi qo‘lidan kelishi mumkin bo‘lgan noyob faktik materialga asoslangan» [1]. Shu boisdan, B. Karmisheva asarlari bugungi kunda ham o‘zbek etnonimikasini tadqiq etishda birlamchi manbalar sirasiga kiradi.

B.X. Karmisheva 1916 - yilda Petrogradda tug‘ilgan, 1940 - yilda Leningrad davlat universitetining sharqshunoslik fakultetini tamomlagan. Ilmiy rahbari mashhur turkshunos L.P. Potapov bo‘lgan. U dastlab Tojikiston SSR Fanlar akademiyasi Tarix, arxeologiya va etnografiya institutida (1945-1956), so‘ngra SSSR Fanlar akademiyasi Etnografiya institutining O‘rta Osiyo va Qozog‘iston bo‘limida yetakchi ilmiy xodim lavozimida faoliyat yuritgan [2]. B.X. Karmishevaning ilmiy yo‘nalishi boshidanoq Janubiy O‘zbekiston va Janubiy Tojikiston aholisining etnik tarkibini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bu

mintaqaning etnik jihatdan «g‘oyat rang-barang» xususiyati uning asosiy tadqiqot maydoni bo‘lgan.

## ASOSIY NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mazkur yondashuv maqolada tarixiy-qiyosiy va tarixshunoslik tahlili bilan to‘ldiriladi. Karmisheva qayd etgan etnonimlar uning turli yillarda nashr qilingan ishlarida qanday kontekstda qo‘llanganiga e’tibor qaratilib, bir etnonimning hududiy tarqalishi, urug‘-qabila tizimidagi o‘rni va xo‘jalik-madaniy xususiyatlari o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi. Bunday usul etnonimni faqat nom sifatida emas, balki tarixiy jarayonning belgisi sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Shu sababli maqolada “turk”, “qarluq”, “barlos”, “loqay”, “qo‘ng‘irot”, “mang‘it”, “nayman” singari nomlar Karmisheva asarlaridagi konkret etnografik tavsiflar va boshqa tadqiqotchilarning xulosalari bilan qiyoslanadi [4–10].

Tadqiqotning manbaviy asosini, avvalo, B.X. Karmishevaning 1954–1997-yillarda nashr etilgan monografiya va maqolalari tashkil etadi [3–8]. Ularning muhim xususiyati shundaki, muallif bir xil yoki yaqin hududlarga turli davrlarda qayta murojaat qilgan va etnik nomlar, xo‘jalik shakllari hamda mahalliy identifikatsiyadagi o‘zgarishlarni uzoq vaqt oralig‘ida kuzatish imkoniga ega bo‘lgan. Maqolada ushbu materiallar diaxron tamoyil asosida o‘qilib, etnonimning saqlanishi yoki yo‘qolishi muayyan guruhning ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi yoxud o‘troq turmush tarziga o‘tishi bilan bog‘liq jarayonlar doirasida talqin qilinadi. Bunda Karmishevaning dala ma’lumotlari keyingi tarixshunoslikdagi qarashlar bilan qiyoslanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA MANBALARI

B. Karmishevaning o‘zbek etnonimlariga bevosita aloqador ilmiy merosini bir necha muhim asarlar tashkil etadi. Uning birinchi yirik ishi, nomzodlik dissertatsiyasi asosida yozilgan «Узбеки-локайцы Южного Таджикистана» (1954) monografiyasi bo‘lib, unda Janubiy Tojikistondagi loqay urug‘ining etnik tarixi, xo‘jaligi va madaniyati batafsil o‘rganilgan [3]. Loqaylar Dashti Qipchoqlik o‘zbek qabilalaridan biri sifatida Hisor, Ko‘lob va Vaxsh vodiylarida yashagan, ularning ko‘chmanchi chorvador turmush tarzi XX asr boshlarigacha saqlanib qolgan edi. Bu monografiya loqay etnonimi bo‘yicha ilk yirik ilmiy tadqiqot sifatida ahamiyatlidir.

1960 – yilda «Советская этнография» jurnalida chop etilgan «Этнографическая группа «тюрк» в составе узбеков» maqolasi etnografiya fanida muhim yangilik bo‘ldi [4]. Undan oldin «turk» nomi ko‘pincha umumiy etnik atama sifatida qo‘llanilgan, ammo B.X. Karmisheva uni birinchi marta mustaqil tarixiy-etnografik guruh sifatida ajratib, bu guruh mo‘g‘ullar istilosidan oldingi Movarounnahr turkiy aholisining bevosita avlodlari ekanligini asosladi. Dala materiallari asosida u turklarning Janubiy Tojikiston va Surxondaryo hududlaridagi tarqalishini, ularning yarim ko‘chmanchi turmush tarzini va boshqa

o‘zbek guruhlaridan farqli xususiyatlarini batafsil yoritdi. Diqqatga sazovor jihati shundaki, Ko‘lob viloyatidagi turklarning urug‘-qabilaviy bo‘linish tizimi butunlay yo‘qolgan edi, B.X. Karmisheva buni ularning mintaqadagi eng qadimiy aholilardan biri ekanligiga dalil sifatida baholadi.

B.X. Karmishevaning markaziy fundamental asari – doktorlik dissertatsiyasi sifatida himoya qilingan «Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана (по этнографическим данным)» (1976) monografiyasi hisoblanadi [5]. Monografiyada Sharqiy Buxoro va umuman Movarounnahrning etnik tarixi, Shayboniyxon o‘zbeklarining kelishidan oldingi va keyingi davrdagi etnik jarayonlar keng yoritilgan. B.X. Karmisheva har bir etnik guruhning joylashuvini, ichki tuzilmasini, boshqa guruhlar bilan aloqalarini va assimilyatsiya jarayonlarini tahlil qilgan. Ayniqsa, qo‘ng‘irot qabilasining genealogik tuzilmasi haqidagi tahlili diqqatga sazovor: olima bu tuzilmaning «juda harakatchan, ayniqsa uning quyi bo‘g‘inlarida» ekanligini qayd etgan [5, 94-bet]. Bu xulosa shuni ko‘rsatadiki, qabilaviy tuzilma qat’iy ijtimoiy tashkilot emas, balki tarixiy sharoitlarga moslashuvchi, o‘zgaruvchan tizim bo‘lgan.

Etnonimlar nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir asari – «Следы средневековых этнонимов и антропонимов в узбекских генеалогиях» (1978) maqolasi bo‘lib, unda olima o‘zbek shajaralarida (XIX-XX asr boshlari yozma va og‘zaki nasabnomalarida) saqlanib qolgan o‘rta asr etnonim va antroponimlarining izlarini aniqlagan [6]. Bu maqola B.X. Karmishevaning yondashuvini yaqqol aks ettiradi: u tirik xalq xotirasidagi etnonimlarni fors-arab manbalari hamda tarixiy hujjatlardagi qaydlar bilan solishtirish orqali etnonimik uzluksizlikni isbotlagan.

Shu bilan birga, ««Кочевая степь» Мавераннахра и её население в конце XIX – начале XX в.» (1980) maqolasida olima Movarounnahr ichki cho‘llarida va chala cho‘l hududlarida yashovchi yarim ko‘chmanchi o‘zbek qabilalarining etnik tarkibini umumlashtirgan [7]. «Этнографические очерки узбекского сельского населения» (1969) va «Узбеки племени кыргыз в Среднезеравшанской долине» (1997) kabi asarlarida esa alohida qabilalar va ularning etnonimik taqdiriga bag‘ishlangan chuqur tahlillar berilgan [8].

B.X. Karmisheva tadqiq etgan o‘zbek urug‘-qabila etnonimlarining doirasi g‘oyat keng bo‘lib, ularni uning nazariy konsepsiyasi doirasida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Olima o‘zbek xalqi tarkibida uchta asosiy etnik qatlamni ajratgan. Birinchi qatlam, inqilobdan oldingi adabiyotda «sart» deb atalgan qadimiy o‘troq turkiyzabon aholi bo‘lib, ular urug‘-qabilaviy bo‘linishga ega bo‘lmagan, shahar va yirik qishloqlarda istiqomat qilgan. Etnik jihatdan ular Movarounnahrning qadimiy eroniy aholisi bilan turkiy ko‘chmanchilarining ko‘p asrlik aralashuvining mahsuli hisoblangan. Bu qatlam vakillari etnonimlarni to‘liq

yo‘qotgan – ular o‘zlarini biron-bir qabila nomi bilan emas, balki oddiy «o‘zbek» yoki «sart» deb atagan [4, 5].

Ikkinchi qatlam, VI-XIII asrlarda Movarounnahrga kirib kelgan turkiy va turk-mo‘g‘ul qabilalarining avlodlari bo‘lib, ular «turk» umumiy nomi bilan tanilgan. Bu qatlamning ko‘pchilik vakillari XX asr boshlariga qadar yarim ko‘chmanchi turmush tarzini saqlab qolgan edi. B.X. Karmisheva bu qatlamga turk, qarluq, barlos, chag‘atoy, kaltatoy va muso-bazariy kabi guruhlarni kiritgan. Ularning etnonimlarining qisman saqlanib qolganligi muhim dalil bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, Ko‘lob viloyatidagi turklarning urug‘-qabila tizimi butunlay yo‘qolgan, ammo «turk» etnonimi saqlanib qolgan; Surxondaryo va Qashqadaryo qarluqlari esa «turk-qarluq» shaklida qo‘sh nom saqlab kelgan. Barloslar haqida esa olima V.V. Bartoldning ularni “sof mo‘g‘ul qabilasi” – deb hisoblagan fikriga qarshi chiqqan va ularni turklashgan aralash komponent sifatida baholagan. Bu fikrni Qashqadaryo vodiysidagi dala materiallari, shu jumladan barloslarning til, moddiy madaniyat va turmush tarzi xususiyatlari tasdiqlaydi [5].

Uchinchi, eng keng tarqalgan qatlam, XV-XVI asrlarda Shayboniyxon boshchiligida Movarounnahrga kelgan Dashti Qipchoqlik o‘zbek qabilalaridir. Ularning urug‘-qabila tuzilmasi eng yaxshi saqlanib qolgan va olima o‘z dala tadqiqotlarida bu etnonimlarning ko‘pchiligini “tirik holda” qayd etgan. Bu qatlamga qo‘ng‘irot, mang‘it, ming, yuz, qirq, nayman, do‘rmon, kenagas, qatag‘on, saroy, jaloyir, qipchoq, xitoy, olchin, qushchi, mojar, bahrin va boshqa qabilalar kiradi.

B.X. Karmisheva Dashti Qipchoqlik qabilalar etnonimlarining saqlanishida an’anaviy sport musobaqalari, jumladan, ko‘pkari (uloq)ning rolini alohida ta’kidlagan. 1967 - yilda Samarqand viloyatidagi dala tadqiqotlarida u ko‘pkari ishtirokchilarining ikki raqobatchi guruhga: «mang‘it» va «qirg‘iz» toifalariga bo‘linishini qayd etgan [8]. Bu bo‘linishga ko‘ra ming, yuz, qirq, xitoy kabilar mang‘it toifasiga, qo‘ng‘irot, saroy, jaloyir, turkman kabilar esa qirg‘iz toifasiga mansub bo‘lgan. Naymanlar alohida mavqeda turib, ular Qirg‘izning birinchi xotinidan tug‘ilgan avlod sifatida sadr va badr bo‘linmalariga ega bo‘lgan. Ushbu ma’lumot ikki jihatdan muhim hisoblanadi. Birinchidan, u qabilaviy identifikatsiyaning XX asrgacha saqlanib kelganligini ko‘rsatadi; ikkinchidan, u etnonimlarning nafaqat rasmiy hujjatlarda, balki kundalik marosim hayotida ham tirik bo‘lganligini isbotlaydi.

Diqqatga sazovor jihati shundaki, B.X. Karmisheva shu jarayonda qabilaviy iyerarxiyaning siyosiy omillarga qanchalik bog‘liq ekanligini ham ko‘rsatgan. Masalan, bahrin qabilasi XVIII asrdagi siyosiy voqealar, Abulfayz-xon davrida mang‘itlar bilan bog‘liq deb gumon qilingan bosh amirning jazolanishi, natijasida og‘ir talafotga uchragan va XX asr boshlarida mahalliy aholi orasida «bahrin hisobga kirmaydi» («бахрин сонга кирмайди») iborasi keng tarqalgan edi [8].

Bu dalil etnonimning faqat etnik emas, balki siyosiy-ijtimoiy kategoriya ham ekanligini yorqin ko‘rsatadi.

B.X. Karmisheva shuningdek, etnik jihatdan qabila bo‘lmagan, lekin etnonimga o‘xshash nom saqlab kelgan guruhlarni ham tadqiq etgan. Xususan, u xo‘ja va sayid guruhlarini “tabaqaviy-etnik” yoki “etnik emas, balki ko‘proq tabaqaviy guruhlar” deb tasniflagan [5, 123, 148-betlar]. An‘anaviy nuqtai nazardan bu guruhlar arab avlodlari sifatida qaralgan bo‘lsa, olima dala materiallari asosida ularning mahalliy turkiy va eroniy aholi bilan chuqur aralashganligini ko‘rsatgan. Bu xulosa etnonimlarning har doim ham etnik kelib chiqishni aks ettirmasligini, ba‘zan ular ijtimoiy maqom belgisi sifatida shakllanganligini tasdiqlaydi.

Olimaning chag‘atoy etnonimi haqidagi tahlili ham alohida e’tiborga loyiqdir. Uning ma’lumotiga ko‘ra, bu etnonim dastlab davlat-ma’muriy uyushma nomi sifatida paydo bo‘lgan va turli qabilalarni qamrab olgan. Vaqt o‘tishi bilan chag‘atoylarning bir qismi o‘zini tojik, boshqa qismi o‘zbek – deb hisoblagan. Bu holat eron va turk tilli aholining ko‘p asrlik aralashuv jarayonining murakkabligini yaqqol aks ettiradi [5]. B.X. Karmisheva ta’kidlashicha, mahalliy rivoyatlar ayrim chag‘atoy guruhlarini ko‘chmanchi turkiy qabilalar bilan bog‘lasa-da, amalda o‘troq eroniy substrat ko‘pchilik hollarda ustunlik qilgan.

Olima metodologiyasining o‘ziga xos xususiyatlari haqida alohida to‘xtalish zarur. Birinchidan, u sintetik yondashuvni qo‘llagan. Ya’ni, dala etnografiyasi, yozma manbalar, til ma’lumotlari, antropologik va tarixiy-demografik materiallar birga qo‘llanilgan. Ikkinchidan, hududiy aniqlik tamoyiliga amal qilgan: har bir etnonim aniq bir geografik makonga, qishloq va tuman darajasida, bog‘langan holda qayd etilgan. Uchinchidan, diaxron tahlil usulidan foydalanilgan: XIX-XX asrlardagi tirik etnonim yozma manbalardagi XVI-XVII asr qaydlari bilan solishtirilgan. To‘rtinchidan, xo‘jalik-madaniy tipologiya tamoyili qo‘llanilgan: etnonimlar nafaqat til hodisasi, balki turmush tarzi, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik kontekstida ham o‘rganilgan. Masalan, loqaylar asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan, barloslar esa o‘troq dehqonchilikka o‘tgan – bu farqlar etnonimlarning saqlanish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

B.X. Karmishevaning o‘zbek etnonimlariga oid xulosalarini boshqa olimlarning tadqiqotlari bilan solishtirish uning ilmiy merosining o‘rnini yanada aniqroq belgilash imkonini beradi.

O‘zbek etnologiyasining yetuk vakili Karim Shoniyozov o‘zbek etnonimikasi sohasida B.X. Karmishevaga eng yaqin olimlardan biri hisoblanadi. Ikkalasi ham L.P. Potapovning shogirdlari bo‘lgan, dala-etnografik materiallarning muhimligini tan olgan va qarluq etnonimini chuqur o‘rgangan. K. Shoniyozovning «Узбеки-карлуки (историко-этнографический очерк)» (1964) va «К этнической истории узбекского народа» (1974) asarlari qarluq etnonimining kelib chiqishi

va tarixiy taqdiri bo‘yicha muhim manba hisoblanadi [9]. So‘nggi yirik monografiyasi «O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni» (2001) esa o‘zbek etnogenezining barcha bosqichlarini qamrab olgan [10]. Biroq ikki olim o‘rtasidagi metodologik farqlar ham sezilarlidir. K. Shoniyozov avtoxton-turkiy konsepsiyaga ko‘proq tayanib, o‘zbek xalqining shakllanishini juda erta davrlarga, miloddan oldingi asrlarga olib borgan, saklar va massagetlarni turkiy xalqlar – deb hisoblagan. B.X. Karmisheva esa ko‘p qatlamli sintez modeliga tayanib, turk va eroniy tilli komponentlarning uzoq muddatli o‘zaro ta’siri natijasida o‘zbek xalqining shakllanganini ta’kidlagan. Bu nuqtada B.X. Karmisheva S.P. Tolstov va A.Yu. Yakubovskiyning «Eron va Turon» konsepsiyasiga yaqinroq turgan. Shunga qaramay, B. Karmisheva va K. Shoniyozovning qarluq etnonimi bo‘yicha xulosalari bir-birini to‘ldirib, bu qabilaning Movarounnahrdagi tarixiy o‘rnini har tomonlama yoritish imkonini bergan.

T.I. Sultonov «Кочевые племена Приаралья в XV-XVII вв.» (1982) monografiyasida o‘zbek qabilalarining yozma manbalardagi ro‘yxatlarini manbashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilgan [11]. Bugungi kunda o‘n sakkizdan ortiq «92 o‘zbek qabilasi» ro‘yxati ma’lum bo‘lib, ularning eng erta namunalari XVI asrga oid. T. Sultonov aniqlagan muhim tamoyilga ko‘ra, ro‘yxat boshida turgan qabila nomi katta siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Olimaning dala materiallari bu manbashunoslik xulosalarini empirik jihatdan tasdiqlaydi. B.X. Karmisheva qayd etgan qo‘ng‘irot, qatag‘on, do‘rmon, yuz, saroy, nayman kabi etnonimlarning ko‘pchiligi T. Sultonov tahlil qilgan 92 ro‘yxatida ham mavjud. Bundan tashqari, B. Karmishevaning qirg‘iz qabilasi haqidagi materiallarida T. Sultonovning tamoyili tasdiqlangan. Ya’ni, kichik sonli bo‘lishiga qaramay, qirg‘iz qabilasi ro‘yxatlarda oldingi o‘rinlarni egallagan va Buxoro xonligida imtiyozli mavqega ega bo‘lgan [8]. Shunday qilib, ikki olimning yondashuvlari, T. Sultonovning yozma manbalar tahlili va B. Karmishevaning dala materiallari, bir-birini mustahkamlab, o‘zbek etnonimik tizimining tarixiy uzluksizligini tasdiqlaydi.

B.A. Ahmedov «Государство кочевых узбеков» (1965) asarida Dashti Qipchoqlik o‘zbeklarning Abulxayrxon davlati doirasidagi rivojini va Shayboniylar davlatidagi qabilalar tarkibini yozma manbalar asosida o‘rgangan [12]. B. Ahmedov bu davlat tarkibiga sherin, kerait, qatag‘on, olchin, xitoy, ming, bahrin, jaloyir, utarchi, qang‘li, qo‘ng‘irot, do‘rmon, qushchi, mojar, kenagas kabi qabilalarni kiritgan. B. Karmisheva va B. Ahmedovning yondashuvlari bir-birini to‘ldiruvchi xarakterga ega. Chunonchi, B. Ahmedov yozma manbalardan, B. Karmisheva esa dala materiallaridan kelib chiqadi va ikki manbadagi etnonim ro‘yxatlarining mosligi bu tizimning tarixiy haqiqiyligini tasdiqlaydi.

Akademik Ahmadali Asqarov «O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi» (2007) monografiyasida K. Shoniyozov yondashuvini rivojlantirib, o‘zbek xalqining

qadimgi turkiy aholining bevosita avlodi ekanligini ta’kidlagan [13]. A. Asqarov o‘zbek xalqining shakllanishini Qoraxoniylar yoki ularning oldingi davriga olib borgan, bu B. Karmishevaning Temuriylar va Shayboniylar davrini asosiy bosqich, deb hisoblagan yondashuvidan tubdan farq qiladi. A. Asqarov ilmiy qarashlari
B. Karmishevaning uch qatlamli modelini tanqid ostiga olib, «sart» va «turk» qatlamlari o‘rtasidagi farqlanishni sun‘iy – deb baholagan. Biroq shuni ta’kidlash joizki, B. Karmishevaning dala-etnografik dalillari, ayniqsa turk guruhining o‘ziga xos yarim ko‘chmanchi turmush tarzi, alohida shevaviy xususiyatlari, moddiy madaniyat va antropologik jihatdan boshqa o‘zbek guruhlaridan farqlar, bu farqlanishning empirik asosga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois, har ikki yondashuv: A. Asqarovning avtoxton-turkiy modeli va B. Karmishevaning sintez modeli – bir-birini to‘ldirib, o‘zbek etnonimikasining turli qirralari haqida kengroq tasavvur beradi.

XX asr sharqshunoslaridan V.V. Bartold barlos va jaloyirlarni mo‘g‘ul qabilalari deb hisoblagan [14]. B. Karmisheva bu masalani qayta ko‘rib chiqib, barloslarning turklashgan aralash komponent ekanligini, eron tilli substratning ularning tarkibida sezilarli mavjudligini Qashqadaryo vodiysi materiallari asosida isbotlagan. O.A. Suxareva esa «К истории городов Бухарского ханства» (1958) va boshqa asarlarida Buxoro, Qarshi va Shahrisabz shaharlarining etnografiyasini o‘rganib, shahar o‘zbeklari orasidagi qabilaviy identifikatsiyaning izlarini, xususan, shaharning ikki raqobatchi qismga bo‘linishi an’anasini qayd etgan [15]. O. Suxareva bu an’anani S.P. Tolstovning ibtidoiy jamiyatdagi dual tashkilot haqidagi nazariyasiga bog‘lagan. B. Karmishevaning qishloq va yarim ko‘chmanchi aholi materiallari O. Suxarevaning shahar tadqiqotlari bilan birgalikda mintaqaning yaxlit etnik manzarasini yaratishga xizmat qiladi.

V.G. Moshkova o‘zbek qabilalarining (qo‘ng‘irot, lo‘qay, mang‘it, qatag‘on) gilam to‘qish an’analari va urug‘-qabilaviy markerlar orqali etnik identifikatsiyani o‘rgangan [16]. B. Karmisheva V. Moshkovaning xulosalarini chorvachilik va o‘troq turmush tarzi jihatidan to‘ldirib, moddiy madaniyatning etnonim bilan bog‘liqligini keng materiallar asosida ko‘rsatgan. Olima shuningdek Nurota turkmanlari masalasida V. Moshkovaning shu turkmanlar va kaspiybo‘yi turkmanlar o‘rtasidagi umumiyliklar haqidagi xulosasini qo‘llab-quvvatlagan va bu fikrni V.Ya. Zezenkova antropologik tadqiqotlari bilan mustahkamlagan [5].

Karmisheva materiallarining yana bir muhim jihati etnonim, genonim va hududiy nomlarning o‘zaro munosabatini kuzatish imkonini berishidir. Urug‘ yoki qabila nomi ayrim holatlarda yirik etnik birlikni bildirsa, boshqa vaziyatda uning quyi genealogik bo‘g‘ini yoki muayyan hududda yashovchi lokal guruh nomi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois bir xil nomning turli manbalarda uchrashi avtomatik ravishda bir xil genealogik kelib chiqishni anglatmaydi.

Karmishevaning genealogiyalarni yozma manbalar bilan qiyoslashga asoslangan yondashuvi aynan shu metodologik ehtiyotkorlikni talab qiladi [6]. Bu holat o‘zbek urug‘-qabila nomenklaturasini o‘rganishda nom, nasab haqidagi tasavvur va real tarixiy-etnografik jarayonlarni bir-biridan farqlab tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, etnonimlarning saqlanish darajasi barcha hududlarda bir xil bo‘lmagan. Karmisheva asarlarida Janubiy O‘zbekiston, Janubiy Tojikiston va O‘rta Zarafshon materiallari o‘zaro solishtirilganda, qabila nomining yashovchanligi ko‘pincha guruhning ijtimoiy muhitiga, xo‘jalik faoliyatiga va qo‘shni aholi bilan aloqalarining intensivligiga bog‘liq bo‘lgani ko‘rinadi [5; 8]. Urug‘-qabila bo‘linishi zaiflashgan joylarda ham yirik etnonim, tarixiy rivoyat yoki marosimdagi qarama-qarshi guruhlanish shakli saqlanib qolishi mumkin. Demak, etnonimik xotira genealogik tizimning to‘liq saqlanishiga teng emas; u ayrim belgilar, nomlar va ijtimoiy tasavvurlar orqali davom etadigan murakkab tarixiy hodisadir.

Karmishevaning uch qatlamli tasnifini ham qat’iy va o‘zgarmas etnik chegaralar tizimi sifatida emas, balki XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi etnografik holatni tarixiy jarayonlar bilan bog‘lab tushuntirishga qaratilgan analitik model sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq. Chunki olimaning o‘z materiallarida turli guruhlar o‘rtasida nikoh, xo‘jalik aloqalari, til va madaniyatdagi yaqinlashuv jarayonlari qayd etiladi [5]. Shu ma’noda “qatlam” tushunchasi etnik guruhlarni bir-biridan uzib qo‘yishdan ko‘ra, ularning shakllanish va o‘zaro singish davrlarini farqlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuv Karmisheva asarlaridagi faktik materialni keyingi nazariy qarashlardan ajratib, manbashunoslik nuqtai nazaridan qayta baholash uchun ham muhimdir.

Mustaqillik davri tadqiqotlari B. Karmisheva merosini yangi kontekstda baholamoqda. J.A. Hamrayev Surxon vohasi etnografiyasini o‘rganishda B. Karmishevaning hissasini maxsus maqolada tahlil qilgan [17]. Olim A.X. Doniyorov O‘zbekiston etnografiyasi tarixshunosligida B. Karmisheva o‘rnini alohida ko‘rsatib o‘tgan [18]. Alohida qabilalar, do‘rmon, nayman, qo‘ng‘irot, mang‘it bo‘yicha monografik tadqiqotlar ko‘payib, ularda B. Karmisheva asarlari birlamchi manba sifatida doimiy ravishda keltirilmoqda. Zamonaviy genetik tadqiqotlar ham o‘zbek qabilalarining etnik xilma-xilligini empirik jihatdan tasdiqlash orqali B. Karmishevaning subetnik qatlamlar haqidagi xulosalariga mos kelmoqda. S.N. Abashin esa B. Karmishevani sovet etnografiyasining Markaziy Osiyo bo‘yicha eng yirik dala tadqiqotchilaridan biri sifatida baholagan [19].

## XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida shuni qayd etish mumkinki, B.X. Karmisheva o‘zbek urug‘-qabila etnonimlarini o‘rganishda fundamental hissa qo‘shgan olima

bo‘lib, uning yarim asrlik dala tadqiqotlari natijasida yigirmadan ziyod o‘zbek urug‘-qabila etnonimi – turk, qarluq, barlos, loqay, qo‘ng‘irot, mang‘it, ming, yuz, qirq, nayman, do‘rmon, kenagas, qatag‘on, jaloyir, saroy, bahrin, qirg‘iz, xitoy, chag‘atoy va boshqalar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bu etnonimlarning har biri faqat til hodisasi sifatida emas, balki aniq bir hududga, turmush tarziga va moddiy madaniyatga bog‘langan holda tavsiflanganki, bu B. Karmisheva yondashuvini sof filologik etnonimikadan tubdan farqlantiradi.

B. Karmishevaning uch qatlamli subetnik konsepsiyasi har bir etnonimning tarixiy chuqurligini aniqlash uchun samarali tasnif modeli vazifasini bajaradi. Birinchi qatlam etnonimlarni to‘liq yo‘qotgan, ikkinchi qatlamda ular qisman saqlanib qolgan, uchinchi qatlamda esa eng to‘liq shaklda XX asrgacha yetib kelgan. Bu model K. Shoniyozov va A. Asqarov maktabining avtoxton-turkiy konsepsiyasi tomonidan tanqid ostiga olingan bo‘lsa-da, B. Karmishevaning dala-etnografik dalillari hamon mustahkam empirik poydevor sifatida xizmat qilmoqda.

B. Karmisheva xulosalari T.I. Sultonovning yozma manbalar tahlili, B.A. Ahmedovning tarixiy tadqiqotlari va V.G. Moshkovaning moddiy madaniyat o‘rganishlari bilan qiyosiy tahlil qilinganda, asosiy etnonim ro‘yxatlarida izchil moslik kuzatiladi. Bu moslik o‘zbek qabilaviy tuzilmasining yozma manbalarda va dala materiallarida bir xil aks etganini, demak, u tarixiy haqiqat ekanligini tasdiqlaydi. Zamonaviy tadqiqotlar – genetik tahlil, raqamli kartografiya va og‘zaki tarix kabi yangi metodologiyalar, B. Karmisheva merosini boyitib, uning xulosalarini yanada keng kontekstda tekshirish imkonini yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, B. Karmisheva ilmiy merosi o‘zbek etnonimikasi sohasida bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Uning asarlari o‘zbek xalqining etnik tarixini anglash, milliy o‘ziga xoslikni ilmiy asosda tushunish va kelajak avlodlar uchun etnik xotirani saqlashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek urug‘-qabilalari etnonimlarini har tomonlama chuqur o‘rganish zamonaviy etnografiya oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda va bu yo‘nalishda olima asarlari kelgusida ham asosiy tayanchlardan biri bo‘lishiga shubha yo‘q.

# XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

## Markaziy Osiyodagi xalqaro munosabaatlarni tahlil qilishda nazariy-metodologik yondashuvlarning ahamiyati va zarurati

***ANVAR YULDASHEV***
*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, tarix fanlari doktori, professor*

***Anotatsiya:*** *mazkur maqolada Markaziy Osiyo davlatlarining zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rni va ahamiyati nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot ishida mazkur muammoni o‘rganish bo‘yicha ilmiy nazariya va yondashuvlarning ahamiyati va zarurati ko‘rsatilgan. Xususan. E.Tofflerning “uchinchi to‘lqin”, S.Xantingtonning “sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” va Z.Bjezinskiyning “geosiyosiy o‘q hududi” konsepsiyalari mintaqadagi transformatsiya jarayonlarini tushuntirish maqsadida qo‘llanilgan. Maqolada mintaqaning global siyosatdagi passiv obyektdan yangi geosiyosiy vaziyatda faol va mustaqil subyektga aylanishi, ko‘p vektorli tashqi siyosat va mintaqaviy integratsiyaning nazariy asoslari turli nazariy yondashuvlar (realizm, liberalizm, konstruktivizm va boshqa) asosida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, xalqaro munosabatlardagi tizimli va kompleks yondashuvlarning Markaziy Osiyo uchun dolzarbligi asoslab berilgan.*

***Kalit iboralar:*** *Markaziy Osiyo, mintaqa, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi, nazariy yondashuvlar, realizm, liberalizm, konstruktivizm, mintaqaviy integratsiya nazariyalari*

***Аннотация:*** *В данной статье теоретико-методологически проанализированы роль и значение государств Центральной Азии в современной системе международных отношений. В исследовании показаны значимость и необходимость научных теорий и подходов к изучению данной проблемы. В частности, для объяснения трансформационных процессов в регионе применены концепции «третьей волны» Э. Тоффлера, «столкновения цивилизаций» С. Хантингтона и «геополитической осевой зоны» З. Бжезинского. В статье на основе различных теоретических подходов (реализм, либерализм, конструктивизм и др.) рассматривается превращение региона из пассивного объекта глобальной политики в активный и независимый субъект в новой геополитической ситуации, а также теоретические основы многовекторной внешней политики и региональной интеграции. Также обоснована актуальность системного и комплексного подходов в международных отношениях для Центральной Азии.*

***Ключевые слова:*** *Центральная Азия, регион, современная система международных отношений, теоретические подходы, реализм, либерализм, конструктивизм, теории региональной интеграции.*

***Abstract:*** *This article provides a theoretical and methodological analysis of the role and significance of Central Asian states in the modern system of international relations. The research highlights the importance and necessity of scientific theories and approaches in studying this issue. Specifically, A. Toffler's "Third Wave," S. Huntington's "Clash of Civilizations," and Z. Brzezinski's "Geopolitical Pivot Area" concepts are applied to explain the transformation processes in the region. The article, based on various theoretical approaches (realism, liberalism, constructivism, etc.), examines the transformation of the region from a passive object of global politics into an active and independent subject in the new geopolitical environment, as well as the theoretical foundations of a multi-vector foreign policy and regional integration. Furthermore, the relevance of systemic and integrated approaches in international relations for Central Asia is substantiated.*

***Keywords:*** *Central Asia, region, modern system of international relations, theoretical approaches, realism, liberalism, constructivism, regional integration theories.*

XXI asr boshlaridan xalqaro munosabaatlar tizimi chuqur transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Xalqaro siyosatda globallashuv jarayonlarining tezlashishi, geosiyosiy raqobatning kuchayishi, yangi mintaqaviy integratsiya formatlarining shakllanishi va transmilliy aktorlar rolining ortishi davlatlar tashqi siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa o'z o'rnida xalqaro munosabaatlarni tahlil qilishda yangi nazariy-metodologik yondashuvlarni talab etmoqda.

Markaziy Osiyo geografik jihatdan Yevroosiyo qit'asining markazida joylashgan bo'lib, Yevropa, Yaqin va Uzoq Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyo o'rtasida strategik ko'prik vazifasini bajaradi. Mintaqa tabiiy resurslarga boyligi, transport kommunikatsiyalari uchun qulay geografik joylashuvi hamda yirik davlatlar manfaatlarining kesishuv nuqtasi bo'lgani sababli xalqaro siyosatda alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tadqiqotlarda Markaziy Osiyo global va mintaqaviy geosiyosiy raqobatning muhim maydonlaridan biri sifatida qaraladi.

Zamonaviy Markaziy Osiyo hududidagi voqealar amerikalik faylasuf va sotsiolog Elvin Tofflerning XX asrning 90-yillarida yaratgan "uchinchi to'lqin" haqidagi mashhur nazariyasiga juda mos tushadi [1]. Toffler tomonidan ilgari surilgan nazariyaga ko'ra, insoniyat taraqqiyoti agrar va industrial bosqichlardan so'ng axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ustuvor bo'lgan postindustrial jamiyat bosqichiga o'tadi. Mazkur nazariya Markaziy Osiyo davlatlarining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyasini tahlil qilishda muhim konseptual asos sifatida xizmat qiladi, chunki Markaziy Osiyo mamlakatlari (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston) rivojlanishining hozirgi bosqichi aralash xususiyatga ega bo'lib, unda agrar, industrial va postindustrial

elementlar bir vaqtning o‘zida mavjud. Bu holat Toffler ta’kidlagan “to‘lqinlar ustma-ust kelishi” fenomeni bilan izohlanadi. Xususan, qishloq xo‘jaligi hali ham mintaqaning ayrim davlatlarida (ayniqsa, Tojikiston va Qirg‘izistonda) iqtisodiyotning muhim tarmog‘i sifatida saqlanib qolmoqda, bu esa birinchi to‘lqin unsurlarining mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, sanoatlashuv jarayonlari, ayniqsa Qozog‘iston va O‘zbekistonda, ikkinchi to‘lqinga xos bo‘lgan industrial iqtisodiyotning ustuvorligini namoyon etmoqda. Biroq, so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va innovatsion rivojlanishga qaratilgan islohotlar mintaqada uchinchi to‘lqin elementlarining shakllanayotganini ko‘rsatadi. Xususan, O‘zbekistonda raqamli transformatsiya siyosatining faollashuvi, elektron hukumat tizimlarining joriy etilishi va IT-parklar faoliyati axborot jamiyatiga o‘tish jarayonini tezlashtirmoqda. Shu kabi tendensiyalar Qozog‘istonda ham “raqamli iqtisodiyot” strategiyalari doirasida kuzatilmoqda.

Shu bilan birga, mintaqada uchinchi to‘lqinga o‘tish jarayoni bir qator cheklovlar bilan to‘qnash kelmoqda. Jumladan, infratuzilmaning nomuvofiq rivojlanganligi, raqamli tafovut (digital divide), inson kapitali salohiyatining yetarli darajada emasligi hamda institutsional islohotlarning noto‘liqligi mazkur transformatsiyani sekinlashtiruvchi omillar hisoblanadi. Bu esa mintaqada rivojlanish modelini shakllantirishda gibrid yondashuvlarni qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Boshqa bir amerikalik olim Samuil Xantington vujudga kelayotgan yangi dunyo tartibini “bir va ko‘p o‘lchovli”, deb ta’riflagan edi. Xantington fikricha, imperiyalarning jozibadorlik zonasini tark etib, mustaqil bo‘lgan xalqlar o‘zlariga “Kim bilan birgamiz?” emas, “Kimmiz?”, degan savol qo‘yishadi [2]. Xantingtonning “bir va ko‘p o‘lchovli dunyo” hamda “Kimmiz?” konsepsiyalari Markaziy Osiyo davlatlarining postsovet transformatsiyasini tushunishda yuqori darajadagi tahliliy ahamiyatga ega. Mintaqa davlatlari tashqi siyosiy tanlovdan ko‘ra, avvalo o‘z milliy-sivilizatsion identikligini shakllantirishga intilmoqda. Bu jarayon esa ularning ko‘p vektorli tashqi siyosat yuritishiga, shuningdek global va mintaqaviy kuchlar o‘rtasida muvozanatni saqlashga qaratilgan strategiyalarni tanlashiga olib kelmoqda.

Ushbu ikki yondashuv, garchi turli metodologik asoslarga ega bo‘lsa-da, postsovet makonida, xususan Markaziy Osiyo davlatlarida kechayotgan transformatsiya jarayonlarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Elvin Toffler va Samuil Xantington nazariyalarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyo davlatlari rivojlanishining hozirgi bosqichi bir vaqtning o‘zida ham texnologik, ham sivilizatsion transformatsiya bilan tavsiflanadi. Agar Toffler nazariyasi mintaqaning iqtisodiy va texnologik modernizatsiyasini tushuntirsa, Xantington konsepsiyasi uning madaniy-siyosiy identikligini shakllantirish

jarayonini ochib beradi. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyodagi zamonaviy rivojlanish modeli gibrid va ko‘p o‘lchovli xarakterga ega bo‘lib, u globallashuv va milliylik o‘rtasidagi muvozanatni izlash jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Mashxur siyosatshunos Zbignev Bjezinskiy o‘zining “Buyuk shaxmat taxtasi” (The Grand Chessboard) nomli kitobida global geosiyosatni “shaxmat taxtasi” metaforasi orqali tushuntirib, AQSHning XXI asrdagi ustuvor strategik maqsadlarini asoslab beradi [3]. Uning fikricha, Yevroosiyo - dunyodagi eng yirik qit’a bo‘lib, unda global aholining, resurslarning va iqtisodiy salohiyatning asosiy qismi joylashgan. Shuning uchun Yevroosiyoni nazorat qilgan kuch dunyo siyosatiga ta’sir o‘tkazadi. Bjezinskiy Markaziy Osiyoni “geosiyosiy o‘q hududi”, “balansni o‘zgartiruvchi mintaqa” sifatida baholaydi. Shu bilan bir qatorda Zbignev Bjezinskiyning konsepsiyasiga ko‘ra, Markaziy Osiyo mustaqil geosiyosiy markaz emas, balki yirik kuchlar o‘yinida hal qiluvchi “platforma” hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan AQSH uchun mintaqa - strategik ta’sir hududi, global raqobatning muhim elementi sifatida baxolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o‘rinbosari Sodiq Safoyev Markaziy Osiyo mintaqasi xalqaro hamjamiyatning mustaqil subyekti sifatida qayta tiklanishi yangi tarixda muhim axamiyatga ega bo‘lgan olamshumul xodisa sifatida e’tirof etadi [4]. Sodiq Safoyev fikriga ko‘ra, Markaziy Osiyoning xalqaro munosabatlarda mustaqil subyekt sifatida qayta shakllanishi zamonaviy geosiyosiy jarayonlarda muhim burilishni anglatadi. Ushbu jarayon mintaqaning tarixiy subyektligining tiklanishi bilan bog‘liq bo‘lib, uning global siyosatdagi rolini sifat jihatidan o‘zgartirmoqda. Ilgari tashqi kuchlar ta’sirida bo‘lgan hudud bugungi kunda mustaqil qaror qabul qiluvchi va o‘z manfaatlarini ilgari surishga qodir aktor sifatida namoyon bo‘lmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikning kuchayishi, ishonch muhitining shakllanishi va umumiy mintaqaviy yondashuvning paydo bo‘lishi ushbu transformatsiyaning muhim belgilaridir. Shu bilan birga, ko‘p vektorli tashqi siyosat orqali global kuchlar o‘rtasida muvozanatni saqlashga intilish mintaqa subyektligini yanada mustahkamlamoqda. Mintaqaning transport-logistika, energetika va xavfsizlik sohalaridagi ahamiyati ortib borayotgani uning strategik o‘rnini kuchaytirmoqda. Shu jihatdan, Markaziy Osiyoning qayta tiklanishi nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ahamiyatga ega bo‘lgan geosiyosiy hodisa sifatida baholanadi.

Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish zamonaviy siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar ilmining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblananib, uni amalga oshirishda kompleks yondashuv va tizimli tahlildan foydalanishni taqozo etadi. Yuqorida nomi qayd qilingan Z.Bzejinskiy ta’biri bilan aytganda, bu mintaqa geosiyosiy jihatdan unikal xususiyatga ega, chunki bir vaqtning o‘zida ko‘plab yirik kuch

markazlari - Rossiya, Xitoy, Qo‘shma Shtatlar, Yevropa Ittifoqi va Turkiya - manfaatlari kesishgan nuqtada joylashgan [3]. Shu nuqtadan qaraganda, mintaqaning har bir davlati mustaqil siyosiy va iqtisodiy subyekt sifatida ham ichki, ham tashqi siyosiy ta’sirlarni muvozanatli boshqara olishi lozim.

Tizimli tahlil usuli shu mintaqaviy va global ta’sirlarni alohida emas, balki umumiy muvozanat tizimi sifatida ko‘rish imkonini beradi. Bugungi kunda Markaziy Osiyodagi davlatlar - O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston - mintaqaviy hamjamiyatning faol ishtirokchilariga aylanib, integratsiya jarayonlari (Markaziy Osiyo davlat raxbarlari Maslahat uchrashuvlari, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi muloqotlar faollashdi [5]. Mazkur jarayonlar ko‘rsatishicha, endilikda har bir davlatni alohida o‘rganish yetarli emas, balki ularning tashqi va ichki siyosiy qarori hamda hamkorlik mexanizmlari bir-biri bilan uzviy bog‘liqligini tushunish zarur.

Kompleks yondashuv va tizimli tahlil mintaqaning ichki jipsligi va tashqi bosimlar o‘rtasidagi muvozanatni ochib beradi. Masalan, O‘zbekistonning Rossiya bilan strategik sherikligi hamda Xitoy bilan iqtisodiy hamkorligi, AQSH va Yevropa Ittifoqi bilan investitsiya va tranzit sohasidagi aloqalari o‘rtasidagi muvozanat tizimi mintaqaning xalqaro arenadagi subyektivligi va strategik mustaqilligini ta’minlaydi [6]. Shuningdek, ko‘p vektorli siyosat usuli mintaqaning geostrategik ahamiyatini oshirib, global qudrat markazlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Shu tariqa, Markaziy Osiyo davlatlarini o‘rganishda kompleks va tizimli yondashuv nafaqat ularning har biri bilan alohida munosabatlarni, balki mintaqaviy va global darajadagi o‘zaro bog‘liqlikni ham hisobga olishni talab qiladi. Bu esa siyosiy tahlil, strategiyalarni shakllantirish va mintaqaviy hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mintaqa ahamiyati faqat harbiy yoki siyosiy soha bilan cheklanmaydi. Bu yerda energetika va transport-logistika, ekologik xavfsizlik, madaniy-sivilizatsion omillar ham tizimning ajralmas qismidir. Markaziy Osiyoni tizimli tahlil qilish — bu mintaqani xalqaro munosabatlarning passiv obyekti sifatida emas, balki global kun tartibini shakllantirishda ishtirok etayotgan faol subyekti sifatida o‘rganish demakdir.

Xalqaro munosabatlar nazariyasi nuqtayi nazaridan mazkur mintaqa davlatlarining xalqaro tizimdagi rolini tahlil qilishda bir qator ilmiy maktablar shakllangan. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda eng ko‘p qo‘llaniladigan konsepsiyalar qatoriga realizm, neorealizm, liberalizm, konstruktivizm, global boshqaruv va mintaqaviy integratsiya nazariyalari kiradi.

Xususan, realizm maktabi xalqaro siyosatni davlatlar o‘rtasidagi kuchlar muvozanati va geosiyosiy raqobat nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Ushbu maktabga ko‘ra, xalqaro munosabatlar anarxik tizim hisoblanadi va davlatlar o‘z

milliy manfaatlari hamda xavfsizligini ta’minlash uchun turli strategiyalardan foydalanadilar. Siyosiy realizm maktabining asoschisi sifatida kelib chiqishi Germaniyadan bo‘lgan amerikalik siyosatshunos Gans Ioxim Morgetauni (Hans Morgenthau) aytish mumkin. U o‘zining “Millatlar o‘rtasidagi siyosat: hokimiyat va tinchlik uchun kurash” (“Politics Among Nations: The Struggle for Power and Peace”) nomli asarida xalqaro munosabatlarning asosiy harakatlantiruvchi kuchi davlatlarning milliy manfaatlari va kuch siyosati ekanligini ta’kidlaydi. Morgentau xalqaro barqarorlikni ta’minlashning asosiy mexanizmi sifatida kuchlar muvozanati konsepsiyasini ilgari suradi [7]. Uning fikricha, tashqi siyosat davlatning kuch va xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan ratsional strategiyasi hisoblanadi.

Realizm nazariyasining yana bir muhim vakili Eduard Xallett Karr (E. H. Carr) bo‘lib, u “Yigirma yillik krizis: 1919-1939” (“The Twenty Years Crisis 1919–1939”) nomli asar muallifidir [8]. Ushbu asarda Karr xalqaro munosabatlardagi idealistik qarashlarni tanqid qilib, xalqaro siyosat, avvalo, davlatlar o‘rtasidagi kuchlar nisbati bilan belgilanishini ta’kidlaydi.

Mazkur yondashuv nuqtayi nazaridan Markaziy Osiyoda bu nazariyaning amaliy ifodasini yirik davlatlar – Rossiya, Xitoy, AQSH, Turkiya va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi geosiyosiy raqobatda ko‘rish mumkin. Mintaqa energetika resurslari, transport yo‘llari va strategik kommunikatsiyalarga egaligi sababli xalqaro siyosatning muhim geosiyosiy makoni hisoblanadi.

Neorealizm (strukturaviy realizm) konsepsiyasi esa realizm g‘oyalarini rivojlantirib, xalqaro tizimning tuzilishiga alohida e’tibor qaratadi. Mazkur konsepsiyaga ko‘ra xalqaro tizimning strukturasi davlatlarning tashqi siyosiy xatti-harakatlarini belgilab berishiga urg‘u beradi. Ushbu yo‘nalishning asoschisi amerikalik siyosatshunos, Kaliforniya va Kolumbiya universitetlari professori, Amerika siyosiy fanlar assotsiatsiyasi prezidenti Kennet Nil Uolts (Kenneth Waltz) hisoblanadi. Uning “Xalqaro siyosat nazariyasi” (“Theory of International Politics”) kitobida davlatlar xulq-atvori xalqaro tizimdagi kuchlar taqsimoti bilan belgilanishi ta’kidlanadi [9]. Uolts xalqaro tizimni anarxik muhit sifatida ko‘rib, davlatlar o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun kuchlar muvozanati strategiyasidan foydalanishi kerakligini ta’kidlagan. Ushbu yondashuvni amerikalik siyosatshunos, Garvard universiteti professori Stiven Uolt (Stephen Walt) rivojlantirgan. Uning 1987 yida chop etilgan “Taxdidlar muvozanati nazariyasi” (“The Origins of Alliances”) nomli kitobida davlatlar eng katta tahdid manbaiga qarshi ittifoqlar tuzishi ta’kidlanadi [10].

Bu konsepsiyani Chikago universiteti professori Djon Mirshaymer (John J. Mearsheimer) o‘zining “Buyuk davlat siyosatining tanazzuli” (“Tragediya politiki velikix derjav”, “The Tragedy of Great Power Politics” ) asarida yanada rivojlantirgan [11]. Muallif “hujumkor realizm” nazariyasini ilgari surib, yirik

davlatlar o‘z qudratini maksimal darajada oshirish va mintaqaviy ustunlikka erishishga intilishini ta’kidlaydi.

Markaziy Osiyo sharoitida bu nazariyalar mintaqa davlatlarining turli tashqi aktorlar ta’sirini muvozanatlashga qaratilgan ko‘p vektorli tashqi siyosatini aalga oshirishida namoyon bo‘ladi. Neorealistik yondashuvga ko‘ra, xalqaro tizimdagi struktura davlatlarning tashqi siyosiy strategiyalarini belgilab beradi. Masalan, Rossiya-Ukraina urushi xalqaro siyosatdagi kuchlar muvozanatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatib, Yevroosiyo mintaqasida yangi geosiyosiy jarayonlarni yuzaga keltirdi. Ushbu mojaro natijasida Markaziy Osiyo davlatlari tashqi iqtisodiy va transport strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ldilar. Xususan, Rossiya orqali o‘tadigan an’anaviy transport yo‘nalishlariga muqobil sifatida yangi logistik yo‘nalishlar shakllanmoqda. Bu jarayonda Kaspiy dengizi orqali Yevropa va Osiyoni bog‘lovchi Transkaspiy transport koridori (Middle Corridor) muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu transport yo‘nalishi Xitoydan Markaziy Osiyo, Kaspiy dengizi, Kavkaz va Turkiya orqali Yevropa bozorlariga chiqish imkonini beradi. Rossiya-Ukraina urushi sharoitida ushbu koridorning geosiyosiy ahamiyati yanada ortdi, chunki ko‘plab davlatlar Rossiya hududi orqali o‘tadigan transport yo‘nalishlarga bog‘liqlikni kamaytirishga harakat qilmoqdalar.

Shu bilan bir qatorda XXI asrda xalqaro munosabatlar tizimining murakkablashuvi davlatlardan tashqari xalqaro tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar va nodavlat aktorlar rolining oshishi bilan tavsiflanadi. Shu bois xalqaro munosabatlarni faqat davlatning markazli modeli orqali tushuntirish yetarli emas. Zamonaviy tadqiqotlarda xalqaro tizim ko‘p aktorli va ko‘p darajali tarmoq sifatida qaraladi. Bunga nisbatan isbot sifatida global boshqaruv konsepsiyasi xalqaro munosabatlarni turli aktorlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tizimi sifatida qarab chiqadi. Bu yondashuv asoschilaridan biri taniqli amerikalik xalqaro munosabatlar nazariyachisi, siyosatshunos Djeyms Rozenau (James N. Rosenau) bo‘lib, u “Xukumatsiz boshqaruv: dunyodagi tartib va o‘zgarishlar” (“Governance without Government: Order and Change in World Politics” (1992) asarining muallifi hisoblanadi [12]. Uning fikricha, jahon siyosati faqat davlatlar tomonidan emas, balki xalqaro tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar va turli tarmoqlar orqali ham boshqariladi. Global boshqaruv konsepsiyasiga ko‘ra, xalqaro munosabatlarda qaror qabul qilish jarayonida davlatlar bilan bir qatorda xalqaro institutlar va transmilliy aktorlar ham ishtirok etadi. Bu esa xalqaro tizimning politsentrik xususiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi.

Bu sohaga yirik siyosatshunos, amerikalik xalqaro munosabaatlar tizimida neoliberal institutsionizm maktabi vakili Robert Keoxeyn (Robert O. Keohane) ham muhim hissa qo‘shgan. Uning “Gegemoniyadan so‘ng: dunyo siyosatida xamkorlik yoki janjal” (“After Hegemony: Cooperation and Discord in the World

Political Economy”) asarida davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlashda xalqaro institutlarning roli tahlil qilinadi [13].

Boshqa bir amerikalik siyosatshunos olim, Garvard universiteti professori Jozef Nay (Joseph S. Nye Jr.) esa global boshqaruvni davlatlar bilan bir qatorda nodavlat aktorlar ham ishtirok etuvchi tarmoqli tizim sifatida izohlab, “global boshqaruv — bu faqat davlatlar faoliyati emas, balki turli darajadagi aktorlar o‘rtasidagi tarmoqli hamkorlik” ekanligini ta’kidlaydi [14].

Liberal institutsionalizm nazariyasi xalqaro munosabatlarda davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik va xalqaro institutlar rolini alohida ta’kidlaydi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy institutlar davlatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bunga isbotan, amerikalik olima, xalqaro huquq vakili Enn-Mari Sloter (Anne-Marie Slaughter) zamonaviy dunyo tartibini davlatlar emas, balki ularning alohida institutlari o‘rtasidagi transmilliy tarmoqlar shakllantirayotganini qayd etib, “davlatlar yaxlit aktor emas, balki ularning tarkibiy institutlari global tarmoqlarda mustaqil harakat qiladi” deb ta’kidlaydi [15]. Ushbu yondashuvlar yig‘indisi global boshqaruvni ko‘p darajali, tarmoqli va institutsionallashgan hamkorlik tizimi sifatida tushunish imkonini beradi.

Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida faol hamkorlik qilib kelmoqdalar. Bular qatoriga Mustaqil davlatlar xamkorligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va Turkiy davlatlar tashkiloti kiradi. Bu institutlar mintaqada iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, xavfsizlikni ta’minlash va transport-logistika tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo kontekstida mazkur yondashuvlar mintaqaviy tashkilotlar faoliyati va ularning hamkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyatini tahlil qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, xalqaro munosabatlarning konstruktivistik yondashuvi vakillari davlatlar tashqi siyosatining shakllanishida faqat geosiyosiy manfaatlar emas, balki qadriyatlar va xalqaro normalar ham muhim ahamiyat kasb etadi, deb ta’kidlashadi. Ushbu yo‘nalishning yetakchi namoyondalaridan biri AQSHdagi Jorj Vashington universitetining Elliot xalqaro munosabaatlar maktabi professori Finnemor Marta (Martha Finnemore) xalqaro tashkilotlar va global xuquqiy normalar davlat manfaatlari va tashqi siyosiy qarorlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynashini ilmiy asoslab bergan [16]. Mazkur nazariya Markaziy Osiyoga nisbatan qo‘llanilganda, mintaqa davlatlari tashqi siyosatining shakllanishida milliy va diniy qadriyatlarning yaqinligi, tarixiy meros, sivilizatsion aloqalar va mintaqaviy identiklikning muhim rol o‘ynashi yaqqol ko‘rinadi.

Mintaqaviy siyosat masalalarini o‘rganish, integratsiya jarayonlarini tahlil qilishda mintaqaviy integratsiya, shuningdek regionalizm nazariyalari alohida

ahamiyatga ega. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro munosabatlarda mintaqaviy integratsiya jarayonlari faollashdi. David Mitrani va Karl Doych — XX asr xalqaro munosabatlar, liberal paradigma va integratsiya nazariyalariga muhim hissa qo‘shgan olimlar [17]. Ular davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikning kuchayishi xalqaro tizimda barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilishini ta’kidlaganlar. Mazkur olimlar fikriga ko‘ra, iqtisodiy va institutsional integratsiya davlatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni kamaytiradi. David Mitrani funksionalizm nazariyasi asoschisi (texnik vazifalar orqali hamkorlik qilish), Karl Doych esa o‘zining kommunikatsiya nazariyasi va “plyuralistik xavfsizlik jamiyatlari” konsepsiyasini ishlab chiqqan. Ularning yondashuvlari realizm nazariyasiga muhim muqobil sifatida namoyon bo‘lib, funksional o‘zaro bog‘liqlik va ijtimoiy kommunikatsiya orqali hamkorlikka erishish yo‘llarini taklif qiladi.

Neofunksionalizm nazariyasi asoschilaridan biri Ernest Xaas (Ernst B. Haas) bo‘lib, u 1958-yili o‘zining “Yevropaning birlashuvi: 1950-1957-yillarda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy kuchlar» (“The Uniting of Europe: Political, Social, and Economic Forces 1950-1957”) konsepsiyasini ishlab chiqadi [18]. Uning fikriga ko‘ra, bir sohadagi integratsiya boshqa sohalarda ham hamkorlikning rivojlanishiga olib keladi. Neofunksionalizm nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiy hamkorlik davlatlar o‘rtasidagi siyosiy integratsiya jarayonlarini rag‘batlantiradi. Iqtisodiy integratsiya masalalari Bella Balassining (Béla Balassa) “Iqtisodiy integratsiya nazariyasi” (“The Theory of Economic Integration”) kitobida batafsil yoritilgan. Muallif integratsiyaning bir nechta bosqichlariga, xususan, erkin savdo zonasi; bojxona ittifoqi; umumiy bozor; iqtisodiy ittifoqga ajratadi. [19]. Keyinchalik bu nazariyani Filipp K. Shmitter (Philippe C. Schmitter) “Qayta ko‘rilgan mintaqaviy integratsiya” (“A Revised Theory of Regional Integration”) asarida yanada rivojlantirgan [20]. Unda siyosiy elitalar va xalqaro institutlarning integratsiya jarayonidagi roliga alohida e’tibor qaratilgan.

Mintaqaviy integratsiya nazariyalari Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rnini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuvlar Markaziy Osiyoda iqtisodiy va institutsional hamkorlik mexanizmlarining shakllanishini tahlil qilish imkonini beradi. Zamonaviy tadqiqotlarda Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida iqtisodiy va transport hamkorligining kuchayishi mintaqaviy integratsiya jarayonlarini rag‘batlantirayotgani ta’kidlanmoqda. Markaziy Osiyo xalqaro siyosatda faqat periferik makon emas, balki strategik ahamiyatga ega geosiyosiy markaz sifatida baholanmoqda. Ayniqsa, transport koridorlari, energetika kommunikatsiyalari va xalqaro savdo yo‘nalishlari rivojlanishi mintaqaning global iqtisodiy tizimdagi rolini yanada oshirmoqda. Shu nuqtayi nazardan Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro munosabatlar tizimidagi ahamiyatini tahlil qilishda nazariy plyuralizm

tamoyili ham muhim hisoblanadi. Ya’ni, realizm, liberalizm, konstruktivizm, regionalizm va boshqa nazariy yondashuvlarni birgalikda qo‘llash mintaqaning geosiyosiy rivojlanishini to‘liqroq anglash imkonini beradi. Bunday metodologik yondashuv Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatining evolyutsiyasini, shu jumladan O‘zbekistonning mintaqaviy diplomatiyasi va xalqaro hamkorlik strategiyasini chuqur ilmiy tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Ilmiy adabiyotlarda Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlarini tushuntirish bo‘yicha bir nechta bahsli yondashuvlar ham mavjudligi ta’kidlanadi. Realistik maktab vakillari mintaqani, asosan, yirik davlatlar o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat obyekti sifatida ko‘radi. Bu nuqtayi nazarga ko‘ra, integratsiya jarayonlari ko‘p jihatdan tashqi aktorlar manfaatlariga bog‘liq. Konstruktivizm tarafdorlari esa madaniy va tarixiy identiklikning ahamiyatini ta’kidlab, bu omillar mintaqaviy hamkorlik rivojiga xizmat qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Mintaqaviy integratsiya nazariyasi tarafdorlari transport infratuzilmasi, savdo va investitsiya hamkorligi kabi iqtisodiy omillarga asosiy e’tibor qaratadi. Zamonaviy tadqiqotlar ushbu yondashuvlarni birlashtirishga harakat qilib, Markaziy Osiyoni siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar o‘zaro ta’sirining ko‘p darajali tizimi sifatida ko‘radi.

Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro tizimdagi rolini tahlil qilishda transformatsiya nazariyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Transformatsiya nazariyasi — bu tizim yoki tuzilmaning bir holatdan ikkinchi, yuqoriroq yoki samaraliroq holatga sifat jihatidan o‘zgarishini o‘rganuvchi ta’limotdir. U moslashish, modernizatsiya qilish va yangilanish jarayonlarini boshqarish mexanizmi sifatida qo‘llaniladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, zamonaviy xalqaro tartib bipolyar yoki unipolyar emas, balki ko‘p qutbli tizimga aylanmoqda. Bu jarayonda mintaqa davlatlari xalqaro siyosatning mustaqil subyektlariga aylanmoqda. Mintaqadagi davlatlar o‘zlarining tashqi siyosatlarini “ko‘p vektorli diplomatiya” modeliga o‘tkazayotganliklari ta’kidlanadi.

Yuqoridagi turli nazariy yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlarining murakkabligini biror bir nazariya to‘liq tushuntirib berolmaydi. Realizm va neorealizm geosiyosiy omillar va yirik davlatlar strategiyalarini tushunishga yordam beradi. Konstruktivizm madaniy identiklik va tarixiy aloqalar ahamiyatini ochib beradi. Global boshqaruv va mintaqaviy integratsiya nazariyalari esa xalqaro institutlar va iqtisodiy hamkorlik mexanizmlarining rolini tahlil qilish imkonini beradi.

Bizningcha eng samarali yondashuv davlatlarning geosiyosiy manfaatlari bilan birga iqtisodiy va madaniy omillarni ham hisobga oluvchi kompleks nazariy yondashuv hisoblanadi. Bunday yondashuv Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik dinamikasi va integratsiya istiqbollarini yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi. Zamonaviy sharoitda mintaqadagi integratsiya, avvalo, transport

koridorlarini rivojlantirish, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va mintaqaviy tashkilotlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, bu Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro munosabatlar tizimida tobora muhim geosiyosiy makonga aylanmoqda. Global siyosatdagi transformatsiya jarayonlari, transport koridorlarining rivojlanishi, energetika resurslari va mintaqaviy integratsiya jarayonlari mintaqaning strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu sababli Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro munosabatlar tizimidagi rolini tahlil qilishda turli nazariy yondashuvlarni birgalikda qo‘llash muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo mintaqasi aynan shu nuqtayi nazardan xalqaro munosabatlar tizimida muhim geosiyosiy makon hisoblanadi. Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin Markaziy Osiyo davlatlari mustaqil tashqi siyosiy strategiyalarni shakllantirish jarayoniga kirishdi. Geosiyosiy jihatdan mintaqa Yevroosiyo qit’asining markazida joylashganligi, uni Rossiya, Xitoy, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari o‘rtasidagi strategik ko‘prik vazifasini bajaruvchi xudud sifatidagi mavqeini ko‘rsatadi. Shuningdek, tadqiqotlarda Markaziy Osiyo “geosiyosiy tutashuv hududi” sifatida tavsiflanadi. Ma’lumki, bu yerda bir vaqtning o‘zida bir necha yirik davlatlar manfaatlari kesishadi. Shu sababli mintaqaning xalqaro munosabatlar tizimidagi ahamiyati energetika resurslari, transport koridorlari, xavfsizlik masalalari va geostrategik kommunikatsiyalar bilan bog‘liq holda ortib bormoqda.

**Xulosa**

**Transformatsiyaning gibrid xarakteri.** Markaziy Osiyo davlatlari bir vaqtning o‘zida agrar, industrial va postindustrial rivojlanish bosqichlarini, ya’ni Tofflerning “ustma-ust keluvchi to‘lqinlarini” boshdan kechirmoqda, bu esa islohotlarda gibrid yondashuvlarni talab qiladi.

**Subyektlikning tiklanishi.** Mintaqa endilikda yirik davlatlar o‘rtasidagi raqobat maydoni (platforma) bo‘lishdan chiqib, global kun tartibini shakllantirishda ishtirok etuvchi mustaqil va faol siyosiy subyektga aylanmoqda.

**Ko‘p vektorlilik — strategik zarurat.** Geosiyosiy kuch markazlari (Rossiya, Xitoy, AQSH, YEI) manfaatlari kesishgan nuqtada joylashgan Markaziy Osiyo uchun ko‘p vektorli diplomatiya milliy manfaatlarni himoya qilishning eng maqbul vositasi bo‘lib qolmoqda.

**Integratsiyaning yangi bosqichi.** Mintaqa ichidagi ishonch muhiti va davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari mintaqaviy jipslikni oshirib, tashqi bosimlarga nisbatan barqarorlikni ta’minlamoqda.

**Nazariy plyuralizm.** Markaziy Osiyodagi murakkab jarayonlarni faqat bitta maktab doirasida emas, balki realizm, liberalizm va konstruktivizm va boshqa

nazariyalarni uyg‘unlashtirgan holda o‘rganish obyektiv ilmiy xulosalarga olib keladi.

**Yuqoridagi xulosalar bizga quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni shakllantirishga imkoniyat berdi:**

**Raqamli tafovutni kamaytirish strategiyasi.** “Uchinchi to‘lqin” (postindustrial jamiyat) imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish uchun mintaqa davlatlarida raqamli infratuzilma va inson kapitalini rivojlantirish bo‘yicha yagona mintaqaviy standartlarni ishlab chiqish lozim.

**Transport-logistika xablarini diversifikatsiya qilish.** Geosiyosiy inqirozlar sharoitida Transkaspiy (Middle Corridor) kabi muqobil yo‘nalishlarni rivojlantirish va uni Transafg‘on (Termiz–Peshovar temir yo‘li) bilan bog‘lash strategiyalarini jadallashtirish zarur.

**Institutsional hamkorlikni mustahkamlash.** Iqtisodiy integratsiyaning samaradorligini oshirish uchun mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni faqat siyosiy irodaga emas, balki funksional-iqtisodiy va texnik mexanizmlarga (funksionalizm nazariyasi asosida) tayanib kengaytirish taklif etiladi.

**Madaniy-sivilizatsion diplomatiyani faollashtirish.** Konstruktivizm nazariyasiga tayangan holda, mintaqa davlatlarining umumiy tarixiy merosi va qadriyatlarini tashqi siyosatda “yumshoq kuch” sifatida qo‘llash va mintaqaviy identiklikni mustahkamlash lozim.

## TURKIYA DAVLAT BOSHQARUVIDA ZAMONAVIY SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA ISTIQBOLLARI

***MUHABBAT SALIYEVA***
*Dotsent, f.f.n., TDSHU*

***Annatatsiya:*** *Ushbu maqolada Turkiya Respublikasi davlat boshqaruvida siyosiy aloqa tarmoqlarining rivojlanishi haqida yangi manbalar keltiriladi. Turkiya Prezidenti Radjap Tayyip Erdo‘g‘on bugungi zamonaviy dunyo muammolarini sanab aytadiki turli mintaqalarda, masalan, Kashmirda Falastinda, Janubiy Kavkaziyada, Shimoliy-G‘arbiy Xitoyda hamda shu bilan birga, Bolqon va Shimoliy Afrikagacha bo‘lgan musulmon davlatlarda zulmdan tashvishlanayotganligi va bugnday majorolarga Anqara bunga yo‘l qo‘ymasligini ta’kidlaydi, shu bilan davlat rahbari tashkil etilgan imtiyozli yadro klubini tanqid qiladi, uning a’zolari, bir tomondan, siyosiy bosim uchun yadroviy qurol omilidan foydalansa, ikkinchi tomondan, ularning boshqa mamlakatlarda rivojlanishini taqiqlaydi: “dunyo yoki yadroviy quroldan voz kechishi va ularni yo‘q qilishi kerak, zahiralarni saqlash yoki boshqalarga ruxsat berish kerakligi to‘g‘risidagi so‘zlar bilan, xulosa qildi. Turkiya rahbarining ushbu xulosasidan kelib chiqib aytish mumkinki, davlat rahbari*

*tomonidan yangi dunyo tartibi to‘g‘risida hal qiluvchi rejalar taklifi shuni ko‘rsatadiki, Turkiyaning o‘ziga xosligi bugungi kunda turli davlatlar bilan hamdo‘stlikni mustahkamlash bilan birga rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganishga harakat qilayotganligini, yaqin kelajakda nufuzli global rahbar sifatidagi geosiyosiy imkoniyatlarini aniqlash va bunday maqomga ega bo‘lish maqsadidagi munosabatlarda Turkiya davlatlararo munosabatlarida ular asosan o‘z ichki muammolarini hal qilishda o‘zaro maqsadlarga to‘xtaladilar,*

*Bunda Turkiya o‘z taraqqiyotini to‘rtta asosiy kuch ko‘rsatkichi bo‘yicha tahlil qilishi,“yumshoq kuch”, iqtisodiy, harbiy, texnologik tizimlarga asoslanishi bilan ham ajralib turishini ko‘rsatadi,*

*Turkiya rahbariyatiga o‘zining tashqi siyosat yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish va faol va hujumkor tashqi siyosatga o‘tish imkonini bergan tashqi sharoitlarni aniqlashkerakliklari va Turkiyani davlatini har tomonlama mustahkamlash imkoniyati, istiqbollari va tahdidlarini baholash, kabi masalalarni o‘rtaga tashlaydi.*

*Bugungi kunda Turkiya davlatining tarixiy tajribasini, o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib borar ekan, siyosiy rivojlanish vektorini bashorat qilish, uning siyosiy tizimi va siyosiy institutlarini o‘rganish, mavjud qarama-qarshilik va prognozlar asosiy manba sifatida siyosiy islomni o‘zgartirish vektori, hayotning ijtimoiy sohalarini islomlashtirish chegaralari va tabiati, uning rahbari Rajab Toyyib Erdo‘g‘anning ichki siyosiy muloqotdagi rolida o‘z aksini topayotganligi haqidagi tadqiqot ishi bilan bog‘liq, ekanligi keng ta’rif etiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Davlat, jamiyat, taraqqiyot, hukumat, xokimiyat, partiya, global, konstitutsiyaviy, majoro, mafkura,*

***Аннотация:*** *В данной статье представлены новые источники о развитии сетей политической коммуникации в правительстве Турецкой Республики. Президент Турции Реджеп Тайип Эрдоган, перечисляя проблемы современного мира, заявил, что в различных регионах, например, в Кашмире, Палестине, Южном Кавказе, Северо-Западном Китае, а также в мусульманских странах от Балкан до Северной Африки, Анкара не допустит подобных инцидентов, и раскритиковал созданный главой государства привилегированный ядерный клуб, члены которого, с одной стороны, используют фактор ядерного оружия для политического давления, а с другой — запрещают его разработку в других странах: «Мир должен либо отказаться от ядерного оружия и уничтожить его, либо сохранить запасы, либо позволить другим сделать это», — заключил он. Исходя из этого вывода турецкого лидера, можно сказать, что предложенные главой государства решительные планы по построению нового мирового порядка показывают, что сегодня уникальность Турции заключается в стремлении учиться на опыте развитых стран, одновременно укрепляя партнерские отношения с различными государствами, и в ближайшем будущем, как влиятельный мировой лидер, геополитически определять свои возможности и достигать такого статуса, Турция в межгосударственных отношениях в основном фокусируется на общих целях в решении своих внутренних проблем.*

*В этой связи анализ развития Турции по четырем основным показателям силы, «мягкой силе», показывает, что она также отличается своей базой в экономической, военной и технологической системах.*

*Это поднимает такие вопросы, как необходимость для турецкого руководства пересмотреть направления своей внешней политики и определить внешние условия, которые позволили ей перейти к активной и агрессивной внешней политике, а также оценить возможности, перспективы и угрозы для всестороннего укрепления турецкого государства. Сегодня, в условиях растущего интереса к изучению исторического опыта турецкого государства, прогнозированию вектора политического развития, исследованию его политической системы и политических институтов, основным источникам существующих противоречий и прогнозам, вектору изменений в политическом исламе, границам и характеру исламизации социальных сфер жизни, а также роли его лидера Реджепа Тайипа Эрдогана во внутриполитическом диалоге, это в широком смысле определяется как связанное .*

***Ключевые слова**: государство, общество, развитие, правительство, власть, партия, глобальный, конституционный, большинство, идеология.*

*Abstract: This article presents new sources on the development of political communication networks within the Turkish government. Turkish President Recep Tayyip Erdoğan, listing the problems of the modern world, stated that Ankara will not allow similar incidents to occur in various regions, such as Kashmir, Palestine, the South Caucasus, Northwest China, and Muslim countries from the Balkans to North Africa. He criticized the privileged nuclear club created by the head of state, whose members, on the one hand, use nuclear weapons for political pressure and, on the other, prohibit their development in other countries. "The world must either renounce and destroy nuclear weapons, or preserve stockpiles, or allow others to do so," he concluded. Based on this conclusion by the Turkish leader, it can be said that the decisive plans proposed by the head of state for building a new world order demonstrate that Turkey's uniqueness today lies in its desire to learn from the experience of developed countries while simultaneously strengthening partnerships with various states. In the near future, as an influential world leader, Turkey will geopolitically define its capabilities and achieve such a status. In its interstate relations, Turkey primarily focuses on common goals in solving its domestic problems.*

*In this regard, an analysis of Turkey's development according to the four main indicators of power—"soft power"—shows that it also distinguishes itself by its foundation in economic, military, and technological systems.*

*This raises questions such as the need for the Turkish leadership to reconsider its foreign policy direction and identify the external conditions that allowed it to transition to an active and aggressive foreign policy, as well as to assess the opportunities, prospects, and threats for the comprehensive strengthening of the Turkish state.*

*Today, amid growing interest in studying the historical experience of the Turkish state, forecasting the vector of political development, exploring its political system and political institutions, the main sources of existing contradictions and forecasts, the vector of change in political Islam, the boundaries and nature of the Islamization of social*

*spheres, and the role of its leader, Recep Tayyip Erdoğan, in domestic political dialogue, this phenomenon is broadly defined as related to*

***Keywords:*** *state, society, development, government, power, party, global, constitutional, majority, ideology.*

**Kirish.** Zamonaviy jamiyat hayotida dunyo mamlakatlarini o‘rganishga tobora ko‘proq murojaat qilmoqda, shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, mintaqaning nihoyatda o‘sib borishi, global ahamiyatga ega bo‘lib, butun insoniyat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatadigan yuqori konflikt salohiyati bilan bog‘liq. Bu davlat o‘z manfaatlarini dunyo doirasida faol rivojlantirishga harakat qilmoqda va turli siyosiy o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda.

“So‘nggi o‘n yil ichida Turkiyada hokimiyat prezident qo‘lida izchil mustahkamlanib bordi va jamoat hayotida deliberalizatsiya va desekulyarizatsiya sifatida tavsiflanishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar kuzatildi” (Давыдов А.А. Гудев П.А ва.б. - 7 б. 2019 ).

2017-yilgi konstitutsiyaviy islohot va navbatdan tashqari prezidentlik saylovlari super-prezidentlik tizimini yaratdi.

Uning asosiy xususiyatlari:

- Bosh vazir lavozimi tugatildi (hukumat rahbari lavozimi u yoki bu shaklda nafaqat butun respublika tarixida, balki Usmonlilar imperiyasi davrida ham mavjud bo‘lgan). Bosh vazir o‘rniga prezident tomonidan tayinlanadigan deputatlar (vitse-prezidentlar) mavjud bo‘lib, ular parlament oldida emas, balki shaxsan prezident – davlat rahbari va ijroiya hokimiyati oldida hisob beradi.

- Prezident qonunchilik tashabbusiga ega va parlamentni chetlab o‘tib qonunlar chiqarishi mumkin.

- Prezidentning siyosiy mas’uliyati faqat besh yilda bir marta o‘tkaziladigan saylovlar bilan cheklanadi. Yangi Konstitutsiyaga ko‘ra, prezident rasmiy ravishda har biri 5 yillik 2 muddatga ega, ammo ikkinchi muddatda muddatidan oldin prezidentlik saylovlari e’lon qilinsa, bu ikki muddat “nolga qaytariladi”. Shunday qilib, “bir umrlik prezidentlik” uchun barcha sharoitlar yaratilgan (Давыдов А.А. Гудев П.А ва.б. - 7 б. ). Erdo‘g‘on siyosiy rejimining barqarorligi ko‘p jihatdan elita ichidagi mojaro darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Uning keskinlashuv tendensiyalari Turkiyada so‘nggi 10 yil ichida yaqqol namoyon bo‘ldi, biroq muxolifat yetakchisining paydo bo‘lishi uchun shart-sharoitlar tezda tekislandi. Muxolifatdagi siyosatchilar hukmron partiya tomonidan ilgari surilgan dasturga real muqobil taklif qilishdan ko‘ra, o‘z partiya yetakchisi sifatidagi mavqeini saqlab qolish va bundan tashqari, muxolifatni birlashtiruvchi figura sifatida harakat qilish bilan shug‘ullanadi” (Давыдов А.А. Гудев П.А ва.б. – 10-11б. ).

**Metodlar.** Ushbu maqolani yozishda, Turkiya Respublikasidagi o‘ziga xos davlat boshqaruvida siyosiy kommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish va

ularning ahamiyati dunyo tamadduniga ko‘rsatiladigan ta’sirlari o‘rganilgan. Jumladan Turkizabon xalqlar xarakteri, zamonaviy tizimda ishlash va fikrlash tajribalari nazarda tutiladi.

**Natijalar va muhokamalar.** Mazkur maqolada Turkiya davlat boshqaruvida siyosiy institutsional mexanizmlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar faoliyatida ko‘rganimizdek,turkiya davlatlar bilan hamdo‘stlikni mustaxkalashga intilayotganligi misolida taxlil qilinadi.

Muxolifat kuchlari o‘rtasida tarqoqlik, g‘oyalar tanqisligi va strategiyalar yetarli darajada samarali emasligi kuzatilmoqda. Muxolifatning asosiy shiori Erdo‘g‘on boshqaruvini tugatish va Turkiyaga parlament demokratiyasini qaytarish zarurati. Va’dalar orasida suriyalik qochqinlarni Suriyaga qaytarish; eng kam ish haqini oshirish; sanitariya to‘lovini bekor qilish; davlat xizmatchilariga oshirilgan ish haqi va muntazam qo‘shimcha to‘lovlarni rad etish.

Turkiya Prezidenti Radjap Tayyip Erdo‘g‘on “zamonaviy dunyo muammolarini sanab o‘tar ekan, turli mintaqalarda: Kashmir va Falastin, Janubiy Kavkaz, Shimoliy-G‘arbiy Xitoydan tortib, Bolqon va Shimoliy Afrikagacha bo‘lgan musulmonlar zulmidan tashvishlanayotganini ko‘rsatib, Anqara bunga yo‘l qo‘ymasligi”(OOH. 24.09.2019. https://www.youtube.com/@UNRadioRU) ni ta’kidladi, va shu bilan davlat rahbari tashkil etilgan imtiyozli yadro klubini tanqid qildi, chunki uning a’zolari, bir tomondan, siyosiy bosim uchun yadroviy qurol omilidan foydalansa, ikkinchi tomondan, ularning boshqa mamlakatlarda rivojlanishini taqiqlaydi: “dunyo yoki yadroviy quroldan voz kechishi va ularni yo‘q qilishi kerak, zahiralarni saqlash yoki boshqalarga ruxsat berish” (OOH. 24.09.2019. https://www.youtube.com/@UNRadioRU) to‘g‘risidagi so‘zlar bilan, xulosa qildi.

Turkiya rahbarining ushbu xulosasidan kelib chiqib aytish mumkinki, davlat rahbari tomonidan yangi dunyo tartibi to‘g‘risida hal qiluvchi rejalar taklifi mavjud edi. Turkiyaning o‘ziga xosligi shundaki, bugungi kunda turli davlatlar bilan hamdo‘stlikni mustahkamlash bilan birga rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganishga harakat qilayotganligini, yaqin kelajakda nufuzli global rahbar sifatidagi geosiyosiy imkoniyatlarini aniqlash va bunday maqomga ega bo‘lish maqsadidagi munosabatlarga keladigan bo‘lsak, Turkiyaning Rossiya bilan bo‘lgan ikki tomonlama munosabatlarida ular asosan o‘z ichki muammolarini hal qilishda o‘zaro maqsadlarga to‘xtaladilar,

Masalan, *birinchidan,* Turkiya taraqqiyotini to‘rtta asosiy kuch ko‘rsatkichi bo‘yicha tahlil qiladi: “yumshoq kuch” (6. ), iqtisodiy, harbiy, texnologik tizimlarga asoslanadi,

*Ikkinchidan,* Adolat va taraqqiyot partiyasi siyosatining davlatga boshqa mamlakatlar va xalqlar uchun jozibador bo‘lgan kelajakdagi birgalikdagi

taraqqiyot loyihasini shakllantirish imkonini beruvchi mafkuraviy asoslarini aniqlash,

*Uchinchidan*, Turkiya rahbariyatiga o‘zining tashqi siyosat yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish va faol va hujumkor tashqi siyosatga o‘tish imkonini bergan tashqi sharoitlarni aniqlash,

*To‘rtinchidan*, Rossiya Federatsiyasi uchun Turkiyani mustahkamlash imkoniyati, istiqbollari va tahdidlarini baholash( Ирхин А.А., Москаленко О. А), kabi masalalarni o‘rtaga tashlaydi.

Tadqiqot nuqtayi nazaridan Turkiya davlatining tarixiy tajribasini, o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib borar ekan, siyosiy rivojlanish vektorini bashorat qilish, uning siyosiy tizimi va siyosiy institutlarini o‘rganish, mavjud qarama-qarshilik va prognozlar asosiy manba sifatida siyosiy islomni o‘zgartirish vektori, hayotning ijtimoiy sohalarini islomlashtirish chegaralari va tabiati, shuningdek, Adolat va taraqqiyot partiyasi va uning rahbari Rajab Toyyib Erdo‘g‘anning ichki siyosiy muloqotdagi rolida o‘z aksini topmoqda. Boshqa bir manbada,Turkiya siyosiy makonining zamonaviy institutsional arxitekturasining poydevori Birinchi jahon urushidan keyin Mustafo Kamol tomonidan qo‘yilgan. Mafkuraviy merosi kosmopolit Usmonli imperiyasining Yevropa tipidagi milliy turk davlatiga aylanishi bilan bog‘liq ( Белоглазов А.В. Надыров Р.Н. https://cyberleninka.ru/article/n/myagkaya-sila-turtsii-v-tsentralnoy-azii-v-kontse-xx-nachale-xxi-v-integratsionnyy-potentsial ), ekanligi keng ta’rif etiladi.

Turkiyaning jahon miqyosida o‘rnini egallashdagi asosiy tendensiyalar quyidagilardan iborat:

- Anqaraning jahon miqyosida faolligini oshirish
- Turli mintaqalardagi davlatlar bilan aloqalarni jadal rivojlantirish
- Yaqin Sharqda mintaqaviy yetakchilik uchun kurash

Adolat va Taraqqiyot partiyasi rahbariyati Turkiyani dunyoning yetakchi kuchlaridan biriga aylantirish maqsadini e’lon qildi. Umuman olganda, mamlakatning xalqaro mavqeini mustahkamlash g‘oyasi muxolif partiyalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Biroq, ular bu maqsadga erishishning boshqa usullarini afzal ko‘rishadi.

Turk millatchilari an’anaviy ravishda turkiy xalqlar bilan aloqalarni rivojlantirishga e’tibor qaratadilar va qo‘shni davlatlar bilan hududiy va chegaraviy bahslarda keskin pozitsiyani egallaydilar. Shu nuqtayi nazardan, AKP 2018-yilda kirgan millatchilar bilan ittifoq allaqachon Erdo‘g‘anning Kipr muammosi va Gretsiya bilan munosabatlariga munosabatining keskinlashishiga olib keldi.

Xuddi shunday yo‘l musulmon hamjamiyatining turli siyosatlarida ham sinovdan o‘tgan va tadqiqotchilar uni siyosiy tizimning institutsional evolyutsiyasi va umuman siyosiy taraqqiyotning alohida universal modeli sifatida ajratib

ko‘rsatadilar. Qoidaga ko‘ra, u g‘arbiylashuv sifatida tavsiflanadi (Сергеев В.М., Саруханян С.Н. - С. 134-150.) yoki mos ravishda uning mafkuraviy Yevropaparast kelib chiqishini qayd etadi (Исаков А.С. - 79-92.), deyiladi. Turkiyaning mavjud dunyo tartibini qayta ko‘rib chiqishning navbatdagi bosqichi 2013-2014-yillarga to‘g‘ri keldi, aynan shu davrda R.T. Erdo‘g‘on bosh vazir sifatida “Dunyo beshdan ortiq” nomli tezisini ilgari suradi. Bu so‘zlar turli ichki va xalqaro platformalarda eshitilib, Turkiya rahbariyatining BMT tizimidan hafsalasi pir bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu yerda "besh" soni BMT Xavfsizlik Kengashining veto huquqiga ega besh doimiy a’zosiga ishora qiladi. “Turkiya va eng avvalo, prezident R.T. Erdo‘g‘on BMT Xavfsizlik Kengashi ham tashkilotning o‘zi kabi tub islohotlarga muhtojligining izchil tarafdori” (Стародкбцев И. https// www.ksnko.ru) deydi.

Misol uchun, Turkiya rahbari 2014-yil 24-sentabrda BMT Bosh Assambleyasida so‘zlagan nutqida “Dunyo beshdan ortiq” tezisidan foydalanib, imtiyozli huquqlarning ayanchli oqibatlariga e’tibor qaratadi. Xususan, turklarning fikricha, ushbu xalqaro tashkilotning asosiy organi sifatida BMT Xavfsizlik kengashi tarkibini yangi kuch markazlari orqali kengaytirish zarur. Bu, albatta, iqtisodiy va siyosiy tortishish markazining Sharqqa, Xitoyga siljishi va dunyo tartibidagi roli hozirda muhim bo‘lgan yangi kuch markazlarining paydo bo‘lishining hozirgi holatini aks ettiradi. Albatta, Turkiya xalqaro maydonda yangi qaror qabul qiluvchi organga kiritilishi kerak bo‘lgan davlatlardan biri bo‘lishni da’vo qilmoqda. 2018-yildagi BMT Bosh Assambleyasiga qilgan murojaatida R.T. Erdo‘g‘on bu shiorni takrorladi va shunday dedi: “Xavfsizlik Kengashi dunyoning boshqa qismlarida zulm chetidan turib kuzatar ekan, faqat doimiy ravishda veto huquqiga ega bo‘lgan besh a’zosining manfaatlariga xizmat qildi... biz keng qamrovli islohotlar zarurligini ta’kidlaymiz. Birlashgan Millatlar Tashkilotining, xususan, Xavfsizlik Kengashining tuzilishi va faoliyati. Biz ishonamizki, “Dunyo beshta davlatdan ko‘p” deganda, biz butun insoniyatning sog‘lom aql-idrokining ovozini aks ettiramiz” (https://undocs.org/ru/A/74/PV.3 (дата обращения: 30.11.2020).) degan, fikrni aytadi. Bu yerda bir qator boshqaruv usullari siyosiy kommunikatsiya o‘z ifodasini topgan, mamlakatning turli burchaklarida belgilangan huquqqa a’zo bo‘lgan kishilarning bajarayotgan vazifasi haqida ma’lumotlar bor.

Dunyodagi yetakchi mavqega ega bo‘lgan Turkiya iqtisodiyoti yalpi ichki mahsulot bo‘yicha doimiy ravishda dunyoning yetakchi yigirmata iqtisodiyoti qatoriga kiradi, ammo u eng innovatsion emas va turk aholisi o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, noyob nou-xau egasidir; Turkiya ta’lim tizimida yetakchilar qatorida emas, Bundan tashqari, aksincha, Turkiyada oliy ta’lim muammolari juda jiddiy. Ammo, shunga qaramay, Turkiya bugun, takrorlaymiz, o‘zini mustaqil aktyor deb

biladi va o‘rta muddatli istiqbolda asossiz bo‘lmagan imperiya ambitsiyalarini namoyish etadi.

Turkiya 1990-yillardan beri Markaziy Osiyoning ayrim davlatlariga (asosan Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston) grantlar, kreditlar va texnik yordam ko‘rinishida moliyaviy yordam ko‘rsatib kelmoqda. Markaziy Osiyodagi asosiy loyihalar “Kalik” va “Yildirim” xoldinglari kabi yirik turk investorlari, shuningdek, jamoat tashkilotlari (Turkiya hamkorlik va taraqqiyot agentligi – TIKA) tomonidan amalga oshirilmoqda. Turkiyaning Qozog‘iston va Turkmaniston bilan tovar ayirboshlash hajmi 2 milliard dollardan oshadi, hozirda bu mamlakatlarda 800 ga yaqin turk firmalari faoliyat yuritmoqda. Qirg‘iziston bilan tovar ayirboshlash hajmi 500 million dollardan oshadi. Turkiya kompaniyalari asosan qurilish, telekommunikatsiya va to‘qimachilik sanoati bilan shug‘ullanadi.

Markaziy Osiyo davlatlari ichida Turkiya Qozog‘iston bilan eng ilg‘or aloqalarga ega. 2009-yil oktabrda ular o‘rtasida strategik sheriklik to‘g‘risidagi bitim imzolangan, 2012-yil may oyida esa Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashi (uning 3-yig‘ilishi 2018-yil sentabr oyida Nazarboyev ishtirokida bo‘lib o‘tgan) tuzilgan edi. Qozog‘iston va Turkiya o‘rtasidagi tovar ayirboshlash eng yuqori cho‘qqisiga – 2012-yilda 3,5 milliard dollarga yetdi. Ammo o‘shandan buyon bu ko‘rsatkich barqaror ravishda pasayib bormoqda va hozirda Turkiya bilan tovar ayirboshlash umumiy tashqi savdo aylanmasining atigi 2,5 foizini tashkil etadi.

Ushbu o‘zgarishlar nafaqat siyosiy elitani ko‘paytirish usuli bo‘lgan siyosiy modernizatsiyaning "Yangi Turkiya"[1] (Keyman E.F. - P. 19-31. 2004) yoki to‘liq huquqli “Turkiya modeli” (Давыдов А.А. Гудев П.А. ва б. – с. . 10-11.) ni yaratishning boshlanishi haqidagi akademik munozarani keltirib chiqardi.

1990-yilda yaratilgan (Destekleme Idaresi Ba’kani). Ijroiya qo‘mita tarkibiga mamlakatning yetakchi vazirlaridan tashqari Yaqin Sharq texnika universiteti rektori, Turkiya fan va texnologiya tadqiqotlari jamiyati raisi, KOSGEB raisi kiradi. Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish va uyushgan sanoat zonalariga integratsiyalash bo‘yicha davlat dasturlari turli sohaviy ilmiy-tadqiqot markazlari va laboratoriyalarini tashkil etishni nazarda tutadi, davlat xo‘jalik boshqarmalari tomonidan kichik va o‘rta biznesni rag‘batlantirish chora-tadbirlari ularning eksport salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan ( Масумова Н.Р –с. 187-189/ 2019.).

[1] Keyman E.F. The AK Party: dominant party, new Turkey and polarization // Insight Turkey. 2014. Vol. 2. N 2. P. 19-31.

2009-yilda Turkiya iqtisodiyotida band bo‘lgan 10 ming kishiga ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar bilan shug‘ullanuvchi xodimlar soni 35 kishini tashkil etdi, shundan 27 nafari tadqiqotchilardir (1998-

Zamonaviy turk davlatining, balki universallashtirilishi va boshqa mamlakatlar uchun transsendental tasvir sifatida taklif qilinishi mumkin. Binobarin, u siyosatshunoslik tahlilining mustaqil obyekti bo‘lib, butun musulmon dunyosi rivojlanishining asosiy tamoyillarigayendensiyalariga bo‘ysunmaydi” (Масумова Н.Р –с. 187-189/ 2019), deyiladi.

Yevropa Ittifoqiga to‘liq a’zo sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shilishning cho‘zilgan jarayoni asta-sekin aholi orasida tashkilotga xayrixohlikning pasayishiga yordam berdi. Buni turk jamiyati tomonidan an’anaviy qadriyatlarga tahdid sifatida salbiy qabul qilingan “yevropalashtirish” jarayonlari yanada kuchaytirdi. Shu munosabat bilan yangi g‘oya va tushunchalarni izlash jarayoni boshlandi, buning potensial manbai islomning o‘z tarixiy tajribasi va islomning ijtimoiy-siyosiy ta’limoti bo‘lishi mumkin edi.

Turkiyalik siyosatshunos olimlarning fikricha: “Turkiya rahbarlari konservativ modernizatsiyaning yangi shaklini izlab, milliy davlatning umuminsoniy qadriyatlar bilan sintezini yaratishga, turk-islom madaniyatining an’anaviy va konservativ qadriyatlarini saqlashga harakat qilishgan” (Yeşiltaş, M., - P. 661-687. dergipark.org.tr › pub › comuybd › article/ 2013). Qayd etilishicha, Usmonli merosidan yumshoq kuch elementi sifatida foydalaniladi (Çarkolu A. -. P. 43-62.2011). Bunday siyosat asosiy siyosiy institutlarga, ayniqsa, partiya tizimiga va umuman parlamentarizmga ta’sir qilmay qolishi mumkin emas edi. Ta’kidlanishicha, 2011-yilgi saylovning muhim natijasi asosiy siyosiy partiyalarning asosiy elektorati shakllangani bo‘ldi ( **ETE**, Hatem - P. 11-128.). Shunday qilib, Adolat va taraqqiyot partiyasining o‘rnatilgan gegemonligiga qaramay, "siyosiy gettolar" yoki "kuchli nuqtalar" tashkil topdi ( **ETE**, Hatem - P. 11-128/ 2014). Bu ... o‘z partiyalarini barqaror qo‘llab-quvvatlovchi muayyan hududlarni shakllantirishni bildiradi. Masalan, yirik shaharlarning dunyoviy elektorati Kemalistik Respublika Xalq partiyasini, kurdlar, zazalar va boshqa ozchiliklar o‘zlarining partiyaviy loyihalarini (masalan, Xalq demokratik partiyasi), eng radikal turk millatchilari va turkmanlar vakillarini qo‘llab-quvvatladilar. millatchilik harakati partiyasi. Bu tendensiyalar faqat keyingi saylov kampaniyalarida kuchaydi.

Biroq Radjab Toyyib Erdo‘g‘onning o‘zi bu boradagi qarashlari bir necha bor o‘zgargan. Dastlab, uning pozitsiyasi turkiy insonparvarlik ta’sirining mafkurasi Fathulloh Gulenning ta’limoti bilan bog‘liq bo‘lgan mo‘tadil islomchilik platformasida qurilgan. “AKP o‘zining birinchi saylovlariga borganida Gulen ko‘rsatmalarida aytilgan qoidalarni aynan amalga oshirishga va’da bergan edi”

(Замов Э.А. С. 74-80. 2016). Har ikki platformaga ham armiya faol qarshilik koʻrsatgani uchun ham ikki siyosiy kuchning ittifoqi mustahkamlandi.

Bu borada kalit 2014-yilgi munitsipal saylov sikli boʻlib, u nihoyat Erdogʻan va Adolat va taraqqiyot partiyasining gʻalabasini rasmiylashtirdi. Ushbu saylovlarda partiya nazorat qilinadigan hududlar soni boʻyicha eng yuqori natijani qoʻlga kiritdi, buning samarasi 2015-yil noyabr oyida boʻlib oʻtgan parlament saylovlarida mustahkamlandi. Aynan oʻsha paytda jamoatchilik ongida "hukmron partiya" tushunchasi shakllanib, aholi koʻz oʻngida iqtisodiy oʻsish bilan mustahkam bogʻlanishga ega boʻldi ( Лебедева Я.И. С. 156-163/ 2017). Keyinchalik, "Hizmet" harakati tomonidan birlashgan Adolat va Taraqqiyot partiyasi va Gulen tarafdorlari oʻrtasida Turkiya davlatini islomlashtirish borasidagi qarashlar tubdan farq qildi. Bu nafaqat Erdoʻgʻan va uning atrofidagilar armiyaning himoya rolini buzishga qodir mustaqil yetakchi siyosiy kuchga aylangani, balki diniy kun tartibini ilgari surish sabablaridagi farqlar tufayli ham sodir boʻldi. Agar Fathulloh Gulen tarafdorlari dinni mamlakatni oʻzgartirish va turkiylik va islom beshigi boʻlishni maqsad qilgan yangi imperiyaga aylantirishning kaliti deb bilgan boʻlsa, siyosiy elita uchun bu muammoni hal qilishning bir yoʻli. utilitar muammolarni tushunish va oʻz siyosiy hokimiyatini qonuniylashtirish mexanizmi (Харитонова О.Г. С. 181-205. 2018). shuningdek, Konstitutsiyaga muhim oʻzgartirishlar kiritilgan 2017-yilgi konstitutsiyaviy referendumning boshlangʻich nuqtasi boʻlib xizmat qildi. Xususan, asosiy yangiliklar quyidagilardan iborat: prezidentlik boshqaruv shakliga oʻtish, parlament deputatlarining ijro hokimiyatiga nisbatan interpelatsiya huquqini bekor qilish, harbiylar va oliy harbiy oliy oʻquv yurtlari talabalarining saylov huquqini bekor qilish, harbiy sudlar faoliyatini taqiqlash, sud-huquq tizimini isloh qilish va vakolat berilgan qonunchilik amaliyotini rad etish.

Ushbu konstitutsiyaviy islohot Venetsiya komissiyasi tomonidan tanqid qilindi. Xususan, muayyan tuzatishlar jamoatchilik muhokamasiga kiritilmagani, asosiy hujjat favqulodda holat davrida ishlab chiqilgani, prezidentning haddan tashqari vakolatlari (shu jumladan, saylanmagan vitse-prezidentlarning davlat rahbari vazifasini bajarishi mumkinligi) qayd etildi. davlat), amalda qonunlarga teng boʻlgan prezident farmonlarining haddan tashqari yuridik kuchi, tarqatib yuborish uchun juda keng imkoniyatlar yaratilgan. Parlament, ijro hokimiyati ustidan sud nazoratining zaiflashishi va sudning amalda ikkinchisiga boʻysunishi (Галкина Е.В., С. 38-46. 2015.]. Shundan kelib chiqib, nazorat va muvozanat tizimi samarasiz, bu esa Turkiyada avtoritar boshqaruv oʻrnatilishiga olib keladi, degan xulosaga keldi. Agar masalaning funksional tomoni haqida gapiradigan boʻlsak, aslida biz samara bermayotgan primer-prezidentlik boshqaruvi rejimidan super-prezidentlik respublikasi rejimiga oʻtish haqida bormoqda [Хасанов Р.Ш. С. 31-34. 2017.]. Bu esa mamlakatdagi siyosiy institutlarning maʻnosi va rolini tubdan

o‘zgartirib, alohida prezidentlik hokimiyatini shakllantirib, ijro va sud hokimiyatlarini unga bo‘ysundiradi. Shu bilan birga, parlament hali ham prezidentga ta’sir qilishning turli usullariga ega, jumladan impichment, muddatidan oldin iste’foga chiqish va qonun loyihalariga prezident vetosini yengib o‘tish va boshqa.

Zamonaviy davrga kelib, kuchlarning haqiqiy muvozanati parlamentdagi partiyalarning uyg‘unligiga va asosiy munitsipalitetlar rahbarlarining partiyaviy mansubligiga bog‘liq bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, 2019-yilgi munitsipal saylovlar katta ta’sir ko‘rsatdi, bunda hukmron partiya bir qator muhim munitsipalitetlarni, jumladan Istanbul, Anqara, Izmir va Antaliyani boy berdi. Mamlakatning deyarli butun sharqidagi munitsipal ma’muriyati ham davlat rahbariga muxolifatda edi.

15. Wilkins T. S. Russo-Chinese Strategic Partnership: A New Form of Security Cooperation? // Contemporary Security Policy. 2008. Vol. 29, No. 2. P. 358–383. DOI: 10.1080/13523260802284365.

16. Beach D., Pedersen R. B. Process-Tracing Methods: Foundations and Guidelines. 2nd ed. Ann Arbor: University of Michigan Press, 2019. 328 p.

17. Al-Rasheed M. A History of Saudi Arabia. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. 336 p.

18. Косач Г. Г. Саудовская Аравия: трансформация власти и политики // Мировая экономика и международные отношения. 2019. Т. 63, № 4. С. 59–67. DOI: 10.20542/0131-2227-2019-63-4-59-67.

19. Федорченко А. В. Реформирование саудовской экономики: итоги и перспективы // Мировая экономика и международные отношения. 2021. Т. 65, № 4. С. 92–102. DOI: 10.20542/0131-2227-2021-65-4-92-102.

20. Малышева Д. Б. Аравийские монархии и Центральная Азия // Мировая экономика и международные отношения. 2024. Т. 68, № 7. С. 79–89. DOI: 10.20542/0131-2227-2024-68-7-79-89.

21. Сурков Н. Стратегические альтернативы во внешней политике Саудовской Аравии // Международные процессы. 2022. Т. 20, № 3 (70). С. 95–111. DOI: 10.17994/IT.2022.20.3.70.25.

22. Ibragimov S. Evolution, Establishment and Development of Diplomatic Relations between the Kingdom of Saudi Arabia and the Republic of Uzbekistan // Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies. 2024. Vol. 3, No. 2. DOI: 10.37547/os/vol-03-01-02-16.

23. Shukurov A. Kingdom of Saudi Arabia and the Republic of Uzbekistan: A New Perspective on Relations // The American Journal of Political Science Law and Criminology. 2025. Vol. 7, No. 2. P. 30–35. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume07Issue02-07.

24. Priya L. The Changing Foreign Policy Dynamics of GCC States: A Study through the Lens of Positive Interdependence // Asian Journal of Middle Eastern and Islamic Studies. 2024. Vol. 18, No. 1. P. 32–47. DOI: 10.1080/25765949.2024.2366068.

25. Qin Q., Razali S. Z. Strategic Hedging in a Multipolar World: Saudi Arabia's Foreign Policy Transformation under Vision 2030 // Journal of Liberty and International Affairs. 2025. Vol. 11, No. 3. P. 72–89. DOI: 10.47305/jlia.2025.1937.

26. Papageorgiou M., Jamali A. B. Standing In-Between—Gulf States in the Shanghai Cooperation Organisation under New Security Dynamics: The GCC, Saudi Arabia and Qatar // Journal of Asian Security and International Affairs. 2025. Vol. 12, No. 1. DOI: 10.1177/23477970241298755.

27. ISO 31000:2018. Risk Management -Guidelines. Geneva: International Organization for Standardization, 2018. 16 p.

## SHIMOLIY AFRIKA VA YEVROPA ITTIFOQI O'RTASIDA MIGRATSIYA INQIROZI (SUETA INQIROZI MISOLIDA)

***DILSHOD MUYDINOV***
*Professor v.b.s.f.d., JIDU*

***Annotatsiya:*** *Maqolada Shimoliy Afrika va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi migratsiya jarayonlari Seuta va Melilya eksklavlari misolida tarixiy, siyosiy, huquqiy va institutsional jihatdan tahlil qilinadi. Bu hududlarning geografik jihatdan Afrika qit'asida, siyosiy va huquqiy jihatdan esa Ispaniya hamda Yevropa Ittifoqi tarkibida joylashgani migratsiya oqimlari, chegara nazorati va suverenitet masalalarining o'zaro*

*bog‘liqligini yuzaga keltirgan. Maqolaning asosiy maqsadi Seutada 2021 va 2026-yillarda yuzaga kelgan migratsiya to‘lqinlarining sabab va oqibatlarini qiyosiy o‘rganish, Marokashning migratsiya boshqaruvidagi rolini aniqlash hamda Yevropa Ittifoqining tashqi chegaralarni eksternallashuviga asoslangan siyosatini baholashdan iborat.*

***Tayanch so‘z va iboralar:*** *Migratsiya inqirozi; Seuta; Melilya; Yevropa Ittifoqi; Marokash; migratsiyaning instrumentalizatsiyasi.*

***Abstract:*** *This article analyzes the migration processes between North Africa and the European Union in historical, political, legal and institutional terms using the example of the exclaves of Ceuta and Melilla. The geographical location of these territories on the African continent, and political and legal within Spain and the European Union, has created an interconnectedness of migration flows, border control and sovereignty issues. The main objective of the article is to conduct a comparative study of the causes and consequences of the migration waves that occurred in Ceuta in 2021 and 2026, to determine the role of Morocco in migration management, and to evaluate the European Union's policy based on the externalization of external borders.*

***Key words and phrases:*** *Migration crisis; Ceuta; Melilla; European Union; Morocco; instrumentalization of migration.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются миграционные процессы между Северной Африкой и Европейским Союзом в историческом, политическом, правовом и институциональном контексте на примере эксклавов Сеута и Мелилья. Географическое положение этих территорий на африканском континенте, а также их политическое и правовое положение в рамках Испании и Европейского Союза, создали взаимосвязь миграционных потоков, пограничного контроля и вопросов суверенитета. Главная цель статьи — провести сравнительное исследование причин и последствий миграционных волн, произошедших в Сеуте в 2021 и 2026 годах, определить роль Марокко в управлении миграцией и оценить политику Европейского Союза, основанную на экстернализации внешних границ.*

***Ключевые слова и фразы:*** *Миграционный кризис; Сеута; Мелилья; Европейский союз; Марокко; инструментализация миграции.*

**KIRISH:** Shimoliy Afrika va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi migratsiya munosabatlari so‘nggi yillarda Yevropa xavfsizligi, chegara boshqaruvi va inson huquqlari birlashgan siyosiy muammolardan biriga aylandi. Bu jarayonda Ispaniyaning Seuta va Melilya avtonom shaharlari alohida strategik ahamiyatga ega. Geografik jihatdan Afrika qit’asida joylashgan ushbu ikki hudud siyosiy va huquqiy jihatdan Ispaniya tarkibiga kiradi hamda Yevropa Ittifoqining Afrikadagi yagona quruqlik chegaralarini tashkil etadi. Shu sababli ular migratsiya oqimlari, chegara xavfsizligi va Ispaniya–Marokash munosabatlaridagi siyosiy ziddiyatlar kesishadigan hudud sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy adabiyotlarda Seuta va Melilya orqali migratsiya asosan Yevropa Ittifoqining tashqi chegaralarini eksternallashuvi, Marokash bilan migratsiya hamkorligi, chegara nazorati va inson huquqlari muammolari doirasida tadqiq

etilgan. Biroq migratsiya oqimlarini faqat iqtisodiy yoki demografik omillar bilan izohlash yetarli emas. 2021-yil may oyida Seutada yuz bergan ommaviy migratsiya inqirozi migratsiya oqimlarining diplomatik bosim vositasiga aylanishi mumkinligini ko‘rsatdi. Hodisa Ispaniyaning G‘arbiy Sahara masalasidagi siyosati va Marokash bilan diplomatik munosabatlari kontekstida yuzaga kelgani sababli migratsiya va davlatlararo siyosiy munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni namoyon etdi.

2026-yilda Seuta atrofida yuzaga kelgan navbatdagi yirik migratsiya to‘lqini esa muammoning davomiyligini ko‘rsatdi. Ushbu jarayonda huquqiy tartib, chegara nazoratining o‘zgarishi, mahalliy iqtisodiy sharoit, ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot tarqalishi va avvalgi migratsiya tajribasi bir-biri bilan bog‘liq omillar sifatida namoyon bo‘ldi. Shu jihatdan tadqiqotda migratsiya inqirozini alohida epizod emas, balki Shimoliy Afrika–YI chegaraviy boshqaruv tizimining tarkibiy muammosi sifatida ko‘rib chiqiladi.

**MAQSAD VA VAZIFA:** Maqolaning asosiy maqsad va vazifalari Shimoliy Afrika va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi migratsiya inqirozining shakllanish mexanizmlarini Seuta misolida tizimli tahlil qilish, 2021 va 2026-yillardagi migratsiya to‘lqinlarining o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash; jarayonda siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va institutsional omillarning ta’sirini ochib berishdan iborat.

**USULLAR:** Shimoliy Afrika va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi migratsiya inqirozini kompleks o‘rganish uchun qiyosiy, tarixiy, tizimli, siyosiy-huquqiy va institutsional tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, Kelly M. Greenhillning “coercive engineered migration” konsepsiyasi nazariy-analitik asos sifatida qo‘llanildi.

**NATIJALAR VA MULOHAZA:** Shimoliy Afrika va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi noqonuniy migratsiyani “to‘satdan yuzaga kelgan inqiroz” sifatida talqin qilish tahliliy jihatdan noto‘g‘ri bo‘ladi. Seuta va Melilya orqali yuz beradigan migratsiya oqimlari asrlar davomida shakllanib, deyarli o‘zgarmay kelayotgan chegaraviy tartibning natijasi hisoblanadi **[1]**. Seuta taxminan 18 kvadrat kilometr maydonni egallagan yarimorol bo‘lib, aholisi 83–84 ming atrofida. Melilya esa undan sharqroqda joylashgan va huquqiy maqomi jihatidan unga o‘xshash ikkinchi Ispaniya avtonom shahridir. Har ikki shahar geografik jihatdan Mag‘rib qirg‘og‘ida joylashgan bo‘lsa-da, siyosiy va huquqiy jihatdan Ispaniya, shu orqali esa Yevropa Ittifoqi tarkibiga kiradi. Aynan shu ikki shahar YI tashqi chegarasining Afrikadagi yagona quruqlik kesishmalarini tashkil qiladi. Yiga a’zo boshqa hech bir davlat quruqlik orqali Afrika bilan chegaradosh emas **[2]**. Shu sababli Seuta va Melilya nafaqat Ispaniyaning, balki butun Yevropa Ittifoqining “oldinga surilgan chegarasi” (frontera avanzada) sifatida qaraladi.

Seuta 1668-yildan buyon Ispaniya nazoratida bo‘lib keladi. Marokash esa mustaqillikka erishganidan beri har ikki shahar ustidan o‘z suvereniteti haqidagi da’vosidan voz kechmagan. Shakllangan vaziyatni esa “postkolonial limbo” deb ta’riflash mumkin: shaharlar YI acquis’ining amal qilish doirasiga kiradi, biroq geografik jihatdan Afrika qit’asida, ya’ni Marokash hududi ichida joylashgan **[3]**. Bu ikki tomonlama holat oddiy xarita yoki hududiy belgilash masalasi emas. U chegara to‘siqlarining qurilishi, o‘tish punktlarining ochilishi va yopilishi hamda mahalliy iqtisodiyotning noqonuniy savdo (porteadoras) bilan bog‘lanishini ham belgilab beradi.

Huquqiy rejim ham to‘liq bir xil emas. Seuta Shengen hududiga to‘liq kirmaydi, biroq YI tashqi chegarasi sifatida e’tirof etiladi. Bojxona va shaxslarning harakatlanishi bo‘yicha maxsus tartiblar amal qiladi. Aynan mana shu huquqiy noaniqlik keyinchalik “issiq qaytarish” (devoluciones en caliente) kabi amaliyotlar uchun zamin yaratgan. Farah Ali yozishicha, Seuta va Melilya Ispaniya–Marokash munosabatlarini shakllantiradigan diskursiv maydon bo‘lib, bu hududda migratsiya faqat odamlarning bir joydan ikkinchi joyga harakati emas, balki suverenitet haqidagi bahsni ifodalovchi siyosiy vaziyat holatini ochib beradi **[4]**.

Aholisi taxminan 83 600 kishini tashkil etadigan shaharda qisqa vaqt ichida yuzaga kelgan oqimning mahalliy aholining qariyb 60 foiziga tenglashishi voqeaning o‘zidan ko‘ra, qabul qilish infratuzilmasining oldindan mavjud bo‘lgan zaifligini ko‘rsatadi. IOM ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yillar atrofida Marokash hududida asosan G‘arbiy va Markaziy Afrikadan kelgan qariyb 40 ming nafar boshqa davlat fuqarosi noqonuniy maqomda yashagan **[5]**.

Seuta bilan bog‘liq voqealarni Yevropaga yo‘nalgan noqonuniy migratsiya yo‘llari umumiy tizimidan ajratib ko‘rib bo‘lmaydi. Biroq bu tizimning “oddiy”, ya’ni eksklavlarda yuz beradigan favqulodda migratsiya to‘lqinlaridan tashqari ishlash mexanizmini alohida ko‘rib chiqish zarur. Bu yerda uchta parallel yo‘l mavjud. Birinchisi G‘arbiy O‘rta dengiz yo‘li bo‘lib, u Marokash va Jazoir hududlaridan Ispaniya qirg‘oqlari, Balear orollari hamda Seuta–Melilya tomon yo‘naladi. Ikkinchisi G‘arbiy Afrika–Atlantika yo‘li bo‘lib, Senegal, Mavritaniya va Marokashning janubidan Kanar orollariga olib boradi. Uchinchisi Markaziy O‘rta dengiz yo‘li bo‘lib, Liviya va Tunisdan Italiya tomon yo‘naladi **[6]**. So‘nggi yo‘l ushbu tadqiqotning asosiy obyekti emas, balki faqat umumiy ko‘lamni taqqoslash uchun keltirilmoqda. Seuta bilan bog‘liq migratsiya Ispaniya yo‘nalishiga, ya’ni dastlabki ikki yo‘lning quruqlik va qisqa dengiz tarmoqlariga taalluqli.

2025–2026-yillarda YI tashqi chegaralarida aniqlangan noqonuniy o‘tishlar umumiy hisobda kamaygan. Frontex ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda YEI tashqi chegaralarida qariyb 178 000 ta holat qayd etilgan bo‘lib, bu 2024-yilga nisbatan

26 foizga kam. Biroq G‘arbiy O‘rta dengiz yo‘li o‘sish kuzatilgan yagona yirik yo‘l bo‘lib qolgan. 2025-yilda bu yo‘nalishda taxminan 18 946 ta holat qayd etilgan va bu 11 foizlik o‘sishni anglatadi **[7]**. 2026-yilning yanvar–iyul oylarida iyul oxirida Seutada yuz bergan epizod hisobga olinmagan holda ushbu yo‘nalishda 11 217 ta holat qayd etilgan. Bu 2025-yilning shu davriga nisbatan 37 foizlik o‘sish. Shundan 2 569 tasi quruqlik orqali amalga oshirilgan bo‘lib, 2025-yilning shu davrida bu ko‘rsatkich 1 079 tani tashkil etgan **[8]**. 2025-yilda G‘arbiy O‘rta dengiz yo‘nalishida aniqlanganlarning asosiy fuqaroligi jazoirliklar, somaliliklar va marokashliklar bo‘lgan. Frontex hisob-kitoblariga ko‘ra, Jazoir, Marokash va Somali fuqarolari jami holatlarning taxminan 78 foizini tashkil etgan.

Atlantika yo‘nalishida esa boshqa turdagi dinamika kuzatiladi. Kanar orollariga 2024-yilda 46 843 kishi yetib kelgan bo‘lsa, 2025-yilda bu raqam 17 788 kishigacha kamaygan, ya’ni 62 foizlik pasayish qayd etilgan. Biroq bu xavf darajasi kamayganini anglatmaydi. IOM ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda aynan shu yo‘nalishda 1 214 kishi halok bo‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan. 2020–2025-yillar oralig‘ida Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Malta va Kiprga dengiz hamda quruqlik orqali 1,04 milliondan ortiq noqonuniy migratsiya qayd etilgan. Ularning 259 204 nafari G‘arbiy va Markaziy Afrika fuqarolariga to‘g‘ri keladi **[9]**.

Marokash bu tizimda bir vaqtning o‘zida uch xil rolni bajaradi. Birinchidan o‘z fuqarolarining Yevropaga chiqish manbalaridan biri. Ikkinchidan G‘arbiy Afrika migratsiya oqimlari uchun tranzit hudud hisoblanadi. Uchinchidan YI uchun tashqi chegara nazoratining amaliy ijrochisi vazifasini bajaradi **[10]**. 1992-yilgi Ispaniya–Marokash qayta qabul qilish bitimi, 2013-yilgi YI–Marokash Mobility Partnership va Rabat jarayoni ushbu uch tomonlama rolni institutsional jihatdan mustahkamlagan **[11]**. Bu “hamkorlik” sifatida ifodalanadi; tahliliy nuqtayi nazardan esa uni chegara suverenitetining qisman ijaraga berilishi sifatida talqin qilish mumkin.

Yevropa tashqi xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, Marokash YEI ning migratsiya sohasidagi eng uzoq muddatli texnik va moliyaviy hamkorlaridan biri hisoblanadi. 2021–2024-yillarda migratsiyani boshqarish uchun taxminan 222 million yevro miqdorida majburiyat olingan. 2027-yilgacha esa yana 190 million yevro ajratish ko‘zda tutilgan **[12]**. Bundan oldingi EUTF Africa dasturi doirasida 2015–2021-yillarda taxminan 234 million yevro ajratilgan bo‘lib, mablag‘larning qariyb 77 foizi integratsiyalashgan chegara boshqaruvi va kontrabandaga qarshi kurashga yo‘naltirilgan. NDICI “Janubiy qo‘shnichilik” dasturlari (2024–2027) ham ushbu yondashuvni davom ettiradi **[13]**. Ular byudjet yordami orqali Marokashning milliy immigratsiya va boshpana strategiyasini “gumanitar” jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi, amalda esa migratsiya oqimlarini YI tashqi perimetridan uzoqroqda ushlab turishga xizmat qiladi.

DGAPning 2026-yildagi tahlilida Rabat uchun bunday hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlariga qonuniy mobillikning tanlangan yo‘nalishlari, diaspora bilan bog‘liq masalalar, chegara nazorati evaziga Yevropa poytaxtlarida siyosiy ta’sir va yuklamani kuchaytirishni kiritgan **[14]**. Seuta qarshisida joylashgan Fnideq va Melilya yaqinidagi Nador hududlarida yoshlar ishsizligi, pandemiya davrida chegaralarning yopilishi, transchegaraviy kichik savdoning qisqarishi mahalliy daromad manbalarining sezilarli darajada yo‘qolishiga olib kelgan **[15]**.

Kelly M. Greenhill tomonidan ishlab chiqilgan “coercive engineered migration” tushunchasiga ko‘ra, nisbatan zaifroq davlat ommaviy migratsiyani ataylab yaratishi yoki boshqarishi mumkin va bundan kuchliroq davlatdan siyosiy yoki boshqa imtiyozlar olish uchun foydalanadi **[16]**. Bu tushuncha voqealar xronologiyasini shunchaki bayon qilishdan ko‘ra, Marokashning uchinchi roli, ya’ni “boshqaruvchi davlat” sifatidagi mavqeini nazariy jihatdan tushuntirish imkonini beradi. Rasmiy Rabat doktrinasi esa bu vositani inkor etishdan ko‘ra, uni tenglik va o‘zaro manfaat orqali ifodalaydi. Marokash “Ispaniyaning politsiyachisi” bo‘lishni istamasligini, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro manfaatga asoslanishi kerakligini qayd etadi **[17]**.

Seuta va Melilya masalasini G‘arbiy Sahara muammosidan ajratib tahlil qilib bo‘lmaydi. 1975-yilgi Madrid kelishuvlari Ispaniyaning mustamlakachilik ma’muriyatini Marokash va Mavritaniyaga topshirgan. Polisario Fronti va keyinchalik MINURSO esa referendum va o‘z taqdirini o‘zi belgilash masalasini xalqaro huquqiy kun tartibining markaziga olib chiqdi **[18]**. 2020-yilda AQSh tomonidan Marokashning G‘arbiy Saharadagi suverenitetining tan olinishi avvalgi muvozanatni buzdi **[19]**. Ispaniya esa uzoq vaqt davomida “betaraflik + o‘z taqdirini o‘zi belgilash bo‘yicha referendum” pozitsiyasini saqlab kelgan. 2022-yil mart oyida Madridning Marokashning avtonomiya rejasini qo‘llab-quvvatlashi sabab-oqibat zanjirining keyingi bosqichini tashkil etadi **[20]**. Bu yerda esa asosiy jihat tarixiy o‘qning mavjudligida namoyon bo‘ladi: eksklavlar va G‘arbiy Sahara bir xil suverenitet bahsining ikki xil geografik qutbini tashkil etadi.

Mediterranean Politics nashrida yozilishicha, “coercive engineered migration” nazariyasini Seuta voqealariga tatbiq etish G‘arbiy Saharani “yashirin o‘q” sifatida ko‘rishni talab qiladi. Bunday yondashuvda migratsiya alohida va faqat gumanitar hodisa emas. U eksklavlar ustidan suverenitet masalasi bilan G‘arbiy Sahara ustidan suverenitet masalasi o‘rtasida almashiladigan diplomatik “valyuta”ga aylanadi **[21]**.

Mintaqadagi raqobat esa bu o‘qni yanada murakkablashtiradi. Ispaniyaning 2022-yildagi siyosiy munosabati o‘zgarishidan keyin Jazoir bilan munosabatlarning sovuqlashuvi G‘arbiy O‘rta dengizdagi migratsiya chiqish nuqtalarining o‘zgarishi bilan birga yuz berdi. Jazoir yo‘nalishining ulushi oshishi oddiy “tabiiy demografik to‘lqin” bilan izohlanmaydi **[22]**. Bu holat Mag‘rib

hududidagi ittifoqlar qayta shakllanganda migratsiya oqimlarining ham qayta taqsimlanishini ko‘rsatadi.

2021-yilgi inqirozning bevosita sababi diplomatik tusga ega edi. 2021-yil aprel oyida Polisario Fronti bosh kotibi Ibrohim G‘oliy COVID-19 bilan bog‘liq davolanish uchun Ispaniyaning Logroño shahridagi San Pedro kasalxonasiga yotqizildi. Uning Ispaniyaga olib kelingani Rabatga oldindan ma’lum qilinmagan edi **[23]**. Marokash tashqi ishlar idorasi bunga qisqa, biroq keskin javob berdi: “*Maroc prend acte, et avec toutes les conséquences*”**[24]**. Keyinchalik Marokash tashqi ishlar vaziri Nasser Bourita inqirozning asl sababini ochiqroq ifodaladi. Uning aytishicha, masala migratsiyada emas, balki “Ispaniyaning Sahara bo‘yicha dushmanona yashirin niyatlari”da edi **[25]**.

17-may kuni ertalab Tarajal va Benzú yo‘nalishlaridan odamlar dengiz orqali suzib, to‘siqlarni aylanib o‘tgan holda Seutaga kira boshladi. Ispaniya politsiyasi Marokash jandarmeriyasining o‘sha paytdagi “noodatiy passivligi”ni qayd etdi. Rabat esa bunday vaziyatni Ramazon hayitidan keyingi charchoq bilan izohladi **[26]**. Biroq voqea guvohliklari boshqa manzarani ko‘rsatadi. New York Times xabarlariga ko‘ra, chegaradagi ayrim soqchilar odamlarga “kirish” mazmunidagi ishoralar qilgan. To‘siqning juda qisqa vaqtga yumshatilishi ham katta oqimni yuzaga keltirish uchun yetarli bo‘lgan **[27]**. Greenhill 2021-yil iyun oyida bu hodisani tasodifiy voqea emas, balki Marokash tomonidan Ispaniyani jazolash va unga bosim o‘tkazish maqsadida boshqarilgan ommaviy chegaralararo harakat sifatida baholagan **[28]**.

Oqimning asosiy qismini marokashlik yosh erkaklar tashkil etdi. Oilalar ham bo‘lgan. Rasmiy hisob-kitoblarga ko‘ra, ular orasida taxminan 1 500 nafar voyaga yetmagan ham mavjud edi. El País va Ispaniya hukumati vakillari umumiy sonni taxminan 8 000 kishi atrofida baholagan **[29]**. 17-may kunining o‘zida taxminan 6 000 kishi Seutaga kirgani qayd etilgan. O‘sha paytda bu Ispaniya tarixidagi bir kun ichida amalga oshgan eng yirik noqonuniy kirishlardan biri sifatida baholangan. 18-mayga kelib taxminan 2 700 kishi Marokashga qaytarilgan. Rasmiy ma’lumotlarda halok bo‘lganlar soni 1–2 kishi atrofida bo‘lgan **[30]**.

Ispaniyaning javobi tezkor va ikki yo‘nalishli bo‘ldi. Bir tomondan shaharga harbiy kuchlar kiritildi, noqonuniy kirganlarning bir qismi tezkor tarzda qaytarildi. Ikkinchi tomondan esa Marokashga 30 million yevrolik chegara nazorati yordami e’lon qilindi **[31]**. Seuta prezidenti Juan Jesús Vivas vaziyatni “invasión” va “estado de excepción” kabi keskin iboralar bilan ta’rifladi. Revista de Estudios en Seguridad Internacional jurnalida chop etilgan “autopsia” tahlili esa voqeani oddiy chegara buzilishi sifatida emas, balki “kulrang zona”da boshqarilgan inqiroz sifatida talqin qiladi **[32]**.

Greenhill modelining asosiy gipotezalaridan biri shundan iboratki, liberal demokratik davlatlar ommaviy migratsiya bosimi ostida muayyan darajada yon

berishi mumkin. Buning sababi ichki siyosiy qutblashuv hamda “gipokriziya xarajati”, ya’ni davlatning e’lon qilgan qadriyatlari bilan amaliy siyosati o‘rtasidagi tafovutning siyosiy jihatdan qimmatga tushishidir. Seuta voqeasi ushbu gipotezani tekshirish uchun juda qulay empirik holatni taqdim etadi.

2022-yil 20-martda Pedro Sánchez hukumati G‘arbiy Sahara masalasida qariyb o‘n yil davom etgan neytral pozitsiyadan voz kechdi. Madrid Marokashning G‘arbiy Sahara uchun taklif qilgan avtonomiya rejasini “eng jiddiy, realistik va ishonchli” asos sifatida e’tirof etdi **[33]**. Biroq Mediterranean Politics jurnalida 2023-yilda chop etilgan tadqiqot mualliflari Greenhill modelini qayta ko‘rib chiqib, asosiy sababni biroz boshqacha izohlaydi. Ularning fikricha, eksternallashgan chegara tizimida “gipokriziya xarajati” kamayadi, chunki migratsiya nazoratining katta qismi allaqachon uchinchi davlatga o‘tkazilgan **[34]**. Ghent GIES tahlili esa 2021-yilgi hodisani “opportunist” CEM turi sifatida talqin qiladi. Ya’ni Rabat mutlaqo yangi migratsiya oqimini yaratmagan, balki avvaldan mavjud bo‘lgan kontingentni siyosiy jihatdan qulay vaqtda “ochib yuborgan” **[35]**.

Oradan besh yil o‘tib, xuddi shu mexanizm yana namoyon bo‘ldi, biroq bu safar ancha katta ko‘lamda. 2026-yil iyulidagi voqeani faqat bitta sabab bilan tushuntirish qiyin. Birinchi omil bu 2026-yil 8-iyuldagi Ispaniya Oliy sudi bilan bog‘liq huquqiy pozitsiya bo‘lib, dengiz orqali yetib kelganlarni ommaviy ravishda “issiq” qaytarishga qo‘yilgan cheklovlarni kuchaytirdi. Kontrabanda tarmoqlari va ijtimoiy tarmoqlar bu xabarni “chegara ochiq” degan sodda signalga aylantirdi. Ikkinchi omil 2021-yilgi pretsedentning mavjudligi edi. Ya’ni chegara nazoratining qisqa muddatli susayishi ham juda katta migratsiya oqimini yuzaga keltirishi mumkinligi allaqachon ma’lum edi. Uchinchi omil esa Fnideq hududidagi iqtisodiy nochorlik va raqamli koordinatsiya bilan bog‘liq. Odamlar bir kechada hech qanday tayyorgarliksiz harakatlanmagan; ular bir necha kun davomida tarqalgan mish-mishlar va xabarlar oqimidan keyin harakatga kelgan **[36]**.

Harakat yo‘nalishi 2021-yildagiga deyarli o‘xshash bo‘ldi: Tarajal plyaji, to‘siqlarni aylanib suzish va chegara to‘sig‘ini yorib o‘tish. Melilyada ham kichikroq urinish kuzatildi. Taxminan 300–400 kishilik ushbu harakat asosiy bosim Seutaga qaratilganini ko‘rsatdi. 72 soatlik jarayonni uch bosqichga ajratish mumkin: birinchisi ommaviy kirish; ikkinchisi 83–84 ming aholiga ega shaharning infratuzilmasi va qabul qilish tizimiga yuklamaning oshib ketishi; uchinchisi keyingi 36 soat ichida ommaviy qaytish **[37]**.

Ispaniya Ichki ishlar vazirligi taxminan 50 000 kishilik oqimni qayd etgan, Seuta hukumati 60 000 atrofidagi raqamni keltirgan, Marokash esa 40 000 deb baholagan. Ayrim hisob-kitoblarda esa bu ko‘rsatkich 70 000–80 000 kishigacha yetadi. 31-iyul soat 18:00 holatiga 48 300 kishi qaytib ketgani qayd etilgan.

Keyingi kunlarda Ispaniya rasmiylari jami taxminan 69 500 kishining ixtiyoriy ravishda qaytganini e’lon qilgan **[38]**.

O‘lim ko‘rsatkichi esa 2021-yilga nisbatan keskin farq qildi. 2-avgust kuni Ispaniya 72 kishining halok bo‘lganini tasdiqladi. Keyinchalik Ispaniya tomoni 80 nafar, Marokash esa 11 nafar qurbon haqida ma’lumot berdi. Seuta morgi esa avvalgi haftalardagi holatlarni ham qo‘shgan holda 88 ta jasadni qabul qilgan **[39]**. Caminando Fronteras bilan bog‘liq hisob-kitoblarda esa qurbonlar soni 141 nafargacha yetishi mumkinligi qayd etildi. Taxminan 1 100 nafar bola yordamga muhtoj bo‘lgan, shahardagi mavjud qabul o‘rinlari esa atigi 90 ga yaqin edi **[40]**.

Masshtabdagi farqning o‘zi juda katta. 2021-yilda 8–10 ming atrofida bo‘lgan oqim bilan taqqoslaganda 2026-yildagi oqim taxminan 5–6 baravar katta bo‘lgan. Oddiy yillarda Seuta va Melilya orqali quruqlikdan o‘tishlar umumiy hisobda bir necha mingni tashkil etadi. 2025-yilda G‘arbiy O‘rta dengiz yo‘nalishidagi quruqlik orqali aniqlangan noqonuniy o‘tishlar 3 949 tani tashkil qilgan **[41]**. 2026-yilda Rabat 2021-yildagi kabi hodisani ochiq tan olishdan qochdi. Rasmiy izohga ko‘ra, asosiy sabab kontrabanda tarmoqlari va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan yolg‘on xabarlar edi. Chegaraning o‘tkazuvchanligi qisqa muddat ichida o‘zgargan va bu o‘zgarish davlat nazorati mavjud bo‘lgan hududda sodir bo‘lgan. Madrid esa 2021-yildagi ssenariyga o‘xshash harbiy kuchlardan foydalanish, qaytarish va Marokash bilan tezkor operativ muvofiqlashtirish choralarini takrorladi. Telegram va TikTok “chegara ochiq” degan signalni 2021-yilga nisbatan ancha yuqori tezlikda keng ommaga tarqatish imkonini berdi. Migratsiya tarmoqlari mish-mishni bevosita yaratmagan taqdirda ham, bunday xabarlarni qisqa vaqt ichida ko‘plab odamlarga yetkazish va harakatni muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega ekanini ko‘rsatdi **[42]**.

Yevropa Ittifoqining Migratsiya va boshpana pakti 2026-yil 12-iyundan amalda qo‘llanila boshladi. Bu hujjat tashqi chegaralarni mustahkamlash, a’zo davlatlar o‘rtasidagi birdamlikni kuchaytirish, uchinchi davlatlar tomonidan migratsiyaning instrumentalizatsiyasi va inqiroz holatlarida qo‘llanadigan alohida protseduralarni joriy etishni nazarda tutgan edi. Mixed Migration Centre yozishicha, pakt aynan “tanqidiy daqiqada ishlashi” kerak edi **[43]**.

A’zo davlatlarning dastlabki reaksiyasi operativ emas, ko‘proq siyosiy va ramziy xarakterga ega bo‘ldi. Italiya va Daniya boshchiligidagi 22 davlat tomonidan yuborilgan maktubda Ispaniyaning 2026-yil yanvarida amalga oshirgan ommaviy legalizatsiya dasturi “tortuvchi omil” sifatida baholandi. Ushbu davlatlar zarurat tug‘ilganda ichki Shengen nazoratlarini qayta tiklash imkoniyatini ham ilgari surdilar. Yevropa poytaxtlarida Ispaniyani Shengen hududidan vaqtincha chiqarish ehtimoli haqida ham fikrlar bildirildi. ISPI tahlilida Seuta va Marokash o‘rtasidagi tezkor ikki tomonlama nazorat inqirozni bir necha

soat ichida “yopishga” yordam berdi, biroq Yevropa ichida umumiy siyosiy konsensus shakllanmadi, deb yozilgan **[44]**.

Migratsiya oqimi Ispaniya materigi yoki boshqa Yevropa davlatlariga keng miqyosda tarqalmadi. Shengen hududidagi erkin harakatlanish rejimining buzilishi ham eksklavdan tashqarida deyarli kuzatilmadi. Siyosiy zarba Yevropaning deyarli barcha asosiy poytaxtlariga yetib bordi. Paktda inqiroz va migratsiyaning instrumentalizatsiyasi uchun nazarda tutilgan reglamentlar aynan shunga o‘xshash holatlar uchun ishlab chiqilgan edi. Biroq ularning birinchi yirik sinovi birdamlikni kuchaytirish o‘rniga davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ayblovlarni yuzaga chiqardi. Boshqaruv arxitekturasi ikki masalada kutilgan natijani bermadi: u YEI ning tashqi hamkorga bo‘lgan qaramligini kamaytirmadi va a’zo davlatlar o‘rtasidagi ichki ishonchni kuchaytirmadi.

Eksklavlarning murakkab huquqiy maqomi Yevropa inson huquqlari sudi (EctHR) va Ispaniyaning yuqori sud instansiyalari o‘rtasida o‘ziga xos ziddiyatli huquqiy vaziyatni shakllantirgan. 2020-yildagi N.D. and N.T. v. Spain qarorida Melilyadagi ommaviy “storming” holatida individual protseduralar har doim ham talab qilinmasligi mumkinligi tan olindi. Ya’ni shaxslar chegara to‘sig‘ini uyushgan tarzda yorib o‘tgan taqdirda davlatning ularni qaytarish vakolati kengroq talqin qilinishi mumkin **[45]**.

**XULOSA:** Seuta va Melilya orqali yuzaga kelayotgan migratsiya bosimini alohida, qisqa muddatli hodisa sifatida emas, balki Shimoliy Afrika va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida shakllangan uzoq muddatli chegaraviy, siyosiy va huquqiy munosabatlarning natijasi sifatida baholash zarurligi isbotlandi. 2021 va 2026-yillardagi voqealar qiyosi migratsiya oqimlarining ko‘lami turlicha bo‘lsa-da, ularning boshqarilishi davlatlararo munosabatlar, chegara nazorati va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan bog‘liqligini tasdiqladi. Rabatning chegarani nazorat qilish imkoniyatlari Ispaniya va YI uchun muhim vositaga aylangan, biroq bunday eksternallashuv Yevropaning uchinchi davlatga institutsional va siyosiy qaramligini ham kuchaytirgan. Shu sababli migratsiya hamkorligi qisqa muddatda oqimlarni cheklashi mumkin bo‘lsa-da, uzoq muddatli barqarorlikni o‘z-o‘zidan ta’minlamaydi.

Seuta atrofidagi migratsiya bosimining kelgusida ham davriy ravishda takrorlanishi ehtimoli yuqori. Ispaniya–Marokash munosabatlaridagi keskinlik, G‘arbiy Sahara masalasi, mahalliy iqtisodiy muammolar va raqamli kommunikatsiyaning tezlashuvi yangi bosim mexanizmlarini yuzaga keltirishi mumkin. YI uchun istiqboldagi samarali siyosat faqat chegara nazoratini kuchaytirishga emas, balki uchinchi davlatlarga qaramlikni kamaytirish, qonuniy mobillik kanallarini rivojlantirish va umumiy inqirozga javob mexanizmlarini mustahkamlashga asoslanishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1. Ferrer-Gallardo, X., & Gabrielli, L. (2024). Tres décadas de vallas en Ceuta y Melilla: Crisificación, externalización y recrudecimiento del control migratorio en las fronteras exteriores de la UE. Documents d’Anàlisi Geogràfica, 71(1), 65–87.
2. Población de los municipios de Ceuta https://hogarfax.com/poblacion/ceuta/
3. Gold, P. (2000). The enclaves: Europe or Africa? In Europe or Africa? A contemporary study of the Spanish North African enclaves of Ceuta and Melilla (pp. 151–157). Liverpool University Press.
4. Ali, F. (2024). Policy, media, and the shaping of Spain-Morocco relations: Discursive representations of migration to Ceuta and Melilla. Palgrave Macmillan.
5. International Organization for Migration. (2021). World migration report 2022. https://publications.iom.int/books/world-migration-report-2022
6. Frontex. (n.d.). Migratory routes. https://www.frontex.europa.eu/what-we-do/monitoring-and-risk-analysis/migratory-routes/migratory-routes/
7. Frontex. (2026). Annual brief 2025. https://www.frontex.europa.eu/assets/Publications/Risk_Analysis/2025/Annual_Brief_2025.pdf
8. Frontex. (2026). Preliminary data show irregular border crossings into EU down 37% in first seven months of 2026. https://www.frontex.europa.eu/media-centre/news/news-release/frontex-preliminary-data-show-irregular-border-crossings-into-eu-down-37-in-first-seven-months-of-2026-mffdGl
9. International Organization for Migration. (2026). West and Central Africa — Irregular migration routes to Europe — Western African Atlantic route (January–December 2025). Displacement Tracking Matrix. https://dtm.iom.int/report-product-series/irregular-migration-routes-europe
10. European External Action Service. (2023). Soutien de l’UE au Maroc en matière de migration https://www.eeas.europa.eu/sites/default/files/documents/2023/Fiche%20migration.pdf
11. Acuerdo entre el Reino de España y el Reino de Marruecos relativo a la circulación de personas, el tránsito y la readmisión de extranjeros entrados ilegalmente. (1992). Boletín Oficial del Estado, 100 (25 April 1992); Council of the European Union. (2013). Joint declaration establishing a Mobility Partnership between the Kingdom of Morocco and the European Union and its Member States (6139/13 ADD 1 REV 3)
12. Liboreiro, J. (2026). Exclusive: EU to boost funding for Morocco’s migration management after Ceuta crisis. Euronews. https://www.euronews.com/my-europe/2026/08/20/exclusive-eu-to-boost-funding-for-moroccos-migration-management-after-ceuta-crisis
13. European Commission. (2025). Commission implementing decision on the financing of the multiannual action plan on migration for the Southern Neighbourhood for 2025–2027. Directorate-General for Neighbourhood and Enlargement Negotiations. https://enlargement.ec.europa.eu/document/download/d565b97b-c660-4ac4-8f0e-efd97f2bc569_en?filename=C_2025_8679_F1_COMMISSION_IMPLEMENTING_DECISION_EN_V3_P1_4518828.PDF
14. Ho Dac, M.-L., & Schäfer, I. (2026). Morocco as a migration partner: Goals, formats, effects, and next steps for Germany, Spain, and France (DGAP Report No. 7). German Council

on Foreign Relations. https://dgap.org/system/files/article_pdfs/DGAP%20Report_No-7_JUN-2026_6pp.pdf

15. Trade Finance Global. (2026, August 17). A tale of two cities: How the closure of Spain and Morocco's atypical trade fueled a border crisis. https://www.tradefinanceglobal.com/posts/a-tale-of-two-cities-how-the-closure-of-spain-and-moroccos-atypical-trade-fueled-a-border-crisis/

16. Greenhill, K. M. (2010). Weapons of mass migration: Forced displacement, coercion, and foreign policy. Cornell University Press.

17. InfoMigrants. (2021). Why nearly 6,000 migrants were able to enter Spain's Ceuta enclave in one single day. https://www.infomigrants.net/en/post/32325/why-nearly-6000-migrants-were-able-to-enter-spains-ceuta-enclave-in-one-single-day

18. Ferrer-Gallardo, X., & Gabrielli, L. (2022). The Ceuta border peripeteia: Tasting the externalities of EU border externalization. Journal of Borderlands Studies, 37(3), 645–655.

19. The White House. (2020). Proclamation on recognizing the sovereignty of the Kingdom of Morocco over the Western Sahara. https://trumpwhitehouse.archives.gov/presidential-actions/proclamation-recognizing-sovereignty-kingdom-morocco-western-sahara/

20. Agencias. (2022). Contenido íntegro de la carta de Sánchez a Mohamed VI en la que reconoce el plan marroquí para el Sáhara. Moncloa. https://www.moncloa.com/2022/03/23/contenido-carta-sanchez-mohamed-1325506/

21. Álvarez-Miranda, B., & Brey, E. (2023). Reframing coercive engineered migration theory: Ceuta and the Western Sahara. Mediterranean Politics, 30(2), 316–337.

22. Le Monde. (2022). L'Algérie suspend un traité de coopération après le revirement de l'Espagne sur le Sahara occidental. https://www.lemonde.fr/afrique/article/2022/06/08/l-algerie-suspend-un-traite-de-cooperation-apres-le-revirement-de-l-espagne-sur-le-sahara-occidental_6129439_3212.html?srsltid=AfmBOorT0CT973QMDAAjf9tLGdn64TVFGOQbE48HAuSQE4DcrEiSM6w2

23. Martín, M. (2021). Explainer: How did the migrant crisis in Spain's city of Ceuta occur and what is going to happen now? El País. https://english.elpais.com/spanish_news/2021-05-19/explainer-how-did-the-migrant-crisis-in-spains-city-of-ceuta-occur-and-what-is-going-to-happen-now.html

24. Quid.ma. (2021). Affaire Brahim Ghali: Le Maroc prend acte de l'attitude espagnole et assure qu'il « en tirera toutes les conséquences ». https://quid.ma/national/affaire-brahim-ghali:-le-maroc-prend-acte-de-l%E2%80%99attitude-espagnole-et-assure-qu

25. Europe 1. (2021). Pour le Maroc, c'est « l'Espagne qui a créé la crise migratoire de Ceuta ». https://www.europe1.fr/international/pour-le-maroc-cest-lespagne-qui-a-cree-la-crise-migratoire-de-ceuta-4047034

26. InfoMigrants. (2021). Why nearly 6,000 migrants were able to enter Spain's Ceuta enclave in one single day. https://www.infomigrants.net/en/post/32325/why-nearly-6000-migrants-were-able-to-enter-spains-ceuta-enclave-in-one-single-day

27. Graham, T. (2021). Spain sends troops to African enclave after migrant crossings jump. The New York Times. https://www.nytimes.com/2021/05/18/world/europe/spain-migrants-ceuta-morocco.html

28. Greenhill, K. M. (2021). Morocco 'weaponized' migration to punish Spain. That's more common than you think. The Washington Post. https://www.washingtonpost.com/politics/2021/06/01/morocco-weaponized-migration-punish-spain-thats-more-common-than-you-think/

29. Martín, M. (2021). Explainer: How did the migrant crisis in Spain's city of Ceuta occur and what is going to happen now? El País. https://english.elpais.com/spanish_news/2021-05-19/explainer-how-did-the-migrant-crisis-in-spains-city-of-ceuta-occur-and-what-is-going-to-happen-now.html

30. Garcés-Mascareñas, B. (2021). Ceuta: The weaponisation of migration. CIDOB. https://www.cidob.org/en/publications/ceuta-weaponisation-migration

31. Ferrer-Gallardo, X., & Gabrielli, L. (2022). The Ceuta border peripeteia: Tasting the externalities of EU border externalization. Journal of Borderlands Studies, 37(3), 645–655.

32. De la Corte Ibáñez, L., & Torrens, X. (2025). Autopsia del asalto a la frontera de Ceuta en 2021: Entre la zona gris y la gestión de crisis. Revista de Estudios en Seguridad Internacional, 11(1), 95–124.

33. The Arab Weekly. (2022). Spain endorses Morocco's autonomy plan for the Western Sahara. https://thearabweekly.com/spain-endorses-moroccos-autonomy-plan-western-sahara

34. Álvarez-Miranda, B., & Brey, E. (2025). Reframing coercive engineered migration theory: Ceuta and the Western Sahara. Mediterranean Politics, 30(2), 316–337.

35. Ikene, M. (2025). Migration as leverage: Morocco's strategic use of migration in the Western Sahara dispute. Ghent University. https://www.ugent.be/ps/politiekewetenschappen/gies/en/research/publications/honours_paper/academic-year-2024-2025/migration-as-levarage

36. New York Times. (2026). After tens of thousands of migrants enter Spanish territory, most return to Morocco. https://www.nytimes.com/live/2026/07/31/world/spain-ceuta-migrants-morocco

37. Çalışkan, G. (2026). Beyond rumors: What drove Ceuta's migrant surge? Daily Sabah. https://www.dailysabah.com/opinion/op-ed/beyond-rumors-what-drove-ceutas-migrant-surge

38. BBC News. (2026). Spain's PM blames traffickers after 60,000 migrants reach Ceuta from Morocco. https://www.bbc.co.uk/news/articles/cx2kp639yx4o

39. El País. (2026). La entrada de inmigrantes a Ceuta – 25 de agosto 2026 | La Delegación del Gobierno en Ceuta contradice a Robles y niega haber recibido información que anticipara la crisis. https://elpais.com/espana/2026-08-25/ultima-hora-de-la-entrada-de-inmigrantes-a-ceuta-en-directo.html

40. Palacios, J. L. (2026). Caminando Fronteras eleva a 141 las víctimas de la crisis fronteriza en Ceuta. Noticias Obreras. https://noticiasobreras.es/2026/08/caminando-fronteras-eleva-a-141-las-victimas-de-la-crisis-fronteriza-en-ceuta/

41. Frontex. (2026). Preliminary data show irregular border crossings into EU down 37% in first seven months of 2026. https://www.frontex.europa.eu/media-centre/news/news-release/frontex-preliminary-data-show-irregular-border-crossings-into-eu-down-37-in-first-seven-months-of-2026-mffdGl

42. Golden Owl. (2026). The Ceuta mobilisation network: Recruitment, amplification and operational security. https://goldenowl.ai/en/resources/research/The-Ceuta-Mobilisation-Network-Recruitment-Amplification-and-Operational-Security

43. Frouws, B. (2026). Ceuta: A test of Europe's new migration pact — and a familiar failure. Mixed Migration Centre. https://mixedmigration.org/articles/ceuta-a-test-of-europes-new-migration-pact/

44. Italian Institute for International Political Studies. (2026). After Ceuta: What future for Maghreb–Europe relations? https://www.ispionline.it/en/publication/after-ceuta-what-future-for-maghreb-europe-relations-243186

45. Sosa Navarro, M. (2020). Devoluciones en caliente a la luz de la doctrina de la conducta culpable: El asunto N.D. y N.T. contra España ante el TEDH. Revista de Derecho Comunitario Europeo, 67.

# Jahon tartiboti va global nizolar

***F.R.Ravshanov***
*"Renessans" ta'lim universiteti, siyosiy fanlar doktori, professor*
***Sh.I.Shazamanov***
*"Renessans" ta'lim universiteti, siyosiy fanlar doktori, dots.nt*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada XX-XXI asr boshlarida jahon mamlakatlari o'rtasida kuzatilayotgan siyosiy va harbiy nizolarning avj olishi sabablari tahlil qilinadi. Muallif jahon tartiboti tushunchasi, uning buzilib borish jarayonlari, shu jarayonlar ichida esa yirik kuchlar soni ortib, dunyoga egalik qilishga urinayotganlar o'rtasida kechayotgan munosabatlar haqida ilmiy xulosalar chiqaradi. Shuningdek, unda ko'p qutbli dunyo shakllanishining asosiy tendensiyalari va ularning xalqaro munosabatlarga ta'siri ochib beriladi.*

***Kalit so'zlar:*** *jahon tartiboti, geosiyosat, ko'p qutblilik, xalqaro nizolar, global beqarorlik, xalqaro huquq.*

***Annotation:*** *This article analyzes the causes behind the escalation of political and military conflicts among countries at the end of the 20th and the beginning of the 21st centuries. The author examines the concept of world order, the processes of its transformation and erosion, and draws scholarly conclusions about the nature of relations among major powers whose number is increasing and which are striving for global dominance. The paper also explores the main trends in the formation of a multipolar world and their impact on international relations.*

***Keywords:*** *world order, geopolitics, multipolarity, international conflicts, global instability, international law.*

***Аннотация:*** *В данной статье анализируются причины обострения политических и военных конфликтов между странами мира в конце XX – начале XXI века. Автор рассматривает понятие мирового порядка, процессы его трансформации и разрушения, а также делает научные выводы о характере отношений между усиливающимися крупными державами, стремящимися к*

*глобальному доминированию. Кроме того, раскрываются основные тенденции формирования многополярного мира и их влияние на международные отношения.*

***Ключевые слова:*** *мировой порядок, геополитика, многополярность, международные конфликты, глобальная нестабильность, международное право.*

So‘nggi yillarda xalqaro munosabatlar tizimida keskin o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Mintaqaviy urushlar, geosiyosiy raqobatning kuchayishi, sanksiyalar siyosati, diplomatik obro‘sizlanish va qarama-qarshiliklar global xavfsizlik masalasini yanada dolzarb qilib qo‘ydi. Bu holat ham ijtimoiy, ham ilmiy doiralarda “jahon tartiboti inqirozi” tushunchasining keng muhokama qilinishiga sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, jahon tartiboti haqiqatan ham buzilmoqdami yoki u yangi bosqichga o‘tmoqdami, degan savol muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asr oxirida shakllangan bir qutbli jahon tartiboti ma’lum muddat global barqarorlikni ta’minlagan bo‘lsa-da, mana endi XXI asrning birinchi choragidayoq ushbu model o‘z samaradorligini yo‘qota boshladi. Ayniqsa, yangi iqtisodiy va harbiy kuch-qudrat markazlarining paydo bo‘lishi global kuchlar muvozanatini o‘zgartirdi. Natijada davlatlar o‘rtasida ta’sir doiralari uchun raqobat kuchaydi.

Shu bilan birga, jahon davlatlari ishonib kelgan buyuk xalqaro tashkilotlar tomonidan xalqaro huquq normalarining bir xil talqin va tatbiq etilmasligi hamda xalqaro institutlar faoliyatining kuchlilar siyosiy manfaatlariga bog‘liq holda cheklanib qolishi nizolarni hal etish mexanizmlarini badtar zaiflashtirdi. Bu esa hozirgi kunda kuch ishlatish yoki bosim o‘tkazish orqali muammolarni hal qilish tendensiyasini kuchaytirib yubordi.

Avvalo aytish kerakki, “jahon tartiboti” (world order) tushunchasining o‘zi nimaligini tushunish bugun chalkash masalaga aylandi. Aslida “jahon tartiboti” tushunchasi davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni tenglik tamoyilida, kelishilgan qoidalar, me’yorlar va kuchlar muvozanati asosida olib borilishini belgilab beradigan xalqaro tizim, ya’ni xalqaro tashkilotlar, qonunlar, qoidalar, kelishuvlar, tartiblar va munosabatlarda teng huquqlilikni ifodalashi kerak. Boshqacha aytganda u jahon davlatlari o‘rtasida xavfsizlik, siyosiy, huquqiy madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik, nizolar va urushlardan qochish, insoniyatni gullab-yashnashi uchun shart-sharoitlarni ta’minlashi lozim. Har holda bu tushuncha XX asrda katta qirg‘inlar va vayronkorlikka sabab bo‘lgan Birinchi jahon urushi (1914–1918) dan keyin ijtimoiy, ilmiy va siyosiy muomalaga mana shunday niyatlarda kirib kelgan edi. Chunki bu urush insoniyatga shunchaki davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar emas, balki butun jahon miqyosida tartib va qoidalar zarurligini ko‘rsatib bergandi. Shunga ko‘ra, “Millatlar ligasi” tuzilgan, uning zimmasiga umumjahon muammosi sifatida xalqaro xavfsizlik, tinchlikni saqlash, hamkorlikda barqaror rivojlanish masalalarini tartibga solish va nazorat

qilish vazifasi yuklangandi. Bu tashkilot qarorlari a’zo davlatlarning rozi-rizoligi bilan qabul qilinishi kerak edi. Mana shu tashkilot “jahon tartibi”, “xalqaro tartib” kabi tushunchalarni muomalaga kiritgandi. Ammo shu tashkilotni tuzganlarning o‘zi birinchi navbatda uning maqsadlarini pisand qilishmadi va natijada Ikkinchi jahon urushi (1939–1945) yuzaga keldi. Bu urush oqibatlari xalqaro tartib zarurligini yanada mustahkamladi. Shu sababli BMT tashkil etildi, uning bazasida xalqaro huquq normalari tizimlashtirildi va ularga amal qilish barcha uchun barobar deb e’lon qilindi. Lekin u faoliyatini boshlar-boshlamas yana nizolar paydo bo‘ldi. Endi bu nizolar jahonda kim yetakchilik qiladi, degan masalaga taqaldi. Natijada AQSH va SSSR yetakchiligidagi bir-biriga qarama-qarshi “ikki qutbli” jahon tartiboti shakllandi. Ana shu davrdan boshlab “jahon tartiboti” atamasi siyosiy fan, xalqaro munosabatlar va geosiyosatda mustaqil tushuncha sifatida qo‘llanila boshladi.

AQSH va SSSR munosabatlari (sovuq urush davri)da u nazariy jihatdan chuqurlashdi. 1950–1980 yillarda realizm, neorealizm, liberalizm kabi nazariyalar, “jahon tartiboti”, “xalqaro tizim”, “kuchlar muvozanati” kabi tushunchalar, qator xalqaro tashkilotlar, kelishuvlar va ittifoqlar bilan boyidi-yu ammo jahon tartibga kelmadi. U ayniqsa qurol jihatdan kuchlilarning xohish-irodasiga aylanib, jarayon aksincha rivojlandi, davlatlar suvereniteti va hududiy yaxlitlik tamoyillari uzluksiz buzildi, kelishilgan tinchlik qoidalari mensilmay, turli hududlarda urushlar avj oldirildi. Iqtisodiy, siyosiy va diplomatik munosabatlar tartibini ko‘r-ko‘rona inkor etish oddiy hodisaga aylandi. Oqibatda xalqaro huquq va institutlar roli keskin pasayib bordi. Shunga ko‘ra, bugun burungi jahon tartiboti inqirozga uchrayapdimi yoki kuchlilar tomonidan transformatsiya qilinmoqchimi degan savol yuzaga keladi.

Jahon OAVida tarqalayotgan keng ma’lumotlar va turli tahlilchilar qarashlarini umumlashtirish natijalari shuni ko‘rsatadiki, bugun ana shu kuchlilar o‘rnatgan jahon tartiboti ham buzilgan va bu buzilish o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab yanada ongsizlarcha kengayib bormoqda. Davlatlar suvereniteti, diplomatik munosabatlar va xalqaro iqtisodiy aloqalar hozircha saqlanib turgan bo‘lsada, amaldagi qoidalarning universal amal qilishi o‘ta zaiflashgan, ishonch inqirozi esa borgan sari rivojlanmoqda.

Jahonda yetakchilikni da’vo qiluvchi ayrim mamlakatlar, ittifoqlar va ularning tarafdorlari bugun bu holatni jahon tartibotining inqirozi emas, balki transformatsiya jarayoni sifatida baholashadi. Go‘yoki ular hamisha yetakchi bo‘lib qolaverishadi-yu boshqalar ularga ergashishi kerakdek. Bu yerda jahonda tenglik, adolatni kuchlilar belgilaydi, degan qarash bugun oshkora tarzda namoyon bo‘lmoqda. Ya’ni, xalqaro munosabatlar tizimi kuchlilar kurashi ortidan yangi sharoitlarga moslashish bosqichida turibdi. Aslida kuchli davlatlar mana shunday da’volar ortidan tanazzulga uchragani tarixda ko‘p bor takrorlangan.

SSSR barham topgach ikki qutbli tizim (AQSH - SSSR) tugadi. AQSH harbiy, iqtisodiy, texnologik va mafkuraviy jihatdan raqobatchisiz qoldi. 1990 yillar boshida AQSH yagona global harbiy kuch, dollar orqali moliyaviy ustunlik, NATO, Jahon banki, XVJ orqali institutsional ta'sirga ega edi.

Shu ma'noda, 1991–2001 yillar oralig'i "AQSH yetakchiligidagi bir qutblilik" davri, deb ataladi. Ammo nima uchun "mutlaq bir qutblilik" deyilmaydi? Chunki, bu jarayonda Yevropa Ittifoqi muqobil iqtisodiy qutb sifatida shakllanib bordi. Xitoy jadal iqtisodiy o'sishga kirdi. Rossiya 2000-yillardan geosiyosiy faolligini ko'rsata boshladi. Mintaqaviy kuchlar (Hindiston, Eron, Turkiya) mustaqil siyosat yurita boshladi. Umumlashtirib aytganda, AQSH gegemon bo'ldi-yu, ammo yagona qaror chiqaruvchi markazga aylanib ketmadi. Shu sababli ham qator taniqli geosiyosatshunoslar o'z tahlillarida bu davrni turlicha baholashdi. Masalan, Xel Brends[1]: "Unipolar moment", ya'ni vaqtinchalik (bir qutbli) lahza, Samuel Hantington [2] "bir qutbli, lekin ko'p kuchli dunyo", deb atadi. Zamonaviy yondashuvlarda mutaxassislar dunyo 2010 yillardan boshlab ko'p qutblilikka qarab ketmoqda va o'tish davrini boshdan kechirmoqda, deb baholashadi. Masalan, A. Acharya ("Amerika dunyo tartibining oxiri"), I. Bremmer ("Har bir millat o'zi uchun"), Murray va Broun ("XXI asrda ko'p qutblilik"), Sahakyan ("Xitoy va Yevroosiyo kuchlari ko'p qutbli dunyo tartibida - 2.0") asarlarida jahonning 2010 yillardan keyin ko'p qutbli tartibotga o'tayotgani ilmiy va siyosiy nuqtayi nazardan har tomonlama tahlil qilinadi[3].

Haqiqatan ham, bugungi kunda jahon siyosatining asosiy tendensiyalaridan biri ko'p qutblilikdir. Mintaqaviy ittifoqlar va integratsion tuzilmalarning faollashuvi davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada murakkablashtirmoqda. Bu jarayon bir tomondan raqobatni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan, muzokara va kelishuvlarga ehtiyojni oshirmoqda.

Bugungi global nizolarning kuchayishiga bir nechta omillar ta'sir qilayapdi. Avvalo, hozirda dunyo siyosiy maydonida geosiyosiy kuchlar muvozanati o'zgardi. XX asr oxirida shakllangan qisqa muddatli bir qutbli tartib zaiflashib, o'rniga ko'p qutbli jahon shakllanmoqda. Bu jarayonda AQSH, Xitoy, Rossiya,

[1] Hal Brands.Making the Unipolar Moment: U.S. Foreign Policy and the Rise of the Post-Cold War Order. -New York: Cornell University Press. 2016. -480 p.

[2] Samuel P. Huntington. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. -New York: Simon & Schuster, 1996. -368 p.

[3] Amitav Acharya. The End of American World Order. -London: Polity Press, 2014.; Ian Bremmer. Every Nation for Itself: Winners and Losers in a G-Zero World. -New York: Portfolio / Penguin, 2012.; Donette Murray ва David Brown. Multipolarity in the 21st Century: A New World Order. -London: Routledge, 2012.; Mher D. Sahakyan. China and Eurasian Powers in a Multipolar World Order 2.0. -London: Routledge, 2012.; Robert Kagan. The Jungle Grows Back: America and Our Imperiled World. -New York: Alfred A. Knopf, 2018.

YEI kabi mintaqaviy kuchlar qanday bo‘lmasin yangi tartibotda o‘z yetakchiligini yoki yetakchilar guruhida hech bo‘lmaganda teng mavqeini saqlab qolishga urinmoqda. Bu masalada ayniqsa bugun ular o‘rtasida raqobat o‘ta kuchaydi, bu raqobat esa ta’sir doiralari uchun kurashni avj oldirdi. Natijada butun dunyo ko‘z o‘ngida har holda ishlab kelgan xalqaro huquq va institutlar ta’siri va ularga ishonch tanazzulga uchradi. BMT, Xalqaro sud, xalqaro kelishuvlar ko‘p hollarda siyosiy manfaatlar tufayli cheklanib qolayapdi, ayrim davlatlar tomonidan inkor etilayapdi yoki bir tomonlama talqin qilinmoqda. Amaldagi holat dunyo katta urushlardan oldingi mintaqaviy urushlar va “proksi” (vositachilik) nizolari pallasiga kirgandek tasavvur uyg‘otadi. Allaqachon robot texnologiyalar qo‘llanayotgan va bevosita jahon urushiga yetaklab borayotgan mahalliy va mintaqaviy urushlar bugun butun dunyoni xavotirda tutmoqda. Yuqorida tilgan olingani kabi yirik davlatlar esa dunyo tinchligini ta’minlashni unda o‘z ustunliklarini qaror toptirish orqali namoyish qilish yo‘lida har qanday xalqaro tartiblarni buzishdan qaytishmayapdi. Shunga ko‘ra, aytish mumkinki, “jahon tartiboti” aniq buzildi, faqat hozircha to‘liq emas. Jahon tinchligini saqlashda aslida mas’ulligi yuqori bo‘lgan Rossiya va AQSH kabi e’tiborli kuchlar (yadro ustunlari) davlatlar suvereniteti tamoyiliga oshkora keskin zarba berayapdi. Ular jahon tartibotida amal qilgan, aslida o‘zlariga ko‘proq manfaat keltirgan diplomatiya, xalqaro muzokaralar, iqtisodiy aloqalar tartiblarini birinchilardan bo‘lib izdan chiqarishmoqda. Oqibatda amaldagi xalqaro institutlar, tartiblar, qoidalarga boshqalar ham qaramay qo‘ymoqda. Buning ortidan esa dunyoda qaytadan kuch siyosati (realpolitik) kuchaymoqda, xalqaro munosabatlarda ishonch kamaymoqda. Lekin buni ayrimlar “tartibsizlik” emas, balki “yangi jahon tartiboti”ga o‘tish davridagi beqarorlik deb baholashadi.

Henri Kissinjer bugungi xalqaro jarayonlarni “tartib parchalanishi emas, qayta shakllanishi”, deb baholaydi. Uningcha, “jahon tartiboti hech qachon o‘zgarishsiz qolmaydi. Har bir o‘tish davrida qoidalar zaiflashadi, ishonch kamayadi va kuch siyosati kuchayadi. Bu tartibning yo‘qolishi emas, balki yangi tartibning tug‘ilish og‘riqlaridir” [1]. Ammo Kissinjerning bu fikri dunyoga ta’sir o‘tkazayotgan qudratli davlatning vakili sifatida o‘z mamlakati tashqi siyosati va xatti-harakatlarini oqlashgagina xizmat qiladi.

Samuel Hantington ham masala borasida Kissinjer kabi “vatanparvarlik” pozitsiyasida turadi. U fikrini biroz aniqroq ifodalagan. U hozirgi davrni “o‘tish, ya’ni eng beqaror davr”, deb ataydi. Bu haqda U “xalqaro tizimda eng xavfli holat - barqaror tartib emas, balki eski tartib yemirilib, yangisi hali shakllanib

[1] Henry Kissinger. World Order: Reflections on the Character of Nations and the Course of History. -New York: Penguin Press-Penguin Books, 2014. -432 p.

ulgurmagan o‘tish davridir”, degan edi [1]. Mazkur qarashda AQSH “o‘tish davri”ning egasi sifatida ko‘riladi.

Jahon tartibotidagi o‘zgarishlar yuzasidan keng kuzatuvlar olib borgan Jon Mirshaymer esa dunyo “ishonch emas, kuch hal qiluvchi omil” bo‘lishi pallasiga kirganini ta’kidlaydi. U jarayonni Hantingtondan ham ko‘ra aniqroq baholab, shunday deydi: bu davrda “Katta kuchlar o‘rtasida haqiqiy ishonch bo‘lmaydi. Ko‘p qutbli tizimga o‘tish jarayonida davlatlar yana realpolitikka tayanadi, chunki omon qolish - eng ustuvor maqsaddir”[2]. Bugun jahon siyosatining ko‘rinishi ayni mana shu fikrga muvofiq, deyish mumkin.

Robert Keoheyn ham bir vaqtlar neoliberal institutsionalizmga oid qarashlari doirasida “institutlar zaiflashganda beqarorlik kuchayishini” ta’kidlagan edi. Uning “Agar xalqaro institutlar qoidalarni ta’minlay olmasa, davlatlar hamkorlikdan ko‘ra kuch va manfaat mantig‘iga qaytadi. Bu anarxiya emas, balki boshqaruv inqirozidir” [3], degan fikri jahon tartiboti transformatsiya qilinmayotgani, balki u buzilgani va qaytadan shakllanish pallasiga kirgani, davlatlar esa unda o‘z mavqelarini yuqori darajalarda ushlab qolish uchun kurash olib borayotganlarini tasdiqlaydi.

O‘z vaqtida Zbignev Bjezinskiy ham “geosiyosiy qayta taqsimlanish jarayoni global beqarorlikni keltirib chiqarishi”ni aytib o‘tgandi. U “Hozirgi global notinchlik tartibsizlik emas. Bu kuch markazlarining qayta joylashuvi jarayonidir. Bunday paytda ziddiyatlar muqarrar”[4], degan edi. U ham aslida “qayta joylashish” jarayonida barcha xalqaro maydonda qulay mavqe uchun intilishini nazarda tutgandi. Hozir haqiqatan ham ko‘p davlatlarning yondashuvlari mana shunga qaratilgan va bu yo‘lda ular urushlar, nizolar, sanksiyalar, iqtisodiy bosimlar, moliyaviy qaramga aylantirish, ta’sir doirasida saqlab qolish kabi turli usullardan keng foydalanmoqdalar. Bir jihati shundaki, faqat endi bu kurashga kirganlar soni kam emas va shuning uchun dunyo “kup qutblilik” sari ketmoqda, degan qarashlar keng yoyilayapdi.

Barri Buzan ana shu ko‘pchilik kurashini tadqiq etar ekan, xalqaro jamiyat nazariyasi yuzasidan olib borgan tahlillaridan “jahon tartiboti o‘zgarishi uzoq va ziddiyatli jarayon”, degan xulosani chiqaradi. U bu jarayon qonli to‘qnashuvlar bilan yuz berishi ehtimoli juda yuqoriligiga ham ishora qilgan. Fikrlarini izohlayotib, u “Xalqaro jamiyatda qoidalar bir kunda almashmaydi. O‘tish davrida

[1] Samuel P. Huntington. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. -New York: Simon & Schuster, 2016. -368 p.
[2] John J. Mearsheimer. The Tragedy of Great Power Politics. -New York: W. W. Norton & Company, 2001.
[3] Robert O. Keohane. After Hegemony: Cooperation and Discord in the World Political Economy. - New Jersey: Princeton University Press, 1984. -290 p.
[4] Zbigniew Brzezinski. Strategic Vision: America and the Crisis of Global Power. -New York: Basic Books, 2012. -224 p.

ishonch pasayadi, kuch siyosati kuchayadi, lekin bu yangi tartib sari harakatning bir qismi" bo‘ladi[1], deyish bilan Keoheynning xulosalariga hamohang qarashlarni ilgari suradi.

Mazkur fikrlarning deyarli barchasi 2000 yillarda yuzaga kelgan bir qutbli jahon tartiboti buzilayotgani, bu jarayonda albatta kurashlar kuchayishi, kuchli davlatlar esa kelajakda vujudga keladigan tartibotda o‘z mavqeini saqlab qolishga urinishini anglatadi. Lekin bu kurashlar faqat kuchlilar o‘rtasida yuz berayotgani yo‘q. Chunki ular mavqeni saqlab qolish kurashlarida hududlarni egallash, turli resurslarga egalik qilish, buning imkoni bo‘lmaganda ularni o‘z ta’sir doiralarida tutib qolishga intilish, buning uchun kerak bo‘lsa o‘sha hududlarda urushlarni keltirib chiqarish orqali ko‘plab davlatlarni nizolar qurbonlariga aylantirayapdilar. Kichikroq davlatlar esa buni o‘zlari uchun maydonda mavqe egallash imkoni deb bilmoqdalar va bajonidil kurashga kirayapdilar. Buni bugun butun dunyo anglab turibdi. Albatta, ularning ba’zilari yangi tartibotda mavqega ega bo‘lishi mumkin, ammo bu mavqe xalqaro qarorlar qabul qilishga ta’sirli darajada bo‘lishi ehtimoli juda kam. Chunki kuchli davlatlar parchalanmas ekan, kichik davlatlar ular darajasiga chiqa olmaydi.

Shunga ko‘ra, hozirgi xalqaro munosabatlardagi ishonch tanazzuli va kuchlar to‘qnashuvining (realpolitik) kuchayishi - jahon tartibotining inqirozigina emas, balki uni qaytadan shakllantirish uchun kurashdagi boshlang‘ich beqarorlik bosqichidir. Ogohlantirish lozimki, o‘tgan asrdagi har ikki jahon urushi mana shu bosqichning chuqurlashib ketishidan yuzaga kelgan edi.

Nima uchun yangi jahon tartibotini o‘rnatishga urinish urush xavfini oshiradi? A.Organski, Jeys T. Kugler o‘zlarining "Kuchlar o‘tish nazariyasi" (Power Transition Theory)da[2] aytib o‘tganlaridek, "eski yetakchi kuch o‘z ustunligini saqlab qolishga harakat qiladi" (masalan, hozirda AQSH, YEI kabi), "ko‘tarilayotgan kuch esa yangi qoidalarni talab qiladi" (masalan, hozirgi Xitoy, Rossiya, Hindiston kabi), "ikki tomon manfaatlari to‘qnashgan nuqtada urush xavfi yuzaga keladi" (tarixiy misol, XX asrdagi ikki jahon urushi). Aytish mumkinki, urush xavfining paydo bo‘lishi o‘zaro ishonchni yo‘qotib boradi, davlatlar va’daga emas, kuch balansiga ishona boshlaydi (misol, hozirgi kuchli davlatlarning o‘zaro munosabati). Oqibatda harbiy tayyorgarlik - xavfsizlik kafolatiga aylanadi, xavfsizlik dilemmasi kuchayadi (bir tomon himoya deb ko‘rgan ish, ikkinchisiga tahdid bo‘lib ko‘rinadi). Bu o‘rinda Jon Mirshaymer

[1] Barry Buzan, Laust Schouenborg. Global International Society: A New Framework for Analysis. - Cambridge-New York: Cambridge University Press, 2018. -276 p.

[2] A.F.K.Organski ва Jacek Kugler. The War Ledger. -Chicago, London: University of Chicago Press, 1980.

ta’biri bilan aytganda “kuchlar qayta taqsimlanayotgan paytda eng xavfli qarorlarni katta davlatlar qabul qiladi”[1].

Xo‘sh, yangi jahon tartiboti qachon jahon urushiga aylanishi mumkin? Bu masalada aytish kerakki, agar yetakchi kuchlar o‘z hukmronligi nihoyasiga yetganini tan olmasa, o‘sayotgan kuchlar qaytmas harakatlarga kirishsa, xalqaro institutlar talablari e’tibordan qolsa, qoidalar o‘rnini kuch egallasa, mintaqaviy yoki davlatlararo nizolar global bloklarga bog‘lansa va bularning hammasi bir vaqtda sodir bo‘lsa, bu jahon urushi xavfini yuqori darajaga yetkazadi. Hozirgi dunyo ahvolida deyarli mana shunday holat. Ukraina, Isroil-G‘azo, Venesuela, Eronda yuz berayotgani kabi lokal mojarolar bloklararo ziddiyatga, katta urushga, oxir-oqibatda ehtimoliy jahon urushiga aylanishi mumkin. Lekin, Kissinjer ta’kidlaganidek, “zamonaviy jahon urushi - g‘alabasiz urush” bo‘lishiga kurashayotgan kuchlar manfaatlar ustun kelayotgani sababli e’tiborsiz va nopisand qarashmoqda[2].

Yangi jahon tartibotini qudrat va yetakchilik manfaati bilan o‘rnatishga urinishlar albatta, jahon urushi xavfini oshiradi, ammo urushning o‘zi tarixiy zarurat emas, chunki insoniyatning rivojlanib borishi amaldagi kuchlar ustuvor bo‘lib qolishni qanchalik istamasin, ulardan kuchlilarni yuzaga chiqarishini to‘xtata olmaydi, bu bashariyatning butun tarixi davomida yuz berib kelgan qonuniyat.

Zamonaviy xalqaro tizimda mana shunday geosiyosiy raqobatning kuchayishi, mintaqaviy mojarolarning avj olishi va global institutlar samaradorligining yaqqol pastlab ketishi sharoitida rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O‘zbekiston ham o‘z xalqaro munosabatlari va tashqi siyosatini qayta shakllantirmoqda. Mazkur sharoitda ayniqsa, 2024-25 yillar davomida butun Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari dunyoga faol neytrallik, ochiq pragmatizm va muvozanatli pozitsiyani namoyon etdi. O‘zbekiston hozirda ham ko‘p vektorli tashqi siyosat yuritib, nafaqat o‘zi, balki butun mintaqaning yirik kuch markazlari o‘rtasida bir tomonlama qaramlikka tushib qolishiga yo‘l qo‘ymaslikka intilmoqda.

Shuningdek, Markaziy Osiyoda barqarorlik va hamkorlikni ustuvor deb bilib, qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratmoqda. U iqlim o‘zgarishi, suv xavfsizligi va xavfsizlik masalalarida konstruktiv xalqaro tashabbuslar ilgari surmoqda. Iqtisodiy diplomatiya orqali investitsiyalar jalb etish va tashqi savdoni diversifikatsiya qilishga harakat qilmoqda. Ilmiy nuqtayi nazardan, bu pozitsiya “o‘rta davlatlar diplomatiyasi” va konstruktiv yondashuv doirasida baholanadi. Xullas, O‘zbekiston global beqarorlik sharoitida radikal

[1] John J. Mearsheimer. The Tragedy of Great Power Politics. -New York: W. W. Norton & Company, 2001.

[2] Henry Kissinger. World Order: Reflections on the Character of Nations and the Course of History. -New York: Penguin Press-Penguin Books, 2014.

bloklashuvdan ko‘ra muvozanatli, pragmatik va tinchlikparvar tashqi siyosat orqali o‘z milliy manfaatlarini qat’iy himoyalash strategiyasini amalga oshirmoqda.

Hozir xalqaro munosabatlar tahlillarida yangi jahon tartiboti qanday usulda o‘rnatiladi va u baribir kuchlilar ustuvorligida qolib, tengsizlik hamda adolatsizlik qayta takrorlanmaydimi degan qarash turli shakllarda va ko‘p muhokama qilinmoqda. Masalaga ilmiy munosabat bildiriladigan bo‘lsa, ha, shunday xavf bor, lekin ta’kidlash lozimki, bu muqarrar natija bo‘la olmaydi. Yangi jahon tartiboti o‘rnatilishiga tarixiy tajribalar nuqtayi nazardan qaraganda (chunki insoniyat tajribaga suyanadi) ko‘rish mumkinki, u ikki usulda shakllangan.

Birinchisi, urush orqali (masalan, Vestfaliya tizimi (1648) Yevropa urushlari natijasidir yoki Vena tizimi (1815) Napoleon urushlari natijasi, Yalta–Potsdam kelishuvi (1945) Ikkinchi jahon urushi natijasi eknligini esga olaylik). Bu yo‘l, tez, ammo qonli, kuchlilar manfaatiga mos, adolat emas, mavqe’ni mustahkamlaydi.

Ikkinchisi, kelishuv va islohotlar orqali (Xelsinki shartnomasi (1970–80-yillar), Yevropa xavfsizlik arxitekturasi (1990-yillar), BRIKS, G20 kabi formatlar). Bu yo‘l sekin, ziddiyatli, manfaatlarning ayyor mexanizmlariga tayanadi, lekin tinchlik bilan bo‘lgani uchun nisbatan adolatli, deb qaraladi.

Xo‘sh, hozirgi jahon siyosatida qaysi usul ustun kelayapdi? Bu masalada aytish mumkinki, jarayonlar aralash ssenariyni ko‘rsatadi. Katta urushlarsiz, ammo kuch ishlatish, tahdid, sanksiyalar, proksi-urushlar va iqtisodiy bosimlar shuni isbotlaydi. Bu holatni ba’zi olimlar “urushsiz urush” holati, deb ham atayapdilar. Sababi, hozir kuchlilar yangi tartiblarni o‘z manfaatlarida qoldirishga urinmoqdalar, kuchlilikka da’vogarlar va ular qatorida bo‘lishga intilayotganlar esa bunga qarshi ming xil yo‘llar bilan kurash olib bormoqdalar. Agar bu borada kuchlilar yengib chiqsa, ularning kelishuvi sodir bo‘lsa, katta ehtimol bilan dunyo tartibi kichik o‘zgarishlardan nariga o‘tmaydi. Chunki, tajribaga ko‘ra, qoidalarni har doim kuchga ega davlatlar belgilagan, xalqaro institutlar ham ular manfaatini inobatga olib keladi. Bunda “umuminsoniy qadriyatlar” ko‘pincha shunchaki, geosiyosiy vositaga aylanadi. Mirshaymer “xalqaro tizimda adolat emas, qudratda qolish asosiy qoidadir”, deganda haq edi.

Lekin ayni davrda tengsizlikni ham muqarrar deb bo‘lmaydi. Chunki kuch tushunchasi o‘zgarayapdi. Hozir ustuvorlik faqat harbiy kuch bilan emas, iqtisod, texnologiya, demografiya, ma’naviy legitimlik bilan ham namoyon bo‘layapdi. Bu o‘rta va kichik davlatlarga katta o‘zgarishlar imkonini beradi va mintaqaviy koalitsiyalarni kuchaytiradi. Hozir xalqaro institutlar uchun ham kurash ketayapdi, deyish mumkin. Negaki, yangi tartib tayyor qolip emas, u aslida kurash maydoni. G‘olib kim bo‘lsa, qoidalarni o‘sha yozadi va tartib ham shuning hukmiga

bo‘ysunadi. Bunday sharoitda adolatliroq tartib qanday shartlarda bo‘lishi mumkin?

Nazarimizda nima bo‘lganda ham ko‘p qutblilik institutsionallashsa, veto va qaror qabul qilish isloh qilinsa, mintaqaviy bloklar mustaqil ovozga ega bo‘lsa, xalqaro huquq selektiv qo‘llanmasligi uchun bosim kuchaysa, global Janub obyekt emas, subyektga aylansa minimal real shartlar yuzaga kelishi mumkin. Xullas, yangi jahon tartiboti yo kuch orqali, yo kelishuv orqali shakllanadi. Agar u faqat kuch mantig‘iga tayansa, tengsizlik qayta ishlab chiqiladi. Agar qoidalar uchun kurash ochiq va ko‘p tomonlama bo‘lsa, nisbatli adolat imkoniyati paydo bo‘ladi. Amaldagi jahon tartiboti nurashda davom etar ekan, yangisining shakllanishi albatta jiddiy sinovlardan o‘tadi. Insoniyat eski qoidalar bilan yangi reallikni boshqarib bo‘lmasligini anglab, yangi muvozanat izlayotgan davrda turibdi. Bu jarayon esa ma’lum vaqt davomida beqarorlik, ziddiyat va nizolar bilan kechishi tabiiy. Birdan-bir shart bu muvozanat urush orqali o‘rnatilmasligi xolos.

# Global raqobat sharoitida O‘zbekistonning geosiyosiy tashabbuslari va mintaqaviy integratsiya dinamikasi

***BEHZOD SOIPOV***

*Siyosiy fanlar doktori (DSc), dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi boshqarma boshlig‘i*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo makonida so‘nggi o‘n yillikda ro‘y berayotgan strategik konvergensiya va davlatlararo munosabatlarning institutsional evolyutsiyasi konseptual jihatdan tadqiq etilgan. Tashqi siyosiy yondashuvlarning o‘zaro manfaatli va konstruktiv muloqot sari yangilanishi hududdagi uzoq muddatli kelishmovchiliklarni konsensus asosida bartaraf etish uchun qulay zamin yaratgani xalqaro munosabatlar nazariyalari prizmasi orqali dalillanadi. Oliy darajadagi mintaqaviy formatlarning tizimli va doimiy faoliyat yurituvchi mexanizmlarga aylanish dinamikasini, shuningdek, transmilliy transport-logistika marshrutlarini diversifikatsiya qilish hamda hayotiy muhim resurslarni integratsion boshqarish sohasidagi qadamlar tahlil qilingan. Jadallashib borayotgan jipslashuv tendensiyalari mintaqaning xalqaro tizimdagi subyektlik maqomini mustahkamlab, uni global geoiqtisodiy va xavfsizlik arxitekturasida strategik muvozanatni ta’minlovchi barqaror qutbga aylantirishi ta’kidlangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Markaziy Osiyo hamjamiyati, mintaqaviy integratsiya, geosiyosat, geoiqtisodiyot, suv-energetika konsensusi, transport-logistika yo‘laklari, ko‘p vektorli siyosat, neofunksionalizm, “O‘rta yo‘lak”, “spillover effekti”, xavfsizlik hamjamiyati.*

***Аннотация.*** *В данной статье концептуально исследуются стратегическая конвергенция и институциональная эволюция межгосударственных отношений, происходящие на пространстве Центральной Азии в последнее десятилетие. Сквозь призму теорий международных отношений аргументируется, что обновление внешнеполитических подходов в сторону взаимовыгодного и конструктивного диалога создало благоприятную почву для консенсусного урегулирования многолетних разногласий в регионе. Проанализирована динамика трансформации региональных форматов высшего уровня в системные и постоянно действующие механизмы, а также шаги в сфере диверсификации транснациональных транспортно-логистических маршрутов и интеграционного управления жизненно важными ресурсами. Подчеркивается, что ускоряющиеся тенденции консолидации укрепляют международно-правовую субъектность региона в международной системе, превращая его в устойчивый полюс, обеспечивающий стратегический баланс в глобальной геоэкономической архитектуре и архитектуре безопасности.*

***Ключевые слова:*** *Центральноазиатское сообщество, региональная интеграция, геополитика, геоэкономика, водно-энергетический консенсус, транспортно-логистические коридоры, многовекторная политика, неофункционализм, "Срединный коридор", "эффект перелива" (spillover), сообщество безопасности.*

***Abstract.*** *This article conceptually examines the strategic convergence and institutional evolution of interstate relations unfolding within the Central Asian space over the past decade. Through the prism of international relations theories, it is demonstrated that the recalibration of foreign policy approaches toward mutually beneficial and constructive dialogue has established a favorable foundation for the consensus-based resolution of long-standing regional disputes. The article analyzes the dynamics of transforming high-level regional formats into systematic and permanent mechanisms, as well as the steps taken toward diversifying transnational transport and logistics routes and integrating the management of vital resources. It is emphasized that the accelerating trends of consolidation reinforce the region's subjectivity in the international system, transforming it into a stable pole that ensures strategic balance within the global geoeconomic and security architecture.*

***Keywords:*** *Central Asian Community, regional integration, geopolitics, geoeconomics, water-energy consensus, transport and logistics corridors, multi-vector policy, neofunctionalism, "Middle Corridor", spillover effect, security community.*

Bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimi misli koʻrilmagan darajadagi geosiyosiy keskinliklar, yirik davlatlar oʻrtasidagi savdo urushlari, xavfsizlik arxitekturasining yemirilishi va sanksiyalar siyosati bilan tavsiflanmoqda. Siyosatshunos Robert D.Kaplan ta'kidlaganidek[1], sobiq imperiyalar yemirilganidan soʻng yuzaga keladigan davlatchilik va hokimiyat boʻshligʻi turli mintaqalarda jiddiy beqarorlik oʻchoqlarini yaratadi. Imperiyalar sahnadan ketsa-

da, ularning “soyasi” – ta’sir doiralari va xavfsizlik bahonalari orqali mintaqalarni beqarorlashtirishda davom etadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi ham uzoq yillar davomida ana shunday post-imperativ sindrom[1], inqirozlar va parchalanish xavfi ostida qolib keldi. Taniqli amerikalik geostrateg Zbignev Bjezinskiy Markaziy Osiyoni “Yevroosiyo Bolqonlari” deb atab, bu hudud ulkan resurslarga ega bo‘lsa-da, ichki tarqoqlik va zaiflik sababli yirik davlatlar o‘rtasidagi geosiyosiy o‘yinlar obyektiga aylanib qolishini bashorat qilgan edi. Darhaqiqat, 2016-yilga qadar mintaqadagi o‘zaro ishonchsizlik Bjezinskiy ta’kidlagan xavotirlarni qisman tasdiqlab keldi. Biroq, O‘zbekistonning yangi mintaqaviy siyosati mintaqani tashqi kuchlar “shaxmat taxtasi” dagi piyodalar guruhidan, o‘zining umumiy manfaatlarini himoya qila oladigan mustaqil geosiyosiy o‘yinchiga aylantirishni boshlab berdi.

2016 yilga qadar Markaziy Osiyodagi siyosiy iqlim o‘zaro ishonchsizlik, nol summalik o‘yinlar[2], hududiy-chegara nizolari, suv resurslaridan foydalanishdagi keskin ixtiloflar va sun’iy savdo to‘siqlari bilan ajralib turardi. Mintaqa davlatlari o‘z muammolarini o‘zaro emas, balki asosan tashqi kuchlar yordamida hal qilishga urinishi mintaqaviy tarqoqlikni yanada chuqurlashtirgan edi. Biroq, 2016 yilda O‘zbekiston Respublikasida yangi siyosiy rahbariyatning iqtidorga kelishi va Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan tashqi siyosat paradigmasining tubdan o‘zgartirilishi bu holatga barham berdi. O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatining mutlaq ustuvor yo‘nalishi sifatida Markaziy Osiyoni e’lon qildi va mintaqaviy integratsiyani “yumshoq kuch”, o‘zaro hurmat va pragmatik manfaatlarga asoslangan holda qayta shakllantirishga kirishdi.

Markaziy Osiyodagi zamonaviy integratsiya jarayonlarining o‘ziga xosligi shundaki, u qat’iy siyosiy iroda namoyishi va o‘zaro ishonchni tiklashga qaratilgan yuqori darajadagi muloqotdan boshlandi. 2017 yil 19 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tarixiy nutq so‘zlab, “O‘zbekiston bugungi kunda o‘zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu – har tomonlama chuqur o‘ylab tanlangan yo‘ldir”[2], – dedi va Markaziy Osiyo O‘zbekiston tashqi siyosatining eng asosiy va ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatib berdi. Bu shunchaki diplomatik bayonot emas, balki O‘zbekistonning o‘z qo‘shnilari bilan yig‘ilib qolgan chegara, suv, energetika va transport kabi murakkab masalalarda murosaga tayyor ekanligi bo‘yicha butun

[1] Post-imperiya sindromi — yirik imperiyalar parchalanganidan so‘ng, sobiq imperiya markazida (metropoliyada) yo‘qotilgan qudratni, hududlarni hamda geosiyosiy ta’sirni qo‘msash, shuningdek, xalqaro maydondagi yangi maqomga moslashishdagi qiyinchiliklar bilan kechadigan ijtimoiy-siyosiy va psixologik holat.

[2] Nol summalik o‘yinlar (inglizcha: zero-sum games) — bir tomonning yutug‘i to‘g‘ridan-to‘g‘ri ikkinchi tomonning mag‘lubiyati (yo‘qotishi) hisobiga yuz beradigan vaziyat. Bunda ishtirokchilarning umumiy yutuq va yo‘qotishlari yig‘indisi nolga teng bo‘ladi (ya’ni, o‘zaro manfaatli murosaga o‘rin yo‘q).

dunyo hamjamiyatiga berilgan siyosiy kafolat edi. Prezident Mirziyoyev mintaqa davlatlari rahbarlarining muntazam “Maslahat uchrashuvlari”ni o‘tkazish g‘oyasini aynan shu xalqaro minbardan turib ilgari surdi. Ushbu tashabbus mintaqaning uchinchi kuchlar aralashuvisiz, o‘z taqdirini o‘zi hal qilishiga qaratilgan geosiyosiy suverenitetning yorqin ifodasi bo‘ldi. Integratsiyaning eng muhim va birlamchi bosqichi bu – asrlar davomida bitta daryodan suv ichib, bitta havoda nafas olgan qardosh xalqlar o‘rtasidagi sun’iy byurokratik va jismoniy to‘siqlarni olib tashlashdir.

O‘zbekiston bu boradagi ilk yirik jismoniy harakatni Tojikiston bilan munosabatlarda amalga oshirdi. 2018 yil 9-10 mart kunlari Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi muzokaralar doirasida 20 yildan ortiq davom etgan qat’iy viza rejimi bekor qilindi. O‘nlab chegara o‘tkazish punktlari qayta ochildi, havo, temir yo‘l va avtomobil qatnovlari tiklandi.[3]

Buning mantiqiy davomi sifatida O‘zbekiston-Qirg‘iziston munosabatlarida inqilobiy yechimlar topildi. 2022 yil 30 noyabrda Bishkek shahrida O‘zbekiston-Qirg‘iziston davlat chegarasining alohida uchastkalari to‘g‘risidagi tarixiy shartnoma ratifikatsiya qilindi.[4] 30 yildan beri siyosiy ziddiyatlarga sabab bo‘lib kelgan Andijon (Kampir-Obod) suv ombori bo‘yicha kompromissga erishildi.[5] Inshootni birgalikda, teng huquqlilik asosida boshqarish mexanizmi joriy etildi. Eng muhimi, fuqarolarning chegarani faqat ID-karta orqali (xorijga chiqish pasportisiz) kesib o‘tish tartibi yo‘lga qo‘yildi.[6] Yevropa Ittifoqining Shengen kelishuvi standartlariga xos bo‘lgan bunday erkin harakatlanish amaliyoti natijasida, mintaqa ichidagi umumiy sayyohlik oqimida ichki mintaqaviy turizm ulushi oshdi, chegaraoldi savdo zonalari faoliyati keskin jonlandi.

O‘zbekiston ushbu sohadagi yondashuvni “ziddiyat obyekti”dan “kooperatsiya obyekti”ga o‘zgartirishga muvaffaq bo‘ldi. Bu jarayon xalqaro munosabatlardagi neofunksionalizm nazariyasining “spillover” (bir sohadagi hamkorlikning avtomatik ravishda boshqa sohalarga ko‘chishi) effekti bilan to‘liq hamohangdir. Nazariya asoschisi Ernst Xaas ta’kidlaganidek, davlatlar o‘rtasida tor iqtisodiy yoki texnik sohalarda (masalan, suv va energetika) boshlangan muvaffaqiyatli hamkorlik muqarrar ravishda boshqa, ko‘proq siyosiylashgan sohalarga ham o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazadi. “Qambarota-1” GESi bo‘yicha tarixiy konsorsiumning tuzilishi, nafaqat energetik xavfsizlikni ta’minlash, balki uzoq muddatli siyosiy ishonchni mustahkamlashga va umumiy bozor sari qadam tashlashga olib keluvchi klassik “spillover” hodisasidir.

Amerikalik yetakchi siyosatshunos Karl Doychning integratsiya nazariyasiga ko‘ra, “Xavfsizlik hamjamiyati” – bu davlatlar o‘rtasidagi muammolarni urush yoki kuch ishlatish orqali emas, balki qoidalar va institutsional mexanizmlar orqali hal etish madaniyatining shakllanishidir.[7]

Markaziy Osiyo yetakchilarining “Maslahat uchrashuvlari” qisqa davr ichida mintaqada aynan shunday xavfsizlik hamjamiyatini shakllantirishning noyob mexanizmiga aylanib ulgurdi. Ushbu muhim integratsion jarayonning debochasi sifatida 2018 yil 15 mart kuni Ostonada bo‘lib o‘tgan I Maslahat uchrashuvini e’tirof etish mumkin.[8] Qariyb yigirma yillik tanaffusdan so‘ng o‘tkazilgan mazkur sammit mintaqa davlatlarining o‘z muammolarini o‘zlari mustaqil hal qilishlari uchun yangi formatdagi institutsional maydonni yaratib berdi. Oradan ko‘p o‘tmay, 2019 yilning 29 noyabrida Toshkentda tashkil etilgan II uchrashuvda mintaqani globallashuv sharoitida yagona iqtisodiy makon va mustaqil geosiyosiy subyekt sifatida shakllantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” qabul qilindi. Shuningdek, ushbu yig‘ilishda Afg‘oniston mintaqaning ajralmas qismi ekani yana bir bor ta’kidlandi.[9]

Mintaqaviy hamkorlikning huquqiy poydevori 2022 yil 21 iyulda Cho‘lpon-Ota shahrida o‘tkazilgan IV Maslahat uchrashuvida yanada mustahkamlandi. Tomonlar o‘zaro munosabatlarni yuridik jihatdan mustahkamlovchi hujjat – “XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish maqsadida Do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma”ni imzoladilar.[10] 2025 yilda Tojikistonning ham ushbu hujjatga to‘liq qo‘shilishi mintaqada suveren tenglik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va tashqi tahdidlarga birgalikda qarshi turish tamoyillarini huquqiy jihatdan uzil-kesil mustahkamladi. Strategik rejalashtirish bosqichiga o‘tish esa 2024 yil 9 avgustdagi VI Ostona sammitida yuz berdi. Unda O‘zbekiston tashabbusi bilan mintaqaviy erkin savdo zonasini yaratish, sanoat kooperatsiyasi markazlarini birlashtirish hamda umumiy qoidalar asosida ishlaydigan kuchli iqtisodiy makonga aylanishni ko‘zda tutuvchi “Markaziy Osiyo – 2040” rivojlanish konsepsiyasi qabul qilindi.[11]

Markaziy Osiyo siyosiy arxitekturasidagi chinakam tarixiy transformatsiya va tub burilish yasagan voqea 2025 yilning 15-16 noyabr kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tgan VII Maslahat uchrashuvi bo‘ldi. Eng muhim qadamlardan biri sifatida, Maslahat uchrashuvlari formati rasman “Markaziy Osiyo hamjamiyati” deb qayta nomlandi.[12] Bu shunchaki atamaning o‘zgarishi emas, balki mintaqaning deklarativ sheriklikdan uzoq muddatli, chuqur funksional integratsiyaga o‘tayotganining amaliy ifodasi edi. Shu maqsadda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan hamjamiyatning ilk formal institutlariga asos solindi.

Xususan, sammitlar oralig‘ida qarorlar ijrosini monitoring qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi doimiy ma’muriy organ sifatida rotatsiya asosida ishlovchi Kotibiyat ta’sis etildi. Shuningdek, milliy muvofiqlashtiruvchilar maqomi davlat rahbarlarining maxsus vakillari darajasiga ko‘tarilib, Maxsus vakillar tarmog‘i faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Tuzilmaviy o‘zgarishlar bilan bir qatorda, mintaqa xalqlarining tarixiy “maslahat” an’analariga asoslangan Oqsoqollar kengashi ham yaratildi. Uning asosiy vazifasi madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash, avlodlar uzviyligini ta’minlash va umumiy mintaqaviy identiklikni barpo etishdan iborat qilib belgilandi. Toshkent sammitining eng e’tiborli voqealaridan yana biri Ozarbayjon Respublikasining hamjamiyatga to‘laqonli a’zo sifatida qabul qilinishi bo‘ldi. Ushbu geosiyosiy qadam “Markaziy Osiyo” tushunchasini tor geografik qolipdan olib chiqib, uni Kavkaz mintaqasi bilan bog‘lovchi yirik sivilizatsion va geoiqtisodiy o‘qqa aylantirishga xizmat qiladi.

Siyosatshunos Aleksandr Vendt o‘zining konstruktivizm nazariyasida “Anarxiya va adovat – bu tabiiy qonuniyat emas, balki davlatlar o‘z amaliyoti orqali yaratadigan ijtimoiy konstruksiya” ekanligini isbotlab bergan edi.[13] Markaziy Osiyodagi so‘nggi 8 yillik dinamika Vendt nazariyasining amaliy tasdig‘idir. Davlatlar o‘zaro adovat va xadiksirash madaniyatidan voz kechib, umumiy mintaqaviy identiklik va hamkorlik madaniyatini ijtimoiy jihatdan qayta qurishga muvaffaq bo‘lishdi. Oqsoqollar kengashi kabi tuzilmalarning tashkil etilishi ham aynan shu mushtarak identiklikni barpo etishga xizmat qiladi.

Ekologik integratsiya sohasida 2021-yil 18-mayda Nyu-Yorkda O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish to‘g‘risidagi maxsus rezolyutsiyani bir ovozdan qabul qildi.[14] Bu orqali Orol fojiasi faqat O‘zbekiston yoki Qozog‘istonning emas, global miqyosdagi mintaqaviy fojia ekanligi va unga qarshi kurash kompleks yondashuvni talab etishi e’tirof etildi.

2026-2036-yillarni “Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar o‘n yilligi” deb e’lon qilish va Toshkentda Suv resurslarini boshqarish bo‘yicha Mintaqaviy vakolatlar markazini tashkil etish rejalari ham mintaqaviy iqlim mas’uliyatining yaqqol dalilidir.

Markaziy Osiyo dunyo okeaniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqa olmaydigan “double landlocked” [1] mintaqa hisoblanadi. Transport logistikasidagi qaramlik uning iqtisodiy raqobatbardoshligini doimiy ravishda bo‘g‘ib kelgan. Hozirgi kunda tashqi savdo, geosiyosiy keskinliklar va sanksiyalar bosimi sababli Shimoliy yo‘laklarning [2] yopilishi mintaqa davlatlarini alternativ marshrutlarni izlashga majbur qildi.

[1] Double landlocked (ikki karra quruqlik bilan o‘ralgan) — o‘zi ham, unga qo‘shni bo‘lgan barcha davlatlar ham dunyo okeaniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan geografik holat. Jahondagi ikkita shunday davlatning biri O‘zbekistondir. Qarang: The World Factbook // Central Intelligence Agency (CIA). – URL: https://www.cia.gov/the-world-factbook/

[2] Shimoliy yo‘lak (Northern Corridor) — Xitoy va Markaziy Osiyo mahsulotlarini Rossiya va Belarus orqali Yevropaga olib chiquvchi an’anaviy tranzit tarmog‘i. Rossiya-Ukraina urushi va xalqaro sanksiyalar sababli ushbu yo‘nalishning xavfsizligi va jozibadorligi pasaydi. Batafsil qarang: Jahon bankining O‘rta yo‘lak bo‘yicha maxsus hisoboti (Middle Trade and Transport Corridor: Policies and Investments to Triple

Makroiqtisodiy dinamikaga nazar tashlasak: 2016-2024-yillar davomida mintaqaning yalpi ichki mahsuloti qariyb 2,5 barobarga o‘sib, 520 mlrd dollarni tashkil qildi. Tashqi savdo ikki karradan ziyod ko‘payib, 253 mlrd dollarga yetdi.[15]

Markaziy Osiyodagi ushbu iqtisodiy sakrashni logistik jihatdan ta’minlash maqsadida so‘nggi yillarda qator yirik jismoniy integratsiya qadamlari tashlandi. Xususan, qariyb chorak asr davomida faqat qog‘ozda qolib ketgan strategik loyiha — Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston temir yo‘lining qurilishi amaliy bosqichga o‘tdi. 2024-yil 6-iyunda Pekinda imzolangan Hukumatlararo bitim loyihaga yangi hayot bag‘ishladi.[16]

Natijada, 2025-yilning aprelidan 2026-yilning iyunigacha bo‘lgan davrda Farg‘ona tog‘ tunneli kabi o‘ta murakkab obyektlarda qurilish ishlari belgilangan jadvaldan ilgarilab, faol pallaga kirdi. Bugungi kunda ushbu “temir arteriya” mintaqani global ta’minot zanjiriga eng qisqa yo‘l orqali bog‘lovchi asosiy vositalardan biriga aylanmoqda.

Taniqli strateg Edvard Lyuttvak geoiqtisodiyot konsepsiyasida asoslab berganidek[17], sovuq urush tugagach, davlatlar o‘rtasidagi raqobatning mantig‘i saqlanib qolsa-da, uning quroli harbiy kuchdan “savdo, investitsiya va infratuzilma”ga o‘zgardi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonning Trans-Afg‘on va Xitoy-Qirg‘iziston-O‘zbekiston kabi makromintaqaviy yo‘laklar tashabbusi shunchaki iqtisodiy tranzit yechimi emas, balki mintaqaning global raqobatdagi geoiqtisodiy daxlsizligini ta’minlash va transport qaramligini diversifikatsiya qilishga qaratilgan yuqori darajadagi strategik harakatdir.

Mintaqaning g‘arbiy yo‘nalishdagi logistik imkoniyatlarini kengaytirishda O‘rta yo‘lak va Trans-Kaspiy yo‘nalishining ahamiyati beqiyosdir.[18] Ozarbayjonning hamjamiyatga qo‘shilishi mazkur tranzit yo‘lagini institutsional jihatdan yanada mustahkamladi. Bugungi kunda O‘zbekiston yuklarini xalqaro bozorlarga olib chiqishda Gruziyaning Poti dengiz portida barpo etilishi ko‘zda tutilgan yangi o‘zbek logistika terminali muhim rol o‘ynashi kutilmoqda.[19] Buni statistik ko‘rsatkichlar ham tasdiqlaydi. Agar 2021-yilda O‘zbekiston tashqi savdo yuklarining bor-yo‘g‘i 12 foizi O‘rta yo‘lak orqali tashilgan bo‘lsa, 2025-yil yakuniga kelib bu ko‘rsatkich 28 foizga (1,2 million tonnaga) yetdi. Eng asosiysi, yuk konteynerlarining manzilga yetib borish vaqti 18-23 kundan 12-15 kunga qisqardi.[20] Kelgusida “Zangezur yo‘lagi” kabi istiqbolli loyihalarning to‘liq ishga tushishi mazkur yo‘nalish quvvatini yanada oshirishi shubhasiz.

Mintaqaning tranzit salohiyatini nafaqat tovarlar, balki energiya resurslari eksporti bilan ham boyitish choralari ko‘rilmoqda. Jumladan, 2026-yil 19-may kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston energetika haftaligi” doirasida

Freight Volumes and Halve Travel Time by 2030). – Jahon banki guruhi, 2023. – URL: https://www.worldbank.org

muhim kelishuvga erishildi. Unga koʻra, mintaqada ishlab chiqarilgan toza va tiklanuvchi elektr energiyasini Ozarbayjon va Kavkaz orqali Yevropa bozorlariga birgalikda eksport qilish boʻyicha transmintaqaviy “Yashil yoʻlak” infratuzilmasini yaratish choralari tasdiqlandi.[21] Shu bilan birga, janubiy yoʻnalishda Afgʻonistonni ajratib qoʻyish emas, aksincha, uni iqtisodiy jarayonlarga faol jalb qilish doktrinasi doirasida Trans-Afgʻon (Mozori Sharif – Kobul – Peshovar) yoʻlagi orqali Janubiy Osiyo bandargohlariga chiqish siyosati izchil davom ettirilmoqda. Qoʻshni mamlakatga iqtisodiy va ta’limiy yordam koʻrsatish orqali janubiy sarhadlarda yakkalash oʻrniga haqiqiy hamkorlik va xavfsizlik belbogʻi shakllantirilmoqda.

Ushbu keng koʻlamli geoiqtisodiy harakatlarning konseptual choʻqqisi sifatida 2026-yil 31-iyul kuni Qirgʻizistonning Choʻlponota shahrida oʻtkazilgan sammitni qayd etish zarur. Aynan shu anjumanda Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjonning Maslahat uchrashuvlari formatiga qoʻshilishi oʻzaro hamkorlikni sifat jihatidan yangi – makromintaqaviy darajaga olib chiqqanini ta’kidladi.[22] Qilinayotgan bu amaliy harakatlar va uzoqni koʻzlagan strategiyalar natijasida Markaziy Osiyo endilikda yopiq quruqlik anklavi degan maqomdan xalos boʻlib, Sharq va Gʻarb, Shimol va Janub oʻrtasidagi eng ishonchli, ochiq va global miqyosdagi tranzit koʻprigiga aylanmoqda.

Xavfsizlik yoʻnalishida ham muqobil konturlar shakllanmoqda. Yaqin Sharqdagi inqirozlar (Gʻazo, Qizil dengiz, Fors koʻrfazidagi toʻqnashuvlar) fonida Turkiy davlatlar tashkiloti salohiyatidan tashqari, 2026-yilda Turkiya, Saudiya Arabistoni va Pokiston oʻrtasida yangi uch tomonlama mudofaa paktining (Jidda kelishuvi) imzolanishi Markaziy Osiyo xavfsizlik arxitekturasi uchun janubiy yoʻnalishda qoʻshimcha strategik barqarorlik qatlamini yaratadi. Oʻzbekistonning Tinchlik kengashiga qoʻshilishi[23] va ekstremizmga qarshi qat’iy munosabati xalqaro hamjamiyat tomonidan xavfsizlikning fundamental kafolati sifatida koʻrilmoqda. Oʻzbekiston rahbariyati koʻr-koʻrona tarafkashlikdan qochib, ochiqlik, niyatlar shaffofligi va koʻp vektorli pragmatizm tamoyillariga asoslangan siyosat yuritmoqda.

Ushbu transformatsion burilish, eng avvalo, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan pragmatik tashqi siyosat hamda mintaqa davlatlari yetakchilarining unga nisbatan namoyon etgan yuksak siyosiy irodasi va konsensusga asoslangan yondashuvi natijasida roʻy berdi. Qisqa tarixiy davr mobaynida Markaziy Osiyo oʻzaro ishonchsizlik va tizimli ziddiyatlar sababli fragmentatsiyalashgan hududdan umumiy manfaatlarga tayangan, geoiqtisodiy va xavfsizlik masalalarida yuqori darajada muvofiqlashgan barqaror makromintaqaviy hamjamiyatga aylanib ulgurdi. Yuz bergan ushbu geosiyosiy jipslashuv mintaqaning strategik ahamiyatini keskin kuchaytirdi. Buning natijasida Markaziy Osiyo global oʻyinchilar manfaatlari toʻqnashadigan passiv

“bufer zonasi” yoki obyekt maqomidan chiqib, tashqi kuchlar ta’sirini samarali muvozanatlay oladigan, yagona pozitsiya bilan chiqish qobiliyatiga ega bo‘lgan mustaqil geosiyosiy subyekt darajasiga ko‘tarildi.

Ushbu holat mintaqa davlatlarining global xavfsizlik va iqtisodiy arxitekturasidagi rolini prinsipial jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Mintaqaning kelajakdagi istiqbollari, mavjud tahdidlar va barqaror rivojlanish maqsadlaridan kelib chiqqan holda qator dolzarb masalalarga e’tibor qaratish zarur.

Xususan, iqtisodiy va bojxona integratsiyasini chuqurlashtirish yo‘nalishida “Markaziy Osiyo – 2040” strategiyasi hamda 2025–2027-yillarga mo‘ljallangan “Sanoat kooperatsiyasi harakatlar rejasi” doirasida tashkil etilayotgan Erkin savdo zonasini kelgusida to‘laqonli Bojxona ittifoqiga aylantirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu strategik qadam mintaqa ichidagi o‘zaro savdo aylanmasini kamida 20-25 milliard dollarga yetkazish hamda global bozorlarga “Made in Central Asia” yagona yorlig‘i ostida chiqish imkonini beradi.

Iqtisodiy hamkorlikni bevosita inson kapitalini rivojlantirish va erkin harakatlanish imkoniyatlari bilan boyitish lozim. Demografik prognozlarga ko‘ra, 2050-yilga borib mintaqa aholisi 100 million kishidan oshishi va uning o‘rtacha yoshi 29 yoshni tashkil etishi kutilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, barcha besh davlat fuqarolari uchun ID-karta orqali erkin harakatlanish rejimini to‘liq joriy etish, shuningdek, xorijiy sayyohlar va sarmoyadorlar uchun Yevropaning Shengen tizimi analogi bo‘lgan “Yagona Markaziy Osiyo vizasi” ni tezkor ishga tushirish hayotiy zaruratdir.

Bu kabi choralar mintaqada turizm, ilm-fan va innovatsion mobillik darajasini keskin oshirishga xizmat qiladi. Bugun poydevori qo‘yilgan Yangi Markaziy Osiyo arxitekturasi global xavfsizlik va iqtisodiyot tizimining yangi drayveriga aylanib bormoqda. “Qo‘shnichilik xavf emas, balki imkoniyat, bir tarafning muvaffaqiyati barchaning yutug‘i” formulasining hayotiyligi ushbu mintaqaviy model timsolida butun insoniyatga uzoq muddatli xavfsizlik va barqarorlikka qanday erishish mumkinligining munosib namunasini ko‘rsatmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqasida so‘nggi o‘n yillikda kechgan transformatsion jarayonlar zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida konstruktiv mintaqaviy konvergensiyaning noyob pretsedentini namoyon etadi. Mintaqa davlatlarining siyosiy begonalashuv va o‘zaro ziddiyatlar amaliyotidan voz kechib, pragmatik hamkorlik hamda umumiy o‘zlikni anglash yo‘lini tanlashi hududning tarixiy geosiyosiy zaifligini bartaraf etishga xizmat qildi.

Tahlillar oliy darajadagi siyosiy irodaning muntazam muloqotlardan huquqiy va institutsional mexanizmlarga o‘tishi Markaziy Osiyoning strategik suverenitetini mustahkamlovchi hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, transport-logistika va geoiqtisodiy qaramlikning yangi

makromintaqaviy yo‘laklar orqali diversifikatsiya qilinishi mintaqaning global ta’minot zanjiridagi raqobatbardoshligini ta’minlab, uni xalqaro bozorlarning ajralmas qismiga aylantirmoqda.

Kelajak taraqqiyoti nuqtayi nazaridan, erishilgan siyosiy-diplomatik va huquqiy yutuqlarni navbatdagi bosqichda chuqurlashgan makroiqtisodiy kooperatsiya hamda inson kapitalining erkin harakatlanishini kafolatlovchi yagona makon bilan mustahkamlash obyektiv zaruriyat deb baholash mumkin. Ushbu strategik vazifalarning ro‘yobga chiqarilishi Markaziy Osiyoni tashqi kuchlar ta’siridagi passiv tranzit hudud maqomidan uzil-kesil olib chiqadi hamda ko‘p qutbli dunyo tartibotida mustaqil, ta’sirchan va global xavfsizlik arxitekturasini muvozanatlovchi barqaror sivilizatsion qutb sifatida shakllantiradi.

## Markaziy Osiyoda fransuz tili va ta’limining o‘zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlashdagi ahamiyati

***YULDUZ KUSHANOVA***
*Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), TDSHU*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Fransiyaning madaniy diplomatiyasi doirasida fransuz tilini targ‘ib etish siyosati hamda uning Markaziy Osiyo davlatlaridagi ta’lim va madaniy hamkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Maqolada Fransiyaning “Fransuz alyansi” tarmog‘i faoliyati, uning O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistondagi rivojlanish bosqichlari hamda mintaqada fransuz tilini ommalashtirishga qo‘shayotgan hissasi yoritilgan. Shuningdek, fransuz tilining mintaqadagi bugungi holati, uni o‘qitish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, mavjud muammolar va istiqbollari qiyosiy tahlil asosida o‘rganilgan. Tadqiqot davomida arxiv hujjatlari, Fransiya Tashqi ishlar vazirligi materiallari, elchixonalar ma’lumotlari hamda xalqaro ilmiy manbalardan foydalanilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston va Qozog‘istonda fransuz tiliga qiziqish nisbatan barqaror bo‘lsa, Turkmaniston, Qirg‘iziston va Tojikistonda ushbu tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish pasayish tendensiyasini namoyon etmoqda. Bunga malakali kadrlar yetishmovchiligi, darsliklar taqchilligi, grant va madaniy dasturlarning qisqarishi hamda ingliz tilining xalqaro ta’lim va mehnat bozoridagi ustun mavqei asosiy omillar sifatida ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, Fransiya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy, ta’lim va madaniy aloqalarning kengayishi fransuz tilining nufuzini oshirish va uning amaliy ahamiyatini mustahkamlashga xizmat qilishi asoslab berilgan. Muallif mintaqada fransuz tilining kelajakdagi rivoji davlatlararo hamkorlik darajasi, madaniy diplomatiya samaradorligi hamda ta’lim sohasidagi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga bevosita bog‘liq degan xulosaga keladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Fransiya, Markaziy Osiyo, Fransuz tili, Madaniy diplomatiya, Fransuz alyansi, Ta’lim hamkorligi, Frankofoniya, Xalqaro aloqalar, Til siyosati, O‘zbekiston.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируется политика Франции по продвижению французского языка в рамках культурной дипломатии, а также его роль в развитии образовательного и культурного сотрудничества со странами Центральной Азии. Рассматривается деятельность сети* ***«Альянс Франсез»****, этапы её развития в Узбекистане, Казахстане, Кыргызстане, Таджикистане и Туркменистане, а также её вклад в популяризацию французского языка в регионе. Кроме того, на основе сравнительного анализа исследуются современное состояние французского языка в Центральной Азии, особенности системы его преподавания, существующие проблемы и перспективы развития. В ходе исследования использованы архивные документы, материалы Министерства Европы и иностранных дел Франции, сведения французских дипломатических представительств и международные научные источники. Результаты исследования показывают, что интерес к изучению французского языка остаётся относительно стабильным в Узбекистане и Казахстане, тогда как в Туркменистане, Кыргызстане и Таджикистане наблюдается тенденция к его снижению. Основными причинами являются нехватка квалифицированных кадров, недостаток учебных материалов, сокращение грантов и культурных программ, а также доминирующее положение английского языка на международном рынке образования и труда. Вместе с тем обосновано, что расширение экономических, образовательных и культурных связей между Францией и государствами Центральной Азии способствует укреплению статуса французского языка и повышению его практической значимости. Автор приходит к выводу, что дальнейшее развитие французского языка в регионе непосредственно зависит от уровня межгосударственного сотрудничества, эффективности культурной дипломатии и механизмов поддержки в сфере образования.*

***Ключевые слова:*** *Франция, Центральная Азия, французский язык, культурная дипломатия, Альянс Франсез, образовательное сотрудничество, Франкофония, международные отношения, языковая политика, Узбекистан.*

***Abstract.*** *This article examines France’s policy of promoting the French language within the framework of its cultural diplomacy and analyzes its role in fostering educational and cultural cooperation with the countries of Central Asia. The study explores the activities of the* ***Alliance Française*** *network, the stages of its development in Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan, as well as its contribution to the promotion of the French language throughout the region. In addition, the current status of the French language in Central Asia, the specific features of its teaching system, existing challenges, and future prospects are examined through a comparative analysis. The research is based on archival documents, materials from the French Ministry for Europe and Foreign Affairs, information provided by French diplomatic missions, and international scholarly sources. The findings indicate that interest in learning French remains relatively stable in Uzbekistan and Kazakhstan, while a declining trend is observed in Turkmenistan, Kyrgyzstan, and Tajikistan. The main factors contributing to this situation include a shortage of qualified teachers, a lack of*

*modern teaching materials, reductions in grants and cultural programs, and the dominant position of English in the international education system and labor market. At the same time, the article argues that the expansion of economic, educational, and cultural cooperation between France and the Central Asian states enhances the status of the French language and strengthens its practical significance. The author concludes that the future development of the French language in the region will largely depend on the level of interstate cooperation, the effectiveness of cultural diplomacy, and support mechanisms in the field of education.*

***Keywords:*** *France, Central Asia, French language, cultural diplomacy, Alliance Française, educational cooperation, Francophonie, international relations, language policy, Uzbekistan.*

**KIRISH.** XXI asrning uchinchi o‘n yilligida xalqaro munosabatlarda ta’lim diplomatiyasi va til siyosati davlatlarning “yumshoq kuch” (soft power) strategiyasining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, Fransiya Respublikasi fransuz tilini xalqaro miqyosda rivojlantirish, oliy ta’lim eksportini kengaytirish hamda ilmiy hamkorlikni mustahkamlash orqali o‘zining xalqaro nufuzini oshirishga intilmoqda.

2017-2026-yillarda Markaziy Osiyo va Fransiya o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Mazkur davrda ta’lim, ilm-fan va fransuz tilini rivojlantirish sohalari ikki davlat hamkorligining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Oliy darajadagi uchrashuvlar, hukumatlararo kelishuvlar, universitetlararo memorandumlar hamda akademik almashinuv dasturlari ushbu hamkorlikni sezilarli darajada faollashtirdi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli tahlil, komparativ tahlil va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida Markaziy Osiyo va Fransiya hukumatlarining rasmiy hujjatlari, ikki davlat oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik memorandumlari, xalqaro tashkilotlar (Campus France, AUF, Erasmus+) hisobotlari hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar o‘rganildi.

Shuningdek, statistik ma’lumotlarni umumlashtirish va taqqoslash usullaridan foydalanilib, 2000-2026-yillar davomida fransuz tilining rivojlanish dinamikasi hamda akademik mobillik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

**MUHOKAMA**

Fransiya madaniy diplomatiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu fransuz tili hisoblanadi. U XVIII asrdan boshlab butun dunyoda o‘z tilini yoyish harakatida va til vositasida “til diplomatiyasini” qo‘llaydi. Fransiyaning butun dunyo bo‘ylab tarqalgan “Fransuz alyans”lari tarmog‘i bu diplomatiyani yurituvchi asosiy vositadir. XIX asr oxirida buyuk xalqlar o‘rtasidagi ko‘p qirrali raqobat sharoitida madaniyat kuch-qudrat va ijobiy ahamiyat kasb etuvchi o‘lchovlardan biriga aylandi. 1883-yilda Fransiya mustamlakalarida va xorijda

fransuz tilini targ‘ib qilish milliy assotsiatsiyasi – “Fransuz alyansi” tashkil qilingan. Bu tashkilot buyuk fransuz madaniyati orqali Buyuk Fransiyani targ‘ib qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan[1]. Parijdan deyarli mustaqil bo‘lgan mahalliy komitet yigirma yil davomida butun dunyo bo‘ylab tarmoq hosil qildi.

Bu tashkilot butun dunyo bo‘ylab fransuz maktablari va fransuz adabiyotlarini targ‘ib qilgan, fransuz tilida ijod qilayotganlarni qo‘llab-quvvatlagan ular uchun konferensiya va sayohatlar tashkil qilgan. Turli sivilizatsiyalarga fransuz tili va madaniyatini taklif qilgan va uning ustunligini uqtirishga harakat qilgan. Butun dunyo bo‘ylab fransuz tili maktablarini tashkil qilish orqali til va fransuz umumbashariy madaniyatining ideal tasvirlarini yaratdi[2].

Bugungi kunga kelib “Fransuz alyansi” 137 mamlakatda 800 dan ortiq muassasaga ega. Har yili barcha yoshdagi 500 mingdan ortiq kishi fransuz tilini o‘rganish uchun “Fransuz alyansi” maktablariga boradi va 6 milliondan ortiq kishi taklif etilayotgan madaniy tadbirlarda qatnashadi. Tarmoq *Alliance Française Fondation* tomonidan muvofiqlashtiriladi.

“Fransuz alyansi” barcha muassasalari uchta asosiy umumiy vazifani bajaradi:

– barcha xohlovchilar uchun Fransiyada va chet elda fransuz tili darslarini taklif qilish;

– fransuz va frankofoniya madaniyati haqida xabardorlikni oshirish;

– madaniy xilma-xillikni targ‘ib qilish[3].

Fransiya hukumati Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalarida, xususan uning madaniy diplomatiya yo‘nalishida “Fransuz-alyansi” tarmog‘idan keng foydalanadi. Mintaqadagi birinchi Alyans Qirg‘izistonda 1993-yilda tashkil qilingan. U hozirgi kunga kelib Qirg‘izistondagi yagona rasmiy fransuz tili markazi hisoblanadi. 2010-yilgacha ularning soni 4 ta bo‘lganligi aytiladi. Markaz Fransiyaning Qirg‘izistondagi elchixonasi bilan yaqin hamkorlikda. Bishkekdagi “Fransuz-alyansi”ning vazifasi ham Qirg‘izistonda fransuz tilining nufuzini himoya qilish va oshirish**,** hamda Fransiya va Qirg‘iziston o‘rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirishdan iborat[4]. Undan keyin 1994-yil 27-aprel kuni Fransiya prezidenti Fransua Mitteranning O‘zbekistonga tashrifi davomida xalqaro Allians Fransez Assotsiatsiyasi Samarqand bo‘limining tantanali ochilish marosimi bo‘lib

[1] The “Alliances Françaises de France”, the largest network of French language schools in France https://af-france.fr/en/ (06.04.2021)

[2] Chaubet F. The French Alliance or the diplomacy of the language (1883-1914). October 2004. Revue Historique. Published by Presses Universitaires de France.

[3] https://www.diplomatie.gouv.fr/en/french-foreign-policy/cultural-diplomacy/france-s-overseas-cultural-network/
(29.12.2019)

[4] Rasmiy sahifa. https://kg.ambafrance.org/Al-yans-Fransez-v-Bishkeke-1048 (24.08.2020)

o‘tdi. Unda Yevropa ishlari bo‘yicha Vazir Alen Lamassur va O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri S.Saidqosimovlar ishtirok etishdi[1].

Qozog‘iston Olmaota shahridagi “Fransuz-alyansi” 2004-yil 15-dekabrda Olmaota shahri meri Imangali Tasmagambetov va Fransiyaning Qozog‘iston Respublikasidagi elchisi Jerar Perrole tomonidan rasman ochilgan. Alyansning ochilishi Fransiya elchixonasi tashabbusi bilan 1994-yilda tashkil etilgan Olmaotadagi Fransiya markazi faoliyatining davomi hisoblanadi[2].

2002-yil N.V. Gogol nomidagi Qarag‘anda viloyat universal kutubxonasi zallaridan biri fransuz tilidagi adabiyotlar va til o‘rganuvchilar uchun maxsus zalga aylantirildi, bu o‘quv zali 2008-yil Ostona shahridagi “Fransuz-alyansi”ning bo‘limi maqomini oldi. 2020-yil Parijdagi “Fransuz-alyansi” jamg‘armasi ushbu madaniyat markaziga to‘la huquqli Francheza ittifoqi maqomini berish uchun arizani ma’qulladi. Hozir bu Olmaota, Ostona va Chimkentdagi alyanslardan tashqari Qozog‘istondagi to‘rtinchi Fransuz alyansidir[3].

“Fransuz-alyansi” o‘zlari faoliyat olib borayotgan shaharlarda turib butun mamlakat bo‘ylab fransuz madaniyatini targ‘ib qiluvchi madaniy ma’rifiy tadbirlarni tashkil qilib kelmoqda. Aytish mumkinki, har ikki tomonning madaniyat sohasidagi aloqalarini tashkil qilishda mazkur markazlarning ahamiyati yuqori. Fransiyaning Qozog‘istondagi madaniyat muassasalari tarmog‘i qariyb 2 ming nafar talabani qamrab oluvchi to‘rtta Fransuz alyansi tomonidan taqdim etiladi. Mamlakatdagi birinchi Fransuz Alyansi Olmaota shahrida 2004-yil tashkil etilgan, Ostona shahrida esa 2005-yilda tashkil qilindi, shuningdek ikkita Fransuz Alyansi Chimkent va Qarag‘anda shaharlarida faoliyat olib bormoqda[4].

2016-yildan Toshkentda nohukumat ta’lim muassasasi – “Toshkent Fransuz Alyansi” faoliyat yurita boshladi. O‘zbekistonning Fransiya bilan madaniy aloqalarini olib borishda mintaqaning boshqa davlatlari kabi Fransuz Alyansining ahamiyati juda katta. 2016-2018-yillarda ushbu muassasa qoshidagi kurslarni 2 mingdan ortiq yurtdoshimiz tamomladi va xalqaro diplomga ega bo‘ldi. Mamlakatda turizm istiqbollari kengayishi bilan “Toshkent Fransuz Alyansi” faoliyati ham kengaya boshladi. Alyans tarjimon-gidlar malakasini oshirish yo‘nalishida ham faoliyat olib bormoqda.

Markaziy Osiyoda bir necha o‘n yillar davomida fransuz tili o‘qitib kelinadi. Biroq so‘nggi yillarda mahalliy aholi orasida bu tilga nisbatan munosabat o‘zgargan. Ular farzandlarini kelajakda munosib ish o‘rinlariga ega bo‘lishlari

[1] O‘zMA. Fond M-7. 1-ro‘yxat, 92-ish

[2] https://www.culturefrance.kz/Presentation-de-l-Alliance-Francaise-d-Almaty?lang=ru (14.07.2020)

[3] Открыт заново: Французский Альянс в Караганде стал самостоятельной организацией http://ekaraganda.kz/?mod=news_read&id=112007 (22.02.2022)

[4] Relations bilatérales. https://www.diplomatie.gouv.fr/fr/dossiers-pays/kazakhstan/relations-bilaterales/ (16.09.2022)

uchun ingliz tilini o‘rganishi zarur deb, hisoblaydi. Ularning bu qarori mintaqada fransuz tilining kelajagini belgilashda muhim ta’sirga ega bo‘ladi. Markaziy Osiyoda joylashgan Fransiya elchixonalari va fransuz tilini o‘rgatish markazlari hisobotlariga ko‘ra, hozirgi davrda mintaqa davlatlarida fransuz tilini targ‘iboti bir xil emas, u besh respublikada turli darajada rivojlanmoqda. Qozog‘iston va Qirg‘izistonda fransuz tiliga nisbatan e’tiborning pasayishi kuzatilsa, Turkmaniston va O‘zbekistonda bu holat ancha barqaror ekanligini aytish mumkin. “Novastan” axborot agentligi kuzatishlariga ko‘ra, mintaqada fransuz tilining ahamiyati pasayishiga mintaqa respublikalarida ishlayotgan elchixonalar ham aybdor. Ular fransuz tili olimpiadalarini tashkil etish, masofaviy ta’lim kurslari yoki o‘qituvchilarni o‘qitishning davomiyligini ta’minlash borasida faol emas.

Mintaqada fransuz tilini kelajagi xaqida gapirganda javob topish kerak bo‘lgan savolar ko‘p. Fransiya hukumati elchixonalari va fransuz tilini o‘rganish institutlari, 6 ta “Fransuz alyansi” va Ashxobodda fransuz instituti kabi muassasalarining harakatlarini qo‘llab-quvvatlash yoki ularni to‘xtatish masalasi fransuz faollarini e’tiboridagi masalalardan hisoblanadi.

Aslida Markaziy Osiyoda fransuz tilini o‘rganish davri sovet ittifoqi boshqaruvi yillariga to‘g‘ri keladi. Sovet elitasining frankofilligidan, klassik fransuz adabiyoti Viktor Gyugo, Aleksandr Dyuma asarlari munosib joy egallagan. 1960-70 yillardagi fransuz kinosi muvaffaqiyatlari SSSR xududida xususan, O‘rta Osiyoda alohida mavqega ega edi. SSSRning qulashi bilan yangi mustaqil davlatlar o‘z milliy tillarini tiklash va milliy til qadrini oshirish siyosati hamda ingliz tili orqali xalqaro hamjamiyatga integratsiya qilish istagi ortidan fransuz tiliga nisbatan e’tibor tushib ketdi. Biroq 90 yillarda ittifoq davridan qolgan ko‘p sonli va sifatli o‘qituvchilar jamoasi va darsliklar yetarlicha edi. Bu esa fransuz tilining e’tibordan chetda bo‘lsada yashab qolishiga imkon bergan.

Mustaqillik yillarida Markaziy Osiyoda fransuz tili rus va ingliz tillaridan keyingi xorijiy til sifatida mavqeini saqlab qoldi. Ammo grammatik jihatdan murakkabligi sabab u o‘z o‘rganuvchilar safini juda sekinlik bilan kengaytirmoqda.

Fransiyaning Qozog‘istondagi elchisi Didyo Kanes “... bugungi kunda Qozog‘istonda fransuz tili ingliz tilidan keyin ikkinchi xorijiy til hisoblanadi, so‘nggi 10-20 yil davomida o‘rganishga nisbatan qiziqishning kuchli pasayishi kuzatilmoqda”. Qozog‘iston ta’lim vazirligi tomonidan berilgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, fransuz tilini 8 mingdan sal ko‘proq o‘quvchi o‘rganmoqda, ya’ni respublika jami o‘quvchilarining 0,25 foizi. 8 ming talabadan tashqari

Qozog‘istondagi to‘rtta “Fransuz alyansi” da 2 ming kishi fransuz tilini o‘rganadi[1].

Qirg‘izistonda ham umumiy holat yaxshi emas. Qirg‘iziston fransuz tili o‘qituvchilari uyushmasi rahbari M.Akchekeeva “Qirg‘izistonda fransuz tilining ahvoli achinarli” – deb hisoblaydi. “Bugungi kunda mamlakatda faqat bitta “Fransuz alyansi” mavjud, 15 yil oldin ular to‘rtta edi. Maktablarda fransuz tili o‘rganish istagini bildiruvchi o‘quvchilar soni yildan-yilga kamayib bormoqda.

Tojikistonda ham vaziyat xuddi shunday, fransuz tilini o‘qitish juda zaif holatda. Sovet Ittifoqidan so‘ng Tojikistonda Fransiya elchixonasi yordami bilan fransuz tilini o‘qitish tizimi saqlab qolingan. Fransiyaning Tojikistondagi elchixonasi madaniyat attashesi Lola Rogez ma’lumotlariga ko‘ra Tojikiston maktablari va universitetlarida jami 4 ming nafar o‘quvchi fransuz tilini o‘rganmoqda[2].

Diplomatlarning fikriga ko‘ra bu uch respublika kelajakda fransuz tili yo‘qolishi mumkin bo‘lgan respublikalardir. Bu uch davlatdagi fransuz tilini o‘qitish bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha muammolar bor, biz uni quyidagicha tasnifladik:

Birinchi muammo, kadrlar yetishmovchiligi, fransuz tili o‘qituvchilari allaqachon nafaqa yoshida, yosh avlod oylik maoshi kamligi sabab bu ishni tanlashmaydi. Hatto ba’zi fransuz tiliga ixtisoslashgan maktablarda ham o‘qituvchilar yetishmovchiligi asosiy muammo bo‘lib qolmoqda.

Ikkinchi muammo, Fransiya hukumati tomonidan maktab o‘qituvchilari uchun juda oz grantlar ajratilayotganligi va natijada fransuz tili o‘qituvchilari hech qachon Fransiyaga bormasligi bu davlatlarda fransuz tilini sekin asta yo‘qolib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Uchinchi muammo, elchixonalar ko‘magida o‘tkaziladigan tadbirlarning to‘xtab qolganligi. Elchixonalar tomonidan ilgari tashkil etilgan ayrim tadbirlarning to‘xtatilishi ham fransuz tilini o‘rganish susayib ketishiga sabab bo‘ldi. “Madaniyat attashesi lavozimi tugatilgandan keyin fransuz tili olimpiadalari bekor qilindi. Shundan so‘ng, o‘z farzandlarini fransuz tiliga yozdirmoqchi bo‘lgan ota-onalar soni kamaydi”, - deydi M.Akchekeeva. 2010-yilgacha tashkil etilgan ushbu olimpiadalar g‘oliblarga universitetga tanlovsiz kirish va Fransiyaga sayohat qilish imkoniyati berilar edi.

To‘rtinchi muammo, darsliklarning yetishmovchiligi, har uch mamlakatda ham fransuz tilidagi darsliklar yozish allaqachon to‘xtab qolgan, yaqinda yozilgan kam sonli kitoblar ham bir yildan ortiq vaqt davomida ta’lim vazirligining tasdiqlashini kutib qoladi. Nur-Sultondagi fransuz tili markazlari tashabbusi bilan

[1] Etienne Combier. Le français a-t-il encore un avenir en Asie centrale? 5 Favril 2021/ https://novastan.org/fr (15.07.2020)

[2] Etienne Combier (O‘sha manba)

yozilgan “Amaliy fransuz tili” darsligi ta’lim vazirligi tomonidan tasdiqlanmaganligi bois o‘quv jarayonlariga jalb qilinmagan[1].

Fransuz tili barqaror rivojlanayotgan mintaqadagi ikki respublika bu Turkmaniston va O‘zbekistondir. Turkmanistonning Ashxobod shahridagi Fransuz instituti mintaqadagi til o‘qitish bilan bog‘liq tajribalarni o‘zida jamlagan. Markaziy Osiyodagi eng yopiq mamlakatda fransuz tilini o‘qitish mustaqillik davridan boshlangan, shu bois hozir u ilk rivojlanish davrida. Mamlakatda fransuz tiliga qiziqishni rag‘batlantiruvchi holat bu Fransiyaning bir nechta yirik qurilish kompaniyalari mamlakatda uzoq vaqtdan beri faoliyat yuritayotganligidir. Ular tilni biluvchilarni ishga yollaydi, shu bois ota-onalar farzandlarini fransuz tilini o‘rganishga undaydi. Hozirda Ashxaboddagi Fransuz institutida 300-400 nafargacha talabalar til o‘rganishadi ularning 45 foizi 12 yoshdan kichik ekanligi mamlakatda fransuz tilining kelajagi borligini ko‘rsatadi.

Turkmaniston 2020-yil aprel oyida o‘zining birinchi fransuz tili Olimpiadasiga mezbonlik qildi, bu mintaqada an’anaviy musobaqa formati bo‘lib, lekin mamlakatda ilgari hech qachon tashkil etilmagan edi.

Mintaqada aholi nufuzi bo‘yicha birinchi bo‘lgan O‘zbekistonda fransuz tili o‘qituvchilari soni boshqa barcha mamlakatlarni jamlagandan ham ko‘ra ko‘proq. Fransuz tilini o‘rganish va o‘rgatish bo‘yicha O‘zbekiston Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinni egallaydi, “... 300 ming nafar o‘quvchi, 3 ming fransuz tili o‘qituvchisi, 900 maktab, shundan 2 ta ixtisolashgan maktab, 8 ta fransuz kafedrasi yoki fransuz tili yaxshi o‘qitilayotgan xorijiy tillar bo‘limi hamda “Toshkentdagi Fransuz alyansi”, umumlashtirib aytganda dedi – Fransiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi muvaqqat ishlar vakili Bris Rokfey (Brice Roquefeuil) – “fransuz tilini o‘rganayotgan talabalar soni O‘zbekiston aholisining qariyb 1 foiziga to‘g‘ri keladi” [2].

“O‘zbekistonda fransuz tilini o‘qitish tobora rivojlanib bormoqda. So‘nggi paytlarda xorijiy tillar, jumladan, fransuz tili bo‘yicha ham islohotlar amalga oshirildi. 2019-yildan boshlab maktab direktorlari ingliz, fransuz va nemis tillari o‘rtasida tanlov xuquqiga ega: ota-onalar qaror qiladi, direktorlar moslashadi**.**

2013-yilda belgilangan tillar bo‘yicha o‘qituvchilar kvotalari 2018-yilda bekor qilingan edi, bundan tashqari, rasmiy Fransiya diplomlari va DELF, DALF yoki TCF kabi sertifikatlar O‘zbekiston hukumati tomonidan tan olingan, ya’ni bu talabalar universitetga kirishda til darajasini isbotlashlari shart emas. Fransiya hukumatining bir qancha stipendiyalari bor, bu talabalarni fransuz tilini

[1] Etienne Combier. Le français a-t-il encore un avenir en Asie centrale? https://novastan.org/fr/decryptage/le-francais-a-t-il-encore-un-avenir-en-asie-centrale/(24.08.2020)

[2] Etienne Combier. Le français a-t-il encore un avenir en Asie centrale? 5 Favril 2021/ https://novastan.org/fr (05.02.2021)

o‘rganishga undaydi” – deydi “Toshkentdagi Fransuz alyans” direktori Dilshod Ahmedov.

“O‘zbekistonda ham fransuz tilini o‘qitishda ayrim muammolar mavjud. To‘g‘ri bu yerda darslik va davlatning qo‘llab-quvvatlashi borasida mintaqaning boshqa davlatlariga nisbatan vaziyat ancha yaxshi, biroq kadrlar masalasi bu yerda ham muammo. O‘qituvchilarning o‘rtacha yoshi nisbatan yuqori. Fransuz tili o‘qituvchilari tarkibini yangilash haqiqatan ham O‘zbekistondagi frankofoniya uchun asosiy muammolardan biri”, - deydi Fransiyaning O‘zbekistondagi Muvaqqat ishlar vakili Bris Rokfey.

Fransuz tili bilan bog‘liq yana bir muammo hozirda fransuz tili xorijiy tillar orasida ingliz va nemis tilidan keyin uchinchi o‘rinda turadi. “Fransuz tilini o‘rganuvchilar soni oshishini bashorat qilib bo‘lmaydi, chunki O‘zbekistonda tobora ko‘proq xorijiy universitetlar o‘qitish tili sifatida ingliz tilidan foydalanmoqda. Talabani jalb qilish uchun uni nimagadir undash kerak. Hozircha Buxoroda Fransiyaning VATEL instituti yoki Toshkentdagi Parij Xalqaro moda akademiyasi bor.

Mamlakat yoshlari fransuz tilini o‘rganishdan manfaatdor bo‘lishi kerak, shu bois fransuz kompaniyalarini ko‘paytirish tilni yoyishda imkoniyat berishi mumkin, hozirda Fransiyaning O‘zbekistonda “Orano”, “Assystem” kabi guruhlari ishlamoqda Fransiyada stipendiya taklifi bilan bog‘liq professional imkoniyatlarning mavjudligi, muhim elementdir.

Fransuz tilining foydaliligi haqida fransuz rasmiylari har doim aytadigan fikr “Fransuz tili – kelajak tili, bu xalqaro martaba bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lganlar uchun boylik” – deydi Fransiyaning Qozog‘istondagi elchisi Dide Kanesse.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Fransiya tashqi ishlar vazirligi har yili besh davlatning Fransiya elchixonalariga jami 553,5 ming yevro ajratadi. Mazkur mablag‘ning katta qismi mintaqalarda fransuz tilini saqlash va rivojlantirishga sarflanadi[1].

Biroq, mintaqaviy miqyosda fransuz tilining tatbiq etilishi va uning ta’lim tizimidagi integratsiyalashuv jarayoni bir maromda kechmagan; aksincha, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, davlatlarning tashqi siyosiy yo‘nalishi va ta’limga investitsiya kiritish salohiyatidagi farqlar tufayli bu rivojlanish trayektoriyasi notekis va o‘zgaruvchan tusga ega bo‘lgan. 2017-yildan boshlab Markaziy Osiyo (ayniqsa, O‘zbekiston va Qozog‘iston) ta’lim tizimida fransuz tilining mavqei yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu jarayon siyosiy o‘zgarishlar, xalqaro hamkorlik va yoshlarning xorijiy tillarga bo‘lgan talabining ortishi bilan bog‘liq.

2017-yildan keyingi o‘zgarishlarni quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin:

[1] https://www.diplomatie.gouv.fr/en/the-ministry-and-its-network/news/2020/article/alliance-francaise-foundation (20.03.2021)

- 2018-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyevning Fransiyaga tashrifi ta’lim sohasidagi hamkorlikni, jumladan, fransuz tilini o‘qitishni jadallashtirishga turtki berdi.
- Mintaqa davlatlari “Frankofoniya xalqaro tashkiloti” (OIF) bilan aloqalarni kuchaytirdi. Qozog‘iston va O‘zbekistonda fransuz tilini maktab va universitetlarda o‘qitishni rivojlantirish bo‘yicha yangi dasturlar qabul qilindi.

Fransuz tili ko‘plab xorijiy tillarga ixtisoslashgan maktablar va gimnaziya dasturlariga kiritildi.

O‘zbekistonda xorijiy tillarni chuqur o‘rganishga qaratilgan maktablar tarmog‘i kengaytirildi va fransuz tili bir qator muassasalarda “ikkinchi xorijiy til” sifatida o‘z o‘rnini mustahkamladi. Masalan:

- Toshkent shahridagi 4-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi: Bu maktabda fransuz tili uzoq yillardan beri an’anaviy tarzda o‘qitiladi va 2017-yildan keyin darsliklar va metodika yangilanib, fransuz tili chuqurlashtirilgan guruhlar soni oshirildi.

- “LabelFrancÉducation” muhriga ega maktablar: Bu Fransiyaning dunyo bo‘ylab fransuz tili va madaniyatini yuqori darajada o‘qitadigan maktablarga beradigan nufuzli sifat belgisi. O‘zbekistonda bir qator maktablar ushbu tizimga kirish uchun xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda.

- Xalqaro maktablar va xususiy ta’lim muassasalari: Toshkentdagi xalqaro maktablar (masalan, École française de Tachkent — bu maktab fransuz ta’lim dasturi bo‘yicha ishlaydi va 2017-yildan keyin o‘z faoliyatini yanada kengaytirdi) va fransuz tilini chuqur o‘qitadigan xususiy maktablar soni oshdi. Fransiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi ko‘magida fransuz tili o‘qituvchilarining malakasini oshirish kurslari, Fransiyaga stajirovka dasturlari soni ko‘paydi.

Fransiya Ta’lim vazirligi va xalqaro tashkilotlar ko‘magida yangi, zamonaviy kommunikativ metodikaga asoslangan darsliklar joriy etila boshlandi. Bular: **“Édito” (Éditions Didier)** – Bu hozirgi kunda fransuz tilini o‘rganishdagi eng zamonaviy va keng tarqalgan darsliklardan biri hisoblanadi. U Yevropa tillarini bilish darajasini baholash tizimi (CEFR – A1 dan C2 gacha) bilan to‘liq integratsiyalashgan. **“Alter Ego +” (Hachette FLE) –** O‘quvchilarni DELF (A1-B2) imtihonlariga tayyorlash uchun eng qulay darslik hisoblanadi. U tilni o‘rganish bilan birga fransuz madaniyati, tarixi va jamiyati haqida chuqur ma’lumot beradi. O‘zbekistondagi ko‘plab akademik litseylarda aynan shu kitobdan foydalaniladi. Bu darsliklar Fransiya elchixonasi ekspertlari bilan hamkorlikda, O‘zbekiston o‘quvchilarining mentaliteti va ehtiyojlariga moslashtirilgan holda ishlab chiqilgan.

Campus France faoliyati ayniqsa sezilarli darajada kengaydi :

- O‘zbekiston va Qozog‘iston universitetlari Fransiyaning nufuzli oliy o‘quv yurtlari (masalan, Sorbonna, Sciences Po) bilan ikki tomonlama diplom dasturlarini ochishga kirishdi.
- Fransiyaning mintaqadagi elchixonalari tomonidan ajratiladigan stipendiyalar hajmi oshdi. Campus France talabalarga Fransiyada bepul yoki grant asosida ta’lim olish bo‘yicha maslahat markazi sifatida o‘z xizmatlarini raqamlashtirdi.

2017-yildan buyon Alliance Française faoliyati nafaqat til o‘rgatish, balki madaniy platformaga aylandi :

- DELF/DALF (fransuz tilini bilish xalqaro sertifikati) imtihonlari soni va qamrovi kengaydi. Bu yoshlarga nafaqat Fransiya, balki Kanada, Belgiya va Shveytsariya kabi davlatlarda ta’lim olish imkonini berdi.
- Har yili o‘tkaziladigan “Frankofoniya bahori” tadbirlari 2017-yildan keyin yanada ommalashdi, bu esa talabalarda fransuz tili va madaniyatiga bo‘lgan qiziqishni oshirdi.

So‘nggi yillarda, xususan, 2020-yildagi pandemiyadan keyin, fransuz tilini o‘rganish masofaviy formatga ham o‘tdi. Campus France va Alliance Française platformalari orqali onlayn darslar va vebinarlar tashkil etildi, bu esa poytaxtdan uzoqroq hududlarda yashovchi yoshlarning ham fransuz ta’lim tizimiga kirish imkoniyatini oshirdi. 2017-yildan boshlab fransuz tili Markaziy Osiyo ta’lim tizimida shunchaki “ikkinchi xorijiy til” bo‘lishdan chiqib, “**ta’lim va karyera uchun strategik vosita”** maqomiga o‘tdi. Fransuz tilini bilish – Yevropa ta’lim makoniga chiqish va yuqori texnologiyali sohalarda ishlash uchun asosiy kalit sifatida qabul qilinmoqda.

**Xulosa.** Markaziy Osiyo mintaqasida fransuz tili va ta’limi rivojining zamonaviy holati, uning madaniy diplomatiya vositasi sifatidagi o‘rni hamda ushbu yo‘nalishdagi dolzarb muammolarni qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni berish mumkin:

Fransuz tiliga bo‘lgan qiziqish mintaqa davlatlari kesimida turlicha namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston va Qozog‘istonda bu tilga bo‘lgan talab barqarorligicha qolayotgan bo‘lsa, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistonda tilni o‘rganishga bo‘lgan intilishning pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Fransuz tili o‘qitilishining kengayishiga malakali kadrlar yetishmovchiligi, o‘qituvchilarning ijtimoiy himoyasi (maosh va grantlar bilan bog‘liq muammolar), zamonaviy o‘quv adabiyotlari taqchilligi hamda xalqaro mehnat bozorida ingliz tilining yaqqol ustunligi kabi omillar jiddiy to‘sqinlik qilayotganligini kuzatishimiz mumkin edi.

Ammo 2017-yildan keyin O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi siyosiy va ta’limiy aloqalarning yangi bosqichga ko‘tarilishi, “Campus France” va “Alliance Française” tashkilotlarining faoliyatini jadallashtirishi fransuz tilini oddiy xorijiy tildan “ta’lim va karyera uchun strategik vosita” maqomiga olib chiqdi. Natijada

fransuz tilining mintaqadagi kelajagi bevosita davlatlararo hamkorlik darajasi, madaniy diplomatiya samaradorligi hamda ta’lim tizimini qo‘llab-quvvatlashning amaliy mexanizmlariga (stipendiyalar, malaka oshirish kurslari, ixtisoslashgan maktablar tarmog‘i) bog‘liqligi namoyon bo‘ldi. Fransiya Respublikasi uchun fransuz tili – bu o‘zining yumshoq kuchi (soft power) va nufuzini yoyishning eng muhim vositasidir. Markaziy Osiyo yoshlari uchun esa fransuz tili – Yevropa ta’lim makoniga chiqish, yuqori texnologiyali sohalarda raqobatbardosh mutaxassis bo‘lish va global muloqotga kirishish uchun muhim kalit hisoblanadi.

# Milliy identitet tushunchasining konseptual va metodologik asoslari

***HUSANJON TOSHMURODOV***
*Mustaqil tadqiqotchisi, TDSHU*

***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada milliy identitet tushunchasining konseptual mazmuni, uning nazariy asoslari va tadqiq etilish metodologiyasi tahlil qilinadi. Maqola maqsadi - milliy identitet fenomenini ijtimoiy-gumanitar fanlardagi asosiy nazariy paradigmalar (primordializm, etnosimvolizm, konstruktivizm) hamda o‘zbek ilmiy-falsafiy tafakkuridagi milliy g‘oya va milliy o‘zlikni anglash konsepsiyalari asosida qiyosiy yoritishdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-mantiqiy, qiyosiy-tahliliy va sistemali yondashuv metodlaridan foydalanilgan. Tahlil natijasida milliy identitet bir vaqtning o‘zida ham obyektiv (tarixiy-madaniy meros, til, hudud), ham subyektiv (o‘zlikni anglash, ijtimoiy tanlov) unsurlarni o‘zida mujassam etuvchi dinamik va ko‘p qatlamli hodisa ekanligi asoslab berilgan. Shuningdek, mustaqillik davri O‘zbekistonida milliy g‘oya va ma’naviyat masalalarining institutsional shakllanishi milliy identitetni mustahkamlashning muhim omili sifatida ko‘rib chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *milliy identitet, millat, etnos, milliy o‘zlik, primordializm, konstruktivizm, etnosimvolizm, milliy g‘oya, ijtimoiy identifikatsiya.*

***Abstract.*** *This article examines the conceptual essence of national identity, its theoretical foundations, and the methodology used for its study. The aim of the article is to provide a comparative analysis of the phenomenon of national identity based on the major theoretical paradigms in the social sciences and humanities—primordialism, ethnosymbolism, and constructivism—as well as the concepts of the national idea and national self-awareness developed within Uzbek scholarly and philosophical thought. The study employs historical-logical, comparative-analytical, and systematic approaches. The findings demonstrate that national identity is a dynamic and multidimensional phenomenon that incorporates both objective elements (historical and cultural heritage, language, and territory) and subjective elements (self-awareness and social choice). Furthermore, the institutional development of*

*the national idea and spirituality in independent Uzbekistan is considered an important factor in strengthening national identity.*

***Keywords:*** *national identity, nation, ethnicity, national self-awareness, primordialism, constructivism, ethnosymbolism, national idea, social identification.*

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются концептуальная сущность национальной идентичности, ее теоретические основы и методология исследования. Цель работы — проведение сравнительного анализа феномена национальной идентичности на основе основных теоретических парадигм социально-гуманитарных наук (примордиализма, этносимволизма и конструктивизма), а также концепций национальной идеи и национального самосознания, сформировавшихся в узбекской научной и философской мысли. В исследовании применяются историко-логический, сравнительно-аналитический и системный подходы. Результаты показывают, что национальная идентичность представляет собой динамичный и многомерный феномен, включающий как объективные элементы (историко-культурное наследие, язык, территория), так и субъективные (самосознание, социальный выбор). Кроме того, институциональное развитие национальной идеи и духовности в независимом Узбекистане рассматривается как важный фактор укрепления национальной идентичности.*

***Ключевые слова:*** *национальная идентичность, нация, этничность, национальное самосознание, примордиализм, конструктивизм, этносимволизм, национальная идея, социальная идентификация.*

**Kirish.** Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda milliy identitet muammosi ijtimoiy-gumanitar fanlarning eng dolzarb mavzularidan biriga aylandi. Axborot almashinuvining tezlashishi, madaniy integratsiya va migratsion jarayonlarning kengayishi bir tomondan xalqlarni yaqinlashtirsa, ikkinchi tomondan har bir millatni o‘z tarixiy-madaniy o‘ziga xosligini saqlab qolish zarurati oldida qo‘yadi. Shu bois milliy identitet tushunchasining mazmun-mohiyatini, uning shakllanish mexanizmlarini va tadqiq etish metodologiyasini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Milliy identitet - murakkab, ko‘p qatlamli va tarixan o‘zgaruvchan hodisa bo‘lib, u shaxsning muayyan millat, xalq yoki etnik guruhga mansubligini anglashi, shu mansublik asosida shakllangan qadriyatlar, til, madaniyat, tarixiy xotira va ijtimoiy munosabatlar tizimini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda bu tushuncha turlicha talqin qilinadi: ba’zi tadqiqotchilar uni tarixan berilgan, azaliy hodisa sifatida, boshqalari esa ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasida shakllangan, tarixan qurilgan konstruksiya sifatida talqin etadilar. Bunday nazariy xilma-xillik milliy identitet fenomenini yagona metodologik asosda o‘rganishni murakkablashtiradi, biroq ayni paytda uni ko‘p qirrali tahlil qilish imkoniyatini ham beradi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va milliy g‘oyani shakllantirish masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Birinchi Prezident I.A. Karimovning asarlarida

mustaqil davlat qurilishi milliy g‘oya va milliy mafkura bilan uzviy bog‘liq holda talqin etilgan bo‘lib, bunda milliy o‘zlikni anglash jamiyatni safarbar etuvchi va birlashtiruvchi kuch sifatida ko‘rsatilgan [7; 8]. Keyingi yillarda oliy ta’lim tizimida “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishining institutsionallashuvi ham milliy identitet masalalarining ilmiy-nazariy va amaliy-tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rsatadi [4; 9].

Ushbu maqolaning maqsadi - milliy identitet tushunchasining konseptual asoslarini G‘arb ijtimoiy-gumanitar fanlaridagi asosiy nazariyalar va o‘zbek ilmiy-falsafiy tafakkuridagi yondashuvlar asosida qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, ushbu hodisani tadqiq etishning metodologik imkoniyatlarini aniqlashdir. Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi: 1) milliy identitet tushunchasining nazariy-konseptual negizlarini tizimlashtirish; 2) primordialistik, etnosimvolistik va konstruktivistik yondashuvlarning mohiyatini ochib berish; 3) mustaqillik davri o‘zbek ijtimoiy-falsafiy tafakkurida milliy o‘zlik masalasining talqinini tahlil qilish; 4) milliy identitetni o‘rganishning zamonaviy metodologik yo‘nalishlarini asoslash.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo‘lib, u empirik ma’lumotlar to‘plashga emas, balki mavjud ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish va qiyoslashga asoslangan. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: Tarixiy-mantiqiy metod - milliy identitet tushunchasining fanda shakllanish bosqichlarini, undan XX asr boshlaridagi etnografik-tarixiy yondashuvlardan tortib, XX asr oxiri konstruktivistik nazariyalarigacha bo‘lgan evolyutsiyasini izchil tahlil qilish imkonini berdi. Qiyosiy-tahliliy metod - G‘arb ijtimoiy-gumanitar fanlaridagi (B. Anderson, E. Gellner, A. Smit, E. Erikson, H. Tejfel) nazariy yondashuvlarni o‘zbek olimlari va mafkurashunoslarining ishlaridagi (I.A. Karimov, O. Musurmonova va boshqalar, I. Ergashev) milliy g‘oya va milliy o‘zlik talqinlari bilan qiyoslash uchun qo‘llanildi. Sistemali-strukturaviy yondashuv - milliy identitetni yagona, ammo ichki tarkibiy qismlarga (etnik, madaniy, til, diniy, fuqarolik-siyosiy komponentlar) ega bo‘lgan yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqishga xizmat qildi. Kontent-tahlil - ilmiy manbalar, monografiyalar va me’yoriy-huquqiy hujjatlar (o‘quv dasturlari, konsepsiyalar) matnidagi milliy identitet, milliy g‘oya, milliy o‘zlik tushunchalarining qo‘llanilish konteksti aniqlandi.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda millat va milliy identitet tabiatini izohlashga uchta asosiy nazariy yondashuv shakllangan: primordializm, etnosimvolizm va konstruktivizm. Primordialistik yondashuv millatni va milliy identitetni tarixan azaliy, tabiiy hodisa sifatida talqin etadi, unga ko‘ra etnik-milliy mansublik qon-qarindoshlik, umumiy kelib chiqish va tarixiy uzluksizlik asosida shakllanadi. Bu yondashuv, ayniqsa, sovet davri etnografiya maktabida keng tarqalgan bo‘lib, xalqlarning etnogenezini “obyektiv” tarixiy jarayon sifatida talqin etishga xizmat qilgan.

Etnosimvolistik yondashuv, uning yirik vakili A.D. Smit tomonidan asoslangan bo‘lib, millatni butunlay “yaratilgan” yoki “ixtiro qilingan” hodisa sifatida emas, balki oldindan mavjud bo‘lgan etnik yadro (ethnie) - umumiy nom, ajdodlar haqidagi afsonalar, tarixiy xotira, madaniyat va hududga bog‘liqlik asosida shakllangan uzluksiz jarayon sifatida ko‘radi [11]. Smitning fikricha, zamonaviy millatlar avvalgi etnik jamoalarning ramziy va madaniy merosini o‘zlashtirish orqali vujudga keladi, shu bois milliy identitet chuqur tarixiy ildizlarga ega [10; 11]. Konstruktivistik yondashuv esa millatni va milliy ongni ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, elitalar va institutlar faoliyati natijasida shakllangan hodisa sifatida talqin etadi. B. Andersonning “tasavvur qilingan jamoalar” konsepsiyasiga ko‘ra, millat - a’zolari bir-birini shaxsan bilmasa-da, ular o‘rtasida umumiylik va birdamlik tuyg‘usini yuzaga keltiruvchi tasavvuriy konstruksiyadir; bu tuyg‘u matbaa madaniyati, ommaviy ta’lim va milliy til orqali shakllanadi va tarqaladi [1]. E. Gellner ham millatni sanoat davri modernizatsiyasi mahsuli sifatida ko‘rib, milliy ongning shakllanishida yagona ta’lim tizimi va standartlashtirilgan madaniyatning rolini alohida ta’kidlaydi [5].

Ushbu uch yondashuvning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy identitet na sof “tabiiy”, na sof “sun’iy” hodisa bo‘lmay, balki tarixiy-madaniy meros bilan ijtimoiy-siyosiy konstruksiyalash jarayonlarining dialektik birligidan iboratdir. Xususan, o‘zbek milliy identiteti muammosi bo‘yicha olib borilgan zamonaviy tadqiqotlarda ham xuddi shu ikki qutb - an’anaviy-etnogenetik va konstruktivistik-institutsional talqinlar o‘rtasidagi ilmiy bahs kuzatiladi, bunda tadqiqotchilar millatning shakllanishida ham tarixiy uzluksizlik, ham XX asr siyosiy-madaniy jarayonlarining rolini alohida qayd etadilar. Milliy identitetni faqat makro-ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki shaxs darajasidagi psixologik jarayon sifatida ham tushunish muhim ahamiyatga ega. E. Erikson o‘zining identifikatsiya nazariyasida identitetni shaxsning o‘z-o‘zini va ijtimoiy muhitini uzluksizlik va yaxlitlik nuqtayi nazaridan anglashi sifatida ta’riflaydi; bunda identitet inqirozlari va ularning hal etilishi shaxs rivojlanishining muhim bosqichlarini tashkil etadi [3]. Ushbu nazariya milliy identitetni ham individual darajada - shaxsning o‘zini muayyan millatga mansub deb his qilishi va bu mansublikni ijtimoiy amaliyotda namoyon etishi jarayoni sifatida tahlil qilish imkonini beradi. H. Tejfel va J. Tyorner tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi milliy identitetning guruhlararo munosabatlar kontekstidagi mexanizmlarini ochib beradi: shaxs o‘zini muayyan ijtimoiy guruhga (shu jumladan, millatga) mansub deb bilish orqali o‘z-o‘zini baholaydi, bu esa “o‘zimiznikilar” va “boshqalar” o‘rtasidagi farqlanishni kuchaytiradi [12]. Ushbu nazariya milliy identitetning nafaqat birlashtiruvchi, balki chegaralovchi funksiyasini ham izohlashga xizmat qiladi. S. Xoll esa madaniy identitetni statik mohiyat emas, balki doimiy o‘zgarib turuvchi jarayon, “ishlab chiqarish” sifatida talqin etadi - u tarix, madaniyat va hokimiyat munosabatlari doirasida doimiy shakllanib va qayta

shakllanib boradi [6]. Bu yondashuv milliy identitetni faqat o‘tmishga qaratilgan tarixiy meros sifatida emas, balki kelajakka yo‘naltirilgan, doimiy ijtimoiy muzokara jarayonida shakllanuvchi dinamik hodisa sifatida tushunishga asos beradi. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy identitet muammosi, avvalambor, milliy g‘oya va ma’naviyat kontseptsiyalari doirasida ilmiy-falsafiy va mafkuraviy jihatdan asoslab berildi. I.A. Karimovning “O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura” asarida mustaqil davlat qurilishining ma’naviy-mafkuraviy asoslari, jumladan, milliy g‘oyaning jamiyatni birlashtiruvchi va safarbar etuvchi vazifasi asoslab berilgan [7]. Keyinchalik “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ma’naviyat tushunchasi kengroq tahlil qilinib, milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira va milliy qadriyatlarni tiklash jarayonlari ma’naviy yuksalishning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatilgan [8].

Ushbu g‘oyalar keyinchalik oliy ta’lim tizimida “Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari” fani doirasida institutsional shaklga keldi. O. Musurmonova, M. Qarshiboyev va R. Qo‘chqorovning o‘quv qo‘llanmasida milliy istiqlol g‘oyasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy unsurlari va yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni tizimli bayon etilgan [9]. I. Ergashevning tadqiqotida esa milliy g‘oyani targ‘ib qilish texnologiyalari, jumladan, ijtimoiy-gumanitar fanlarning bu jarayondagi o‘rni ko‘rib chiqiladi, bunda mafkuraviy immunitetni shakllantirish milliy xavfsizlikning muhim sharti sifatida talqin etiladi [4].

Shuningdek, o‘zbek xalqining etnik-tarixiy shakllanishi masalalari tarixshunoslikda uzoq davrdan beri munozara mavzusi bo‘lib kelgan. Jumladan, o‘zbek xalqining tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan “sart” etnonimi muammosi bo‘yicha V.V. Bartold o‘zining fundamental tadqiqotlarida ushbu atamaning tarixiy manbalardagi qo‘llanilishi va uning etnik mazmuni haqida muhim dalillar keltirgan [2]. Bunday tarixiy-etnografik tadqiqotlar milliy identitetning primordialistik-madaniy qatlamini, ya’ni uzoq tarixiy davrlar davomida shakllangan etnik xotira va o‘zini-o‘zi nomlash an’analarini ochib berishga xizmat qiladi. Bu esa yuqorida ko‘rib chiqilgan etnosimvolistik yondashuvning [10; 11] o‘zbek milliy identitetiga nisbatan ham amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. O‘tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, milliy identitetni bir yoqlama - faqat primordialistik yoki faqat konstruktivistik - nuqtayi nazardan tadqiq etish uning to‘liq mohiyatini ochib bera olmaydi. Zamonaviy metodologik yondashuv quyidagi tamoyillarga tayanishi maqsadga muvofiqdir: Birinchidan, ko‘p darajali tahlil tamoyili - milliy identitetni bir vaqtning o‘zida makro-ijtimoiy (millat, davlat, mafkura darajasida - [1; 5; 7; 8]), o‘rta-institutsional (ta’lim, ommaviy axborot vositalari darajasida - [4; 9]) va mikro-psixologik (shaxs darajasida - [3; 12]) o‘lchamlarda o‘rganish zarur. Ikkinchidan, tarixiylik va dinamiklik tamoyili - milliy identitetni statik holat emas, balki tarixiy jarayon sifatida, uning ildizlarini (etnosimvolistik qatlam - [2; 10; 11]) va zamonaviy institutsional shakllanish bosqichlarini (konstruktivistik qatlam - [1; 5]) birgalikda

hisobga olgan holda tahlil qilish. Uchinchidan, qiyosiy-madaniy tamoyil - milliy identitet muammosini faqat milliy doirada emas, balki xalqaro ijtimoiy-gumanitar fanlar konteksti bilan uzviy bog‘liq holda, boshqa xalqlar tajribasi bilan qiyoslagan holda o‘rganish, bu esa milliy o‘ziga xoslikni umumbashariy qadriyatlar tizimidan ajratib qo‘ymaslik imkonini beradi [6].

Ushbu tamoyillarga asoslangan integrativ metodologiya milliy identitetni O‘zbekiston kabi mustaqillikka nisbatan yangi davlatlar sharoitida - bir tomondan, tarixiy-madaniy merosni tiklash, ikkinchi tomondan, zamonaviy fuqarolik jamiyati va milliy g‘oyani institutsional shakllantirish jarayonlarining o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda - tadqiq etish uchun samarali asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, milliy identitet tushunchasi ijtimoiy-gumanitar fanlarda yagona talqinga ega bo‘lmagan, ko‘p qatlamli va tarixan dinamik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi; uni to‘liq tushunish uchun primordialistik, etnosimvolistik va konstruktivistik yondashuvlarni bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi nazariy pozitsiyalar sifatida qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, milliy identitetning shakllanishida nafaqat makro-ijtimoiy va institutsional omillar (davlat, ta’lim, mafkura), balki shaxsning ijtimoiy-psixologik identifikatsiya jarayonlari ham muhim rol o‘ynaydi. Uchinchidan, mustaqillik davri O‘zbekistonida milliy g‘oya va ma’naviyat masalalari bo‘yicha shakllangan ilmiy-nazariy meros milliy identitetni mustahkamlashning muhim institutsional-mafkuraviy asosini tashkil etadi, biroq bu meros xalqaro ijtimoiy-gumanitar fanlar tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda yanada boyitilishi va rivojlantirilishi zarur. Milliy identitetni tadqiq etishning kelgusi istiqbollari ko‘p darajali, tarixiy-dinamik va qiyosiy-madaniy tamoyillarga asoslangan integrativ metodologiyani ishlab chiqish bilan bog‘liqdir.

# China’s policy in Afghanistan under the Taliban 2.0 government: a combination of pragmatism and economic interests

***MAMURJON OTAMURODOV***
*Doctoral student, Department of Social and Political Sciences*
*Tashkent Institute of Chemical Technology*
*ORCID: 0009-0006-0819-688X*

***Abstract.*** *In this article, the author analyzes the policy of the People’s Republic of China towards Afghanistan during the “Taliban 2.0” period, examining it at the intersection of pragmatic realism, securitization, and a geoeconomic approach. The article examines Beijing’s model for relations with Kabul, which is based on the principle*

*of "cooperation without official recognition". It also addresses Xinjiang's security concerns, the ETIM/TIP, ISIS-Khorasan, Al-Qaeda, and TTP factors, as well as China's strategic calculations within the framework of the BRI and CPEC initiatives. The Mes Aynak and Amu Darya Basin projects are interpreted as important indicators of China's cautious economic activity in Afghanistan. Methodologically, the article employs historical-analytical, systematic, comparative, content-analytical, and geopolitical research methods. The results of the political analysis indicate that China's relations with the Taliban are shaped by security needs, border stability, an interest in mineral resources and transport-transit capabilities, and a desire to strengthen its regional influence. In conclusion, the article argues that China, while refraining from a policy of rapid recognition, is building a long-term mechanism of influence through managed dialogue, selective investments, and regional coalitions.*

*Keywords: Taliban 2.0, Chinese foreign policy, Afghanistan, pragmatic realism, securitization, Xinjiang security, ETIM, TIP, ISIL-Khorasan, Al-Qaeda, TTP, BRI, CPEC, Mes Aynak, Amu Darya Basin, geoeconomics, Central Asia, SCO, trans-Afghan corridors, transport diplomacy.*

***Tolibon 2.0 hukumati davrida Xitoyning Afg'onistondagi siyosati: pragmatizm va iqtisodiy manfaatlar uyg'unligi***

***Annotatsiya.*** *Ushbu muallif maqolada Tolibon 2.0 davrida Xitoy Xalq Respublikasining Afg'oniston siyosati pragmatik realizm, sekuritizatsiya va geoiqtisodiy yondashuvlar kesishmasida tahlil qiladi. Maqolada Pekinning Kobulga nisbatan "tan olmasdan hamkorlik qilish" modeli, Shinjon xavfsizligi, ETIM/TIP, ISKP, Al-Qoida va TTP omillari, BRI hamda CPEC doirasidagi strategik hisob-kitoblari o'rganiladi. Mes Aynak va Amudaryo loyihalari Xitoyning Afg'onistondagi ehtiyotkor iqtisodiy faolligini ifodalovchi muhim indikatorlar sifatida talqin etiladi. Metodologik jihatdan maqola tarixiy-tahliliy, tizimli, qiyosiy, kontent va geosiyosiy tahlil usullariga tayanadi. Siyosiy tahlil natijalari Xitoyning Tolibon bilan munosabatlari xavfsizlik ehtiyoji, chegaraviy barqarorlik, mineral resurslar, transport-tranzit imkoniyatlari va mintaqaviy ta'sir manfaatlari asosida shakllanayotganini ko'rsatadi. Xulosa sifatida Xitoy Afg'onistonda tezkor tan olish siyosatidan tiyilib, boshqariladigan muloqot, selektiv investitsiya va mintaqaviy koalitsiyalar orqali uzoq muddatli ta'sir mexanizmini shakllantirayotgani asoslanadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Tolibon 2.0, Xitoy tashqi siyosati, Afg'oniston, pragmatik realism, sekuritizatsiya, Shinjon xavfsizligi, ETIM, TIP, ISKP, Al-Qoida, TTP, BRI, CPEC, Mes Aynak, Amudaryo havzasi, geoiqtisodiyot, Markaziy Osiyo, ShHT, Transafg'on koridorlari, transport diplomatiyasi.*

***Политика Китая в Афганистане при правительстве Талибана 2.0: сочетание прагматизма и экономических интересов***

***Аннотация.*** *В данной статье автор анализирует политику Китайской Народной Республики в отношении Афганистана в период «Талибана 2.0» на пересечении прагматического реализма, секьюритизации и геоэкономического подхода. В статье рассматриваются модель Пекина по отношению к Кабулу, основанная на принципе «сотрудничества без официального признания», вопросы*

*безопасности Синьцзяна, факторы ETIM/TIP, ИГИЛ-Хорасан, «Аль-Каиды» и TTP, а также стратегические расчёты Китая в рамках инициатив BRI и CPEC. Проекты Мес-Айнак и Амударьинского бассейна интерпретируются как важные индикаторы осторожной экономической активности Китая в Афганистане. В методологическом отношении статья опирается на историко-аналитический, системный, сравнительный, контент-аналитический и геополитический методы исследования. Результаты политического анализа показывают, что отношения Китая с «Талибаном» формируются на основе потребностей безопасности, приграничной стабильности, интереса к минеральным ресурсам, транспортно-транзитным возможностям и стремления к укреплению регионального влияния. В качестве вывода обосновывается, что Китай, воздерживаясь от политики быстрого признания Афганистана, формирует долгосрочный механизм влияния посредством управляемого диалога, селективных инвестиций и региональных коалиций.*

***Ключевые слова:*** *“Талибан 2.0”, внешняя политика Китая, Афганистан, прагматический реализм, секьюритизация, безопасность Синьцзяна, ETIM, TIP, ИГИЛ-Хорасан, “Аль-Каида”, TTP, BRI, CPEC, Мес-Айнак, Амударьинский бассейн, геоэкономика, Центральная Азия, ШОС, транс-афганские коридоры, транспортная дипломатия.*

## INTRODUCTION

The Taliban’s recapture of power in Kabul in August 2021 fundamentally altered the international and regional order around Afghanistan. Following the withdrawal of U.S. and NATO forces, the country transformed into a strategic arena where security, legitimacy, economic governance, the humanitarian crisis, and transnational transport projects simultaneously converged. This process has compelled a reconsideration of the distribution of responsibilities among global powers. Concurrently, for neighboring countries, notably China, Pakistan, Iran, Russia, and the Central Asian republics, the Afghan issue ceased to be a peripheral foreign policy concern[1]; it has evolved into a central matter tied to border security, economic connectivity, and diplomatic standing.

The concept of “cautious pragmatism” is particularly significant in explaining China's current policy toward Afghanistan[2]. While Beijing has not rushed to grant de jure recognition to the Taliban administration, it has not suspended embassy activities, high-level meetings, humanitarian aid, security consultations, trade preferences, or mining negotiations. By accepting the credentials of the Taliban-appointed Afghan ambassador in January 2024, China officially left the issue of

[1] F. Zhang. China’s new engagement with Afghanistan after the withdrawal. LSE Public Policy Review, 2(3), 2022. –P. 49. Article 10. // Electron resource: https://ppr.lse.ac.uk/articles/10.31389/lseppr.52

Торговые договоренности тоже имеют место в монографии А. К. Камалова. К примеру, автор, ссылаясь на «Цэфу юань гуй» главу «999» раздел «Вайчэнь бу жуцзинь» (外臣部 入覲 «Министерство иностранных дел») и на «Тан хуйэяо» главу «72» раздел «Цзинчэн чжу цзюнь» (京城諸軍 «столичная армия») рассказывает, что все те же уйгуры приходили в танскую империю с лошадьми для торговли с 815 года до 830. По мнению автора каждый раз размер шелка отданный в замены лошадям уменьшалось т.е. если в первом было «100 тысяч, кусков шелка» то соответственно в следующих уменьшалось на 60 тысяч, а затем на 25 тысяч и 10 тысяч. Однако автор не сообщает о количестве привезенных уйгурами лощадей (Камалов, 2017, с. 328.).

Еще один довод в пользу своей теории А.К. Камалов рассказывает о прибытиях уйгурских послов в танский двор с дарами в 831-839 годах. Из-за огромного количество предложенных уйгурам отрезов шелка автор предполагает, что эти «даннические отношения» на самом деле были

[1] Яглакар Лин – уйгурский посланник китайского происхождения периода династии Тан.
[2] Ачжо каган – Шестой каган Уйгурского каганата (г. пр. 791-795).
[3] Бо Цзюйи (772-846)– китайский поэт эпохи Тан.

торговыми. Но, к сожалению, он не указывает источников (Камалов, 2017, с. 329.).

**ОБСУЖДЕНИЕ**

Проведённый анализ трудов А.К. Камалова показывает, что автор привлекает широкий круг китайских письменных источников и современной литературы. Однако при проверке ссылок выявляются следующие существенные расхождения:

В главе 195 есть сведения о нападениях на рынки Танской династии во всех подробностях как дает А.К. Камалов. Частности автор утверждает участие уйгурского посла Чисинь[1] в освобождении арестованных уйгуров за грабеж, который тоже отражен в письменном источнике (Liu, 1975, p. 5576.);

В главе 14 «Цзю Таншу» есть сведения о просьбе возведения манихейских храмов, но сведений с просьбой уйгурских манихейцев о заключении брака с императорской семьей в главе 49 сочинения «Тан хуэйяо» мы не обнаружили (Wangpu, 2006, p. 4421). Более того, автор ошибочно записал императора Сянь-цзуна, как Сюань-цзуна (Liu, 1975, p. 1156.);

В главе 212 «Синь Таншу» мы не обнаружили фактов прибытия уйгуров во главе Ли Чаном в Китай[2], но они даны в главе 224 «Цзычжи тунцзянь», правда сведений об обмене лошадей на шелк там не нет (Sima, 1956, p. 4552.);

В главе 227, помимо сведений о судьбе танского посла, который доставил тела четырех высокопоставленных уйгуров в Орду-балык[3] и был посажен в темницу на пятьдесят дней. Отметим, что названия «Орду-балык» в источнике нет, но присутствует иероглиф *го* (国, *государство*), который также означает *столица* (Sima, 1956, p. 8809.);

В главе «223» есть сведения о условии династии Тан к уйгурам. Во время изучения этих сведений выяснилось, что автор дает нам название торговцев-согдийцев как «*шанху*». Однако автор не дает нам ни иероглифов, ни указаний на этот термин. Несмотря на это удалось найти иероглиф торговцев-согдийцев как «商胡» (Sima, 1956, p. 6679.);

В главе «195» есть сведения о Яглакар Лин, но иероглифы имени даны письменном источнике как 药罗葛灵 что переводится как Яологэ Лин. Не учитывая это, можно все сведения были успешно переведены (Ouyang, 1975, p. 8224.);

[1] Чисинь – уйгурский посланник династии Тан.
[2] Ли Чан – уйгурский посланник периода династии Тан.
[3] Орду-балык – первая столица Уйгурского каганата.

В главе «999» есть сведения о уменьшениями объема шелка из года в год, но не удалось найти о цифрах 25 тысяч и главе «72» 10 тысяч (Wang, 1960, p. 2733.);

В статье Дроппа в указанных страницах есть сведения о уйгурском переводчике Ши Фоцин и предположений его согдийской предножлежности. Но данные о ведомости «Хунлусы» найти не удалось кроме как сведений о специальном Суде по дипломатическим отношениям, которые имелись там (Камалов, 2017, с. 109.).

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

Проведённый анализ трудов А.К. Камалова «Древние уйгуры VII–IX вв.» и «Тюрки и иранцы в танской империи» позволяет сделать следующие выводы.Работы автора вносят значительный вклад в изучение роли уйгурских политических образований в торгово-дипломатических связях Китая и Центральной Азии в эпоху династии Тан. Камалов привлекает широкий круг китайских письменных источников и современной историографии, выделяет основные категории посольских отношений (даннические, военные, траурные и брачные), фиксирует периоды активных контактов, факты торговых обменов, брачных союзов, распространения манихейства, а также институты заложничества и посредничества. Вместе с тем критическое сопоставление приводимых автором сведений с текстами династийных хроник («Цзю Тан шу», «Синь Тан шу», «Цзы чжи тун цзянь», «Тан хуэй яо» и др.) выявило ряд существенных неточностей: ошибки в именах императоров, отсутствие отдельных фактов в указанных главах источников, неполноту количественных данных и спорность интерпретации характера некоторых миссий (даннических или торговых). Несмотря на отмеченные недостатки, исследования А.К. Камалова сохраняют научную ценность. Они содержат малоизвестные сведения о взаимодействии танского Китая с уйгурами, согдийцами и тюркскими племенами, подчёркивают этнокультурный симбиоз этих народов и показывают важную стабилизирующую роль Уйгурского каганата в обеспечении безопасности торговых путей и функционировании трансрегиональных коммуникаций.

Таким образом, уйгурские политические образования выступали не только активными участниками, но и значимым посредником в системе торгово-дипломатических связей Восточной и Центральной Азии в VII–IX вв. Дальнейшее изучение темы требует более тщательной верификации ссылок на китайские источники и привлечения дополнительных материалов.

# Hindiston diasporasining ta’lim va intellektual salohiyati

***MADINAXON SAMIYEVA***
*Tayanch doktorant, TDSHU*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Hindiston diasporasining tarixiy shakllanish jarayoni, uning malakaviy tarkibidagi evolyutsiya, ta’lim bilan bog‘liq migratsiya oqimlari va mamlakatga iqtisodiy hamda ijtimoiy ta’siri tahlil qilingan. Dastlab “miya oqimi” sifatida baholangan yuqori malakali mutaxassislar migratsiyasi keyinchalik “miya yutug‘i” konsepsiyasi asosida ijobiy talqin qilina boshladi. Maqolada diaspora vakillarining xalqaro siyosat, iqtisodiyot, texnologiya va ta’lim sohalaridagi muvaffaqiyatlari Hindistonning global imidjini oshirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, xalqaro talabalar mobililigi, xorijiy ishchi kuchi siyosati va diasporaning texnologik-investitsion salohiyati orqali Hindistonning rivojlanish jarayoniga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari diasporani strategik resurs sifatida ko‘rib chiqish zaruratini asoslaydi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Hindiston diasporasi, migratsiya, ta’lim, miya oqimi, miya yutug‘i, xalqaro talabalar, remittances.*

***Annotation.*** *This article analyzes the historical formation of the Indian diaspora, its evolution in terms of skill composition, migration flows related to education, and its economic and social impact on the country. The migration of highly qualified specialists, initially assessed as a “brain drain”, later began to be interpreted positively based on the concept of “brain gain”. The article highlights the role of the successes of diaspora representatives in the fields of international politics, economics, technology, and education in enhancing India’s global image. It also analyzes the contribution of international student mobility, foreign labor policy, and the diaspora’s technological and investment potential to India’s development process. The research results substantiate the need to consider the diaspora as a strategic resource.*

***Keywords:*** *Indian diaspora, migration, education, brain drain, brain gain, international students, remittances.*

***Аннотация.*** *В данной статье анализируются исторический процесс формирования индийской диаспоры, эволюция её профессионально-квалификационного состава, миграционные потоки, связанные с образованием, а также её экономическое и социальное влияние на развитие Индии. Миграция высококвалифицированных специалистов, первоначально рассматривавшаяся как «утечка мозгов» (brain drain), со временем стала интерпретироваться в рамках концепции «притока мозгов» (brain gain). В статье раскрывается роль представителей индийской диаспоры в укреплении глобального имиджа Индии благодаря их достижениям в сфере международной политики, экономики, технологий и образования. Кроме того, рассматривается вклад диаспоры в развитие страны через международную студенческую мобильность, политику привлечения иностранной рабочей силы, а также её технологический и инвестиционный потенциал. Результаты исследования подтверждают*

*необходимость рассмотрения диаспоры как важного стратегического ресурса государства.*

***Ключевые слова:*** *индийская диаспора, миграция, образование, утечка мозгов, приток мозгов, международные студенты, денежные переводы.*

**Kirish.** XXI asrda migratsiya global rivojlanishning eng muhim jarayonlaridan biriga aylandi. Iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi, transport va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, shuningdek, ta’lim va mehnat bozorlarining xalqaro tus olishi aholi harakatchanligini sezilarli darajada kuchaytirdi. Bugungi globallashuv sharoitida insonlarning tug‘ilib o‘sgan hududidan tashqarida yashashga intilishi kuchayib bormoqda. Ushbu migratsion jarayonlar ham mamlakat ichida, ham xalqaro darajada namoyon bo‘lmoqda. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisining taxminan 12 foizi o‘z mamlakati hududida boshqa joyga ko‘chib yashayotgan bo‘lsa, 3,3 foizi xorijiy davlatda yashamoqda [1]. Natijada, bir milliarddan ortiq insonning o‘z vatani tashqarisida yashashi migratsiyani zamonaviy global rivojlanishning muhim va ajralmas tarkibiy qismiga aylantirgan.

UNESCOda ta’kidlanganidek, “Migratsiya insonning xavfsizlik, qadr-qimmat va farovon kelajak sari intilishining ifodasidir.” [2]. Odatda, aholi iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan hududlardan resurslarga boy va rivojlangan mintaqalarga ko‘chishga moyil bo‘ladi. Bu harakatlar siyosiy, etnik, diniy hamda iqtisodiy omillar ta’sirida yuzaga kelib, ixtiyoriy yoki majburiy xarakter kasb etishi mumkin. Xususan, qochqinlar va boshpana izlovchilar ommaviy oqimi majburiy migratsiyaning yaqqol namunasidir. An’anaviy ravishda, bunday transchegaraviy ko‘chishlar “diaspora” tushunchasi orqali ifodalangan. Biroq vaqt o‘tishi bilan migratsiya jarayonlarining faqat travmatik yoki majburiy omillar bilan cheklanmasligi, balki ta’lim, mehnat va iqtisodiy imkoniyatlari bilan bog‘liq holda amalga oshishi natijasida ushbu atama xorijda yashovchi jamoalarning turli shakllarini qamrab oluvchi kengroq mazmunga ega bo‘ldi.

XXI asrda taxminan 98 million kishi, asosan, rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlangan davlatlarga migratsiya qilgan [3]. Hindiston ham ichki va xalqaro migratsiya jarayonlarining yirik markazlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat ichki migratsiyasi asosan qishloqlardan shaharlarga yo‘nalgan bo‘lib, 2011–2016-yillar

[1] United Nations Educational Scientific and Cultural Organization. (2018). Migration, Displacement and Education: building bridges, not walls, Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO.
[2] United Nations Educational Scientific and Cultural Organization. (2018). Migration, Displacement and Education: building bridges, not walls, Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO.
[3] United Nations. (2019). International migrant stock 2019. New York: Department of Economic and Social Affairs, Population Division, UN.

oralig‘ida har yili o‘rtacha 9 million kishi bir shtatdan boshqasiga ko‘chib o‘tgan [1]. Xalqaro migratsiya esa ko‘proq rivojlangan davlatlar hamda Yaqin Sharq mamlakatlariga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda ishga joylashish, yaxshi ish haqi va qulay mehnat sharoitlari asosiy rag‘batlantiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘lgan. 2019-yilda global miqyosdagi 272 million xalqaro migrantlar orasida Hindiston eng yirik diasporalardan biriga ega mamlakat sifatida qayd etilib, xorijda yashovchi hindistonlik migrantlar soni 17,5 million kishini tashkil qilgan[2]. Ushbu maqolada Hindiston diasporasining tarixiy transformatsiyasi tahlil qilinadi. Dastlab savodsiz yoki kam malakali plantatsiya ishchilari ko‘rinishida boshlangan diaspora vaqt o‘tishi bilan iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda yuqori malakali va bilimli ishchi kuchi sifatida shakllandi. Ushbu o‘zgarish asosan ikki asosiy yo‘nalish orqali amalga oshgan: birinchisi oliy ma’lumotli fuqarolarning xorijda ishga joylashishi bo‘lsa, ikkinchisi esa talabalarning chet elda ta’lim olish orqali keyinchalik diaspora tarkibiga qo‘shilishi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, maqolada diaspora vakillarining mezbon mamlakatlardagai kasbiy yutuqlari ularning Hindistondagi siyosiy va iqtisodiy ta’sirini kuchaytirgani hamda Hindistonning global nufuzini mustahkamlashdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Maqola sakkiz asosiy bo‘limdan iborat bo‘lib, ikkinchi bo‘limda migratsiya va rivojlanishga oid nazariy masalalar ko‘rib chiqiladi. Uchinchi bo‘lim Hindistonning diaspora siyosatidagi evolyutsiyasiga bag‘ishlangan. To‘rtinchi bo‘limda diaspora vakillarining kasbiy hamda ijtimoiy tarkibidagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Beshinchi va oltinchi bo‘limlarda ta’lim omili hamda diaspora miqdoriy o‘sishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik yoritiladi. Yettinchi bo‘lim diasporaning Hindiston iqtisodiyoti va ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasini tahlil qilishga qaratilgan. Yakuniy bo‘limda esa tadqiqot bo‘yicha umumiy xulosalar bayon etiladi.

**Metodlar.** Mazkur tadqiqotda tarixiy-tahliliy, qiyosiy va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning manbaviy asosini BMT, UNESCO, Jahon banki va Hindiston hukumati hisobotlari hamda migratsiya va diaspora masalalariga oid ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Tarixiy metod orqali Hindiston diasporasining shakllanish va rivojlanish bosqichlari o‘rganildi, qiyosiy tahlil yordamida migratsiya jarayonlari va diaspora siyosatidagi o‘zgarishlar baholandi. Shuningdek, statistik ma’lumotlar asosida diasporaning ta’lim, iqtisodiyot va ilm-fan sohalaridagi o‘rni tahlil qilindi.

**Natijalar va muhokama.**

[1] United Nations Educational Scientific and Cultural Organization. (2018). Migration, Displacement and Education: building bridges, not walls, Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO.

[2] United Nations. (2019). International migrant stock 2019. New York: Department of Economic and Social Affairs, Population Division, UN.

**Migratsiyaning rivojlanishga ta’siri.** Migratsiya rivojlanish jarayonining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan va u turli hududlarda va turli davrlarda har xil omillar ta’sirida shakllangan. Tarixdagi eng yirik mehnat migratsiyasi – bu qullar savdosi bo‘lgan. Qullar asosan Afrikadan Amerikaga, Yevropaga va Karib dengizi orollariga olib ketilgan. Qullar savdosi Britaniyada 1807-yilda va AQShda 1865-yilda bekor qilinganidan so‘ng, qullarni ko‘paytirish amaliyoti paydo bo‘ldi. Keyingi bosqich esa shartnoma asosidagi mehnat migratsiyasi edi. Bu bosqichda asosiy davlatlar: Xitoy va Hindiston bo‘lgan. Xitoyliklar asosan AQShga borib, oltin konlari va temiryo‘l qurilishlarida ishlagan bo‘lsalar, hindistonliklar mehnat migrantlari esa Britaniya, Gollandiya, Fransiya va Portugaliya mustamlakalaridagi plantatsiyalarda ishlaganlar. Yevropadan AQSh, Kanada, Lotin Amerikasi, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Janubiy Afrikaga ommaviy migratsiya esa sanoatlashuv jarayonida ish o‘rinlarining yo‘qolishi va kartoshka ocharchiligi tufayli yuz bergan[1].

BMT ma’lumotiga ko‘ra, migratsiyaga oilani birlashtirish, boshpana izlash, ishga joylashish va tahsil olish kabi sabablar turtki bo‘ladi. Biroq, aksariyat hollarda ixtiyoriy migratsiyaning bosh sababi iqtisodiy manfaat bo‘lgan. Sanoatlashuv davrida imperatorlik kuchlarining iqtisodiy ehtiyojlari migrantlar oqimini boshqargan. Mustamlakachilikdan keyingi davrda esa migratsiya oqimlariga ham migrantlar, ham ularni qabul qiluvchi davlatlar iqtisodiy manfaatlari ta’sir ko‘rsatgan[2]. Ishga joylashish migratsiyaning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Migrantlar ko‘pincha o‘z yurtida topadigan daromaddan ko‘proq topish uchun boshqa joyga boradi. Bu, hatto, u yerdagi mahalliy ishchilar bilan solishtirganda ularning ish haqi past bo‘lsa ham haqiqatdir. Sababi, ularning o‘z yurtiga yuboradigan pul mablag‘lari (valyuta kursi tufayli) u yerda topganidan ko‘ra ko‘proq bo‘ladi. Daromad farqlari tufayli migratsiya ikki sababga tayanadi:

1. Uy xo‘jaliklari daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va kambag‘allik xavfini kamaytirish.

2. Yuqori daromadli ishlar orqali oila a’zolarini qo‘llab-quvvatlash.

Xususan, Keraladan kelgan kam malakali hind ishchilarining Yaqin Sharq davlatlariga migratsiyasi bunga misoldir[3]. Aksincha, yuqori malakali ishchilar odatda farovon oilalardan chiqadi va ular o‘z yurtida ham ish topa olishiga qaramay, rivojlangan mamlakatlarda yanada yaxshi imkoniyatlar uchun migratsiya qilishadi. Masalan, AQShda ikki milliondan ortiq hindistonlik migrantlar yashaydi. Kam malakali ishchilarni qabul qiluvchi davlatlar ularni

[1] United Nations. (1997). International Migration and Development: A concise Report. New York: UN.
[2] United Nations. (1998). International Migration Policies. New York: UN.
[3] Prakash, B.A. (1998). Gulf migration and its economic impact: Kerala expe rience. Economic and Political Weekly 33(49), 3209-13.

vaqtinchalik arzon ishchi kuchi sifatida qadrlashadi. Bu migrantlar odatda “3D ishlar” deb ataluvchi - “iflos, xavfli va og‘ir” ishlarni bajarishadi, bu esa mahalliy aholi tomonidan rad etiladi [1].

XX asrning ikkinchi yarmida, xususan 1970-yillardan boshlab Yevropadagi tug‘ilish darajasining pasayishi va mahalliy yoshlarning past maoshli ishlar bilan shug‘ullanishni istamasligi migratsiyani rag‘batlantirdi. Ish beruvchilar uchun mahalliy aholini ishga olishdan ko‘ra, migrantlarni yollash arzonroq bo‘ladi. Shuning uchun ular kam maoshga, ammo yuqori unumdorlikka ega migrantlarni tanlaydilar.

Yuqori malakali migratsiya esa iqtisodiy tomondan yanada jiddiyroq ta’sirga ega. Rivojlangan davlatlar yuqori malakali ishchilarni qabul qilish orqali:

- o‘z aholisini malakali sohalarda o‘qitish xarajatlaridan qutuladi;
- arzonroq maosh to‘laydi;
- ilmiy tadqiqotlar sohasida katta foyda ko‘radi.

Migrantlarni yuboruvchi davlatlar esa migrantlardan keladigan valyuta tushumlari (remittances) orqali foyda ko‘radi. Ushbu mablag‘lar kam rivojlangan mamlakatlar uchun eng muhim tashqi moliyaviy manbalaridan biri hisoblanadi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2018-yilda butun dunyo bo‘yicha xalqaro pul o‘tkazmalari (remittances) hajmi 689 milliard AQSh dollariga yetgan bo‘lib, shundan 79 milliard dollari Hindistonga to‘g‘ri kelgan. Bunday migratsiya jarayonlarida, ayniqsa, yuqori malakali yosh mutaxassislar faol ishtirok etgan. 2019-yilda jahon miqyosidagi migrantlarning 74 foizi 20–64 yosh oralig‘idagi iqtisodiy faol aholi qatlamiga mansub bo‘lgan [2]. Mazkur yosh toifasidagi migrantlar yirik iqtisodiyotlar, xususan, Yevropa davlatlari va AQSh mehnat bozorining rivojlanishi hamda ishchi kuchining o‘sishida muhim rol o‘ynagan. Yuqori malakali migrantlar oqimi natijasida qabul qiluvchi davlatlarda malakali ishchi kuchi ko‘payib, inson kapitali va texnologik salohiyatning oshishiga xizmat qilgan.

Dastlab “miya oqimi” mamlakatlar uchun salbiy deb baholangan. Biroq keyinchalik, agar to‘g‘ri boshqarilsa, bunday migratsiya qabul qiluvchi hamda jo‘natuvchi davlatlar uchun o‘zaro manfaatli bo‘lishi mumkinligi tan olina boshlandi.

**Hindistonning diaspora siyosatlari.** Mustamlaka davrida Hindiston migratsiyasi asosan majburiy xarakterga ega bo‘lgan bo‘lsa, mustaqillikdan so‘ng u ixtiyoriy shaklga o‘tdi. Hindiston hukumati 1990-yillargacha migratsiya siyosatida faol rol o‘ynamay, ko‘proq tomoshabin sifatida qatnashgan. Biroq, 1990-yillardan boshlab hukumat yondashuvida keskin burilish yuz berdi, ya’ni

[1] United Nations. (2000). World Migration Report 2000. New York: UN.

[2] United Nations. (2019). International migrant stock 2019. New York: Department of Economic and Social Affairs, Population Division, UN.

diasporani ilgari “miya oqimi” deb qaragan bo‘lsa, endi uni mamlakat uchun boylik sifatida ko‘rila boshlandi.

Ushbu yondashuv o‘zgarishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, ularning ichida quyidagi uchta omil muhum ahamiyat kasb etadi:

1. 1990-yillardagi iqtisodiy liberallashtirish siyosati – mazkur davrda diaspora savdo, investitsiya va texnologiyalarni Hindistonga jalb etishda ishonchli hamkor hamda muhim iqtisodiy resurs sifatida qarala boshlandi.

2. Pul o‘tkazmalari (remittances) hajmining keskin ortishi – Hindiston iqtisodiyotiga diaspora tomonidan yuborilgan mablag‘lar hajmi sezilarli darajada oshib, ayrim davrlarda xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar (FDI) hajmiga tenglashgan yoki undan yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etgan.

3. Diaspor vakillarining xalqaro nufuzga erishishi – hind diasporasining ayrim vakillari xorijiy davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va ilmiy doiralarida yuqori mavqega ega bo‘lib, Hindistonning xalqaro imidji hamda “yumshoq kuch” (soft power) salohiyatining mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Jumladan, Irlandiya bosh vaziri Leo Varadkar, Portugaliya bosh vaziri Antonio Kosta, Surinam vitse-prezidenti Ashvin Adhin hind diasporasi kelib chiqishiga ega siyosiy arboblar hisoblanadi. Shuningdek, IT mutaxassislari, biotexnologlar, moliyachilar, olimlar, yuristlar, va professorlar ham jahon miqyosida o‘z sohalarida muvaffaqiyatga erishganlar.

Ushbu jarayonda hukumat tomonidan diaspora bilan aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan bir qator tashabbuslar amalga oshirildi. Jumladan, 1999-yilda Hindiston hukumati “Hindiston kelib chiqishiga ega shaxslar kartasi” (PIO card) tizimini joriy etdi. Bu hujjat Hindiston fuqarolari hamda ularning xorijda yashovchi, to‘rt avlodgacha bo‘lgan avlodlariga taqdim etilgan. Shuningdek, 2005-yilda “Hindistonning xorijdagi fuqaroligi” (OCI card) tizimi joriy qilinib, ushbu hujjat ota-onasi yoki bobo-buvilaridan biri 1950-yil 26-yanvargacha Hindiston bilan fuqarolik jihatdan bog‘liq bo‘lgan shaxslarga berildi. Mazkur karta egalariga Hindistonda mulk sotib olish, biznes yuritish hamda mamlakatga uzoq muddatli kirib-chiqish imkoniyatlari yaratilgan bo‘lsada, ularga saylovlarda ishtirok etish huquqi berilmagan.

Diaspora bilan aloqalarni institutsional darajada mustahkamlash maqsadida 2003-yilda “Pravasi Bharatiya Divas” nomli birinchi diaspora konferensiyasi tashkil etildi. Bu tadbir hukumat, diaspora vakillari hamda xususiy sektor o‘rtasida muloqot platformasiga aylandi. Keyinchalik ushbu konfrensiya muntazam ravishda o‘tkazila boshlanib, Hindistonning turli shtatlari ham diaspora bilan hamkorlikni rivojlantirish maqsadida o‘z konfrensiyalarini tashkil qildilar.

2004-yil may oyida diaspora bilan aloqalarni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish maqsadida Xorijdagi hind fuqarolari ishlari vazirligi tashkil etildi hamda 2004-yil

sentyabr oyida u Xorijdagi hindlar ishlari vazirligi (Ministry of Overseas Indian Affairs – MOIA) deb qayta nomlandi. 2016-yilda esa mazkur vazirlik Hindiston Tashqi ishlar vazirligi bilan birlashtirildi.

MOIA tomonidan diaspora bilan aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan bir qator dasturlar amalga oshirildi. Jumladan, "Hindistonni bilish dasturi" (Know India Programme – KIP) orqali 18–26 yoshdagi diaspora yoshlari uchun Hindistonga tashriflar uyushtirlib, ularning tarixiy vatan bilan aloqalarini mustahkamlash maqsad qilingan. Shuningdek, 2008-yilda yo‘lga qo‘yilgan "Izlarni qidirish" (Tracing the Roots) dasturi PIO vakillariga o‘z ajdodlari ildizlarini aniqlashda ko‘maklashishga qaratilgan. Bundan tashqari "Global Initiative for Academic Networks" (GIAN) dasturi doirasida xorijlik, jumladan diaspora olimlari Hindiston universitetlariga qisqa muddatli pedagogik va ilmiy faoliyat uchun jalb etilgan. Xususan, 2017/18-yilida ushbu dasturda 56 davlatdan 1800 nafar olim ishtirok etgan. Shu bilan birga, "Scheme for Promotion of Academic and Research Collaboration" SPARC dasturi orqali xalqaro nufuzli oliy ta’lim muassasalari bilan ilmiy hamkorlikni rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Mazkur dasturlar diaspora vakillarini Hindistonning ilm-fan hamda oliy ta’lim tizimiga jalb etishda muhim vosita sifatida xizmat qilgan.

**Migratsiya tarixida Hindiston ishchi kuchining o‘zgaruvchan roli.** Hindistonliklarning xalqaro migratsiyasi 1830-yillarda boshlangan bo‘lib, dastlab bu harakat asosan shartnoma asosidagi mehnat tizimi (indentured labour system) doirasida amalga oshirilgan. Bu davrda hind ishchilari Britaniya, Gollandiya, Fransiya va Portugaliya mustamlakalariga yuborilgan. Hindistonlik ishchilarning ilk guruhi 1834-yilda Hindistondan Mavrikiy oroliga yuborilgan. Keyinchalik migratsiya oqimlari Sharqiy va Janubiy Afrika, Karib havzasi davlatlari va orollariga (Gayana, Surinam, Trinidad va Tobago), Osiyo davlatlariga (Birma va Malaya), shuningdek, Tinch okeani mintaqasidagi Fiji orollariga ham kengaygan. Mazkur migrantlarning katta qismi savodsiz yoki kam malakali bo‘lib, asosan plantatsiyalar, temir yo‘l qurilishi va boshqa og‘ir mehnat talab qiluvchi sohalarda faoliyat yuritgan. XIX asr davomida millionlab hindistonliklar xorijga ko‘chib ketgan bo‘lib, ayrim manbalarda bu ko‘rsatkich taxminan 30 million nafar deb qayd etiladi. Bundan tashqari, XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida panjoblik migrantlar AQShning Kaliforniya shtatida qishloq xo‘jaligi sohasida faol mehnat qilganlar.

Keyingi yirik migratsiya to‘lqini 1947–1950-yillar oralig‘ida Hindiston va Pokiston o‘rtasidagi bo‘linish davrida ro‘y bergan. Bu davrda taxminan 12–18 million kishi yangi shakllangan davlatlar chegaralarini kesib o‘tgan. Ushbu migratsiya asosan diniy omil bilan bog‘liq bo‘lib, musulmonlar Hindistondan Pokistonga, hindlar va sikxlar esa Pokistondan Hindistonga ko‘chib o‘tganlar. Shuningdek, 1971-yilda Sharqiy Pokistondagi (hozirgi Bangladesh) urush davrida

qariyib 10 million qochqin Hindistonga kirib kelgan. Bu holatlar majburiy migratsiyaning muhim tarixiy misollari sifatida baholanadi. 1950–1960-yillarda hindistonliklar migratsiyasida asosan ikki yo‘nalish kuzatilgan. Birinchisi, kam malakali ishchilarning mehnat migratsiyasi bo‘lib, ular asosan Buyuk Britaniyaga yo‘l olgan. Ikkinchisi esa mustamlakachilik davrida turli hududlarda shakllangan hind diasporasining keyingi migratsiyasi bo‘lib, ular asosan Yevropa davlatlariga ko‘chib o‘tganlar. Jumladan, Afrikadagi hind diasporasi vakillari Buyuk Britaniyaga, Surinamdagi hindlar Niderlandiyaga, Hindixitoy, Madagaskar va Mavrikiydagi hindlar Fransiyaga, shuningdek, Angoladagi va Mozambikdagi hindlar Portugaliyaga migratsiya qilganlar [1].

1970-yillarga kelib, hindistonliklarning xalqaro migratsiyasi tobora ixtiyoriy xususiyat kasb eta boshladi. 1980-yillarda esa, Yaqin Sharq mamlakatlariga yo‘naltirilgan migratsiya Hindiston diasporasi tarkibining 90% dan ortig‘ini tashkil qilgan. Yaqin Sharq davlatlariga ko‘chib ketayotganlar asosan kam malakali va yarim malakali ishchilardan iborat bo‘lib, ular ko‘pincha iqtisodiy jihatdan nochor oilalardan chiqqan hamda yuqori daromad va yaxshiroq turmush sharoitlarini izlab ketishgan. Bu toifadagi migrantlar asosan Kerala shtatidagi aholini tashkil etgan. Yaqin Sharq mamlakatlarida iqtisodiy rivojlanish sur’atlarining ortishi va ishchi kuchiga bo‘lgan ehtiyojning hind migrantlarini faol jalb qilishga zamin yaratgan. Xususan, ayrim Fors ko‘rfazi mamlakatlarida xorijiy ishchi kuchi aholining katta qismini tashkil etgan: masalan, Qatar aholisining taxminan 76 foizi, Quvayt aholisining 65 foizi hamda Birlashgan Arab Amirliklari aholisining 73 foizi xorijiy fuqarolardan iborat bo‘lgan. Bunga parallel ravishda, yuqori malakali hind mutaxassislari asosan ingliz tilida so‘zlashuvchi rivojlangan davlatlar - AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya va Kanadaga migratsiya qilganlar. Ular, odatda, yaxshi ta’lim olgan hamda nisbatan yuqori ijtimoiy-iqtisodiy qatlam vakillari hisoblangan.[2]

1990-yillarda Hindistondan, ayniqsa, yuqori malakali mutaxassislarning AQShga migratsiyasi sezilarli darajada kuchaydi. Mazkur davrda taxminan 650 ming nafar hindistonlik mutaxassis AQSh ga ko‘chib o‘tgan. Bu migratsiya, ayniqsa, Hindistonning eng nufuzli oliy ta’lim muassasalari - Hindiston Texnologiya Institutlari (Inidan Institutes of Technology – IIT) bitiruvchilari orasida keng tarqalgan. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, har xil sohalar bo‘yicha IIT bitiruvchilarining qariyb 30 foizi, kompyuter fanlari bo‘yicha bitiruvchilarning esa 80 foizigacha bo‘lgan qismi AQShga migratsiya qilgan.

2019-yilga kelib, xorijda yashayotgan hind fuqarolari soni 31.5 million kishini tashkil qilgan, shundan 14 million nafari hali ham Hindiston fuqaroligini saqlab qolgan. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, Hindiston diasporasi dunyodagi eng yirik

[1] Government of India. (2002). High Level Committee on Indian Diaspora. New Delhi: MHRD.
[2] United Nations. (2000). World Migration Report 2000. New York: UN.

diasporalardan biri hisoblanib, 146 ta davlatga tarqalgan va global migratsiya aholining 6.4 foizini tashkil qilgan. Hind diasporasining eng yirik markazlari asosan BAA, AQSh, Saudiya Arabistoni, Quvaytda jamlangan.

**Ta’lim va diaspora – yuqori malakali migratsiya.** Yaxshiroq ta’lim olgan shaxslar odatda ixtiyoriy migratsiyani afzal ko‘radilar, chunki bu ularga bilim uchun investitsiyalarning daromadini maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Ta’lim darajasi bilan migratsiyaga moyillik o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud. Statistikaga ko‘ra:

- ta’limsiz kishilar migratsiyani eng kam tanlaydi,
- boshlang‘ich ta’limga ega bo‘lganlar - ta’limsizlarga qaraganda 2 barobar ko‘proq migratsiya qiladi,
- o‘rta ta’limga ega bo‘lganlar - 3 barobar,
- oliy ta’limga ega bo‘lganlar esa - 4 barobar ko‘proq migratsiya qiladi [1].

Ko‘p hollarda, migrantlarning o‘rtacha ta’lim darajasi ularning vatani va qabul qiluvchi mamlakat aholisi o‘rtacha darajasidan yuqori bo‘ladi.

Hindiston Fan va Sanoat Tadqiqot Kengashi (CSIR) 1940-yillarning oxirida Milliy ilmiy-texnik kadrlar ro‘yxatini tuzdi. 1957-yildan boshlab, ushbu ro‘yxatda "Chet eldagi hindlar" bo‘limi paydo bo‘lgan. U yerda ilmiy darajaga ega bo‘lgan (magistr yoki doktorantura) hindistonliklar haqidagi ma’lumotlar jamlangan. Yuqori malakali hindistonliklar uchun asosiy manzil - AQSh, undan keyin boshqa “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti” (Organisation for Economic Co-operation and Development — OECD) davlatlari. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) ma’lumotiga ko‘ra, 2001-yil atrofida har yili taxminan 100 ming hindistonlik professional mutaxassis AQSh ish vizasiga ariza topshirgan. Bu migratsiya tendensiyasi Hindistonda o‘qitilayotgan kadrlar bilan mahalliy sanoat ehtiyojlari o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatadi. Mustaqillikning ilk yillarida Hindiston IIT va IIM kabi nufuzli muassasalarni tashkil etdi, ammo sanoat ulardan yetarli darajada foydalana olmadi. Shu sababli, ko‘plab malakali bitiruvchilar xorijga ketishga majbur bo‘lgan. Biroq bu vaziyat keyinchalik o‘zgardi. 1990-yillarda Hindistonda iqtisodiy o‘sish tezlashdi va ishlab chiqarishni boshqa davlatlarga topshirish (BPO) sektori rivojlandi. Ko‘plab xalqaro kompaniyalar Hindistonga kela boshladi, va xorijda yashayotgan hindlar mamlakatga qaytishni boshladi. Shu bilan, ilgari “miya oqimi” deb qaralgan hodisa endilikda “miya yutug‘i” sifatida e’tirof etildi. Bugungi kunda Hindiston - rivojlangan mamlakatlar, shuningdek Janubi-Sharqiy Osiyodagi Singapur va Malayziya kabi davlatlar uchun eng talabgir bilimli kadrlar manbai hisoblanadi. Hindiston diasporasi a’zolari ilm-fan va texnologiya sohasidagi yutuqlari bilan bir qator davlatlarda e’tirof etilmoqda. Bu esa ko‘plab davlatlarni hind mutaxassislarini jalb qilishga undadi. Jumladan,

[1] United Nations Educational Scientific and Cultural Organization. (2018). Migration, Displacement and Education: building bridges, not walls, Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO.

Germaniya “Yashil karta” dasturi, AQSh H1-B vizasi, Buyuk Britaniya ish ruxsati, Kanada investitsion vizasi, Avstraliya talaba vizasi, Yangi Zelandiya fuqaroligi – bularning barchasi hind mutaxassislarini jalb qilish maqsadida yo‘lga qo‘yilgan.

**Ta’lim va diaspora – tahsil olish uchun migratsiya.** Bugungi kunda yangi avlod migrantlari, odatda, avvalgi avlodlarga nisbatan yanada yuqori ta’lim darajasi bilan ajralib turadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development – OECD) ma’lumotlariga ko‘ra, 2010/11-yillarga kelib, OECD davlatlarida oliy ma’lumotli migrantlar soni 70 foizga oshib, deyarli 30 million kishiga yetgan. Bu o‘sish, asosan, Osiyo davlaridan bo‘lgan migratsiya hissasiga to‘g‘ri keladi. XXI asr boshidan OECD davlatlariga ikki milliondan ortiq oliy ma’lumotli osiyoliklar, jumladan hindistonliklar migratsiya qilgan. Ushbu migratlar, ayniqsa, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) sohalarida yuqori malakali ishchi kuchi sifatida faoliyat yuritgan.

So‘nggi yillarda chet elda ta’lim olish professional ishchi kuchi migratsiyasining muhim kanallaridan biriga aylangan. Ko‘pchilik xorijda o‘qigan talabalar o‘qishni tugatgach, o‘sha mamlakatda ishlashni afzal ko‘rmoqda. Masalan, AQShdagi doktorantura bitiruvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovda, hindistonlik respondentlarning 90 foizi AQShda qolishni istaganini bildirgan. AQSh Milliy Fan Jamg‘armasi ma’lumotiga ko‘ra, 2015-yilda AQShda ilmiy daraja olgan chet elliklarning 80 foizini Osiyo davlatlari, xususan Hindiston fuqarolari tashkil etgan. Shu bilan birga, hindistonlik talabalar AQShdagi barcha xalqaro doktorantlarning 14 foizini tashkil etgan. Bu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro ta’lim, ayniqsa rivojlangan davlatlarda, kelajakdagi yuqori malakali ishchi kuchini shakllantirish vositasiga aylanganini ko‘rsatadi.

2017-yilda hindistonlik xorijiy talabalarning 44 foizi AQShda tahsil olgan bo‘lib, ular AQShdagi xalqaro talabalar sonining 16 foizini tashkil etgan. Ularning 80 foizdan ortig‘i STEM yo‘nalishlarida ta’lim olgan. Ta’limdan so‘ng ishlash istagi hindistonlik talabalar uchun xorijda o‘qishning asosiy sababi hisoblanadi. Ayniqsa, AQSh va Kanada kabi davlatlar o‘qishdan keyin ishlash imkoniyatini beruvchi immigratsion siyosati orqali talabalar uchun asosiy yo‘nalishga aylangan. Shuningdek, Hindistondagi nufuzli oliy ta’lim universitetlarga kirishning yuqori raqobatli ekani xorijiy ta’limni iqtisodiy jihatdan imkoniyatga ega oilalar farzandlari uchun muqobil yo‘lga aylangan.

Xalqaro statistika ma’lumotlariga ko‘ra, [1]1960-yillardan 2000-yilgacha xorijda o‘qiyotgan talabalar soni 0,3 milliondan 1,9 milliongacha oshgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib bu ko‘rsatkich 5,09 million kishiga yetgan. Talabalar oqimi asosan rivojlanayotgan davlatlardan rivojlangan mamlakatlar tomon yo‘nalgan bo‘lib,

[1]UNESCO Institute of Statistics. (2018). Global Education Digest: Com paring education statistics across the world.

xalqaro talabalrning 60 foizdan ortig‘i Shimoliy Amerika va G‘arbiy Yevropadagi to‘qqizta davlat hissasiga to‘g‘ri kelgan. Jumladan, AQSh bir millionga yaqin xalqaro talabani qabul qilgan eng yirik ta’lim markazi hisoblangan. Asosiy talabalar yuboruvchi davlatlar qatoriga Xitoy, Hindiston, Saudiya Arabistoni hamda Janubiy Koreya kirgan.

2018-yilda 305 mingdan ortiq hindistonlik talabalar xorijda oliy ta’lim olgan. Hindistonning global xalqaro talabalar bozoridagi ulushi 2000-yilda 2,3 foizdan 2015-yilda 6 foizgacha oshgan. Hindistonlik talabalar asosan AQSh, Avstraliya, Kanada, Buyuk Britaniya, BAA, Yangi Zelandiyada tahsil olganlar. Bugungi kunda yoshlarning xorijiy ta’limni tanlashda o‘qishdan so‘ng ishlashga ruxsat beruvchi vizalar, ishga joylashish imkoniyatlari muhim omil hisoblanadi. Masalan, Buyuk Britaniyada 2010-yillarda bitiruvdan keyingi ishlash huquqining bekor qilinishi hindistonlik talabalar oqimini qisqartirgan bo‘lsa, 2019-yilda ushbu imkoniyat qayta tiklangach, talabalar oqimi yana ortgan[1]. Umuman olgan, Xorijda olingan diplom mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirib, ayniqsa bitiruvchi o‘sha mamlakatda ishlashni davom ettirgan taqdirda iqtisodiy daromadning ko‘payishiga xizmat qilgan.

**Diasporaning Hindiston taraqqiyotiga hissasi.** Hindiston diasporasi mamlakat taraqqiyotiga iqtisodiy, texnologik, siyosiy hamda ta’lim sohalarida sezilarli hissa qo‘shib kelmoqda. Ushbu hissasining eng muhim ko‘rinishlaridan biri xorijdagi hindistonliklar tomonidan yuborilgan pul o‘tkazmalari (remittances) hisoblanadi. Jahon Banki ma’lumotiga ko‘ra[2], 2018-yilda global miqyosdagi pul o‘tkazmalari hajmi 689 milliard AQSh dollariga yetgan bo‘lib, shundan 79 milliard dollar Hindistonga to‘g‘ri kelgan. Garchi Hindiston global diaspora ulushining atigi 6 foizini tashkil etsa-da, u global remittancesning 11,5 foizini qabul qilgan. So‘nggi 30 yil ichida Hindistonga yo‘naltirilgan diaspora pul o‘tkazmalari hajmi o‘rtacha yiliga 2,9 milliard AQSh dollariga oshib borgan. Bu holat diaspora vakillarining yuqori daromadga ega hamda nisbatan malakali ishchi kuchi ekanligini ko‘rsatadi.

2017-yilda Hindistonga eng ko‘p pul o‘tkazmalari yuborilgan shtatlar qatoriga Kerala (40 foiz), Panjob (12,7 foiz) hamda Tamil Nadu (12,4 foiz) kirgan. Garchi Kerala shtati xorijga eng ko‘p migrant yuboruvchi hududlardan biri hisoblansa-da, keyingi yillarda migratsiya sur’ati pasaygan. Biroq pul o‘tkazmalari hajmining

[1] Varghese, N.V. (2019). Towards developing a globally competitive and inclusive higher education in India. International Higher Education 100.

[2] The World Bank. (2019). Migration and Remittances. Migration and Development Brief 31. Washington DC: The World Bank.

oshib borishi migrantlarning tobora yuqori malakali va yuqori daromadli sohalarda , faoliyat yuritgani bilan izohlanadi [1].

Texnologiya transferi ham diasporaning Hindiston taraqqiyotiga qo‘shayotgan muhim hissalaridan biri hisoblanadi. Xorijda muvaffaiyat qozongan ko‘plab IT mutaxassislari Hindistonga qaytib yoki transmilliy aloqalar orqali texnologik bilimlar va boshqaruv tajribasini olib kirgan, innovatsion startaplar tashkil etgan hamda xalqaro investitsiyalarni jalb qilishga ko‘maklashgan. Xususan, Bangalore, Gurgon va Haydarobod kabi texnologik markazlarning rivojlanishida diaspora aloqlari muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lgan.

Bundan tashqari, diaspora Hindistonning xalqaro imidjini oshirishda ham muhim rol o‘ynagan. Xususan, AQSh va boshqa rivojlangan davlatlardagi hind IT mutaxassislarining muvaffaqiyati Hindistonga nisbatan ijobiy munosabatning kuchayishiga xizmat qilgan. Natijada hind mutaxassislari xalqaro miqyosda yuqori malakali, intellektual salohiyatga ega va mehnatsevar kadrlar sifatida e’tirof etila boshlangan. Bu esa hindistonlik bitiruvchilarning xalqaro kompaniyalarda yuqori boshqaruv lavozimlariga tayinlanishiga zamin yaratgan. Shuningdek, diaspora vakillari ayrim mamlakatlarda yuqori siyosiy lavozimlarni ham egallab kelmoqda. Jumladan, ayrim diaspora vakillari bosh vazir, prezident yoki vitse-prezident darajasidagi lavozimlarda faoliyat yuritgan.

Diaspora Hindiston ichidagi siyosiy qarorlar, iqtisodiy siyosatlar va hatto ta’lim islohotlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular xorij tajribasini Hindistonga olib kirib, innovatsion yondashuvlarni targ‘ib qilmoqda. Jumladan, 1990-yillardagi bozor islohoti siyosatiga diaspora tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Bu ta’sir ta’lim sohasida ham sezilgan. Masalan, 2000-yildan boshlab Hindistonda xususiy universitetlar soni oshgan. Bugungi kunda Hindistondagi oliy ta’lim muassasalarining 78% xususiy sektorga tegishli bo‘lib, talabalar sonining uchdan ikki qismi xususiy oliy o‘quv yurtlarida tahsil olmoqda. Ko‘plab xususiy universitetlar xorijdagi ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilmoqda. Bu esa yana diaspora ta’sirining yaqqol ko‘rinishidir.

**Xulosa.** Hindiston diasporasi uzoq tarixiy shakllanish jarayoniga ega bo‘lib, uning rivojlanishi mustamlakachilik davridagi majburiy mehnat migratsiyasidan boshlab, mustaqillikdan keyingi ixtiyoriy va yuqori malakali migratsiyagacha bo‘lgan bosqichlarni qamrab oladi. Mustaqillikdan so‘ng hindistonliklarning xalqaro migratsiyasi asosan uch asosiy yo‘nalishda rivojlandi: birinchidan, kam va o‘rta malakali ishchilarning asosan Yaqin Sharq mamlakatlariga mehnat migratsiyasi; ikkinchidan, yuqori malakali mutaxassislarning rivojlangan davlatlarga, xususan AQShga ko‘chishi; uchinchidan esa xorijda oliy ta’lim olish

[1] Rajan, Irudaya S., and K.C. Zachariah. (2020). New Evidences from the Kerala Migration Survey, 2018. Economic and Political Weekly 55(4), 41-49.

va keyinchalik mehnat faoliyatini davom ettirish orqali shakllangan talabalar migratsiyasi.

Dastlab Hindiston hukumati diasporaga, ayniqsa yuqori malakali mutaxassislarning ketishiga “miya oqimi” (brain drain) sifatida salbiy yondashgan, chunki migrantlarning muhim qismi mamlakatning eng nufuzli oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari hisoblangan. Biroq vaqt o‘tishi bilan diaspora faoliyatining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy foydalari e’tirof etilib, unga “miya yutug‘i” (brain gain) hamda strategik milliy resurs sifatida qarala boshlandi. Bugungi kunda xorijdagi yuqori malakali hindistonlik mutaxassislar korporativ boshqaruv, ilm-fan, akademik faoliyat (hatto Nobel mukofoti sohiblari orasida ham) hamda siyosiy sohalarda muhim o‘rinlarni egallab, Hindistonning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Hindiston diaspora mamlakat taraqqiyotiga, avvalo,

- moliyaviy resurs (remittances),
- texnologiya va bilimlar transferi,
- sarmoya va tashqi aloqalarni rivojlantirish orqali sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Xusuan, Hindistonning 2018-yilda dunyoda eng katta miqdordagi pul o‘tkazmalarini qabul qilgan davlatga aylanishi diaspora vakillarining yuqori daromadli va malakali mehnat faoliyatida ishtirok etayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, diaspora vakillarining texnologik bilimlari va investitsiyalari mamlakatda innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishiga xizmat qilgan bo‘lib, Bengalor, Gurugram hamda Haydarobod kabi texnologik markazlarning rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘lgan. Shuningdek, hindistonlik mutaxassislarning xalqaro maydondagi muvaffaqiyati Hindistonning global imijini mustahkamlab, hind intellektual salohiyatiga nisbatan xalqaro ishonchni oshirgan hamda hindistonlik bitiruvchilarning yirik xalqaro kompaniyalarda rahbarlik lavozimlariga erishishiga zamin yaratgan. Umuman olganda, Hindiston diasporasi bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy, ilmiy va madaniy jihatdan ham mamlakatning global ta’siri va nufuzini kuchaytirayotgan muhim strategik resurs hamda transmilliy ko‘prik vazifasini bajarmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Choudaha, R. (2019). Study abroad trends of Indian students to USA, UK, Australia and Canada. Dr Education: Global higher education trends and insights, 29 January.
2. Khadria, B. (1999). The Migration of Knowledge Workers: Second-Generation Effects of India’s Brain Drain. New Delhi: Sage Publications.
3. United Nations. (2000). World Migration Report 2000. New York: UN.
4. Government of India. (2002). High Level Committee on Indian Diaspora. New Delhi: MHRD

5. United Nations Educational Scientific and Cultural Organization. (2018). Migration, Displacement and Education: building bridges, not walls, Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO.
6. United Nations. (2019). International migrant stock 2019. New York: Department of Economic and Social Affairs, Population Division, UN.
7. The World Bank. (2019). Migration and Remittances. Migration and Development Brief 31. Washington DC: The World Bank.